O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BOSHQA TARMOQLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

AUDITNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, TASHKILIY VA METODOLOGIK MASALALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

(2026-yil 11-sentyabr)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BOSHQA TARMOQLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

AUDITNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, TASHKILIY VA METODOLOGIK MASALALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

(2026-yil 11-sentyabr)

SAMARQAND – 2026

UO'K: 657.6(063)
Sh64
KBK: 65.053ya43

Auditni xalqaro standartlar asosida o'tkazishning nazariy, tashkiliy va metodologik masalalari */ Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2026-yil 11-sentyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2026. – 802 bet.*

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
U.A. Shirinov – PhD, Dotsent,
X.O'. Po'latov – PhD, dotsent v.b.

Nashr uchun mas'ullar:
K.B.Urazov – iqtisod fanlari doktori, professor,
M.Q.Pardaev – iqtisod fanlari doktori, professor,
S.N.Tashnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor.

Mazkur to'plam xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati auditini xalqaro standartlar asosida o'tkazishning nazariy, amaliy, tashkiliy va metodologik masalalariga bag'ishlangan. To'plamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini auditorlik tahlilidan o'tkazish, ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga auditorlik bahosini berish uslubiyati, buxgalteriya hisobi va hisobotini milliy hamda xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish, "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishga oid ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalari o'rin olgan. Auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish va o'tkazishning nazariy hamda metodologik asoslari, uning iqtisodiyot, marketing, menejment, bank ishi va moliya sohalarida qo'llanilish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. To'plamda keltirilgan ilmiy maqolalar va tadqiqot natijalari audit amaliyotini xalqaro talablarga muvofiq takomillashtirish, buxgalteriya hisobi va hisobotining sifatini oshirish, auditorlik faoliyatini rivojlantirish hamda zamonaviy iqtisodiyot uchun malakali va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavrlar, shuningdek korxonalar rahbarlari, buxgalterlar, auditorlarlar va boshqa mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Maqolalarda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-5433-9-5

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.

I SHO‘BA. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATI AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, AMALIY HAMDA METODOLOGIK MUAMMOLARI

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

E.N.Xadjayev
SamISI, professor

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni mulkchilik munosabatlari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy nazorat va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini baholash tizimini tubdan yangilashni taqozo etdi. Ayniqsa, davlat nazoratidan tashqari, mulkdorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga moliyaviy axborotning ishonchliligini mustaqil baholab beradigan professional institutga ehtiyoj yuzaga keldi. Ana shunday sharoitda auditorlik faoliyati O‘zbekiston iqtisodiyotining mutlaqo yangi institutlaridan biri sifatida shakllana boshladi. Bu jarayonning eng muhim tarixiy bosqichi 1992-yil 9-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining 734-XII-sonli “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi bo‘ldi. Qonunni amalga kiritish to‘g‘risidagi 735-XII-sonli qarorga ko‘ra, u e’lon qilingan kundan boshlab amalga kiritilgan; qonun 1992-yil 30-dekabrda “Xalq so‘zi” gazetasida e’lon qilingan.

Mazkur qonunning qabul qilinishi O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining huquqiy poydevorini yaratish bilan bir qatorda, auditni mustaqil professional faoliyat turi sifatida e’tirof etish uchun ham muhim ahamiyat kasb etdi. Tarixiy materiallarga ko‘ra, qonun loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida deputatlarga Oliy Kengashning iqtisodiy islohotlar, budjet-soliq va mahalliy boshqaruv masalalari bilan shug‘ullanuvchi qo‘mitasi raisi, Samarqand kooperativ instituti rektori, professor Erkin Normatovich Xodjayev taqdim etgan. Shu jihatdan, mamlakatimizda auditning dastlabki huquqiy va ilmiy asoslarini yaratish jarayonida Samarqand iqtisodiy ilmiy maktabining ishtiroki alohida tarixiy ahamiyatga ega. Qonunni amalga kiritish to‘g‘risidagi qarorda Vazirlar Mahkamasiga qonun ijrosini ta’minlaydigan me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, Auditorlar palatasi to‘g‘risidagi muvaqqat nizomni tayyorlash hamda auditorlik xulosasi taqdim etishi lozim bo‘lgan korxona va tashkilotlar doirasini belgilash vazifalari yuklatilgani ham audit institutini tashkiliy jihatdan shakllantirishga kompleks yondashilganini ko‘rsatadi.

Auditorlik faoliyatining dastlabki rivojlanish davrida xalqaro va ilmiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi ham katta ahamiyat kasb etdi. Bizgacha yetib kelgan tarixiy materiallarda 1993-yil mart oyida Samarqandda audit masalalariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilgani va unda audit nazariyasi hamda amaliyotining dolzarb masalalari muhokama qilingani qayd etiladi. Mazkur anjuman bilan bog‘liq qo‘lyozma manbalarda professor A.D. Sheremet, Yu.M. Itkin, MDU professori R. Geymer, Itkin, Yuriy Markovich iqtisod fanlari doktori,

professor, E.A. Vadimov, shuningdek O‘zbekiston vakillari professor E.N. Xadjayev ishtirok etgani ko‘rsatilgan. Ushbu tarixiy ma’lumotlar qo‘shimcha arxiv manbalari bilan aniqlashtirilishi lozim bo‘lsa-da, ular mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O‘zbekistonda auditni rivojlantirish xalqaro tajribani o‘rganish, xorijiy olimlar bilan ilmiy aloqalarni shakllantirish va yangi iqtisodiy sharoitlarga mos auditorlik metodologiyasini ishlab chiqish bilan uzviy bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.



1993- yil Samarqand koperativ instituti.

Keyingi bosqichda auditorlik faoliyatining me’yoriy-huquqiy bazasi bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq ravishda izchil takomillashtirildi. Xususan, 2000-yil 26-mayda “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilinib, auditorlik faoliyatini tashkil etish, auditorlarning huquq va majburiyatlari hamda professional faoliyatni tartibga solish mexanizmlari yanada rivojlantirildi. 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3946-son “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori esa sohani rivojlantirishning navbatdagi muhim bosqichini boshlab berdi. Bu davrga kelib audit faqat moliyaviy hisobotni tekshirish vositasi sifatida emas, balki korporativ boshqaruv, investorlar ishonchi, moliyaviy shaffoflik va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisobdorligini ta’minlovchi professional institut sifatida rivojlana boshladi.

O‘zbekistonda auditorlik faoliyati rivojlanishining zamonaviy bosqichi xalqaro standartlar va professional malaka talablariga integratsiyalashuv bilan tavsiflanadi. 2021-yil 25-fevralda O‘RQ-677-son yangi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun 1992-yildagi dastlabki qonun va 2000-yildagi yangi tahrir bilan bog‘liq avvalgi hujjatlarning o‘z kuchini yo‘qotishini belgilab, auditorlik faoliyatini zamonaviy talablar asosida tartibga solishning yangi huquqiy bosqichini shakllantirdi. Shuningdek, 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5210-son qaror bilan auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini

takomillashtirish choralari belgilandi, 2022-yil 11-apreldagi 171-son Vazirlar Mahkamasi qarori bilan esa O‘zbekiston hududida qo‘llash uchun Auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi mustahkamlandi. Shu tariqa milliy audit tizimi xalqaro audit metodologiyasi, auditorlarning professional kompetensiyasi va xalqaro tan olinadigan malaka talablariga tobora yaqinlashib bormoqda.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining shakllanishini uchta o‘zaro bog‘liq tarixiy bosqichda ko‘rish mumkin: birinchi bosqich — 1992-yildan boshlab auditning huquqiy va ilmiy asoslarini yaratish; ikkinchi bosqich — 2000-yillardan auditorlik faoliyatining professional va institutsional mexanizmlarini rivojlantirish; uchinchi bosqich esa — 2018-yildan hozirgi davrgacha milliy audit tizimini xalqaro standartlar va professional sertifikatlashtirish tizimi bilan uyg‘unlashtirish. Bugungi nuqtayi nazardan, 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan dastlabki qonun O‘zbekistonda mustaqil audit institutining huquqiy boshlanish nuqtasi sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Keyingi o‘ttiz yildan ortiq vaqt mobaynida audit oddiy nazorat shaklidan moliyaviy axborotning ishonchliligini ta’minlash, biznes shaffofligini oshirish va iqtisodiy qarorlar uchun ishonchli axborot muhitini yaratishga xizmat qiluvchi professional institut darajasiga ko‘tarildi. Shu sababli O‘zbekistonda auditorlik faoliyati tarixini o‘rganish nafaqat sohaning bosib o‘tgan yo‘lini baholash, balki uning kelgusidagi rivojlanish strategiyasini belgilash uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

АУДИТНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ЎТКАЗИШНИНГ НАЗАРИЙ, ТАШКИЛИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ

К.Б. Уразов
и.ф.д. профессор

Аннотация. Мақолада аудитни халқаро аудит стандартлари асосида ташкил этиш ва ўтказишнинг назарий, ташкилий ҳамда методологик жиҳатлари тадқиқ этилган. Аудитнинг халқаро стандартлар асосидаги замонавий концепцияси, аудиторлик риски, муҳимлик, профессионал скептицизм, етарли ва тегишли аудиторлик далиллари тушунчаларининг аудит методологиясидаги ўрни ёритилган. Аудиторлик текширувини қабул қилишдан бошлаб аудиторлик фикрини шакллантиришгача бўлган жараён босқичлари тизимлаштирилган. Аудитни рискка асосланган ёндашув асосида режалаштириш, ички назорат тизимини ўрганиш, муҳим бузиб кўрсатиш рискларини аниқлаш ва баҳолаш, уларга жавобан аудиторлик тартиб-таомилларини ишлаб чиқиш масалалари очиб берилган. Аудитни халқаро стандартлар талаблари асосида ўтказишда мавжуд ташкилий-услубий муаммолар аниқланиб, уларни бартараф этиш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: аудит, халқаро аудит стандартлари, аудиторлик риски, муҳимлик, профессионал скептицизм, аудиторлик далиллари, ички назорат, аудитни режалаштириш, рискка асосланган аудит, аудиторлик хулосаси.

Кириш. Ўзбекистонда дунёнинг бошыа мамлакатларидаги каби аудиторлик фаолиятини халқаро талабларга мувофиқлаштириш борасида изчил ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 25 февралдаги ЎРҚ–677-сон «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонунида аудитнинг халқаро стандартлари аудиторлик фаолиятининг асосий стандартлари сифатида эътироф этилган [1]. Қонуннинг 9-моддасига мувофиқ, аудиторлик фаолияти Ўзбекистон Республикасида белгиланган тартибда тан олинган халқаро аудит стандартлари асосида амалга оширилади. Мазкур ҳолат миллий аудиторлик амалиёти олдига фақат халқаро стандартларни формал равишда қўллаш эмас, балки уларнинг концептуал ғояларини аудиторлик ташкилотларининг ички методологиясига тўлиқ интеграция қилиш вазифасини қўяди. Чунки халқаро аудит стандартлари аудитнинг алоҳида тартиб-таомилларини санаб берувчи йўриқнома эмас, балки профессионал мулоҳаза, рискка асосланган ёндашув ва етарли аудиторлик далилларига таянадиган яхлит методологик тизим ҳисобланади. Шу жиҳатдан аудитни халқаро стандартлар асосида ўтказишнинг назарий, ташкилий ва методологик масалаларини комплекс тадқиқ этиш долзарб аҳамият касб этади.

Мавзунинг ўрганилганлик даражаси. Ўзбекистонда аудитни ташкил этиш, унинг назарий ва услубий асосларини такомиллаштириш ҳамда халқаро аудит стандартларини миллий амалиётга жорий этиш масалалари қатор иқтисодчи олимлар томонидан тадқиқ этилган.Жумладан, Р.Д. Дўсмуратовнинг илмий ишларида аудит ва аудиторлик фаолиятининг

назарий асослари, аудиторлик текширувларини ташкил этиш ва ўтказиш услубиёти, аудиторлик далилларини тўплаш, текширув натижаларини умумлаштириш ҳамда аудиторлик ҳисоботи ва хулосасини шакллантириш масалалари комплекс тадқиқ этилган. Муаллифнинг «Аудит асослари» дарслигида аудитнинг назарий жиҳатлари билан бир қаторда хўжалик юритувчи субъектлар молия-хўжалик операцияларини аудиторлик текширувидан ўтказишнинг услубий асослари ёритилган [5].

А.З. Авлоқулов тадқиқотларида аудитнинг халқаро тизими, халқаро аудит стандартларининг мазмуни ва уларни аудиторлик амалиётида қўллаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган. А.З. Авлоқулов ва И. Шеримбетовнинг «Халқаро аудит» ўқув қўлланмасида халқаро аудитнинг меъёрий-услубий асослари, аудиторлик текширувини режалаштириш, аудиторлик риски ва далиллари ҳамда аудит натижаларини расмийлаштириш масалалари тизимлаштирилган. Шунингдек, олимнинг молиявий натижалар ҳисоби ва аудити методологиясига бағишланган тадқиқотларида аудиторлик текширувларининг услубий таъминотини такомиллаштириш бўйича илмий ёндашувлар ишлаб чиқилган [6].

Н.Ш. Хажимуратов молиявий ҳисобот аудитининг назарий, методологик ва амалий жиҳатларини махсус тадқиқ этган. Унинг ишларида молиявий ҳисобот аудитини режалаштириш, муҳимлик даражаси ва аудиторлик рискларини аниқлаш, ички назорат тизими самарадорлигини баҳолаш, таҳлилий амалларни қўллаш, фирибгарлик рискларини аниқлаш ва аудиторлик фикрини шакллантириш методологиясини такомиллаштириш масалалари асосланган [7]. Олимнинг тадқиқотлари халқаро аудит стандартлари асосида молиявий ҳисобот аудитини ўтказишнинг методологик механизмини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга.

К.Б. Ахмеджанов хўжалик юритувчи субъектларда ички аудитни ташкил этиш ва ўтказиш методологияси, аудит жараёнини режалаштириш ва моделлаштириш, аудит сифати ҳамда самарадорлигини ошириш масалаларини тадқиқ этган. Олим томонидан хорижий ички аудит тажрибасини Ўзбекистон амалиётига татбиқ этиш, ички аудит текширувини тайёрлаш, режалаштириш ва ўтказиш технологиясини такомиллаштириш юзасидан илмий-амалий таклифлар ишлаб чиқилган [8]. Ушбу тадқиқотлар аудитнинг ташкилий жиҳатларини халқаро тажриба билан уйғунлаштириш нуқтаи назаридан аҳамиятлидир.

А.К. Ибрагимовнинг тадқиқотларида аудитнинг халқаро стандартларини миллий амалиётда қўллаш, хусусан, тижорат банкларининг молиявий барқарорлиги ва ликвидлигини халқаро аудит стандартлари асосида аудиторлик баҳолаш масалалари ўрганилган. Олим томонидан халқаро стандартларда белгиланган рискка асосланган ёндашув ва аудиторлик тартиб-таомилларини муайян аудит объектларига мослаштиришга қаратилган услубий ёндашувлар ишлаб чиқилган [9].

Шу билан бирга, юқоридаги тадқиқотларда аудитнинг назарий, методологик ва алоҳида ташкилий жиҳатлари кенг ёритилган бўлса-да, аудитни халқаро стандартлар асосида ўтказишнинг назарий, ташкилий ва

методологик жиҳатларини ўзаро боғлиқ ягона тизим сифатида тадқиқ этиш, рискларни баҳолашдан тортиб аудиторлик фикрини шакллантиришгача бўлган жараённи замонавий ХАС талаблари асосида комплекс тизимлаштириш масалалари қўшимча тадқиқотларни талаб этади.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот жараёнида тизимли ёндашув, мантиқий ва қиёсий таҳлил, гуруҳлаш, умумлаштириш, индукция ва дедукция усулларидан фойдаланилди. Аудит жараёни халқаро аудит стандартларида белгиланган концептуал тамойиллар ва аудиторлик текширувининг амалий босқичлари ўртасидаги боғлиқлик нуқтаи назаридан тадқиқ этилди.

Таҳлил ва натижалар. Тадқиқотда қуйидаги масалалар таҳлил қилинди ва уларга оид фикрлар шакллантирилди.

1. Аудитни халқаро стандартлар асосида ўтказишнинг назарий масалалари

Аудитни халқаро стандартлар асосида ўтказишда биринчи навбатда унинг назарий асосларини тўғри тушуниш муҳим аҳамиятга эга. Амалиётда аудитнинг мақсади, оқилона ишонч, муҳимлик, аудиторлик риски, профессионал скептицизм ва аудиторлик далиллари ўртасидаги ўзаро боғлиқликни тўғри талқин қилиш билан боғлиқ қатор назарий масалалар мавжуд. Айнан ушбу назарий масалалар аудитни халқаро стандартлар асосида ўтказишнинг концептуал пойдеворини ташкил этади.

НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАР
Аудитни халқаро стандартлар асосида ўтказишнинг концептуал пойдевори

Аудитнинг мақсади • Молиявий ҳисобот бўйича оқилона ишонч ҳосил қилиш. • Муҳим бузиб кўрсатишлар мавжуд эмаслиги ҳақида асосланган фикр билдириш.	**Асосий назарий категориялар** • муҳимлик ва аудиторлик риски; • профессионал скептицизм ва профессионал мулоҳаза; • етарли ва тегишли аудиторлик далиллари.	**Оқилона ишонч** • Аудит мутлақ кафолат эмас. • Танлаб текшириш, баҳолашлар ва далилларнинг табиати аудитнинг ажралмас чекловларини белгилайди.
Рискка асосланган ёндашув • Эътибор юқори рискли соҳаларга қаратилади. • Риск ошганда процедуралар чуқурлиги ва далиллар ишончлилиги оширилади.	**Муҳимлик билан боғлиқлик** • Муҳимлик чегараси паст бўлса, кичикроқ хатолар ҳам аҳамиятли ҳисобланади. • Ижро муҳимлиги риск даражасига мос равишда эҳтиёткорлик билан белгиланади.	**Назарий натижа** • ХАС механик қоидалар тўплами эмас. • У профессионал мулоҳазага таянган принциплар ва рискка асосланган ягона концептуал тизимдир.

ИЛМИЙ ТЕЗИС: аудит сифати текширилган операциялар сони билан эмас, муҳим рискларга нисбатан олинган далилларнинг етарлилиги ва тегишлилиги билан баҳоланиши лозим.

Асосий стандартлар: ХАС 200, ХАС 240, ХАС 320, ХАС 500.

Амалиётда кўп ҳолларда аудит молиявий ҳисоботдаги барча хатоларни аниқлаш ёки корхона фаолиятига тўлиқ баҳо бериш воситаси сифатида қабул қилинади. Бу ёндашув халқаро аудит стандартларининг мазмунига тўлиқ мос келмайди. ХАСларга кўра аудитнинг асосий мақсади молиявий ҳисоботда фирибгарлик ёки хатолар натижасида муҳим бузиб кўрсатишлар мавжуд эмаслиги хусусида оқилона ишонч ҳосил қилиш ва шу асосда аудиторлик фикрини билдиришдан иборат. Шу сабабли аудитор барча операцияларни тўлиқ текшириш эмас, балки муҳим бузиб кўрсатишлар мавжуд бўлиши мумкин бўлган соҳаларга эътибор қаратиши лозим.

Аудитда оқилона ишонч тушунчасини тўғри талқин қилиш ва ишлатиш муҳим роль ўйнайди. Амалиётда баъзан аудиторлик хулосаси молиявий ҳисоботнинг мутлақ тўғрилигини кафолатлайди, деган нотўғри қараш учрайди. ХАСлар аудит натижасида мутлақ эмас, балки **оқилона ишонч** шакллантирилишини белгилайди. Молиявий ҳисобот реаллигига оқилона ишонч - аудиторнинг етарли ва тегишли аудиторлик далиллари асосида молиявий ҳисоботда муҳим бузиб кўрсатишлар мавжуд эмаслиги тўғрисида юқори даражада, аммо мутлақ бўлмаган ишонч ҳосил қилишидир. Яъни унда келтирилган маълумотларнинг энг муҳим жиҳатлари бўйича тўғрилиги, қонунга зид эмаслигидир. Оқилона ишонч аудитнинг танлаб текшириш усулларига, бухгалтерия баҳоларининг субъективлигига, далилларнинг нисбий ишончлилигига ва инсон омилига боғлиқ. Шунинг учун аудиторнинг вазифаси мутлақ кафолат бериш эмас, балки аудиторлик рискини мақбул паст даражага туширишдир.

Муҳимликни фақат маълум бир фоизга асосланиб белгилаш унинг мазмунини тор талқин қилишга олиб келади. Муҳимликни белгилашда миқдорий ва сифат омилларини биргаликда ҳисобга олиш лозим. Масалан, 50 млн сўмлик хато йирик корхона учун миқдор жиҳатидан муҳим бўлмаслиги мумкин, лекин агар у қонун бузилиши ёки раҳбарият томонидан фирибгарлик ҳолатини ифодаласа, сифат жиҳатидан муҳим ҳисобланади. Шунинг учун муҳимлик профессионал мулоҳаза асосида белгиланиши зарур.

Амалиётда муҳимлик ва риск алоҳида тушунчалар сифатида қаралиб, улар ўртасидаги боғлиқлик етарлича ҳисобга олинмасдан қолмоқда. ХАСга кўра муҳимлик даражаси пасайган сари аудитор кичикроқ хатоларни ҳам аниқлаши зарур бўлади, бу эса текширув ҳажмини оширади. Риск юқори бўлган ҳолларда эса ижро муҳимлиги пастроқ белгиланиши ва қўшимча аудиторлик процедуралари амалга оширилиши лозим. Айнан шу тариқа муҳимлик, риск ва аудиторлик процедуралари ҳажми ўзаро боғланган ягона тизим сифатида қаралишига эришиш мумкин.

Энг муҳим масала аудиторларда профессионал спектицизмни нафақат шакллантириш, балки таъминлаш ҳисобланади. Ҳозирги пайтда ушбу сифатни етишмаслиги аудиторларда энг кўп учрайдиган ҳолатлардан биридир. **Профессионал скептицизм** - бу аудиторнинг текширув жараёнида олинган маълумот ва далилларни шунчаки қабул қилмасдан, уларга **танқидий ва шубҳаланувчан ёндашиши**, зиддиятли ёки ишончсиз маълумотларга алоҳида эътибор қаратиши ҳамда аудиторлик далилларини

холис баҳолашидир. ХАС 200 мазмунига кўра, профессионал скептицизм аудиторнинг **шубҳа билан ёндашувчи фикрлаш тарзи**, хатолар ёки фирибгарлик натижасида муҳим бузиб кўрсатишлар мавжуд бўлиши мумкинлигини кўрсатувчи ҳолатларга нисбатан ҳушёрлик ва аудиторлик далилларини танқидий баҳолашни англатади.Профессионал скептицизм, айниқса, қуйидаги ҳолатларда муҳим: раҳбарият тақдим этган маълумотлар ўзаро мос келмаганда; ҳужжатларда ғайриоддий операциялар учраганда; ҳисоб-китоблар сунъий равишда ўзгартирилган бўлиши эҳтимоли мавжуд бўлганда; фирибгарлик аломатлари сезилганда; ташқи ва ички манбалар маълумотлари бир-бирига зид келганда; бухгалтерия баҳолари раҳбариятнинг субъектив фикрига кучли боғлиқ бўлганда.

Энг муҳим жиҳатлардан бири – бу аудиторлик далилларининг етарлилиги ва тегишлилигини баҳолаш масаласидир. Англаш жоизки, кўп миқдордаги далил доимо ҳам юқори сифатли аудитни англатмайди. Аудитор йиғитлган далилларнинг ҳам миқдори, ҳам сифатига баҳо бериши керак. Ташқи мустақил манбадан олинган далил, одатда, корхонанинг ўзи тақдим этган маълумотга нисбатан ишончлироқ ҳисобланади. Шунинг учун аудиторлик фикри етарли ва тегишли далиллар мажмуасига асосланиши керак.

Ўта муҳим назарий масала бўлиб аудитда муҳимлик ва аудиторлик риски атамаларини тўғри тушуниш ва амалиётда қўллаш ҳисобланади. Муҳимлик - хатонинг фойдаланувчи қарорига таъсир қилиш даражаси**,** аудиторлик риски эса - муҳим хато мавжуд бўлган ҳолда аудиторнинг нотўғри фикр билдириш эҳтимоли**.** Ушбу иккита тушунчалар бир-бирига тескари боғлиқ. Яъни аудитор белгилаган муҳимлик даражаси қанчалик паст бўлса, муҳим бузиб кўрсатишларни ўтказиб юбориш эҳтимоли шунчалик ортади ва аудитор кўпроқ ҳамда ишончлироқ далил тўплаши керак бўлади. Муҳимлик чегараси паст бўлса, кичикроқ хатолар ҳам аҳамиятли ҳисобланади. Ижро муҳимлиги риск даражасига мос равишда эҳтиёткорлик билан белгиланади.

Шундай қилиб, халқаро стандартлар асосида ўтказиладиган аудит - бу “барча операцияларни текшириш” тамойилидан «рискларни аниқлаш ва уларга мутаносиб аудиторлик тартиб-таомилларини қўллаш» тамойилига асосланганлиги билан анъанавий текширув усулларидан фарқ қилади.

2.Аудитни халқаро стандартлар асосида ўтказишнинг ташкилий масалалари

Халқаро стандартларга асосланган аудитнинг самарадорлиги унинг тўғри ташкил этилишига бевосита боғлиқ. Аудиторлик текширувини ташкил қилиш фақат текширув гуруҳини шакллантириш билан чекланмайди. У мижозни қабул қилиш, мустақилликни баҳолаш, ресурсларни тақсимлаш, аудит стратегияси ва режасини ишлаб чиқиш, топшириқ сифати устидан назорат ҳамда ишчи ҳужжатларни расмийлаштиришни қамраб олади.

ТАШКИЛИЙ МАСАЛАЛАР Аудиторлик топшириғини қабул қилишдан сифатни бошқаришгача бўлган ташкилий механизм		
1. **Топшириқни қабул қилиш** Мижознинг ишчанлик обрўси ва раҳбарият ҳалоллигини баҳолаш. Топшириқ шартларини келишиш ва ресурслар етарлилигини текшириш.	2. **Мустақиллик ва этика** Манфаатлар тўқнашуви ва мустақилликка таҳдидларни аниқлаш. Ҳимоя чораларини белгилаш ва ҳужжатлаш-тириш.	3. **Аудит гуруҳи** Компетенция ва тажрибага мувофиқ таркибни шакллантириш. Вазифалар, жавобгарлик ва назорат даражаларини аниқ тақсимлаш.
4. **Режалаштириш** Умумий стратегия ва аудит режасини ишлаб чиқиш. Вақт, инсон ресурси ва экспертлар иштирокини рискларга мос тақсимлаш.	5. **Сифатни бошқариш** Топшириқ раҳбарининг масъулияти ва гуруҳ ишини шарҳлаш. Сифат рискларини олдиндан аниқлаш ва уларга жавоб чораларини белгилаш.	6. **Ҳужжатлаштириш** Риск → процедура → далил → хулоса боғлиқлигини ишчи ҳужжатларда кўрсатиш. Муҳим профессионал мулоҳазаларнинг асосларини қайд этиш.
ТАКЛИФ: аудиторлик ташкилотида мижозни қабул қилиш анкетаси, мустақиллик декларацияси, рисклар матрицаси, аудит режаси ва якуний шарҳ варағидан иборат ягона ички ҳужжатлар пакети жорий этилиши мақсадга мувофиқ.		

Асосий стандартлар: ХАС 210, ХАС 220, ХАС 230, ХАС 300; ISQM 1.

Аудитни ташкил қилишнинг биринчи муҳим шарти бўлиб **аудиторнинг мустақиллиги ҳисобланади**. Агар аудитор ёки аудиторлик ташкилоти текширилаётган субъект билан молиявий, мулкий, бошқарув ёки бошқа манфаатлар орқали боғланган бўлса, аудиторлик фикрининг холислигига таҳдид юзага келади. Шу сабабли ҳар бир аудиторлик топшириғини қабул қилишдан олдин мустақилликка таҳдидлар аниқланиши ва баҳоланиши лозим.

Иккинчи муҳим йўналиш - бу **топшириқни қабул қилиш ёки давом эттириш бўйича қарор қабул қилиш**. Аудитор мижознинг ишчанлик обрўси, раҳбариятнинг ҳалоллиги, топшириқни бажариш учун зарур мутахассис ва вақт ресурслари мавжудлиги, манфаатлар тўқнашуви эҳтимоли каби омилларни олдиндан баҳолаши мақсадга мувофиқ.

Учинчи йўналиш - **аудиторлик гуруҳини шакллантириш ва вазифаларни тақсимлаш**. Аудит объектининг хусусиятидан келиб чиқиб гуруҳ таркибида бухгалтерия ҳисоби, солиқ, ахборот технологиялари, баҳолаш ёки бошқа соҳалар бўйича мутахассислар иштирок этиши мумкин.

ХАС 220 «Молиявий ҳисобот аудитининг сифатини бошқариш» талабларидан келиб чиқиб, топшириқ раҳбари аудит сифати учун умумий жавобгар бўлиб, аудиторлик гуруҳи ишига раҳбарлик қилиш, назорат ва шарҳлашни таъминлаши зарур.

Аудиторлик ташкилоти даражасида эса сифатни бошқариш тизимининг мавжудлиги муҳим аҳамиятга эга. Замонавий ёндашув сифатни текширув

тугаганидан сўнг назорат қилиш эмас, балки сифат билан боғлиқ рискларни олдиндан аниқлаш ва бошқаришни назарда тутади.

Шу нуқтаи назардан аудиторлик ташкилотларида қуйидаги ички ҳужжатларни шакллантириш мақсадга мувофиқ:

*мижозни қабул қилиш ва давом эттириш тартиби;

*мустақилликни баҳолаш анкетаси;

*аудитнинг умумий стратегияси шакли;

*аудит режаси ва дастури;

*рискларни аниқлаш ва баҳолаш матрицаси;

*муҳимлик даражасини ҳисоблаш ишчи жадвали;

*ички назорат тизимини ўрганиш саволномаси;

*аудиторлик далилларини баҳолаш шакли;

*аниқланган бузилишлар реестри;

*аудиторлик топшириғини якуний шарҳлаш варағи.

Бундай ички стандартлаштириш ХАС талабларининг ҳар бир аудиторлик топшириғида бир хил ёндашув асосида бажарилишига хизмат қилади.

Халқаро аудит стандартлари асосида аудиторлик текширувини ўтказишни ўзаро боғлиқ еттита босқичли методологик занжир кўринишда ифодалаш мумкин:

→ Мижозни қабул қилиш;

→Режалаштириш;

→ Субъект ва муҳитни ўрганиш;

→ Рискларни аниқлаш ва баҳолаш;

→ Рискларга жавоб тартиб-таомиллари;

→ Аудиторлик далиллари;

→ Натижаларни умумлаштириш

→ Аудиторлик фикрини тақдим этиш.

Тадқиқотларимизда аудитни ХАСлар асосида ўтказишда ҳозирги пайтда ўз ечимини тўлиғича топмаган қатор ташкилий муаммолар борлиги аниқланди. Уларнинг асосийлари сирасига қуйидагиларни киритиш мумкин.

Биринчидан, айрим ҳолларда стандарт талабларини моҳиятан бажариш ўрнига тайёр шаклларни формал тўлдиришга устуворлик берилмоқда. Бу эса рискка асосланган аудит мазмунига зиддир.

Иккинчидан, субъектнинг бизнес жараёнлари ва ички назорат тизимини чуқур ўрганмасдан аудит дастурини шакллантириш рискларни нотўғри баҳолашга олиб келмоқда.

Учинчидан, муҳимлик даражасини белгилашда ягона механик фоизни қўллаш амалиёти профессионал мулоҳазанинг аҳамиятини камайтиради. Муҳимлик миқдорий кўрсаткичлар билан бир қаторда сифат омилларини ҳам ҳисобга олиши зарур ҳисобланади.

Тўртинчидан, ахборот технологиялари ривожланган шароитда аудиторлик далилларининг катта қисми электрон шаклда шаклланмоқда. Шу боис аудитор маълумотлар базасининг ишончлилиги, ахборот тизимидаги

автоматлаштирилган назоратлар ва электрон маълумотларнинг яхлитлигини баҳолаш кўникмасига эга бўлиши талаб этилмоқда.

Бешинчидан, профессионал скептицизмни ҳужжатлаштириш муаммоси мавжуд. Аудиторнинг «шубҳа қилганлиги»нинг ўзи етарли эмас; бу шубҳа қандай қўшимча аудиторлик тартиб-таомилини келтириб чиқаргани ишчи ҳужжатларда акс эттирилиши керак.

3.Аудитни халқаро стандартлар асосида ўтказишнинг методологик масалалари

3	МЕТОДОЛОГИК МАСАЛАЛАР ХАС талабларини аудиторлик процедураларига трансформация қилиш алгоритми				
1 Субъектни ўрганиш	**2 Рискларни аниқлаш**	**3 Рискни баҳолаш**	**4 Жавоб процедуралари**	**5 Далилларни баҳолаш**	**6 Фикр ва хулоса**
Рискларни аниқлаш ва баҳолаш Бизнес модели, ташқи муҳит, ахборот тизими ва ички назоратни ўрганиш. Молиявий ҳисобот ва тасдиқлар даражасида муҳим бузиб кўрсатиш рискларини баҳолаш.			**Баҳоланган рискларга жавоб** Назорат тестлари ва моҳият бўйича процедураларни риск даражасига мос танлаш. Процедуранинг табиати, вақти ва ҳажмини профессионал мулоҳаза асосида белгилаш.		
Аудиторлик далиллари Далилларнинг етарлилиги — миқдор; тегишлилиги — сифат ва ишончлилик. Зиддиятли ахборот мавжуд бўлса, қўшимча процедуралар ўтказиш.			**Натижани умумлаштириш** Аниқланган бузилишларни муҳимлик билан солиштириш ва тузатилмаган хатолар таъсирини баҳолаш. Олинган далилларга мос аудиторлик фикрини шакллантириш.		
МЕТОДОЛОГИК АЛГОРИТМ: Риск → Тасдиқ → Аудиторлик процедураси → Далил → Баҳолаш → Аудиторлик фикри. Ушбу занжирнинг ҳар бир бўғини ишчи ҳужжатларда кузатилиши керак.					

Асосий стандартлар: ХАС 315 (қайта кўриб чиқилган 2019), ХАС 330, ХАС 500, ХАС 450, ХАС 700. 2026 йилда ХАС 330/500/520 бўйича қайта кўриб чиқиш лойиҳалари муҳокамада.

Фикримизча, республикамиз аудиторлик амалиётида ХАСни қўллаш самарадорлигини ошириш учун қуйидаги йўналишларда ишларни кучайтириш мақсадга мувофиқ.

Биринчидан, ҳар бир аудиторлик ташкилотида ХАС талаблари билан ўзаро боғланган ички аудит методологияси ишлаб чиқилиши лозим. У стандарт матнини такрорламасдан, талабларни конкрет ишчи ҳужжатлар ва амалий тартиб-таомилларга трансформация қилиши керак.

Иккинчидан, аудитни режалаштиришда «риск – тасдиқ – аудиторлик тартиб-таомили – далил – хулоса» ўртасидаги узвий боғлиқликни таъминлайдиган матрицадан фойдаланиш таклиф этилади. Бу аудиторга ҳар бир аниқланган риск қайси аудиторлик процедураси билан текширилганини ва қандай далил билан ёпилганини назорат қилиш имконини беради.

Учинчидан, аудиторлик ташкилотларида рақамли технологиялардан фойдаланишни кенгайтириш зарур. Хусусан, танлаб текширишдан ташқари бутун маълумотлар массивини таҳлил қилиш имконини берувчи маълумотлар таҳлили воситаларидан фойдаланиш аудиторлик рискини пасайтириш ва текширув самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Тўртинчидан, аудиторларни тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимида стандартлар мазмунини ёдлашдан кўра вазиятли профессионал мулоҳаза**ни** шакллантиришга кўпроқ эътибор қаратиш лозим. Чунки ХАС барча вазиятлар учун тайёр ечим бермайди ва кўп ҳолларда аудитордан профессионал қарор қабул қилишни талаб этади.

Бешинчидан, аудит сифатини баҳолашда фақат ишчи ҳужжатларнинг мавжудлигини эмас, балки улар ўртасидаги методологик боғлиқликни ҳам баҳолаш лозим. Масалан, юқори риск аниқланган бўлса, ишчи ҳужжатларда унга жавобан кучайтирилган аудиторлик тартиб-таомиллари ва етарли далиллар мавжуд бўлиши шарт.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 25 февралдаги ЎРҚ–677-сон «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 11 апрелдаги 171-сон «Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун аудитнинг халқаро стандартларини тан олиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ–4611-сон «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори.

4.ХАС 200, ХАС 210, ХАС 220, ХАС 230, ХАС 240, ХАС 300, ХАС 315, ХАС 320, ХАС 500, ISQM 1.

5. Дўсмуратов Р.Д. Аудит асослари. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – 613 б.

6. Авлоқулов А.З., Шеримбетов И. Халқаро аудит. Ўқув қўлланма. – 2017.

7. Хажимуратов Н.Ш. Молиявий ҳисобот аудити: назария, методология ва амалиёт. – Тошкент: Impress media, 2021. – 236 б.

8. Ахмеджанов К.Б. Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит методологиясини такомиллаштириш. Монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2016. – 208 б.

9. Ибрагимов А.К. Аудитнинг халқаро стандартлари асосида тижорат банклари молиявий барқарорлиги ва ликвидлигини баҳолашни такомиллаштириш. Монография. – Тошкент: Молия, 2015. – 260 б

SEGMENTLAR BO‘YICHA BUXGALTERIYA VA BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI

U.A.Shirinov
SamISI, i.f.f.d., dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada segmentlar bo‘yicha buxgalteriya va boshqaruv hisobini tashkil etishning amaldagi holati, segmentlar kesimida daromadlar, xarajatlar, aktivlar va moliyaviy natijalarni hisobga olish xususiyatlari hamda segmentar axborotni shakllantirish va boshqaruv qarorlarida foydalanish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: segment, segmentar hisob, buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi, operatsion segment, segmentar axborot, segment daromadi, segment xarajatlari, moliyaviy natija, segmentar hisobot.

Аннотация. В данной статье рассматривается современное состояние сегментного учета и управленческого учета, особенности учета доходов, расходов, активов и финансовых результатов по сегментам, а также вопросы формирования сегментной информации и ее использования в управленческих решениях.

Ключевые слова: сегмент, сегментный учет, бухгалтерский учет, управленческий учет, операционный сегмент, сегментная информация, доходы сегмента, расходы сегмента, финансовые результаты, сегментная отчетность.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ko‘p tarmoqli va hududiy jihatdan diversifikatsiyalashuvi buxgalteriya hamda boshqaruv hisobini alohida segmentlar kesimida tashkil etish zaruratini kuchaytirmoqda. Segmentlar bo‘yicha hisobni tashkil etish korxonaning alohida faoliyat yo‘nalishlari, mahsulot va xizmat turlari, hududiy bo‘linmalari hamda javobgarlik markazlari bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni alohida shakllantirish imkonini beradi. Bunday axborot korxona rahbariyatiga har bir segmentning iqtisodiy samaradorligini baholash, rentabellik darajasini aniqlash, resurslardan foydalanishni nazorat qilish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborot bazasini yaratadi. Shu jihatdan segmentlar bo‘yicha buxgalteriya va boshqaruv hisobining amaldagi holatini o‘rganish mavjud hisob tizimining axborot imkoniyatlarini aniqlash hamda uni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Segmentlar bo‘yicha buxgalteriya va boshqaruv hisobini tashkil etishning amaldagi holatini baholashda korxonalarda qo‘llanilayotgan hisob siyosati, ishchi hisobvaraqlar rejasi, analitik hisob registrlari, birlamchi hujjatlar, xarajatlarni segmentlarga taqsimlash usullari, segmentlararo operatsiyalar va transfert narxlarini hisobga olish tartibi hamda ichki segmentar hisobot shakllarini kompleks tadqiq etish talab etiladi. Bunda tashqi segmentar axborotni shakllantirishda MHXS 8 “Operatsion segmentlar” talablarining bajarilishi,

xususan, boshqaruv yondashuvi asosida operatsion segmentlarni aniqlash, hisobot segmentlarini ajratish va ular bo‘yicha tegishli axborotlarni oshkor etish masalalari alohida ahamiyatga ega. Amaldagi hisob tizimini ushbu mezonlar asosida tahlil qilish segmentlar kesimida axborotni shakllantirishdagi mavjud kamchiliklarni aniqlash, moliyaviy va boshqaruv hisobi o‘rtasidagi axborot integratsiyasini kuchaytirish hamda segmentlar faoliyati samaradorligini baholashga xizmat qiladigan takomillashtirilgan hisob-uslubiy mexanizmlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Biz tomonimizdan “O‘zbekinvest” AJda amalda qo‘llanilayotgan hisobvaraqlar rejasi o‘rganilganda, sug‘urta faoliyatiga xos hisob obyektlarini aks ettirish uchun yetarlicha keng hisobvaraqlar tizimi shakllantirilganligi aniqlandi. Jumladan, sug‘urta ishini yuritish xarajatlari 2010-hisobvaraqda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta va qayta sug‘urtaga qabul qilingan risklar bo‘yicha sug‘urta qoplamalari 2210–2235-hisobvaraqlarda, sug‘urtalanuvchilar, sug‘urta agentlari va brokerlar hamda qayta sug‘urtalash operatsiyalari bo‘yicha debitorlik qarzlari esa 4030–4060-hisobvaraqlarda aks ettirilishi belgilangan. Shu bilan birga, kompaniyaning hududiy tuzilmasini hisobga olish maqsadida filiallar bilan hisob-kitoblar uchun 4110–4112 hamda 6110–6112-hisobvaraqlar, filiallar orqali shakllanadigan sug‘urta mukofotlari va avanslar uchun 6285.2, 6286, 6340 va 6345-hisobvaraqlar ajratilgan.

Biroq tadqiqotimiz davomida amaldagi hisobvaraqlar rejasida hududiy filiallar bo‘yicha ayrim hisobvaraqlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, sug‘urta operatsiyalarini bir vaqtning o‘zida faoliyat segmenti va hududiy segment bo‘yicha identifikatsiya qilish imkonini beruvchi yaxlit analitik hisob mexanizmi yetarli darajada shakllantirilmaganligi aniqlandi. Natijada muayyan hududiy filialning qaysi faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha qancha daromad olgani, sug‘urta qoplamalari va boshqa xarajatlari qancha bo‘lgani, qanday miqdorda sug‘urta rezervlari shakllantirilgani hamda yakuniy moliyaviy natijaga qo‘shgan hissasini amaldagi hisobvaraqlar tizimining o‘zidan bevosita aniqlash imkoniyati cheklanadi. Bizning fikrimizcha, ushbu muammoni har bir filial uchun yangi sintetik hisobvaraqlar ochish orqali emas, balki amaldagi hisobvaraqlarga faoliyat va hududiy segmentlarni ifodalovchi ko‘p darajali analitik kodlarni biriktirish orqali hal etish maqsadga muvofiq.

Shundan kelib chiqib, biz tomonimizdan “O‘zbekinvest” AJ uchun amaldagi sintetik hisobvaraq, faoliyat segmenti va hududiy segmentni yagona kodda o‘zaro bog‘lashga asoslangan “XXXX.SS.HH” segmentar ishchi hisobvaraqni taklif etilmoqda. Bunda XXXX - amaldagi sintetik hisobvaraqni, SS - faoliyat segmentini, HH esa hududiy filialni ifodalaydi. Mazkur yondashuvning muhim jihati shundaki, u amaldagi hisobvaraqlar rejasini tubdan o‘zgartirmasdan, uning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

1-jadval

“O‘zbekinvest” AJ faoliyatini segmentlar kesimida hisobga olish uchun taklif etilayotgan faoliyat segmentlari klassifikatori

Segment kodi	Taklif etilayotgan segment	Segmentning hisob obyektlari
S01	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta	Bevosita tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha daromad, xarajat, qoplama va rezervlar
S02	Qabul qilingan qayta sug‘urta	Boshqa sug‘urta tashkilotlaridan qayta sug‘urtaga qabul qilingan risklar bo‘yicha operatsiyalar
S03	Berilgan qayta sug‘urta	Qayta sug‘urtalovchilarga berilgan risklar, mukofotlar va qayta sug‘urtalovchi ulushi
S04	Boshqa sug‘urta operatsiyalari	Birgalikdagi sug‘urta, komission va boshqa sug‘urta operatsiyalari
S00	Umumkorporativ faoliyat	Muayyan sug‘urta segmentiga bevosita biriktirib bo‘lmaydigan umumiy operatsiyalar

Biz tomonimizdan taklif etilgan klassifikatsiyada segmentlarning ajratilishi sug‘urta operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni va ularning moliyaviy natijalarni shakllantirishdagi o‘rnidan kelib chiqib amalga oshirilgan. Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta, qabul qilingan qayta sug‘urta va berilgan qayta sug‘urta operatsiyalarining daromad, xarajat, sug‘urta majburiyatlari va risk xususiyatlari bir-biridan farqlanishi ularni boshqaruv hisobi maqsadlarida alohida analitik segment sifatida kuzatish zaruratini yuzaga keltiradi. S00 kodi esa birorta segmentga bevosita tegishli bo‘lmagan umumkorporativ operatsiyalarni alohida jamlash va keyinchalik belgilangan mezonlar asosida taqsimlash uchun nazarda tutilgan.

Faoliyat segmentlari bo‘yicha kodlashning o‘zi kompaniyaning hududiy tuzilmasini to‘liq aks ettirmaydi. “O‘zbekinvest” AJning hududiy filiallari mavjudligini hisobga olgan holda, tadqiqotimizda faoliyat segmentlari bilan bir qatorda mustaqil hududiy analitik o‘lchovni joriy etish taklif qilinmoqda. Bunda har bir filialga doimiy kod biriktirilishi va ushbu kod barcha tegishli buxgalteriya operatsiyalarida saqlanishi lozim. Natijada bir xil faoliyat segmentining turli hududlardagi moliyaviy natijalarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

2-jadval

“O‘zbekinvest” AJ hududiy filiallari bo‘yicha taklif etilayotgan analitik kodlash tizimi

Hudud kodi	Analitik obyekt	Hudud kodi	Analitik obyekt
H00	Bosh ofis	**H07**	7-hududiy filial
H01	1-hududiy filial	**H08**	8-hududiy filial
H02	2-hududiy filial	**H09**	9-hududiy filial
H03	3-hududiy filial	**H10**	10-hududiy filial
H04	4-hududiy filial	**H11**	11-hududiy filial
H05	5-hududiy filial	**H12**	12-hududiy filial
H06	6-hududiy filial		

Izoh: H01–H12 kodlari kompaniyaning amaldagi 12 ta hududiy filialiga ularning tasdiqlangan ro‘yxati asosida biriktiriladi.

Taklif etilgan hududiy kodlash tizimining afzalligi shundaki, filial belgisi alohida hisobvaraq sifatida emas, balki barcha tegishli hisobvaraqlarda takroran

qo‘llaniladigan yagona analitik rekvizit sifatida shakllantiriladi. Bu esa, masalan, faqat “filiallar bo‘yicha sug‘urta mukofotlari”ning umumiy miqdorini aniqlash bilan cheklanmasdan, har bir filial bo‘yicha sug‘urta mukofotlari, qoplamalar, rezervlar, qayta sug‘urtalash operatsiyalari, xarajatlar va moliyaviy natijalarni bir xil hudud kodi orqali o‘zaro bog‘lash imkonini beradi. Tadqiqotimizning keyingi bosqichida faoliyat va hududiy segmentlar klassifikatorlarini amaldagi hisobvaraqlar rejasi bilan integratsiya qilish masalasi ko‘rib chiqildi. Bunda yangi sintetik hisobvaraqlar tizimini yaratishdan ko‘ra, sug‘urta faoliyatining moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi mavjud hisobvaraqlarga SS.HH analitik belgilarini biriktirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu yondashuv asosida biz tomonimizdan quyidagi segmentar ishchi hisobvaraqlar tizimi ishlab chiqildi.

3-jadval

“O‘zbekinvest” AJda faoliyat va hududiy segmentlar kesimida taklif etilayotgan ishchi hisobvaraqlar tizimi

Amaldagi hisobvaraq	Taklif etilayotgan ishchi hisobvaraq	Hisob obyektining segmentar mazmuni
2010	2010.S01.H01–H12	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta faoliyatini yuritish xarajatlari
2010	2010.S02.H01–H12	Qabul qilingan qayta sug‘urta faoliyatini yuritish xarajatlari
2010	2010.S03.H01–H12	Berilgan qayta sug‘urta bilan bog‘liq xarajatlar
2210	2210.S01.H01–H12	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bo‘yicha daromadlar Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan sug‘urta qoplamalari
2230	2230.S02.H01–H12	Qabul qilingan qayta sug‘urta risklari bo‘yicha qoplamalar
2410	2410.S02.H01–H12	Qayta sug‘urtalash bo‘yicha komission xarajatlar
4030	4030.S01.H01–H12	Sug‘urtalanuvchilardan olinadigan summalar
4050	4050.S02.H01–H12	Qabul qilingan qayta sug‘urta bo‘yicha debitorlik
4060	4060.S03.H01–H12	Berilgan qayta sug‘urta bo‘yicha debitorlik
6030	6030.S01.H01–H12	Sug‘urtalanuvchilarga to‘lanadigan summalar
6050	6050.S02.H01–H12	Qabul qilingan qayta sug‘urta bo‘yicha kreditorlik
6060	6060.S03.H01–H12	Berilgan qayta sug‘urta bo‘yicha kreditorlik
6280	6280.S01.H01–H12	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta mukofotlari
6270	6270.S02.H01–H12	Qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha mukofotlar
6330	6330.S01.H01–H12	Sug‘urtalanuvchilardan olingan avans mukofotlari
6350	6350.S02.H01–H12	Qayta sug‘urtalash bo‘yicha avans mukofotlari
8010	8010.S01.H01–H12	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bo‘yicha ishlab topilmagan mukofot rezervi
8010	8010.S02.H01–H12	Qabul qilingan qayta sug‘urta bo‘yicha ishlab topilmagan mukofot rezervi
8020	8020.S01.H01–H12	Sodir bo‘lgan, ammo xabar qilinmagan zararlar rezervi
8030	8030.S01.H01–H12	Xabar qilingan, ammo tartibga solinmagan zararlar rezervi
8040	8040.S01.H01–H12	Ogohlantirish tadbirlari rezervi
8060	8060.S01.H01–H12	Halokatlar rezervi
8080	8080.S01.H01–H12	Barqarorlashtirish rezervi

8110	8110.S03.H01–H12	Qayta sug‘urtalovchi ulushi – ishlab topilmagan mukofot rezervi
8120	8120.S03.H01–H12	Qayta sug‘urtalovchi ulushi – xabar qilingan zararlar rezervi
8130	8130.S03.H01–H12	Qayta sug‘urtalovchi ulushi – sodir bo‘lgan, ammo xabar qilinmagan zararlar rezervi
9040	9040.S03.H01–H12	Qayta sug‘urtaga berilgan risklar bo‘yicha mukofotlar
9070	9070.S03.H01–H12	Qayta sug‘urtalovchilar tomonidan qoplanadigan zarar ulushi bilan bog‘liq daromad
9080	9080.S02/S03.H01–H12	Qayta sug‘urtalash bo‘yicha komission daromadlar
9230	9230.S01/S02.H01–H12	Ishlab topilmagan mukofot rezervining o‘zgarishi
9240	9240.S01/S02.H01–H12	Sodir bo‘lgan, ammo xabar qilinmagan zararlar rezervining o‘zgarishi
9250	9250.S01/S02.H01–H12	Xabar qilingan, ammo tartibga solinmagan zararlar rezervining o‘zgarishi
9280	9280.S01/S02.H01–H12	Barqarorlashtirish rezervining o‘zgarishi
9410	9410.S01–S04.H01–H12	Sotish xarajatlari
9420	9420.S00/S01–S04.H00–H12	Ma’muriy xarajatlar
9430	9430.S01–S04.H01–H12	Boshqa operatsion xarajatlar
9900	9900.S01–S04.H01–H12	Segmentlar bo‘yicha yakuniy moliyaviy natija

Jadvalda taklif etilgan ishchi hisobvaraqlar amaldagi hisobvaraqlar rejasining iqtisodiy mazmunini saqlab qolgan holda, uning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Xususan, amaldagi rejada 8010–8080 hisobvaraqlarida sug‘urta rezervlari, 8110–8130 hisobvaraqlarida esa qayta sug‘urtalovchilarning sug‘urta rezervlaridagi ulushlari alohida aks ettiriladi. Biz tomonimizdan ushbu hisobvaraqlarning iqtisodiy mazmunini o‘zgartirmasdan, ularga faoliyat va hududiy segment kodlarini biriktirish taklif qilinmoqda. Natijada rezervlarning faqat kompaniya bo‘yicha umumiy miqdorini emas, balki ularning qaysi faoliyat segmenti va hududiy filialda shakllanganligini ham aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Ayniqsa, amaldagi hisobvaraqlar rejasida 6280-hisobvaraq to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini, 6286-hisobvaraq esa filiallar bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini hisobga olish uchun mo‘ljallanganligi e’tiborga molik. Bizning fikrimizcha, bunday yondashuvda “operatsiya turi” va “hudud” bir xil hisobvaraqlar iyerarxiyasining turli pog‘onalarida aks ettirilgan. Taklif etilayotgan modelda esa filial mustaqil analitik o‘lchovga aylantiriladi. Masalan, 6280.S01.H04 kodi 4-hududiy filialning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta segmenti bo‘yicha shakllangan sug‘urta mukofotlarini ifodalaydi. Shu tariqa bitta kod orqali operatsiyaning iqtisodiy mazmuni, faoliyat segmenti va hududiy mansubligi aniqlanadi.

Segmentlar bo‘yicha buxgalteriya va boshqaruv hisobini tashkil etishning amaldagi holatini tadqiq etish natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda segmentlar kesimida daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni alohida hisobga olish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligi aniqlandi. Amaliyotda umumiy buxgalteriya hisobi

ma’lumotlarining mavjudligi segmentlar faoliyatini to‘liq baholash uchun yetarli bo‘lmay, analitik hisobni segmentlar kesimida chuqurlashtirish, ishchi hisobvaraqlar rejasida tegishli analitik belgilarni joriy etish, xarajatlarni bevosita va bilvosita taqsimlash mezonlarini aniq belgilash hamda segmentlararo operatsiyalarni alohida hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, buxgalteriya va boshqaruv hisobi ma’lumotlarining o‘zaro integratsiyalashuvi har bir segmentning daromadliligi, xarajatlar darajasi, rentabelligi va resurslardan foydalanish samaradorligini ishonchli baholash imkonini beradi.

Segmentlar bo‘yicha hisobni yanada takomillashtirish uchun korxonaning tashkiliy va boshqaruv tuzilmasiga muvofiq operatsion segmentlarni belgilash, ular bo‘yicha yagona analitik hisob tizimini shakllantirish hamda birlamchi hujjatlardan boshlab yakuniy segmentar hisobotgacha bo‘lgan axborot oqimining uzluksizligini ta’minlash maqsadga muvofiqdir. Bunda MHXS 8 “Operatsion segmentlar” ning boshqaruv yondashuvini ichki boshqaruv hisobi bilan uyg‘unlashtirish, segmentlar bo‘yicha daromad va xarajatlarni asoslangan mezonlar asosida taqsimlash, transfert narxlarini belgilash hamda segmentlararo operatsiyalarni konsolidatsiya jarayonida eliminatsiya qilish mexanizmlarini rivojlantirish lozim. Natijada takomillashtirilgan segmentar hisob tizimi rahbariyatni tezkor va ishonchli axborot bilan ta’minlash, istiqbolli segmentlarni aniqlash, samarasiz yo‘nalishlarni optimallashtirish va korxonaning strategik boshqaruv qarorlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi. (2024). MHXS 8 “Operatsion segmentlar”. London: MHXS Fondi.
2. Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi. (2024). BHXS 1 “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish”. London: MHXS Fondi.
3. Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi. (2024). BHXS 34 “Oraliq moliyaviy hisobot”. London: MHXS Fondi.
4. Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi. (2024). Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari. London: MHXS Fondi.
5. Bugeja, M., Czernkowski, R., & Moran, D. (2015). Segmentlar bo‘yicha hisobotga boshqaruv yondashuvining ta’siri. Biznes moliyasi va buxgalteriya hisobi jurnali, 42(3–4), 310–366.
6. Crawford, L., Extance, H., Helliar, C., & Power, D. (2012). Operatsion segmentlar: MHXS 8 ning foydaliligi. Angliya va Uels sertifikatlangan buxgalterlar instituti tadqiqot hisoboti.
7. Nichols, N. B., Street, D. L., & Cereola, S. J. (2012). Yevropaning yetakchi kompaniyalarida MHXS 8 ni qo‘llashning segmentar axborotni oshkor etishga ta’siri tahlili. Xalqaro buxgalteriya hisobi, audit va soliqqa tortish jurnali, 21(2), 79–105.
8. Aleksanyan, M., & Danbolt, J. (2015). Segmentar hisobot: MHXS 8 haqiqatan ham yaxshiroqmi? Yevropada buxgalteriya hisobi, 12(1), 37–60.
9. Garrison, R. H., Noreen, E. W., & Brewer, P. C. (2021). Boshqaruv hisobi (17-nashr). McGraw Hill.

10. Drury, C. (2018). Boshqaruv va xarajatlar hisobi (10-nashr). Cengage Learning.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SAVDO KORXONALARIDA AUDITNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK MASALALARI

Urazov Komil Baxromovich.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti i.f.d. professor ORCID:0009-0007-8330-7700, pochta: urazov.komil59@gmail.com
Po‘latov Xudoyberdi Uktamovich.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti PhD dotsent v.b. ORCID:0000-0002-7304-603X, pochta: pulatov.xudoyberi@gmail.com

Fang Fang, Dongyan Mo va Ruyi Chen (2024)[4] korxonalarning raqamli transformatsiyasi bilan audit sifati o‘rtasidagi munosabatlarni empirik jihatdan o‘rganib, ular o‘rtasida U-shaklidagi bog‘liqlik mavjudligini aniqlagan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamlashtirishning dastlabki bosqichida korxonalarda yangi texnologiyalar joriy etilishi auditorlarning mavjud professional bilim va ko‘nikmalariga mos kelmasligi sababli audit sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mualliflar buni auditorning professional kompetensiyasi bilan mijoz korxonasining raqamli rivojlanish darajasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan izohlaydi. Biroq raqamli transformatsiya yetuk bosqichga yetganda axborot shaffofligining ortishi va auditorning amaldagi mustaqilligi yaxshilanishi audit sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu natija zamonaviy auditda auditorlarning IT va raqamli kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish zarurligi mavjudligini ko‘rsatadi.

Depi Listyowati va Hendra (2024)[5] auditor etikasi, mustaqilligi va tajribasining audit sifatiga ta’sirini 100 nafar auditor ma’lumotlari asosida empirik baholagan. Tadqiqot natijalarida auditor etikasi, auditor mustaqilligi hamda professional tajriba audit sifatiga ijobiy ta’sir qilishi aniqlangan. Mualliflar auditorlik tashkilotlarida kuchli professional etika muhitini shakllantirish, auditorning mijozdan mustaqilligini ta’minlash hamda auditorlarning amaliy tajribasini uzluksiz malaka oshirish orqali rivojlantirish yuqori sifatli auditning asosiy shartlari ekanligini asoslaydi. Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, auditor mustaqilligiga tahdidlar, professional etika talablariga rioya qilish va yetarli professional tajribaga ega auditorlarni shakllantirish bugungi auditorlik amaliyotining dolzarb muammolari sifatida qaralishi mumkin.

Fekadu Agmas Wassie va László Péter Lakatos (2024)[6] esa sun’iy intellektning ichki audit funksiyasiga ta’sirini tizimli ravishda tadqiq etib, AI auditorlarga qo‘lda bajariladigan jarayonlarni qisqartirish, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi audit

[3] Vitali, S., & Giuliani, M. (2024). *Emerging digital technologies and auditing firms: Opportunities and challenges.* International Journal of Accounting Information Systems, 53, 100676. DOI: 10.1016/j.accinf.2024.100676.
[4] Fang, F., Mo, D., & Chen, R. (2024). *Enterprise digital transformation and audit quality: Empirical evidence from annual reports of Chinese listed companies.* Economics & Politics, 36(2), 1056–1075. DOI: 10.1111/ecpo.12280.
[5] Listyowati, D., & Hendra, H. (2024). The effect of auditor ethics, auditor independence, and auditor experience on audit quality. Journal of Public Auditing and Financial Management, 4(1), 13–20. DOI: 10.36407/jpafm.v4i1.1629.
[6] Wassie, F. A., & Lakatos, L. P. (2024). Artificial intelligence and the future of the internal audit function. Humanities and Social Sciences Communications, 11, 386.

xizmatlarini ko‘rsatish imkonini berishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, mualliflar auditorlik faoliyatida sun’iy intellektni qo‘llash darajasi turli mamlakatlar va hududlarda hanuz past ekanligi, ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligi hamda AIni audit jarayonlariga samarali integratsiya qilish uchun kompleks metodologik asoslar yetishmasligini aniqlagan. Shuning uchun sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha metodologik bazaning shakllanmaganligi va auditorlarning yangi texnologiyalarga moslashuvi zamonaviy audit rivojlanishi oldidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantirish masalalari mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham keng o‘rganilmoqda. Jumladan, Z.S. Shermurodova (2025) [7] O‘zbekiston auditorlik tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonlarini tadqiq etib, xalqaro audit standartlarini milliy amaliyotga joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, bu jarayonda qator tizimli muammolar saqlanib qolayotganini qayd etadi. Muallif, ayniqsa, xalqaro standartlarni amaliyotga tatbiq etish, milliy qonunchilikni xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish, auditorlarni sertifikatlashtirish va professional kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, auditorlik faoliyatining xalqaro standartlarga formal mosligini ta’minlashning o‘zi yetarli emas, balki auditorlarning ushbu standartlarni amaliy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash kompetensiyasini shakllantirish zarur, degan xulosaga kelish mumkin. M.D. Djabbarov (2025)[8] auditorlik tekshiruvlarini xalqaro audit standartlariga muvofiq tashkil etish masalalarini o‘rganib, O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirish uchun davlat tomonidan qonunchilik jihatdan qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda professional auditorlik hamjamiyatlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligini asoslaydi. Muallif auditorlik standartlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, auditorlik tekshiruvining metodik ta’minotini rivojlantirish hamda audit sifatini oshirish jarayonlarida professional tashkilotlarning ishtirokini kuchaytirishni muhim deb hisoblaydi. Mazkur yondashuv O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat tartibga solishi va professional o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari o‘rtasida samarali institutsional hamkorlikni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. A.X. Xotamov va B.B. Botirjonova (2026) auditning xalqaro standartlari asosida audit sifatini oshirishning zamonaviy yo‘nalishlarini o‘rganib, riskka asoslangan audit yondashuvi, raqamli texnologiyalardan foydalanish, sifat nazorati, auditorlik hujjatlarini to‘g‘ri shakllantirish, professional etika va auditor mustaqilligini ta’minlashni audit sifatiga bevosita ta’sir qiluvchi muhim omillar sifatida ajratib ko‘rsatadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, zamonaviy auditorlik faoliyatida audit sifatini faqat yakuniy auditorlik xulosasi bilan baholash yetarli emasligi, balki auditni rejalashtirishdan boshlab risklarni aniqlash, auditorlik dalillarini olish, hujjatlashtirish va yakuniy xulosani shakllantirishgacha bo‘lgan barcha

[7] Shermurodova, Z.S. (2025). O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonlari va muammolari. Modern Science and Research, 4(9), 270–274.

[8] Djabbarov, M.D. (2025). Organization of audit in accordance with international audit standards and problems of their implementation in Uzbekistan. International Journal of Science and Technology, 2(06), 105–107.

jarayonlarda sifatni boshqarish zarurligi koʻrinadi. X. Mamatov (2026) [9] Oʻzbekistonda auditorlik faoliyatining istiqbollarini tadqiq etib, auditorlik bozorini xalqaro talablarga muvofiq rivojlantirishda xalqaro audit standartlarini joriy etish, audit sifatini nazorat qilish tizimini kuchaytirish, auditor kadrlarini tayyorlashni takomillashtirish hamda raqamli audit texnologiyalarini keng qoʻllashga ustuvor ahamiyat beradi. Muallif tomonidan auditorlik bozorining raqobatbardoshligini oshirish ham alohida rivojlanish yoʻnalishi sifatida koʻrsatilgan. Ushbu yondashuv auditni raqamlashtirishni alohida texnologik jarayon emas, balki auditorlik xizmatlari sifati, tezkorligi va raqobatbardoshligini oshiruvchi strategik omil sifatida baholash imkonini beradi. U. Chorshanbayev va Z. Suvonqulova (2025)[10] Oʻzbekiston audit tizimini AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya tajribasi bilan qiyosiy oʻrganib, milliy auditorlik tizimini rivojlantirishda xalqaro audit standartlarini joriy etish, auditorlarning professional malakasini oshirish va audit sifatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini asoslagan. Tadqiqotda Oʻzbekiston audit tizimining mavjud holati, yutuqlari va kamchiliklari xalqaro tajriba bilan taqqoslangan holda baholanadi. Mualliflarning yondashuvi Oʻzbekistonda audit tizimini rivojlantirishda xorijiy tajribani mexanik tarzda koʻchirish emas, balki xalqaro ilgʻor amaliyotni milliy institutsional va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirib joriy etish maqsadga muvofiqligini koʻrsatadi.

Mazkur ilmiy qarashlar Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati bilan ham uzviy bogʻliqdir. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3946-son “Oʻzbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori auditorlik xizmatlari bozorini rivojlantirish, auditorlik tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish va auditorlik faoliyatini xalqaro yondashuvlarga yaqinlashtirishda muhim institutsional asos yaratdi. Keyingi bosqichda Prezidentning 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5210-son “Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori auditorlarning professional tayyorgarligi va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirishga qaratildi.

Tahlil qilingan ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirish shuni koʻrsatadiki, zamonaviy auditorlik faoliyatining muammolari faqat xalqaro audit standartlarini joriy etish bilan cheklanmaydi. Auditorlik xizmatlarining sifatini oshirish auditorlarning professional va raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, auditor mustaqilligi va etikasini ta’minlash, audit tashkilotlarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish hamda sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili vositalarini audit metodologiyasiga integratsiyalash bilan bevosita bogʻliq. Shu jihatdan ushbu xorijiy tadqiqotlarda aniqlangan muammolar Oʻzbekistonda auditorlik faoliyatini Xalqaro audit standartlari asosida rivojlantirish yoʻnalishlarini belgilash uchun muhim ilmiy-metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

[9] https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/9672

[10] Chorshanbayev, U., & Suvonqulova, Z. (2025). Oʻzbekiston Respublikasi audit tizimini jahon tajribasi asosida tashkil etish masalalari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 3(1), 45–49. DOI: 10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss1-pp45-49.

Tadqiqotlarimiz davomida O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining bugungi holatini tizimli o‘rganish va tahlil qilish natijasida sohaning xalqaro audit standartlari asosida rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan quyidagi asosiy muammolar mavjudligi aniqlandi.

1-jadval

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining asosiy muammolari

№	Asosiy muammo	Muammoning mazmuni	Audit sifatiga ta’siri
1	Xalqaro audit standartlarini amaliyotda to‘liq va bir xil qo‘llash muammosi	AXS talablarini bilish bilan ularni real audit topshirig‘ida to‘liq bajarish o‘rtasida tafovut mavjud	Auditorlik dalillarining yetarliligi, risklarni baholash va auditorlik xulosasi sifatiga ta’sir qiladi
2	Auditorlarning xalqaro darajadagi professional kompetensiyasi yetarli emasligi	AXS, MHXS, ISQM, IT-audit, data analytics va professional mulohaza bo‘yicha malakani chuqurlashtirish zarur	Murakkab operatsiyalar va yuqori riskli sohalarda sifatli audit o‘tkazishni cheklaydi
3	Audit sifati va sifatni boshqarish tizimining yetarlicha samarali ishlamasligi	ISQM 1–2 asosidagi firma darajasidagi sifat boshqaruvi va tashqi sifat nazoratini yanada takomillashtirish talab etiladi	Sifatsiz audit va standartlarga nomuvofiqlik xavfini oshiradi
4	Auditor mustaqilligi va professional etika bilan bog‘liq muammolar	Mijozga iqtisodiy qaramlik, manfaatlar to‘qnashuvi va amaldagi xalqaro etika talablarini to‘liq implementatsiya qilish masalalari mavjud	Auditorlik xulosasining xolisligi va unga bo‘lgan jamoatchilik ishonchini pasaytirishi mumkin
5	Auditni raqamlashtirish va zamonaviy audit texnologiyalaridan foydalanish darajasining yetarli emasligi	Audit tahlil, avtomatlashtirilgan testlar, AI, uzluksiz audit va axborot tizimlari auditini keng joriy qilish zarur	Katta hajmdagi ma’lumotlarni tekshirish imkoniyatlarini cheklab, audit samaradorligini pasaytiradi

Tadqiqotimiz davomida aniqlangan muammolarni tizimli tahlil qilish natijalariga asoslanib, O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini xalqaro audit standartlari talablariga muvofiq rivojlantirish hamda mavjud muammolarni bartaraf etishning asosiy yechimlari sifatida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Birinchidan, xalqaro audit standartlarini auditorlik tashkilotlari faoliyatiga joriy etishning yagona metodologik mexanizmini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda AXS 200, AXS 230, AXS 315, AXS 330, AXS 500, AXS 700 va boshqa asosiy standartlar talablarini auditning rejalashtirish, risklarni baholash, auditorlik dalillarini to‘plash, hujjatlashtirish va auditorlik xulosasini shakllantirish bosqichlari bilan uzviy bog‘laydigan namunaviy audit metodologiyasi ishlab chiqilishi lozim. Auditorlik tashkilotlari uchun standartlashtirilgan ishchi hujjatlar, risklarni baholash matritsalari, audit dasturlari va nazorat savolnomalarining

tavsiya etiladigan namunalarini yaratish AXS talablarining turlicha talqin qilinishini kamaytiradi. Natijada xalqaro standartlarning faqat normativ jihatdan qabul qilinishidan ularning real audit amaliyotida izchil va sifatli qo‘llanilishiga o‘tish imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchidan, auditorlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish tizimini xalqaro professional ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, bunda nazariy bilimlardan tashqari amaliy audit ko‘nikmalariga ustuvor ahamiyat berish zarur. Auditorlarni uzluksiz professional rivojlantirish dasturlariga AXS, MHXS, ISQM, professional etika, firibgarlik risklarini aniqlash, axborot tizimlari auditi, audit data analytics va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, ACCA kabi xalqaro professional malaka tizimlari bilan integratsiyani kengaytirish, xalqaro sertifikatlarga ega auditorlar ulushini oshirish va auditorlarning bilimini davriy ravishda amaliy keyslar asosida baholash zarur. Bunday yondashuv auditorning faqat sertifikatga ega bo‘lishini emas, balki murakkab auditorlik vaziyatlarida professional mulohaza yurita olish qobiliyatini ham ta’minlaydi.

Uchinchidan, auditorlik tashkilotlarida sifatni nazorat qilishdan risklarga asoslangan sifatni boshqarish tizimiga to‘liq o‘tish muhim hisoblanadi. Buning uchun ISQM 1 talablariga muvofiq har bir auditorlik tashkilotida sifat maqsadlari, sifat risklari, ularga javob choralari va monitoring mexanizmlarini o‘z ichiga oluvchi ichki sifat boshqaruvi tizimi shakllantirilishi, ISQM 2 asosida tegishli audit topshiriqlari bo‘yicha topshiriq sifatini ko‘rib chiqish amaliyoti kuchaytirilishi lozim. Tashqi sifat nazoratida esa auditorlik tashkilotlarini faqat belgilangan davriylik asosida tekshirishdan ko‘ra, ularning mijozlari tarkibi, jamoat manfaatdorligi subyektlari auditi, oldingi tekshiruvlarda aniqlangan kamchiliklar va boshqa risk indikatorlari asosida baholash samaraliroq hisoblanadi. Aniqlangan kamchiliklarni umumlashtirib, anonimlashtirilgan shaklda auditorlik hamjamiyatiga muntazam yetkazish ham audit sifatini tizimli oshirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, auditorlik xulosasining ishonchliligini ta’minlash uchun auditor mustaqilligini faqat huquqiy talab sifatida emas, balki auditorlik topshirig‘ining barcha bosqichlarida boshqariladigan alohida risk sifatida baholash zarur. Bunda auditorlik tashkilotining bitta mijozdan olinadigan daromadga haddan tashqari iqtisodiy qaramligini nazorat qilish, audit va auditdan tashqari xizmatlarning bir mijozga ko‘rsatilishi bilan bog‘liq manfaatlar to‘qnashuvini cheklash, jamoat manfaatdorligi subyektlarida auditorlik topshirig‘i bo‘yicha asosiy hamkorlarning rotatsiyasini ta’minlash hamda har bir audit oldidan mustaqillik bo‘yicha deklaratsiya va tahdidlarni baholash hujjatini rasmiylashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, IESBAning xalqaro Etika kodeksi talablarini milliy auditorlik amaliyotiga muntazam yangilangan holda implementatsiya qilish auditorning xolisligi, professional skeptitsizmi va jamoatchilik oldidagi mas’uliyatini kuchaytiradi.

Beshinchida, auditorlik tashkilotlarida an’anaviy tanlama tekshiruvlardan ma’lumotlarga asoslangan raqamli audit modeliga bosqichma-bosqich o‘tish zarur. Bunda CAATs, audit data tahlil, RPA va sun’iy intellekt texnologiyalaridan

foydalanib, katta hajmdagi xo‘jalik operatsiyalarini avtomatik tahlil qilish, noodatiy tranzaksiyalar va riskli operatsiyalarni aniqlash, elektron auditorlik dalillarini shakllantirish hamda ayrim audit protseduralarini avtomatlashtirish imkoniyatlarini yaratish lozim. Ayniqsa, auditorlik dasturlarini korxonalarning ERP va buxgalteriya axborot tizimlaridan olinadigan ma’lumotlar bilan integratsiyalash audit tanlamasini kengaytirib, ayrim holatlarda operatsiyalar bosh to‘plamini to‘liq tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanishda ma’lumotlarning maxfiyligi, kiberxavfsizlik, algoritmlar natijalarining tekshirilishi va yakuniy professional qaror uchun auditorning javobgarligi saqlanishi lozim. Natijada auditning raqamli transformatsiyasi tekshiruv vaqtini qisqartirish bilan birga, auditorlik dalillarining qamrovi va audit sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini xalqaro audit standartlariga muvofiq rivojlantirish mamlakatda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini oshirish, investorlar manfaatlarini himoya qilish hamda milliy auditorlik xizmatlarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari xalqaro audit standartlarini amaliyotda to‘liq va bir xil qo‘llash, auditorlarning professional hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ISQM talablari asosida audit sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish, auditorlarning mustaqilligi va professional etika talablarini kuchaytirish, shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalarni audit jarayonlariga keng joriy etish zarurligini ko‘rsatdi. Mazkur yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilishi auditorlik tekshiruvlari sifatini oshirish, auditorlik xulosalariga bo‘lgan jamoatchilik ishonchini mustahkamlash hamda O‘zbekistonda xalqaro talablarga javob beradigan samarali va barqaror auditorlik tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vitali, S., & Giuliani, M. (2024). Emerging digital technologies and auditing firms: Opportunities and challenges. International Journal of Accounting Information Systems, 53, 100676. DOI: 10.1016/j.accinf.2024.100676.

2. Fang, F., Mo, D., & Chen, R. (2024). Enterprise digital transformation and audit quality: Empirical evidence from annual reports of Chinese listed companies. Economics & Politics, 36(2), 1056–1075. DOI: 10.1111/ecpo.12280.

3. Listyowati, D., & Hendra, H. (2024). The effect of auditor ethics, auditor independence, and auditor experience on audit quality. Journal of Public Auditing and Financial Management, 4(1), 13–20. DOI: 10.36407/jpafm.v4i1.1629.

4. Wassie, F. A., & Lakatos, L. P. (2024). Artificial intelligence and the future of the internal audit function. Humanities and Social Sciences Communications, 11, 386.

Shermurodova Z.S. O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonlari va muammolari // Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – № 9. – B. 270–274.

5. Djabbarov M.D. Organization of audit in accordance with international audit standards and problems of their implementation in Uzbekistan // International Journal of Science and Technology. – 2025. – Vol. 2. – № 06. – P. 105–107.

6. Xotamov A.X., Botirjonova B.B. Auditning xalqaro standartlari asosida audit sifatini oshirishning zamonaviy yo‘nalishlari va muammolari // TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR. – 2026.

7. Mamatov X. O‘zbekistonda auditorlik faoliyatining istiqbollari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2026.

8. Chorshanbayev U., Suvonqulova Z. O‘zbekiston Respublikasi audit tizimini jahon tajribasi asosida tashkil etish masalalari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025. – T. 3. – № 1. – B. 45–49. – DOI: 10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss1-pp45-49.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3946-son “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-avgustdagi PQ-5210-son “Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI RAQAMLASHTIRISH HAMDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Po‘latov Xudoyberdi Uktamovich.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti PhD dotsent v.b. ORCID**:**0000-0002-7304-603X, pochta: pulatov.xudoyberi@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada savdo korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditini raqamlashtirishning dolzarb muammolari hamda ularni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo‘nalishlari yoritilgan. Savdo operatsiyalarini hisobga olishda ERP, POS, CRM, elektron ombor va raqamli audit texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, IAS 2, IFRS 15 hamda xalqaro audit standartlari talablari asosida tovarlar hisobi, daromadlarni tan olish, moliyaviy hisobotni shakllantirish va auditorlik risklarini baholashni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: savdo korxonasi, buxgalteriya hisobi, audit, raqamlashtirish, ERP, elektron savdo, MHXS, IFRS 15, IAS 2, auditorlik riski, Audit Data Analytics.

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi savdo korxonalari faoliyatini tashkil etish, boshqarish, hisobga olish va nazorat qilish mexanizmlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Elektron tijorat, marketpleyslar, mobil savdo platformalari, POS-terminallar, elektron to‘lov tizimlari, CRM va ERP dasturlarining keng joriy etilishi natijasida savdo operatsiyalarining hajmi, tezligi va axborot oqimlari keskin ortib bormoqda.

Bunday sharoitda buxgalteriya hisobi faqat xo‘jalik operatsiyalarini qayd etuvchi tizim sifatida emas, balki korxona rahbariyatini real vaqt rejimida ishonchli va tahliliy axborot bilan ta’minlovchi raqamli boshqaruv vositasi sifatida shakllanishi lozim.

Savdo korxonalarining o‘ziga xos xususiyati tovar operatsiyalarining ko‘pligi, tovar nomenklaturasining kengligi, xarid va sotish jarayonlarining uzluksizligi, turli to‘lov shakllaridan foydalanilishi, chegirma, bonus, cashback, qaytarish va boshqa marketing mexanizmlarining keng qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, an’anaviy chakana va ulgurji savdo bilan bir qatorda elektron savdo kanallarining rivojlanishi bir korxonaning o‘zida bir nechta savdo kanallari orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalarni yagona hisob tizimida aks ettirishni taqozo etmoqda. Natijada tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish, sotishdan olinadigan daromadlarni tan olish, xarajatlarni guruhlash, debitorlik qarzlarini nazorat qilish va moliyaviy natijalarni aniqlash jarayonlariga nisbatan yangi talablar shakllanmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham savdo korxonalarining raqamli iqtisodiyotdagi ishtiroki kengayib borishi hisob tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirish masalasining dolzarbligini oshirmoqda. Elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn nazorat-kassa texnikasi, elektron shartnomalar, mobil to‘lovlar va avtomatlashtirilgan savdo tizimlaridan foydalanish natijasida xo‘jalik operatsiyalarining katta qismi raqamli muhitda shakllanmoqda. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, auditorlik tekshiruvlarini esa xalqaro audit standartlari talablariga muvofiq tashkil etish zarurati hisob va auditning o‘zaro integratsiyasini kuchaytirishni talab qilmoqda.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari ham tadqiq etilgan. Xususan, K.B. Urazov va X.U. Po‘latov savdo korxonalarida zamonaviy savdo shakllarining rivojlanishi, ularning hisob obyektlariga ta’siri hamda hisobni takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratganlar. X.U. Po‘latov elektron savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning xususiyatlarini o‘rgangan. R.D. Do‘smuratovning ilmiy qarashlarida esa hisob obyektlarini hujjatlashtirish, baholash, inventarizatsiya qilish va moliyaviy hisobotda umumlashtirishning metodologik asoslari yoritilgan. Mazkur qarashlar savdo korxonalarida zamonaviy raqamli hisob modelini shakllantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq mavjud amaliyotda buxgalteriya hisobi, elektron savdo, ichki nazorat va audit ko‘pincha alohida-alohida axborot tizimlari orqali yuritiladi. Hozirgi sharoit esa **buxgalteriya hisobi - raqamli texnologiyalar - MHXS - ichki nazorat - audit** elementlarini yagona metodologik tizim sifatida shakllantirishni talab etmoqda.

Savdo korxonalari amaliyotida eng asosiy muammolardan biri turli axborot tizimlarining o‘zaro yetarli integratsiyalashmaganligidir. Korxonada POS tizimi, ombor dasturi, bank dasturi, CRM, elektron hisobvaraq-faktura va buxgalteriya dasturi mavjud bo‘lsa-da, ular o‘rtasida to‘liq avtomatik axborot almashinuvi mavjud bo‘lmasligi mumkin. Natijada bir xil xo‘jalik operatsiyasi bir necha marta

qayta kiritilib, vaqt yo‘qotilishi, ma’lumotlarning takrorlanishi va hisob ko‘rsatkichlari o‘rtasida tafovut yuzaga kelish xavfi ortadi.

1-jadval

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditini raqamlashtirishdagi asosiy muammolar

№	Muammo	Hisob va auditga ta’siri	Asosiy xavf
1	POS, ombor, CRM, bank va buxgalteriya dasturlarining to‘liq integratsiyalashmaganligi	Ma’lumotlar qayta kiritiladi	Xato va tafovutlar
2	Tovarlar harakatini real vaqt rejimida kuzatish cheklanganligi	Ombor va hisob qoldig‘i farqlanishi mumkin	Tovar yo‘qotilishi
3	Chegirma, bonus va qaytarishlarni hisobga olish murakkabligi	Daromad noto‘g‘ri shakllanishi mumkin	IFRS 15 talablarining buzilishi
4	MHXSga transformatsiyaning qo‘lda bajarilishi	Hisobot tayyorlash cho‘ziladi	Inson omili
5	Auditda tanlama usulining ustunligi	Barcha operatsiyalar to‘liq tahlil qilinmaydi	Riskli operatsiyalar aniqlanmay qolishi
6	Elektron audit izining yetarli emasligi	Ma’lumotlar o‘zgarishini kuzatish qiyin	Auditorlik dalillarining ishonchliligi pasayadi

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun savdo korxonalarida “bir operatsiya - birlamchi ma’lumot - ko‘p maqsadli foydalanish” tamoyilini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda xo‘jalik operatsiyasi to‘g‘risidagi ma’lumot tizimga faqat bir marta kiritilib, ombor hisobi, buxgalteriya hisobi, soliq hisobi, boshqaruv hisobi va audit uchun yagona axborot bazasidan foydalaniladi. Bu ma’lumotlarning takror kiritilishini kamaytiradi va hisob ko‘rsatkichlarining o‘zaro mosligini ta’minlaydi.

Savdo korxonalarida tovar-moddiy zaxiralarni real vaqt rejimida ishonchli hisobga olish ham muhim muammolardan biridir. Tovarlarning xarid qiymati, transport-tayyorlov xarajatlari, chegirmalar, qaytarishlar, yaroqlilik muddati va qadrsizlanishi ularning balans qiymatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli har bir tovar birligi yoki partiyasi bo‘yicha “raqamli tovar pasporti”ni shakllantirish taklif etiladi. Unda tovarning xarid sanasi, yetkazib beruvchisi, xarid narxi, ombori, sotish narxi, chegirmasi, qaytarilishi va joriy qoldig‘i yagona identifikatsiya kodi orqali bog‘lanishi lozim. Bu IAS 2 “Inventories” talablariga muvofiq tovarlarni baholash va nazorat qilish imkoniyatini oshiradi.

Savdo korxonalari faoliyatidagi yana bir muammo daromadlarni tan olish jarayonining murakkabligidir. Zamonaviy savdoda oldindan to‘lov, muddatli to‘lov, cashback, bonus, qaytarish huquqi va marketpleys komissiyalari daromadni to‘g‘ri aniqlashni murakkablashtiradi. IFRS 15 “Revenue from Contracts with Customers” talablariga muvofiq daromadni tan olish xaridor bilan tuzilgan shartnoma, bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlar va nazoratning xaridorga o‘tishi bilan bog‘liq.

Shu sababli savdo korxonalarining ERP tizimiga IFRS 15 asosidagi avtomatlashtirilgan daromadlarni tan olish modulini integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Ushbu modul chegirma, bonus, qaytarish va boshqa shartlarni hisobga

olgan holda daromadning tan olinadigan summasi va vaqtini avtomatik aniqlashga xizmat qiladi.

Milliy hisob tizimida shakllangan ma’lumotlarni MHXSga transformatsiya qilish jarayoni ham ko‘p hollarda qo‘shimcha mehnat talab qiladi. Shu bois “MHXS mapping” mexanizmini joriy etish taklif etiladi. Bunda amaldagi hisobvaraqlar va analitik ma’lumotlar xalqaro hisobot elementlari bilan oldindan bog‘lanadi. Natijada hisobot davri oxirida ma’lumotlarni qo‘lda qayta guruhlash hajmi kamayadi.

Audit jarayonida esa operatsiyalar sonining ko‘pligi sababli barcha operatsiyalarni an’anaviy usullar yordamida tekshirish qiyin. Shu nuqtai nazardan, Audit Data Analytics texnologiyalaridan foydalanish auditorlik samaradorligini oshiradi. Bunda tizim noodatiy chegirmalar, ish vaqtidan tashqari sotuvlar, ko‘p marotaba qaytarishlar, manfiy ombor qoldig‘i, tannarxdan past sotish yoki takroriy tuzatish yozuvlarini avtomatik ravishda aniqlaydi.

Mazkur yondashuvni takomillashtirish uchun savdo korxonalarida “Digital Audit Risk Map - Raqamli auditorlik risklari xaritasi”ni shakllantirish taklif etiladi. Unda har bir operatsiyaga risk ballari beriladi va yuqori riskli operatsiyalar auditor tomonidan chuqurroq tekshiriladi. Bu ISA 315 talablariga muvofiq auditorlik risklarini aniqlash va baholash jarayonining samaradorligini oshiradi.

Raqamli tizimlarda elektron auditorlik dalillarining ishonchliligi ham muhim ahamiyatga ega. Auditor uchun ma’lumotning qachon yaratilgani, kim tomonidan kiritilgani va qanday o‘zgartirilgani haqidagi axborotlar zarur. Shu sababli savdo korxonalarining axborot tizimlarida **elektron audit izi – audit trail**ni shakllantirish lozim. Bu auditorlik dalillarining ishonchliligini oshirish, noqonuniy o‘zgartirishlarni aniqlash va ichki nazorat samaradorligini kuchaytirishga yordam beradi.

2-jadval

Savdo korxonalarida hisob va auditni raqamlashtirish bo‘yicha taklif etilayotgan yechimlar

Yo‘nalish	Taklif etilayotgan yechim	Xalqaro asos	Kutiladigan natija
Tovarlar hisobi	Raqamli tovar pasporti	IAS 2	Tovar harakatini real vaqt rejimida nazorat qilish
Daromadlar hisobi	Avtomatik daromad moduli	IFRS 15	Daromadlarni to‘g‘ri tan olish
Moliyaviy hisobot	MHXS mapping	MHXS	Transformatsiyani avtomatlashtirish
Audit rejalashtirish	Digital Audit Risk Map	ISA 315	Riskli operatsiyalarni aniqlash
Audit dalillari	Elektron audit trail	ISA 500	Dalillar ishonchliligini oshirish
Analitik audit	Audit Data Analytics	ISA 520	Tranzaksiyalarni kompleks tahlil qilish

Shuningdek, savdo korxonalarida ichki auditni faqat davriy tekshiruv sifatida emas, balki uzluksiz monitoring mexanizmi sifatida rivojlantirish lozim. Bunda axborot tizimi belgilangan risk chegaralaridan chetga chiqish holatlari yuzaga kelganda ichki auditorga avtomatik xabarnoma yuborishi mumkin.

Umuman olganda, taklif etilayotgan raqamli model quyidagi uzluksiz axborot zanjiri asosida shakllanishi mumkin:

Xarid → elektron ombor → raqamli tovar pasporti → POS yoki elektron savdo → elektron to‘lov → ERP → buxgalteriya registrlari → MHXS mapping → moliyaviy hisobot → Audit Data Analytics → Digital Audit Risk Map → auditorlik natijasi.

Mazkur modelning asosiy afzalligi shundaki, buxgalteriya hisobi va audit alohida jarayon sifatida emas, balki yagona raqamli axborot muhitida faoliyat yurituvchi o‘zaro bog‘liq tizim sifatida qaraladi. Natijada hisob ma’lumotlarining tezkorligi va ishonchliligi oshadi, tovarlar harakati yanada shaffof bo‘ladi, xalqaro standartlar talablari hisob tizimiga bevosita integratsiya qilinadi hamda auditorlik risklarini avtomatik aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ–282-son “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati sohasida 2025-yil davomida erishilgan natijalar yuzasidan ma’lumotnoma. – 2026.
3. Urazov K.B., Po‘latov X.U. Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025. – 3-jild, 5-son. – B. 211–221. DOI: 10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss5-pp211-221.
4. Po‘latov X.U. Elektron savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – 1-jild, 11–12-son. DOI: 10.55439/GED/vol1_iss11-12/a210.
5. Do‘smuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. – 500 b.
6. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. – Toshkent, 2004. – 450 b.
7. International Accounting Standards Board. IAS 2 “Inventories”.
8. International Accounting Standards Board. IFRS 15 “Revenue from Contracts with Customers”.
9. International Auditing and Assurance Standards Board. ISA 300 “Planning an Audit of Financial Statements”.
10. International Auditing and Assurance Standards Board. ISA 315 “Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement”.
11. International Auditing and Assurance Standards Board. ISA 500 “Audit Evidence”.
12. International Auditing and Assurance Standards Board. ISA 520 “Analytical Procedures”.
13. International Auditing and Assurance Standards Board. ISA 530 “Audit Sampling”.

TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA AUDITNI XALQARO AUDIT STANDARTLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Fayzillayev Alisher Baxrom o‘g‘li
Lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni: Katta o‘qituvchi
Ish joyi: Toshkent davlat transport unversiteti
Telefon: +998-94-538-42-22_ Elektron pochta: afayzilla8@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada temir yo‘l transporti korxonalarida moliyaviy hisobot auditini Xalqaro audit standartlari (XAS) asosida tashkil etishning metodologik xususiyatlari tadqiq etilgan. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2020-yilgi auditorlik xulosasi va MHXS bo‘yicha konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlari, 2020–2025-yillardagi rasmiy statistika hamda 2026-yildagi raqamlashtirish jarayonlari asosida tarmoqning muhim auditorlik risklari aniqlangan. Riskka asoslangan, axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan audit modeli va amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: temir yo‘l transporti, xalqaro audit standartlari, auditorlik riski, muhimlik, asosiy vositalar, daromad, valyuta riski, faoliyat uzluksizligi, axborot tizimlari, forenzik audit.

Kirish

Temir yo‘l transporti mamlakatning ishlab chiqarish, tashqi savdo va hududlararo aloqalarini uzluksiz bog‘lovchi strategik infratuzilmadir. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ rasmiy ma’lumotiga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatida temir yo‘llarning umumiy uzunligi 7 540 km dan ortiq, yuk aylanmasi 27,9 mlrd tonna-km, yo‘lovchi aylanmasi 4 300,2 mln yo‘lovchi-km bo‘lib, tizimda 63 mingdan ortiq xodim ishlagan [1]. Faoliyat ko‘lami, sho‘ba korxonalar soni, kapital sig‘imi, tariflar, xalqaro hisob-kitoblar va davlat bilan bog‘liq vazifalar auditorlik risklarining o‘ziga xos majmuasini yuzaga keltiradi.

Milliy statistika qo‘mitasining yangilangan yillik ma’lumotlarida temir yo‘l orqali tashilgan yuk 2020-yildagi 70,6 mln tonnadan 2025-yilda 105,8 mln tonnaga yetgani qayd etilgan [2]. Olti yildagi o‘sish 49,9 foizni tashkil etadi. Operatsiyalar hajmining bunday kengayishi tashish hujjatlari, daromadni tan olish, vagon va konteyner aylanishi, xarajatlarni yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlash hamda raqamli ma’lumotlar yaxlitligi ustidan audit ko‘lamini oshiradi. Shu sababli auditni faqat hisobot satrlarini tekshirish sifatida emas, balki biznes jarayonlari, ichki nazorat va IT-muhitni birlashtirgan riskka asoslangan tizim sifatida tashkil etish zarur.

Normativ-metodologik asos

O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-677-son Qonuniga muvofiq auditorlik faoliyati Xalqaro buxgalterlar federatsiyasining ruxsati asosida mamlakatda e’lon qilingan xalqaro standartlar bo‘yicha amalga oshiriladi [3]. Auditning umumiy maqsadi moliyaviy hisobotda firibgarlik yoki xato oqibatidagi muhim buzib ko‘rsatishlar mavjud emasligi haqida oqilona ishonch hosil qilishdir. XAS 315 (2019-yilda qayta ko‘rilgan) risklarni izchil aniqlash va baholashni, XAS 330 esa baholangan risklarga mos auditorlik

amallarini belgilashni talab qiladi [4]. XAS 240 firibgarlik omillariga, XAS 500 dalillarning yetarliligi va tegishliligiga, XAS 540 hisobiy baholarga, XAS 570 faoliyat uzluksizligiga, XAS 701 esa muhim auditorlik masalalarini xulosada yoritishga metodologik asos beradi [5–7].

Temir yo‘l korxonasida rejalashtirish avvalo konsolidatsiya chegarasi, filial va sho‘balar, muhim operatsion sikllar hamda axborot tizimlari xaritasini aniqlashdan boshlanishi lozim. Umumiy moliyaviy muhimlik daromad, aktiv yoki foyda kabi mezonlardan professional mulohaza bilan tanlanadi; biroq tariflar, davlat mablag‘lari, bog‘liq tomonlar, xavfsizlikka ta’sir qiluvchi xarajatlar va qonunchilikka rioya etish masalalarida miqdor kichik bo‘lsa ham sifat jihatidan muhimlik qo‘llanadi. Keyin ajralmas risk, nazorat riski va aniqlamaslik riski bog‘lanib, har bir tasdiq bo‘yicha audit dasturi tuziladi.

Tarmoq risklari va 2020-yil hisobotining tahlili

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2020-yilgi milliy standartlar asosidagi moliyaviy hisoboti “NAZORAT-AUDIT” MChJ tomonidan XASga muvofiq tekshirilgan va modifikatsiyalanmagan fikr bildirilgan [8]. Biroq taqdim etilgan xulosada muhim auditorlik masalalari alohida bo‘limda temir yo‘l tarmog‘i kesimida konkretlashtirilmagan. MHXS bo‘yicha konsolidatsiyalangan hisobot esa risklarning iqtisodiy ko‘lamini ko‘rsatadi: 2020-yil oxirida jami aktivlar 28,211 trln so‘m, asosiy vositalar 18,883 trln so‘m, kredit va qarzlar 21,699 trln so‘m, daromad 12,344 trln so‘m va sof foyda 97,2 mlrd so‘mni tashkil etgan [9]. Asosiy vositalar aktivlarning 66,9 foiziga, kredit va qarzlar esa 76,9 foiziga teng bo‘lgan.

1-jadval.

Temir yo‘l transportida riskka asoslangan audit matritsasi[11].

Riskli soha	Asosiy audit amallari	XAS bilan bog‘liqlik
Asosiy vositalar	Mavjudlik, huquq, kapitalizatsiya, foydali xizmat muddati, amortizatsiya va qadrsizlanishni tekshirish	XAS 315, 500, 540
Tashish daromadi	Elektron chipta va yuk hujjatlarini bosh kitob bilan solishtirish; davrlar chegarasi va tariflarni testlash	XAS 240, 330, 500
Kredit va valyuta	Tashqi tasdiq, shartlar, foiz, kurs farqi, kovenant va tasnifni tekshirish	XAS 505, 540, 570
Zaxira va debitorlik	Inventarizatsiya, eskirish, undiriluvchanlik va kutilayotgan kredit zararini baholash	XAS 501, 505, 540
IT va xaridlar	Kirish huquqlari, o‘zgarishlar jurnali, interfeyslar, takroriy to‘lov va manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilish	XAS 240, 315, 330

2020-yilda tovar-moddiy zaxiralar 42,1 foizga oshgan, uzoq muddatli debitorlik qarzi esa qariyb to‘rt baravar ko‘paygan. Sof valyuta zarari 1,538 trln so‘mni tashkil etgan. Korxona 97,2 mlrd so‘m sof foyda ko‘rsatganiga qaramay, operatsion pul oqimi 246,0 mlrd so‘m manfiy bo‘lgan [9]. Shuning uchun auditor foydaning pul oqimiga aylanishi, avanslar, zaxiralar, debitorlik qarzi, xorijiy

[11] *Manba: muallif ishlanmasi.*

valyutadagi qarzlar va faoliyat uzluksizligi bo‘yicha rahbariyat prognozlarini o‘zaro bog‘liq holda baholashi kerak. 2026-yil dekabridan keyin boshlanadigan davrlar uchun kuchga kiruvchi XAS 570 (2024-yilda qayta ko‘rilgan) yanada puxta va erta risk baholashni nazarda tutadi [7].

Takomillashtirilgan audit modeli

Taklif etilayotgan model besh bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda korxona, konsolidatsiya doirasi, tashish va xarid jarayonlari, daromad kanallari, IT-infratuzilma hamda tartibga solish muhiti o‘rganiladi. Ikkinchi bosqichda “jarayon–risk–nazorat–tasdiq” matritsasi tuzilib, muhimlik va tanlash hajmi belgilanadi. Uchinchi bosqichda nazorat testlari, moddiy tekshiruvlar va tashqi tasdiqlar bajariladi. To‘rtinchi bosqichda ma’lumotlar tahlili orqali barcha operatsiyalar majmuasida noodatiy tariflar, takroriy to‘lovlar, dam olish kunidagi o‘tkazmalar, qo‘lda kiritilgan yozuvlar va bog‘liq tomon alomatlari izlanadi. Beshinchi bosqichda topilmalar korporativ boshqaruv organlariga yetkazilib, XAS 701 talablari asosida foydalanuvchilar uchun eng muhim masalalar xulosada ochib beriladi.

Mazkur yondashuv jamiyatdagi amaliy raqamlashtirish bilan uyg‘un. Rasmiy saytda 2026-yil iyulida ERP tizimini joriy etish bo‘yicha ishchi guruh yig‘ilishi, avgustda esa zamonaviy axborot tizimlarini rivojlantirish masalalari muhokama qilingani qayd etilgan [10]. Bundan tashqari, 2026-yilda 2024–2025-yillardagi xarid jarayonlari bo‘yicha forenzik audit xizmatlarini xarid qilish e’lon qilingan [11]. Demak, auditorlar ERPning umumiy IT-nazoratlarini audit rejasiga kiritishi, elektron dalillar kelib chiqishi va o‘zgarmaganligini tasdiqlashi, xarid ma’lumotlarida narx, yetkazib beruvchi, foydalanuvchi va vaqt belgilarini uzluksiz monitoring qilishi zarur.

Ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar

1) temir yo‘l korxonalari uchun XASga zid bo‘lmagan tarmoq audit uslubiy qo‘llanmasini ishlab chiqib, unda asosiy vositalar, tashish daromadi, tariflar, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar, kreditlar va valyuta risklari bo‘yicha namunaviy amallarni belgilash;

2) yillik audit rejasini statik tekshiruvdan risklar reytingiga asoslangan dinamik rejaga o‘tkazish va risk indikatorlarini har chorakda qayta baholash;

3) ERP, elektron chipta, yuk tashish va buxgalteriya tizimlari o‘rtasida nazorat summalari hamda o‘zgarmas audit izini joriy etish, auditor uchun o‘qish huquqidagi xavfsiz ma’lumotlar oynasini yaratish;

4) xaridlar, yoqilg‘i sarfi, ta’mirlash va to‘lovlarda uzluksiz audit algoritmlarini qo‘llab, takroriy hisob-faktura, bo‘lib xarid qilish, g‘ayrioddiy narx va manfaatlar to‘qnashuvini avtomatik aniqlash;

5) auditorlik xulosasida asosiy vositalar qadrsizlanishi, qarz va valyuta risklari, daromadni tan olish, debitorlik qarzi hamda IT-muhit kabi muhim auditorlik masalalarini korxonaga xos dalil va javob amallari bilan yoritish;

6) ichki audit, tashqi auditor va audit qo‘mitasi o‘rtasida topilmalar reyestrini yuritib, har bir tavsiya uchun mas’ul, muddat, qoldiq risk va bajarilganlik dalilini belgilash.

Xulosa

Temir yo‘l transportida operatsiyalar hajmining oshishi, aktivlarning kapital sig‘imi, kredit va valyuta majburiyatlari, ko‘p bosqichli tashish hamda raqamli tizimlarning kengayishi audit metodologiyasini tarmoqqa moslashtirishni talab etadi. 2020-yilgi hisobot tahlili asosiy vositalar, qarzlar, zaxiralar, debitorlik qarzi va pul oqimlari muhim risk ekanini ko‘rsatdi. XAS 315, 330, 500, 540, 570 va 701 talablarini yagona risk matritsasida uyg‘unlashtirish, ERP ma’lumotlari tahlili va uzluksiz auditni joriy etish auditorlik dalillarining sifati hamda xulosa axborot qiymatini oshiradi. Taklif etilgan model moliyaviy hisobot ishonchliligini mustahkamlash, resurslardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish va korporativ boshqaruv qarorlarini tezkor axborot bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ rasmiy sayti. “Qiziq faktlar”, 01.01.2026 holatiga. https://railway.uz/uz/ .

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Temir yo‘l transportida tashilgan yuklar hajmi (yillik), 2020–2025. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_525.pdf .

3. O‘zbekiston Respublikasining 25.02.2021-yildagi O‘RQ-677-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-5307886.

4. IAASB. ISA 315 (Revised 2019), Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement. https://www.iaasb.org/publications/isa-315-revised-2019-identifying-and-assessing-risks-material-misstatement.

5. IAASB. ISA 240 (Revised), The Auditor’s Responsibilities Relating to Fraud in an Audit of Financial Statements. 2025. https://www.iaasb.org/publications/isa-240-revised-auditor-s-responsibilities-relating-fraud-audit-financial-statements.

6. IAASB. ISA 701, Communicating Key Audit Matters in the Independent Auditor’s Report. https://www.iaasb.org/publications/international-standard-auditing-isa-701-new-communicating-key-audit-matters-independent-auditor-s-3.

7. IAASB. ISA 570 (Revised 2024), Going Concern. https://www.iaasb.org/publications/isa-570-revised-2024-going-concern.

8. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ. 2020-yil 31-dekabrda tugagan yil uchun milliy standartlar asosidagi moliyaviy hisobot bo‘yicha mustaqil auditor xulosasi. “NAZORAT-AUDIT” MChJ, 28.06.2021.

9. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va uning sho‘ba tashkilotlari. 2020-yil uchun MHXS bo‘yicha konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot.

10. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ. ERP tizimini joriy etish va raqamlashtirish loyihalari haqidagi rasmiy xabarlar, 21.07.2026 va 07.08.2026. https://railway.uz/uz/.

11. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ. 2024–2025-yillar xarid jarayonlari forenzik auditi bo‘yicha xizmat xaridi e’loni, 05.06.2026. https://railway.uz/uz/.

MODERN INSTRUMENTS OF RISK MANAGEMENT IN INTERNAL AUDIT: THE RISK MATRIX, THE RISK MAP, THE RISK REGISTER AND THE PDCA CYCLE

Ismatillaev Baypulat Khushvaktovich
Independent researcher Tashkent State University of Economics
Tashkent, Republic of Uzbekistan Tel.: +998 (99) 048-06-22

Abstract. The paper analyses the modern instruments of systematic risk management in public-sector internal audits: the risk matrix, the risk map, the heat map, the risk registers and the PDCA cycle. The genesis, structure and order of application of each instrument are set out, and their effect on the effectiveness of risk-based auditing when applied as a single system is substantiated. The author proposes an integral risk index and a decision rule that converts the ordinal scores produced by these instruments into audit frequency, scope and resource allocation, without which the instruments remain descriptive.

Keywords: internal audit, risk-based auditing, risk matrix, risk map, heat map, risk register, PDCA cycle, integral risk index, COSO ERM, ISO 31000.

Modern internal audit is founded on treating risk as a manageable category. The theoretical foundation was laid by F. Knight, who distinguished risk — an event whose probability can be calculated — from uncertainty, whose probability cannot [1]. Three approaches subsequently took shape: the technical approach studies risk as the probability of financial loss; the managerial approach treats it as an obstacle to the achievement of strategic objectives; and the complex approach, embodied in the COSO ERM model, interprets risk as a category covering both adverse consequences and positive opportunities [2]. It was precisely the complex approach that provided the basis for the practical instruments of risk management, and its logic was reinforced in the 2017 edition of the framework, which ties risk directly to strategy and performance [3].

The first instrument — the risk matrix — expresses the level of a risk quantitatively by placing it on the axes of probability and impact. The concept took shape in industrial risk management in the 1980s and 1990s, in particular in the Australian and New Zealand standard AS/NZS 4360 of 1995 [4] and was later consolidated at the international level in ISO 31000 [5]. In practice a 5×5 matrix is widely applied: probability and impact are assessed on five levels, from very low to very high, and the resulting scores from 1 to 25 express the overall level of the risk; the risks in the upper right corner demand attention first (Table 1).

Table 1

The 5×5 risk matrix and the banding of its scores

Probability / Impact	1 – Very low	2 – Low	3 – Medium	4 – High	5 – Very high
5 – Very high	5	10	15	20	25
4 – High	4	8	12	16	20
3 – Medium	3	6	9	12	15
2 – Low	2	4	6	8	10
1 – Very low	1	2	3	4	5

Source: compiled by the author on the basis of [4, 5]. Shading: green — low band (1–6), amber — medium band (8–12), red — high band (15–25).

It should be stressed that the score itself is not yet a decision. The matrix produces an ordinal measure, and the analytical value of that measure appears only when the band into which it falls is linked to a specific consequence for the audit plan — a point to which the proposal below returns.

The second instrument — the risk map — is the visual development of the matrix, worked out in consulting practice in the 1990s. Each risk is placed in the cell assigned to it, so that the auditor identifies the most dangerous areas at a glance, while the heat map shows the distribution of risks across categories. In the public sector the risk map becomes the basic instrument for selecting audit objects and for justifying the annual plan.

The third instrument — the risk register — is the principal document complementing the risk map: it systematises detailed information on every risk (Table 2).

Table 2

Structure of the risk register of public-sector internal audit

№	Column	Content
1	Risk number	Identification code of the risk
2	Description of the risk	Content expressed in a precise and measurable form
3	Source	The factor or process that gives rise to the risk
4	Probability	Likelihood of occurrence (on a 1–5 point scale)
5	Impact	Severity of the consequences (on a 1–5 point scale)
6	Level of risk	Final score based on the product of probability and impact
7	Responsible person	The officer accountable for managing the risk
8	Measures	Response actions defined in a practical and measurable form

Source: compiled by the author on the basis of the recommendations of international professional practice [6].

To secure the quality of the data in the register, world practice observes five requirements: every risk is described precisely and measurably; its source is stated; probability and impact are assessed on a points scale; the responsible officer is clearly identified; and the response measures are practical and verifiable. A register that meets these requirements ceases to be a mere list and becomes an effective management instrument, continuously updated in the course of the audit.

The fourth instrument — the PDCA cycle (Plan–Do–Check–Act), which secures the continuity of risk management — was initially proposed by W. Shewhart within quality theory in 1939 and widely promoted by W.E. Deming. Its four stages appear in internal audit as follows: Plan — identification and assessment of risks; Do — implementation of the measures determined; Check — monitoring of the results; Act — introduction of corrections on the basis of the experience obtained. The repetitive character of the cycle secures continuous improvement in the management of risk.

Applied as a whole, these instruments constitute the practical foundation of risk-based auditing: the auditor begins each engagement with a risk assessment and

sets the volume and depth of the examination in proportion to the level of risk, so that resources are directed to the most hazardous objects [7, 8]. Table 3 summarises the place of each instrument in the audit cycle.

Table 3

The four instruments in the cycle of risk-based internal audit

Instrument	International source	Function in the audit cycle	Output
Risk matrix	AS/NZS 4360:1995; ISO 31000	Measures the level of a risk on the probability and impact axes	Score from 1 to 25 and a risk band
Risk map / heat map	Consulting practice of the 1990s	Selection of audit objects and justification of the annual plan	Visual map of the risk field
Risk register	IIA professional practice	Documents the attributes, owner and response measures of each risk	Working paper updated continuously
PDCA cycle	Shewhart (1939), Deming	Secures the continuity of the response and of the follow-up	Corrected plan for the next cycle

Source: developed by the author.

Recent years have also produced modern lines of development. Instead of the traditional two-dimensional risk map, a four-dimensional concept (4D Risk Map) is being proposed, in which every risk is reflected not only by its position in terms of probability and impact but also by its economic magnitude (through the size of the bubble) and by its nature — which makes it possible to give particular attention to risks of low probability but large magnitude. The risk monitoring dashboard serves to observe the state of risks in real time: it comprises four segments — the total number of risks and their trend, the distribution by category, the monthly dynamics and the distribution across areas — and is a convenient instrument for management in taking decisions [8].

Conclusions

The risk matrix, the risk map, the risk register and the PDCA cycle form a single mutually complementary system that turns public-sector internal audit from subjective judgement into a scientifically grounded, documented and continuous process. Their introduction into national practice — consolidation within the methodological documents of internal audit services and the training of auditors in the corresponding skills — is a necessary condition for the transition to risk-based auditing. The four instruments are nevertheless not self-executing: each of them produces a measurement, and the measurement acquires managerial meaning only through a rule that converts it into a planning decision.

Scientific-theoretical proposal and recommendation

Scientific-theoretical proposal. It is proposed to link the four instruments through an integral risk index of the audit object, $IRI_j = (\Sigma\, w_i \cdot s_i) / 25$, where $s_i = p_i \times c_i$ is the matrix score of risk i taken from the register (from 1 to 25), w_i is its weight and $\Sigma\, w_i = 1$, so that the index lies in the interval from 0.04 to 1.00. Three tiers of objects are distinguished by the value of the index: high risk ($IRI \geq 0.60$) — an annual audit of full scope with about half of the resource budget; medium

risk ($0.30 \leq IRI < 0.60$) — an audit once in two years with about a third of the budget; low risk ($IRI < 0.30$) — an audit once in three years. The index is supplemented by a critical-indicator rule: a single risk with a score of 20 or 25 moves the object into the high tier irrespective of the value of the index, since an averaged indicator can dissolve an isolated catastrophic risk in a mass of insignificant ones. The methodological necessity of this construction follows from the nature of the instruments themselves: the matrix, the map and the register generate ordinal measurements, but none of them contains a rule for converting a measurement into a decision on the frequency, the scope or the resourcing of an audit. Without such a rule risk assessment remains an accompanying description of the plan rather than its basis, and risk-based auditing is proclaimed rather than practised.

Practical recommendations. First, the 5×5 matrix with the banding shown in Table 1 and the eight attributes of the register given in Table 2 should be fixed in the methodological guidance of internal audit services as a mandatory working paper of the planning stage. Second, the register should be maintained not on paper but as an electronic module with the four-segment monitoring dashboard, which makes the migration of risks between bands observables. Third, the methodological base should be brought to the current editions of the international documents — ISO 31000:2018 and the 2017 COSO framework — since services still rely on the 2004 and 2009 editions, in which risk was not yet tied to strategy and performance. Fourth, the closing stages of the PDCA cycle should be made obligatory: a post-implementation review of the measures with a fixed deadline, so that Check and Act do not remain declarative. Fifth, work with the matrix, the register and the index should be included in the professional development and certification programmes of auditors, since an instrument that is not mastered is not applied.

References

1. Knight F.H. Risk, Uncertainty and Profit. — Boston: Houghton Mifflin, 1921.

2. COSO. Enterprise Risk Management — Integrated Framework. — New York: COSO, 2004.

3. COSO. Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance. — New York: COSO, 2017.

4. AS/NZS 4360:1995. Risk Management. — Sydney; Wellington: Standards Australia, Standards New Zealand, 1995.

5. ISO 31000:2018. Risk Management — Guidelines. — Geneva: ISO, 2018.

6. Pickett K.H.S. The Internal Auditing Handbook. 4th ed. Chichester: John Wiley & Sons, 2020.

7. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services. 16th ed. Harlow: Pearson Education, 2018.

8. IIA. Global Internal Audit Standards. — Lake Mary (FL): The IIA, 2024.

THE ROLE OF INTERNATIONAL STANDARDS IN THE AUDIT OF PUBLIC PROCUREMENT

Rajabov Shuhrat Ismayilovich
Independent researcher Tashkent State University of Economics
Tashkent, Republic of Uzbekistan Tel.: +998 (99) 427-58-88;

Abstract. The paper analyses the role and significance of international standards — ISSAI 4000, ISSAI 300, GUID 5280 and the IIA standards — in the audit of public procurement. It examines the construction, on the basis of these standards, of a system of audit procedures, of checklists for each stage of the procurement process, and of the four-element structure of a finding. The author proposes a three-layer methodological architecture of procurement audit and an admissibility rule for findings, together with a completeness coefficient that turns the four-element structure from a format of description into an instrument of quality control.

Keywords: public procurement, compliance audit, performance audit, ISSAI 4000, ISSAI 300, GUID 5280, audit procedures, audit evidence, checklist, structure of a finding, working papers.

The quality and reliability of the audit of public procurement depend to a large degree on its being founded on international standards. In practice the audit of procurement is often carried out without a single methodological basis, each auditor following his own approach. Such methodological fragmentation leads to differing levels of audit quality, to important matters being left outside the auditors' attention, and to the results of audits not being comparable with one another. A single approach, grounded in international standards, is therefore necessary for the audit of public procurement.

The basis of the audit of public procurement is formed by several international standards, which are related to one another hierarchically rather than as a simple list: ISSAI 100 fixes the fundamental principles, ISSAI 300 and ISSAI 4000 develop them for the performance and the compliance audit respectively, and GUID 5280 supplies practical guidance for the procurement field itself (Table 1).

Table 1

The international normative base of the audit of public procurement

Standard	Issued by	Subject	Role in the audit of public procurement
ISSAI 100	INTOSAI	Fundamental principles of public-sector auditing	Defines the common framework of the three audit types and the mandate of the auditor
ISSAI 4000	INTOSAI	Compliance audit standard	Requirements and procedures for examining the lawfulness of the procurement process
ISSAI 300	INTOSAI	Performance audit principles	Assessment of the economy, efficiency and effectiveness of the use of funds
GUID	INTOSAI	Guidance for audits of public	Detailed guidance on the conduct of

5280		procurement	the procurement audit itself
Global Internal Audit Standards	IIA	General principles of internal audit	Independence, due professional care, quality control and the form of working papers

Source: compiled by the author on the basis of [1–5].

The national legal contour is set by the Law “On public procurement” [6], under which state control in this sphere is exercised by several bodies at once — the Accounts Chamber, the Prosecutor General’s Office, the Anti-Corruption Agency, the Ministry of Finance and the Antimonopoly Committee. This gives the methodological fragmentation noted above an institutional explanation: the same procurement may be examined by different bodies, each applying its own working methodology, so that the divergence of results is not an accident of individual practice but a structural consequence of the division of control functions. A procedure system common to these bodies and built on the ISSAI framework is therefore a condition of comparability, not merely a means of improving the work of a single auditor.

On the basis of these standards a system of procurement audit procedures is developed. Its foundation consists of six basic types of audit procedure — inspection, inquiry, confirmation, recomputation, observation and analytical procedures — which allow the auditor to gather evidence from different sources. Under the standards the evidence must be sufficient and appropriate, that is, reliable in quantity and in quality; the auditor assesses its reliability by its source and by the method of obtaining it. Data from electronic systems are a particularly reliable source, being objective and difficult to alter — which matters directly for procurement, where the procedures are conducted electronically.

The procedures are adapted to each stage of the procurement process, and for each stage a checklist is developed containing the list of questions the auditor is required to examine, so that the audit is conducted uniformly and completely (Table 2).

Table 2

Adaptation of audit procedures to the stages of the procurement process

Stage of the procurement process	What is examined	Dominant procedures	Typical source of evidence
Planning	Justification of the procurement need	Inspection, inquiry, analytical procedures	The approved procurement plan and the justification of the need
Formation of the price	The price calculation and its basis	Recomputation, analytical procedures	The price calculation and open price sources
Choice of the method	Lawfulness of the procedure selected	Inspection, confirmation	The procedure protocol and the legal ground for the choice
Evaluation of bids	Impartiality of the evaluation	Inspection, inquiry, observation	The evaluation protocol and the explanations of commission members

Performance of the contract	Acceptance of goods and payments	Inspection, confirmation, recomputation	Acceptance certificates, payment orders, bank statements

Source: developed by the author on the basis of [1, 3, 6].

The auditor selects the procedures appropriate to the objective and often applies several together. At the stage of evaluating bids, for example, the auditor inspects the evaluation protocol, analyses the conformity of the evaluation criteria with the legislation, requests explanations from commission members where necessary, and documents the results through the checklist. Such a combined approach raises the reliability of the evidence and allows partiality in the evaluation to be detected.

One of the important elements founded on international standards is the four-element structure of a finding, according to which every deficiency identified is set out through criteria, condition, cause and effect (Table 3). This structure makes it possible to describe a deficiency fully and with justification, and to develop practical recommendations directed at its cause.

Table 3

The four-element structure of a finding in the audit of public procurement

Element	Question answered	Requirement of documentation	Example from a procurement audit
Criteria	What should it have been?	A reference to the specific norm — an article of the law or a clause of the standard	The norm requiring a competitive procedure above the established threshold
Condition	What was actually found?	The established fact with a reference to the evidence and its source	The contract was concluded directly, without a competitive procedure
Cause	Why did it arise?	The factor or control weakness, not a restatement of the condition	Absence of control over the splitting of a single need into small lots
Effect	What loss did it lead to?	Expressed in money or as a measurable exposure	The difference between the contract price and the market price of the goods

Source: developed by the author on the basis of [2, 3, 5].

The procedures, the checklists and the working papers are brought together in a single audit programme, which determines the objective, the scope and the term of the audit, the procedures to be performed and the persons responsible, and which is formed in accordance with the requirements of the international standards. The working papers reflect the procedures performed, the evidence gathered and the conclusions reached, and matter for quality control and for integration with external audit. Standardisation of the procedure system secures a uniform level of quality, raises the comparability of results, eases the training of auditors and the assessment of their work, and lets new auditors begin work sooner while experienced ones follow a single methodology.

Conclusions

International standards — ISSAI 4000, ISSAI 300, GUID 5280 and the standards of the IIA — constitute the methodological basis of the audit of public procurement. The development on their basis of a system of audit procedures, of checklists and of a structure of findings removes the methodological fragmentation of the audit, standardises its quality and brings it into correspondence with contemporary international practice. Organising the audit of public procurement in the Republic of Uzbekistan on the basis of international standards brings the national audit system closer to world practice; this requires the adaptation of the standards to national conditions, the provision of auditors with the corresponding methodological guides and the raising of their qualification.

Scientific-theoretical proposal and recommendation

Scientific-theoretical proposal. It is proposed to construct the methodology of procurement audit as three linked layers rather than as a set of separate instruments: a normative layer, in which the requirements of ISSAI 4000, ISSAI 300 and GUID 5280 are mapped onto the specific norms of national procurement legislation; a procedural layer, in which each stage of the procurement process is assigned a mandatory minimum set of procedures, as in Table 2; and a documentary layer, formed by the checklist, the four-element finding and the index of working papers. The layers are joined by an admissibility rule for findings: a finding is included in the audit report only if all four of its elements are documented, the criteria element contains a reference to a concrete norm and the effect element is expressed in money or as a measurable exposure. Compliance is measured by a completeness coefficient $K_f = F_4 / F$, where F_4 is the number of findings documented in all four elements and F the total number of findings, with a target value of 1.00 as a mandatory quality indicator of the report. The necessity of the rule follows from the way the structure behaves in practice: as a format of description it obliges no one to anything, and the elements omitted first are precisely cause and effect, those that are laborious to establish. Yet a finding without a cause yields a recommendation aimed at the symptom, and a finding without a quantified effect can neither be prioritised nor compared between audits or control bodies. The structure must therefore act as an admissibility filter, not as a template for presentation.

Practical recommendations. First, the checklists for the five stages and the four-element finding form should be approved as annexes to the methodological guidance on procurement audit, so that they become mandatory working papers and not optional aids. Second, the coefficient K_f should be introduced as an indicator of the quality control of the audit report and be verified when the report is reviewed. Third, since procurement procedures are conducted electronically, the checklists should be tied to the data of the electronic procurement system, which converts a substantial part of the procedures from sampling into full-population testing. Fourth, a common methodological guide should be agreed among the control bodies named in the Law on public procurement, since without it the standardisation of the work of a single body does not make results comparable across bodies. Fifth, the training and certification programmes of auditors should

include work with GUID 5280 and with the structure of findings, since it is the quality of the finding, and not the number of examinations, that determines the practical value of the audit.

References

1. INTOSAI. ISSAI 100. Fundamental Principles of Public-Sector Auditing. — Vienna: INTOSAI, 2019.

2. INTOSAI. ISSAI 300. Performance Audit Principles. — www.issai.org.

3. INTOSAI. ISSAI 4000. Compliance Audit Standard. — www.issai.org.

4. INTOSAI. GUID 5280. Guidance for Audits of Public Procurement. — www.issai.org.

5. IIA. Global Internal Audit Standards. — Lake Mary (FL): The IIA, 2024. — www.theiia.org.

6. Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-684 of 22.04.2021 “On public procurement” // National Database of Legislation. URL: https://lex.uz/docs/5382974.

7. Sawyer L.B. Sawyer’s Internal Auditing. — Altamonte Springs: The IIA, 2012.

8. Moeller R.R. Brink’s Modern Internal Auditing. — Hoboken: John Wiley & Sons, 2016.

MAHSULOT TANNARXI HISOBINING MILLIY VA XALQARO TIZIMLARI, ULARNI O‘ZARO MUVOFIQLASHTIRISHNING ALOHIDA YO‘NALISHLARI

Razzoqov Abbos Abdumalik o‘g‘li
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahsulot tannarxi hisobining milliy va xalqaro tizimlari, ularning nazariy-uslubiy asoslari hamda o‘zaro farqli va umumiy jihatlari tadqiq etilgan. Mahsulot tannarxini shakllantirishda O‘zbekiston milliy hisob tizimida qo‘llanilayotgan xarajatlarni guruhlash tamoyillari xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining, xususan IAS 2 “Inventories” standarti talablariga qiyosiy tahlil qilingan. Tannarx tarkibiga xarajatlarni kiritish, ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlash, zaxiralarni baholash, normal va me’yordan ortiq xarajatlarni ajratish hamda boshqaruv hisobida tannarx axborotidan foydalanish bilan bog‘liq muammolar aniqlangan. Tadqiqot natijasida milliy va xalqaro tizimlarni o‘zaro muvofiqlashtirishning konseptual yo‘nalishlari ishlab chiqilib, korxonalarda moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi maqsadlari uchun integratsiyalashgan tannarx hisobini tashkil etish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: mahsulot tannarxi, xarajatlar hisobi, ishlab chiqarish xarajatlari, boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob, IAS 2, MHXS, BHMS, zaxiralar, ustama xarajatlar, kalkulyatsiya, normal quvvat.

Аннотация. В статье исследованы национальная и международная системы учета себестоимости продукции, их теоретико-методологические основы, общие и отличительные особенности. Проведен сравнительный анализ принципов группировки и включения производственных затрат в себестоимость продукции, применяемых в национальной системе учета Узбекистана, с требованиями международных стандартов финансовой отчетности, в частности IAS 2 «Запасы». Выявлены проблемы, связанные с распределением производственных накладных расходов, оценкой запасов, разграничением нормальных и сверхнормативных затрат, а также использованием информации о себестоимости в управленческом учете. На основе результатов исследования предложены направления гармонизации национальной и международной систем и формирования интегрированной системы учета себестоимости.

Ключевые слова: себестоимость продукции, учет затрат, производственные затраты, управленческий учет, финансовый учет, IAS 2, МСФО, запасы, накладные расходы, калькулирование.

Abstract. This article examines national and international product costing systems, their theoretical and methodological foundations, similarities and differences. The principles used in Uzbekistan’s national accounting system for grouping production costs and determining product cost are compared with the requirements of International Financial Reporting Standards, particularly IAS 2 “Inventories”. The study identifies issues concerning the allocation of production overheads, inventory measurement, separation of normal and abnormal production costs, and the use of cost information for managerial purposes. Based on the findings, specific directions for harmonising national and international approaches are proposed, including the establishment of an integrated product costing system combining financial and management accounting requirements.

Keywords: product cost, cost accounting, production costs, management accounting, financial accounting, IAS 2, IFRS, inventories, overhead costs, costing, normal capacity.

Kirish.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida raqobatning kuchayishi, ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashuvi hamda korxonalar faoliyatining xalqaro bozorlarga tobora chuqur integratsiyalashuvi buxgalteriya hisobi tizimiga qo‘yilayotgan talablarni ham o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash, mahsulot narxini asoslash, foyda va rentabellik darajasini aniqlash hamda ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlashda mahsulot tannarxi to‘g‘risidagi ishonchli va taqqoslanuvchan axborotni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahsulot tannarxi ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa iqtisodiy resurslarning qiymat ifodasini o‘zida mujassamlashtiruvchi muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning to‘g‘ri shakllantirilishi nafaqat ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatini aniqlash, balki

korxonaning moliyaviy natijalarini haqqoniy aks ettirish, alohida mahsulot turlarining rentabelligini baholash, samarasiz xarajatlarni aniqlash va kelgusidagi boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi. Shu sababli tannarx hisobini faqat buxgalteriya hisobining texnik elementi sifatida emas, balki korxonada xarajatlarni boshqarishning kompleks axborot tizimi sifatida qarash zarur.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotning shaffofligi va xalqaro taqqoslanuvchanligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mahsulot tannarxi hisobini ham zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Milliy hisob amaliyotida ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlar va kalkulyatsiya moddalari bo‘yicha guruhlash, bevosita va bilvosita xarajatlarni ajratish, ishlab chiqarish tannarxini aniqlash hamda davr xarajatlarini alohida hisobga olish bo‘yicha muayyan metodologik tizim shakllangan. Mazkur tizim korxonalarda xarajatlarning shakllanish jarayonini nazorat qilish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uchun muhim axborot bazasini yaratadi.

Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy hisobot tizimida mahsulot tannarxini shakllantirish masalasi xarajatlarning iqtisodiy mazmuni, ularning zaxiralarni hozirgi joylashuvi va holatiga keltirish bilan bog‘liqligi, ishlab chiqarish quvvatidan normal foydalanish hamda me’yordan ortiq xarajatlarni tannarx tarkibidan ajratish kabi mezonlar asosida yondashishni talab etadi. Xususan, IAS 2 “Zaxiralar” standarti zaxiralar tannarxini shakllantirishda xarid xarajatlari, qayta ishlash xarajatlari va zaxiralarni ularning mavjud joylashuvi hamda holatiga keltirish uchun amalga oshirilgan boshqa xarajatlarni hisobga olishni nazarda tutadi. Bu esa tannarxni aniqlashda xarajatlarning shunchaki sodir bo‘lganligi emas, balki ularning iqtisodiy asoslanganligi va ishlab chiqarilgan mahsulot bilan bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratilishini anglatadi.

Milliy va xalqaro tizimlarning umumiy maqsadi mahsulot tannarxini ishonchli aniqlashdan iborat bo‘lsa-da, ularning ayrim metodologik yondashuvlarida farqlar mavjud. Jumladan, ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlash, normal ishlab chiqarish quvvatini hisobga olish, me’yordan ortiq material va mehnat sarflarini tan olish, ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarni tannarxga kiritish, zaxiralarni baholash hamda tannarx axborotidan boshqaruv maqsadlarida foydalanish mexanizmlari alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi. Bunday farqlar korxonalarda milliy va xalqaro talablar asosida shakllantirilgan tannarx ko‘rsatkichlari o‘rtasida tafovutlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida bevosita xarajatlarga nisbatan bilvosita va ustama xarajatlarning ulushi ortib borayotgani, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, ko‘p assortimentli ishlab chiqarishning kengayishi hamda raqamli boshqaruv texnologiyalarining rivojlanishi tannarx hisobining an’anaviy usullarini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Bunday sharoitda xarajatlarni mahsulotlar o‘rtasida faqat ishlab chiqarish hajmi yoki mehnat sarfi asosida taqsimlash ayrim hollarda mahsulotlarning haqiqiy resurs iste’molini to‘liq ifodalamaydi. Natijada ayrim mahsulotlarning tannarxi oshirib,

boshqalariniki esa kamaytirib ko‘rsatilishi va bu boshqaruv qarorlarining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Mahsulot tannarxi va xarajatlar hisobining nazariy asoslari iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi va ishlab chiqarishni boshqarish nuqtayi nazaridan keng o‘rganilgan. Xususan, C.T. Horngren tomonidan rivojlantirilgan boshqaruv hisobi konsepsiyasida xarajatlar to‘g‘risidagi axborot faqat mahsulot qiymatini aniqlash vositasi sifatida emas, balki rejalashtirish, nazorat qilish, muqobil boshqaruv qarorlarini baholash va korxona faoliyati natijadorligini aniqlashning axborot bazasi sifatida qaralgan bo‘lsa, C. Drury xarajatlarni boshqaruv maqsadlari bilan bog‘liq holda tasniflashga alohida e’tibor qaratgan. Uning yondashuviga ko‘ra, bir xil xarajat turli boshqaruv maqsadlari uchun turlicha iqtisodiy mazmun kasb etishi mumkin. Shu sababli mahsulot tannarxini hisoblash tizimi korxonaning boshqaruv ehtiyojlariga moslashuvchan bo‘lishi lozim. S. Kaplan va S.R. Anderson an’anaviy xarajatlarni taqsimlash usullarini takomillashtirib, faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi konsepsiyasini rivojlantirganlar.

Xalqaro moliyaviy hisobot amaliyotida IAS 2 “Zaxiralar” tannarxni shakllantirishning asosiy talablarini belgilaydi. Standart bo‘yicha zaxiralar tannarxi xarid qilish xarajatlari, qayta ishlash xarajatlari hamda zaxiralarni mavjud joylashuvi va holatiga keltirish uchun sarflangan boshqa xarajatlardan shakllanadi. Bir-birining o‘rnini bosuvchi zaxiralar uchun FIFO yoki o‘rtacha tortilgan qiymat formulalaridan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida ham xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasini milliy iqtisodiyotning xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish masalalariga alohida e’tibor berilgan. Jumladan, K.B. Urazovning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobga bag‘ishlangan ilmiy-uslubiy ishlarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisob obyektlari bo‘yicha to‘g‘ri guruhlash, tayyor mahsulot tannarxini shakllantirish va hisob axborotlarining ishonchliligini ta’minlash masalalarini chuqur o‘rgangan bo‘lsa, M.B. Kalonov tomonidan xarajatlarni iqtisodiy asoslangan holda klassifikatsiya qilish tannarxni to‘g‘ri aniqlash va xarajatlarni samarali boshqarishning muhim shart sifatida baholangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni qiyosiy o‘rganish hamda monografik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Mahsulot tannarxi hisobining milliy tizimi, eng avvalo, ishlab chiqarish jarayonida sodir bo‘ladigan xarajatlarni iqtisodiy elementlar va kalkulyatsiya obyektlari bo‘yicha to‘plashga asoslanadi. Amaldagi yondashuvda ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlarni moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari, tegishli ijtimoiy ajratmalar, ishlab chiqarish aktivlarining amortizatsiyasi hamda boshqa ishlab chiqarish xarajatlariga ajratish mumkin.

Xalqaro tizimda esa IAS 2 nuqtayi nazaridan asosiy mezon xarajatning zaxirani hozirgi joylashuvi va holatiga keltirish bilan bog‘liqligidir. Shu jihatdan

xalqaro yondashuv xarajatning nomidan ko‘ra uning iqtisodiy mazmuniga ko‘proq urg‘u beradi.

1-**jadval**

Milliy va xalqaro tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda muvofiqlashtirish yo‘nalishlari[12]

Taqqoslash mezoni	**Milliy tizim**	**Xalqaro tizim**	**Muvofiqlashtirish yo‘nalishi**
Tannarxning asosiy obyekti	Mahsulot, ish va xizmat	Zaxira va uning tannarxi	Hisob obyektlarining yagona klassifikatorini shakllantirish
Xarajatlarni tan olish mezoni	Belgilangan xarajat guruhlari va milliy me’yoriy hujjatlar asosida	Xarajatlarning iqtisodiy mazmuni hamda zaxirani joriy joylashuvi va holatiga keltirish bilan bog‘liqligi asosida	Xarajatlarni tan olishda iqtisodiy mazmun ustuvorligini kuchaytirish
Bevosita xarajatlar	Mahsulot tannarxiga bevosita kiritiladi	Qayta ishlash xarajatlari tarkibida bevosita hisobga olinadi	Milliy va xalqaro yondashuvlarni yagona metodologik asosda uyg‘unlashtirish
O‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari	Belgilangan taqsimlash bazalari asosida mahsulot tannarxiga taqsimlanadi	Ishlab chiqarish obyektlaridan haqiqiy foydalanish darajasiga muvofiq taqsimlanadi	Zamonaviy xarajat drayverlari va iqtisodiy asoslangan taqsimlash bazalaridan foydalanish
Doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari	Amaldagi kalkulyatsiya usullari va taqsimlash bazalari asosida taqsimlanadi	Normal ishlab chiqarish quvvati asosida mahsulot tannarxiga taqsimlanadi	Normal ishlab chiqarish quvvati konsepsiyasini milliy hisob amaliyotiga keng joriy etish
Me’yordan ortiq va anomal xarajatlar	Ayrim hollarda mahsulot tannarxiga ta’sir qilishi mumkin	Me’yordan ortiq material, mehnat va boshqa anomal xarajatlar, odatda, davr xarajati sifatida tan olinadi	Normal va anomal xarajatlarni alohida hisobga olish mexanizmini joriy etish
Ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlar	Amaldagi me’yor va kalkulyatsiya qoidalariga muvofiq hisobga olinadi	Normal yo‘qotishlar tannarxda, anomal yo‘qotishlar esa davr xarajatlarida aks ettiriladi	Normal va me’yordan ortiq yo‘qotishlarning aniq mezonlarini ishlab chiqish
Zaxiralarni baholash	Milliy buxgalteriya hisobi qoidalari asosida	Tannarx va sof sotish qiymatining kichigi bo‘yicha baholanadi	Sof sotish qiymatini muntazam aniqlash va monitoring qilish tizimini kuchaytirish
Zaxiralar tannarxini aniqlash usullari	Korxonaning hisob siyosatida belgilangan usullar asosida	FIFO yoki o‘rtacha tortilgan qiymat formulasi asosida	Hisob siyosatida xalqaro talablar bilan mos usullarni belgilash

[12] Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

Bilvosita xarajatlarni taqsimlash	An’anaviy taqsimlash bazalari: ish haqi, ishlab chiqarish hajmi, mehnat soati va boshqalar	Xarajatlarning kelib chiqish xususiyati va iqtisodiy asoslangan taqsimlash bazalari hisobga olinadi	Cost-driver, Activity-Based Costing va boshqa zamonaviy usullardan foydalanish
Tannarxni shakllantirishning asosiy maqsadi	Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilish	Moliyaviy hisobotda zaxiralar va sotilgan mahsulot tannarxini haqqoniy aks ettirish	Moliyaviy va boshqaruv tannarxi maqsadlarini o‘zaro integratsiyalash
Boshqaruv maqsadlarida foydalanish	Kalkulyatsiya, nazorat va qisman boshqaruv qarorlarini qabul qilish	MHXS asosan tashqi moliyaviy hisobotga yo‘naltirilgan	Alohida boshqaruv tannarxi modulini shakllantirish
Axborotning yo‘naltirilishi	Milliy moliyaviy hisob va ichki nazorat ehtiyojlariga	Investorlar, kreditorlar va boshqa tashqi foydalanuvchilarga	Ichki va tashqi foydalanuvchilar talablarini birlashtiruvchi integratsiyalashgan tizim yaratish
Tannarx hisobini raqamlashtirish	Korxonalarning amaldagi buxgalteriya dasturlari doirasida	ERP va integratsiyalashgan axborot tizimlari bilan uyg‘un holda	Ishlab chiqarish, ombor, moliyaviy va boshqaruv hisobini yagona raqamli platformaga integratsiyalash

Milliy hamda xalqaro standartlar asosida tannarx hisobini yuritishda tannarx hisobining asosiy obyekti nuqtayi nazaridan farq kuzatiladi. Milliy hisob amaliyotida tannarx obyekti sifatida mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar keng qo‘llaniladi. Xalqaro moliyaviy hisobot yondashuvida, xususan IAS 2 doirasida esa asosiy e’tibor zaxiralar va ularning tannarxini shakllantirishga qaratiladi. Demak, milliy tizim ishlab chiqarish va kalkulyatsiya jarayonini nisbatan batafsil aks ettirsa, xalqaro tizim moliyaviy hisobotda zaxiralarning iqtisodiy jihatdan asoslangan qiymatini shakllantirishga ustuvor ahamiyat beradi. Shu sababli ularni muvofiqlashtirishda tannarx va zaxiralar hisobining o‘zaro bog‘langan obyektlar klassifikatorini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Xarajatlarni tan olish mezonlari bo‘yicha ham o‘ziga xos farq mavjud. Milliy amaliyotda xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritishda belgilangan xarajat guruhlari, kalkulyatsiya moddalari va tegishli me’yoriy talablar muhim o‘rin tutadi. Xalqaro tizimda esa xarajatning iqtisodiy mazmuni va uning zaxirani joriy joylashuvi hamda holatiga keltirish bilan bog‘liqligi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Bu yondashuv xarajatni uning nomi yoki hisobvarag‘idan ko‘ra, mahsulot qiymatini shakllantirishdagi iqtisodiy funksiyasi bo‘yicha baholashni talab qiladi. Shu jihatdan milliy amaliyotda ham iqtisodiy mazmunning shakldan ustunligi tamoyilini tannarx hisobida kuchaytirish zarur.

Bevosita xarajatlarni hisobga olishda ikki tizim o‘rtasidagi farq nisbatan kam. Milliy tizimda xomashyo, asosiy materiallar, ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi kabi aniq mahsulot bilan bevosita bog‘lash mumkin bo‘lgan xarajatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning tannarxiga kiritiladi. Xalqaro tizimda ham bunday sarflar zaxiralarning qayta ishlash xarajatlari tarkibida hisobga olinadi. Shuning uchun bu yo‘nalishda tubdan yangi mexanizm yaratishdan ko‘ra, mavjud yondashuvlarni yagona metodologik tamoyillar asosida uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi.

Biroq ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlashda farqlar yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Milliy amaliyotda bilvosita va ustama xarajatlarni taqsimlash uchun ish haqi, ishlab chiqarish hajmi, mehnat soati, mashina-soat kabi an’anaviy bazalardan foydalaniladi. Xalqaro yondashuvda esa xarajatlarning ishlab chiqarish jarayoni bilan real iqtisodiy bog‘liqligi va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasiga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlashda normal ishlab chiqarish quvvati muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida ishlab chiqarish hajmi vaqtincha pasaygan davrda foydalanilmagan quvvat xarajatlarining barchasi mahsulot tannarxiga yuklanib, uning sun’iy ravishda oshib ketishining oldi olinadi.

Shuningdek, normal va anomal xarajatlarni chegaralash xalqaro tizimning muhim xususiyatlaridan biridir. Ishlab chiqarish texnologiyasi va normal faoliyat sharoitida yuzaga keladigan xarajatlar mahsulot tannarxini shakllantirishi tabiiy. Ammo me’yordan ortiq material sarfi, mehnat resurslarining ortiqcha sarflanishi, favqulodda brak, ishlab chiqarishning asossiz to‘xtashi va boshqa samarasiz xarajatlarning mahsulot tannarxiga kiritilishi uning haqiqiy iqtisodiy qiymatini buzishi mumkin.

Zaxiralarni baholash masalasi ham milliy va xalqaro tizimlarni muvofiqlashtirishning muhim yo‘nalishidir. Xalqaro yondashuvda zaxiralarning balans qiymati ularning iqtisodiy qiymatidan yuqori bo‘lib qolmasligi muhim hisoblanadi. Shu sababli zaxiralarni tannarx va sof sotish qiymatining kichigi bo‘yicha baholash yondashuvi qo‘llaniladi. Bu korxona balansida sotishdan qoplanishi kutilmaydigan xarajatlarning aktiv sifatida saqlanib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi. Milliy amaliyotda ham sof sotish qiymatini muntazam baholab borish va zaxiralar qadrsizlanishini o‘z vaqtida aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish hisob axborotlarining haqqoniyligini oshiradi.

Zaxiralar tannarxini aniqlash formulalarini muvofiqlashtirish ham alohida ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda o‘zaro almashtiriladigan zaxiralar uchun FIFO yoki o‘rtacha tortilgan qiymat kabi usullardan foydalanish tannarxni izchil shakllantirish imkonini beradi. Korxona tomonidan tanlangan usul hisob siyosatida aniq belgilanishi va davrlar davomida izchil qo‘llanilishi natijalar taqqoslanuvchanligini oshiradi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqotlar mahsulot tannarxi hisobining milliy va xalqaro tizimlari umumiy iqtisodiy maqsadga xizmat qilishi bilan birga, xarajatlarni tan olish, baholash, guruhlash, ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlash, zaxiralar qiymatini shakllantirish hamda tannarx axborotidan foydalanish bo‘yicha ayrim metodologik farqlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Milliy hisob tizimining ustun

jihati ishlab chiqarish xarajatlarini batafsil guruhlash, kalkulyatsiya obyektlari bo‘yicha hisobga olish va xarajatlar ustidan nazoratni tashkil etish imkoniyatlari bilan tavsiflansa, xalqaro tizimda xarajatlarning iqtisodiy mazmuni, normal ishlab chiqarish quvvati, zaxiralarni haqqoniy baholash va me’yordan ortiq sarflarni tannarxdan ajratish tamoyillariga ustuvor ahamiyat beriladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mahsulot tannarxi hisobining milliy va xalqaro tizimlarini o‘zaro muvofiqlashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar berildi:

Birinchidan, mahsulot tannarxini shakllantirishda xarajatlarni faqat belgilangan moddalar va iqtisodiy elementlar bo‘yicha guruhlash bilan cheklanmasdan, ularning mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy mazmuni va funksional bog‘liqligi asosida tan olish tizimini kuchaytirish zarur.

Ikkinchidan, doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlarini mahsulotlar o‘rtasida taqsimlashda normal ishlab chiqarish quvvati konsepsiyasini milliy tannarx hisobi amaliyotida keng qo‘llash taklif etildi.

Uchinchidan, ishlab chiqarish xarajatlarini normal va anomal xarajatlarga ajratilgan holda hisobga olish mexanizmini takomillashtirish lozim.

To‘rtinchidan, bilvosita va ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlashda faqat an’anaviy taqsimlash bazalaridan foydalanish bilan cheklanmasdan, xarajatlarning yuzaga kelishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi cost-driverlar asosidagi yondashuvlardan foydalanish zarur.

Beshinchidan, zaxiralarni baholashda ularning tannarxi bilan bir qatorda sof sotish qiymatini muntazam monitoring qilish tizimini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, mahsulot tannarxi hisobini raqamlashtirish asosida ishlab chiqarish, ombor, buxgalteriya va boshqaruv hisobi ma’lumotlarini yagona integratsiyalashgan axborot tizimida shakllantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi: darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 558 b.
2. Urazov K.B., Vaxidov S.V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari: darslik. – Toshkent: Adib nashriyoti, 2011. – 496 b.
3. Urazov K.B. Buxgalteriya moliyaviy hisobi: o‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamISI, 2013. – 226 b.
4. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit: oliy o‘quv yurtlari uchun. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 448 b.
5. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari: monografiya. – Toshkent: Fan, 2005. – 236 b.
6. Urazov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004. – 336 b.
7. Urazov K.B., Xudayberdiyev N.U. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditining dolzarb masalalari. – Toshkent, 2012.

8. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: monografiya. – GlobeEdit Publishing, 2018. – 280 b.

9. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.

10. · Tashnazarov S.N. Moliyaviy buxgalteriya hisobi – 1: darslik. – Samarqand: STEP-SEL MCHJ nashriyoti, 2023. – 438 b.

11. Tashnazarov S.N. va boshqalar. Moliyaviy buxgalteriya hisobi – 2: darslik. – Samarqand: STEP-SEL MCHJ nashriyoti, 2024. – 780 b.

12. Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. Buxgalteriya hisobi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 624 b.

13. Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A., Xalilov Sh. Moliyaviy hisob va hisobot: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – 400 b.

14. Toshmatov N., Ismanov I., Buzurxonov S. Moliyaviy hisob va hisobot: darslik. – Toshkent: Sano-standart, 2019. – 560 b.

15. · Abduvaxidov F.T., Qo‘ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi: darslik. – Toshkent: TDIU, 2019. – 403 b.

16. Qurbanov Z., Misirov K. Moliyaviy va boshqaruv hisobi: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 751 b.

17. Egamberdiyeva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 289 b.

18. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi: darslik. – Toshkent: Yangi nashr, 2011. – 312 b.

19. Drury C. Management and Cost Accounting. – 11th ed. – Cengage Learning, 2021. – 880 p.

20. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: Managerial Emphasis. – 16th ed. – Pearson Education, 2018. – 992 p.

21. Garrison R.H., Noreen E.W., Brewer P.C. Managerial Accounting. – 17th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2021. – 800 p.

22. Hilton R.W., Platt D.E. Managerial Accounting: Creating Value in a Dynamic Business Environment. – 12th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2020. – 816 p.

23. Kaplan R.S., Anderson S.R. Time-Driven Activity-Based Costing: A Simpler and More Powerful Path to Higher Profits. – Boston: Harvard Business School Press, 2007. – 266 p.

SOLIQ TUSHUMLARINING MAMLAKAT IQTISODIYOTI VA TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Nafasov Shoxruxbek Hoshimovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi assistenti, e-mail: shoxruxbeknafasov9@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliq tushumlarining O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishi hamda turizm faoliyatini rivojlantirishga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, soliq siyosatining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o‘rni, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati, investitsion muhitni yaxshilashdagi roli hamda turizm sohasining barqaror rivojlanishi uchun yaratilayotgan iqtisodiy sharoitlar yoritib berilgan. Shuningdek ularning iqtisodiy o‘sish va turizm faoliyatiga ta’siri bo‘yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tushumi, iqtisodiy o‘sish, turizm faoliyati, davlat byudjeti, soliq siyosati, soliq islohoti, fiskal siyosat, investitsion muhit, turizm infratuzilmasi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, davlat moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda soliq tizimi muhim o‘rin egallaydi. Xususan, soliq tushumlari davlat byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri sifatida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni moliyalashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu jihatdan, soliq siyosatini takomillashtirish va soliq ma’murchiligini raqamlashtirish O‘zbekiston Respublikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari, jumladan soliq ma’murchiligini soddalashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va soliq bazasini kengaytirish choralari iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, soliq tushumlarining O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishidagi rolini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Turizm faoliyati mamlakat xizmatlar sohasining muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy o‘sish va soliq bazasining kengayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Turizm oqimining ortishi mehmonxona va joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish, savdo, madaniy-ko‘ngilochar hamda boshqa xizmat turlarida iqtisodiy faollikni oshiradi. Natijada ushbu subyektlar tomonidan to‘lanadigan foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i va ijtimoiy soliq kabi to‘lovlar orqali davlat byudjeti daromadlari shakllanadi. Shu bilan birga, samarali soliq siyosati turizm biznesi uchun qulay sharoit yaratib, xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Ofoegbu, Akwu va Oliver ta’kidlashicha, soliqqa tortish davlat tomonidan jamoat mablag‘larini shakllantirish uchun qo‘llaniladigan muhim vosita hisoblanadi [1]. Worlu va Nkoro fikriga ko‘ra, soliq – bu hukumat tomonidan jismoniy shaxslar, shaxslar guruhi hamda korxona va tashkilotlarning daromadi, foydasi yoki mol-mulkidan undiriladigan majburiy to‘lovdir [2]. Piana soliqqa tortishni soliq stavkasining soliq bazasiga qo‘llanishi natijasi sifatida izohlaydi. Brautigam esa samarali tashkil etilgan soliq tizimi rivojlanayotgan mamlakatlarda

hukumatga xarajatlarni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish, barqaror institutlarni shakllantirish va demokratik hisobdorlikni kuchaytirishga yordam berishini qayd etadi [4].

Soliqning asosiy maqsadi davlat sektorining faoliyatini moliyalashtirish hamda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlariga erishishni ta’minlashdan iboratdir. Bundan tashqari, soliqlar ijtimoiy adolatni ta’minlash maqsadida boylikni qayta taqsimlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi [5]. Shu sababli, soliqlar, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan O‘zbekistonda ham mikro va makroiqtisodiy maqsadlarga erishishning muhim instrumenti hisoblanadi. Musgrave va Musgrave rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq tushumlarining yetarli darajada shakllanmasligi soliqlardan iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida samarali foydalanishni cheklashini ta’kidlaydi [6].

Turizm iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan soliq siyosati ikki yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, turizm korxonalari tomonidan yaratiladigan qo‘shimcha qiymat va daromadlar soliq tushumlarini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, davlat byudjetiga kelib tushadigan soliq mablag‘lari transport va kommunikatsiya tarmoqlari, tarixiy va madaniy obyektlarni saqlash, hududiy infratuzilmani rivojlantirish hamda turistik xizmatlar sifatini oshirish kabi yo‘nalishlarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Demak, soliq tushumlari va turizm faoliyati o‘rtasida o‘zaro bog‘liq iqtisodiy munosabat mavjud bo‘lib, turizmning rivojlanishi soliq bazasini kengaytirsa, samarali fiskal siyosat turizm tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda eks-post-fakto (ex-post facto) tadqiqot dizaynidan foydalanildi. Ushbu usulning tanlanishiga sabab, tadqiqotda foydalanilgan o‘zgaruvchilar avvaldan mavjud bo‘lib, ularni boshqarish yoki o‘zgartirish imkoniyati mavjud emasligidir. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistondagi asosiy soliq tushumlari manbalari olindi. Jumladan, foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS), aksiz solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda ijtimoiy soliq tadqiqot doirasida ko‘rib chiqildi.

Tadqiqotda asosan ikkilamchi ma’lumotlar manbalaridan foydalanildi. Statistik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi hamda Davlat statistika agentligining rasmiy hisobot va statistik to‘plamlaridan olindi. Tadqiqot 2010-2024-yillar oralig‘idagi davriy ma’lumotlarni qamrab oldi.

Tadqiqot davomida yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilishda ko‘p omilli regressiya modelidan foydalanildi. Ushbu model yordamida iqtisodiy o‘sish va soliq tushumlari o‘rtasidagi bog‘liqlik econometrik usullar asosida baholandi. Model parametrlarini aniqlashda eng kichik kvadratlar usuli (Ordinary Least Squares — OLS) qo‘llanildi. Mazkur usul ekonometrik tahlilda keng qo‘llanilishi, aniqligi va optimal xususiyatlarga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot modeli quyidagi ko‘rinishda ifodalandi: $YAIM=a+\beta_1 FS+\beta_2 QQS+\beta 3\ AS+\varepsilon$

Bu yerda: YAIM – yalpi ichki mahsulot; FS – foyda solig‘i; QQS – qo‘shilgan qiymat solig‘i; AS – aksiz solig‘i; β_1–β_3 – mustaqil o‘zgaruvchilar koeffitsiyentlari; ε – tasodifiy xatolik (qoldiq) hadi.

Shu bilan birga, soliq imtiyozlarini taqdim etish jarayonida ularning iqtisodiy samaradorligini muntazam baholab borish muhim ahamiyatga ega. Chunki imtiyozlarning haddan tashqari keng qo‘llanilishi davlat budjeti daromadlarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli soliq imtiyozlari iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishi bilan birga, davlat moliyaviy manfaatlari bilan ham muvozanatlashgan bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlaridan foydalanish ko‘lami so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaygan. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda tadbirkorlik subyektlariga 119 trln so‘mlik soliq imtiyozlari berilgan bo‘lib, ulardan 143 205 ta subyekt foydalangan [16] . Mazkur ko‘rsatkich soliq imtiyozlarining mamlakat iqtisodiyotida muhim moliyaviy instrumentga aylanganini ko‘rsatadi. Shu sababli soliq imtiyozlarini taqdim etishning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatlarini ham o‘rganish zarur.

1-jadval

Soliq imtiyolaridan foydalanish holati

Yillar	Soliq imtiyozlari, trln so‘m	Imtiyozlardan foydalangan subyektlar, mingta
2021	34,9	53,6
2022	64,1	110,0
2023	69,7	134,5
2024*	39,0	132,1
2025	119,0	143,2

O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi va ochiq rasmiy ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Izoh: 2024-yil ma’lumoti I yarim yillik ko‘rsatkichni ifodalaydi. Shuningdek 2022-yil bo‘yicha soliq imtiyozlari summasi QQSning nol stavkasi hisobga olingan holda shakllantirilgan. Shu sababli mazkur ko‘rsatkichni boshqa yillardagi soliq imtiyozlari summasi bilan taqqoslashda hisoblash usulidagi ushbu farqni inobatga olish lozim.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2021-yilda soliq imtiyozlari 34,9 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda ushbu ko‘rsatkich 64,1 trln so‘mga yetgan. 2023-yilda esa soliq imtiyozlari hajmi 69,7 trln so‘mni tashkil etgan. Bu davrda soliq imtiyozlaridan foydalangan subyektlar soni ham 53,6 ming tadan 134,5 ming tagacha oshgan.

[16] https://zamon.uz/uz/2026/04/30/ozbekistonda-tashkilot-va-muassasalar-1781-trln-somlik-soliq-va-bojxona-imtiyozlaridan-foydalandi

2025-yilda esa soliq imtiyozlari hajmi 119 trln so‘mga yetgan. Bu 2023-yilga nisbatan qariyb 70,7 foizga ko‘p. Shu bilan birga, imtiyozlardan foydalangan subyektlar soni 143,2 ming tani tashkil etgan.

Mazkur holat soliq imtiyozlari ko‘lami kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq imtiyozlar hajmining o‘sishi ularning iqtisodiy samaradorligi ham shunga mos ravishda oshganligini anglatmaydi. Shu sababli kelgusida soliq imtiyozlarini baholashda imtiyoz summasi bilan bir qatorda korxonalarning ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalari, eksporti va bandlik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasida ularning qaysi sohalarga ko‘proq yo‘naltirilayotganini o‘rganish ham muhimdir. Chunki iqtisodiyotning turli tarmoqlarida soliq imtiyozlarining ta’siri bir xil bo‘lmasligi mumkin.

2-jadval

2025-yilda ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soliq to‘lovlari va soliq imtiyozlaridan foydalanish

Faoliyat turi	20 ta yirik korxona to‘lagan soliq, trln so‘m	Foydalanilgan soliq imtiyozi
Ishlab chiqarish	19,2	2,3 trln so‘m
Xizmat ko‘rsatish	7,6	6,2 trln so‘m
Savdo	2,7	326,6 mlrd so‘m
Qurilish	1,3	814,2 mlrd so‘m
Umumiy ovqatlanish	0,34	46,3 mlrd so‘m

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, soliq imtiyozlaridan foydalanish darajasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, ishlab chiqarish sohasidagi 20 ta yirik korxona tomonidan 19,2 trln so‘mdan ortiq soliq to‘langan va ular tomonidan 2,3 trln so‘mlik soliq imtiyozlaridan foydalanilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasida esa 20 ta yirik korxona tomonidan 7,6 trln so‘mlik soliq to‘langan va 6,2 trln so‘mlik imtiyozdan foydalanilgan. Bu ko‘rsatkich xizmat ko‘rsatish sohasida soliq imtiyozlarining sezilarli moliyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Qurilish sohasida 20 ta yirik korxona 1,3 trln so‘mdan ortiq soliq to‘lagan va 814,2 mlrd so‘mlik imtiyozlardan foydalangan. Savdo sohasida esa ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 2,7 trln so‘m va 326,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkichlar soliq imtiyozlarini tarmoqlar kesimida differensial yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Ya’ni, imtiyozlarni barcha korxonalarga bir xil tartibda taqdim etishdan ko‘ra, iqtisodiyot uchun ustuvor bo‘lgan yo‘nalishlar, investitsiya hajmi, yangi ish o‘rinlari va ishlab chiqarish samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda O‘zbekistonda soliq imtiyozlarini taqdim etish mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri ularni aniq maqsad va natijalar bilan bog‘lash hisoblanadi. Soliq imtiyozlari korxonalarga berilganda, ushbu imtiyoz evaziga qanday iqtisodiy natijaga erishilishi oldindan belgilanishi lozim. Jumladan, korxona tomonidan yangi ish o‘rinlari yaratish, investitsiya hajmini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, eksportni ko‘paytirish yoki

zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kabi ko‘rsatkichlar asosiy mezon sifatida olinishi mumkin.

Bu borada 2026-yildan boshlab soliq ma’murchiligida proaktiv xizmatlar va raqamli texnologiyalardan foydalanishning kengayib borayotgani muhim ahamiyatga ega. Xususan, yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha hisobotlarini soliq organlari tomonidan proaktiv shakllantirish amaliyoti joriy etilmoqda. Kelgusida ushbu yondashuvni soliq imtiyozlarini taqdim etish jarayoniga ham tatbiq etish mumkin. Bunda soliq to‘lovchining mavjud ma’lumotlari asosida uning qaysi imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega ekanligi avtomatik ravishda aniqlanishi mumkin.

Masalan, korxona 2025-yilda 1 mlrd so‘mlik soliq imtiyozidan foydalangan bo‘lsa, uning keyingi davrdagi investitsiya hajmi, ishlab chiqarish hajmi, xodimlar soni va soliq to‘lovlari o‘zgarishi tahlil qilinishi lozim.

Shu asosda soliq imtiyozlarining samaradorligini baholashda quyidagi oddiy yondashuvni qo‘llash mumkin:

Soliq imtiyozi → investitsiya → ishlab chiqarish → bandlik → soliq bazasining kengayishi.

Mazkur zanjir orqali imtiyozning davlat uchun ham, tadbirkorlik subyekti uchun ham qanday natija berganini aniqlash mumkin.Soliq imtiyozlarini samarali taqdim etishda soliq xizmatlarining faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy soliq xizmati faqat nazorat qiluvchi organ sifatida emas, balki soliq to‘lovchiga xizmat ko‘rsatuvchi va uning faoliyatini qonuniy asosda qo‘llab-quvvatlovchi institut sifatida shakllanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, soliq xizmatlarining quyidagi yo‘nalishlarini ustuvor deb hisoblash mumkin.

Birinchidan, soliq imtiyozlarini taqdim etish jarayonini raqamlashtirish. Soliq to‘lovchining faoliyati va mavjud ma’lumotlari asosida unga tegishli imtiyozlarni avtomatik aniqlash tizimini kengaytirish lozim.

Ikkinchidan, soliq imtiyozlarini taqdim etishda aniq va tushunarli mezonlarni belgilash. Bu tadbirkorlar uchun teng sharoit yaratish va subyektiv qarorlar qabul qilinishining oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, imtiyozlardan foydalanish natijalarini monitoring qilish. Imtiyoz olgan korxonalarning ishlab chiqarish, investitsiya, bandlik va eksport ko‘rsatkichlarini kuzatib borish zarur.

To‘rtinchidan, riskga asoslangan nazorat tizimini rivojlantirish. Imtiyozlardan maqsadli foydalanayotgan korxonalarga nisbatan ortiqcha ma’muriy yukni kamaytirish, risk darajasi yuqori bo‘lgan subyektlar faoliyatini esa chuqurroq tahlil qilish mumkin.

Beshinchidan, soliq to‘lovchilarga proaktiv xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish. Soliq to‘lovchi imtiyoz mavjudligi to‘g‘risida o‘zi izlab topishi emas, balki tegishli elektron tizim orqali bu haqda oldindan ma’lumot olishi maqsadga muvofiq.

Mazkur yo‘nalishlar “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan fiskal barqarorlikni ta’minlash va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish vazifalari bilan hamohangdir. Shuningdek, 2026-yilda soliq ma’murchiligini takomillashtirishda raqamli tahlil va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa kelgusida soliq imtiyozlaridan

foydalanish jarayonini ham avtomatlashtirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, soliq imtiyozlari O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni kengaytirish va iqtisodiy faollikni oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. 2025-yilda 119 trln so‘mlik soliq imtiyozlaridan 143,2 mingdan ortiq tadbirkorlik subyekti foydalangani soliq imtiyozlarining iqtisodiyotdagi ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, imtiyozlar hajmining oshib borishi ularning

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — Toshkent, 2019. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi — LexUZ

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi hujjatlari

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. O‘zbekiston–2030” strategiyasiga kiritilgan soliq yo‘nalishidagi asosiy ko‘rsatkichlar hamda Soliq organlarining 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan soliq ma’murchiligini takomillashtirish strategiyasi**.** 2026-yil. https://gov.uz/oz/soliq/news/view/126242

4. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. https://www.aca.uz/oz/article/2025-yilda-soliq-va-bojxona-imtiyozlaridan-foydalanish

5. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. https://gov.uz/oz/digital/sections/view/1646

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. https://president.uz/oz/lists/view/9075

7. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. https://government.uz/pages/2030_strategy

8. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. Soliq imtiyozlari bo‘yicha ochiq ma’lumotlar**.** https://gov.uz/oz/digital/sections/view/1646

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF INTERNAL AUDIT SERVICES IN THE PUBLIC SECTOR OF UZBEKISTAN

Ismatillaev Baypulat Khushvaktovich
Independent researcher Tashkent State University of Economics
Tashkent, Republic of Uzbekistan Tel.: +998 (99) 048-06-22

Abstract. The paper analyses the organisational structure, the staffing and the performance of internal audit services in the public sector of Uzbekistan. The dynamics of 2021–2024 are assessed, the composition of the violations detected is examined, and staffing and qualification indicators are compared with international benchmarks. Five systemic problems are identified, and institutional capacity is proposed to be measured by an agency-level coverage adequacy coefficient instead of system-wide averages, which conceal a fivefold dispersion of the audit burden.

Keywords: public-sector internal audit, budget organisations, institutional capacity, coverage adequacy, professional certification, risk-based planning, materiality, International Standards on Auditing, ISSAI.

The institutional development of internal audit in the public sector of Uzbekistan may be divided into three stages: 1991–2000 — the period of formation after independence; 2000–2017 — the partial creation of a legal basis; and the period from 2017 to the present — a stage of accelerated development within the framework of the Action Strategy. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-3231 of 21 August 2017 for the first time defined precisely the organisational and legal status of internal audit services, approved their staff establishment and the sources of their financing [1]. As a result, a four-level system took shape: at the level of governance — the Ministry of Finance (strategy, methodology, personnel, coordination); at the level of provision — the republican and territorial services; at the level of execution — the departmental services and the auditors of higher education institutions; and at the level of audited entities — the budget organisations themselves.

The Law "On auditing activity" [5] shaped the general professional contour of audit in the country, yet it regulates audit organisations rather than internal audit in budget organisations, which rests on a separate body of sub-legal acts. This division is an institutional source of the methodological fragmentation examined below: the public-sector internal auditor works without a professional standard equal in force to the International Standards on Auditing.

Institutional capacity and staffing of the service

The analysis of staffing reveals a serious imbalance. The largest number of internal auditors work in the system of the Ministry of Public Education (47 persons), the Ministry of Finance (42 persons) and the Ministry of Health (35 persons), whereas in agriculture (18) and in the energy sector (12) the service has not been fully formed. Each of the 119 higher education institutions has a single auditor post, which is insufficient for large institutions. In total, 606 staff members exercise control over 7,150 primary budget organisations, or 24,091 units including all secondary ones, so that between 40 and 200 organisations fall to a single auditor, while according to the recommendations of the ICAEW the optimal ratio should lie within the range of 1:50–1:75 [2]. Qualification indicators are equally low: although 78 per cent of auditors hold a higher economic education, the share of specialists with an international certificate (CIA, CGAP, CFE) amounts to only 12 per cent (Table 1).

Table 1

Comparative indicators of the institutional capacity of public-sector internal audit

Indicator	Uzbekistan	USA	Germany	Russia
Internal auditors per 1,000 budget organisations, persons	25	75	60	35
Organisations per one auditor (derived), units	40.0	13.3	16.7	28.6

Share of auditors holding an international certificate (CIA, CGAP, CFE), %	12	89	76	35

Source: compiled by the author on the basis of [2]; row 2 is calculated by the author.

Table 1 shows that the gap in audit-resource density is 3.0 times against the United States and 2.4 against Germany, while the gap in certification is far deeper — 7.4 and 6.3 times. The principal deficit is therefore qualitative rather than quantitative: posts have been created faster than qualified auditors to occupy them.

Dynamics of performance in 2021–2024

At the same time, the performance of the services demonstrates a stable upward tendency (Table 2).

Table 2

Dynamics of the activity of public-sector internal audit in Uzbekistan, 2021–2024

№	Indicator	2021	2022	2023	2024	Growth, times
1	Number of audits carried out	1,248	1,567	1,892	2,145	1.72
2	Unlawful expenditures detected, bn UZS	187.5	256.8	342.1	451.3	2.41
3	Funds recovered, bn UZS	94.2	136.4	182.6	245.8	2.61
4	Number of recommended measures	3,215	4,289	5,478	6,834	2.13
5	Share of implemented recommendations, %	62	68	74	78	+16 p.p.
6	Persons brought to administrative liability	284	412	578	692	2.44

Source: compiled from consolidated data of internal audit services; growth calculated by the author.

In 2021–2024 the number of audits grew 1.7 times, the unlawful expenditures detected 2.4 times, and the funds recovered 2.6 times, while the share of implemented recommendations rose from 62 to 78 per cent. The growth is nevertheless secured mainly by extensive factors: audit is still conducted by “planning by object”, that is, by inspecting organisations in turn, which does not single out high-risk objects and distributes resources inefficiently. Recommendations grew faster (2.13 times) than audits (1.72 times) while their implementation rate improved by only 16 percentage points — the system issues instructions faster than the audited entities can absorb them.

The structure of detected violations and the problem of materiality

The composition of the violations detected shows where the risks are concentrated (Table 3).

Table 3

Structure of the violations detected by public-sector internal audit, 2023

№	By area of activity	Share, %	By type of violation	Share, %
1	Errors in budget accounting	28.5	Documentation and reporting errors	35.2
2	Problems in payroll calculation	22.3	Non-targeted spending of funds	28.7
3	Violations in public procurement	19.8	Other types (derived)	36.1
4	Other areas (derived)	29.4	×	×

Source: compiled by the author from 2023 data; “other” lines derived as the residual to 100 %.

Three areas — budget accounting, payroll and public procurement — generate 70.6 per cent of all violations, while by type documentation and reporting errors (35.2 per cent) and non-targeted spending (28.7 per cent) predominate. Both depend directly on the qualifications of accounting personnel and on the quality of internal control and are therefore preventable by systemic rather than inspection-based means.

An imbalance also exists in materiality practice: in different higher education institutions the level has been set from 4.5 to 6.2 per cent, since without a single methodology every auditor relies on individual experience [3]. Four approaches are mainly used — a percentage of profit (5–10 per cent), of assets (0.5–1 per cent), of income (1–2 per cent), and subjective assessment. The first three correspond to international standards but were designed for commercial entities and are of little use where an organisation lives on budget appropriations; the fourth is the main source of the dispersion observed.

The internal functional structure also requires improvement. A model service should be headed by a chief auditor and composed of financial, systems and IT auditors, yet many institutions have only one or two staff units, so that a single auditor performs the financial, compliance, performance and IT directions at once. Under such conditions the requirement of due professional care, fundamental to both the IIA Global Internal Audit Standards [6] and the ISSAI framework [7], is difficult to satisfy.

Conclusions

The analysis allows five systemic problems to be singled out: the shortage of personnel and the disproportion between staff numbers and the number of objects; the underdevelopment of international certification; the non-application of the risk criterion in planning; the absence of a single methodology for determining materiality and risk levels; and the almost complete absence of digital instruments. In a short period the institution has taken organisational shape and is raising its effectiveness year by year, but the quantitative results of 2021–2024 have exhausted their value as evidence of progress: further growth of audits and detected sums by the same extensive methods will only increase the burden on the audited entities without a proportional preventive gain. The transition to the qualitative stage of development is therefore the demand of time.

Scientific-theoretical proposal and recommendation

Scientific-theoretical proposal. It is proposed to assess institutional capacity not by system-wide averages but by an agency-level coverage adequacy coefficient $K_c = N_o / N_a$, where N_o is the number of audited units of an agency and N_a the number of its auditor posts, with a normative corridor of 50–75 units per auditor. The necessity of this follows from the data above: the system-wide average burden (24,091 units per 606 auditors, about 40 per auditor) formally falls inside the ICAEW corridor and signals no problem, whereas the actual range of 40 to 200 units means a fivefold inequality between agencies. Such an average is not merely imprecise but methodologically misleading, since it conceals the very deficiency, it should reveal. Hence the decision rule: where $K_c > 75$, posts are added or objects transferred; where $K_c < 50$, posts are redistributed to overloaded agencies. The coefficient is supplemented by a competence component — the share of certified auditors — so that capacity is measured as coverage combined with qualification rather than by headcount alone.

Practical recommendations. First, the audit burden should be aligned at agency level: posts should be redistributed from agencies where $K_c < 50$ to those where $K_c > 75$, and the "one auditor per institution" rule for higher education institutions should be replaced by a norm differentiated according to budget size and student numbers. Second, a national certification programme for public-sector internal auditors should be introduced, harmonised with the IIA Global Internal Audit Standards [6] and the INTOSAI ISSAI framework [7] with periodic re-certification and a target of 50 per cent certified staff by 2030. Third, annual planning should shift from "planning by object" to a risk basis: an audit universe, a 5×5 probability–impact matrix, and three risk tiers with fixed audit frequency and resource shares. Fourth, an instruction of the Ministry of Finance should fix a materiality base specific to budget organisations — a share of the annual budget appropriation, corrected downward for high-risk areas — and exclude purely subjective determination, which would eliminate the 4.5–6.2 per cent spread. Fifth, a single information system integrated with Treasury and public procurement data and equipped with CAATs, and continuous monitoring should be built, so that the areas generating 70.6 per cent of violations are tested on the full population rather than on a sample.

Implementation as a single package is essential: an increase in staff numbers without certification would reproduce the present qualification deficit on a larger scale, while risk-based planning without a normatively fixed materiality methodology would merely transfer subjective judgement from the stage of execution to the stage of planning.

References

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-3231 of 21.08.2017 "On further improvement of the financing mechanism of education and medical institutions and of the system of state financial control" // National Database of Legislation. URL: https://lex.uz/docs/3323258.

2. Pickett K.H.S. The Internal Auditing Handbook. 4th ed. Chichester: John Wiley & Sons, 2020.

3. Borisova E.N., Masharipov O.A., Khamidova Z.U., Gafurova A.F. Davlat sektori tashkilotlarida ichki audit: nazariya va amaliyot [Internal audit in public sector organisations: theory and practice]. — Tashkent, 2022.

4. Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida ichki auditni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari [Theoretical and methodological foundations of organising internal audit in budget organisations]. — Tashkent: Moliya, 2015.

5. Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-677 of 25.02.2021 "On auditing activity" // National Database of Legislation. URL: https://lex.uz.

6. IIA. Global Internal Audit Standards. — Lake Mary (FL): The IIA, 2024.

7. INTOSAI. ISSAI 100 — Fundamental Principles of Public-Sector Auditing. — Vienna: INTOSAI, 2019.

RISK ANALYSIS IN STATE FINANCIAL CONTROL AND AUDIT RISK: A FUNCTIONAL AND ECONOMIC DISTINCTION AND A COMPLEX CLASSIFICATION OF RISKS

Gayimov Abdumalik Norbekovich
Researcher, Tashkent State University of Economics

Abstract. The paper distinguishes the concept of risk analysis in state financial control from the concept of audit risk in commercial audit and substantiates its preventive, budget-oriented content. A complex classification of the risks of state financial control is presented — budget, operational, compliance, corruption and information-technology risks — and is operationalised as the indicator base of the model for assessing control objects. The author formulates two conditions without which such a classification remains descriptive: every type must be linked with at least one measurable indicator, and the system-level risk score must be carried forward as a documented input into the engagement-level assessment of inherent risk.

Keywords: state financial control, risk analysis, audit risk, ISA 315, classification of risks, corruption risk, risk-oriented approach, COSO ERM, ISO 31000, control objects.

Raising the effectiveness of state financial control has become one of the central questions of the management of public finance. The expenditure of the State Budget of Uzbekistan for 2025 was initially set at 344.6 trillion soums, or 21.1 per cent of gross domestic product, and reached 383.9 trillion soums by the end of the year. Control practice shows considerable volumes of violation: according to the data of the Accounts Chamber, in the first half of 2025 ineffective budget expenditure of 5.6 trillion soums was prevented, violations of 4 trillion soums were detected and an opportunity of 5 trillion soums of additional budget revenue was found; in 359 inspections of the lawfulness of public procurement financial errors and deficiencies of 2 trillion 736 billion soums were established [8]. Since the number of control objects far exceeds the resources available, the task of directing those resources to the most dangerous objects has become a practical

necessity, and Decree of the President No. PF-6300 has laid down the task of developing standards for carrying out risk analysis in state financial control [1].

In the context of state financial control, risk is the probability of a violation of the law, of a non-targeted or ineffective expenditure of public funds, or of a failure to attain the objectives set; risk analysis is accordingly the systematic process of identifying, assessing and classifying the risks of control objects and processes and of taking control decisions upon them. Risk must be distinguished from uncertainty: uncertainty is a condition whose probability cannot be established, whereas risk is a negative outcome whose probability can be assessed to a certain degree, and it is precisely this measurability, through probability and impact, that makes risk analysable and manageable.

The distinction between risk analysis and audit risk is of primary importance. Under ISA 315 audit risk is the risk that the auditor expresses an inappropriate opinion when the financial statements are materially misstated, and it is modelled as the product of inherent, control and detection risk [3]. Risk analysis is the broader concept: audit risk operates at the level of a single engagement and is directed at the reliability of the financial statements, while risk analysis operates at the level of the control system as a whole and is directed at the selection of control objects and the allocation of resources (Table 1).

Table 1

Comparative analysis of risk analysis and audit risk

Feature	Risk analysis	Audit risk
Scope	The whole control system; the selection of objects	A single audit engagement
Purpose	Directing resources to dangerous areas	Reducing the risk of an inappropriate opinion
Structure	Budget, operational, compliance, corruption and other risks	IR × CR × DR (a multiplicative model)
Standard basis	COSO ERM, ISO 31000	ISA 315, ISA 200
Level	Strategic and systemic	The level of the engagement

Source: generalised by the author on the basis of the practice of foreign supreme audit institutions and international sources [3–6].

Understanding this difference has practical significance. Risk analysis is applied first at the level of the system, in order to select objects and distribute resources; then, within the object selected, a more exact assessment is carried out during the audit under the audit-risk model. The two do not exclude one another but complement each other at different stages of control — the first at the strategic level, in choosing the object, the second at the level of the engagement, in determining the audit procedures.

The second theoretical question is the scientifically grounded classification of risks. Risks may be grouped by source into internal and external, by the audit-risk model into inherent, control and detection risk, and by importance into strategic and operational; but for state financial control the most significant classification is by the content, that is by the sphere, of the risk (Table 2).

Table 2

The content classification of the risks of state financial control

Type of risk	Content	Example
Budget risk	Incorrect distribution and spending of budget funds	Funds not taken up; redistribution; accumulation at the year end
Operational risk	Deficiencies in processes, systems and the work of staff	Errors of documentation; the human factor
Compliance risk	Failure to observe legal and normative requirements	Breach of estimate and staffing discipline
Corruption risk	Conflict of interest and corrupt actions	Irregularities in public procurement
Information-technology risk	Risks connected with information systems and data	Corruption of data; cyber-security threats

Source: developed by the author.

These types are manifested in practice in connection with one another: a growth of operational risk may lead to an increase of compliance and corruption risk, and it is therefore appropriate to treat them as a single system and to assess all types for every object. The decisive point, however, is not the composition of the list but what is done with it. In the present research the classification is not left as a description: each of its types is turned into a group of criteria of the model for assessing control objects, with its own indicators and its own weight, and to the five types is added an auxiliary group of scale and significance, which reflects not a separate type of risk but the magnitude of the consequence (Table 3).

Table 3

Operationalisation of the classification in the assessment model

Type of risk	Group of criteria	Example of a quantitative indicator	Weight
Budget risk	Budget risk	Level of deviations in budget execution	0.25
Compliance risk	Compliance risk	Number and amount of previous violations	0.20
Operational risk	Operational risk	Coefficient of staff turnover	0.15
Corruption risk	Corruption risk	Share of procurement from a single source	0.15
—	Scale and significance	Volume of funds managed	0.15
Information-technology risk	Information technology	Share of automated transactions	0.10

Source: developed by the author. The scale group is auxiliary: it measures the magnitude of the consequence rather than a separate type of risk.

Conclusions

Risk analysis in state financial control is functionally and economically distinct from audit risk in commercial audit: it is preventive and budget-oriented, it operates at the level of the system rather than of the engagement, and it rests on the COSO ERM and ISO 31000 framework rather than on the audit-risk model. The

complex classification of risks into budget, operational, compliance, corruption and information-technology types give this analysis its content, and it acquires practical force only when it is converted into the indicator base of the assessment of objects.

Scientific-theoretical proposal and recommendation

Two conditions are proposed as the criterion of the operational character of any such classification. The first is the requirement of measurability: a type of risk is retained in the classification only if at least one indicator with a computation rule and a source of data corresponds to it, as in Table 3; a type to which no indicator corresponds neither enters the assessment nor influences a decision, and is therefore descriptive, however convincing it may appear in the text. This requirement is what distinguishes a working classification from an enumeration, and it also gives a rule for its development: a new type of risk is introduced together with its indicator, not before it.

The second condition concerns the connection between the two levels. It is generally stated that risk analysis and audit risk complement one another, but the form of the connection is not specified, and in practice this means that the two assessments are made independently: the object is selected on the basis of a documented system-level score, and then, within the engagement, inherent risk is assessed anew from the professional judgement of the auditor, as though the first assessment had not existed. It is proposed that the integral score of the object and its profile by groups of criteria be carried forward as a documented input into the engagement: the risk zone of the object sets the initial level of inherent risk, and the groups that made the largest contribution to the score determine which areas are treated as significant risks under ISA 315. Without such a transfer the two levels duplicate one another’s work and may reach contradictory conclusions about the same object — which deprives the system-level assessment of consequences precisely where the audit is carried out.

Practical recommendations. First, the classification of risks should be fixed in the methodological documents of the bodies of state financial control together with the indicators corresponding to each type, so that theory and measurement are approved as one document. Second, an indicator passport should be kept for every indicator — the computation rule, the source of data, the scale and the rule to be applied when data are missing — since it is the passport that makes an assessment repeatable by different assessors. Third, the integral score and the profile of the object by groups should be included in the audit programme as an obligatory annex, so that the transfer between the two levels leaves a documentary trace. Fourth, corruption risk should be assessed by indicators drawn from the data of the electronic procurement system rather than by expert judgement, since it is the least observable of the types and the most exposed to subjectivity. Fifth, the weight of the information technology group should be reviewed as digitalisation deepens, since the present weight reflects the current and not the prospective significance of that type of risk.

References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6300 of 27.08.2021 “On measures for the further improvement of the system of state financial control” // National Database of Legislation. URL: https://lex.uz/docs/5607471.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-100 of 10.07.2024 “On additional measures to strengthen financial control over the use of budget funds” // National Database of Legislation. URL: https://lex.uz/docs/7015258.
3. IAASB. International Standard on Auditing (ISA) 315 (Revised 2019). Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement. — New York: IFAC.
4. COSO. Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance. — New York: COSO, 2017.
5. ISO 31000:2018. Risk Management — Guidelines. — Geneva: ISO, 2018.
6. INTOSAI. ISSAI 100. Fundamental Principles of Public-Sector Auditing. — Vienna: INTOSAI, 2019.
7. Guide for conducting internal audit measures, reg. No. 3406 of 27.12.2022 // National Database of Legislation. URL: https://lex.uz/docs/6329874.
8. Data on the activity of the Accounts Chamber of the Republic of Uzbekistan for the first half of 2025 // www.palata.uz.

SOLIQ RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Axrorov Zarif Oripovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor v.b., e-mail: axrorovzarif@sies.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq risklarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va soliq munosabatlaridagi o‘rni tadqiq etilgan. Soliq risklarini davlat va soliq to‘lovchilar nuqtayi nazaridan farqlash, ularning asosiy xususiyatlari, obyekti va subyektlari yoritilgan. Soliq risklarini kamaytirishda tahliliy yondashuv, monitoring va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni hisobga olish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, soliq tizimi, soliq riski, noaniqlik, soliq risklarini boshqarish, soliq prognozi.

Soliq munosabatlarini tartibga solish jarayonida turli xavf va noaniqliklarning yuzaga kelishi davlat soliq siyosatining samaradorligini oshirish va soliq risklarini samarali boshqarishni taqozo etmoqda. Xususan, soliq tushumlarining prognoz ko‘rsatkichlaridan chetga chiqishi, soliq to‘lovchilar tomonidan majburiyatlarning to‘liq va o‘z vaqtida bajarilmasligi, soliq bazasining qisqarishi hamda soliq ma’murchiligidagi kamchiliklar byudjet daromadlarining barqarorligiga salbiy

ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, zamonaviy soliq tizimida soliq risklarini aniqlash, baholash, monitoring qilish va ularning salbiy ta’sirini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda soliq tizimini takomillashtirish nafaqat byudjetga soliq tushumlarining to‘liq va barqaror tushishini ta’minlash, balki soliq risklarini keltirib chiqaruvchi omillarni oldindan aniqlash va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga ham qaratilmoqda. Soliq risklarini samarali boshqarish soliq ma’murchiligi samaradorligini oshirish, soliq intizomini mustahkamlash, byudjet yo‘qotishlarini kamaytirish hamda soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini to‘liq bajarishini rag‘batlantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, soliq risklarini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish davlat moliyasining barqarorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda “risk” sohasida bir qator ishlar yozilgan bo‘lsada, bu tushuncha doirasidagi fikrlar umumlashtirilmagan. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda “risk” tushunchasiga quyidagi qarashlar mavjud:

- risk noaniqlik sifatida;
- risk faoliyat sifatida;
- risk kutiladigan natijadan farqlanishi sifatida;
- risk xavf yoki yo‘qotishning yuzaga kelish ehtimoli sifatida;
- risk noxush hodisalarning ehtimoli sifatida.

Iqtisodiyotda risk tushunchasi noaniqlik sifatida keng talqin qilinadi. Jumladan, taniqli lug‘atshunos S.N. Ojegovning rus tili lug‘atida “risk” bu “muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisadan umid” degan ma’noni anglatadi [1] deyilsa, mashhur Vebstera lug‘atida riskka “xavf, zarar yoki talafot ko‘rish ehtimoli” deb qaralgan. F.Nayt o‘zining asarida noaniqlikdan farqli ravishda riskni tahlil qilish va boshqarishga bog‘langan baholanadigan ob’ektni aniqlash bilan bog‘laydi [2].

“Risk” tushunchasi mazmuni risk maydonida vujudga keladigan javobgarlik turini yoki ob’ektini sug‘urtalash deb ham ta’kidlandi [3].

Sh.Babayev tadqiqotlarida soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliq risklari bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, soliq risklarini to‘g‘ri aniqlash va baholash prognoz ko‘rsatkichlarining aniqligini oshirish, prognoz qilingan soliq tushumlari bilan amalda shakllangan tushumlar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish hamda prognozlash jarayonidagi xatoliklarni minimallashtirish imkonini beradi [4].

F. Jumaniyazova soliq risklarini davlat byudjetiga soliq tushumlarining kamayishi hamda soliq to‘lovchilarning o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarishiga to‘sqinlik qiluvchi noaniqlik va xavflar sifatida izohlaydi [5]. Mazkur yondashuvda soliq risklari nafaqat byudjet daromadlarining shakllanishiga, balki soliq majburiyatlarining bajarilish darajasiga ham bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Soliq risklari to‘g‘risida ko‘pchilik tadqiqotlar soliq to‘lovchilarning soliq risklari masalalarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Bu shu bilan izohlanadiki, risk va noaniqlik nazariyasi xo‘jalik sub’ektlari faoliyati bilan bog‘langanligi sababli avvaldan tadbirkorlik riski bilan aloqador hisoblanadi. Xo‘jalik sub’ektlarida soliq to‘lash kayfiyati foyda olish bilan izohlanadi. Zero, moliyaviy barqaror korxona

soliq bo‘yicha qarzdorliklarini bartaraf etish, qolaversa ortiqcha to‘lov yaratib qo‘yishga harakat qiladi.

Soliq risklarini boshqarish maqsadida, soliq to‘lovchining soliq riski – soliq xatolari, soliq qonunchiligini noto‘g‘ri talqin qilish va soliq faoliyatining boshqa ishlari natijasida noaniqlik sharoitida soliq to‘lovchining byudjet oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarishi paytida yuzaga keladigan noxush moliyaviy, huquqiy va ijtimoiy holatlarning paydo bo‘lish ehtimoli sifatida qarash lozim.

Davlat soliq riski va soliq to‘lovchi soliq risklari o‘rtasida teskari xarakter mavjud. Soliq munosabatlari bo‘yicha ularning maqsadlari o‘zgachadir: davlat – soliq to‘lovlari hajmini oshirish, soliq to‘lovchilar esa – ularni kamaytirish. Umuman olganda, soliq yangiliklari davlat uchun ijobiy va soliq to‘lovchi uchun salbiy holat bo‘lishi mumkin.

Xo‘jalik sub’ektlari soliq risklari quyidagi xususiyatlariga egaligi tadqiq qilindi:

1) noaniqlik – voqelik rivojini aniq baholash uchun yetarli ma’lumotlarning yetishmasligi bilan izohlanadi;

2) muqobillik – voqelik rivojining kamida ikki varianti mavjudligida risklarning namon bo‘lishi;

3) ehtimollilik – voqelik bo‘lishining matematik hisob-kitobini olib borish imkoniyati;

4) yo‘qotish mavjudligi – kutilmagan vaziyatlarda riskli holatlarning rivojlanishining bittasini amalga oshirish;

5) befarqlik – risk sub’ekti faoliyatiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishida riskning vujudga kelishi, hattoki u voqelikning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun javobgarlikni oxirida oladi

6) o‘zgaruvchanlik – alohida risklarni amalga oshirish tarkibi va ehtimoli har doim ham barqaror emas va u vaqt o‘tishi ichki va tashqi risklarning ta’siri bilan o‘zgaradi;

7) qarama-qarshilik – risk moliyaviy qarorlarni boshqarish va qabul qilishning yangi vositalarini topishni taqozo etadi va taraqqiyotga erishish uchun turtki bo‘ladi; boshqa tomondan risk ma’lumotlar yetarli o‘rganilmaganda ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlarga olib keladigan qarorlarni qabul qilishda asoslanmagan qarorlarni qabul qilishga olib keladi.

Soliq riski ob’ekti – davlatning soliq siyosati yo‘nalishlaridan kelib chiqib, xo‘jalik sub’ektlari tomonidan amalga oshiriladigan ma’lum bir soliq risklarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan munosabatlar hisoblanadi. Soliq siyosati maqsad va vazifalaridan kelib chiqib soliq risklari ob’ektlari tarkibi turlichadir. Umumiy risk ob’ektlari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat byudjeti yoki xo‘jalik sub’ektlari daromadlar qismi;
- xo‘jalik sub’ektlari soliq yuki;
- qonunchilik tomonidan o‘rnatilgan soliq va yig‘imlar bo‘yicha imtiyozlar tizimi.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosati asosiy maqsadi byudjet daromadlarini oshirish, soliq ma’murchiligini takomillashtirishga

yo‘naltirilgan chora-tadbirlar fiskal funksiyani ta’minlashdan iborat [6-7]. Bu ayniqsa so‘nggi yillarda soliq islohotlarida keng namoyon bo‘lmoqda.

Soliq riski sub’ektlari byudjet-soliq sohasidagi moliyaviy siyosatni amalga oshiruvchi va huquqiy tartibga soluvchi sub’ektlar hisoblanadi.

Soliq risklarining mohiyati uning funksiyalari orqali yaqqol ko‘rinadi. Yuqorida xususiyatlardan kelib chiqib, soliq riskiga quyidagi funksiyalarni berish maqsadga muvofiq:

1) Riskning himoya funksiyasi – sub’ektlarning salbiy holatlar, kutilgan natijalarning yuzaga kelishida soliq risklariga tayyorligini ta’minlashni nazarda tutadi. Bundan tashqari, himoya funksiyasi himoya vositalarini qo‘llashda sub’ektlarni motivlashtirish (qarorlarning boshqa variantlarini shakllantirish, sug‘urtalashni shakllantirish) holatlari borligi bilan ham izohlanadi.

2) Rag‘batlantiruvchi funksiya – sub’ekt kutilmagan voqelikni paydo bo‘lish ehtimolini tushungan holda risklarni bartaraf etish yoki kamaytirish, shuningdek risk omillariga ta’sir etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

3) Innovatsion funksiya – risk bilan kurashda fan va amaliyotning zamonaviy muvaffaqiyatlaridan kelib chiqib, risklarni tartibga solishning yangi va dolzarb yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Aynan o‘z chegaralariga ega soliq to‘lovi soliq to‘lovchilarni ko‘proq rag‘batlantiradi, soliqlarni daromad (foyda) keltiruvchi iqtisodiy voqelik sifatida e’tirof etilishi uchun zamin yaratadi. Prof. J.R. Zaynalovning fikriga ko‘ra, har bir to‘lov, har bir xarajat turi, har bir jarima to‘lash (u salbiy holat bo‘lsa ham), har qanday resurs oqimi xo‘jalik sub’ektiga daromad (foyda) keltirishi va ularning iqtisodiy o‘sishiga moliyaviy potensialini yanada oshishiga zamin yaratish lozim [8].

Bunday fikrni tan olish bilan birga biz yuqorida qayd etilgan iqtisodiy voqeliklar tarkibiga ko‘zlanmagan xarajatlardan ham daromad (foyda) olinishi mumkinligi, uning soliq ob’ektida ko‘rsatib o‘tilishini muhim deb bilamiz. Aynan bunday yo‘qotishlar soliq to‘lov potensialining chegarasini qisqartirishi mumkin. Bunday holatga yo‘l qo‘ymaslik har qanday risk natijasida yo‘qotishlar yuz berganda, shu yo‘qotishlarni “soliq to‘lovi potensiali”ni aniqlashda emas, balki “mumkin bo‘lgan soliq potensiali” deb fikr yuritish ham maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan funksiyalarda soliq tizimini boshqarishda samarali moliyaviy qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi. Shuningdek, risklarni bartaraf etish va kamaytirish borasidagi qilinadigan ishlar qatoriga tahliliy qismini olib borish zarur. Ma’lumotlar yetarli bo‘lishi bilan bir qatorda uni to‘g‘ri tahlil qila olish soliqlarni tartibga solish va boshqarishda to‘g‘ri moliyaviy qaror qabul qilishni o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, o‘tgan davrlardagi kamchiliklar tahlil qilinib, risklarni bartaraf etish variantlari ishlab chiqilishiga e’tibor qaratish lozim.

Tahliliy ma’lumotlardan kelib chiqib, xo‘jalik sub’ektlari samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda nazoratni ta’minlash muhimdir. Nazoratni amalga oshirish soliq siyosatini amalga oshirishning ajralmas qismidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

- soliqqa tortish maqsadida, davlat soliq riski va soliq to‘lovchilar soliq riski o‘rtasidagi tafovutni farqlash;

- soliq riski xususiyatlaridan kelib chiqib, soliq riski funksiyalari sifatida himoya, rag‘batlantiruvchi va innovatsion funksiyalarini qabul qilish;

- rejalashtirilmagan xarajatlardan daromad (foyda) olinishi mumkinligi uning soliq ob’ektida ko‘rsatib o‘tish;

- qo‘ymaslik har qanday risk natijasida yo‘qotishlar yuz berganda, shu yo‘qotishlarni “soliq to‘lovi potensiali”ni aniqlashda emas, balki “mumkin bo‘lgan soliq potensiali” deb fikr yuritish;

- soliq risklarni bartaraf etish va kamaytirish borasidagi qilinadigan ishlar qatoriga tahliliy qismini olib borish va shu asosda xo‘jalik sub’ektlari samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda nazoratni ta’minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – М.: 2010. http://ozhegov.textologia.ru/definit/risk/?q=742&n=201517. Murojaat sanasi: 03.09.2026 y.

2. Knight F.H. Risk, uncertainty and profit. Houghton Mifflin Company, 1921. – p. 66.

3. Зубайдуллаев Ф.Ф. и др. Методические аспекты оценки риска в условиях возникновения неблагоприятных событий. // Ижтимоий-иқтисодий ва молия тизимларини институционал ривожлантириш: глобал миқёсда миллий иқтисодиёт. I-қисм/ 2019 йил 16-17 май кунлари. XI Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Самарқанд, СамИСИ, 2019. – 383 б.

4. Babayev Sh.B. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo‘yicha tushumlarni prognozqilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasiAvtoreferati. Toshkent, 2020. 19 b.

5. Jumaniyazova F.R. O‘zbekistonda soliq risklarini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni bartaraf qilish chora-tadbirlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil. IX son. -114 b.

6. Ahrorov Z. O. Increase Budget Revenues of Various Levels by Economically Limiting Tax Paying Potential. //European Journal of Business and Management. Vol.11, No.10, 2019. – P. 94-99. DOI:10.7176/EJBM (Global Impact Factor 7.17)

7. Ahrorov Z. O., Zaynalov D. R. Modernization of the Tax Science: Methodology and New Paradigms. //International Journal of Multidisciplinary and Current Research (IJMCR). Vol.7 (May-June 2019). – P. 305-312. DOI: https://doi.org/10.14741/ijmcr/v.7.3.11 (Global Impact Factor 5.126).

8. Зайналов Ж.Р. Необходимость обеспечения взаимной бюджетной и налоговой политики в условиях благоприятной государственной экономико-правовой атмосферы. /Глобальные проблемы модернизации национальной экономики. Материалы VI Международной научно-практической конференции (очно-заочной): в 2 частях. Тамбов, 26-28 апреля 2017г. - с. 214.

TOSHKENT VILOYATIDA MOYLI EKINLAR ETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI VA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING AYRIM MASALALARI

Amonova Muxabbat Abdugaffarovna Toshkent
Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada Toshkent viloyatida moyli ekinlar etishtirishning hozirgi holati tahlili va xarajatlar hisobini tashkil etishning ayrim masalalari yoritilgan. Xarajatlar tushunchasi bo‘yicha iqtisodchi olimlar yondashuvlari tadqiq qilingan. Toshkent viloyatida moyli ekinlar etishtirishning hozirgi holati tahlil qilingan va xulosalar shakllantirilgan. Xarajatlar hisobini tashkil etishni yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Toshkent viloyati, moyli ekinlar etishtirish, xarajatlar, buxgalteriya hisobi, hisobni tashkil etish.

Аннотация. В статье анализируется текущее состояние масличного земледелия в Ташкентской области и освещаются некоторые вопросы организации учета затрат. Изучаются подходы экономистов к понятию затрат. Анализируется текущее состояние масличного земледелия в Ташкентской области и делаются выводы. Разработаны предложения по совершенствованию организации учета затрат.

Ключевые слова: Ташкентская область, масличное земледелие, затраты, учет, организация учета.

Abstract. This article analyzes the current state of oilseed farming in the Tashkent region and highlights some issues related to cost accounting. Economists’ approaches to the concept of costs are explored. The current state of oilseed farming in the Tashkent region is analyzed and conclusions are drawn. Proposals for improving cost accounting are developed.

Keywords: Tashkent region, oilseed farming, costs, accounting, accounting organization.

Kirish. Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi salohiyati yuqori hududlardan biri bo‘lib, so‘nggi yillarda moyli ekinlar ekin maydonlarini kengaytirish va hosildorlikni oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq ishlab chiqarish xarajatlarining o‘sishi, moddiy resurslar narxlarining qimmatlashuvi hamda hisob va tahlil tizimidagi ayrim kamchiliklar tarmoq rentabelligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli Toshkent viloyatida moyli ekinlar yetishtirishning hozirgi holatini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, xarajatlar tarkibi va ularning samaradorlikka ta’sirini baholash, shuningdek xarajatlar hisobini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida resurslardan oqilona foydalanish, mahsulot tannarxini pasaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, moyli ekinlar yetishtirishni kengaytirish oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, o‘simlik moylariga

bo‘lgan ichki talabni qondirish hamda import hajmini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ishlab chiqarish xarajatlari hisobini to‘g‘ri tashkil etish korxonalarning moliyaviy natijalarini aniq baholash, xarajatlarni nazorat qilish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Shuning uchun xarajatlar hisobini tashkil etishning amaldagi holatini o‘rganish hamda uni takomillashtirish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Xarajatlar hisobini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»” [1] hisoblanadi. Moyli ekinlar yetishtiruvchi xo‘jaliklarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi ham ushbu Nizom asosida tashkil etiladi.

Ilmiy manbalar va o‘quv adabiyotlarida xarajatlar tushunchasiga iqtisodchi olimlarning yondashuvlarini tadqiq qilib chiqamiz. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “Xarajatlar- tovarlarni ishlab chiqarish va muomala jarayonida turli resurslar (xom-ashyo, materiallar, mehnat, xizmatlar, mablag‘lar) sarflari bilan bog‘liq chiqimlarning pul shaklidagi ifodasi” [2] deb keltirilgan.

Xorijlik iqtisodchi olim N.Y.Noskova tomonidan xarajatlar tushunchasiga quyidagicha yondashuv keltirilgan: “Xarajatlar - bu korxonaning o‘z faoliyati jarayonida foydalanadigan resurslar qiymatining bahosi” [3].

Respublikamiz iqtisodchi olimlari A.Ibragimov, I.Ochilov, I.Qo‘ziyev va N.Rizayevlar fikricha, “Xarajatlar - bu moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo‘lib, daromadlar va xarajatlar konsepsiyasiga ko‘ra, o‘sha davrning o‘zida daromad keltirishi kerak” [4].

Iqtisodchi olimlar A.Karimov, F.Islomov va A.Avloqulovlar yondashuviga ko‘ra: “Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir” [5].

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiyalash; qiyosiy tahlil; tizimli yondashuv; induksiya va deduksiya usullari; ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-iyuldagi 438-son «Respublikada moyli ekinlar yetishtirishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida “Respublikada moyli ekinlar maydoni va hosildorligini oshirish orqali o‘simlik yog‘i ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, hududlarning tuproq-iqlim sharoitlariga mos, serhosil, moydorligi yuqori, sho‘r va qurg‘oqchilikka bardoshli moyli ekinlarning nav va duragaylarini yaratish hamda birlamchi urug‘chiligini yo‘lga qo‘yish maqsadi” [6] belgilab olingan.

Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozimligi korsatilgan: “hududlarning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘oriladigan maydonlarning 5 foizigacha almashlab ekish tizimida moyli ekinlar ekilishiga ruxsat beriladi hamda moyli ekinlar bir

dalada 2 yildan ortiq ekilishiga yo‘l qo‘yilmaydi; kungaboqar ekinining tuproq unumdorligiga ta’sirini inobatga olib, asosiy va takroriy maydonlarga ekilgan kungaboqar ekinidan keyin siderat (raps, xantal, javdar, tritikale va boshqalar) ekinlarini ekish va tuproq ostiga shudgor qilish amaliyoti qo‘llaniladi; qayta ishlovchi yog‘-moy korxonalari bilan mahsulot yetishtiruvchi subyektlar o‘rtasida moyli ekinlar hosilini xarid qilish bo‘yicha shartnomalar O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining “Agroportali” axborot tizimi orqali tuziladi.

Manbalarda keltirilishicha, “Respublikamizda aholini oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan o‘simlik yog‘i bilan va chorvachilik tarmog‘ini shrot bilan barqaror ta’minlash, mamlakatimizda yetishtirilayotgan moyli ekinlar, xususan soya, kungaboqar, kunjut, masxar va zig‘ir doni hisobiga qayta ishlash va eksport hajmlarini yanada oshirish va importni kamaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, asosiy maydonlarga jami 124,7 ming gektar, shundan 51,3 ming gektar soya, 41,8 ming gektar kungaboqar va 31,6 ming gektar kunjut ekinlari; g‘o‘za qator oralariga hamkor ekin sifatida 73,1 ming gektar soya hamda bog‘-tok qator oralaridan samarali foydalanish maqsadida ular orasiga jami 10,3 ming gektar moyli, shundan, 7,2 ming gektar kungaboqar, 1,9 ming gektar kunjut va 1,2 ming gektar maxsar ekinlari; lalmi maydonlarda 21,4 ming gektar, shundan 16,3 ming gektarda maxsar va 5,1 ming gektarda zig‘ir; g‘alladan bo‘shagan takroriy maydonlarga jami 44,3 ming gektar, jumladan, 33,9 ming gektar kungaboqar va 10,4 ming gektar kunjut ekinlari ekib parvarishlanmoqda. Respublikamizda aholi iste’moli va chorvachilik tarmoqlari uchun o‘simlik moyiga bo‘lgan talab 580-600 ming tonnani tashkil etib, shundan 460 ming tonnasi aholi iste’moliga (aholi jon boshiga 13,1 kg/yil, JSST) sarflansa, qolgan qismi chorvachilik va parrandachilikka to‘g‘ri keladi” [7].

Toshkent viloyati bo‘yicha moyli ekinlarning umumiy yer maydoni o‘rganilayotgan yillarda o‘zgarib turgan. Barcha toifadagi xo‘jaliklarda moyli ekinlarning umumiy maydoni 2025-yilda 2202,6 gektarni tashkil etgan bo‘lsa, eng katta maydonlar Ohangaron (25,5 %) O‘rtachirchiq (18,2 %), Bo‘ka (9,9 %), Bo‘stonliq (8,2 %) va Pskent (6,9 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu hududlarda jami moyli ekinlarning 68,7 % i yetishtirilgan bo‘lsa, eng kichik maydonlar Angren shahri (0,03 %), Yangiyol shahri (0,3 %), Zangiota (0,5 %) va Toshkent (0,5 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu hududlarda jami moyli ekinlar atigi 1,33 % ga ekilgan. Nurafshon, Bekobod, Ohangaron, Chirchiq shaharlari va Chinoz tumanida moyli ekinlar ekilmagan (1-jadval).

Hozirgi kunda respublikamiz aholisini toza, sifatli o‘simlik moyiga bo‘lgan yillik ehtiyojini qondirish maqsadida, qishloq xo‘jalik korxona (fermer, dehqon va shaxsiy tomorqa xo‘jalik) larida moyli ekinlarni yetishtirish va uni qayta ishlashni tashkil etish juda muhimdir.

1 - jadval

Toshkent viloyati bo‘yicha barcha toifadagi xo‘jaliklarda moyli ekinlar maydoni [8]**,** ga

№	Hududlar	Yillar					2025-yilda 2021-yilga nisbatan, +/-
		2021	2022	2023	2024	2025	
	Toshkent viloyati bo‘yicha	**4001,5**	**5104,0**	**4594,5**	**3393,6**	**2202,6**	**-1798,9**
1	Nurafshon sh	68,9	13,0	17,0	0,0	0,0	-68,9
2	Olmaliq sh	4,0	0,0	3,0	15,7	61,6	57,6
3	Angren sh	0,0	0,0	0,0	3,5	0,7	0,7
4	Bekobod sh	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
5	Ohangapon sh	0,0	2,0	0,0	0,0	0,0	0,0
6	Chipchiq sh	11,1	0,0	0,0	0,0	0,0	-11,1
7	Yangiyo‘l sh	0,0	0,0	12,0	7,0	7,0	7,0
8	Oqqo‘rg‘on	44,1	131,0	282,4	337,7	78,4	34,3
9	Ohangaron	1 327,6	756,5	802,9	619,6	562,4	-765,2
10	Bekobod	146,4	379,1	246,3	150,5	116,1	-30,3
11	Bo‘stonliq	351,8	837,2	275,8	317,0	181,3	-170,5
12	Bo‘ka	93,0	189,0	666,9	326,6	218,0	125,0
13	Quyichirchiq	38,2	795,0	393,0	14,7	11,8	-26,4
14	Zangiota	40,9	8,9	2,7	16,3	11,0	-29,9
15	Yuqorichirchiq	342,0	58,9	170,5	208,1	77,8	-264,2
16	Qibray	238,1	231,6	230,5	113,6	112,2	-125,9
17	Parkent	369,1	170,3	155,6	140,2	85,3	-283,8
18	Pskent	262,7	268,4	228,6	209,2	151,8	-110,9
19	O‘rtachirchiq	578,6	339,9	718,4	688,2	401,9	-176,7
20	Chinoz	3,0	222,7	121,1	25,5	0,0	-3,0
21	Yangiyo‘l	65,4	700,5	262,8	200,2	113,2	47,8
22	Toshkent	16,6	0,0	5,0	0,0	12,1	-4,5

Toshkent viloyatida keyingi yillarda moyli ekinlar maydoni sezilardi darajada kamaygan. Biroq, barcha toifadagi xo‘jaliklarda moyli ekinlarning maydoni 2025-yilda 2022-yilga nisbatan 45 % ga kamaygan, shundan soyaning maydoni 5,7 martaga va kunjutning maydoni 7,8 martaga kamaygan. Kungaboqar, maxsar va yeryong‘oqning maydonlari ham o‘rganilayotgan davrda sezilarli darajada kamayganligini ko‘rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval va tahliliy ma’lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Toshkent viloyati bo‘yicha moyli ekinlar donini yetishtirish uchun ajratilgan eng katta yer maydonlari asosan Ohangaron, O‘rtachirchiq, Bo‘stonliq, Yuqorichirchiq va Pskent tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, ushbu tumanlarda istiqbolda moyli ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan hududlarni rivojlantirish mumkin.

O‘tgan yillar davomida Toshkent viloyati bo‘yicha barcha toifadagi xo‘jaliklar moyli ekinlar maydoni kamaygani boisdan, ulardan olinadigan yalpi hosil miqdori ham sezilarli darajada kamaygan (kungaboqardan tashqari). Masalan, moyli ekinlardan olinadigan yalpi hosil miqdori 2025-yilda 2022-yilga nisbatan qariyb 4454,16 tonnaga yoki 45,7 foizga kamaygan bo‘lsa, soyaning yalpi hosili 3398,21 tonnaga yoki 62,1 foizga, yeryong‘oq yalpi hosili 1109,35 tonnaga yoki 45,5 foizga kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Toshkent viloyatida moyli ekinlar hosildorligining oshganligini ko‘rish mumkin (yeryongoqdan tashqari). 2025-yilda 2021-yilga nisbatan kugaboqarning o‘rtacha hosildorligi 51,6 %ga, maxsarning o‘rtacha hosildorligi 31,8 %ga, soyaning o‘rtacha hosildorligi 17,4 %ga, kunjutning o‘rtacha hosildorligi 4 martaga oshgan. Buni ijobiy baholash mumkin.

2-jadval

Toshkent viloyati bo‘yicha barcha toifadagi xo‘jaliklar moyli ekinlar maydoni, yalpi hosili, hosildorligining 2022-2025 yillar bo‘yicha dinamikasi [8]

Ekin turlari	**2022-yil**		**2023-yil**		**2024-yil**		**2025-yil**		**2025-yilda 2022-yilga nisbatan o‘sishi (kama-yishi), %**
	maydoni	Jamiga nisbatan % da	**maydoni**	Jamiga nisbatan % da	**maydoni**	Jamiga nisbatan % da	**maydoni**	Jamiga nisbatan % da	
Maydoni, ga									
Kungaboqar	1021,0	22,5	1064,5	23,7	803,6	24,7	883,7	45,9	86,6
Maxsar	456,0	10,0	332,1	7,4	495,8	15,2	234,6	12,2	51,4
Soya	2 450,0	54,0	2 445,4	54,5	1 338,1	41,1	430,3	22,4	17,6
Kunjut	21,0	0,5	19,2	0,4	7,0	0,3	2,7	0,1	12,9
Yeryong‘oq	590,0	13,0	625,6	14,0	608,5	18,7	372,9	19,4	63,2
JAMI:	**4538**	**100**	**4486,6**	**100**	**3253**	**100**	**1924,2**	**100**	**42,4**
Yalpi hosil, t									
Kungaboqar	1440,0	14,8	1451,7	20,5	1275,0	18,0	1615,6	30,5	121,2
Maxsar	383,0	3,9	409,4	5,7	1035,5	14,7	266,6	5,0	69,6
Soya	5 474,0	56,2	2227,49	31,4	2035,41	28,8	2075,79	39,3	37,9
Kunjut	11,0	0,1	12,1	0,2	8,5	0,1	5,2	0,1	47,3
Yeryong‘oq	2440	25,0	2995,9	42,2	2710,87	38,4	1330,65	25,1	54,5
JAMI:	**9748**	**100**	**7096,59**	**100**	**7065,28**	**100**	**5293,84**	**100**	**54,3**
Hosildorligi, s/ga									
Kungaboqar	12,4		13,2		15,8		18,8		151,6
Maxsar	8,8		11,2		20,9		11,6		131,8
Soya	18,8		9,3		10,4		36,8		195,7

Kunjut	4,8	6,7	10,7	19,3	4 marta
Yeryong‘oq	24,9	22,3	21,3	23,7	95,2

Shunday qilib, Toshkent viloyati bo‘yicha barcha toifadagi xo‘jaliklar moyli ekinlar kungaboqar, soya, maxsar, yeryong‘oq donini ishlab chiqarish uchun yer maydonlarini ko‘proq ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga, Ohangaron, O‘rtachirchiq, Bo‘stonliq, Yuqorichirchiq va Pskent tumanlarida moyli ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan hududlarni rivojlantirish hamda moyli ekinlar yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va yog‘ ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan “o‘simlik moyi klasterlari”ni tashkil etish lozim.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Toshkent viloyatida 2021-2025-yillar davomida moyli ekinlar ekin maydonlari va yalpi hosili sezilarli darajada qisqargan bo‘lsa-da, ayrim ekinlar, xususan kungaboqar, soya, maxsar va kunjutning hosildorligi oshgan. 2025-yilda moyli ekinlarning asosiy qismi Ohangaron, O‘rtachirchiq, Bo‘ka, Bo‘stonliq va Pskent tumanlarida joylashgan bo‘lib, ushbu hududlar viloyatdagi jami maydonning qariyb 70 foizini tashkil etgan. Moyli ekinlar tarkibida soya va kungaboqar yetakchi o‘rin egallagan bo‘lsa, ekin maydonlarining kamayishi yalpi hosil hajmiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu sababli aholini sifatli o‘simlik moyi bilan ta’minlash maqsadida moyli ekinlar maydonlarini kengaytirish, yuqori hosildor navlarni joriy etish, yetishtirish va qayta ishlashni birlashtirgan “o‘simlik moyi klasterlari”ni tashkil etish hamda Ohangaron, O‘rtachirchiq, Bo‘stonliq, Yuqorichirchiq va Pskent tumanlarini ixtisoslashgan hududlar sifatida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, xarajatlar hisobini tashkil etish korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini aniq belgilash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda xarajatlarni hisobga olish tizimida ma’lumotlarning o‘z vaqtida va to‘liq aks ettirilmasligi, xarajat turlarining yetarli darajada tahlil qilinmasligi hamda raqamlashtirish darajasining pastligi kabi muammolar uchrab turadi. Shu bois xarajatlar hisobini takomillashtirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini joriy etish, xarajatlarni javobgarlik markazlari va faoliyat turlari bo‘yicha alohida hisobga olish, ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda xarajatlar tahlilini muntazam amalga oshirish zarur. Bu esa korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilash, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom». https://lex.uz/docs/264422

2. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” O‘ZME nashriyoti. Toshkent, 2000. -392 b.

3. Н.Ю.Носкова. Учет затрат, калькулирование и бюджетирование в различных отраслях производственной деятельности: Учебное пособие / Н.Ю.Носкова. Ульяновск: УлГТУ, 2009. -124 с.

4. A.Ibragimov, I.Ochilov, I.Qo‘ziyev, N.Rizayev. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. / O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. -444 b.

5. A.Karimov, F.Islomov, A.Avloqulov. Buxgalteriya hisobi. –T: “Sharq” NMAK, 2004. -93 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-iyuldagi 438-son «Respublikada moyli ekinlar yetishtirishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. https://lex.uz/docs/-7628787?query=imtiyoz

7. https://www.agro.uz/moyli-ekinlar oziq-ovqat xavsizligini ta’minlash asosi.

8. Ўзбекистон Республикаси Миллий Статистика қўмитаси маълумотлари (https://www.stat.uz/uz/).

SELLYULOZA-QOG‘OZ ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA XARAJATLARNI TASNIFLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdurashidov Abdumurod Abduraxmonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti,
e-mail: abdumurod_86@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada sellyuloza-qog‘oz ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni tasniflashning mavjud yondashuvlari tahlil qilinib, ishlab chiqarish texnologiyasining murakkabligi, xomashyo va energiya resurslarining yuqori ulushi, texnologik yo‘qotishlar hamda ekologik xarajatlarni hisobga olgan holda ularni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Xarajatlarni faqat iqtisodiy elementlari yoki funksional vazifalariga ko‘ra guruhlash mahsulot tannarxini samarali boshqarish uchun yetarli axborot bermasligi asoslangan. Shu sababli xarajatlarni asosiy, yordamchi, texnologik, umumishlab chiqarish, boshqaruv, sotish, ekologik va resurs yo‘qotishlari kabi analitik guruhlarga ajratish taklif etilgan. Shuningdek, xarajatlarni mahsulot tannarxiga taqsimlashda ularning bevosita yoki bilvosita xususiyati bilan bir qatorda xomashyo sarfi, mashina-soat, energiya iste’moli, ishlab chiqarish hajmi, texnologik operatsiyalar va chiqindilar miqdori kabi xarajat drayverlaridan foydalanish modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqotda an’anaviy xarajatlar hisobi ABC-costing va material oqimlari xarajatlari hisobi (MFCA) bilan integratsiyalashgan holda qo‘llanishi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: sellyuloza-qog‘oz sanoati, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, xarajatlarni tasniflash, kalkulyatsiya, ABC-costing, ekologik xarajatlar, material oqimlari, MFCA, boshqaruv hisobi.

Аннотация. В статье исследуются существующие подходы к классификации затрат на предприятиях целлюлозно-бумажной

промышленности и предлагаются направления их совершенствования с учетом технологической сложности производства, высокой доли сырья и энергоресурсов, производственных потерь и экологических издержек. Обосновано, что группировка затрат только по экономическим элементам или функциональному назначению не обеспечивает достаточной информационной базы для управления себестоимостью. Предлагается формировать аналитическую классификацию затрат по основным, вспомогательным, технологическим, общепроизводственным, административным, коммерческим, экологическим и ресурсным категориям. Для распределения затрат на продукцию предлагается учитывать не только их прямой или косвенный характер, но и соответствующие драйверы затрат: расход сырья, машино-часы, энергопотребление, объем производства, количество технологических операций и производственных потерь. Методика предусматривает интеграцию традиционного учета затрат с ABC-калькуляцией и учетом материальных потоков.

Ключевые слова: целлюлозно-бумажная промышленность, производственные затраты, себестоимость, классификация затрат, калькуляция, ABC-калькуляция, экологические издержки, материальные потоки, MFCA, управленческий учет.

Abstract. This article examines existing approaches to cost classification in pulp and paper manufacturing enterprises and develops methodological proposals that consider technological complexity, the high share of raw materials and energy resources, production losses, and environmental costs. It is argued that classifying costs solely by economic elements or functional purpose does not provide sufficient information for effective cost management and product costing. An analytical classification into primary, auxiliary, technological, production overhead, administrative, selling, environmental, and resource-loss categories is proposed. The study also develops an approach for allocating costs to products based not only on their direct or indirect nature but also on relevant cost drivers, including raw material consumption, machine hours, energy use, production volume, number of technological operations, and production losses. The proposed methodology integrates conventional cost accounting with activity-based costing and material flow cost accounting.

Keywords: pulp and paper industry, production costs, cost classification, costing, ABC costing, environmental costs, material flows, material flow cost accounting, management accounting.

KIRISH. Sellyuloza-qog‘oz sanoati xomashyo, energiya, suv va mehnat resurslarini katta miqdorda talab qiladigan ishlab chiqarish tarmoqlaridan biridir. Ishlab chiqarish jarayoni xomashyoni tayyorlash, qayta ishlash, massa tayyorlash, oqartirish, qog‘oz massasini shakllantirish, presslash, quritish, pardozlash va qadoqlash kabi o‘zaro bog‘liq bosqichlardan tashkil topadi. Shu sababli xarajatlarning yuzaga kelish joyi va ularning mahsulot tannarxiga ta’siri o‘rtasida murakkab bog‘liqlik mavjud.

Xarajatlarni to‘g‘ri tasniflash moliyaviy hisobot bilan bir qatorda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ham muhimdir. 2-son BHXS “Zaxiralar” (IAS 2 “Inventories”) talablariga ko‘ra, zaxiralar tannarxi xarid, qayta ishlash, bevosita mehnat va ishlab chiqarish ustama xarajatlari hamda mahsulotni tegishli holat va joyga keltirish bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni qamrab oladi [1]. Doimiy va o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarini tizimli taqsimlash, doimiy ustama xarajatlarini esa normal ishlab chiqarish quvvati asosida taqsimlash talab etiladi. O‘zbekiston hisob tizimida ishlab chiqarish va umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish mexanizmlari mavjud bo‘lsa-da, sellyuloza-qog‘oz ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyatlari xarajatlarni yanada chuqur analitik guruhlashni talab qiladi. Bundan tashqari, moliyaviy hisobotning milliy standartlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur masalaning dolzarbligini oshirmoqda [2].

Tarmoq uchun muhim masalalardan yana biri ekologik xarajatlarni hisobga olishdir. Ishlab chiqarishda xomashyo, suv, energiya va kimyoviy moddalarning bir qismi tayyor mahsulotga aylanmay, chiqindi va yo‘qotishlar ko‘rinishida qoladi. ISO 14051 standarti doirasidagi Material Flow Cost Accounting (MFCA) yondashuvi material va energiya oqimlarini fizik hamda qiymat jihatdan birgalikda baholash imkonini beradi [3].

Ilmiy tadqiqotlarda ekologik xarajatlarning ma’muriy, infratuzilmaviy va material xarajatlari tarkibida aks etib qolishi ularni alohida boshqarishni qiyinlashtirishi qayd etilgan [4].

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi sellyuloza-qog‘oz ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni iqtisodiy mazmuni, texnologik jarayon va xarajat drayverlari asosida qayta tasniflash hamda mahsulot tannarxini shakllantirishning takomillashtirilgan metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Xarajatlarni tasniflash va mahsulot tannarxini hisoblash boshqaruv hisobi nazariyasining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. An’anaviy hisobda xarajatlar iqtisodiy elementlari, kalkulyatsiya moddalari, ishlab chiqarish hajmiga munosabati, tannarxga kiritilish usuli va javobgarlik markazlari bo‘yicha guruhlanadi.

Biroq ishlab chiqarish texnologiyasi murakkablashgan sharoitda umumiy ustama xarajatlarni yagona taqsimlash bazasi asosida mahsulotlarga yuklash tannarxning buzilishiga olib kelishi mumkin. R. Cooper va R.S. Kaplan tomonidan ishlab chiqilgan faoliyatga asoslangan xarajatlar konsepsiyasida ko‘p mahsulotli korxonalarda an’anaviy xarajat ma’lumotlari mahsulot tannarxini noto‘g‘ri aks ettirishi mumkinligi ko‘rsatilgan [5].

ABC-costingning asosiy tamoyili xarajatlarni avvalo ularni yuzaga keltiruvchi faoliyatlarga, keyin esa ushbu faoliyatlardan foydalanadigan mahsulotlarga bog‘lashdan iborat. Natijada “xarajat → faoliyat → mahsulot” munosabati shakllanadi.R.S. Kaplan va S. Anderson tomonidan ishlab chiqilgan Time-Driven ABC modeli esa xarajatlarni resurs quvvatining birlik qiymati va faoliyatni bajarish uchun sarflanadigan vaqt asosida aniqlashni taklif etadi [6]. Bu usul turli grammaturadagi qog‘oz mahsulotlari energiya, quritish vaqti, mashina-soat va boshqa resurslardan turlicha foydalanadigan sellyuloza-qog‘oz korxonalari uchun

muhim ahamiyatga ega. Ekologik xarajatlarni hisobga olishda MFCA alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Katherine L. Christ, Roger L. Burritt tadqiqotlarida MFCA iqtisodiy va ekologik samaradorlikni birgalikda oshirish imkonini berishi, biroq uni amaliyotga keng joriy etish bo‘yicha ayrim tadqiqot bo‘shliqlari saqlanib qolayotgani qayd etilgan [7].

Qog‘oz ishlab chiqarish korxonalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda material oqimlari va resurs yo‘qotishlarini qiymat jihatdan tahlil qilish imkoniyatlari ham ko‘rsatib berilgan [8].

Mazkur tadqiqotda shu yondashuvlardan kelib chiqib, xarajatlarni uchta o‘zaro bog‘liq mezon asosida tasniflash taklif etiladi:

iqtisodiy mazmuni;

texnologik va funksional vazifasi;

xarajatni yuzaga keltiruvchi drayver.

TADQIQOT METODLARI. Tadqiqotda tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslash, analitik hisob, kalkulyatsiya, omilli tahlil va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Metodologiyaning asosiy tamoyili xarajatlarni faqat “nima sarflandi?” nuqtayi nazaridan emas, balki quyidagi zanjir asosida tahlil qilishdan iborat:

Xarajat turi → yuzaga kelish joyi → texnologik jarayon → xarajat drayveri → mahsulot → tannarx → moliyaviy natija.

Sellyuloza-qog‘oz korxonalarida xarajatlarni quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval

Sellyuloza-qog‘oz korxonalarida xarajatlarning texnologik va boshqaruv funksiyasi bo‘yicha asosiy guruhlari

№	Xarajat guruhi	Asosiy mazmuni	Tannarxga bog‘lash usuli
1	Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari	Sellyuloza, qog‘oz massasi, asosiy xomashyo, bevosita mehnat	Bevosita
2	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari	Ta’mirlash, energetika, transport, yordamchi materiallar	Xarajat markazlari orqali
3	Texnologik xarajatlar	Quritish, maydalash, oqartirish, presslash, pardozlash	Mashina-soat/energiya sarfi
4	Umumishlab chiqarish xarajatlari	Amortizatsiya, ishlab chiqarish boshqaruvi, texnik xizmat	ABC/drayver asosida
5	Boshqaruv xarajatlari	Ma’muriy boshqaruv, ofis, axborot xizmatlari	Davr xarajati yoki boshqaruv segmentlari
6	Sotish xarajatlari	Qadoqlash, saqlash, marketing, yetkazib berish	Mahsulot/sotuv hajmi asosida
7	Ekologik xarajatlar	Oqova suv, chiqindilar, tozalash, monitoring	Alohida analitik hisob
8	Resurs yo‘qotishlari	Yaroqsiz mahsulot, texnologik chiqindi, material yo‘qotilishi	MFCA asosida

Manba: Muallif tomonidan IAS 2, ISO 14051, ABC-costing va MFCA yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan.

Bunda boshqaruv va sotish xarajatlari avtomatik ravishda ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydi. Ularni alohida hisobga olish boshqaruv tahlili va moliyaviy hisobot talablarini ajratish imkonini beradi.

1-son BHXS (IAS 1) xarajatlarni moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda tabiati yoki funksiyasi bo‘yicha taqdim etishga imkon beradi; funksional tasnifdan foydalanilganda xarajatlarning tabiati to‘g‘risida qo‘shimcha axborot berilishi mumkin [9].

NATIJALAR. Tadqiqot natijasida xarajatlarni shakllantirishning ikki bosqichli tizimi taklif etildi (2-jadval).

2-jadval

Sellyuloza-qog‘oz korxonalari xarajatlari shakllantirishning ikki bosqichli ketma-ketligi

Bosqichlar	Mazmuni	Ketma-ketligi
1-bosqich:	xarajatlarning iqtisodiy tabiati bo‘yicha	xomashyo va materiallar; mehnat xarajatlari; energiya; amortizatsiya; xizmatlar; boshqa xarajatlar.
2-bosqich:	texnologik va boshqaruv funksiyasi bo‘yicha	asosiy; yordamchi; texnologik; umumishlab chiqarish; ekologik; boshqaruv; sotish; resurs yo‘qotishlari.

Natijada har bir xarajat bir vaqtning o‘zida bir nechta analitik belgilar bilan ifodalanadi. Masalan: Elektr energiyasi → energiya xarajati → texnologik xarajat → quritish jarayoni → mashina-soat → qog‘oz mahsuloti.

Mazkur tizim xarajatning nafaqat miqdorini, balki uning kelib chiqish sababi va mahsulot tannarxiga ta’sirini ham aniqlash imkonini beradi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini faqat ishlab chiqarish hajmi yoki mehnat xarajatlariga mutanosib taqsimlash o‘rniga xarajatlarning real yuzaga kelish omillaridan foydalanish taklif etiladi (3-jadval).

3-jadval

Xarajat turlari va ular boyicha tavsiya etiladigan drayverlar

Xarajat turlari	Tavsiya etiladigan drayverlar
Xomashyo xarajatlari	Xomashyo sarfi, kg/t
Elektr energiyasi	kVt·soat
Bug‘ va issiqlik	Gkal yoki tonna
Uskuna amortizatsiyasi	Mashina-soat
Ta’mirlash	Uskuna ishlash vaqti
Laboratoriya nazorati	Testlar soni
Qadoqlash	Tayyor mahsulot birligi
Ichki transport	Tonna-kilometr
Ekologik tozalash	Oqova hajmi yoki ifloslantiruvchi modda hajmi
Ishlab chiqarish chiqindilari	Chiqindi massasi
Buyurtmani qayta ishlash	Buyurtmalar soni

Mahsulot tannarxini aniqlash uchun quyidagi formula taklif qilinadi:

$T_i = MX_i + MXH_i + EX_i + TX_i + UO_i + EXO_i$, (1)

bu yerda: T_i – i-mahsulot ishlab chiqarish tannarxi; MX_i – bevosita material xarajatlari; MXH_i – bevosita mehnat xarajatlari; EX_i – energiya xarajatlari; TX_i – texnologik xarajatlar; UO_i – umumishlab chiqarish xarajatlarining i-mahsulotga taqsimlangan qismi; EXO_i – mahsulot bilan sababiy bog‘liq ekologik xarajatlar.

Boshqaruv va sotish xarajatlari alohida hisobda saqlanib, mahsulot rentabelligini boshqaruv tahlilida hisobga olinadi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri ekologik xarajatlarni alohida analitik guruh sifatida shakllantirishdir. Qog‘oz ishlab chiqarishda xomashyo, suv, energiya va kimyoviy moddalarning bir qismi tayyor mahsulotga aylanmaydi. Agar bunday yo‘qotishlar umumiy xarajatlar tarkibida aks ettirilsa, ularning iqtisodiy qiymati va ekologik oqibatlarini baholash qiyinlashadi.

Metodik jihatdan material oqimini quyidagicha ifodalash mumkin:

Xomashyo → texnologik jarayon → tayyor mahsulot + yo‘qotishlar → chiqindi → ekologik xarajat → umumiy iqtisodiy samaradorlik.

Foiz ko‘rsatkichlari muayyan korxona ma’lumotlari emas, balki metodik tushuntirish uchun keltiriladigan shartli ko‘rsatkichlar sifatida qaraladi.

MFCA yondashuvining afzalligi shundaki, u faqat chiqindining qiymatini emas, balki ushbu yo‘qotish bilan bog‘liq material, energiya va qayta ishlash xarajatlarini ham aniqlash imkonini beradi. Shu orqali resurs yo‘qotishlarining yashirin tannarxi aniqlanadi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari xarajatlarni tasniflashni takomillashtirish faqat yangi hisobvaraqlar kiritishdan iborat emasligini ko‘rsatadi. Asosiy vazifa mavjud hisob ma’lumotlarini boshqaruv qarorlariga xizmat qiladigan analitik tizimga aylantirishdan iborat.

An’anaviy usulda umumishlab chiqarish xarajatlari bitta taqsimlash bazasi asosida mahsulotlarga yuklanishi mumkin. Bunda resurslardan foydalanish darajasi yuqori bo‘lgan texnologik murakkab mahsulotlarga nisbatan xarajatlarning kamroq qismi, sodda mahsulotlarga esa ortiqcha xarajat yuklanishi ehtimoli mavjud.

ABC va Time-Driven ABC yondashuvlari ushbu muammoni kamaytirishga xizmat qiladi. Xarajat drayverining birlik qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$CD_j = XR_j / Q_j, \quad (2)$$

bu yerda: CD_j - j-xarajat markazining birlik xarajat drayveri; XR_j - j-xarajat markazining jami xarajatlari; Q_j - tegishli xarajat drayverining umumiy miqdori.

Muayyan mahsulotga taqsimlanadigan xarajat:

$$X_{ij} = CD_j \times Q_{ij}, \quad (3)$$

bu yerda: X_{ij} - i-mahsulotga j-xarajat markazidan taqsimlanadigan xarajat; CD_j - j-xarajat drayverining birlik qiymati; Q_{ij} - i-mahsulot tomonidan foydalanilgan j-drayver miqdori.

4-jadvalda muallif taklif etilayotgan va an’anaviy yondashuvning qiyosiy tavsifi keltirilgan.

4-jadval

Taklif etilayotgan va an’anaviy yondashuvning qiyosiy tavsifi

Mezon	An’anaviy yondashuv	Taklif etilayotgan yondashuv
Xarajatlarni guruhlash	Iqtisodiy elementlar	Iqtisodiy + funksional + texnologik
Ustama xarajatlarni taqsimlash	Bitta/cheklangan baza	Bir nechta xarajat drayverlari
Energiya xarajatlari	Umumiy ishlab chiqarish tarkibida	Texnologik jarayon kesimida
Ekologik xarajatlar	Boshqa xarajatlarda	Alohida analitik guruh
Chiqindilar	Ko‘pincha alohida tahlil qilinmaydi	MFCA asosida qiymatlash
Mahsulot tannarxi	O‘rtacha taqsimotga moyil	Resurslardan foydalanishga bog‘langan
Boshqaruv axboroti	Cheklangan	Mahsulot va jarayon kesimida
Qaror qabul qilish	Umumiy tannarxga asoslangan	Xarajat drayverlari asosida

Taklif etilayotgan metodika iqtisodiy va ekologik samaradorlikni birgalikda baholash imkonini beradi. MFCA bo‘yicha tadqiqotlarda ham material yo‘qotishlarini pul qiymatida aniqlash resurslardan foydalanish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini yaxshilashi mumkinligi ko‘rsatilgan [10].

Sellyuloza-qog‘oz korxonalarida kichik foizdagi material yo‘qotishlari ham ishlab chiqarish hajmi katta bo‘lgan sharoitda sezilarli moliyaviy qiymatga ega bo‘lishi mumkin. Shu bois material oqimlarini fizik va qiymat ko‘rsatkichlarida kuzatish tannarxni boshqarishning muhim elementi hisoblanadi.

Taklif etilayotgan metodikaning amaliy modeli. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, korxonalarda xarajatlar hisobini quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish maqsadga muvofiq (5-jadval):

5-jadval

Sellyuloza-qog‘oz ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni hisobga olish bosqichlari

Bosqichlar	Tasniflanishi
1-bosqich	Xarajatlarni iqtisodiy elementlari bo‘yicha dastlabki hisobga olish: material + mehnat + energiya + amortizatsiya + xizmatlar + boshqa xarajatlar.
2-bosqich	Xarajatlarni yuzaga kelish joylari bo‘yicha ajratish: xomashyo tayyorlash → massa tayyorlash → qog‘oz shakllantirish → presslash → quritish → pardozlash → qadoqlash.
3-bosqich	Har bir xarajat markazi uchun xarajat drayverini belgilash.
4-bosqich	Xarajatlarni bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratish.
5-bosqich	Bilvosita xarajatlarni ABC yoki Time-Driven ABC asosida mahsulotlarga taqsimlash.
6-bosqich	Material yo‘qotishlari va ekologik xarajatlarni MFCA asosida aniqlash.
7-bosqich	Mahsulot tannarxini shakllantirish.
8-bosqich	Tannarxni mahsulot rentabelligi va moliyaviy natijalar bilan bog‘lash.

Mazkur tizimda boshqaruv axboroti quyidagi zanjir asosida shakllanadi:

Resurslar → xarajatlarni hisobga olish → xarajatlarni tasniflash → bevosita/bilvosita xarajatlar → xarajat drayverlari + MFCA → mahsulot tannarxi → rentabellik tahlili → moliyaviy natija → boshqaruv qarori.

Ushbu model xarajatlarni hisobga olishni oddiy qayd etish jarayonidan boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlovchi analitik tizimga aylantirish imkonini beradi.

XULOSA. Tadqiqot natijalariga asoslanib, sellyuloza-qog‘oz ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni tasniflash metodikasini quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, xarajatlarni faqat iqtisodiy elementlari bo‘yicha emas, balki texnologik jarayondagi o‘rni, funksional vazifasi va yuzaga kelish drayverlari asosida ham guruhlash lozim.

Ikkinchidan, asosiy, yordamchi va texnologik xarajatlarni alohida ajratish mahsulot tannarxining shakllanishini aniqroq ko‘rsatadi. Bunda mashina-soat, energiya sarfi va ishlab chiqarish hajmi kabi drayverlardan foydalanish mumkin.

Uchinchidan, umumishlab chiqarish xarajatlarini faqat ishlab chiqarish hajmi yoki mehnat xarajatlariga mutanosib taqsimlash o‘rniga ABC yoki Time-Driven ABC usullaridan foydalanish tannarx hisobining aniqligini oshiradi.

To‘rtinchidan, ekologik xarajatlarni alohida analitik guruh sifatida yuritish zarur. Oqova suvlarni tozalash, chiqindilarni utilizatsiya qilish, ekologik monitoring va resurs yo‘qotishlari alohida nazorat qilinishi lozim.

Beshinchidan, MFCA yondashuvini xarajatlarni tasniflash tizimiga integratsiya qilish mahsulotga aylanmagan materiallarning iqtisodiy qiymatini aniqlash imkonini beradi. Bunda material va energiya oqimlarini fizik hamda qiymat ko‘rsatkichlarida kuzatish muhim ahamiyatga ega.

Oltinchidan, taklif etilayotgan metodika boshqaruvga nafaqat “qancha xarajat qilindi?”, balki “xarajat nima sababdan yuzaga keldi?”, “qaysi mahsulot yoki jarayon uni keltirib chiqardi?” va “uni kamaytirish imkoniyati mavjudmi?” kabi savollarga javob olish imkonini beradi.

Umuman olganda, sellyuloza-qog‘oz korxonalarida xarajatlarni tasniflashning takomillashtirilgan metodikasi an’anaviy buxgalteriya hisobi, faoliyatga asoslangan kalkulyatsiya va material oqimlari xarajatlari hisobini yagona boshqaruv tizimida uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Mazkur yondashuv mahsulot tannarxini aniqroq shakllantirish, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilashga qaratilgan boshqaruv qarorlarining axborot bazasini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. IAS 2 “Inventories” (Zaxiralar) [Elektron resurs] // IFRS Foundation. https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-2-inventories/.
2. Moliyaviy hisobotning milliy standartlari: xalqaro amaliyotga muvofiq yangi bosqich. https://gov.uz/oz/imv/news/view/123216.
3. ISO 14051:2011. Environmental management – Material flow cost accounting - General framework. https://www.iso.org/standard/50986.html.

4. Discover research. https://www.researchgate.net/
5. Cooper, R., & Kaplan, R.S. (1988 b). Measure Costs Right: Make the Right Decisions. Harvard Business Review, 66, 96-103. https://hbr.org/
6. Kaplan, R., & Anderson, S. (2007). Time Driven Activity Based Costing-A Simpler and More Powerful Path to Higher Profits. Harvard Business School, No. 3, 12-18.
7. Katherine L. Christ, Roger L. Burritt. Material flow cost accounting: a review and agenda for future research. Journal of Cleaner Production. 1 Dec 2015. Volume 108. Pages 1378-1389. https://researchers.mq.edu.au/en/publications/material-flow-cost-accounting-a-review-and-agenda-for-future-rese/
8. Zhen Li, Huixiang Zeng,Xi Xiao, Jin Cao, Chaoji Yang, Kaixin Zhang. Resource value flow analysis of paper-making enterprises: A Chinese case study. Journal of Cleaner Production. 10 March 2019. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S095965261833868X
9. IAS 1 Presentation of Financial Statements. https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-1-presentation-of-financial-statements/
10. MDPI (Multidisciplinary Digital Publishing Institute). https://www.mdpi.com/

НОДАВЛАТ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИЧКИ АУДИТ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ ТИЗИМИ

Турманқулов Норпўлат Саъдуллаевич
Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги Тошкент шаҳар бошқармаси,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил тадқиқотчиси,
телефон +99890-938-84-00, e-mail: norpulat@inbox.ru

Аннотация. Тезисда нодавлат олий таълим муассасаларида ички аудит самарадорлигига таъсир этувчи омилларни-бошқарув маданияти, раҳбариятнинг ички аудитга муносабати ҳамда аудит натижаларидан фойдаланиш даражасини-комплекс баҳолашга йўналтирилган баҳолаш мезонлари тизими таклиф этилади. Тизим ички аудит самарадорлигини нафақат аниқланган камчиликлар сони билан, балки аудит натижаларининг бошқарув қарорларига таъсири, молиявий самарадорлик кўрсаткичлари ва рискларни бошқариш тизимининг ривожланиши орқали ҳам баҳолаш имконини беради.

Калит сўзлар: нодавлат олий таълим муассасалари, ички аудит, самарадорлик, баҳолаш мезонлари, бошқарув маданияти, ички аудитор-маслаҳатчи, кўп омилли индикаторлар, бошқарув қарорлари.

1. Кириш

Нодавлат олий таълим муассасаларида ички аудит самарадорлиги унинг алоҳида тартиб-таомиллари билан эмас, балки аудит тизимининг бошқарув тизими билан қай даражада уйғунлашгани билан белгиланади. Амалиётда ички аудит кўпинча текширув якунида ҳисобот тайёрлаш билан чекланиб қолади; ушбу ҳисоботларнинг бошқарув қарорларига реал таъсири таъминланмаса, аудит институти формаллик даражасида қолиб кетиш хавфига дуч келади. Шу боис ички аудит самарадорлигини баҳолашда унга таъсир этувчи омилларни-бошқарув маданияти, раҳбариятнинг аудитга муносабати ва аудит натижаларидан фойдаланиш даражасини-комплекс ҳисобга олувчи мезонлар тизими зарур.

Мазкур тезисда ички аудит фаолиятини «ички аудитор-маслаҳатчи» тамойили асосида баҳоловчи кўп омилли мезонлар тизими таклиф этилади. Тизим аудитни пассив назорат механизмидан бошқарувни қўллаб-қувватловчи аналитик ва маслаҳат марказига айлантиришга хизмат қилади.

2. Ички аудит самарадорлигини баҳолаш мезонлари тизими

Таклиф этилаётган баҳолаш модели саккиз йўналишдан иборат бўлиб, ҳар бир йўналиш учун баҳолаш кўрсаткичи, ўлчаш усули ва кутилаётган натижа аниқ белгиланган (1-жадвал). Модел ички аудит самарадорлигини комплекс-режалаштириш сифати, тавсиялар ижроси, бошқарув қарорларига таъсир, молиявий самарадорлик, ички назорат ва рискларни бошқариш кесимида-баҳолаш имконини беради.

1-жадвал

Нодавлат олий таълим муассасаларида ички аудит самарадорлигини баҳолаш модели

Баҳолаш йўналиши	Баҳолаш кўрсаткичи	Ўлчаш усули	Кутилаётган натижа
Аудит режалаштириш самарадорлиги	Рискка асосланган аудит режалари улуши	Риск реестри ва аудит режаларини таҳлил қилиш	Ресурсларни энг муҳим рискларга йўналтириш
Аудит тавсияларининг ижро даражаси	Тавсияларни вақтида бажариш улуши	Тавсиялар реестри ва мониторинг ҳисоботлари	Ички назорат тизимини мустаҳкамлаш
Аудит натижаларининг бошқарув қарорларига таъсири	Тавсиялар асосида қабул қилинган қарорлар сони	Бошқарув йиғилишлари протоколларини таҳлил қилиш	Қарорлар сифатини ошириш
Молиявий самарадорлик кўрсаткичлари	Активлар ва капитал рентабеллиги ўсиши	Молиявий ҳисоботлар таҳлили	Ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш
Ички назорат тизимининг мустаҳкамлиги	Назорат камчиликларининг камайиши	Ички аудит текширувлари натижалари	Молиявий интизомни кучайтириш
Рискларни бошқариш самарадорлиги	Аниқланган рисклар сони ва камайиш	Риск харитаси ва риск мониторинги	Ташкилий барқарорликни

	динамикаси		таъминлаш
Ахборот тизимлари назорати	Ахборот хавфсизлиги ва маълумотлар сифати кўрсаткичлари	Ахборот тизимлари аудити	Операцион ишончлиликни ошириш
Аудит фаолияти самарадорлиги	Аудит натижасида олди олинган молиявий йўқотишлар	Таҳлилий ҳисоб-китоблар	Ташкилот қийматини ошириш

Манба: муаллиф ишланмаси.

Модел ички аудит самарадорлиги нафақат аниқланган камчиликлар сони билан, балки аудит натижаларининг бошқарув қарорларига таъсири, молиявий кўрсаткичлар ва рискларни бошқариш тизимининг ривожланиши орқали ҳам баҳоланишини кўрсатади. Шу тариқа кўп омилли индикаторлар тизимини қўллаш баҳолашнинг объективлигини ва қайта тикланишини таъминлайди.

3. Самарадорликка таъсир этувчи омиллар

Ички аудит натижаларининг таъсирчанлиги, аввало, аудит ҳисоботларининг мазмунига боғлиқ: улар фақат камчиликлар рўйхатидан иборат бўлса, раҳбарият ҳужжатни маъмурий ахборот сифатида қабул қилади; аксинча, аналитик хулосалар ва муқобил вариантлар билан бойитилса, аудит натижалари “қарор учун тайёр ахборот” (decision-ready information) шаклига келиб, стратегик бошқарув ҳужжатига айланади. Иккинчидан, тавсиялар аниқ, ўлчаб бўладиган ва ижрога йўналтирилган- ҳар бир муаммо бўйича масъул шахс, муддат, ресурс ва кутилаётган натижа белгиланган-бўлиши лозим.

Учинчидан, аудит натижаларини кузатув кенгаши ёки аудит қўмитаси каби коллегиал органлар даражасига олиб чиқиш уларнинг институционал аҳамиятини ҳамда раҳбариятнинг масъулиятини оширади. Ниҳоят, самарадорлик даражаси раҳбариятнинг аудитга муносабати ва бошқарув маданияти билан чамбарчас боғлиқ: ички аудитни стратегик ҳамкор ва маслаҳатчи сифатида қабул қилган раҳбарият аудит натижаларидан стратегик режалаштириш, бюджетлаш ва рискларни бошқаришда фаол фойдаланади, бу эса ички аудитнинг бошқарувга қўшган қийматини кескин оширади. Тавсиялар ижросини мунтазам мониторинг қилиш ва рискларни қайта баҳолаш аудитни узлуксиз такомиллаштириш механизмига айлантиради.

4. Хулоса

Тезисда нодавлат олий таълим муассасаларида ички аудит самарадорлигини баҳолаш мезонлари тизими таклиф этилди. Тизим саккиз йўналишли кўп омилли модел орқали аудит самарадорлигини-режалаштириш, тавсиялар ижроси, бошқарув қарорларига таъсир, молиявий самарадорлик ва рискларни бошқариш кесимида — комплекс баҳолаш имконини беради ҳамда бошқарув маданияти ва раҳбариятнинг аудитга муносабати каби омилларни ҳисобга олади. Тизимни амалиётга жорий этиш ички аудитни формалликдан чиқариб, уни бошқарув қарорларининг аналитик

таянчига айлантиради; уни коллегиал бошқарув институтлари билан интеграциялаш келгуси тадқиқот йўналишидир.

Таклиф ва тавсиялар. Нодавлат олий таълим муассасаларига ички аудит самарадорлигини кўп омилли модел асосида-аудит режалаштириш, тавсиялар ижроси, бошқарув қарорларига таъсир, молиявий самарадорлик ва рискларни бошқариш йўналишлари бўйича-мунтазам баҳолаш тавсия этилади. Аудит натижаларини "қарор учун тайёр ахборот" шаклида тақдим этиш, тавсияларда масъул шахс, муддат ва кутилаётган натижани аниқ белгилаш ҳамда уларни кузатув кенгаши ёки аудит қўмитаси даражасида муҳокама қилиш ички аудитнинг бошқарувга қўшган қийматини оширади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. The Institute of Internal Auditors (2024) International Professional Practices Framework (IPPF). Lake Mary (FL): The IIA.

2. The Institute of Internal Auditors (2017) International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing. Lake Mary (FL): The IIA.

3. COSO (2013) Internal Control — Integrated Framework. Durham (NC): COSO.

4. Arens, A.A., Elder, R.J. and Beasley, M.S. (2021) Auditing and Assurance Services. 17th ed. Harlow: Pearson.

5. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида2ги Қонуни, 2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон. Тошкент. https://lex.uz.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон–2030" стратегияси тўғрисида"ги 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони. Тошкент. https://lex.uz.

ADVOKATLIK XIZMATLARI FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Turayev Shaxriyor Shodiyorovich
O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar Palatasi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi bosh buxgalteri, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), +998995990713, shahriyorturayev990@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada advokatlik xizmatlari faoliyatini buxgalteriya hisobida aks ettirishning nazariy va uslubiy jihatlari hamda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Advokatlik xizmatlarining professional xizmat sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari, daromad va xarajatlarni shakllantirish hamda mijozlar bilan hisob-kitoblarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning amaldagi yondashuvlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: advokatlik xizmatlari, professional xizmatlar, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, daromadlarni tan olish, xarajatlar hisobi, xizmat tannarxi, moliyaviy natija, analitik hisob, raqamlashtirish, xizmatlar rentabelligi.

Kirish. Bugungi kunda xizmatlar sektorining jadal rivojlanishi iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xizmatlar tarkibida intellektual salohiyat, professional bilim va yuqori malakaga asoslangan xizmatlarning, xususan, advokatlik xizmatlarining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Advokatlik xizmatlari fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda, tadbirkorlik faoliyatining huquqiy barqarorligini ta’minlash, nizolarni oldini olish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga ko‘maklashish vazifalarini ham bajaradi.

Advokatlik faoliyatining o‘ziga xos xususiyati uning bir vaqtning o‘zida huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy mazmunga ega ekanligida namoyon bo‘ladi. Mazkur faoliyatda ko‘rsatiladigan xizmatlarning natijasi ko‘pincha moddiy shaklda emas, balki mijozning huquqiy manfaatlarini himoya qilish, huquqiy xavflarni kamaytirish, sud va boshqa huquqiy jarayonlarda samarali vakillikni ta’minlash kabi ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. Shu sababli advokatlik xizmatlari bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, debitorlik va kreditorlik qarzlari, xizmat ko‘rsatish natijalari hamda moliyaviy majburiyatlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotning raqamlashtirilishi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kengayishi sharoitida buxgalteriya hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari tamoyillari asosida tashkil etish xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning moliyaviy axborotlarining shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va ishonchliligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ayniqsa, professional xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi advokatlik tuzilmalarida daromadlarni tan olish, xizmatlar tannarxini shakllantirish, xarajatlarni tasniflash va moliyaviy natijalarni aniqlash masalalarini xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish zarurati mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Advokatlik xizmatlari faoliyatini buxgalteriya hisobida aks ettirish va moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari professional xizmatlar iqtisodiyoti, daromadlarni tan olish hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq. Mazkur yo‘nalishda xorijiy tadqiqotlar asosan xizmatlar bo‘yicha daromadlarni tan olish, shartnoma majburiyatlarini aniqlash va moliyaviy natijalarni hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirish masalalariga qaratilgan.

Xorijiy adabiyotlarda, avvalo, Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS) kengashining IFRS 15 “Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalardan olingan daromad” standarti [1], moliyaviy hisobotlarning taqdimoti va axborotlarni ochib berish masalasida IFRS 18 “Moliyaviy hisobotlarda taqdim etish va yoritib berish” standarti [2], o‘zbekistonlik tadqiqotchilardan U.Shirinov va O.Shirinova [3], T.M.Zoxidov [4], H.Olimjonovlar [5] O‘zbekiston buxgalteriya hisobi milliy standartlarini MHXS bilan qiyosiy tahlil qilib, ikki tizim o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash hamda milliy hisob tizimini xalqaro amaliyotga uyg‘unlashtirish yo‘nalishlarini asoslaganlar.

Tahlil va natijalar. Advokatlik xizmatlari professional xizmatlarning alohida turi bo‘lib, uning iqtisodiy mazmuni mijozlarga huquqiy maslahat berish, huquqiy hujjatlarni tayyorlash, sud va boshqa davlat organlarida vakillik qilish, huquq va

manfaatlarni himoya qilish hamda boshqa yuridik xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida shakllanadi. Mazkur faoliyatning o‘ziga xosligi shundaki, xizmat natijasi moddiy mahsulot shaklida emas, balki mijoz uchun muayyan huquqiy natijaga erishish, huquqiy xavflarni kamaytirish va manfaatlarni himoya qilish orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli advokatlik faoliyatida buxgalteriya hisobini tashkil etishda xizmatning bajarilish bosqichi, shartnoma shartlari va mijoz oldidagi majburiyatlarning bajarilish darajasini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Advokatlik xizmatlari faoliyatida buxgalteriya hisobining asosiy obyektlari sifatida xizmatlardan olinadigan daromadlar, xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar, pul mablag‘lari, debitorlik qarzlari, kreditorlik majburiyatlari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va moliyaviy natijalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Advokatlik xizmatlari bo‘yicha daromadlarning shakllanishi, odatda, mijoz bilan tuzilgan shartnomada belgilangan xizmat haqi asosida amalga oshiriladi. Bunda xizmat haqi qat’iy summa, bajarilgan ish hajmiga bog‘liq summa yoki ma’lum vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmat uchun haq shaklida belgilanishi mumkin. Ayrim holatlarda esa advokatlik xizmatlari bo‘yicha haq xizmatning muayyan bosqichlari bajarilishiga qarab shakllanadi.

Shu jihatdan advokatlik xizmatlari hisobini takomillashtirishda har bir shartnoma bo‘yicha alohida analitik hisob yuritish maqsadga muvofiq. Bunda quyidagi ma’lumotlarning shakllantirilishi hisob axborotining sifatini oshiradi:

1-jadval.

Advokatlik xizmatlari bo‘yicha analitik hisob obyektlari[17]

№	Analitik hisob elementi	Mazmuni
1	Mijoz	Xizmatdan foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs
2	Shartnoma raqami	Xizmat ko‘rsatishning huquqiy asosi
3	Xizmat turi	Maslahat, vakillik, hujjat tayyorlash va boshqalar
4	Xizmat muddati	Xizmatning boshlanish va tugash davri
5	Shartnoma qiymati	Mijoz tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan summa
6	Amalga oshirilgan xarajatlar	Xizmat ko‘rsatish bilan bevosita va bilvosita bog‘liq xarajatlar
7	Olingan to‘lov	Mijozdan kelib tushgan mablag‘
8	Debitorlik qarzi	To‘lanmagan xizmat haqi
9	Moliyaviy natija	Daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq

Mazkur analitik yondashuv advokatlik tuzilmasining har bir mijoz, shartnoma va xizmat turi bo‘yicha moliyaviy natijasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborot bazasi shakllanadi.

Advokatlik xizmatlari faoliyatida daromadlarni to‘g‘ri tan olish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari yondashuvida daromadni faqat pul mablag‘larining kelib tushishi bilan bog‘lash to‘g‘ri emas. Muhimi, xizmat ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatning bajarilishi va mijozga tegishli xizmatning taqdim etilganlik

[17]Muallif ishlanmasi

darajasidir.Shu sababli advokatlik xizmatlarida daromadlarni hisobga olishda “to‘lov kelib tushgan sana” va “xizmat tan olingan sana” tushunchalarini ajratish lozim. Masalan, mijoz xizmat uchun oldindan to‘lovni amalga oshirgan bo‘lsa, ushbu mablag‘ning kelib tushishi avtomatik ravishda daromad sifatida tan olinmasligi kerak. Xizmat hali ko‘rsatilmagan bo‘lsa, mazkur summa kelgusida xizmat ko‘rsatish majburiyati sifatida hisobga olinadi.

Advokatlik faoliyatida xarajatlar xizmat ko‘rsatish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularni to‘g‘ri tasniflash xizmat tannarxini aniqlash va moliyaviy natijani baholash uchun zarur. Xarajatlarni bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratish ham muhim. Masalan, muayyan mijozning ishini yuritish uchun qilingan xizmat safari yoki ekspert xizmatlari bevosita xarajat sifatida, ofis ijarasi va umumiy boshqaruv xarajatlari esa bilvosita xarajat sifatida qaralishi mumkin.

Advokatlik xizmatining haqiqiy tannarxini aniqlash quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$AT = BD + ID \qquad (1)$$

bu yerda: AT – advokatlik xizmatining tannarxi; BD – bevosita xarajatlar; ID – bilvosita xarajatlarning xizmatga taqsimlangan qismi.

Bunday tasnif har bir xizmat turi bo‘yicha rentabellikni aniqlash va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Advokatlik faoliyatining moliyaviy natijasini aniqlashda xizmatlardan olingan daromadlar bilan xizmat ko‘rsatishga sarflangan xarajatlar o‘rtasidagi nisbat asosiy mezon hisoblanadi.

Advokatlik xizmatlari bo‘yicha operatsion moliyaviy natijani quyidagicha aniqlash mumkin:

$$MFN = AD - AT - BDX \qquad (2)$$

bu yerda: MFN – moliyaviy natija; AD – advokatlik xizmatlaridan olingan daromad; AT – xizmatlar tannarxi; BDX – boshqa davr xarajatlari.

Advokatlik xizmatlari faoliyatining moliyaviy hisobotlarini takomillashtirishda hisobot axborotining ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi, tushunarliligi, o‘z vaqtida taqdim etilishi va shaffofligi asosiy tamoyillar sifatida qaralishi lozim.

Xalqaro standartlarga muvofiq hisobot tizimini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri daromadlarni xizmatlarning bajarilish darajasi bilan bog‘lashdir. Bunda shartnoma bo‘yicha majburiyatlar, mijozga taqdim etilayotgan xizmatlar va xizmat haqi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olish zarur.

Advokatlik xizmatlari hisobini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan hisob tizimlari, elektron shartnomalar va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari hisob ma’lumotlarini tezkor shakllantirish imkonini beradi.

Bunda “mijoz – shartnoma – xizmat – xarajat – to‘lov – daromad – moliyaviy natija – hisobot” tamoyili asosida integratsiyalashgan axborot tizimini shakllantirish taklif etiladi.

Mazkur tizim orqali har bir advokat yoki advokatlik tuzilmasi bo‘yicha bajarilgan ishlar, sarflangan vaqt, xizmat qiymati, xarajatlar va mijozdan olingan to‘lovlar yagona axborot bazasida shakllantiriladi. Natijada hisob jarayonlarida

inson omili kamayadi, ma’lumotlarni qayta ishlash tezlashadi va moliyaviy hisobotlarning aniqligi oshadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, advokatlik xizmatlari faoliyatining o‘ziga xos iqtisodiy va huquqiy xususiyatlari ularning buxgalteriya hisobini tashkil etishga alohida yondashuvni talab qiladi. Advokatlik xizmatlarida xizmat natijasining moddiy shaklda namoyon bo‘lmasligi, xizmatlarning turli muddatlarda bajarilishi, mijozlar bilan hisob-kitoblarning xilma-xilligi hamda ayrim xizmatlar bo‘yicha oldindan to‘lovlarning mavjudligi daromad va xarajatlarni hisobga olish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Advokatlik xizmatlari faoliyatida xarajatlarni to‘g‘ri tasniflash ham moliyaviy natijalarni haqqoniy shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, advokatlik xizmatlari faoliyatida buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- advokatlik xizmatlari bo‘yicha analitik hisobni “mijoz – shartnoma – xizmat turi – xarajat – to‘lov – daromad – moliyaviy natija” ketma-ketligi asosida tashkil etish lozim.

- xizmatlar bo‘yicha daromadlarni tan olishda xizmatning amalda bajarilganlik darajasini asosiy mezon sifatida belgilash zarur.

- advokatlik xizmatlari xarajatlarini bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratgan holda hisobga olish hamda bilvosita xarajatlarni xizmatlar o‘rtasida taqsimlashning yagona metodikasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

- moliyaviy hisobotlarda advokatlik xizmatlari bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, debitorlik qarzlari, olingan avanslar va bajarilmagan shartnoma majburiyatlari to‘g‘risidagi axborotlarni batafsil ochib berish lozim.

- advokatlik tuzilmalarida elektron hujjat aylanishi va avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlarini joriy etish zarur.

- advokatlik xizmatlarining moliyaviy samaradorligini baholash uchun xizmatlar rentabelligi, bir mijozga to‘g‘ri keladigan daromad, bir xizmat birligiga to‘g‘ri keladigan xarajat, debitorlik qarzlarining aylanishi va xizmat ko‘rsatish xarajatlarining daromadga nisbati kabi qo‘shimcha analitik ko‘rsatkichlardan foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. IFRS Foundation. IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers. International Accounting Standards Board. London: IFRS Foundation.

2. IFRS Foundation. IFRS 18 Presentation and Disclosure in Financial Statements. London: IFRS Foundation, 2024.

3. Shirinov U.A., Shirinova O.T. O‘zbekistonda xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobini tashkil etish // Insurance Market of Uzbekistan. 2026. https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/424?utm_source

4. Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari // Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti. 2026.

5. Olimjonov H. O‘zbekiston buxgalteriya hisobi milliy standartlarining MHXS bilan taqqoslama tahlili // Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke. 2025. B. 58-61. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.arims.108775.

ESG BOSHQARUV VA U BO‘YICHA XORIJ TAJRIBASI.

Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti
e-mail: m.sayfullayev@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur tezisda barqaror rivojlanish konsepsiyasining nazariy asoslari, uning shakllanish bosqichlari hamda zamonaviy iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jarayonlardagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan barqaror rivojlanishga oid institutsional, strategik va integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvlari tahlil qilinib, ularning iqtisodiy subyektlar faoliyatiga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, "Brundtland hisoboti", global iqlim o‘zgarishi, ijtimoiy tengsizlik, korporativ boshqaruv, ESG hisobot,

ESG konsepsiyasining markaziy g‘oyasi shundan iboratki, iqtisodiy qiymat qisqa muddatli foyda orqali emas, balki barqaror rivojlanish orqali yaratiladi. Shu sababli ESGni zamonaviy iqtisodiyotda korxona qiymatini boshqarishning integratsiyalashgan modeli sifatida qarash mumkin.

ESG — bu korxonaning iqtisodiy faoliyatini baholashda ekologik ta‘sir, ijtimoiy mas‘uliyat va boshqaruv sifatini moliyaviy natijalar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiluvchi konsepsiya bo‘lib, u uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va qiymat yaratishni ta‘minlashga qaratilgan.

ESG barcha sohalarga ta‘sir qiladi, chunki atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv masalalari birorta sektorga xos emas. Biroq, biz ESG ayniqsa sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ba‘zi tarmoqlar sifatida aerokosmik va mudofaa, avtomobilsozlik, qurilish, chakana savdo ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin bo‘ladi.

	ISO Code	Country Name	Region	Score	Rank 2023
	ISL	Iceland	Europe	14.61	1
	FIN	Finland	Europe	15.21	2
	SWE	Sweden	Europe	15.74	3
	NOR	Norway	Europe	15.96	4
	AUS	Australia	Oceania	19.5	5
	CHE	Switzerland	Europe	19.82	6
	PRT	Portugal	Europe	19.87	7
	EST	Estonia	Europe	19.89	8
	NZL	New Zealand	Oceania	19.93	9
	DNK	Denmark	Europe	20.44	10

1-rasm. ESG riski past bo‘lgan TOP-10 mamlakatlar ro‘yhati.[18]

Yuqorida nomlari qayd etib o‘tilgan mamlakatlar iqtisodiy hayotida ESG boshqaruv muhim o‘rin egallaydi va shu sababli mazkur mamlakatlarda ESG bilan bog‘liq muammolar, potensial xavflar darajasi past hisoblanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

[18] https://risk-indexes.com/esg-index/ ma‘lumotlaridan foydalanilgan

AFG	Afghanistan	Asia	64.46	174
ERI	Eritrea	Africa	65.36	175
PRK	North Korea	Asia	67.13	176
COD	DRC	Africa	67.85	177
SDN	Sudan	Africa	68.44	178
CAF	Cent. Africa	Africa	69.01	179
HTI	Haiti	America	69.39	180
TCD	Chad	Africa	70.06	181
YEM	Yemen	Asia	70.8	182
SOM	Somalia	Africa	71.17	183

2-rasm. ESG riski yuqori bo‘lgan TOP 10 mamlakatlar ro‘yhati.[19]

Yuqoridagi rasmda keltirib o‘tilgan ma’lumotlardan shuni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladiki, ESG xavfini yuqoriligi asosan qoloq mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Mazkur holatga asosiy sabab sifatida qoloq mamlakatlar iqtisodiy hayotida ESG boshqaruvning ahamiyati pastligi, ulardagi og‘ir ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy ahvolni boshidan o‘tkazayotganligi bilan izohlasak bo‘ladi.

So‘nggi yillarda investorlarning Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) masalalariga e‘tibori ortdi. Bir necha yil oldin uber-niched investitsiya sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, endi u ko‘pincha tashkilot muvaffaqiyatga erishadimi yoki yo‘qmi, bitimni buzuvchi hisoblanadi.

Dunyo bo‘ylab majburiy ESG qoidalarining ortib borayotgani bunda asosiy rol o‘ynaydi - va yana ko‘p narsalar ufqda. Darhaqiqat, o‘tgan yili ESG hisobotini majburiy deb belgilovchi qonunchilikni kiritgan hukumatlar soni ESG hisoboti shunchaki pufak emasligini isbotlaydi - bu erda qolish kerak.

Natijada, tobora ko‘proq kompaniyalar investorlar tomonidan o‘z ma‘lumotlarini oshkor qilishni talab qilmoqdalar. Agar siz haligacha ta‘sir qilmagan bo‘lsangiz, sizning biznesingiz ESGni to‘plash, tahlil qilish va hisobot berishni boshlashi kerak, bu vaqt masalasidir.

Iqlim o‘zgarishining biznesga salbiy ta‘siri allaqachon barcha sohalarda sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda va ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) risklarini tushunish investitsiya qarorlari uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shunga qaramay, kompaniyalarning ESG ma‘lumotlarining mavjudligi va sifati yo‘qligi investorlarning ongli va barqaror investitsiya qarorlarini qabul qilishlariga to‘sqinlik qiladi va shu bilan yashil iqtisodiyotga o‘tishni sekinlashtiradi.

Investorlar tomonidan ESG ma‘lumotlariga bo‘lgan talab va firmalar tomonidan ma‘lumot etkazib berish o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun ko‘proq mamlakatlar ESGni oshkor qilish bo‘yicha majburiy qonunchilikni qabul qilmoqdalar. 2021-yildagi tadqiqotda firmalar uchun namunaviy davrda ESG ma‘lumotlarini oshkor qilish mandatlarini joriy etgan 25 ta davlat aniqlangan - aksariyati moliya institutlari, davlat kompaniyalari va yirik, listing kompaniyalariga murojaat qiladi. Bu boshqa korxonalar ta‘sir qilmaydi degani emas. KO‘K sub‘ektlari o‘zlarining ESG ko‘rsatkichlarini oshkor qilish uchun

[19] https://risk-indexes.com/esg-index/ ma‘lumotlaridan foydalanilgan

moliyaviy institutlar va kompaniyalar tomonidan allaqachon kuchaygan bosimga duch kelishmoqda.

2022-yil aprel oyida Buyuk Britaniya ESGni oshkor qilish boʻyicha ikkita majburiy qonunni qabul qildi. Bular:

Kompaniyalar (Strategik hisobot) (Iqlim bilan bogʻliq moliyaviy maʻlumotlar) qoidalari 2022 va Masʻuliyati cheklangan sheriklik (iqlim bilan bogʻliq moliyaviy maʻlumotlar) qoidalari 2022.

Ushbu Qoidalar baʻzi kompaniyalardan oʻzlarining strategik hisobotlarida iqlim bilan bogʻliq moliyaviy maʻlumotlarni taqdim etishlarini talab qiladi. Bu kompaniyalar:

• Hozirgi vaqtda moliyaviy boʻlmagan maʻlumotlar hisobotini taqdim etishi shart boʻlgan barcha Buyuk Britaniya kompaniyalari, ular 500 dan ortiq xodimlariga ega boʻlgan va Buyuk Britaniyada tartibga solinadigan bozorda savdoga qoʻyilgan boshqa qimmatli qogʻozlarga ega boʻlgan yoki bank kompaniyalari yoki sugʻurta kompaniyalari (tegishli jamoat manfaati subʻektlari (PIEs));

• Buyuk Britaniyada roʻyxatdan oʻtgan qimmatli qogʻozlari boʻlgan AIMga 500 dan ortiq xodimga ega kompaniyalar;

• Yuqoridagi toifalarga kiritilmagan, 500 dan ortiq xodimlari va aylanmasi 500 million funt sterlingdan ortiq boʻlgan Buyuk Britaniyada roʻyxatdan oʻtgan kompaniyalar;

• 500 dan ortiq xodimga ega va aylanmasi 500 million funt sterlingdan ortiq boʻlgan yirik MChJlar, ular savdo yoki bank MChJlari emas;

• 500 dan ortiq xodimga ega boʻlgan savdo yoki bank MChJlari.

Yangi qonunning taʻsiri nafaqat Buyuk Britaniyaning eng yirik kompaniyalari va moliya institutlariga, balki ularning taʻminot zanjirlaridagi minglab korxonalarga ham taʻsir qiladi - bu sizga toʻgʻridan-toʻgʻri taʻsir qiladimi yoki yoʻqmi, ESG hisobotini olish muhimligini yana bir bor taʻkidlaydi.

Ilgari, Evropa Ittifoqidagi baʻzi yirik kompaniyalar (taxminan 11 000 ta subʻektlar) Moliyaviy boʻlmagan hisobotlar boʻyicha Direktiv (NFRD) boʻyicha ESG maʻlumotlarini oshkor qilishlari kerak edi. Biroq, 2023-yilda NFDR yangi ESG hisobot direktivasi - Korporativ Barqarorlik Hisoboti Direktivasi (CSRD) bilan almashtirildi. CSRD Evropa Ittifoqidagi taxminan 50 000 kompaniyalarga rioya qilishlari shart boʻlgan kompaniyalar doirasini sezilarli darajada kengaytiradi, bu Evropa Ittifoqi kompaniyalari aylanmasining 75% ga toʻgʻri keladi.

Hozirda AQShda federal darajada ESGni oshkor qilish boʻyicha majburiy talablar mavjud emas. Biroq, 2022-yil may oyida AQSh Qimmatli qogʻozlar va birjalar komissiyasi (SEC) "fondlar va maslahatchilarning atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillarini birlashtirishi toʻgʻrisida investorlar uchun izchil, taqqoslanadigan va ishonchli maʻlumotni targʻib qilish uchun qoidalar va hisobot shakllariga oʻzgartirishlar kiritishni" taklif qildi.

Agar taklif qabul qilinsa, u oʻzlarini ESG markaziga ega deb sotadigan fondlar va maslahatchilar uchun oshkor qilish talablarini belgilaydi va ESG yashil yuvishga qarshi katta gʻalaba qozonadi.

2022-yil aprel oyida Kanada federal hukumati o‘zining 2022-yilgi byudjetini e‘lon qildi va u erda federal tartibga solinadigan banklar va sug‘urta kompaniyalariga iqlim bilan bog‘liq majburiy hisobot talablarini kiritishga va‘da berdi. Ushbu sohadagi moliyaviy institutlar 2024-yildan boshlab TCFD tizimiga muvofiq iqlim bo‘yicha ma‘lumotlarni e‘lon qilishlari kerak.

Garchi tartibga solish federal tartibga solinadigan moliyaviy institutlarga qaratilgan bo‘lsa-da, hukumat bu Kanadaning butun iqtisodiyotiga ta‘sir ko‘rsatishini kutmoqda.

"Federal tomonidan tartibga solinadigan banklar va sug‘urtachilar Kanada iqtisodiyotini shakllantirishda muhim rol o‘ynaganligi sababli, OSFI yo‘riqnomasi Kanada korxonalari iqlim bilan bog‘liq risklar va ta‘sirlar haqida qanday boshqarishi va hisobot berishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi." byudjet hujjatida aytiladi.

Malayziyada ESG hisoboti 2016-yildan beri barcha ochiq ro‘yxatga olingan kompaniyalar uchun majburiy bo‘lib, uni oshkor qilish bo‘yicha bunday talabni joriy etgan birinchi mamlakatlardan biri bo‘ldi. Bugungi kunda ESG bo‘yicha doimiy hisobot tizimi majburiy emas. Shunga qaramay, 2022-yil Marshda e‘lon qilingan taklif barcha sohadagi kompaniyalar TCFD tavsiyalariga muvofiq ma‘lumotlarni oshkor qilishlari kerakligini ko‘rsatadi - yangilanish, ehtimol, ikki yoki uch yil davom etadi.

Hozirda Xitoyda majburiy ESG hisoboti qonunchiligi mavjud emas. Biroq, 2022-yil 1-iyundan boshlab Xitoyning Xitoy kompaniyalari uchun ESG ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisobot berish uchun birinchi (ixtiyoriy) ko‘rsatmalar to‘plami kuchga kirdi - Enterprise ESG Disclosure Guidance. U Pekinda joylashgan Xitoy korxonalarini isloh qilish va rivojlantirish jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, Xitoy kompaniyalari, qonunlari, qoidalari va siyosatlariga e‘tibor qaratgan. Bloomberg ma‘lumotlariga ko‘ra, bu majburiy bo‘lmasa-da, ramka "majburiy oshkor qilish oxir-oqibat mamlakatda qanday ko‘rinishini ko‘rishni" taklif qiladi.

Yangi Zelandiya hukumati 2023-moliya yili va undan keyingi davrdan boshlab obuna bo‘lgan yirik kompaniyalar, sug‘urtalovchilar, banklar, bankdan tashqari depozitlarni qabul qiluvchilar va investitsiya menejerlari uchun iqlim bilan bog‘liq ma’lumotlarni oshkor qilishni majburiy qiluvchi qonunchilikni qabul qildi.

Qonunchilik "Moliya bozorlari to‘g‘risida"gi qonun bilan qamrab olingan moliya institutlaridan hisobot berishni talab qiladi, bular:

• umumiy aktivlari 1 milliard NZD dan ortiq bo‘lgan ro‘yxatdan o‘tgan banklar, kredit uyushmalari va qurilish jamiyatlari;

• Boshqaruv ostidagi jami aktivlari 1 milliard NZD dan ortiq bo‘lgan ro‘yxatdan o‘tgan investitsiya sxemalari menejerlari;

• Umumiy aktivlari 1 milliard NZD dan ortiq yoki yillik mukofot daromadi 250 million dollardan ortiq bo‘lgan litsenziyalangan sug‘urtachilar.

Moliya tez rivojlanayotgan bir sharoitda, ESG qoidalari doimiy e‘tiborga sazovor bo‘lmoqda. Ushbu atama moliyaviy sub‘ektlar tomonidan amalga oshiriladigan strategiyalarning barqarorligini shakllantirishga qaratilgan bir qator standartlar va talablarni qamrab oladi. Ushbu mezonlarni hisobga olish

kompaniyalarga atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv muammolarini yaxshiroq oldindan koʻra bilish, shu bilan birga tartibga solish va jamiyatning kutganlarini qondirish imkonini beradi.

Bank, sugʻurta yoki aktivlarni boshqarish kompaniyasi boʻladimi, har bir ishtirokchi barqaror yondashuvga eʻtibor qaratish uchun ushbu tushunchalarni oʻzlashtirishi kerak. Ushbu maqolada biz ESG qoidalari dunyosi nimani oʻz ichiga olishini batafsil koʻrib chiqamiz. Biz ularning taʻrifi, qoʻllanilish doirasi, shuningdek, maʻlumotlarni boshqarish sohasida kompaniyalarga yuklaydigan majburiyatlarni koʻrib chiqamiz. Bizning maqsadimiz institutsional investorlar va moliya institutlari uchun moslashtirilgan aniq va taʻlimiy umumiy maʻlumot berishdir.

ESG konsepsiyasi har qanday kompaniyaning strategiyasiga taʻsir qiluvchi uchta oʻlchovni oʻz ichiga oladi. Birinchi oʻlchov atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni birlashtirgan ekologik jihatga tegishli. Ijtimoiy oʻlchov xodimlar, hamkorlar va jamiyatga nisbatan masʻuliyatli amaliyotlarni qoʻllash zarurligini taʻkidlaydi. Va nihoyat, boshqaruv kompaniya boshqaruvidagi ichki tashkiliy, shaffoflik va axloqiy masalalarni hal qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Crabbe P (1997), “Sustainable Development: Concepts, Measures, Market and Policy Failure at the Open Economy, Industry and Firm Levels”. Ottawa, Institute for Research on Environment and Open Economy, University of Ottawa.
2. Mawhinney M (2008), “Sustainable development: understanding the green debates”, John Wiley & Sons, 15 April 2008, Page 6.
3. Rogers P, Kazi F, Boyd J (2012), “An introduction to sustainable development”, Earthscam, Page 43.
4. Barbier E (2016), “Sustainability and development”, Annual Review of Ressource Economic, vol 8, issue 1, Pages 261-280.
5. Clandine O (2004), “La dynamique de l‘évaluation face au développement durable: Limoges 2003”, l‘Harmattan, Page 30.
6. Rumpala Y (2009), “Mesurer le développement durable pour aider à le réaliser?”, Histoire et Mesure XXIV 1, Pages 211-246.

УДК: 657.1
ORCID: 0009-0000-1926-4610

ДОРИ ВОСИТАЛАРИ ТАННАРХИДА БИЛВОСИТА ХАРАЖАТЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Ёдгоров Хушвакт Мансурович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис инстиути мустақил тадқиқотчиси
yodgorovkhushvaqt@gmail.com Тел.: +998979191116

Аннотация. Ушбу мақолада умумий ишлаб чиқариш харажатларининг аҳамияти ва дори воситалари ишлаб чиқариш харажатлари таркибидаги салмоғи, дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисобини юритишнинг ўзига хос хусусиятлари очиб берилган.

Калит сўзлар: дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари, фармацевтика маҳсулотлари, дори воситалари, тайёр маҳсулот, умумий ишлаб чиқариш, дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнлари, дори воситалари ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисоби.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан қабул қилинган Фармонда “маҳаллий маҳсулотлар ишлаб чиқарилишини кенгайтириш, саноат тармоқлари ва аҳоли истеъмоли учун зарур бўлган маҳсулотларни ўзлаштириш ҳамда ишлаб чиқариш ҳажмларини кўпайтиришда бозор механизмларини кенг жорий қилиш, маҳаллий тадбиркорлик субъектлари ва йирик корхоналар ўртасида саноат кооперациясини тизимли кенгайтириш, давлат харидларида маҳаллий маҳсулотлар харидини рағбатлантириш ҳамда қўллаб-қувватлашни такомиллаштириш” [20] бўйича мақсад ва вазифалар келтирилган. Демак, мамлакат иқтисодий ривожи бевосита маҳаллий маҳсулотлар ишлаб чиқарувчи корхоналар фаолияти билан бевосита боғлиқ бўлиб, саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналар сонини ошириш мамлакат олдидаги долзарб вазифаларга айланиб бормоқда. Ушбу маҳсулотлар таркибига дори воситалари алоҳида аҳамият касб этиб, мамлакатда энг арзон ва сифатли дори воситалари ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, бунда харажатларни оқилона бошқариш орқали маҳсулотлар таннархини пасайишига олиб келиш каби долзарб вазифалар ётмоқда.

2-сон “Захиралар” БҲХСда доимий ва ўзгарувчан устама харажатлар бухгалтерия ҳисобини юритишга оид қоидалар мавжуд. Мазкур халқаро стандартда қуйидаги қоидалар келтирилган: “доимий ишлаб чиқариш устама сарфларининг қайта ишлаш таннархига олиб борилиши ишлаб чиқаришнинг меъёрий қуввати асосида белгиланади. Ўзгарувчан ишлаб чиқариш устама

[20] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллий ишлаб чиқариш ва саноат кооперациясини янги тизим асосида ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2026 йил 05 февраль. ПФ-17-сон.

сарфлари ишлаб чиқариш қувватларидан ҳақиқатда фойдаланиш асосида ҳар бир маҳсулот таннархига олиб борилади”[21].

К.Б.Уразов умумишлаб чиқариш харажатларини “барча асосий ва ёрдамчи ишлаб чиқариш цехларини бошқарувига ва уларни ташкил этишга таалуқли бўлган, шунингдек уларга хизмат кўрсатувчи бўлинмаларнинг харажатлари”[22] деб таърифлайди. Мазкур таърифда олимнинг умумий ишлаб чиқариш хўжаликлари кенг кўламли иқтисодий жараёнларда иштирок этиб, барча ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш хўжаликларига таълуқли фаолиятлар бўйича харажатларига оид қарашларини тушуниш мумкин.

Б.Ф.Боронов эса, “ишлаб чиқариш корхоналарида умумишлаб чиқариш харажатлари корхонанинг асосий ва ёрдамчи ишлаб чиқариш бўлимларида ишлаб чиқариш жараёнида қатнашадиган асбоб-ускуналарни сақлаш, уларнинг бутлигини таъминлаш мақсадида ташкил этилади” [23] , деб таъкидлайди.

Бошқа манбаларга кўра, корхоналарда умумий ишлаб чиқариш харажатлари асосий ишлаб чиқариш жараёнларини амалга ошириш натижасида вужудга келиб, мазкур харажатлар “корхонанинг асосий ва ёрдамчи ишлаб чиқаришини сақлаш билан боғлиқ ҳолда юзага келадиган одатий фаолият бўйича харажатлари бўлиб, уларнинг таркиби ҳар бир корхона ва ташкилот томонидан унинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда мустақил равишда белгиланади”[24].

Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида ишлаб чиқарилган маҳсулотлар таннархи асосий, ёрдамчи ва умумий ишлаб чиқариш харажатларидан ташкил топади. Бу борада, халқаро стандартларда захиралар таннархини ташкил этадиган харажатлар таркиби келтирилган бўлиб, халқаро стандартларга мувофиқ, тайёр маҳсулотлар таннархи бухгалтерия ҳисобида захиралар таннархи ёки уларнинг соф сотиш қийматининг энг кичиги бўйича баҳоланиши лозимлиги қайд этилган ҳамда “захиралар таннархи уларни харид қилиш, қайта ишлаш бўйича барча сарфлар ва заҳираларни жорий жойлашган жойига ҳамда ҳолатига келтириш учун амалга оширилган бошқа сарфларни ўз ичига олиши лозим” [25] деб келтирилган. Халқаро стандартларда келтирилган ушбу тартиб-қоидани дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятига тадбиқ этиш мақсадида қуйидаги формула ишлаб чиқилди:

$$\textbf{ДВТ} = \textbf{ХМБҚ} + \textbf{ЁИЧХ} + \textbf{АИЧХ} + \textbf{УИЧХ} + \textbf{БИЧХ} \quad (1)$$[26]

Бу ерда:

---

[21] 2-сон “Захиралар” БҲХС. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2022 йил 10 ноябрдаги 61-сон буйруғига 3-ИЛОВА.

[22] Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi” - 2021, 560 бет. 295-бет.

[23] Боронов Б.Ф. Маҳсулот таннархини ҳисоблашда умумишлаб чиқариш харажатларининг ўрни ва уларнинг ҳисобини такомиллаштириш // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. – Тошкент, 2022. - № 6. 31-42-бетлар.

[24] https://glavkniga.ru/situations/k502723

[25] 2-сон “Захиралар” БҲХС. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2022 йил 10 ноябрдаги 61-сон буйруғига 3-ИЛОВА.

[26] Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

ДВТ – дори воситалари таннархи;
ХМБҚ – хом ашё ва материаллар бошланғич қиймати;
ЁИЧХ – ёрдамчи ишлаб чиқариш харажатлари;
АИЧХ – асосий ишлаб чиқариш харажатлари;
УИЧХ – умумий ишлаб чиқариш харажатлари;
БИЧХ – бошқа ишлаб чиқариш харажатлари.

Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида хом ашё ва материаллар бошланғич қиймати ушбу активларнинг харид қиймати, божхона харажатлари, ташиш харажатлари, тушириш харажатлари, ортиш харажатлари, сақлаш харажатлари, лаборатория-таҳлил харажатлари ҳамда хом ашё ва материалларни тайёрлаш билан боғлиқ бошқа харажатлардан ташкил топади.

Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида ишлаб чиқариш харажатларининг таркибий қисмлари бўйича тайёр маҳсулотлар таннархидаги улуши қуйидаги жадвалда акс эттирилди (1-жадвалга қаранг):

1-жадвал.

“Samarkand-England Eco-Medical” ҚК МЧЖда 2026 йил май ойида ишлаб чиқарилган 46 061 дона “Сор-би эритмаси, 200 мл” дори воситалари таннархи таркибий таҳлили[27]

Харажатлар таркиби	Бевосита харажатлар		Умумий ишлаб чиқариш харажатлари		Жами харажат-лар	Дори воситалари таннархи
	Минг сўмда	Улуши %	Минг сўмда	Улуши %	Минг сўмда	Сўмда
Моддий харажатлар	132 214,7	73,2	1 394,6	2,1	133 609,3	**5 391,7**
Меҳнат ҳақи харажатлари	42 156,8	23,3	10 537,0	15,6	52 693,8	
Бошқа харажатлар	6 266,5	3,5	55 777,7	82,4	62 044,2	
Жами харажатлар	**180 637,9**	**100**	**67 709,3**	**100**	**248 347,2**	

Корхона маълумотлари таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, дори воситалари ишлаб чиқариш харажатлари бевосита ва билвосита харажатлардан ташкил топган ва ушбу харажатлар ўз навбатида моддий, меҳнат ҳақи ва бошқа харажатлардан ташкил топган. Бевосита харажатлар таркибида моддий харажатларнинг улуши бошқа харажат моддаларига нисбатан баланд бўлиб, жами бевосита ишлаб чиқариш харажатларнинг 73,2 фоизини ташкил этмоқда. Бироқ, ушбу моддий харажатлар қиймати билвосита харажатлар таркибида энг паст улушни ташкил этиб, 2,1 фоизни ташкил этганлигини кўриш мумкин. Дори воситалари ишлаб чиқариш харажатлари таркибида меҳнат ҳақи харажатлари ўртача 20 фоизни ташкил этиб, тайёр маҳсулотлар таннархига салмоқли ҳиссани ташкил этади. Умумий ишлаб чиқариш харажатлари таркибида энг катта кўрсаткич бу бошқа харажатлар таркибида

[27] Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

қайд этилган бўлиб, ушбу харажатлар таркибида асосий воситаларнинг амортизация харажатлари, коммунал харажатлар, ишлаб чиқарилган дори воситаларини таҳлилдан ўтказиш бўйича харажатлар ва бошқалар киради. Бундан кўриниб турибдики, дори воситалари таннархи таркибида бевосита харажатлар билан бир қаторда умумий ишлаб чиқариш харажатлари ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш харажатларининг ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотлар таннархидаги улуши қуйидаги расмда акс эттирилди (1-расмга қаранг):



1-расм. Дори воситалари таннархи таркиби[28]

Расм маълумотларидан кўриниб турибдики, корхоналарда умумий ишлаб чиқариш харажатлари дори воситалари таннархига сезиларли даражада таъсир кўрсатиб, ўртача 27 %ни ташкил этади. Шунинг учун, юқорида эришилган тадқиқот натижаларидан хулоса қилиб айтиш мумкин бўладики, дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисобини тадқиқ этиш орқали билвосита харажатлар ҳисобини такомиллаштиришга оид илмий-услубий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш, жумладан умумий ишлаб чиқариш харажатларини дори воситалари таннархига қайси босқичда қанча миқдорда таъсир этишини аниқлаш орқали уларни дори воситалари таннархига тақсимлашнинг услубий тартибларини ишлаб чиқиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Юқорида олиб борилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида ишлаб чиқариш харажатлари таркибида билвосита харажатларнинг улуши салмоғли ҳисобланиб, ушбу харажатларни дори воситалари таннархига тақсимлаш тартиби бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади. Хусусан, умумий ишлаб чиқариш бўлимлари таркибининг уч қисмдан ташкил топиши ва уларда

[28] Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

харажатларнинг ҳам турли мақсадларда амалга оширилиши дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарининг ўзига хос хусусиятларини намоён этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллий ишлаб чиқариш ва саноат кооперациясини янги тизим асосида ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2026 йил 05 февраль. ПФ-17-сон.
2. 2-сон “Захиралар” БҲХС. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2022 йил 10 ноябрдаги 61-сон буйруғига 3-ИЛОВА.
3. Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi” -2021, 560 бет. 295-бет.
4. Боронов Б.Ф. Маҳсулот таннархини ҳисоблашда умумишлаб чиқариш харажатларининг ўрни ва уларнинг ҳисобини такомиллаштириш // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. – Тошкент, 2022. - № 6. 31-42-бетлар.
5. Боронов, Б. Ф. "Ёғ-мой маҳсулотлари ҳисоби методологиясини такомиллаштириш." Т.: ТМИ, иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация,-244 б (2023).
6. Уразов, К. Б., and Б. Ф. Боронов. "РЕСПУБЛИКА ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИДА ЁҒ-МОЙ МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ТУРЛАРИ." Экономика и социум 6-2 (97) (2022): 714-719.
7. Боронов, Бобур Фарходович. "Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобининг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш." ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 7 OCTOBER 2022 (2022): 202284
8. Farxodovich, Boronov Bobur, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, and Yodgorov Xushvaqt Mansurovich. "Farmasevtika korxonalarida buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari." FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY 1.1 (2025): 282-289
9. Boronov, B. (2019). THEORETICAL AND CONCEPTUAL BASES OF ACCOUNTING FINANCIAL ASSETS. International Finance and Accounting, 2019(4), 6.
10. Боронов, Бобур Фарходович. "ЁҒ-МОЙ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА БИЛВОСИТА ХАРАЖАТЛАР ҲИСОБИ ВА УЛАРНИНГ ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ." Экономика и финансы (Узбекистан) 9 (157) (2022): 21-28.

УДК: 657.1
ORCID: 0009-0008-1346-6842

ТИББИЙ ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ТАСНИФИ

Шамсикулова Мохина Бону Фуркатовна
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
мустақил тадқиқотчиси moxina0909@gmail.com

Аннотация. Мақолада давлат ва нодавлат ташкилотлари томонидан амалга оширилган тиббий хизматлар ҳажми тадқиқ этилган бўлиб, тиббий хизматларнинг бухгалтерия ҳисобининг муҳим объекти сифатидаги талқини ва улар бухгалтерия ҳисобини юритишнинг ўзига хос хусусиятлари, нодавлат тиббиёт ташкилотларида асосий фаолият бўйича хизматларни кўрсатишда бухгалтерия ҳисобининг амалдаги ҳолати ёритилган ҳамда нодавлат тиббиёт ташкилотларининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги таснифий асослари ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: тиббиёт ташкилотлари, нодавлат тиббиёт ташкилотлари, тиббий хизматлар, тиббий хизматлар бухгалтерия ҳисоби, тиббий хизматларга оид харажатлар бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисобот.

Аннотация. В статье исследуется объем медицинских услуг, оказываемых государственными и негосударственными организациями, рассматривается толкование медицинских услуг как важного объекта учета и особенности их учета, текущее состояние учета при оказании услуг в основных видах деятельности негосударственных медицинских организаций, а также разрабатываются классификационные базы негосударственных медицинских организаций как субъектов учета.

Ключевые слова: медицинские организации, неправительственные медицинские организации, медицинские услуги, бухгалтерский учет медицинских услуг, учет затрат на медицинские услуги, финансовая отчетность.

Abstract. The volume of medical services performed by state and non-governmental organizations is researched in the article, the interpretation of medical services as an important object of accounting and the specific features of their accounting, the current state of accounting in the provision of services in the main activities of non-state medical organizations, and the classification bases of non-state medical organizations as accounting entities are developed.

Keywords: medical organizations, non-governmental medical organizations, medical services, medical services accounting, medical services cost accounting, financial reporting.

Республикамизда тиббиёт ташкилотларида тиббий хизматларни кўрсатиш бўйича амалга оширилган харажатлар ва олинган даромадларни назорат қилиш ва уларнинг бухгалтерия ҳисобини юритиш муҳим

ҳисобланади. Хусусан, Ўзбекистон Республикасида ишлаб чиқилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда “пуллик тиббий хизмат кўрсатиш билан боғлиқ бўлган даромадлар ва харажатлар сметаси, штатлар жадвали даволаш-профилактика муассасалари томонидан ҳар йили тузилади ва тасдиқланади ҳамда бюджет маблағларини тақсимловчилар томонидан харажатлар сметаси учун белгиланган муддатларда ва тартибда рўйхатдан ўтказилади”[29] деб келтирилган бўлиб, тиббиёт ташкилотлари фаолиятини тартибга солишда, жумладан тиббиёт ташкилотларида харажатларни бошқариш, тиббий хизматларни кўрсатишдан олинган даромадларни бухгалтерия ҳисобида тан олиш тиббий хизматлар рентабеллигини назорат қилиш муҳим ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.

Бугунги кунда соғлиқни сақлаш соҳаси олдида қўйилган долзарб вазифалар тиббий хизматлар соҳасида банд бўлган ташкилотлар, жумладан давлат ва нодавлат тиббиёт ташкилотлари олдида қатор вазифаларни амалга оширишнинг зарурият қилиб белгилаб беради. Хусусан, нодавлат тиббиёт ташкилотлари томонидан кўрсатиладиган тиббий хизматлар сифатини илғор хорижий тажрибаларга мувофиқлигини таъминлаш, харажатларни тўғри назорат қилиш ва уларни бошқариш, ташкилотларнинг асосий фаолиятларини амалга ошириш бўйича даромад ва харажатлар бухгалтерия ҳисобини тўғри ташкил этиш нодавлат тиббиёт ташкилотлари молия-хўжалик фаолиятининг энг муҳим вазифаларидан ҳисобланади. Қолаверса, ушбу санаб ўтилган жараёнлар бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва тўғри юритиш, нодавлат тиббиёт ташкилотлари ички ва ташқи ахборот фойдаланувчиларини тиббий хизматларга оид ахборотлар билан таъминлаш даражасини ошириш, ташкилотда бошқарув ходимлари томонидан стратегик аҳамият касб этадиган бошқарув қарорлар қабул қилишлари учун шаффоф бухгалтерия ҳисоботларини тақдим этиш, мамлакатда ташқи инвесторларни жалб қилиш мақсадида молиявий ҳисоботларни халқаро стандартларга мувофиқлаштириш ва уларнинг тиббий хизматларга оид ахборот қамровини янада кенгайтириш бўйича вазифалар нодавлат тиббиёт ташкилотлари олдида турган бугунги куннинг энг долзарб ва муҳим вазифаларидан ҳисобланади.

Хорижий адабиётларда нодавлат тиббиёт ташкилотлари фаолиятига қуйидагича таъриф берилган: “бу давлат кафолатлари дастурига киритилмаган аҳолига пуллик тиббий хизматлар кўрсатиш, тиббий товарларни сотиш, тиббий хизматлар билан боғлиқ хизматлар кўрсатиш, юридик шахсларга пуллик тиббий хизматлар кўрсатиш ва қонун ва муассаса эгаси томонидан рухсат этилган бошқа фаолият турлари”[30]. Ушбу таърифдан кўриш мумкинки, нодавлат тиббиёт ташкилотлари томонидан амалга ошириладиган фаолиятлар таркиби анча кенг бўлиб, мазкур ташкилотлар

[29] Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг “Пуллик тиббий хизмат кўрсатадиган даволаш-профилактика муассасаларини молиялаш тартибини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. 2025 йил 27 январь. 3603-сон.

[30] Прокопович Е.В. Особенности бухгалтерского учета и отчетности негосударственных медицинских учреждений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва: 2007. 27-с.

томонидан кўрсатиладиган тиббий хизматлар ўзига хос ижтимоий-иқтисодий хусусиятларга эга.

Юқорида тадқиқ этилган тиббий хизматлар бўйича кўрсаткичлар мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланишида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланиб, ушбу хизматлар бугунги кунда давлат ва нодавлат тиббиёт ташкилотлари томонидан амалга оширилиб келинмоқда. Буни қуйида келтирилган расм кўринишида ифодалаш мумкин (1-расм):



1-расм. Тиббий хизматлар кўрсатиш фаолияти билан шуғулланувчи субъектлар таснифи[31]

Демак, мамлакатимизда тиббий хизматларни кўрсатиш фаолияти билан шуғулланувчи тиббиёт ташкилотлари юқорида таъкидланганидек, давлат тиббиёт ташкилотлари ва нодавлат тиббиёт ташкилотларига таснифланади.

Бугунги кунда хусусий секторни ривожлантиришга қаратилинаётган оқилона сиёсат натижасида нодавлат тиббиёт ташкилотлари фаолияти ҳам

[31] Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

тобора ривожланиб бормоқда. Натижада, Ўзбекистон Республикасида 2025 йилга келиб, тиббиёт соҳасида нодавлат тиббиёт ташкилотлари сони салмоқли ҳиссани ташкил этганлигига гувоҳ бўлиш мумкин. Жумладан, “2017 йилда хусусий шифохоналар сони қарийб 3,5 мингтани ташкил этган бўлса, бугунга келиб улар сони 9 мингдан ортди. Юртимизда кўрсатилаётган барча турдаги тиббий хизматларда ушбу секторнинг улуши саккиз йил ичида 10 фоиздан 30 фоизга етди. Жумладан, айни пайтда лаборатория хизматларининг 40, офталмология ва оператив офталмологиянинг 60, ЛОР ва эндоскопик ЛОР хизматларининг 70, стоматологик ташхис ҳамда муолажаларнинг 91 фоизи айнан хусусий клиникалар томонидан кўрсатиляпти”[32].

Республикамизда биргина 2025 йилнинг ўзида 1329 та нодавлат тиббиёт ташкилотлари рўйхатдан ўтган ва тегишли лицензия олиб, тиббий хизматларни кўрсатиш фаолиятини бошлаган. Мазкур кўрсаткич ҳудудлар кесимида таҳлил қилинадиган бўлса, энг катта улуш Тошкент шаҳрида қайд этилганлигига гувоҳ бўлиш мумкин бўлиб, мазкур ҳудудда 2025 йилнинг ўзида 251 та нодавлат тиббиёт ташкилотлари Давлат рўйхатидан ўтган. Шунингдек, бошқа ҳудудларда ҳам салмоқли натижаларга эришилган, жумладан Фарғона вилоятида – 169 та, Самарқанд вилоятида – 129 та, Андижонда – 121 та, Қашқадарёда – 117 та тиббий хизматларни амалга оширувчи нодавлат тиббиёт ташкилотлари ўз фаолиятларини амалга оширишни бошлаган[33].

Хулоса. Изланишлар натижасида хулоса қилиш мумкинки, бугунги кунда нодавлат сектор таркибида тиббиёт йўналиши бўйича фаолият кўрсатаётган ташкилотлар сони тобора ортиб бормоқда. Ушбу нодавлат тиббиёт ташкилотлари фаолиятини тадқиқ этиш натижасида қуйидаги хулосаларга келинди:

Биринчидан, ҳар қандай хизмат тури сифатини оширишда бўлгани каби, тиббий хизматлар сифатини ошириш ҳам ташкилотлардан маълум бир ҳажмда харажатларни амалга оширишни талаб этади. Бу эса, ўз навбатида нодавлат тиббиёт ташкилотлари олдида харажатларни тўғри бошқаришни, тиббий хизматлар бўйича амалга ошириладиган харажатларни бухгалтерия ҳисоби, қолаверса бухгалтерия ҳисоботларида тўғри акс эттиришни долзарб вазифа қилиб қўяди. Зотан, бухгалтерия ҳисоботлари хўжалик юритувчи субъектларда хизматларни кўрсатиш бўйича натижаларни, жумладан даромад ва харажатларни ҳамда фойда ва зарар каби молиявий натижаларга оид кўрсаткичларни таҳлил қилиш имкониятини бериб, ушбу жиҳатлар бошқарув ходимларининг энг оптимал қарорларни қабул қилишларига имконият беради.

Иккинчидан, тадқиқот давомида эришилган натижаларни умумлаштирган ҳолда хулоса қилиб айтиш жоизки, нодавлат тиббиёт ташкилотлари фаолиятини бухгалтерия ҳисобининг энг муҳим субъектлари сифатида тадқиқ этиш,улар томонидан амалга ошириладиган

[32] https://gov.uz/oz/ssv/news/view/115859
[33] https://podrobno.uz/cat/obchestvo/svyshe-1300-chastnykh-klinik-otkrylis-v-uzbekistane-za-god/

фаолиятларнинг ўзига хос хусусиятларини тадқиқ этган ҳолда молиявий ва бошқарув бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва юритишга оид илмий-назарий ҳамда амалий-услубий тавсиялари ишлаб чиқиш бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.Юқорида қайд этилган долзарб вазифалардан келиб чиққан ҳолда мазкур тадқиқот ишида нодавлат тиббиёт ташкилотлари томонидан кўрсатиладиган тиббий хизматларга оид илмий-назарий асослар, жумладан уларнинг тавсифий ва таснифий асосларини такомиллаштириш, тиббий хизматларни бухгалтерия ҳисобида тан олиш ва акс эттиришга қаратилган илмий изланишлар олиб борилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг “Пуллик тиббий хизмат кўрсатадиган даволаш-профилактика муассасаларини молиялаш тартибини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. 2025 йил 27 январь. 3603-сон.
2. Прокопович Е.В. Особенности бухгалтерского учета и отчетности негосударственных медицинских учреждений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Москва: 2007. 27-с.
3. Боронов Б.Ф., and Мустафоев А.Ф.. "НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МАСАЛАЛАРИ" Экономика и социум, no. 5-2 (120), 2024, pp. 926-929.
4. Боронов Б.Ф., and Саломов Ш.Ф.. "МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТДА НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА УНИ РИВОЖЛАТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ" Экономика и социум, no. 5-2 (120), 2024, pp. 921-925.
5. Farxodovich, Boronov Bobur, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, and Yodgorov Xushvaqt Mansurovich. "FARMASEVTIKA KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING O ’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY 1.1 (2025): 282-289.
6. Боронов, Бобур, and Шавкат Саломов. "ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ." Экономическое развитие и анализ 3.2 (2025): 268-274.
7. Боронов, Б. Ф., and Ш. Ф. Саломов. "МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТДА НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА УНИ РИВОЖЛАТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ." Экономика и социум 5-2 (120) (2024): 921-925.
8. Боронов, Бобур, and Миржалол Ахмедов. "Нодавлат Таълим Ташкилотларида Даромадлар Ҳисобининг Илмийназарий Асослари." Economic Development and Analysis 3.5: 288-294.
9. Боронов, Бобур, and Миржалол Ахмедов. "Республика Миллий Иқтисодиётини Ривожлантиришда Нодавлат Олий Таълим Ташкилотларининг Ўрни Ва Аҳамияти." Economic Development and Analysis 3.8: 167-173.

UDK: 336.77.067.31

AHOLI TADBIRKORLIGINI KREDITLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARI: XORIJIY IQTISODCHI OLIMLAR QARASHLARINING QIYOSIY TAHLILI

Xusan Xusainov Baratovich
Kimyo Xalqaro Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
yangihayot456x@gmail.com
https://orcid.org/ 0009-0009-1546-3466
Telefon raqam: +998(95)-850-34-56

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholi tadbirkorligini kreditlash mexanizmini takomillashtirishning ilmiy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Aholi tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda kredit resurslaridan samarali foydalanish, kreditlash jarayonini tashkil etish hamda kredit mablag‘larining tadbirkorlik faoliyati natijadorligiga ta’siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: aholi tadbirkorligi; kreditlash mexanizmi; kredit resurslari; tadbirkorlikni moliyalashtirish; kredit samaradorligi; moliyaviy qo‘llab-quvvatlash; kredit risklari; tadbirkorlik faoliyati.

Kirish. Bugungi kunda aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy faollikni kengaytirishda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ularning biznes faoliyatini boshlashi va kengaytirishi uchun yetarli moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur jarayonda kreditlash mexanizmi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini kengaytirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim moliyaviy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi bilan bir qatorda, kreditlash jarayonining samaradorligi, kredit mablag‘larining maqsadli yo‘naltirilishi, kredit risklarini baholash, tadbirkorlarning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olish va ajratilgan kreditlarning iqtisodiy natijadorligini monitoring qilish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi (uslubiy materiallar sharhi). Aholi tadbirkorlik faoliyatini kreditlash masalasi zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, aholi bandligini ta’minlash, o‘zini o‘zi band qilishni rag‘batlantirish hamda hududlarda kichik biznesni rivojlantirishning muhim moliyaviy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu yo‘nalishda xorijiy va mahalliy iqyisodichi olimlar tomonidan keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Avstriyalik iqtisodchi olim Shumpeter (1934)ning fikriga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish nazariyasida bank kreditini tadbirkorlik va innovatsiyalarni harakatga

keltiruvchi asosiy vosita sifatida baholangan[34]. Uning fikricha, kredit kapitalning yangi kombinatsiyalarini yaratish uchun resurslarni safarbar etish qurolidir[35].

Rus olimi Lavrushin (2016)ning fikricha, kreditlashning asosiy vazifasi ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatining uzluksizligini ta'minlashdan iborat hisoblanadi[36].

M. Yunus (2010)ning fikricha endi ish boshlayotgan kichik biznes subyektlarini kreditlashda asosiy e'tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so'ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'lishadi[37]

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy tadqiqotlar o'rganilib, keng mushohada qilingan. Tadqiqot metodologik asosini aholi tadbirkorligini kreditlash masalalariga oid xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarini tizimli o'rganish va qiyosiy tahlil qilish tashkil etadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi tadbirkorligini kreditlashning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki kredit munosabatlarining samaradorligi nafaqat tijorat banklari faoliyatiga, balki umumiy iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, aholi tadbirkorlik faoliyati va uni kreditlash tizimi, shuningdek, oilaviy tadbirkorlik, ayollar tadbirkorligi hamda yoshlar tadbirkorligi yo'nalishlariga oid xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tizimli va kompleks tarzda o'rgandik. Mazkur jarayonda tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy mohiyati, uning zamonaviy shakl va turlari, shuningdek, kreditlash mexanizmlarining nazariy asoslari bo'yicha shakllangan ilmiy konsepsiyalar chuqur tahlil qilindi.

Nazariy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, aholi tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va uning tijorat banklari tomonidan kreditlash, oilaviy tadbirkorlik, ayollar va yoshlar tadbirkorligi bir necha asrlardan beri ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, "Xalqlar boyliklarining mohiyati va sabablarini tadqiq etish" [38] kitobida A. Smit tadbirkor ta'rifiga alohida e'tibor berganligi o'rganildi. Jumladan, A. Smit fikricha, "tadbirkor - kapital egasi"[39], ya'ni u muayyan tijorat g'oyasini amalga oshirib, daromad olish uchun tavakkalchilik bilan ish boshlaydi, ya'ni kapitalni biror-bir ishga sarflash doimo tavakkalchilik bilan bog'liqdir deb hisoblagan. Shuningdek, tadqiqotchi olimning fikrlarida, oilaviy tadbirkorlik

[34] Шумпетер Й. Основы предпринимательства. Пер. с нем. – М.:Дело, 1974. – С. 132.
[35] Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
[36] О.И. Лаврушин. Деньги, кредит, банки. — Москва: КНОРУС, 2016. - С 448
[37] Мухаммад Юнус, Алан Жоли. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишерз, 2010. – 307 с.
[38] Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. - London: W. Strahan and T. Cadell Publishers, 1776
[39] An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations / A. Smith. – London: W. Strahan and T. Cadell, 1776 (zamonaviy nashr: Oxford University Press, 2008), pp. 67–70.

faoliyatining zaminida uy xo‘jaliklari ifoda etilishi, uy xo‘jaligi esa iqtisodiy taraqqiyotning ilk shakllanish va rivojlanish bosqichi ekanligi aytib o‘tilgan[40].

Amerikalik iqtisodchi olim S. Zahra o‘zining “The Relationship Between Formality and Child Work in Base-of-the-Pyramid Family Businesses” deb nomlangan maqolasida[41] oilaviy biznes yoshlar uchun “tabiiy tadbirkorlik muhiti” hisoblanadi, chunki ular bolalikdan biznes jarayonlari, boshqaruv va riskni qabul qilish madaniyatini o‘zlashtiradi deb tushintirib ketgan. Shuningdek, olim o‘z tadqiqotlarida, yoshlarning tadbirkorlik qobiliyati ko‘pincha oila ichida shakllanadi, ya’ni ular amaliy tajriba orqali bilim oladi va bu ularning kelajakda mustaqil biznes boshlash ehtimolini oshirishini ham ta’kidlab o‘tgan.

Olimning tadqiqot natijalarini o‘rgangan holda, oilaviy biznes yoshlar uchun o‘ziga xos “tadbirkorlik maktabi” vazifasini bajarish bilan bir qatorda, ularning iqtisodiy faolligini oshirish, yangi tadbirkorlar qatlamini shakllantirish va bandlik darajasini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi degan asosli xulosaga keldik.

Avstriyalik iqtisodchi olim Y. Shumpeterning fikriga ko‘ra, innovatsiya tadbirkorlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan ishlab chiqarish omillarining yangi ilmiy-tashkiliy uyg‘unligidir va davlat tomonidan innovatsion jarayonlar qo‘llab-quvvatlanishi lozim.[42]

Y. Shumpeterning innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash xususidagi g‘oyasi aholi tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, aholi tadbirkorlik faoliyati subyektlari yirik biznes subyektlaridan farqli o‘laroq, innovatsion ishlanmalar uchun katta miqdorda mablag‘ sarflay olmaydi.

Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz lozimki, bir guruh taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijalari ko‘rsatadiki, taraqqiy etgan mamlakatlarda aholi tadbirkorlik faoliyati subyektlari aylanma mablag‘larining 60 foizdan ortiq qismi taqsimlanmagan foyda hisobidan moliyalashtirilayotganligi sababli, ularning investitsion harajatlarni moliyalashtirish imkoniyati juda cheklangan[43].

Tadbirkorlik nazariyasining asoschisi “irland-fransuz iqtisodchisi” Richard Kantillon “Essai sur la nature du commerce en general” (“Umumiy savdo (yoki tijorat) tabiatiga doir tadqiqot”) deb nomlangan asarida “tadbirkorga mahsulotni ma’lum (aniq) narxda sotib olib, uni noaniq narxda qayta sotadigan shaxsdir”[44] deb ta’rif bergan.

R. Kantillonning fikricha, tadbirkorni noaniqlik va risk sharoitida faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyekt sifatida talqin qiladi. Shuningdek, tadbirkor daromadi bozor noaniqligidan kelib chiqadi. Ushbu yondashuv zamonaviy iqtisodiy nazariyada tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish, jumladan kreditlash jarayonining zarurligini asoslovchi nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

---

[40] Смит А. Исследование о прероде и причинах богатств народов. - М.: Соц. экгиз, 1962, - С. 332.; Энгельс

[41] Shaker Zahra The Relationship Between Formality and Child Work in Base-of-the-Pyramid Family Businesses - 2026 (SAGE Journals). https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/

[42] Шумпетер Й. Основы предпринимательства. Пер. с нем. – М.:Дело, 1974. – С. 132.

[43] Scott J.A., Dinkelberg W.C., Dennis W.J. Credit, Banks and Small Business – the New Century – Washington: NFIB Research Foundation, 2003. – 96 p.

[44] Cantillon R. Essai sur la Nature du Commerce en General. - London: Fletcher Gyles, 1755. – 31-32 p.

Richard Kantillonning ilmiy qarashlarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga keldik. Kreditlash tizimi iqtisodiyotda risk va noaniqlik sharoitida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning muhim mexanizmi sifatida shakllangan. Xususan, R. Kantillon tomonidan asoslab berilgan tadbirkorlikning riskka asoslangan mohiyati kredit munosabatlarining zarurligini belgilab beradi.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy kreditlash tizimi aynan tavakkalchilik sharoitida faoliyat yurituvchi tadbirkor subyektlarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash orqali iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlovchi muhim iqtisodiy instrument sifatida namoyon bo‘ladi.

D. Savinovaning fikriga ko‘ra, kichik tadbirkorlikni kreditlashda bozorning har bir segmenti uchun alohida kredit xizmati ko‘rsatish zarur[45].

Rus olimi O. Lavrushinning fikricha, kreditlashning asosiy vazifasi ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatining uzluksizligini ta’minlashdan iborat hisoblanadi.[46]

M. Yunusning fikricha, endi ish boshlayotgan kichik biznes subyektlarini kreditlashda asosiy e’tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so‘ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo‘lgan talabning oshishiga sababchi bo‘lishadi [47] . Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Muhammad Yunus nazariyasining quyidagi asosiy tamoyillarini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin (1-rasm).

Guruhiy kreditlash mexanizmi	**Ayollarni maqsadli qamrab olish**	**Garov ta’minotining yo‘qligi**	**Ijtimoiy biznes modeli**
Qarz oluvchilar kichik guruhlarga birlashadilar va birgalikdagi javobgarlik asosida kredit oladilar	Yunus nazariyasida ayollar alohida o‘rin tutadi. Mikrokreditlar asosan ayollarga ajratilgan.	Grameen Bank modeli jismoniy garovni talab qilmaydi. Uning o‘rniga ijtimoiy kapital, guruhiy javobgarlik va o‘zaro ishonch mexanizmlari qo‘llaniladi.	Yunus taklif qilgan mikrokredit banki an’anaviy bank emas, balki ijtimoiy biznes subyekti sifatida faoliyat yuritishi kerak, ya’ni egalari foyda olish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi lozim.

1-rasm. Muhammad Yunus nazariyasining asosiy tamoyillari[48]

Yuqoridagi 1-rasmga ko‘ra, Muhammad Yunus nazariyasining asosiy g‘oyasi – kredit olish huquqi insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida qaralishi kerak, degan konsepsiyaga asoslangan. Uning fikricha, an’anaviy bank tizimi kambag‘allarni “bank xizmatidan foydalana olmaydigan” deb hisoblab, ularni e’tiborsiz qoldiradi, chunki ular garov ta’minotiga ega emas va kredit tarixiga ega bo‘lmaydi.

[45] Савинова Д. В. О формировании механизма привлечения кредитных ресурсов в малый бизнес // Деньги и Кредит.- Москва, 2009. - № 5. – С. 60-61.
[46] О.И. Лаврушин. Деньги, кредит, банки. — Москва: КНОРУС, 2016. - С 448
[47] Мухаммад Юнус, Алан Жоли. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишерз, 2010. – 307 с.
[48] O‘rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Bundan tashqari, Muhammad Yunusning ta’kidlashicha, mikrokredit tizimi “haqiqiy bank tizimi” hisoblanadi, chunki garov asosida kredit beruvchi an’anaviy banklar inqirozga uchragan bir paytda mikrokredit tizimi mustahkamligicha qoladi.

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mikrokreditlar kichik biznes subyektlari, oilaviy tadbirkorlik hamda o‘zini-o‘zi band qilgan aholi qatlamining iqtisodiy faolligini oshirishda asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.

Mikrokreditlash tizimining kengayishi natijasida aholi uchun boshlang‘ich kapitalga ega bo‘lish imkoniyati ortadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda hududlarda iqtisodiy faollik kuchayadi. Bu esa o‘z navbatida kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aholi tadbirkorligini kreditlash masalasi xorijiy iqtisodiy maktablar tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari, moliyalashtirish cheklovlari, axborot assimetriyasi va kredit risklarini boshqarish kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar asosida shakllangan. Xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida kreditlash samaradorligini faqat ajratilgan kredit hajmi bilan emas, balki kredit resurslaridan foydalanish natijadorligi, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi, daromadlarning o‘sishi, biznes faoliyatining davomiyligi hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari bilan baholash zarurligi aniqlandi. Shu jihatdan, aholi tadbirkorligini kreditlashni an’anaviy kredit ajratish jarayoni sifatida emas, balki tadbirkorning moliyaviy imkoniyatlari, biznes salohiyati va kredit mablag‘laridan foydalanish natijalarini kompleks baholashga asoslangan tizimli mexanizm sifatida qarash ilmiy-metodologik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Шумпетер Й. (1974) Основы предпринимательства. Пер. с нем. – М.:Дело, С. 132.

2. Лаврушин О (2016) Деньги, кредит, банки. - Москва: КНОРУС, С 448

3. Мухаммад Ю, Алан Ж (2010) Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишерз, С 307

4. Schumpeter J (1934) The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press,– 255 p.

5. Smith A (1776) An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. - London: W. Strahan and T. Cadell Publishers.

6. Смит А (1962) Исследование о прероде и причинах богатств народов. - М.: Соц. экгиз, - С. 332.

7. Zahra Sh (2026) The Relationship Between Formality and Child Work in Base-of-the-Pyramid Family Businesses. (SAGE Journals). https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/

8. Савинова Д. (2009) О формировании механизма привлечения кредитных ресурсов в малый бизнес // Деньги и Кредит.- Москва.№ 5. – С. 60-61.

9. Cantillon R (1755) Essai sur la Nature du Commerce en General. - London: Fletcher Gyles. 31-32 p.

10. Scott J, Dinkelberg W, Dennis W (2003) Credit, Banks and Small Business – the New Century – Washington: NFIB Research Foundation. 96 p.

АЛОҚА КОРХОНАЛАРИДА ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИНГ МАҚСАДИ ВА ВАЗИФАЛАРИНИ УЧ ГУРУҲЛИ ТИЗИМ АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Жамилов Жушқин Жонон ўғли,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Тезисда алоқа (телекоммуникация) корхоналарида товар-моддий захиралар аудитининг мақсади аниқлаштирилган ҳамда аудит вазифаларини умумий, ташкилий ва тармоқли вазифалар тарзида уч гуруҳга ажратишнинг услубий ёндашуви асослаб берилган. Тармоқ хусусиятларининг аудит жараёни босқичларига таъсири, стратификацияли танловни қўллаш зарурати ва аудитор малакасига қўйиладиган қўшимча талаблар ёритилган.

Калит сўзлар: аудит мақсади, аудит вазифалари, товар-моддий захиралар, алоқа корхонаси, ХАС 240, ХАС 315, ХАС 500, ХАС 530, ХАС 620, тармоқли фирибгарлик хатари, стратификацияли танлов, ички назорат, RFID, GIS.

Товар-моддий захиралар аудити молиявий ҳисобот аудитининг энг меҳнатталаб йўналишларидан бири ҳисобланади, алоқа (телекоммуникация) корхоналарида эса у қўшимча мураккаблик касб этади. Бунинг сабаблари — захираларнинг минглаб тарқоқ нуқталарда (базавий станциялар, ҳудудий филиаллар, омборхоналар) жойлашуви, технологик авлоднинг тезкор алмашиб туриши (3G→4G→5G), вендорлараро гетерогенлик, абонент маҳсулотларининг улкан айланмаси ҳамда тармоқ хусусиятидан келиб чиқувчи ўзига хос фирибгарлик хатарларидир. Communications Fraud Control Association маълумотларига кўра, дунё бўйича йиллик телекоммуникация фирибгарлигидан кўрилаётган зиён 38,9 миллиард АҚШ долларига етади — бу аудит олдига сифат жиҳатидан янги вазифаларни қўяди.

Тадқиқот давомида алоқа корхоналарида товар-моддий захиралар аудитининг мақсади қуйидагича аниқлаштирилди: алоқа корхонаси молиявий ҳисоботидаги товар-моддий захираларга оид ахборотнинг ҳаққонийлиги, тўлиқлиги ва амалдаги норматив ҳужжатларга мувофиқлиги юзасидан мустақил аудиторлик хулосасини шакллантириш ҳамда тармоққа хос фирибгарлик хатарларининг мавжуд эмаслигини баҳолаш. Мазкур таърифнинг анъанавий ёндашувлардан фарқи — унда тармоқли фирибгарлик хатарларини баҳолаш аудит мақсадининг ажралмас таркибий қисми сифатида киритилганлигидадир, бу ХАС 240 талабларига тўлиқ ҳамоҳангдир.

Белгиланган мақсадга эришиш учун аудит вазифаларини уч гуруҳга ажратишнинг услубий ёндашуви таклиф этилди (1-жадвал).

1-жадвал. Алоқа корхоналарида товар-моддий захиралар аудити вазифаларининг уч гуруҳли тизими

Вазифалар гуруҳи	Вазифалар мазмуни	Тегишли ХАС	Кутилаётган натижа
I. Умумий вазифалар	Товар-моддий захиралар ҳисобини юритишнинг амалдаги қоидаларга мувофиқлигини баҳолаш; захираларнинг балансли қиймати ҳаққонийлигини текшириш; инвентаризация натижаларининг тўғри расмийлаштирилганлиги ва ҳисобда акс эттирилганлигини аниқлаш	ХАС 500, ХАС 501	Молиявий ҳисобот кўрсаткичларининг ишончлилиги таъминланади
II. Ташкилий вазифалар	Аудит режаси ва дастурини корхона хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда шакллантириш; ички назорат тизимини баҳолаш ва назорат хатарини аниқлаш; аудит танлови ҳажмини белгилаш	ХАС 300, ХАС 315, ХАС 530	Аудит ресурслари хатар даражасига мутаносиб тақсимланади
III. Тармоқли вазифалар	SIM-карта айланмасининг тўлиқлигини текшириш; базавий станция ускуналарини тармоқ топологияси маълумотлари билан солиштириш; технологик қадрсизланиш баҳосининг асослилигини текшириш; абонент терминалларининг ҳисоб мақомини аниқлаш; чет эл валютасидаги харидларнинг даврийлаштирилишини назорат қилиш	ХАС 240, ХАС 540, ХАС 620	Тармоққа хос жиддий бузилиш ва фирибгарлик хатарлари аниқланади

Биринчи гуруҳ — умумий вазифалар: товар-моддий захиралар ҳисобини юритишнинг амалдаги қоидаларга мувофиқлигини баҳолаш; захираларнинг балансли қиймати ҳаққонийлигини текшириш; инвентаризация натижаларининг тўғри расмийлаштирилганлиги ва ҳисобда акс эттирилганлигини аниқлаш. Мазкур вазифалар ҳар қандай тармоқ корхонаси аудитига хос бўлиб, ХАС 500 «Аудит далиллари» талаблари доирасида бажарилади.

Иккинчи гуруҳ — ташкилий вазифалар: аудит режаси ва дастурини корхона хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда шакллантириш; ички назорат тизимини баҳолаш ва назорат хатарини аниқлаш; аудит танлови ҳажмини белгилаш. Алоқа корхоналарида айнан шу гуруҳ вазифалари алоҳида аҳамият касб этади: захиралар номенклатурасининг улканлиги (бир йирик операторда юз минглаб позиция) ва қийматлараро кескин фарқлар (бир дона 5G модули 480 миллион сўм, бир дона SIM-карта 6 минг сўм) ХАС 530 талабларига мувофиқ стратификацияли танловни ва ХАС 315 бўйича тармоқли хатарлар харитасини тузишни тақозо этади. Бир хил танлов усулини бутун номенклатурага қўллаш эса юқори қийматли позицияларнинг қамровдан четда қолиши хатарини келтириб чиқаради.

Учинчи гуруҳ — тармоқли вазифалар: SIM-карта айланмасининг тўлиқлиги ва такрорий фойдаланиш ҳолатларининг мавжуд эмаслигини текшириш; базавий станция ускуналарининг физик мавжудлигини тармоқ топологияси маълумотлари билан солиштириш; технологик авлод ўтиши натижасидаги қадрсизланиш баҳосининг асослилигини текшириш; абонентга вақтинча тарқатилган терминал ускуналарнинг ҳисоб мақомини аниқлаш; чет эл валютасидаги харидларнинг даврийлаштирилишини назорат қилиш. Мазкур гуруҳ анъанавий аудит дастурларида умуман акс этмайдиган, аммо алоқа соҳасида жиддий бузилишлар хатарининг асосий манбаи ҳисобланадиган йўналишларни қамраб олади.

Аудит жараёнининг тўрт босқичли модели (тайёргарлик → режалаштириш → далил тўплаш → хулосалаш) алоқа соҳасида ҳар бир босқичда тармоқ хусусиятларини инобатга олган ҳолда амалга оширилиши мақсадга мувофиқ (2-жадвал).

2-жадвал.

Аудит жараёни босқичларининг алоқа соҳасидаги ўзига хослиги

Босқич	Умумий мазмуни	Алоқа соҳасидаги ўзига хослик	Асосий стандарт
1. Тайёргарлик	Мижоз фаолиятини ўрганиш, шартномани расмийлаштириш	Корхонанинг тармоқ технологиялари, вендор таркиби ва авлод алмашиниш режалари билан танишиш	ХАС 210, ХАС 315
2. Режалаштириш	Умумий стратегия ва аудит дастурини тузиш	Уч гуруҳли вазифалар тизими асосида дастур тузиш; қиймат бўйича стратификацияли танловни лойиҳалаш	ХАС 300, ХАС 530
3. Далил тўплаш	Аудит процедураларини бажариш	Жисмоний кузатувни RFID/штрих-код воситалари ва GIS-маълумотлар билан тўлдириш; АТ бўйича эксперт иштироки	ХАС 500, ХАС 501, ХАС 620
4. Хулосалаш	Аудиторлик хулосасини шакллантириш	Тармоқли хатарлар бўйича алоҳида баҳо шакллантириш ва уни хулосада ёритиш	ХАС 240, ХАС 700

Алоқа корхоналари захиралари аудити аудитор малакасига ҳам қўшимча талаблар қўяди: аудитор телекоммуникация технологияларининг асосларини (авлодлар, ускуна турлари, IMEI/SN тизими), тармоқли ахборот тизимларини (ERP, тармоқ инвентаризацияси платформалари) ҳамда тармоқли фирибгарлик схемаларини билиши лозим. Шу боис аудит гуруҳи таркибига ахборот технологиялари бўйича экспертни (ХАС 620 доирасида) жалб этиш амалиёти алоқа соҳасида стандарт ёндашувга айланиши керак.

Хулоса қилиб айтганда, алоқа корхоналарида товар-моддий захиралар аудитининг мақсадини тармоқли фирибгарлик хатарларини баҳолаш билан тўлдириш ҳамда вазифаларни умумий, ташкилий ва тармоқли гуруҳларга ажратиш аудит жараёнини тизимлаштиради, дастур ва танловни асослашни осонлаштиради ҳамда аудиторлик хулосасининг ишончлилигини оширади.

ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ТАКЛИФ ВА АМАЛИЙ ТАВСИЯЛАР

Биринчидан, алоқа корхоналари аудити методикасида аудит мақсадининг таърифига тармоққа хос фирибгарлик хатарларини баҳолаш элементини киритиш таклиф этилади. Бу ХАС 240 талаблари билан тўлиқ ҳамоҳанг бўлиб, аудит мақсадини тармоқ хусусиятларига мослаштиради.

Иккинчидан, аудит вазифаларини умумий, ташкилий ва тармоқли гуруҳларга ажратувчи уч гуруҳли тизимни аудиторлик ташкилотларининг ички методик қўлланмаларига жорий этиш лозим. Тизим аудит дастурини тузишни соддалаштиради ва вазифалар қамровининг тўлиқлигини таъминлайди.Учинчидан, захиралар номенклатурасининг қиймат бўйича кескин табақаланишини инобатга олиб, ХАС 530 талабларига мувофиқ стратификацияли танлов усулини алоқа корхоналари аудитида мажбурий қўллаш тавсия этилади.

Тўртинчидан, аудит гуруҳи таркибига ахборот технологиялари бўйича экспертни (ХАС 620) жалб этишни алоқа соҳаси аудитида стандарт ёндашув сифатида белгилаш зарур.

Бешинчидан, жисмоний кузатув натижаларини RFID/штрих-код воситалари ва тармоқ инвентаризацияси платформалари маълумотлари билан кросс-текширишдан ўтказиш тартибини аудит дастурининг мажбурий процедураси сифатида расмийлаштириш мақсадга мувофиқдир.

Таклиф этилган уч гуруҳли тизим «Ўзбектелеком» АК ва бошқа алоқа операторлари аудитида амалий қўлланиш учун тайёр услубий асос ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикасининг «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни. ЎРҚ-677-сон, 25.02.2021 й. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, www.lex.uz.

2. Халқаро аудит стандарти (ХАС) 240 «Молиявий ҳисобот аудитида фирибгарликка нисбатан аудиторнинг жавобгарлиги». — New York: IFAC, 2022.

3. Халқаро аудит стандарти (ХАС) 315 «Жиддий бузилишлар хатарларини идентификация қилиш ва баҳолаш». — New York: IFAC, 2022.

4. Халқаро аудит стандарти (ХАС) 500 «Аудит далиллари»; ХАС 501 «Аудит далиллари — танланган моддалар бўйича алоҳида ҳолатлар». — New York: IFAC, 2022.

5. Халқаро аудит стандарти (ХАС) 530 «Аудит танлови». — New York: IFAC, 2022.

6. Халқаро аудит стандарти (ХАС) 620 «Аудиторнинг эксперт ишидан фойдаланиши». — New York: IFAC, 2022.

7. Ахмеджанов К.Б., Якубов И. Аудит асослари. Дарслик. — Т.: Иқтисод-молия, 2018.

8. Robertson J.C., Louwers T.J. Auditing & Assurance Services. — New York: McGraw-Hill/Irwin, 2002. — 864 p.

9. Communications Fraud Control Association. Global Telecom Fraud Survey 2023. — Roseland: CFCA, 2023.

II SHO‘BA. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATINI AUDITORLIK TAHLILINI O‘TKAZISH VA ULARGA AUDITORLIK BAHOSINI BERISH USLUBIYATI.

«O‘ZTEMIRYO‘LYO‘LOVCHI» AJda ICHKI AUDIT XIZMATI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Kamoliddin Ravshanovich Alikulov
mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat transport universiteti
+998 998087141

Annotatsiya. Maqolada korporativ boshqaruv tizimining muhim elementi sifatida ichki audit xizmati faoliyatining nazariy asoslari, uning samaradorligini baholash mezonlari va usullari ko‘rib chiqilgan. AO «O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi» misolida — temir yo‘l tarmog‘ini isloh qilish va xolding tuzilmasiga o‘tish sharoitida — ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari va muammolari tahlil qilingan, xizmat samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. ichki audit, korporativ boshqaruv, audit samaradorligi, xavfga asoslangan auditorlik tekshiruvi, ichki nazorat tizimi, temir yo‘l transporti.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi PQ-329-son qarori asosida temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish, AO «O‘zbekiston temir yo‘llari»ni xolding tuzilmasiga aylantirish va uning tarkibida mustaqil aksiyadorlik jamiyatlarini, jumladan «O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi»AJni tashkil etish korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishni obyektiv zaruratga aylantirdi. Mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ko‘payishi, moliyaviy oqimlarning murakkablashuvi hamda tarkibiy tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarning kengayishi sharoitida ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan ichki audit xizmatining roli sezilarli darajada oshadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-maydagi 280-son qarori bilan tasdiqlangan “Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi to‘g‘risida”gi nizom, shuningdek 2022-yil 27-dekabrdagi 3406-son qaror bilan tasdiqlangan “Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanma”si ichki audit faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslarini tashkil etadi. Biroq amaliyotda ichki audit xizmati faoliyatining samaradorligini baholashning yagona, aksiyadorlik jamiyatlari xususiyatlarini hisobga oluvchi metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan, bu esa mazkur mavzuni ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb qiladi.

Maqolaning maqsadi — korporativ boshqaruv nazariyasi asosida ichki audit xizmati faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini umumlashtirish va AO «O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi» misolida ushbu xizmat faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslashdan iborat.

Ichki auditning mohiyati va korporativ boshqaruv tizimidagi o‘rni aloxida o‘rinda.

Ichki audit — tashkilotning maqsadlariga erishishiga koʻmaklashish uchun mustaqil va obyektiv kafolat va konsultatsion faoliyat turi boʻlib, u tizimli va izchil yondashuv asosida risklarni boshqarish, nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholash hamda yaxshilash orqali tashkilot faoliyatiga qiymat qoʻshadi. Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan «uchta himoya chizigʻi» (three lines model) modeliga koʻra, birinchi chiziqni operatsion boshqaruv, ikkinchi chiziqni risklarni boshqarish va muvofiqlik funksiyalari, uchinchi chiziqni esa boshqaruv kengashi va kuzatuv kengashiga bevosita hisobot beruvchi mustaqil ichki audit xizmati tashkil etadi.

Ichki audit tashqi auditdan bir qator jihatlari bilan farqlanadi: agar tashqi audit, birinchi navbatda, moliyaviy hisobotning ishonchliligini tasdiqlashga qaratilgan boʻlsa, ichki audit tashkilotning barcha faoliyat yoʻnalishlari — moliyaviy, operatsion, muvofiqlik va strategik jarayonlarni qamrab oluvchi, uzluksiz va risklarga asoslangan baholashni amalga oshiradi. Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmati, odatda, ijroiya organiga emas, balki kuzatuv kengashi yoki uning tarkibidagi audit qoʻmitasiga bevosita boʻysunadi, bu esa uning mustaqilligi va obyektivligini ta’minlashning muhim shartidir.

Xolding tuzilmasi sharoitida, jumladan AO «Oʻzbekiston temir yoʻllari» guruhida, ichki audit xizmatining oʻrni yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat ona kompaniya, balki tarkibiy aksiyadorlik jamiyatlari (jumladan AO «Oʻztemiryoʻlyoʻlovchi») faoliyatidagi risklarni ham baholashi, transfert narxlash, subsidiyalash va investitsion loyihalarni moliyalashtirish kabi murakkab jarayonlarning shaffofligini ta’minlashi lozim.

Ichki audit xizmati faoliyati samaradorligini baholash koʻp oʻlchovli xarakterga ega boʻlib, u miqdoriy va sifat koʻrsatkichlarining uygʻunligini talab qiladi. Amaliyotda qoʻllaniladigan asosiy baholash yondashuvlarini (1-jadval) quyidagi guruhlarga birlashtirish mumkin: rejalashtirish samaradorligi (yillik audit rejasining bajarilish darajasi, xavf tahliliga asoslangan reja qamrovi), operatsion samaradorlik (bir audit tadbiriga sarflangan vaqt va resurslar, xodimlar malakasi darajasi), natijaviylik (aniqlangan kamchiliklar va tavsiyalarning boshqaruv tomonidan qabul qilinish darajasi, tavsiyalarning belgilangan muddatda bajarilishi), iqtisodiy samaradorlik (audit natijasida oldi olingan yoki qaytarilgan mablagʻlarning audit xizmatini yuritish xarajatlariga nisbati) hamda korporativ boshqaruv organlari tomonidan xizmat faoliyatiga berilgan baho (kuzatuv kengashi va audit qoʻmitasining qoniqish darajasi).

1-jadval.

Amaliyotda qoʻllaniladigan asosiy baholash yondashuvlari

Baholash yoʻnalishi	Asosiy koʻrsatkich	Oʻlchov birligi
Rejalashtirish	Bajarilgan audit tadbirlarining rejaga nisbati	foiz
Natijaviylik	Amalga oshirilgan tavsiyalarning umumiy tavsiyalar soniga nisbati	foiz
Oʻz vaqtidalik	Tavsiyalarni bajarish uchun belgilangan muddatga rioya etilishi	kun/foiz

Baholash yo‘nalishi	Asosiy ko‘rsatkich	O‘lchov birligi
Iqtisodiy samaradorlik	Aniqlangan/qaytarilgan mablag‘larning audit xarajatlariga nisbati	koeffitsiyent
Sifat	Kuzatuv kengashi/audit qo‘mitasi tomonidan berilgan baho	ball (1–5)

Integral samaradorlik indeksini umumiy ko‘rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$A_{ud} = \Sigma\ (w_i \times N_i),\ i = 1 \ldots n,$$

bu yerda Ni — i-yo‘nalish bo‘yicha normallashtirilgan (0 dan 1 gacha) ko‘rsatkich; wi — ekspert baholash usuli bilan aniqlangan vazn koeffitsiyenti; n — baholanayotgan yo‘nalishlar soni. Bunday formula ichki audit xizmatini turli davrlar va turli tarkibiy tashkilotlar kesimida qiyoslash imkonini beradi.

Keltirilgan ko‘rsatkichlar asosida integral samaradorlik indeksini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘lib, u har bir yo‘nalish bo‘yicha normallashtirilgan ko‘rsatkichlarning ekspert baholash usuli bilan aniqlangan vazn koeffitsiyentlari yordamida o‘rtacha vaznli qiymatini ifodalaydi. Bunday yondashuv ichki audit xizmati faoliyatini nafaqat statik holatda, balki davrlar kesimida dinamikada baholash va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun asos yaratadi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, ichki audit xizmati faoliyati samaradorligi nafaqat texnik ko‘rsatkichlar, balki tashkilotdagi ichki audit madaniyati darajasi bilan ham chambarchas bog‘liq. Agar boshqaruv organlari va tarkibiy bo‘linmalar rahbariyati ichki auditni faqat nazorat-jazolash vositasi sifatida emas, balki risklarni oldindan aniqlash va boshqaruv qarorlari sifatini oshirishga ko‘maklashuvchi konsultativ hamkor sifatida qabul qilsa, audit tavsiyalarining amaliy joriy etilish darajasi va, demak, uning yakuniy samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

«O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi» AJ 2023–2025-yillardagi tarmoq islohoti natijasida mustaqil aksiyadorlik jamiyati sifatida tashkil etilgan bo‘lib, uning tarkibida MCHJ «Shahar atrofida yo‘lovchi tashish» va MCHJ «Temir yo‘l vokzallari» kabi tobe tashkilotlar faoliyat yuritadi. Bunday tuzilma ichki audit xizmati oldiga bir qator o‘ziga xos vazifalarni qo‘yadi: birinchidan, jamiyat va uning tobe tashkilotlari o‘rtasidagi moliyaviy oqimlar hamda transfert hisob-kitoblarning to‘g‘riligini nazorat qilish; ikkinchidan, ijtimoiy ahamiyatli (subsidiyalanadigan) va tijorat asosidagi qatnovlar bo‘yicha xarajat va daromadlarning alohida hisobga olinishini tekshirish; uchinchidan, harakatlanuvchi tarkibni yangilashga yo‘naltirilgan investitsion mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishini baholash (2-jadval).

2-jadval.

«O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi» AJ faoliyat yo‘nalishi ichki audit vazifasi

Faoliyat yo‘nalishi	Asosiy risk sohasi	Ichki audit vazifasi
Yo‘lovchi tashish (dala qatnovlar)	Ijtimoiy tarif va tijorat tarif o‘rtasidagi subsidiya hisob-kitoblari	Subsidiya hajmining asoslanganligini tekshirish
Tobe tashkilotlar (MCHJ)	Ona kompaniya bilan transfert hisob-kitoblar	Transfert narxlarning bozor darajasiga muvofiqligini baholash
Investitsion faoliyat	Harakatlanuvchi tarkibni yangilash bo‘yicha mablag‘lar sarfi	Loyihalarning maqsadli va samarali sarflanishini nazorat qilish
Sotuv va chipta savdosi	Naqd va elektron to‘lovlar bo‘yicha moliyaviy intizom	Kassa intizomi va to‘lov tizimlari xavfsizligini tekshirish

Ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etishning umumiy amaliyotiga xos bo‘lgan quyidagi muammolar AO «O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi» misolida ham dolzarb bo‘lishi mumkin: xavfga asoslangan (risk-based) audit rejalashtirish metodologiyasining to‘liq joriy etilmaganligi; ichki audit xizmatining kuzatuv kengashi bilan hisobot berish tartibida institutsional mustaqillikning yetarli darajada ta’minlanmaganligi; audit natijalari bo‘yicha berilgan tavsiyalarning bajarilishini muntazam monitoring qilish tizimining yo‘qligi; raqamli audit vositalari (data analytics, uzluksiz monitoring) dan foydalanish darajasining pastligi; xodimlarning xalqaro sertifikatlash (CIA, ACCA va boshqalar) darajasining yetarli emasligi. Bunday muammolarning oldini olish uchun ichki audit xizmati faoliyatini korporativ boshqaruv organlari — kuzatuv kengashi, audit qo‘mitasi va boshqaruv kengashi — tomonidan muntazam ravishda ko‘rib chiqish, uning yillik hisobotlarini ochiq muhokama qilish tartibini institutsionallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ichki audit xizmati samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar

1. Xavfga asoslangan audit rejalashtirish metodologiyasini to‘liq joriy etish — yillik audit rejasini jamiyat va uning tobe tashkilotlaridagi risklar xaritasi asosida shakllantirish.
2. Ichki audit xizmatining kuzatuv kengashi qoshidagi audit qo‘mitasiga bevosita hisobot berish tizimini mustahkamlash, bu orqali xizmatning ijroiya organidan mustaqilligini ta’minlash.
3. Audit tavsiyalarining bajarilishini kuzatib boruvchi avtomatlashtirilgan monitoring tizimini joriy etish, bajarilmagan tavsiyalar bo‘yicha muntazam hisobot shakllantirish.
4. Raqamli audit vositalari va uzluksiz auditorlik monitoringi (continuous auditing) tizimlarini joriy etish, bu jamiyat va tobe tashkilotlar o‘rtasidagi moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi.
5. Ichki audit xodimlarini xalqaro standartlar (IIA, CIA) asosida tizimli o‘qitish va malaka oshirish dasturlarini joriy etish.

6. Ushbu maqolada taklif etilgan integral samaradorlik indeksini AO «O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi» ichki audit xizmati faoliyatini yillik baholash amaliyotiga tatbiq etish.

7. Ichki audit xizmati va tashqi auditorlar, shuningdek risklarni boshqarish bo‘limi o‘rtasida axborot almashinuvi va tadbirlarni muvofiqlashtirish tartibini institutsionallashtirish, bu takroriy tekshiruvlarning oldini oladi va umumiy nazorat tizimi samaradorligini oshiradi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot ichki audit xizmatining korporativ boshqaruv tizimidagi rolini, uning faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari va usullarini umumlashtirish imkonini berdi. «O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi» AJ misolida ko‘rsatilganidek, temir yo‘l tarmog‘ini isloh qilish va xolding tuzilmasiga o‘tish sharoitida ichki audit xizmatining ahamiyati yanada ortadi, chunki u tarkibiy tashkilotlar o‘rtasidagi moliyaviy oqimlar shaffofligini, ijtimoiy va tijorat faoliyatining alohida hisobga olinishini hamda investitsion mablag‘larning samarali sarflanishini ta’minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Ishlab chiqilgan takliflar — xavfga asoslangan rejalashtirish, institutsional mustaqillikni mustahkamlash, raqamlashtirish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish — ichki audit xizmati faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 25.02.2021 yildagi O‘RQ-677-sonli «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-maydagi 280-son qarori bilan tasdiqlangan «Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi to‘g‘risida»gi nizom.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-dekabrdagi 3406-son qarori bilan tasdiqlangan «Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanmasi».

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi PQ-329-son «Temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

5. The Institute of Internal Auditors (IIA). International Professional Practices Framework (IPPF).

6. «O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi» AJ rasmiy sayti — https://railway.uz

МОЛИЯВИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ҚАДРСИЗЛАНИШИНИ «КУТИЛАЁТГАН КРЕДИТ ЗАРАРЛАРИ» (ECL) МОДЕЛИ АСОСИДА ҲИСОБГА ОЛИШ

Жумамуродов Тўлибай Елдашбаевич
мустақил изланувчи, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Аннотация. Мақолада молиявий инвестицияларнинг қадрсизланишини МҲХС 9 нинг «кутилаётган кредит зарарлари» (ECL) модели асосида тан олиш масалалари ўрганилган. Уч босқичли ECL захирасини PD, LGD ва EAD параметрлари асосида ҳисоблашда миллий иқтисодиётнинг макроиқтисодий

омилларини интеграция қилувчи, Ўзбекистон шароитига мослаштирилган методика таклиф этилган.

Калит сўзлар: молиявий инвестициялар, қадрсизланиш, МҲХС 9, ECL модели, кутилаётган кредит зарарлари, PD, LGD, EAD, макроиқтисодий омиллар, захира.

МҲХС 9 «Молиявий инструментлар» стандарти аввалги ХБҲС 39 стандарти ўрнида 2018 йил 1 январдан бошлаб амалда қўлланилмоқда[49]. Янги стандартнинг ишлаб чиқилишига асосий сабаб 2007–2009 йиллардаги жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози бўлиб, у ХБҲС 39 стандартидаги «кўрилган зарар» (incurred loss) моделининг кутилаётган хатарларни ўз вақтида акс эттирмаслигини намоён этди. Шу боис, молиявий инвестицияларнинг қадрсизланишини тан олишда тубдан янги — «кутилаётган кредит зарарлари» (Expected Credit Loss — ECL) модели жорий этилди.

ECL модели молиявий активлар бўйича кредит зарарларини уларнинг вужудга келишидан олдинроқ ҳисоблаб тан олишни талаб этади[50]. Модел таркибида молиявий активлар уч босқичга (stage) ажратилади:

1-босқич (Stage 1) — нормал активлар. Дастлабки тан олишдан кейин кредит риски сезиларли даражада ошмаган активлар бўлиб, улар бўйича 12 ойлик кутилаётган кредит зарарлари (12-month ECL) ҳисобланиб, захира шакллантирилади; фоиз даромади умумий балансли қийматга нисбатан ҳисобланади.

2-босқич (Stage 2) — кредит риски сезиларли ошган активлар. Дастлабки тан олишдан кейин кредит риски сезиларли даражада ошган, лекин ҳали қадрсизланмаган активлар бўлиб, улар бўйича умрий кутилаётган кредит зарарлари (Lifetime ECL) ҳисобланади.

3-босқич (Stage 3) — қадрсизланган активлар. Кредит риски амалга ошган ва қадрсизланиш белгилари мавжуд бўлган активлар бўлиб, улар бўйича умрий ECL ҳисобланади ҳамда фоиз даромади соф балансли қийматга (захира чегирилгандан кейин) нисбатан ҳисобланади.

ECL ни ҳисоблашнинг умумий формуласи қуйидагича бўлади:

$$\mathbf{ECL = PD \times LGD \times EAD}$$

бу ерда: PD (Probability of Default) — дефолт эҳтимоли; LGD (Loss Given Default) — дефолт содир бўлганда зарар улуши; EAD (Exposure at Default) — дефолт пайтидаги экспозиция.

Ушбу модел дастлаб ривожланган мамлакатлар банк сектори учун ишлаб чиқилган бўлиб, Ўзбекистон каби ривожланаётган иқтисодиётга эга мамлакатларда уни бевосита қўллаш бир қатор қийинчиликларни юзага келтиради: тарихий маълумотлар базасининг етишмаслиги, дефолт статистикасининг чекланганлиги ҳамда макроиқтисодий волатилликнинг юқорилиги. Шу муносабат билан муаллиф томонидан ECL моделини

[49] Халқаро бухгалтерия ҳисоби стандарти (ХБҲС) 39 «Молиявий инструментлар: тан олиш ва баҳолаш» 2018 йил 1 январдан бошлаб МҲХС 9 билан алмаштирилди. — IFRS Foundation.

[50] Халқаро молиявий ҳисобот стандарти (МҲХС) 9 «Молиявий инструментлар» (IFRS 9 Financial Instruments). — IFRS Foundation, 2014 (охирги таҳрир 2023 й.), 5.5-бўлим («Қадрсизланиш»). URL: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-9-financial-instruments/

Ўзбекистон макроиқтисодий шароитига мослаштирувчи махсус ёндашув таклиф этилди. Унинг моҳияти PD, LGD ва EAD параметрларини ҳисоблашда миллий иқтисодиётнинг макроиқтисодий омилларини — инфляция даражаси, ЯИМ ўсиш суръати ва валюта курсини[51] — интеграция қилишдан иборат.

Таклиф этилаётган ёндашув қуйидаги амалий қадамларни ўз ичига олади: биринчидан, субъект даражасида кредит рискини баҳолашнинг ички методологиясини ишлаб чиқиш; иккинчидан, тарихий маълумотлар базасини яратиш ва юритиш; учинчидан, ECL ни ҳисоблашда келажакка қаратилган макроиқтисодий прогнозларни (forward-looking information) эътиборга олиш; тўртинчидан, ECL ҳисоб-китоби натижаларини бухгалтерия ёзувларида ва молиявий ҳисоботларда тўғри акс эттириш. Учинчи босқичнинг мазмуни шундаки, дефолт эҳтимоли (PD) макроиқтисодий сценарийларга боғлиқ функция сифатида моделлаштирилади: иқтисодий ўсиш суръати пасайганда ва инфляция ошганда PD қиймати ортади, бу эса захира ҳажмининг ўсишига олиб келади.

1-жадвал

ECL моделининг уч босқичли тузилмаси ва ҳисоблаш параметрлари

Босқич	Активнинг ҳолати	ECL тури	Фоиз даромади базаси
1 (Stage 1)	Кредит риски ошмаган (нормал)	12 ойлик ECL	Умумий балансли қиймат
2 (Stage 2)	Кредит риски сезиларли ошган	Умрий (Lifetime) ECL	Умумий балансли қиймат
3 (Stage 3)	Қадрсизланган актив	Умрий (Lifetime) ECL	Соф балансли қиймат

Манба: МҲХС 9 талаблари ва муаллиф ёндашуви асосида тузилган.

ECL модели амалда қўлланилганда қадрсизланиш захираси бўйича бухгалтерия ёзувлари қуйидагича амалга оширилади: захира кўпайтирилганда Дт 9430 «Бошқа операцион харажатлар» — Кт 0619 «Молиявий инвестициялар бўйича қадрсизланиш захираси»; захира камайтирилганда тескари ёзув берилади. Бунда 0619 контр-актив (қаршиликли) ҳисобварақ сифатида молиявий инвестицияларнинг балансли қийматини камайтиради. Ушбу ёндашув миллий БҲМС 12 стандартини[52] такомиллаштириш ва уни МҲХС 9 талабларига уйғунлаштириш заруратини кўрсатади, чунки амалдаги стандартда ECL модели, бизнес-модел ва SPPI критерийси каби замонавий элементлар назарда тутилмаган.

[51] Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика агентлиги маълумотлари. URL: https://stat.uz (мурожаат: 2026 й.); Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Йиллик ҳисобот. URL: https://cbu.uz.

[52] Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (БҲМС) 12 «Молиявий инвестицияларни ҳисобга олиш». Молия вазирлигининг 1999 йил 28 апрелдаги 56-сон буйруғи билан тасдиқланган (рўйхат рақами 760, 08.06.1999).

ECL модели нафақат бухгалтерия ҳисоби, балки аудит учун ҳам муҳим аҳамиятга эга. ISA 540 (қайта кўрилган) стандарти[53] бухгалтерия ҳисобидаги баҳолашларни, шу жумладан адолатли қиймат ва ECL захирасини текширишга доир махсус талабларни белгилайди. Аудитор ECL ҳисоб-китобининг асосли эканлигини, PD, LGD ва EAD параметрларининг мантиқийлигини ҳамда макроиқтисодий тахминларнинг изчиллигини баҳолаши лозим.

Ўзбекистон фонд бозоридаги волатилликнинг юқорилиги ECL моделини қўллашнинг долзарблигини янада оширади. Хусусан, Uzbekistan Composite Index (UCI) 2023 йилда +82% ўсиш, 2024 йилда −7,7% коррекция ва 2025 йилда +7,01% ўзгаришни кўрсатди [54] . Бундай тебранишлар молиявий инвестициялар бўйича кредит ва бозор рискларининг сезиларли эканлигидан далолат беради, демак, уларнинг қадрсизланишини ўз вақтида тан олиш ва активларнинг реал қийматини акс эттириш аҳамиятли вазифага айланади.

Шундай қилиб, молиявий инвестицияларнинг қадрсизланишини МҲХС 9 нинг ECL модели асосида тан олиш ва ҳисобга олишнинг Ўзбекистон макроиқтисодий шароитига мослаштирилган методикаси рискларни ўз вақтида аниқлаш, активларнинг реал қийматини акс эттириш ҳамда молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларга мувофиқлигини таъминлаш имконини беради. Таклиф этилаётган ёндашув миллий ҳисоб тизимини халқаро амалиётга уйғунлаштиришнинг муҳим илмий-амалий йўналиши ҳисобланади.

Таклиф ва тавсиялар:

1.Молиявий инвестициялар қадрсизланишини МҲХС 9 нинг уч босқичли «кутилаётган кредит зарарлари» (ECL) модели асосида тан олиш ҳамда PD, LGD ва EAD параметрларини ҳисоблашда миллий макроиқтисодий омилларни (инфляция, ЯИМ ўсиши, валюта курси) интеграция қилувчи, Ўзбекистон шароитига мослаштирилган методикани қабул қилиш тавсия этилади.

2. Миллий БҲМС 12 «Молиявий инвестицияларни ҳисобга олиш» стандартини ECL модели, бизнес-модел ва SPPI критерийси элементлари билан тўлдириб, МҲХС 9 га уйғунлаштириш; қадрсизланиш захирасини 0619 контр-актив ҳисобварағида (Дт 9430 – Кт 0619) акс эттириш тавсия этилади.

3. Хўжалик юритувчи субъектларга кредит рискини баҳолашнинг ички методологияси ва тарихий маълумотлар базасини яратиш, келажакка қаратилган макроиқтисодий прогнозларни (forward-looking) ҳисобга олиш; аудиторларга эса ECL ҳисоб-китоблари ва баҳолаш тахминларини ISA 540 (қайта кўрилган) талаблари асосида текшириш тавсия этилади.

---

[53]Халқаро аудит стандарти (ISA) 540 (қайта кўрилган) «Auditing Accounting Estimates and Related Disclosures». — IAASB, 2018, 13–20-параграфлар.

[54]CEIC Data (Equity Market Index, 2016–2026); «Тошкент» Республика фонд биржаси ҳисоботлари. URL: https://www.uzse.uz (мурожаат: 2026 й.).

АКТ СОҲАСИ КОРХОНАЛАРИДА МАЖБУРИЯТЛАР АУДИТИНИНГ ИНТЕГРАТИВ РИСК МОДЕЛИ ВА ИЧКИ НАЗОРАТНИ БАҲОЛАШНИНГ БАЛЛ-РЕЙТИНГ УСЛУБИЯТИ

Амиров Асқар Актамович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Тезисда ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) соҳаси корхоналарида мажбуриятлар аудити методологиясини такомиллаштириш масаласи тадқиқ этилган. Соҳага хос рискларни (технологик алмаштириш, лицензия шартномаларини бузиш, абонент мажбуриятлари ноаниқлиги, кибертаҳдидлар) аниқлаш ва баҳолашнинг интегратив модели, беш босқичли рискка йўналтирилган аудит режаси ҳамда мажбуриятлар бўйича ички назорат самарадорлигини баҳолашнинг балл-рейтинг услубияти таклиф этилган.

Калит сўзлар: мажбуриятлар аудити, АКТ соҳаси, интегратив риск модели, кибертаҳдид рисклари, рискка йўналтирилган аудит, ички назорат, балл-рейтинг услубияти, беш функционал блок.

АКТ соҳаси корхоналарида мажбуриятларнинг ўзига хос табиати — лицензия шартномалари, абонент мажбуриятлари, технологик алмаштириш ва кибертаҳдидлар — стандарт аудит тартиб-таомиллари тўлиқ қамраб олмайдиган махсус рискларни келтириб чиқаради. Шу муносабат билан соҳага хос интегратив риск модели ва рискка йўналтирилган аудит режасини ишлаб чиқиш ҳам илмий янгилик, ҳам амалий аҳамиятга эга.

Тадқиқотнинг илмий янгиликларидан бири АКТ соҳасига хос мажбуриятлар аудитида рискларни аниқлаш ва баҳолашнинг интегратив моделидир. Модель қуйидаги риск тоифаларини қамраб олади: технологик алмаштириш рисклари; лицензия шартномаларини бузиш рисклари; абонент мажбуриятлари бўйича ноаниқлик рисклари; кибертаҳдидлар билан боғлиқ шартли мажбуриятлар рисклари. Ушбу рискларга мос равишда умумлаштирилган беш босқичли рискка йўналтирилган аудит режаси ишлаб чиқилган (1-жадвал), у Аудитнинг халқаро стандартлари (АХС 315, 330) талабларига асосланади[55].

1-жадвал

Мажбуриятлар аудитининг беш босқичли рискка йўналтирилган режаси

Босқич	Мазмуни
1-босқич	Соҳа ва корхонани ўрганиш, риск муҳитини баҳолаш
2-босқич	Соҳага хос рискларни (технологик, лицензия, абонент, кибер) аниқлаш ва таснифлаш
3-босқич	Рискларни баҳолаш ва муҳимлик даражасини белгилаш

[55] Аудитнинг халқаро стандартлари (АХС) 315 «Жиддий хатолар тавакилчилигини аниқлаш ва баҳолаш» ҳамда 330 «Баҳоланган тавакилчиликларга жавобан аудиторнинг ҳаракатлари». — Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, 2018–2024.

4-босқич	Рискка мос аудиторлик тартиб-таомилларини бажариш, далиллар йиғиш
5-босқич	Хулосаларни умумлаштириш ва аудиторлик хулосасини шакллантириш

Манба: АХС 315 ва 330 талаблари асосида муаллиф ишланмаси.

Соҳага хос рисклар орасида кибертаҳдидлар билан боғлиқ шартли мажбуриятлар риски алоҳида эътиборга лойиқ, чунки маълумотлар хавфсизлиги бузилиши потенциал жарималар, судлар ва компенсация мажбуриятларини келтириб чиқариши мумкин. Модель ушбу рискларни 37-сон БҲХС нуқтаи назаридан шартли мажбурият сифатида баҳолаб, аудиторга уларнинг молиявий ҳисоботда тўғри акс эттирилганлигини текшириш имконини беради.

Тадқиқотнинг иккинчи илмий янгилиги мажбуриятлар бўйича ички назорат тизими самарадорлигини баҳолашнинг балл-рейтинг услубиятидир. Услубият бешта функционал блокда гуруҳланган 20 та миқдорий ва сифат кўрсаткичига асосланади (2-жадвал). Ҳар бир блок бўйича олинган баллар йиғиндиси ички назорат тизимининг умумий рейтингини шакллантириб, унинг заиф звеноларини аниқ кўрсатади.

2-жадвал

Ички назоратни баҳолашнинг бешта функционал блоки

Функционал блок	**Баҳоланадиган жиҳат**
1. Ваколатлаш	Мажбуриятларни тан олиш ва тасдиқлаш ваколатлари
2. Ҳужжатлаштириш	Мажбуриятлар бўйича бирламчи ҳужжатлар тўлиқлиги
3. Тан олиш аниқлиги	Мажбуриятларни тўғри ва ўз вақтида тан олиш
4. Баҳолашнинг ишончлилиги	Дисконтлаш ва баҳолаш усулларининг тўғрилиги
5. Ошкор қилиш тўлиқлиги	Молиявий ҳисоботда ахборотни тўлиқ ошкор қилиш

Манба: муаллиф ишланмаси.

Интегратив риск модели, беш босқичли аудит режаси ва балл-рейтинг услубияти биргаликда АКТ соҳаси корхоналарида мажбуриятлар аудитини рискка йўналтирилган ёндашув асосида ташкил этишнинг яхлит методологиясини ташкил этади. Бу эса аудит ресурсларини энг юқори рискли соҳаларга йўналтириш, ички назоратнинг заиф жиҳатларини аниқлаш ва аудиторлик хулосаси ишончлилигини ошириш имконини беради.

Таклиф ва тавсиялар:

1. АКТ соҳаси корхоналарида мажбуриятлар аудитида технологик алмаштириш, лицензия шартномаларини бузиш, абонент мажбуриятлари ноаниқлиги ва кибертаҳдидлар рискларини қамровчи интегратив риск моделини ҳамда беш босқичли рискка йўналтирилган аудит режасини қабул қилиш тавсия этилади.

2. Мажбуриятлар бўйича ички назорат тизими самарадорлигини бешта функционал блок (ваколатлаш, ҳужжатлаштириш, тан олиш аниқлиги,

баҳолашнинг ишончлилиги, ошкор қилиш тўлиқлиги) доирасидаги 20 та кўрсаткичга асосланган балл-рейтинг услубияти орқали баҳолаш тавсия этилади.

3. Кибертаҳдидлар билан боғлиқ шартли мажбуриятларни 37-сон БҲХС талаблари асосида баҳолаш ва аудитдан ўтказиш ҳамда аудит ресурсларини соҳага хос юқори рискли объектларга йўналтириш тавсия этилади.

АВТОТРАНСПОРТ КОРХОНАЛАРИДА РИСККА АСОСЛАНГАН АУДИТ ДАСТУРИ ВА CAATs ВОСИТАЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ

Саитов Сирожиддин Абдувалиевич
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Тезисда автотранспорт корхоналарининг тармоқ хусусиятларига мослаштирилган рискка асосланган аудит дастури, муҳим хавф зоналарини аниқлаш матрицаси ҳамда ички аудит жараёнларида рақамли технологик воситалардан (CAATs) фойдаланиш методикаси таклиф этилади. Ёндашув ISA 315 талабларига мос ҳолда аудитор ресурсларини юқори хатарли соҳаларга йўналтириш, аудит қамрови ва тезкорлигини ошириш ҳамда фирибгарлик ва қоидабузарликларни эрта аниқлашга қаратилган.

Калит сўзлар: автотранспорт корхоналари, ички аудит, рискка асосланган аудит, хавф зоналари, ISA 315, CAATs, рақамли аудит, узлуксиз аудит, аудит самарадорлиги.

1. Кириш

Автотранспорт корхоналарида ички аудит амалиёти кўпинча анъанавий постфактум ёндашувга асосланиб, тармоқ хусусиятларини ҳисобга олувчи ихтисослашган услубий база етарли шаклланмаган. Амалдаги «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги ЎРҚ-677-сон Қонун асосан ташқи аудитни тартибга солади, ички аудит институтига бағишланган алоҳида норматив-ҳуқуқий база эса мавжуд эмас. Бу эса аудит жараёнларининг қўлда бажарилиши ва катта ҳажмдаги операцион маълумотларнинг тизимли таҳлил қилинмаслиги билан бирга тармоқ учун жиддий муаммо ҳисобланади.

Мазкур муаммони ҳал этиш аудиторлик фаолиятини уч устувор йўналишда — ички аудит хизматини мустақил таркибий бўлинма сифатида шакллантириш, рискка йўналтирилган методологияни жорий этиш ҳамда CAATs ва узлуксиз аудит воситаларини қўллаш — комплекс такомиллаштиришни талаб қилади. Тезисда шу асосда рискка асосланган аудит дастури ва CAATs воситаларини жорий этиш методикаси тақдим этилади.

2. Рискка асосланган аудит дастури ва хавф зоналари

ISA 315 талабларига кўра, аудиторнинг чекланган ресурслари биринчи навбатда хатар даражаси юқори участкаларга йўналтирилади, паст хатарли

ҳудудларда эса таҳлилий муолажаларга таянган ҳолда чекланган тестлаш қўлланилади. Шу тамойил асосида автотранспорт корхоналари учун рискка асосланган аудит матрицаси ишлаб чиқилди (1-жадвал). Матрица ҳар бир аудит соҳаси учун хатар даражаси, мос аудит ёндашуви ва қўлланадиган тартиб-таомилларни белгилайди.

1-жадвал

Автотранспорт корхоналарида рискка асосланган аудит матрицаси

Аудит соҳаси	Риск	Аудит ёндашуви	Қўлланадиган тартиб-таомиллар
Асосий воситалар — транспорт парки	Юқори	Батафсил тестлаш (substantive testing)	Инвентаризация; ҳужжатларни текшириш; амортизацияни қайта ҳисоблаш; бозор қийматини текшириш
Юк ва йўловчи ташишдан даромад	Юқори	Назорат тестлари + substantive analytical procedures	Тескари ҳисоб-китоблар; GPS маълумотлари таҳлили; чипта сотиш тизимлари аудити
Ёқилғи-мойлаш материаллари харажатлари	Юқори	Detail testing + data analytics	Ёнилғи сарфи меъёрларини текшириш; телематик маълумотлар билан солиштириш; ТМЗ инвентаризацияси
Ҳайдовчиларга иш ҳақи ва меҳнат харажатлари	Ўртача	Назорат тестлари + analytical procedures	Штат жадвали билан солиштириш; йўл варақаларини таҳлил қилиш
Таъмирлаш харажатлари	Ўртача	Analytical procedures	Кўпайиш сабабларини таҳлил қилиш; ишлатилган материалларни инвентаризация қилиш
Маъмурий харажатлар	Паст	Substantive analytical procedures	Даврлар ва структура бўйича таҳлил; ўзгармас тартиб-таомиллар
Дебиторлик қарзлари	Ўртача	Назорат тестлари + confirmation	Мижозлардан тасдиқномалар; қарздорликнинг ёш таркибини таҳлил қилиш
Пул маблағлари оқими	Юқори	Detail testing	Банк кўчирмаларини текшириш; ойлик касса инвентаризацияси; нақд пул ҳужжатлари

Манба: муаллиф ишланмаси.

Матрицада юқори хатарли зона сифатида одатда жами активларнинг 60–75 фоизини ташкил этувчи транспорт парки («Асосий воситалар»), даромадлар, ёқилғи-мойлаш харажатлари ва пул оқимлари ажратиб кўрсатилади — бу соҳалардаги хатолар молиявий ҳисобот ишончлилигига сезиларли таъсир қилади. Соҳада энг кўп учрайдиган аудиторлик хулосалари ёқилғи сарфи меъёрларининг оширилиши, транспорт воситалари амортизациясини нотўғри (тармоқ хусусиятларини ҳисобга олмай, чизиқли усулда) ҳисоблаш, товар-моддий захираларни хатловдан ўтказишдаги камчиликлар ва даромадларни тан олишдаги тафовутлар билан боғлиқ. Хатар кўрсаткичлари йилдан-йилга ўзгаргани сабабли матрица мунтазам қайта кўриб чиқилиши лозим.

3. Аудит жараёнларида CAATs воситалари

Рискка асосланган дастурни самарали қўллаш учун аудит жараёнларига компьютер асосидаги аудит воситалари (Computer Assisted Audit Techniques, CAATs) жорий этилади. CAATs тизими тўрт тоифага бўлинади: умумий мақсадли аудит дастурлари (GAS — IDEA, ACL, TeamMate Analytics); ERP тизимларига интеграциялашган ўрнатилган аудит модуллари (EAM); қарор қабул қилишни қўллаб-қувватлаш тизимлари (DSS); ҳамда машинали ўрганиш ва сунъий интеллектга асосланган воситалар. Автотранспорт соҳасида уларнинг амалий қўлланиш йўналишлари: GPS маълумотларини ёқилғи харидлари билан таққослаб ёқилғи сарфидаги оғишларни аниқлаш; транспорт воситаларининг фойдаланиш кўрсаткичлари ва амортизация ҳисоб-китобларини мониторинг қилиш; маршрутларни оптималлаштириш; юк ташиш шартномаларини таҳлил қилиш; ҳамда меҳнат ҳақи ва кадрлар ҳужжатларини автоматлаштирилган текшириш.

CAATs воситаларини корхонанинг бирламчи маълумотлар базаси ва ERP тизимлари билан интеграциялаш (даврий импорт, реал вақтдаги узлуксиз узатиш ёки булутли ёндашув) қўлда киритиш хатоларини камайтиради ва аудит сифатини оширади; блокчейн технологияси эса транзаксияларнинг ўзгармас рўйхати ва смарт-шартномалар орқали шаффофлик ва фирибгарликнинг олдини олишни таъминлайди. Воситаларни жорий этиш муаллиф таклиф этган босқичма-босқич дастур асосида амалга оширилади (2-жадвал).

2-жадвал

Автотранспорт корхоналарида CAATs воситаларини босқичма-босқич жорий этиш дастури

Босқич ва муддат	Харажат, минг $	Вазифалар	Натижа
1-босқич (2026–2027): Асосий CAATs	25–40	IDEA/ACL сотиб олиш; 2–3 ички аудиторни сертификатлаш; бирламчи тестларни автоматлаштириш	Аудит вақтини 18–20% тежаш
2-босқич (2027–2028): Data analytics	40–60	Power BI/Tableau жорий этиш; Data Warehouse яратиш; дастурчилар жалб этиш	Аудит қамровини 90% гача ошириш
3-босқич (2028–2029): Узлуксиз аудит	80–120	Машинали ўрганиш моделлари; оғишларни аниқлаш; прогнозли таҳлил	Прогноз аудити; рискларни проактив бошқариш
Жами (2026–2030)	205–310	Тўлақонли рақамли аудит экотизимини яратиш	Аудит самарадорлиги 92% гача

Манба: муаллиф ишланмаси.

4. Хулоса

Тезисда автотранспорт корхоналари учун рискка асосланган аудит дастури, муҳим хавф зоналарини аниқлаш матрицаси ва ички аудит жараёнларида CAATs воситаларини жорий этиш методикаси таклиф этилди.

Ёндашув аудитор ресурсларини транспорт парки, даромадлар, ёқилғи харажатлари ва пул оқимлари каби юқори хатарли соҳаларга йўналтириш, аудит қамрови ва тезкорлигини ошириш ҳамда фирибгарликни эрта аниқлаш имконини беради. CAATs воситаларини босқичма-босқич жорий этиш ва узлуксиз аудитга ўтиш аудит самарадорлигини сезиларли даражада оширади; методикани миллий аудит амалиётига жорий этиш келгуси тадқиқот йўналишидир.

Таклиф ва тавсиялар. Автотранспорт корхоналарига ички аудитни мустақил таркибий бўлинма сифатида ташкил этиш, ISA 315 талабларига мос рискка асосланган аудит матрицасидан фойдаланиш ҳамда таваккалчиликка йўналтирилган йиллик аудит режасини қўллаш тавсия этилади. Аудит жараёнларига CAATs воситаларини (IDEA/ACL, Power BI, машинали ўрганиш) босқичма-босқич жорий этиш ва уларни ERP тизимлари билан интеграциялаш аудит қамрови ҳамда сифатини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. IAASB (2019) ISA 315 (Revised) Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement. New York: IFAC.

2. The Institute of Internal Auditors (2024) International Professional Practices Framework (IPPF). Lake Mary (FL): The IIA.

3. Arens, A.A., Elder, R.J. and Beasley, M.S. (2021) Auditing and Assurance Services. 17th ed. Harlow: Pearson.

4. COSO (2017) Enterprise Risk Management — Integrating with Strategy and Performance. Durham (NC): COSO.

5. Vasarhelyi, M.A. and Halper, F.B. (1991) 'The continuous audit of online systems', Auditing: A Journal of Practice & Theory, 10(1), pp. 110–125.

6. ISACA (2019) COBIT 2019 Framework: Governance and Management Objectives. Schaumburg (IL): ISACA.

7. Ўзбекистон Республикасининг «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни, 2021 йил 25 феврал, ЎРҚ-677-сон. Тошкент. https://lex.uz/docs/5311424.

АКТ СОҲАСИ НОМОДДИЙ АКТИВЛАРИ АУДИТИДА ҲИСОБ БАҲОЛАРИ ВА УЗЛУКСИЗ РАҚАМЛИ АУДИТ

Ишанқулов Иззатилла Нуриллаевич
Phd, Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланучвчиси
тел.: +998 (95) 000-11-10;
e-mail: i.ishankulov@digital.uz

Аннотация. Мазкур тезисда ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) соҳаси корхоналарида номоддий активлар билан боғлиқ ҳисоб баҳоларини аудит қилиш ҳамда узлуксиз (рақамли) аудит методикаси баён этилади. ISA 540 асосида ҳисоб баҳоларининг таснифи, қадрсизланиш тестини аудит қилишнинг олти босқичли модели ва сезгирлик таҳлили

орқали аудитор оралиғини шакллантириш механизми таклиф этилади. Шунингдек, узлуксиз аудитнинг етти қатламли архитектураси, автоматик тестлар кутубхонаси ва тўрт босқичли етуклик модели ишлаб чиқилиб, уларнинг амалий қиймати шартли мисолларда кўрсатилади.

Калит сўзлар: номоддий актив, ҳисоб баҳоси, ISA 540, қадрсизланиш, сезгирлик таҳлили, аудитор оралиғи, узлуксиз аудит, рақамли аудит, АКТ соҳаси.

1. Кириш

Номоддий активлар ҳисоби бошқа ҳар қандай баланс моддасидан кўра кўпроқ баҳога таянади. Ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) соҳасида дастурий маҳсулотлар, лицензиялар ва рақамли платформаларнинг баланс қиймати фойдали хизмат муддати, амортизация усули, қадрсизланиш ва адолатли қиймат каби юқори ноаниқликка эга ҳисоб баҳолари орқали шаклланади. Айнан шу сабабли аудитнинг энг мураккаб қисми номоддий активларнинг баҳолаш тасдиғига тўғри келади. Айни пайтда таклиф этилаётган баҳолаш текшируви муолажаларининг меҳнат сиғими юқори бўлиб, уларни узлуксиз (рақамли) аудит воситалари билан тўлдириш зарур.

Амалдаги аудит амалиётининг таҳлили жиддий муаммони кўрсатади: ўрганилган аудиторлик ташкилотларининг аксарияти ҳисоб баҳоларини алоҳида аудит объекти сифатида ажратмайди, қадрсизланиш тести эса деярли ўтказилмайди; рақамли аудит воситаларидан фойдаланиш ҳам чекланган. Мазкур тезисда ушбу муаммоларни ҳал этишга қаратилган икки ўзаро боғланган методик ечим — ҳисоб баҳолари аудити (ISA 540 асосида) ва узлуксиз (рақамли) аудит модели — баён этилади.

2. Ҳисоб баҳолари аудити (ISA 540)

ISA 540 га мувофиқ ҳисоб баҳоси — аниқ ўлчаш имконияти чекланганлиги сабабли баҳолаш ноаниқлигига учрайдиган ва раҳбарият томонидан усул, тахминлар ҳамда маълумотлардан фойдаланган ҳолда аниқланадиган пул миқдоридир. Методикани мақсадли қуриш учун номоддий активлар билан боғлиқ ҳисоб баҳолари олти турга ажратилиб, ҳар бири учун хос хатар омилларининг — баҳолаш ноаниқлиги, мураккаблик ва субъективлик — даражаси баҳоланади. Тасниф аудиторга текширув ресурсларини тақсимлашнинг аниқ мезонини беради: шартнома муддатларига қатъий боғланган лицензия амортизацияси деярли механик ҳисоб-китоб бўлса, дисконтланган пул оқимлари (DCF) моделига асосланган тикланадиган қиймат учала омил бўйича ҳам юқори баҳоланади.

ISA 540 нинг 18-бандига мувофиқ аудитор баҳоланган хатарга жавобан учта ёндашувдан бирини ёки уларнинг комбинациясини қўллайди: ҳисобот санасигача юз берган воқеалардан далил олиш; раҳбарият баҳони қандай шакллантирганини текшириш; аудиторнинг ўз нуқтавий баҳоси ёки оралиғини ишлаб чиқиш. Ёндашувни танлаш баҳонинг хос хатар даражасидан келиб чиқади. Қадрсизланиш тести — учала хос хатар омили бўйича ҳам юқори баҳоланадиган энг мураккаб ҳисоб баҳоси — учун махсус олти босқичли аудит модели таклиф этилади (1-расм).

1-расм. Қадрсизланиш тестини аудит қилишнинг олти босқичли модели



Манба: муаллиф ишланмаси

1-расм. Қадрсизланиш тестини аудит қилишнинг олти босқичли модели

Модель белгилар таҳлилидан бошлаб нақд пул яратувчи бирлик (ЯПО) чегараларини баҳолаш, DCF модели компонентларини текшириш, сезгирлик таҳлили, эксперт ишини баҳолаш (ISA 620) ва ошкор қилишларни текширишгача бўлган изчил кетма-кетликни қамрайди. Моделнинг марказий элементи — тўртинчи босқич, яъни сезгирлик таҳлили орқали аудитор оралиғини шакллантиришдир. Аудитор ҳар бир муҳим тахмин (ўсиш суръати, дисконт ставкаси, терминал қиймат) бўйича оқилона оралиқни белгилаб, тикланадиган қийматнинг шу оралиқдаги ўзгаришини ҳисоблайди ва уни раҳбарият баҳоси билан таққослайди.

Методиканинг амалий қўлланилиши «Ўзбектелеком» АЖ маълумотлари асосидаги шартли мисолда кўрсатилди. Раҳбарият тикланадиган қийматни 412,0 млрд сўм деб баҳолаган, баланс қиймати эса 403,5 млрд сўмни ташкил этади — демак раҳбарият баҳосига кўра қадрсизланиш йўқ. Аудитор эса муҳим тахминлар бўйича оқилона оралиқларни қўллаб (ўсиш суръати 12 фоиз ўрнига 5–8 фоиз, дисконт ставкаси 18 фоиз ўрнига 19–21 фоиз), тикланадиган қийматнинг аудитор оралиғини 344,2–381,6 млрд сўм деб аниқлайди. Ушбу оралиқнинг юқори чегараси ҳам баланс қийматидан паст бўлгани сабабли, камида 21,9 млрд сўмлик тан олинмаган қадрсизланиш аниқланади. Бундан ташқари, барча тахминларнинг бир йўналишда — оптимистик томонга — танлангани раҳбарият тарафкашлигининг ҳужжатлаштирилган белгиси сифатида баҳоланади.

3. Узлуксиз (рақамли) аудит модели

Ҳисоб баҳолари аудитини — умуман, номоддий активлар аудитининг бутун занжирини — узлуксиз режимга кўчириш меҳнат сиғимини камайтиради ва хатоларни эрта аниқлаш имконини беради. АКТ соҳаси бундай ўтиш учун энг қулай синов майдонидир, чунки ҳисобга олинадиган деярли барча ахборот дастлабданоқ электрон шаклда яратилади ва активларнинг ўзи ҳам рақамли табиатга эга. Номоддий активлар узлуксиз аудит учун айниқса қулай объектдир: улар бўйича операциялар сони

нисбатан кам, аммо якка қиймати юқори — демак, ҳар бир огоҳлантириш арзийдиган эътибор олади ва сигналлар оқими аудиторни кўмиб ташламайди.

Таклиф этилаётган узлуксиз аудит модели етти қатламли архитектурага эга (2-расм). Қуйи қатламни маълумот манбалари ташкил этади; интеграция қатлами уларни стандарт уланиш воситалари орқали боғлайди; версияланган аудит омбори эса далил занжирининг узлуксизлигини техник кафолатлайди (хеш, «фақат қўшиш» тартиби, ҳаракатлар журнали). Моделнинг юраги — тўрт модулли аналитик ядро: детерминик тестлар кутубхонаси (T1–T12), аналитик кутилмалар модули, ҳисоб баҳолари индикаторлари модули ва машина ўрганиши (ML) модули. Юқори қатламлар натижаларни истеъмолга тайёрлайди: огоҳлантириш ва триаж модули сигналларни саралайди, ҳисобот генератори эса аниқланган ҳолатларни ишчи ҳужжат шаклларига жойлаштиради; якуний қатлам инсон назоратини (human-in-the-loop) таъминлайди.

1-расм. Номоддий активлар узлуксиз (рақамли) аудити моделининг етти қатламли архитектураси



Манба: муаллиф ишланмаси

2-расм. Узлуксиз (рақамли) аудит моделининг етти қатламли архитектураси

Моделнинг методик ўзаги — номоддий активларга ихтисослашган ўн икки автоматик тестдан иборат кутубхонадир. Ҳар бир тест олдинги босқичларда асосланган аудит муолажасининг узлуксиз режимга кўчирилган шаклидир. Тестлар тасдиқлар харитаси билан мувозанатлаштирилган: ҳар бир юқори хатарли тасдиқ камида иккита мустақил тест билан қопланади, шу тариқа триангуляция тамойили автоматлаштирилади. Тестлар даврийлиги хатарнинг «тезлигига» боғланади: фирибгарлик хатари билан боғлиқ ёзувлар ҳар куни, кирим ва яхлитлик тестлари ҳафталик, баҳолаш индикаторлари эса ойлик режимда кузатилади.

Узлуксиз аудитга бир қадамда ўтиб бўлмайди, шу боис тўрт босқичли етуклик модели таклиф этилади: ҳар бир босқич олдингисининг натижаларига таянади ва ўзининг аниқ ўтиш шартига эга. Биринчи босқич мавжуд йиллик аудит доирасида бошланиб, маълумотлар таҳлили

усулларини (тўлиқ қамровли қайта ҳисоблаш, Бенфорд тести) жорий этади; кейинги босқичларда даврий автоматик тестлар, узлуксиз мониторинг ва ниҳоят реал вақтга яқин узлуксиз аудит (машина ўрганиши билан) жорий этилади. Моделнинг самарадорлиги шартли пилот ҳисоб-китобда баҳоланди: текширув қамрови танланмадаги 18 фоиздан тўлиқ массивга (100 фоизга) етади, меҳнат сарфи тахминан 40 фоизга камаяди, хатони аниқлаш кечикиши эса тўққиз ойдан уч-беш кунга тушади.

Модель миллий норматив муҳитда мустаҳкам таянчга эга: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 18 декабрдаги ПФ-252-сон Фармони давлат аудити ва молиявий назорати фаолиятини рақамлаштириш ва сунъий интеллект технологияларини жорий этиш бўйича аниқ йўл харитасини белгилаган. Ушбу норматив асос таклиф этилаётган узлуксиз аудит моделини амалиётга жорий этиш учун ҳуқуқий чегара ва институционал таянч яратади.

4. Хулоса

Мазкур тезисда АКТ соҳаси номоддий активлари аудитининг икки ўзаро боғланган методик ечими баён этилди. Биринчидан, ISA 540 асосида ҳисоб баҳолари аудити методикаси таклиф этилди: баҳолар таснифи, уч жавоб ёндашувини танлаш алгоритми ва қадрсизланиш тестини аудит қилишнинг олти босқичли модели. Моделнинг марказий элементи — сезгирлик таҳлили орқали аудитор оралиғини шакллантириш — шартли мисолда камида 21,9 млрд сўмлик тан олинмаган қадрсизланишни ва тахминлардаги тарафкашлик белгисини аниқлади.

Иккинчидан, узлуксиз (рақамли) аудит модели ишлаб чиқилди: етти қатламли архитектура, ўн икки автоматик тестдан иборат кутубхона ва тўрт босқичли етуклик модели. Моделнинг самарадорлиги шартли пилот ҳисоб-китобда баҳоланди (қамров 18 фоиздан 100 фоизга, меҳнат сарфи 40 фоизга камайиши, кечикиш тўққиз ойдан уч-беш кунга). Ушбу икки ечим бир-бирини тўлдиради: ҳисоб баҳолари методикаси субъектив баҳоларни мустақил текширади, узлуксиз аудит эса бутун жараённи реал вақтга яқин режимга кўчиради. Методикани миллий аудит амалиётига жорий этиш ва давлат аудитини рақамлаштириш сиёсати билан уйғунлаштириш келгуси тадқиқот йўналишидир.

Таклиф ва тавсиялар. Аудиторлик ташкилотларига номоддий активлар билан боғлиқ ҳисоб баҳоларини алоҳида аудит объекти сифатида ажратиш, қадрсизланиш тестида сезгирлик таҳлилига асосланган аудитор оралиғини қўллаш ва ISA 540 талабларини изчил бажариш тавсия этилади. Узлуксиз (рақамли) аудитга ўтишни тўрт босқичли етуклик модели бўйича босқичма-босқич амалга ошириш ҳамда автоматик тестлар кутубхонасини жорий этиш аудит қамровини кенгайтириш ва хатоларни эрта аниқлашга хизмат қилиб, методикани давлат аудитини рақамлаштириш сиёсати билан уйғунлаштириш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. IAASB (2018) ISA 540 (Revised) Auditing Accounting Estimates and Related Disclosures. New York: IFAC.

2. Alharasis, E.E., Alkhwaldi, A.F. and Hussainey, K. (2024) ’Fair value disclosures and audit issues’, International Journal of Law and Management, 66(4), pp. 417–446.

3. Vasarhelyi, M.A. and Halper, F.B. (1991) ’The continuous audit of online systems’, Auditing: A Journal of Practice & Theory, 10(1), pp. 110–125.

4. Dai, J. and Vasarhelyi, M.A. (2016) ’Imagineering Audit 4.0’, Journal of Emerging Technologies in Accounting, 13(1), pp. 1–15.

5. Eulerich, M., Pawlowski, J., Waddoups, N.J. and Wood, D.A. (2022) ’A framework for using robotic process automation for audit tasks’, Contemporary Accounting Research, 39(1), pp. 691–720.

6. President of the Republic of Uzbekistan (2025) Decree No. PF-252 of 18 December 2025 on digitalisation of state audit and financial control. Tashkent. Available at: https://lex.uz (Accessed: 4 July 2026).

7. Xajimuratov, N.Sh. (2024) ’Moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta’minlash yo‘nalishlari’, Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), pp. 15–22.

ЦИФРОВОЙ ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В УСЛОВИЯХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Утегенова Зухра Куатбаевна
Независимый исследователь
Тел: +99897 724-13-88 utegenovazuhra48@gmail.com

Аннотация. В условиях цифровой трансформации экономики рациональная организация рабочего времени становится важным условием повышения производительности труда. Современный работник сталкивается не столько с абсолютной нехваткой времени, сколько с его постоянной фрагментацией вследствие электронных сообщений, онлайн-встреч, уведомлений и многозадачности. Цель исследования заключается в определении роли цифрового тайм-менеджмента и инструментов искусственного интеллекта в повышении эффективности использования рабочего времени. На основе анализа современных статистических данных установлено, что значительная часть рабочего времени расходуется на коммуникации и переключение между задачами. Предложен подход, согласно которому современный тайм-менеджмент должен включать не только планирование времени, но и управление вниманием, цифровой нагрузкой и передачу рутинных операций искусственному интеллекту. Обоснована необходимость перехода от традиционной модели управления временем к модели управления продуктивностью.

Ключевые слова: тайм-менеджмент, производительность труда, искусственный интеллект, цифровизация, рабочее время, цифровая нагрузка, управление вниманием, автоматизация.

Содержание

Цифровизация экономики существенно изменила организацию трудовой деятельности. Электронная почта, мессенджеры, видеоконференции и корпоративные платформы позволяют ускорить обмен информацией, однако одновременно создают новые источники потерь рабочего времени. Поэтому актуальная проблема тайм-менеджмента заключается не только в правильном распределении часов рабочего дня, но и в способности работника сохранять концентрацию в условиях постоянного информационного воздействия.

Показательным является исследование Microsoft Work Trend Index 2025. Согласно его данным, 80% работников и руководителей во всем мире испытывают недостаток времени или энергии для выполнения своих рабочих задач, тогда как 53% руководителей считают необходимым повышение производительности труда. При этом анализ обезличенных сигналов Microsoft 365 показывает, что в рабочее время сотрудники в среднем сталкиваются с совещанием, электронным письмом или уведомлением каждые две минуты.

Таким образом, возникает проблема цифровой фрагментации рабочего времени: человек формально находится на рабочем месте в течение установленного количества часов, однако значительная часть этого времени расходуется на переключение внимания между различными каналами коммуникации.

Таблица 1.

Основные факторы потери продуктивного рабочего времени[56]

Фактор	Современное проявление	Основное последствие
Цифровые уведомления	сообщения, письма, напоминания	постоянное прерывание работы
Онлайн-встречи	большое количество совещаний	сокращение времени самостоятельной работы
Многозадачность	параллельное выполнение нескольких задач	снижение концентрации
Переключение внимания	переход между приложениями и задачами	увеличение временных затрат
Рутинная работа	обработка информации, подготовка типовых документов	сокращение времени на сложные задачи
Работа вне рабочего времени	сообщения и встречи после окончания рабочего дня	размывание границ рабочего времени

Особое значение проблема приобретает в связи с распространением искусственного интеллекта. Современные ИИ-инструменты способны выполнять часть операций, которые ранее полностью осуществлялись

[56] Источник: составлено автором на основе данных Microsoft Work Trend Index 2025.

человеком: структурировать информацию, обобщать документы, помогать составлять планы и распределять задачи. Поэтому искусственный интеллект становится не только технологией автоматизации, но и потенциальным инструментом управления рабочим временем.

Однако сама по себе цифровизация не гарантирует повышения производительности. Если традиционные процессы просто переносятся в цифровую среду без изменения организации труда, количество уведомлений, совещаний и информационных потоков может продолжать увеличиваться. Microsoft отмечает, что 60% совещаний в анализируемой группе пользователей носили незапланированный или ситуативный характер. Кроме того, количество сообщений, поступающих за пределами стандартного рабочего времени, увеличилось на 15% по сравнению с предыдущим годом.

Следовательно, современная концепция тайм-менеджмента должна учитывать три взаимосвязанных ресурса: время, внимание и цифровые возможности.

Первым элементом является традиционное планирование: определение приоритетов, установление сроков и распределение задач. Второй элемент — управление вниманием, предполагающее ограничение необязательных уведомлений, выделение периодов непрерывной работы и сокращение частого переключения между задачами. Третий элемент — интеллектуальная автоматизация, при которой повторяющиеся операции передаются цифровым инструментам и системам искусственного интеллекта.

На этой основе предлагается рассматривать производительность труда через долю времени, непосредственно направленного на выполнение приоритетных задач:

$$Кп = Тп / Тобщ \times 100\%,$$

где Кп — коэффициент продуктивного времени;
Тп — время, затраченное на приоритетные задачи;
Тобщ — общее рабочее время.

Данный подход позволяет оценивать не только продолжительность рабочего дня, но и качество его использования.

Научно-теоретическое предложение

Предлагается дополнить традиционную концепцию тайм-менеджмента концепцией «управления продуктивным временем», в которой объектом управления выступает не только календарное время работника, но одновременно его внимание, цифровая нагрузка и степень автоматизации трудовых операций.

В рамках данной концепции повышение производительности достигается не увеличением продолжительности рабочего времени, а перераспределением его структуры: сокращением непроизводительных коммуникаций, уменьшением количества переключений и передачей рутинных операций искусственному интеллекту. Такой подход позволяет рассматривать тайм-менеджмент как элемент системы управления производительностью труда в условиях цифровой экономики.

Рекомендация

Для организаций целесообразно внедрять систему цифрового тайм-менеджмента, включающую четыре обязательных направления:

1. приоритизацию рабочих задач;
2. выделение фиксированных периодов для концентрированной работы;
3. регламентацию цифровых коммуникаций и необязательных совещаний;
4. использование ИИ для автоматизации повторяющихся операций.

При этом эффективность внедрения рекомендуется оценивать не количеством использованных цифровых инструментов, а изменением доли продуктивного рабочего времени, сокращением количества прерываний и ростом результативности выполнения приоритетных задач.

Заключение

Проведенный анализ показывает, что в условиях цифровой экономики проблема тайм-менеджмента приобретает новое содержание. Основным ограничением становится не только недостаток рабочего времени, но и его фрагментация под воздействием цифровых коммуникаций. Современные данные демонстрируют значительный разрыв между требованиями бизнеса к производительности и возможностями работников поддерживать необходимый уровень эффективности.

В этих условиях искусственный интеллект может стать инструментом качественной перестройки рабочего процесса, однако его эффективность зависит от правильной организации труда. Поэтому перспективным направлением является переход от управления количеством рабочего времени к управлению его продуктивной структурой.

Таким образом, цифровой тайм-менеджмент следует рассматривать как комплексную систему, объединяющую планирование, управление вниманием, регулирование цифровых коммуникаций и интеллектуальную автоматизацию. Его конечной целью должно быть не увеличение количества выполняемых задач, а повышение экономической отдачи от каждого часа рабочего времени.

Список литературы

1. The 2025 Annual Work Trend Index: The Frontier Firm is born [Электронный ресурс]. — 2025.
2. Microsoft. Breaking down the infinite workday [Электронный ресурс]. — 2025.
3. 2025 Work Trend Index Annual Report [Электронный ресурс]. — 2025.
4. Microsoft 2025 Annual Work Trend Index [Электронный ресурс]. — 2025.

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИКУ: ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ, ТРАНСФОРМАЦИЯ И НОВЫЕ ВЫЗОВЫ

Эргашев Худойназар Хабибуллаевич
доцент, кандидат экономических наук Самаркандского института экономики и сервиса, Узбекистан Ergashev1962@mail.ru
Хабибуллаев Азизбек Худойназарович
независимый исследователь, Самаркандского института экономики и сервиса, Узбекистан finansist6611@gmail.com
Баитов Гиёс Баходирович
ассистент, Самаркандского института экономики и сервиса, Узбекистан
moliyachi2013@gmail.com

Аннотация. Данный тезис рассматривает влияние искусственного интеллекта на современные экономические системы, уделяя внимание росту производительности, структурной трансформации экономики и изменениям на рынке труда. Одновременно анализируются ключевые вызовы, включая возможное сокращение рабочих мест, усиление социального неравенства и необходимость разработки эффективных механизмов регулирования цифровых технологий.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, экономика, экономический рост, производительность, инновации, автоматизация, цифровая трансформация, рынок труда, неравенство, государственное регулирование

Abstract. This thesis examines the impact of artificial intelligence on modern economic systems, focusing on productivity growth, structural transformation of the economy, and changes in the labor market. At the same time, it analyzes key challenges, including potential job losses, the intensification of social inequality, and the need to develop effective regulatory mechanisms for digital technologies.

Keywords: Artificial Intelligence, economy, economic growth, productivity, innovation, automation, digital transformation, labor market, inequality, government regulation

Annotatsiya. Ushbu tezis sun’iy intellektning zamonaviy iqtisodiy tizimlarga ta’sirini o‘rganadi, bunda ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishi hamda mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, maqolada asosiy muammolar ham tahlil qilinadi, jumladan ish o‘rinlarining qisqarishi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi va raqamli texnologiyalarni tartibga solish uchun samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyati.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsiyalar, avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya, mehnat bozori, tengsizlik, davlat tomonidan tartibga solish

Искусственный интеллект стал одним из ключевых факторов, определяющих развитие современной мировой экономики, поскольку его

влияние распространяется практически на все сферы хозяйственной деятельности, начиная от промышленного производства и финансового сектора и заканчивая здравоохранением и сферой услуг [1]. В отличие от предыдущих технологических этапов, которые затрагивали отдельные отрасли, ИИ обладает универсальным характером, так как он способен не только автоматизировать процессы, но и анализировать большие массивы данных, выявлять скрытые закономерности и поддерживать принятие решений на различных уровнях управления. Именно поэтому в экономической науке он рассматривается как технология общего назначения, сопоставимая по своему значению с электричеством или интернетом, поскольку его внедрение приводит к системным изменениям в структуре экономики и механизмах ее функционирования [10].

ИИ и экономический рост

Влияние искусственного интеллекта на экономический рост в первую очередь проявляется через повышение производительности труда и эффективности использования ресурсов, поскольку автоматизация рутинных операций позволяет значительно сократить временные и финансовые затраты, одновременно повышая точность и скорость выполнения задач [2]. Компании, внедряющие технологии ИИ, получают возможность производить больше товаров и услуг при меньших затратах, что напрямую отражается на увеличении валового внутреннего продукта и общей конкурентоспособности экономики. Помимо этого, ИИ играет важную роль в стимулировании инновационных процессов, так как анализ больших данных позволяет разрабатывать новые продукты, оптимизировать существующие технологии и формировать более эффективные бизнес-решения, что в долгосрочной перспективе способствует устойчивому экономическому росту [9]. В рамках теорий эндогенного роста подчеркивается, что технологический прогресс является основным двигателем развития экономики, и в этом контексте искусственный интеллект ускоряет накопление и распространение знаний, усиливая тем самым темпы экономического развития на глобальном уровне [3].

Трансформация отраслей и бизнес-моделей

Одним из наиболее значимых последствий внедрения искусственного интеллекта является глубокая трансформация отраслевой структуры экономики, поскольку ИИ изменяет не только отдельные производственные процессы, но и принципы организации бизнеса в целом [8]. В промышленности активно развиваются интеллектуальные производственные системы, которые способны самостоятельно адаптироваться к изменениям спроса и оптимизировать производственные циклы в реальном времени, в финансовом секторе ИИ используется для анализа рисков, автоматического выявления мошеннических операций и поддержки инвестиционных решений, а в здравоохранении он помогает в диагностике заболеваний и разработке персонализированных методов лечения [4]. На уровне бизнес-моделей наблюдается переход к управлению на основе данных, при котором решения

принимаются не интуитивно, а на основе анализа больших массивов информации, что делает процессы более точными и предсказуемыми.

Рынок труда и занятость

Воздействие искусственного интеллекта на рынок труда носит сложный и неоднозначный характер, поскольку, с одной стороны, автоматизация приводит к сокращению рабочих мест, связанных с выполнением повторяющихся и стандартизированных операций, а с другой стороны, создает новые профессии, требующие высокой квалификации в области анализа данных, разработки алгоритмов и управления цифровыми системами [5]. Это приводит к необходимости адаптации трудовых ресурсов к новым условиям, что делает вопросы образования, переподготовки и непрерывного обучения особенно актуальными, поскольку только за счет развития человеческого капитала можно смягчить негативные последствия технологических изменений и обеспечить эффективную интеграцию работников в цифровую экономику.

Неравенство и государственная политика

Несмотря на значительные преимущества, связанные с повышением эффективности экономики, внедрение искусственного интеллекта может усиливать социально-экономическое неравенство, поскольку его преимущества распределяются неравномерно между странами, компаниями и отдельными группами населения [6]. Более развитые экономики и технологически продвинутые компании получают значительное конкурентное преимущество, тогда как менее развитые регионы рискуют оказаться в положении догоняющих, что усиливает глобальный технологический разрыв. Внутри обществ также наблюдается рост неравенства доходов, так как высококвалифицированные специалисты получают значительную выгоду от внедрения ИИ, тогда как работники с низким уровнем квалификации сталкиваются с риском потери рабочих мест [7].

Искусственный интеллект оказывает фундаментальное влияние на развитие мировой экономики, поскольку он одновременно повышает производительность, стимулирует инновации и трансформирует отраслевую и организационную структуру экономических систем, однако его воздействие не является однозначно положительным, так как оно сопровождается рядом серьезных вызовов, связанных с изменением рынка труда, ростом неравенства и необходимостью регулирования новых технологических процессов. В конечном итоге эффективность использования искусственного интеллекта зависит от того, насколько успешно государства, компании и общество смогут адаптироваться к происходящим изменениям, развивая человеческий капитал, совершенствуя институциональные механизмы и обеспечивая сбалансированное сочетание технологического прогресса и социальной устойчивости.

Список литературы:

1. Барбер Э. (1989). План создания зеленой экономики. Публикации Earthscan.
2. Пирс Д., Маркандья А. и Барбье Э. (1990). Устойчивое развитие: экономика и окружающая среда в странах Третьего мира. Эдвард Элгар.
3. Штайнер А. (2012). Зеленая экономика и устойчивое развитие: возвращение социального аспекта. Доклад ПРООН.
4. Всемирный банк. (2023). Ежегодный доклад об изменении климата за 2023 год. Вашингтон, Округ Колумбия.
5. Организация Объединенных Наций. (2015). Преобразование нашего мира: Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года.
1. Khabibullaevich, E. K. (2023). Ways To Solve Modern Problems of Economic Education in Institutes. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 76-79.
2. Khabibullaevich, E. K. (2023, December). Audit Of Innovative Activity in Enterprises Based on International Standards. In E Conference Zone (Pp. 61-65).
3. Khabibullaevich, E. K. (2023). Audit Of Financial Activities Based on International Standards. Conferencea, 151-155.
4. Мухтарова Е. Л., Щербаков В.Д. Информационные технологии. Т-2007, с.256.
5. Левкович А. О. Формирование рынка информационных услуг. Издательство: "Издательство деловой и учебной литературы", 2005. - с. 335.
6. Ergashev Kh.Kh. Theoretical and methodological foundations for the use of innovative technologies in the context of teaching economics. World Bulletin of Management and Law (WBML). Volume 16, 2022. -p.203. https://www.scholarexpress.net
7. Ergashev Kh.Kh. Teaching Methodology Ensuring the Coherence of Economic Sciences. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Volume 14, 2022. -p.16. https://www.scholarexpress.net
8. Aksenova O. V. Methods of teaching economics - K.: KNEU, 2018. - p.280.
9. Aksenova O.V. Structural and logical diagrams of the course "Scientific organization and regulation of labor in industry". -- K.: KINH, 2014. -p.144.

ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS

Ибрагимов Мансур Мардонович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти и.ф.н., доцент. почта:
mansur.ibragimov.63@mail.ru

Abstract. In the contemporary business environment, the effective management of fixed assets is paramount for organizational efficiency and financial integrity. This essay will delve into the organization of such an audit,

exploring the methodologies, best practices, and regulatory frameworks that underpin the auditing process.

Keywords: Steps Involved in Conducting an Audit of Fixed Asset Movements, Key International Financial Reporting Standards (IFRS)

Introduction

Fixed assets represent a significant component of an organization's financial framework, as they encompass long-term tangible and intangible resources that are crucial for operational efficiency and revenue generation. Their accurate valuation and presentation in financial reporting are essential because they provide stakeholders with insights into the organization's asset management, financial health, and sustainability. The transition from a cash basis of accounting to an accrual basis, as indicated in the governments public financial management Reform Program, highlights the importance of adhering to International Public Sector Accounting Standards (IPSAS) for the enhancement of financial information quality (Crnomarkovic et al., 2017). Furthermore, the decisions surrounding accounting policies related to fixed assets affect not only the balance sheet but also key financial ratios and stakeholder perceptions, thus underlining the need for rigorous financial accounting practices (Daniela Iov et al.). This emphasizes that meticulous audit organization is fundamental in ensuring compliance with these standards.

I. International Standards for Fixed Asset Auditing

The implementation of International Standards for Fixed Asset Auditing plays a critical role in enhancing the credibility and transparency of financial statements within organizations. These standards provide a structured framework that ensures the accurate recording and valuation of fixed assets, fostering better decision-making and the efficient allocation of resources. As noted in recent reforms, transitioning public sector financial reporting from a cash basis to an accrual basis aligned with International Public Sector Accounting Standards (IPSAS) promotes improved fiscal performance and accountability. Such developments signify a broad acknowledgment of the necessity for stringent auditing processes that reflect the complexities associated with fixed asset management. By adhering to these international standards, organizations not only comply with regulatory requirements but also enhance stakeholder trust through reliable financial reporting, which is essential for sustained economic development and operational success Key International Financial Reporting Standards (IFRS) Related to Fixed Assets

The International Financial Reporting Standards (IFRS) provide a comprehensive framework guiding the accounting treatment of fixed assets, which plays a crucial role in an organization's financial statements. Key standards such as IFRS 16 on leases and IAS 16 on property, plant, and equipment emphasize the importance of recognizing and measuring fixed assets accurately to reflect their true economic value. Compliance with these standards not only enhances transparency but also bolsters stakeholders' trust in financial reporting. Research indicates a significant positive correlation between the competence of audit committees and compliance with IFRS stipulations, affirming the necessity of skilled oversight in asset management (Boolaky et al., 2019)). Moreover, the

gradual shift from cash-based to accrual accounting under public financial management reforms, as highlighted in fiscal policies globally, signifies a growing commitment to align public sector accounting with IFRS, thereby improving decision-making processes.

II. Methodology for Auditing the Movement of Fixed Assets

The methodology for auditing the movement of fixed assets plays a pivotal role in ensuring compliance with international standards and enhancing the reliability of financial reporting. This process typically involves a systematic review of documentation, verification of physical assets, and evaluation of internal controls related to asset management. A thorough understanding of historical phenomena and cultural influences on accounting practices is essential, as these factors shape the context within which asset movements are recorded and monitored. For instance, comparing methodologies used in diverse accounting environments, such as China, underscores the significance of adapting auditing techniques to reflect unique cultural and economic influences (Barbero et al., 2010). Furthermore, the integration of technology within auditing processes is increasingly vital, as it enhances accuracy and efficiency, thus aligning with global best practices in asset management (Ayhan et al.). Ultimately, a robust auditing methodology not only safeguards organizational assets but also supports transparency and accountability in financial reporting.

Conducting an audit of fixed asset movements is a multifaceted process that begins with establishing a comprehensive understanding of the organization's fixed asset policies and procedures. Auditors must first perform a risk assessment to identify areas susceptible to misstatement, thereby prioritizing their focus. This includes evaluating asset acquisition, disposal, and impairment processes, as these are critical to determining the accuracy of reported asset values. Subsequently, auditors engage in substantive procedures, which may involve physical verification of tangible assets coupled with tracing transactions back to underlying documentation. These steps align with international standards, ensuring that financial reporting remains transparent and accountable (Crnomarkovic et al., 2017). In contexts like South Africa, compliance with established local legal frameworks enhances the effectiveness of audits, providing a reassuring environment for investors and stakeholders (Deneys Reitz Attorneys, 2006). Ultimately, thorough documentation and review processes culminate in a detailed report that reflects the adequacy of fixed asset movement disclosures.

III. Conclusion

In conclusion, the organization of an audit of the movement of fixed assets aligned with international standards is critical for enhancing transparency and accountability in financial reporting. As this essay has explored, the adherence to established accounting principles can significantly mitigate risks associated with misstatements, ensuring that organizations can accurately reflect their asset values. Moreover, integrating cultural, economic, and political considerations into the audit process, as discussed in relation to the evolution of accounting practices, can lead to more robust frameworks that cater to diverse operational contexts. This multifaceted approach not only fosters compliance with international standards but

also strengthens stakeholder confidence in the reported financial information. Ultimately, the ongoing adaptation of auditing practices in response to global developments and local nuances will be essential for maintaining the integrity and effectiveness of fixed asset management systems.

A. Summary of Findings and Implications for Future Audits of Fixed Assets

The findings of this study elucidate the critical need for organizations to enhance their audit processes concerning fixed assets. Key insights reveal that discrepancies in asset management often stem from inadequate tracking systems and insufficient internal controls. These elements not only hinder accurate financial reporting but also expose organizations to increased risk of asset misappropriation. Consequently, the implications for future audits underscore the necessity for adopting rigorous methodologies that align with international standards. Implementing advanced technology, such as automated tracking and blockchain systems, can significantly improve transparency and accuracy in asset movements. Furthermore, ongoing training for auditing personnel is essential to ensure compliance with evolving standards. By adopting these strategies, organizations can enhance their fixed asset audits, thereby bolster financial integrity and optimize resource management, ultimately paving the way for sustainable organizational growth and reliability in financial statements.

LITERATURE REVIEW

1. Boolaky, Pran, Tawiah, Vincent (2019). “Determinants of IFRS compliance in Africa: analysis of stakeholder attributes”. ’Emerald’.

2. IMPORTANCE OF AUDIT OF FIXED ASSETS IN THE PRODUCTION COMPANIES K Urazov, S Kipchakova, S Rakhmatova Студенческий вестник, 90-92

3. AUDITING INSPECTIONS AND AUDIT EVALUATION PROBLEMS IN THE BUSINESS SUBJECTS UK Bakhramovich, BB Farkhodovich, AJ Axmad ug‘li - … В ЭКОНОМИКЕ JOURNAL OF INNOVATION IN 66

4. Crnomarkovic, Aleksandar, Fuchs, Sandro, Ganguli, Ranjan, Grafl, et al. (2017). "Serbia - public sector accounting review: report on the enhancement of public sector financial reporting". World Bank Group.

5. Crnomarkovic, Aleksandar, Fuchs, Sandro, Ganguli, Ranjan, Grafl, et al. (2017). "Serbia - public sector accounting review: report on the enhancement of public sector financial reporting". World Bank Group.

6. Daniela Iov, Valia Mihai. "THE ACCOUNTING OF THE ECONOMIC ENTITIES, BETWEEN RIGOURS AND OPTIONS".

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Avazova Charos Murot qizi
“Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasi assistant stajori
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda inson kapitalining nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Xizmatlar iqtisodiyotining jadal rivojlanishi sharoitida inson kapitali korxona va tashkilotlarning raqobatbardoshligini ta’minlovchi, xizmatlar sifati va samaradorligini oshiruvchi asosiy strategik omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasida inson apitalining kasbiy bilim, malaka, innovatsion salohiyat, raqamli kompetensiya va kommunikativ qobiliyatlar orqali namoyon bo‘lish xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar iqtisodiyoti, inson resurslari, kasbiy kompetensiya, mehnat salohiyati, malaka oshirish, uzluksiz ta’lim, raqamli kompetensiya, innovatsion rivojlanish, xizmatlar sifati, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы и современные направления развития человеческого капитала в контексте развития сектора услуг. В условиях стремительного развития экономики услуг человеческий капитал становится одним из главных стратегических факторов, обеспечивающих конкурентоспособность предприятий и организаций, повышая качество и эффективность предоставляемых услуг. Также освещаются особенности человеческого капитала в секторе услуг через призму профессиональных знаний, навыков, инновационного потенциала, цифровой компетентности и коммуникативных способностей.

Ключевые слова: экономика услуг, человеческие ресурсы, профессиональная компетентность, трудовой потенциал, повышение квалификации, непрерывное образование, цифровая компетентность, инновационное развитие, качество услуг, конкурентоспособность.

Abstract. This article examines the theoretical foundations and current trends in human capital development in the context of the service sector. In the context of the rapidly developing service economy, human capital is becoming one of the key strategic factors ensuring the competitiveness of enterprises and organizations, improving the quality and efficiency of services provided. It also highlights the characteristics of human capital in the service sector through the lens of professional knowledge, skills, innovative potential, digital competence, and communication skills.

Keywords: service economy, human resources, professional competence, labor potential, advanced training, continuous education, digital competence, innovative development, service quality, competitiveness.

Kirish. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari shuni koʻrsatmoqdaki, xizmat koʻrsatish sohasi iqtisodiy oʻsishni taʼminlovchi, aholi bandligini oshiruvchi va mamlakatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy tarmoqlardan biriga aylanib bormoqda. Xizmatlar sektorining oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, unda moddiy resurslardan koʻra inson omili, yaʼni xodimlarning bilim darajasi, kasbiy malakasi, tajribasi va innovatsion qobiliyatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyot sharoitida inson kapitali xizmat koʻrsatish sohasining barqaror rivojlanishini taʼminlovchi strategik resurs sifatida namoyon boʻlmoqda. Oʻzbekistonda ham xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish, inson kapitali sifatini oshirish va zamonaviy bilim hamda koʻnikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonida inson kapitalini rivojlantirish, taʼlim sifatini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos kadrlar tayyorlash hamda iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori malakali mutaxassislar salohiyatidan samarali foydalanish vazifalari belgilangan[57].

Shuningdek, xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, yangi xizmat turlarini rivojlantirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish masalalari Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlarning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ–104-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarorida xizmatlar sohasini kengaytirish, tadbirkorlik subyektlarini qoʻllab-quvvatlash, zamonaviy xizmat turlarini joriy etish hamda sohada band boʻlgan aholining daromadlarini oshirish boʻyicha muhim vazifalar belgilangan[58]. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish esa, avvalo, malakali va raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishni talab etadi.

Hozirgi raqamli transformatsiya sharoitida xizmat koʻrsatish sohasida inson kapitaliga qoʻyiladigan talablar ham tubdan oʻzgarib bormoqda. Endilikda xodimlardan nafaqat anʼanaviy kasbiy bilim va tajriba, balki raqamli texnologiyalardan foydalanish koʻnikmalari, mijozlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati, innovatsion fikrlash va tez oʻzgaruvchan bozor talablariga moslashuvchanlik talab qilinmoqda. Shu jihatdan inson kapitalini rivojlantirish jarayoni uzluksiz taʼlim, kasbiy qayta tayyorlash va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish tizimi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Asosiy qism. Xizmat koʻrsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi boʻlib, uning rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiy salohiyati, aholi bandligi va turmush sifatini belgilovchi asosiy koʻrsatkichlardan biri hisoblanadi. Dastlab xizmatlar sohasi iqtisodiyotda yordamchi yoʻnalish sifatida qaralgan boʻlsa, bugungi kunga kelib u mustaqil va yuqori qoʻshilgan qiymat

[57] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
[58] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ–104-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarori. – Toshkent, 2022.

yaratadigan strategik tarmoqqa aylandi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, ta’lim, tibbiyot, turizm, transport, logistika va konsalting kabi yo‘nalishlarning jadal rivojlanishi xizmatlar sektorining iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasining o‘ziga xos jihati shundaki, unda ishlab chiqarish jarayoni ko‘pincha inson ishtiroki orqali amalga oshadi. Ya’ni xizmatning sifati nafaqat texnologik vositalar yoki moddiy resurslarga, balki xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning bilim darajasi, tajribasi, muloqot qobiliyati va kasbiy kompetensiyalariga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli xizmatlar iqtisodiyotida inson kapitali asosiy ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida qaraladi(1-jadval).

1-jadval.

Xizmat ko‘rsatish sohasida inson kapitali asosiy tarkibiy elementlari

Inson kapitalining tarkibiy elementi	**Mazmuni**
Ta’lim va bilim salohiyati	Xodimlarning nazariy bilimlari, kasbiy tayyorgarligi va intellektual rivojlanish darajasi
Kasbiy kompetensiya	Muayyan xizmat turini sifatli bajarish uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikma va tajribalar
Innovatsion qobiliyat	Yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, xizmat jarayonlarini takomillashtirish va yangiliklarni joriy etish imkoniyati
Raqamli kompetensiya	Zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyati
Kommunikativ ko‘nikmalar	Mijozlar bilan samarali aloqa o‘rnatish, xizmat madaniyati va muomala sifatlari

Mazkur 1-jadvaldagi tarkibiy elementlarning rivojlanganligi xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunki mijoz tomonidan baholanadigan xizmat sifati ko‘p hollarda xodimning professional yondashuvi, tezkorligi va muomala madaniyati orqali shakllanadi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida inson kapitalini rivojlantirish an’anaviy malaka oshirish jarayonidan kengroq mazmun kasb etmoqda. Endilikda inson kapitalining rivojlanishi xodimlarning yangi bilimlarni egallashi, raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishi, innovatsion fikrlashi va bozor talablariga moslashish qobiliyatini oshirish bilan belgilanmoqda.

Birinchi navbatda, uzluksiz ta’lim va kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish inson kapitalini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchi yo‘nalish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish hisoblanadi.

Uchinchi yo‘nalish, xodimlarning innovatsion salohiyatini oshirishdir.

To‘rtinchi yo‘nalish, inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hisoblanadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va ushbu tarmoq uchun malakali kadrlar tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Xizmatlar hajmining oshishi, yangi xizmat turlarining paydo bo‘lishi va tadbirkorlik faoliyatining kengayishi inson kapitaliga

bo‘lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, turizm, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi yo‘nalishlarda yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa ta’lim tizimini xizmatlar bozorining real ehtiyojlariga moslashtirish, amaliy ko‘nikmalarga asoslangan o‘quv dasturlarini kengaytirish va zamonaviy kasblarga tayyorlash tizimini rivojlantirishni talab etadi.

Xulosa va takliflar. Xizmat ko‘rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlanib borayotgan bir sharoitda ushbu tarmoqning samaradorligi va raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan inson kapitalining sifatiga bog‘liq bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasida inson kapitali nafaqat mehnat resursi sifatida, balki innovatsion rivojlanish, xizmatlar sifatini oshirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi uchun inson kapitalini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki xizmatlar bozorida iste’molchilar talabi tez o‘zgarib borayotganligi sababli xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini muntazam yangilab borish zarur.

Umuman olganda, xizmat ko‘rsatish sohasida inson kapitalini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirishning muhim sharti hisoblanadi. Kelgusida inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni shakllantirish orqali O‘zbekiston xizmat ko‘rsatish sektorining innovatsion va samarali rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ–104-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2023.
4. Mincer J. Investment in Human Capital and Personal Income Distribution. // Journal of Political Economy. – 1958. – Vol. 66, No. 4. – P. 281–302.
5. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 560 b.
6. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. – Toshkent: Universitet, 2020. – 350 b.
7. Yo‘ldoshev N.Q., Zaxidov G.E. Innovatsion menejment. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 280 b.

8. Qosimova M.S., Ergashxo‘jayeva Sh.J. Xizmatlar marketingi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 320 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanish ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2024. https://stat.uz
10. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2024. https://www.mf.uz

MOLIYAVIY HISOBOT KO‘RSATKICHLARI ASOSIDA SOLIQ AUDITI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Suvonov Bekniyoz Baxtiyor o‘g‘li
TIFT, Toshkent, O‘zbekiston Lavozimi: PhD katta o‘qituvchi
ORCID: 0000-0003-4165-2091 Telefon: +998 570-00-18
E-mail: beksuvonov8019@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari asosida soliq auditini risk bo‘yicha ustuvorlashtirish va audit resurslaridan samarali foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Soliq yuklamasi, samarali foyda solig‘i stavkasi, debitorlik va zaxira divergentsiyasi, pul oqimi sifati, tannarx, mehnat haqi va amortizatsiya ko‘rsatkichlari asosida 0–100 oralig‘idagi vaznli audit ustuvorligi indeksi taklif etildi. Shartli approbatsiya indikatorlar kombinatsiyasi yuqori riskli obyektlarni va ularning ichidagi muhim hisob segmentlarini ajratish, past riskli subyektlarga ortiqcha nazorat yukini kamaytirish imkonini ko‘rsatdi. Yondashuv audit samaradorligini “ko‘proq tekshiruv” emas, “aniqroq tanlov va sifatliroq dalil” orqali oshirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: soliq auditi, audit samaradorligi, moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari, riskga yo‘naltirilgan audit, soliq xavfi, tahliliy amallar, ustuvorlik indeksi, audit resurslari.

Kirish. Soliq auditi samaradorligi faqat qo‘shimcha hisoblangan soliq summasi bilan emas, balki yuqori riskli obyektlarni to‘g‘ri tanlash, audit vaqtini muhim segmentlarga jamlash va past riskli soliq to‘lovchilarga ortiqcha nazorat yukini kamaytirish bilan baholanishi lozim. Riskga yo‘naltirilgan yondashuvda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari korxona faoliyatining o‘zaro bog‘langan natijalarini ifodalab, auditor uchun ustuvorlikni belgilovchi analitik axborot vazifasini bajaradi.

OECD soliq ma’muriyatchiligi sharhlarida elektron ma’lumotlar, avtomatik moslashtirish va analitik vositalardan foydalanish compliance risk managementning muhim elementi sifatida ko‘rsatiladi. Shuning uchun audit samaradorligini oshirishning asosiy yo‘li tekshiriladigan hujjatlar hajmini mexanik ko‘paytirish emas, balki risk ehtimoli va kutilayotgan ta’siri yuqori bo‘lgan hisob segmentlariga resurslarni yo‘naltirishdir.

Adabiyotlar sharhi va tadqiqot usullari

ISA 315 risklarni aniqlash va baholashni auditorlik dalillarini maqsadli yig‘ishning poydevori sifatida belgilaydi. Soliq tadqiqotlarida book-tax differences, samarali soliq stavkalari va moliyaviy hisobotdagi noodatiy nisbatlar korporativ soliq xatti-harakatlarini tushunishda muhim signal sifatida qaraladi. Beneish va Dechow tadqiqotlari ham bir nechta moliyaviy indikatorlarni kombinatsiyalash riskni aniqlash imkoniyatini kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, koeffitsiyentlar tahlili, ekspert vaznlash va shartli approbatsiya qo‘llanildi. Sakkiz indikator 0–3 ballik shkala bo‘yicha baholandi: 0 — normal, 1 — kuzatuv, 2 — o‘rta risk, 3 — yuqori risk. Umumiy ustuvorlik indeksi $U = \Sigma(wi \times si/3) \times 100$ formula bilan hisoblanadi; bunda wi — indikator vazni, si — risk balli. Indeks soliq buzilishini isbotlamaydi, balki audit obyektlari va amallarini ustuvorlashtiradi.

1-jadval.

Soliq auditining analitik ustuvorlik indeksida indikatorlar vazni

Indikator	Vazn	Risk mazmuni
Soliq yuklamasi	15%	Jami soliqlar/tushum dinamikasi; tarmoqdan keskin pastlash
Samarali foyda solig‘i stavkasi	15%	Joriy foyda solig‘i/soliqdan oldingi foyda; izohlanmagan pasayish
Debitorlik divergentsiyasi	15%	Debitorlik o‘sishi tushum o‘sishidan sezilarli yuqori
Zaxira divergentsiyasi	10%	Zaxira o‘sishi sotuv/tannarx dinamikasiga mos emas
Pul oqimi sifati	15%	Operatsion pul oqimi/sof foyda uzoq muddat past
Tannarx sig‘imi	10%	Tannarx/tushum keskin oshishi
Mehnatga haq to‘lash sig‘imi	10%	Payroll/tushum va xodimlar soni o‘rtasida nomuvofiqlik
Amortizatsiya intensivligi	10%	Amortizatsiya/o‘rtacha asosiy vositalarda g‘ayrioddiy o‘zgarish

Vaznlar indikatorning soliq bazalariga ta’siri va moliyaviy hisobotdagi riskni aks ettirish qobiliyatiga qarab belgilandi. Soliq yuklamasi, ETR, debitorlik divergentsiyasi va pul oqimi sifati yuqori vazn oldi. Biroq risk balli faqat og‘ish miqdoriga emas, uning iqtisodiy izohi, tarmoq xususiyati va qo‘shimcha ma’lumotlar bilan tasdiqlanishiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Shartli approbatsiya va audit obyektlarini tanlash

Taklif etilgan yondashuvning ishlash mantig‘ini ko‘rsatish uchun beshta shartli korxona bo‘yicha 0–3 ballik baholash amalga oshirildi. Ma’lumotlar real korxonalarga tegishli emas va faqat hisoblash mexanizmini namoyish etish maqsadida tuzilgan.

Shartli approbatsiyada A va E korxonalari juda yuqori, C korxonasi yuqori, B korxonasi o‘rtacha, D korxonasi past audit ustuvorligiga ega bo‘ldi. Natija yiriklik va risk bir tushuncha emasligini ko‘rsatadi: katta aylanmali korxona barqaror nisbatlar tufayli past riskli, kichikroq subyekt esa bir nechta kuchli signallar sababli yuqori ustuvorlikka ega bo‘lishi mumkin. Shu indeks obyekt tanlash bilan birga har bir korxona uchun alohida audit dasturini shakllantirishga xizmat qiladi.

2-jadval.

Shartli korxonalar bo‘yicha audit ustuvorligi

Korxona	SY	ETR	DAR	DINV	QCF	Kc	Kpay	Kdep	Indeks	Ustuvorlik
A korxona	3	3	3	2	3	2	1	2	82,5	Juda yuqori
B korxona	1	2	1	1	2	1	1	1	45,0	O‘rtacha
C korxona	2	1	3	3	2	2	1	1	62,5	Yuqori
D korxona	0	1	0	1	0	1	1	0	17,5	Past
E korxona	2	2	2	1	3	3	2	2	70,0	Juda yuqori

3-jadval.

Soliq auditi samaradorligini ko‘p mezonli baholash

Mezon	Hisoblash mantiqi	Boshqaruv mazmuni
Riskni aniqlash aniqligi	Tasdiqlangan riskli holatlar / tekshirilgan yuqori riskli obyektlar	Tanlash tizimi sifatini baholaydi
Audit vaqti samaradorligi	Muhim audit amallariga sarflangan soat / jami audit soati	Resurslar qanchalik maqsadli sarflanganini ko‘rsatadi
Takroriy hujjat talabi ulushi	Takror so‘ralgan hujjatlar / jami hujjat talablari	Audit jarayonidagi ortiqcha ma’muriy yukni baholaydi
Tuzatishlarning barqarorligi	Nizo qilinmagan yoki kuchda qolgan tuzatishlar / jami tuzatishlar	Audit dalillarining sifati va asoslanganligini ko‘rsatadi
Ixtiyoriy tuzatish effekti	Auditdan oldin tuzatilgan tafovutlar soni va summasi	Profilaktik ta’sirni baholaydi
Audit sikli davomiyligi	Boshlanishdan yakuniy qarorgacha kunlar	Jarayon tezligini o‘lchaydi

Soliq auditi samaradorligini ko‘p mezonli baholash fiskal natijaga bir tomonlama bog‘lanishni kamaytiradi. Audit sifati riskni aniqlash aniqligi, muhim amallarga sarflangan vaqt, takroriy hujjat talablari, tuzatishlarning nizoda saqlanib qolishi va audit sikli davomiyligi kabi KPIlar orqali baholanishi maqsadga muvofiq. Bu auditorlik resurslarini baholangan riskka mos taqsimlash tamoyilini kuchaytiradi.

Muhokama va amaliy joriy etish

Amaliy joriy etishda ma’lumotlar sifati va tarmoq benchmarklari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Moliyaviy hisobot, soliq deklaratsiyasi, elektron hisobvaraq-faktura va bank aylanmalari yagona identifikatorlar orqali bog‘lanishi, indikatorlar esa savdo, sanoat, qurilish va xizmatlar kesimida alohida kalibrlanishi kerak. Bitta universal chegara barcha tarmoqlarga tatbiq etilsa, noto‘g‘ri risk signallari ko‘payishi mumkin.

Auditorning professional mulohazasi tizimda hujjatlashtirilishi zarur: yuqori ball qonuniy iqtisodiy sabab bilan izohlansa “izohlangan risk” statusi beriladi, izohlanmasa substantiv test kengaytiriladi. Auditdan keyingi natijalar esa indikator vaznlari va thresholdlarini qayta kalibrlash uchun ishlatiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi riskni baholash va audit samaradorligi KPIlarini yagona boshqaruv sikliga birlashtiruvchi vaznli ustuvorlik indeksini taklif etishdan iborat.

Xulosa

Moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari soliq auditi samaradorligini uch yo‘nalishda oshiradi: obyektlarni risk bo‘yicha segmentatsiya qiladi, tanlangan obyekt ichida chuqur tekshiriladigan segmentlarni ajratadi va audit natijasida dastlabki risk bahosining qanchalik to‘g‘ri bo‘lganini tekshirish imkonini beradi. Taklif etilgan 0–100 ballik indeks soliq buzilishini isbotlamaydi, biroq audit resurslarini ehtimoli yuqori risklarga yo‘naltiradi. Tizim tarmoq benchmarklari, ma’lumot sifati, professional mulohaza va auditdan keyingi kalibrlash bilan qo‘llansa, “ko‘proq tekshiruv” dan “aniqroq tanlov va sifatliroq dalil”ga o‘tishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. “Soliq xavflarining tahlili”. gov.uz/oz/soliq/activity_page/soliq-xavflarining-tahlili.

2. OECD. (2025). Tax Administration 2025: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies. OECD Publishing.

3. IAASB. (2019). ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement.

4. IAASB. (2026). Proposed Revisions to ISA 330, ISA 500 and ISA 520: Audit Evidence and Risk Response Exposure Drafts.

5. Mills, L.F. (1998). Book-Tax Differences and Internal Revenue Service Adjustments. Journal of Accounting Research, 36(2), 343–356.

6. Hanlon, M., & Heitzman, S. (2010). A Review of Tax Research. Journal of Accounting and Economics, 50(2–3), 127–178.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЁТА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗАТРАТ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Узоков Мухибилло Журабоевич, старший преподаватель, Наманганский государственный технический университет
тел: +998941542787, E-mail: uzokovmukhibillo@gmail.com
Дехканалиева Эъзоза, студентка 3 курса, Наманганский государственный технический университет
тел:998905111808, E-mail: ezozadehkanaliyeva52@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются состояние и совершенствование механизмов учета экологических затрат на промышленных предприятиях Узбекистана. Выявлены ключевые недостатки современной бухгалтерской и финансовой отчетности в сфере природопользования и предложены пути их преодоления за счет интеграции стоимостных показателей в систему финансового учета. В исследовании дано авторское определение экологического учета, разработаны методические принципы его построения (включая системность, комплексность и объективность), а также определены этапы среднесрочного и долгосрочного планирования природоохранных инвестиций в структуре производственного цикла предприятий реального сектора экономики.

Ключевые слова: экологический учет, экологический аудит, экологические затраты, промышленные предприятия, природопользование, устойчивое развитие, цифровая экономики, методические принципы учета.

Республика Узбекистан, с момента обретения независимости, в соответствии со структурными преобразованиями осуществляет определенные шаги по совершенствованию и развитию организационной структуры управления качеством окружающей среды и природопользованием. В условиях цифровизации экономики решение проблем охраны окружающей среды и связанных с ними вопросов рационального использования и воспроизводства природных ресурсов стало важнейшей государственной задачей. Современная экологическая политика нашей страны направлена на осуществление перехода от защиты отдельных элементов природы к всеобщей защите экосистемы, обеспечению гарантированных и качественных параметров среды обитания человека. Важнейшей задачей экологической политики Республики Узбекистан является достижение существенного улучшения качества окружающей среды на территориях с повышенной степенью риска для здоровья человека и стабильности экосистем.

Интеграция Узбекистана в систему международной экологической безопасности, усиление требований законодательства в области охраны окружающей среды и рационального природопользования выдвигают на первый план задачу развития нового направления в аудиторской деятельности –экологического аудита, который становится одним из основных инструментов обеспечения устойчивого экономического развития страны. Экологический аудит, являясь инструментом повышения инвестиционной привлекательности и эффективности как предприятий, так и всего реального сектора экономики, по мнению специалистов, позволит решать государственные задачи в области экологической безопасности страны. В условиях либерализации экономики все сильнее ощущается необходимость решения экологических проблем на национальном уровне.

Исследованиям по отдельным аспектам экологического обобщения, учёта и аудита информации об экономико-экологических процессах и их влиянию на результативные показатели деятельности организации посвящены работы таких ученых-экономистов как: А. Думнов, С.И. Потравный, С.В. Макаров, К.С. Саенко, Г.П. Серов, Л.В. Сотникова, А.Д. Шеремет, В.П. Суйц и др. Недоучёт экологических особенностей промышленного предприятия в скором будущем отрицательным образом скажется на решении задач управления предприятием и сохранения здоровья нации в целом. Это определяет актуальность исследования учета аудита экологических процессов в промышленных предприятиях. Особого внимания заслуживают работы наших отечественных экономистов-Т.Ж. Жумаева, К.Н.Абиркулова, А. А. Рафикова, и С.К.Махмудова. Вместе с тем, существующая система учета информации о природоохранной деятельности резко отстает от потребности в ней, что значительно тормозит

дальнейшее совершенствование действующего механизма природопользования.

В условиях цифровизации экономики рациональное природопользование – это гарант обеспечения будущих потребностей общества за счет комплексного экономически эффективного использования природных ресурсов с обязательным соблюдением требований по охране окружающей среды. Среди многочисленных проблем социально-экономического развития государства особую актуальность приобрела проблема сохранения благоприятной окружающей среды природно-ресурсного потенциала в целях удовлетворения потребностей нынеживущего и будущих поколений людей. Чрезвычайно вредным для экологической и экономической безопасности Узбекистана является сохранение тенденций техногенного и природоемкого развития, перспектива которого видится в удорожании валового национального продукта из-за дополнительных экологических затрат. Из общего объема выбросов в атмосферу от стационарных источников на топливно-энергетический комплекс приходится-34%, нефтегазодобывающую и перерабатывающую промышленности –34%, цветную металлургию-15%, строительную индустрию–4%, химическую промышленность-2% и на прочие сферы-11%.

В условиях цифровизации экономики состав отчетности организаций по экологическим показателям ограничивается, в основном, статистическими формами и зависит от отраслевой принадлежности и специфики деятельности субъектов хозяйствования. Как показало исследование, общей особенностью статистических отчетных форм является чрезвычайная перегруженность отдельных таблиц информацией в натуральных измерителях и крайне ограниченная область применения стоимостных. В результате анализа таких данных возможность их использования для оптимизации управления финансовыми, материальными и инвестиционными потоками на предприятии крайне низка. На наш взгляд, недостаточно четко прослеживается информационно-логическая связь приводимых показателей с данными финансовой отчетности.

Основные стратегические направления совершенствования информационной базы учета экологических затрат на промышленных предприятиях (рис. 1).

С нашей точки зрения, **экологический учет** –это процесс сбора, регистрации, обобщения и отражения информации о природоохранных затратах и результатах деятельности хозяйствующих субъектов с целью управления и определения их совокупного потенциала. Усовершенствование данного понятия мы предлагаем в части установления экологических составляющих аналитических счетов, субсчетов, характеризующих природоохранные мероприятия, технологии, применяемые в деятельности организаций. Методические принципы построения бухгалтерского экологического учета являются: системность, комплексность, объективность, сопоставимость, действенность, регулярность, экономичность.



Рисунок 1. Основные стратегические направления совершенствования информационной базы экологического учета

По нашему мнению, исследование по организацию и введению учета, анализа и аудита экологических затрат должно производиться в рамках процесса планирования деятельности хозяйствующего субъекта, касающейся охраны окружающей среды и базироваться на следующих этапах:

- ✓ постановка экологических и экономических целей (с указанием во внутренних рабочих нормативных документах, например в экологической политике, к чему стремится предприятие в своей деятельности);
- ✓ определение исходных (базовых) параметров производственного цикла (на каком уровне развития находится предприятие);
- ✓ определение роли (места) капитальных вложений (или реальных инвестиций) экологической направленности в долгосрочной программе технического и технологического перевооружения, их

соответствие предназначенности предприятия и концепции его стратегического развития;

- ✓ адаптация технико-экономического обоснования природоохранных мероприятий к структуре и особенностям производственного цикла предприятия (проверка их на непротиворечивость общей политике предприятия);
- ✓ выбор оптимального варианта реализации экологической политики предприятия.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «Об экологическом аудите» № ЗРУ-712 от 15 марта 2021 года.
2. Закон Республики Узбекистан «Об охране природы» № 754-XII от 9 декабря 1992 года (с изменениями и дополнениями).
3. Жумаев Т. Ж. Совершенствование системы управленческого анализа и учета на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Ташкент: Экономика, 2019. — 240 с.
4. Макаров С. В., Потравный И. М. Экологический аудит: функции, методы, организация // Бухгалтерский учет. — 2015. — № 8. — С. 61–67.
5. Махмудов С. К. Экологический учет и аудит в системе устойчивого развития реального сектора экономики // Экономика и образование. — Ташкент, 2022. — № 3. — С. 115–121.
6. Рафиков А. А. Геоэкологические проблемы Республики Узбекистан. — Ташкент: Изд-во «Укитувчи», 2014. — 168 с.
7. Шеремет А. Д., Суйц В. П. Аудит: учебник для вузов. — 7-е изд., перераб. и доп. — Москва: ИНФРА-М, 2020. — 375 с.
8. Environmental Management Accounting (EMA) / International Federation of Accountants (IFAC). — New York: IFAC, 2005

KO‘CHMAS MULKKA KAPITAL INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Urazov Komil Baxramovich
“Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori
Esanov Oybek Madatovich
“Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi v.b. dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarda ko‘chmas mulk ob’ektlariga kapital investsiyalar, ularning turlari va ularning mazmuni hamda ko‘chmas mulk ob’ektlarini qurish, modernizatsiyalash, renovatsiyalash, rekonstruksiyalash, kengaytirish va kapital ta’mirlashga kapital investitsiyalar hisobi uchun mo‘ljallangan schyotlar tizimiga kiritilishi bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. ko‘chmas mulk, kapital qo‘yilmalar, kapital investitsiyalar, asosiy vositalar, oborotdan tashqari aktivlarga qo‘yilmalar, ichki nazorat, moliyaviy hisobot.

KIRISH

Respublikamizda “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida ishlab chiqilgan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida korxonalarning moddiy-texnika bazasini tubdan yaxshilash, yangi zamonaviy ko‘chmas mulk obyektlarini barpo etish va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, kengaytirish, raqamlashtirish hamda yashillashtirish muhim vazifalar sifatida belgilangan.

Mazkur vazifalar ijrosi doirasida respublikamiz iqtisodiyotining turli tarmoqlariga katta hajmdagi kapital investitsiyalar yo‘naltirilmoqda. Statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar–sentyabr oylarida qurilish sohasiga kiritilgan kapital investitsiyalar tarkibida bino va inshootlar qurilishiga 154,7 trln so‘m, fuqarolik obyektlariga 46,7 trln so‘m hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga 23,2 trln so‘m investitsiya yo‘naltirilgan. Jami 224,6 trln so‘mlik investitsiyalarning 68,9 foizi bino va inshootlar qurilishiga to‘g‘ri kelib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 foizga oshgan.

Makon va zamonda turli maqsadlarga mo‘ljallangan ko‘chmas mulk ob’ektlariga keng ko‘lamda va katta hajmda amalga oshirilayotgan kapital investitsiyalar ular to‘g‘risidagi atroflicha va ishonchli axborotlarga tashqi va ichki investorlar, mulk egalari, ta’sischilar va davlat boshqaruv organlari talablarini borgan sari oshib borishiga olib kelmoqda. Bu, o‘z navbatida, har bir korxona oldiga ular tomonidan ko‘chmas mulk ob’ektlarini shakllantirish va mukammallashtirishga yo‘naltirilayotgan kapital investitsiyalarni halqaro norma va standartlar talablariga mos ravishda hisob va hisobotda aks ettirishdek muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Binobarin, bugungi kunda korxonalarda ko‘chmas mulk ob’ektlariga yo‘naltirilgan kapital investitsiyalarni to‘g‘ri hujjatlashtirish va hisobga olish, qilingan kapital sarflarni tegishli ob’ektlar boshlang‘ich qiymatiga real kiritish, kapital mablag‘larni to‘g‘ri taqsimlash, maqsadli sarflash, ular samaradorligini baholash nafaqat amaliyotchilar oldida, balki buxgalteriya hisobi fani oldida ko‘ndalang bo‘lib turgan eng dolzarb masalalardir.

TADQIQOT VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda ko‘chmas mulkka kapital investitsiyalar hisobini takomillashtirishning muhim jihatlarini o‘rganishda tahliliy-sintetik, taqqoslash va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tahliliy-sintetik usul orqali kapital investitsiyalar hisobi o‘rganildi, taqqoslash usuli yordamida milliy va xalqaro standartlar qiyoslandi. Statistik tahlil asosida ko‘chmas mulkka kapital investitsiyalarning tarkibi, dinamikasi va ko‘chmas mulk ob’ektlariga kapital investsiyalarning turlari va ularning mazmuni ochib berildi.

TAHLILIY QISM

Biz respublikamizda amalda bo‘lgan 21-son BHMS “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni

qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”da [59] nazarda tutilgan schyotlarning tarkibi, nomlanishi, qamrovi va boshqa jihatlari tahlili asosida ularning korxonalar ko‘chmas mulkiga kiritilgan investitsiyalar to‘g‘risida atroflicha va tizimli axborotlarni berish qobiliyatini tadqiq etdik. Tadqiqotlarimiz bu borada qator o‘z yechimini kutayotgan muammolar borligini ko‘rsatdi. Ularning asosiylari quyidagilarni kiritish mumkin.

Birinchidan. Amaldagi 21-BHMSda buxgalteriya hisobining muhim ob’ekti hisoblangan “kapital quyilmalar” nomlanishi, ta’rifi, tarkibi bo‘yicha bugungi kunda korxonalar ko‘char va ko‘chmas mulk ob’ektlariga kiritilgan mablag‘larni ilmiy asosda tavsiflamaydi. Chunonchi, 21-BHMSda va boshqa manbalarda [60] korxonalar ko‘char va ko‘chmas mulk ob’ektlariga kiritilayotgan mablag‘lar turlicha nomlarda, jumladan “kapital investitsiyalar”, “kapital qo‘yilmalar”, “oborotdan tashqari aktivlarga qo‘yilmalar” kabi nomlar bilan atalib kelinmoqda. Ushbu nomdagi atamalar zamirida bir xil mazmun, ya’ni korxona ko‘chmas mulklarini qurish, sotib olish va shakllantirishga qilingan kapital sarflar yotadi. Kapital sarflar tarkibi ko‘chmas mulklar, tabiiy resurslar va nomoddiy aktivlarni sotib olish qurish va shakllantirishdan tashqari ko‘chmas mulklarni o‘sishi va ularni yaxshilanishiga (yangilash, kengaytirish, rekonstruksiyalashga) sarflanadigan harajatlarning barchasini ham o‘z ichiga oladi. Oxirgi yillarda ko‘chmas mulk ob’ektlarini renovatsiyalash amaliyotga juda tez kirib kelmoqda va u ko‘chmas mulkni yaxshilanishiga qilinayotgan kapital sarflarning muhim turi sifatida tan olinmoqda.

Yuqoridagilarning barchasi bugungi kungacha aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda asosiy vositalar va nomoddiyni qurish, harid qilish bilan bog‘liq harajatlar sifatida qaralib kelinayotgan kapital sarflarning nomlanishi, ta’rifi, tarkibiy qismlarini qayta ko‘rib chiqishni ta’qoza etmoqda. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobinint 21-sonli standartida kapital qo‘yilmalarga berilgan quyidagicha ta’rif - “kapital qo‘yilmalar - korxonaning asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga investitsiyalari, shuningdek mahsuldor va ishchi hayvonlarning asosiy podasini tashkil qilish bo‘yicha harajatlardir[61]” ham nomlanishi, ham tarkibiga ko‘ra bugungi kunda keng ko‘lamda va tarkibda amalga oshirilayotgan kapital sarflarning mazmuniga to‘liq mos kelmaydi.

Biz “kapital qo‘yilmalar” atamasi o‘niga Prezidentimiz tomonidan ta’kidlangan “iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi” sifatida e’tirof etilgan “kapital investitsiyalar” [62] atamasini qo‘llash maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Shunga asosan 21-son BHMSda “kapital investitsiyalar” ta’rifini quyidagicha berishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz: “kapital investitsiyalar – bu ko‘char va ko‘chmas mulk ob’ektlarini qurish, harid qilish,

---

[59] O‘z.R. Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 23 oktyabrda ro‘yxatga olingan, № 1181.

[60] Urazov K.B., Пўrenovatioов M.Э. hisobini ҳисоби. Darslik. – T.: A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma.–T.: “Moliya”. 2008.–465 b.; D.K. Kudbiyev. Совершенствования бухгалтерского учета основных средств. Монография, Фергана “Classic”-2022 г, 159 стр.

[61] O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobининг milliy standarti (21-son BHMS) “Xo‘jalik yurituvchi subektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati Buxgalteriya ҳисоби schyotlari rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 09.09.2002 yildagi 103-sonli burug‘i.

[62] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi, 2018 yil, 29 dekabr

yaratish, parvarishlash, shakllantirish, shuningdek ularni yaxshilanishi (obodonlashtirish, modernizatsiyalash, kengaytirish, rekonstruksiyalash, renovatsiyalash, kapital ta’mirlash) bilan bog‘liq sarflar”.

Shuningdek, 21-son BHMSga korxonalar ko‘chmas mulk ob’ektlariga kiritiladigan kapital investitsiyalarga quyidagicha ta’riflarni berishni tavsiya qilamiz (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Ko‘chmas mulk ob’ektlariga kapital investsiyalarning turlari va ularning mazmuni (tavsiya)[63]

№	Ko‘chmas mulk ob’ektlariga kapital investitsiyaning turi	Ko‘chmas mulk ob’ektlariga kapital investitsiya turining mazmuni
1.	Ko‘chmas mulk ob’ektini qurish	yangi bino va inshoatlarni yaratilishi bilan bog‘liq jarayonlar (loyihalashtirish, qurishga tayyorgarlik, ta’minot, qurish, foydalanishga topshirish kabi jarayonlar) majmuasi
2.	Ko‘chmas mulk ob’ektini harid qilish (sotib olish)	Tayyor bino va inshoatlarni sotuvchilardan shartnomalar asosida sotib olish
3.	Ko‘chmas mulk ob’ektini rekonstruksiya qilish	korxonaning harakatdagi asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi ob’ektlarini dastlabki xolatini kengaytirmasdan qayta o‘zgartirib chiqish
4.	Ko‘chmas mulk ob’ektini modernizatsiya qilish (yangilash)	korxonaning harakatdagi asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi ob’ektlarini, texnika va texnologik liniyalarini eng zamonaviy ilmiy va texnik yutuqlar asosida yangilash hamda almashtirish
5.	Ko‘chmas mulk ob’ektini kengaytirish	korxonaning harakatdagi bino va inshoatlariga qo‘shimcha ishlab chiqarish ob’ektlarini qurish, asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi sexlarning maydonchalarini ishlab chiqarish quvvatini oshirish maqsadida kengaytirish bilan bog‘liq ishlar
6.	Ko‘chmas mulk ob’ektini shakllantirish	Ko‘p yillik o‘simliklarni, yashil maydonlarni ekish va hosilga kirgunga qadar parvarishlash
7.	Ko‘chmas mulk ob’ektini renovatsiya qilish	korxonalarning turli maqsad va yo‘nalishlarda (o‘zi tomonidan foydalanish, investitsiya sifatida kiritish, ijaraga berish va sotish uchun) qo‘llashga mo‘ljallangan ko‘chmas mulk ob’ektlarini zamonaviy shaharsozlik arxitekturasi talablaridan kelib chiqib tashqi ko‘rinishi, jozibadorligi, estetikasini tubdan yaxshilash, restavratsiyalash va kapital ta’mirlash jarayoni.
8.	Ko‘chmas mulk ob’ektini obodonlashtirish	Korxonada foydalanishda bo‘lgan yer maydoncha-larining ko‘rinishini yaxshilash, yer osti o‘tkazmalarini qurish, transport vositalarini to‘xtab turish joylarini tashkil qilish, yer maydonchalarini temir panjaralar bilan o‘rash, yurish yo‘lkalarini qurish kabi ishlar
9.	Ko‘chmas mulk ob’ektini kapital ta’mirlash	Korxonaning asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan ob’ektlarni texnik-ishlab chiqarish imkoniyatlarini tubdan yaxshilash maqsadlarida bajarilgan ishlar

Ikkinchidan, 21-son BHMSda korxonalar ko‘char va ko‘chmas mulk ob’ektlariga kapital investitsiyalar hisobi uchun nazarda tutilgan schyotlar tizimlari nomlanishi va maqomi bo‘yicha ushbu mulk ob’ektlariga kiritilgan kapital

[63] Muallif ishlanmasi

investitsiyalar to‘g‘risida atroflicha axborotlarni shakllantirish talablariga to‘liq javob bermaydi. Bizningcha, terminlarni zamonaviylashtirish zaruratidan kelib chiqib, 21-son BHMSda kapital investitsiyalar hisobi uchun nazarda tutilgan 0800 “Kapital qo‘yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar” tizimi nomini “Ko‘char va ko‘chmas mulk ob’ektlariga kapital investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar” deb o‘zgartirish to‘g‘ri bo‘lar edi.

Uchinchidan, amaldagi 21-son BHMSda 0800 “Kapital qo‘yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar” tizimi tarkibida nazarda tutilgan 0810 “Tugallanmagan kapital qurilish” schyoti ham nomlanishi, maqsadi va unga yuklatilgan vazifalari bo‘yicha turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan ko‘chmas mulk ob’ektlariga kiritilgan barcha turdagi kapital investitsiyalarni tizimli aks ettirish talablariga to‘liq javob bermaydi. Belgilangan tartibga ko‘ra ushbu schyotning funksiyasi faqat kapital qurilishga kiritilgan kapital investitsiyalarni, shuningdek ularni tugallangan va tugallanmagan kapital qurilishga tegishli qismlari to‘g‘risidagi axborotlarni berish bilan cheklanib qolgan. 0810 - schyot nomini “Tugallanmagan kapital qurilish” deb nomlash, fikrimizcha, yetarlicha asosli emas. Chunki ushbu schyotda tugallanmagan kapital investitsiyalar summasini aks ettirish unga yuklatilgan vazifalardan biri hisoblanadi, xolos.

To‘rtinchidan, 21-son BHMSda korxonalar ko‘chmas mulk ob’ektlarini mustahkamlash va takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari bo‘lgan modernizatsiyalash, renovatsiyalash, rekonstruksiyalash, kengaytirish hamda kapital ta’mirlash jarayonlarini, mos ravishda, ushbu jarayonlarga kiritilgan investitsiyalarni alohida aks ettiruvchi maxsus schyotlar ko‘zda tutilmagan. Aksariyat korxonalar bu turdagi jarayonlar va ularga kiritilgan kapital investitsiyalar hisobini 0890 “Boshqa kapital investitsiyalar” schyotida yuritmoqda. Biroq, bu schyotda aks ettirilgan ma’lumotlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chmas mulk ob’ektlari bo‘yicha amalga oshirilgan modernizatsiyalash, renovatsiyalash, rekonstruksiyalash va kengaytirish jarayonlarini, mos ravishda, ushbu muhim jarayonlarga kiritilgan investitsiyalar summalarini bilib bo‘lmaydi. Bunday ma’lumotlarni faqatgina 0890 “Boshqa kapital investitsiyalar” schyoti ma’lumotlarini qaytadan guruhlab chiqish yo‘li bilan olish mumkin. Bunday tartib, bir tomondan qo‘shimcha vaqt sarflashga olib kelsa, ikkinchi tomondan esa, olingan ma’lumotlarni ishonchligiga to‘liq kafolat bermaydi.

Bizning fikrimizcha, korxonalar ko‘chmas mulk ob’ektlarini yaxshilash va takomillashtirishning barcha turlari, ya’ni ularni qurish, modernizatsiyalash, renovatsiyalash, rekonstruksiya qilish va kengaytirish, jarayonlarining borishi hamda ushbu jarayonlarga kiritilgan kapital investitsiyalar yaxlit bitta schyotlar tizimida hisobga olinishi lozim. Ushbu schyotlar tizimi tarkibida ko‘chmas mulk ob’ektlarini yaxshilash va takomillashtirishning har bir turi - qurish, modernizatsiyalash, renovatsiyalash, rekonstruksiya qilish, va kengaytirish jarayonlarining borishi hamda ularning har biriga kiritilgan kapital investitsiyalar alohida schyotlar ochilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Korxonalar ko‘chmas mulk ob’ektlariga kapital investitsiyalar hisobi uslubiyatini takomillashtirish uchun amadagi 21-son BHMSga quyidagicha o‘zgartirishlar kiritish tavsiya etiladi:

✓ 21-son BHMSda nazarda tutilgan 0810 Tugallanmagan qurilish” schyotini nomini o‘zgartirib, uni “Ko‘chmas mulk ob’ektlarini qurish, modernizatsiyalash, renovatsiyalash, rekonstruksiyalash va kengaytirishga kapital investitsiyalar hisobi uchun mo‘ljallangan schyotlar”deb nomlash;

✓ tavsiya etilayotgan 0810 “Ko‘chmas mulk ob’ektlarini qurish, modernizatsiyalash, renovatsiyalash, rekonstruksiyalash va kengaytirishga kapital investitsiyalar hisobi uchun mo‘ljallangan schyotlar” tizimi tarkibida quyidagi Schyotlarni ochish (2-jadval);

2-jadval

Korxonalar hisob siyosatiga 0810 “Ko‘chmas mulk ob’ektlarini qurish, modernizatsiyalash, renovatsiyalash, rekonstruksiyalash, kengaytirish va kapital ta’mirlashga kapital investitsiyalar hisobi uchun mo‘ljallangan schyotlar” tizimiga kiritilishi tavsiya etilayotgan schyotlar

Amaldagi 21-son BHMS bo‘yicha		**Tavsiya**	
Schyot	**Schyotning nomi**	**Schyot**	**Schyotning nomi**
0810	Tugallanmagan qurilish	0811	Ko‘chmas mulk ob’ektlarini qurishga kapital investitsiyalar
		0812	Ko‘chmas mulk ob’ektlarini modernizatsiyalashga kapital investitsiyalar
		0813	Ko‘chmas mulk ob’ektlarini renovatsiyalashga kapital investitsiyalar
		0814	Ko‘chmas mulk ob’ektlarini rekonstruksiyalashga kapital investitsiyalar
		0815	Ko‘chmas mulk ob’ektlarini kengaytirishga kapital investitsiyalar
		0816	Ko‘chmas mulk ob’ektlarini obodonlashtirishga kapital investitsiyalar

Shuningdek, yuqorida tavsiya etilayotgan schyotlarni amaliyotda qo‘llashga erishish uchun korxonalar hisob siyosatida mazkur jarayonga oid boshlang‘ich hujjatlarning shakli, mazmuni, tuzish va tasdiqlash tartiblarini korxonalar hisob siyosatida maxsus belgilash lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuqori tavsifi keltirilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarimiz quyidigilarga imkon beradi:

birinchidan, korxonalarda ularning ko‘chmas mulk ob’ektlariga kiritilgan kapital investitsiyalar to‘g‘risidagi axborotlarni tizimli shakllantirilishiga,

ikkinchdan, ko‘chmas mulk ob’ektlariga kiritilgan kapital investitsiyalar to‘g‘risidagi axborotlarni moliyaviy hisobot va statistik hisobotlarda asosli tarzda mujassalashtirilishga,

uchinchidan, investorlar va boshqa foydalanuvchilarni ko‘chmas mulk ob’ektlariga kiritilgan kapital investitsiyalar to‘g‘risida real va shaffof axborotlar bilan ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. IAS 16 — “Asosiy vositalar”.
3. Xalqaro audit standartlari.
4. Petryk O.A., Marynich I.O. Audit otsinky vartosti osnovnykh zasobiv — asosiy vositalar qiymatini audit qilish masalalariga bag‘ishlangan maqola.
5. Selivanova N. Assessment of Risks Related to the Accounting and Audit of Property, Plant and Equipment in Accordance with International Standards. 2024. DOI: 10.15276/ETR.02.2024.12
6. Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2009.
7. Suyunova Z. **“**Quyuv mexanika zavodi” AJda asosiy vositalar auditini takomillashtirish yo‘nalishlari**.** Green Economy and Development, 2026, 4(3). DOI: 10.5281/zenodo.20726810.

TUR OPERATORLARI VA SAYOHAT AGENTLIKLARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH: O‘ZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Taniyev Axmadjon Baxromovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi professori, i.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tur operatorlari va sayohat agentliklarining global hamda O‘zbekiston miqyosidagi rivojlanishi tahlil qilingan. Xalqaro turizm sohasida internet texnologiyalari va onlayn bronlash tizimlarining kengayishi tur operatorlari biznes modellariga ta’sir qilgani ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda turizm sohasi faol rivojlanmoqda, biroq infratuzilma va kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha muammolar mavjud. Maqolada tur operatorlari va sayohat agentliklari uchun kelajakdagi istiqbollar, xususan raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘nalishlari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar. Tur operatorlari, sayohat agentliklari, onlayn bronlash, turizm bozori, O‘zbekiston turizmi, infratuzilma, raqamli texnologiyalar.

Kirish

Bugungi kunda turizm iqtisodiyoti xalqaro miqyosda jadal rivojlanmoqda. Tur operatorlari va sayohat agentliklari turizm industriyasining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, iste’molchilarga dam olish va sayohat turlarini taklif qiladi. Tur operatorlari ommaviy bozorga yo‘naltirilgan xizmatlar ko‘rsatsa, sayohat agentliklari ushbu xizmatlarni iste’molchilarga yetkazib beradi.

Turizm sohasida internet texnologiyalarining joriy etilishi va onlayn bronlash platformalarining paydo bo‘lishi, an’anaviy biznes modellarini sezilarli darajada o‘zgartiradi. O‘zbekiston ham bugungi kunda turizm sohasini strategik

yo‘nalishlardan biri sifatida rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Ushbu maqolada tur operatorlari va sayohat agentliklarining xalqaro va milliy miqyosdagi holati, muammolari hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

Tur operatorlari va sayohat agentliklari faoliyati bo‘yicha turni tadqiqotlar mavjud. Jahon miqyosida yirik tur operatorlarining integratsiyalashgan biznes modellari [1], onlayn bronlash tizimlarining ta’sirini [2] hamda turizm sohasidagi raqobat tahlili [3] asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi.

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha islohotlar [4], milliy infratuzilma va kadrlar malakasini yaxshilash zaruriyati [5] hamda xalqaro tajribalardan foydalanish usullari []6 o‘rganilgan.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda tahliliy usullar qo‘llanildi. Xalqaro va milliy ma’lumotlar asosida tur operatorlari va sayohat agentliklari bozorining holati tahlil qilindi. Tur operatorlari faoliyatining o‘sish dinamikasiga doir ma’lumotlar jadvallar va grafiklar orqali taqdim etildi. O‘zbekiston va xalqaro bozordagi turizm sohasiga ta’sir etuvchi omillar, raqobat ustunliklari hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi.

Tur operatorlari va sayohat agentliklari asosan ommaviy bozor uchun dam olish va sayohat turlarini tashkil qiladilar va ularni iste’molchilarga sotadilar. Tur operatorlarining asosiy vazifasi - bayram va sayohat paketlarini shakllantirish hamda sayyohlar va manbalar o‘rtasidagi aloqani osonlashtirishdir. Ular xizmatlarni - masalan, joylashish, transport va qo‘shimcha qulayliklarni - kelishilgan chegirmali narxlarda olib, iste’molchilarga bevosita yoki sayohat agentliklari orqali sotadilar.

Tur operatorlari turli shakllarda ishlaydilar:

- Mustaqil korxona sifatida bayram turlarini tashkil qilishga ixtisoslashadi;
- Turli manfaatlarga ega yirik kompaniyalar tarkibida bo‘ladi;
- Aviakompaniya yoki sayohat agentliklari bilan bog‘langan holda faoliyat ko‘rsatadi.

Tur operatorlari va ularning agentlar bilan munosabatlari turizm iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. AQSh va Yevropadagi tur operatorlari bozori bir qator qiziqarli masalalarni ko‘taradi. Masalan, 1970-yillar oxirida AQShda taxminan 600 ta tur operatori faoliyat yuritgan bo‘lsa, 1985-yilga kelib bu raqam 1,000 taga, 1990-yillarda esa 1,500 taga yetgan. 2023-yilga kelib, AQShdagi tur operatorlari soni 2,350 taga yetgan [7].

Tur operatorlarining samaradorligi bozor sharoitlariga juda sezgir. Bunda talab o‘zgarishiga turli omillar ta’sir qiladi, masalan:

- Valyuta kurslarining o‘zgarishi;
- Iqtisodiy inqirozlar va inflyatsiya;
- Siyosiy noaniqliklar.

Bozorda mavsumiylik katta ahamiyatga ega, ayniqsa, dam olish mavsumida. Yirik tur operatorlari katta miqdordagi sotuvlar orqali past marjalarga tayanadilar. Ular uchun daromadning katta qismi oldindan bron qilish orqali keladi. Ular aviakompaniyalar va mehmonxonalar bilan yaxshi kelishuvlarga erishib,

chegirmalarga ega bo‘lishadi. Shu tariqa, yuqori savdo hajmiga erishish ularga bozorda ustunlik beradi.

Agar kichik va ixtisoslashgan tur operatorlari doimiy sarmoyalarga kam pul sarflashsa, bu holatda ularning sarmoyadan keladigan daromadi nisbatan yuqori bo‘lishi mumkin. Biroq, ko‘plab tur operatorlari yillar davomida zararga uchraydi va hatto agar foyda ko‘ra olsalar ham, uning miqdori juda oz bo‘ladi. Masalan, Buyuk Britaniyada tur operatorlarining o‘rtacha foydasi odatda 4% dan oshmaydi. Bugungi kunda Yevropada, ayniqsa Italiya va Ispaniyadan tashqari, tur operatorlarining foyda marjasi o‘rtacha 2% atrofida qolmoqda. Bu esa iqtisodiy inqiroz, past marjalar va shiddatli raqobat tufayli yanada pasaymoqda.

Ommaviy bayram paketlari bozorda tur operatorlar o‘rtasida raqobat juda keskin. Ular kelgusi mavsum uchun erta bron qilishni rag‘batlantirish maqsadida chegirmalar taklif qilishadi. Shuningdek, mavsum oxirida ortiqcha joylarni to‘ldirish uchun ham chegirmalar beriladi. Turistlar ko‘pincha chegirmalarni kutadi va shu sababli, erta bron qilishni kechiktirishadi. Bu holat tur operatorlariga qiyinchilik tug‘diradi, chunki ular nafaqat arzon narxlarda bayram paketlarini sotishiga to‘g‘ri keladi, balki naqd pul oqimi ham zarar ko‘radi.

Tur operatorlari bozoriga kirish va chiqish juda oson, bu esa firmalar sonining ko‘pligi va narxlar bo‘yicha shiddatli raqobatga olib keladi. Bu holat, ayniqsa, Buyuk Britaniyada va boshqa mamlakatda kuzatiladi. Paketli sayohatlar bozorda bir necha yirik ishtirokchi mavjud va ular katta ulushni egallaydi. Yirik tur operatorlar o‘z aviakompaniyalari va sayohat agentliklari orqali qo‘shimcha foyda olishadi. Biroq, ularning doimiy xarajatlari va yuqori sarmoyalari sababli, samolyotlardan to‘liq foydalanish va mehmonxonalarni to‘ldirish muhim rol o‘ynaydi.

Kichik tur operatorlari esa odatda kam sarmoya talab qiluvchi xizmatlarga ixtisoslashgan bo‘lib, ularning faoliyati yuqori xarajatlarga bog‘liq emas.

Tur operatorlari bozoring raqobati qayta-qayta narx urushi va yirik kompaniyalar o‘rtasidagi keskin musobaqa bilan belgilanadi. Operatorlar o‘z mahsulotlarini turli bozor segmentlarida farqli qilib taklif qilishadi. Bu iste’molchilarni qoniqtirishni ta’minlaydi, ammo ularning foyda marjasi past bo‘ladi va ba’zan firmalar bankrotlikka uchraydi.

Operatorlari sonining jadal o‘sishi bozorga kirish to‘siqlarining nisbatan pastligidan dalolat beradi. Kapital xarajatlari nisbatan kam bo‘lib, asosan reklamaga sarflanadi va mahsulotni sayyohlarga tanitish uchun muhim. Bu jihatlar bozorga kirishda jiddiy to‘siqlar hisoblanmaydi. Asosiy muammo xaridorlarni avans to‘lovlarining xavfsizligiga ishontirishdir.

Qo‘shimcha to‘siqlar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, tur operatorlar litsenziyalash va franchayzing orqali brend yaratib, iste’molchilar sadoqatini shakllantiradilar yoki eng qulay joylardagi mehmonxona va transport kompaniyalari bilan shartnomalar tuzadilar. Ba’zi iqtisodchilar buni bozorga kirishdagi to‘siqlar deb hisoblagan bo‘lsa-da, hozirgi vaqtda bu birinchi harakat qiluvchilarning ustunliklari sifatida qaraladi.

Strategik kirish to‘siqlari - bu mavjud kompaniyalar tomonidan yeni ishtirokchilarni to‘xtatish uchun qo‘llaniladigan usullardir. Masalan, tur operatorlar

raqobatchilarni bozordan chiqarish maqsadida narxlarni sun’iy ravishda pastlatishi, mahsulotni differensiyalashi va reklama xarajatlarini oshirishi mumkin. Ba’zi katta firmalar, ayniqsa aviakompaniyalarga egalik qiluvchi tur operatorlar, bozordagi mavqeini mustahkamlash uchun katta miqdorda sarmoya kiritadilar.

Tur operatorlari ko‘pincha yangi ishtirokchilarni istisno qilishga emas, balki o‘z ulushini oshirishga intiladilar. Shu sababli, ular narx urushlari orqali bozorda raqobat qiladilar. Tur operatorlari uchun kirish xarajatlari, masalan, reklama va litsenziya xarajatlari past bo‘lgani uchun, bozorga kirish ancha oson.

НОДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИ АСОСИЙ ИҚТИСОДИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ОБЪЕКТИ СИФАТИДАГИ ТАДҚИҚИ

Шамсикулова Мохина Бону Фуркатовна
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
мустақил тадқиқотчиси
moxina0909@gmail.com

Аннотация. Мақолада нодавлат тиббиёт ташкилотлари фаолиятининг аҳамияти, ушбу субъектлар томонидан амалга ошириладиган тиббий хизматлар бухгалтерия ҳисобини ташкил этишдаги мавжуд муаммолар ва уларни бартараф этиш йўналишлари келтирилган. Шунингдек, нодавлат тиббиёт ташкилотларининг асосий иқтисодий кўрсаткичлари тадқиқ этилган ҳолда ушбу кўрсаткичларнинг бухгалтерия ҳисоби объекти сифатидаги аҳамияти тадқиқ ҳамда таҳлил этилган.

Калит сўзлар: тиббиёт ташкилотлари, нодавлат тиббиёт ташкилотлари, тиббий хизматлар, тиббий хизматлар бухгалтерия ҳисоби, тиббий хизматларга оид харажатлар бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисобот.

Аннотация. В статье рассматривается значение деятельности неправительственных медицинских организаций, существующие проблемы в организации учета медицинских услуг, оказываемых этими организациями, и направления их устранения. Также изучены основные экономические показатели неправительственных медицинских организаций, а также исследована и проанализирована значимость этих показателей как объекта учета.

Ключевые слова: медицинские организации, неправительственные медицинские организации, медицинские услуги, бухгалтерский учет медицинских услуг, учет затрат на медицинские услуги, финансовая отчетность.

Abstract. The article presents the importance of the activities of non-governmental medical organizations, existing problems in the organization of accounting of medical services performed by these entities, and directions for their elimination. Also, the main economic indicators of non-governmental medical organizations were studied, and the significance of these indicators as an accounting object was studied and analyzed.

Keywords: medical organizations, non-governmental medical organizations, medical services, medical services accounting, medical services cost accounting, financial reporting.

Бугунги кунда ҳукумат томонидан мамлакатда тиббиёт соҳасини ривожлантиришга қаратилган қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилмоқда. Хусусан, 2026 йил 5 май кунида бир вақтнинг ўзида тиббиёт соҳасида хусусий секторни ривожлантиришга қаратилган иккита ҳужжат қабул қилинди: Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори. Мазкур Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тиббиёт соҳасида хусусий секторни қўшимча қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонида тиббиёт соҳасида фаолият кўрсатаётган субъектлар рақобатбардошлигини таъминлаш бўйича бир қанча мақсад ва вазифалар ишлаб чиқилган: “хусусий секторнинг тиббий хизматлар кўрсатишдаги улушини 2030 йилга қадар 30 фоизга етказиш; ҳудудларда аҳолига кўрсатилаётган тиббий хизматлар сифатини ва қулайлигини ошириш; нодавлат тиббиёт ташкилотларини қўшимча қўллаб-қувватлаш орқали тиббий хизматлар кўрсатиш кўламини кенгайтириш” [66] . Давлат тиббиёт ташкилотларининг нодавлат тиббиёт ташкилотларидан асосий фарқли жиҳати шундаки, давлат тиббиёт ташкилотларида рентабеллик кўрсаткичлари ҳукумат томонидан назоратда бўлади ва давлат ташкилотлари томонидан кўрсатилган тиббий хизматлар нархи доим назоратда бўлади. Бу борада мамлакатимизда ишлаб чиқилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатда “тиббий хизматга тўлов қийматини белгилашда, рентабеллик кўрсатиладиган тиббий хизмат таннархининг 20 фоизидан ортиқ

[66] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тиббиёт соҳасида хусусий секторни қўшимча қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. 2026 йил 05 май. ПФ-74-сон.

бўлиши мумкин эмас”[67] деб келтирилган. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда келтирилган ушбу тартиб давлат тиббиёт ташкилотлари фаолиятини амалга оширишда энг муҳим ҳуқуқий асослардан бири бўлиб хизмат қилади. Шунинг учун, нодавлат тиббиёт ташкилотларида амалга оширилган тиббий хизматларга оид даромад ва харажатлар бухгалтерия ҳисобини тўғри юритиш ва бу орқали ташкилот молиявий натижаларини яхшилаш, жумладан тиббий хизматларни кўрсатишдан олинган ялпи фойдани ошириш нодавлат тиббиёт ташкилотлари олдида турган энг асосий ва муҳим вазифалардан ҳисобланади.

Бугунги кунда, нодавлат тиббиёт ташкилотларининг иқтисодий кўрсаткичларини таҳлил қилиш мақсадида ушбу субъектлар томонидан тақдим этилган статистика ҳисоботлари тадқиқ этилди ва қуйидаги жадвал маълумотлари ишлаб чиқилди (1-жадвалга қаранг):

1-жадвал.

Нодавлат тиббиёт ташкилотларининг асосий иқтисодий кўрсаткичлари, 2025 йил ҳолатида[68]

Кўрсаткичлар	**“Bio Nur Med Servis” МЧЖ**	**“Ихтисослаш-тирилган пуллик хизмат ва реабилитация марказининг гепаталогия маркази”**	**“STDHEALTHMED” МЧЖ**
Хизматлар ҳажми, минг сўм	19 569 472	4 279 152	28 312 499
шундан, тиббий хизматлар, минг сўм	19 390 687	4 279 152	28 312 499
Ўринлар сони, бирлик	90	60	95
Даволанган беморлар, киши	8 740	1 985	720
Беморлар ўтказган ўрин-кунлар, бирлик	22 240	13 874	3 540
Врачлар сони, киши	28	5	40
шундан, олий тоифали врачлар сони, киши	21	3	7
Биринчи марта ташхиси аниқланиб, рўйхатга олинган касалликлар сони	5 200	2 560	15 780
шундан, аёллар	1 200	1 507	8 900
Операция қилинганлар сони, киши	2 834	0	2 976
Текширилган (даволанган) шахслар сони, киши	55 431	700	58 280
Бажарилган текширувлар муолажалар сони, бирлик	75 756	2 560	58 564
Экспорт ҳажми, минг сўм	720 000	16 536	0
шундан, Тожикистон фуқароларига, минг сўм	600 000	12 300	0
шундан, Россия фуқароларига, минг сўм	120 000	4 236	0

[67] Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг “Пуллик тиббий хизмат кўрсатадиган даволаш-профилактика муассасаларини молиялаш тартибини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. 2025 йил 27 январь. 3603-сон.

[68] Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

Жадвалда келтирилган маълумотлар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, нодавлат тиббиёт ташкилотларида тиббий хизматлар кўрсатиш жараёнлари билан боғлиқ кўрсаткичлар алоҳида хусусиятларга эга, жумладан:

Биринчидан, бугунги кунда нодавлат тиббиёт ташкилотлари томонидан тиббий хизматларни кўрсатиш билан бир вақтда бошқа фаолият турлари бўйича ҳам даромадлар олинган. Хусусан, илмий изланишлар давомида ташкилотнинг амалий маълумотлари тадқиқ этилган “Bio Nur Med Servis” МЧЖ томонидан ташкилотда бўш турган объектларни ижарага беришдан даромадлар олинган. Даромадлар таркиби таҳлил қилинганда аниқ бўлдики, тиббий хизматлар кўрсатиш натижасида олинган даромадлар нодавлат тиббиёт ташкилоти жами даромадларининг 99 %ини ташки этган. Ташкилотнинг бошқа даромадлари улуши эса, 1 %ни ташкил этганлигига гувоҳ бўлиш мумкин. Ушбу кўрсаткичлар таҳлили шуни кўрсатадики, нодавлат тиббиёт ташкилотларида тиббий хизматлар кўрсатиш жараёнлари бўйича натижалар ушбу тармоқ ташкилотлари молия-хўжалик фаолиятларида асосий ўрин эгаллайди. Бу эса, биз томонимиздан мазкур йўналиш бўйича олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишимизнинг долзарблигини яна бир бор кўрсатиб беради.

Иккинчидан, нодавлат тиббиёт ташкилотларида мавжуд ўринлар сони турлича бўлиб, ушбу кўрсаткич бевосита тиббиёт ташкилотларининг фаолият йўналишларига боғлиқдир. Чунки, тиббиёт ташкилотларида ўринлар сони асосан, даволаш хизматлари таркибидаги стационар тиббий хизматларни амалга оширувчи нодавлат тиббиёт ташкилотларида салмоқли ҳиссани ташкил этади. Жадвалда келтирилган кўрсаткичлар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, Bio Nur Med Servis” МЧЖда 2025 йил ҳолатида тиббий хизматларнинг ҳажми ҳар бир ўринлар сонига 217439 минг сўмни ташкил этган. Бироқ, ушбу таҳлил натижаси бирор бир иқтисодий самара берябди деб бўлмайди. Чунки, нодавлат тиббиёт ташкилотлари томонидан бир вақтнинг ўзида бир неча турдаги тиббий хизматлар амалга оширилиб, айнан даволаш хизматлари йўналишидаги стационар хизматлар бўйича хизматлар миқдори қанча эканлигини амалдаги тартиб бўйича тайёрланадиган бухгалтерия, статистика, солиқ ёки нодавлат тиббиёт ташкилотларининг бошқарув мақсадларидаги бошқа ҳисоботларидан аниқлаб бўлмайди. Бу эса, нодавлат тиббиёт ташкилотлари бухгалтерия ҳисобида тиббий хизматларнинг аналитик ҳисобини ташкил этишнинг заруриятини келтириб чиқаради.

Учинчидан, кўрсаткичлар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, нодавлат тиббиёт ташкилотларида даволаниш мақсадида ётқизилган беморлар бир неча кун стационар тарзда даволанган бўлиб, ушбу кўрсаткичлар Bio Nur Med Servis” МЧЖда ўртача 2,5 кунни ташкил этган бўлса, “Ихтисослаштирилган пуллик хизмат ва реабилитация марказининг гепаталогия маркази” нодавлат тиббиёт ташкилотида бу кўрсаткич ўртача 7 кунни, “STDHEALTHMED” МЧЖда эса, ўртача 5 кунни ташкил этган. Бундан кўриниб турибдики, бухгалтерия ҳисобида стационар шаклда амалга ошириладиган тиббий хизматлар бўйича ҳар бир кун учун битта ўриннинг

таннархини аниқлаш орқали нодавлат тиббиёт ташкилотларида стационар тиббий хизматларнинг энг оптимал нархини белгилаш зарурияти мавжуд.

Тўртинчидан, тиббий хизматлар тиббиёт ходимлари томонидан амалга оширилиб, нодавлат тиббиёт ташкилотларида бундай ходимларга олий ва бошқа тоифадаги врачлар, ўрта тиббий ходимлар, ҳамширалар киради. Мазкур ходимлар нодавлат тиббиёт ташкилотларида бир вақтнинг ўзида бир неча турдаги тиббий хизматлар кўрсатиш жараёнларида иштирок этишлари мумкин. Бу эса, нодавлат тиббиёт ташкилотларида ҳар бир ходимнинг тиббий хизматлар кўрсатиш жараёнларидаги таъсирини аниқлаш орқали тиббий хизматлар таннархини ҳисоб-китоб қилиш, бунда тиббиёт ходимлари меҳнат ҳақи ва ижтимоий солиқ харажатлари бухгалтерия ҳисобини тўғри ташкил этишнинг долзарблигини кўрсатиб беради.

Тадқиқотлар давомида нодавлат тиббиёт ташкилотлари томонидан жарроҳлик хизматларини кўрсатиш натижасида амалга оширилган операциялар сони салмоқли ҳиссани ташкил этиб, ушбу тиббий хизматлар улуши бошқа тиббий хизматлар улушидан каттароқ ҳиссани ташкил этиши аниқланди. Демак, ушбу тиббий хизмат тури бўйича кўрсаткичлар нодавлат тиббиёт ташкилотлари бошқарув ходимлари учун стратегик аҳамиятга эга қаорларни қабул қилишлари учун муҳим бўлиб, мазкур тадқиқот ишида жарроҳлик хизматлари бухгалтерия ҳисобини бошқа даволаш хизматларидан ажратилган ҳолда алоҳида юритиш мақсадга мувофиқ деб топилди.

Олиб борилган юқоридаги тадқиқотлар давомида умумий илмий хулоса қилинадиган бўлса, бугунги кунда нодавлат тиббиёт ташкилотлари томонидан кўрсатиладиган тиббий хизматлар ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, ушбу тиббий хизматларнинг ҳар бир тури бўйича бухгалтерия ҳисоб-китобларини алоҳида юритиш орқали барча турдаги ҳисобот шаклларида, жумладан молиявий ҳисоботларда шаффоф ёритиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Бунда, албатта, нодавлат тиббиёт ташкилотлари тиббий хизматлар бухгалтерия ҳисобини тизимли равишда юқорида зикр этилган тартибларга мувофиқ ташкил этиш зарурияти мавжуд бўлиб, ушбу жиҳатлар мазкур тадқиқот ишининг долзарб жиҳатларини яна бир бор кўрсатиб беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг “Пуллик тиббий хизмат кўрсатадиган даволаш-профилактика муассасаларини молиялаш тартибининг 9-бандига ўзгартириш киритиш тўғрисида”ги қарори. 2026 йил 13 февраль. 3603-2-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирлиги тизимидаги тиббиёт ташкилотларида Ўзбекистон Республикаси давлат бюджети маблағлари ҳисобига тиббий ёрдам кўрсатиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги қарори. 2017 йил 05 сентябрь. 696-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолига паллиатив тиббий хизматлар кўрсатишни такомиллаштиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2026 йил 24 июнь. ПҚ-239-сон.

4. Прокопович Е.В. Особенности бухгалтерского учета и отчетности негосударственных медицинских учреждений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Москва: 2007. 27-с.

5. Боронов Б.Ф. Ёғ-мой маҳсулотлари ҳисоби методологиясини такомиллаштириш. –Т.: ТМИ, иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, 2023, 244 б.

6. Боронов Б.Ф., and Мустафоев А.Ф.. "НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МАСАЛАЛАРИ" Экономика и социум, no. 5-2 (120), 2024, pp. 926-929

7. Farxodovich, Boronov Bobur, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, and Yodgorov Xushvaqt Mansurovich. "FARMASEVTIKA KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING O ’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY 1.1 (2025): 282-289.

8. Боронов, Бобур, and Шавкат Саломов. "ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ." Экономическое развитие и анализ 3.2 (2025): 268-274.

9. Боронов, Б. Ф., and Ш. Ф. Саломов. "МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТДА НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА УНИ РИВОЖЛАТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ." Экономика и социум 5-2 (120) (2024): 921-925.

10. Боронов, Бобур, and Миржалол Ахмедов. "Нодавлат Таълим Ташкилотларида Даромадлар Ҳисобининг Илмийназарий Асослари." Economic Development and Analysis 3.5: 288-294.

11. Боронов, Бобур, and Миржалол Ахмедов. "Республика Миллий Иқтисодиётини Ривожлантиришда Нодавлат Олий Таълим Ташкилотларининг Ўрни Ва Аҳамияти." Economic Development and Analysis 3.8: 167-173.

12. Farxodovich, Boronov Bobur. "STAGES OF DEVELOPMENT OF THE INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES SYSTEM." Лучшие интеллектуальные исследования 59.2 (2025): 293-298.

13. Мухаммадиев, З., and Б. Боронов. "ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА УЗОҚ МУДДАТЛИ АКТИВЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРШ." Издания (2023): 91-97.

НОДАВЛАТ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ФИРИБГАРЛИК ХАВФЛАРИНИ БАРВАҚТ АНИҚЛАШ ВА КАМАЙТИРИШ МЕХАНИЗМИ

Турманқулов Норпўлат Саъдуллаевич
Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги
Тошкент шаҳар бошқармаси,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил тадқиқотчиси,
телефон +99890-938-84-00, e-mail: norpulat@inbox.ru

Аннотация. Тезисда нодавлат олий таълим муассасаларида ички аудит орқали фирибгарлик хавфларини барвақт аниқлаш ва камайтиришга қаратилган ташкилий-услубий механизм таклиф этилади. Механизм маълумотларга асосланган аудит (data-driven audit) ёндашувига, узлуксиз мониторингга ва қоидабузарликлар ҳақида хабар бериш каналларига таянади ҳамда бошқарувни оператив ва ишончли ахборот билан таъминлашга асосланади. Ушбу ёндашув ички аудитни пассив текширувдан фаол риск-менежмент инструментига айлантиради.

Калит сўзлар: нодавлат олий таълим муассасалари, ички аудит, фирибгарлик хавфи, риск-менежмент, маълумотларга асосланган аудит, whistleblowing, узлуксиз мониторинг, оператив ахборот.

1. Кириш

Таълим хизматлари бозорининг кенгайиши, молиявий оқимлар ҳажмининг ошиши, контракт муносабатлари ва рақамли тизимларнинг жорий этилиши нодавлат олий таълим муассасаларида фирибгарлик хавфларининг шаклланиш эҳтимолини кучайтиради. Шу сабабли ички аудит фақат фирибгарлик ҳолатлари юзага келгандан сўнг текширувчи эмас, балки уларни барвақт аниқловчи ва профилактика қилувчи бошқарув инструментига айланиши лозим. Фирибгарлик хавфларини камайтиришда ички аудитнинг асосий вазифаси бошқарувни оператив ва ишончли ахборот билан таъминлашдан иборат.

Мазкур тезисда фирибгарлик хавфлари энг кўп юзага келадиган жараёнлар-контракт тушумлари, харидлар ва шартномалар, иш ҳақи, грант ва мақсадли маблағлар ҳамда ахборот тизимлари-бўйича барвақт аниқлаш ва камайтириш механизми тақдим этилади.

2. Фирибгарлик хавфларини барвақт аниқлаш механизми

Механизмнинг муҳим элементи-маълумотларга асосланган аудит (data-driven audit) ёндашуви бўлиб, унда ички аудит ҳужжатларни танлаб текшириш билан чекланмай, молиявий ва операцион маълумотларни мунтазам таҳлил қилиш орқали ноодатий ҳолатларни аниқлайди. Контракт тўловлари бўйича кечикишларнинг кескин ошиши, бир хил контрагентлар билан такрорланувчи шартномалар, иш ҳақи фондининг режасиз ўсиши ёки IT тизимларида рухсатсиз ўзгаришлар фирибгарлик хавфининг эрта белгиси сифатида қаралади ва раҳбариятга тезкор етказилади.

Механизмнинг яна бир жиҳати-ички назорат тизимлари билан ички аудит ўртасидаги узвий боғлиқлик: ички аудит назоратларнинг дизайни ва реал ишлашини баҳолаб, қайси назоратлар фирибгарлик хавфини етарли чекламаётганини аниқлайди ҳамда назоратларни кучайтириш, ваколатларни ажратиш ва автоматлаштирилган текширувларни жорий этиш бўйича тавсиялар беради. Қоидабузарликлар ҳақида хабар бериш (whistleblowing) каналларининг мавжудлиги эса ходимлар, талабалар ва бошқа манфаатдор томонлар учун махфий ахборот канали яратиб, фирибгарлик ҳолатлари ҳақида ички аудитга бевосита сигнал беради.

3. Механизмнинг таркиби

Таклиф этилаётган механизм фирибгарлик хавфи манбаларини аудит ахборот манбаси, аниқлаш усули, бошқарувга тақдим этиладиган ахборот ва кутилаётган натижа билан боғлайди (1-жадвал). Ҳар бир манба бўйича узлуксиз мониторинг ва таҳлил йўлга қўйилиши фирибгарлик эҳтимолини сезиларли даражада камайтиради.

1-жадвал

Нодавлат олий таълим муассасаларида фирибгарлик хавфларини барвақт аниқлаш ва камайтириш механизми

Фирибгарлик хавфи манбаи	Аудит ахборот манбаи	Аниқлаш усули	Бошқарувга ахборот	Кутилаётган натижа
Контракт тушумлари	Талабалар реестри, тўлов жадвали	Аномалия ва тренд таҳлили	Қарздорлик ва кечикишлар бўйича сигнал	Тўлов интизоми кучаяди
Харидлар ва шартномалар	Харид ҳужжатлари, контрагентлар базаси	Такрорий ва боғлиқ шахслар таҳлили	Хавфли шартномалар рўйхати	Фирибгарлик эҳтимоли камаяди
Иш ҳақи ва кадрлар	Штат жадвали, иш ҳақи реестри	Номувофиқлик ва ортиқча тўловлар таҳлили	Ноасосий харажатлар бўйича ҳисобот	Ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги ошади
Грант ва мақсадли маблағлар	Грант шартномалари, харажат сметалари	Мақсадга мувофиқлик таҳлили	Қоидабузарликлар бўйича ахборот	Молиявий шаффофлик таъминланади
Ахборот тизимлари	Кириш ҳуқуқлари, логлар	Рухсатсиз ўзгаришларни аниқлаш	IT хавфлари бўйича сигнал	Ахборот хавфсизлиги кучаяди
Хабар бериш каналлари	Whistleblowing мурожаатлари	Контент ва риск таҳлили	Махсус текширув учун хулоса	Фирибгарлик барвақт аниқланади

Манба: муаллиф ишланмаси.

4. Хулоса

Тезисда нодавлат олий таълим муассасаларида ички аудит орқали фирибгарлик хавфларини барвақт аниқлаш ва камайтириш механизми таклиф этилди. Механизм маълумотларга асосланган аудит, узлуксиз мониторинг, ички назорат тизими билан интеграция ва whistleblowing каналларига таянган

ҳолда бошқарувни оператив ва ишончли ахборот билан таъминлайди. Ушбу ёндашув ички аудитни пассив текширувдан фаол риск-менежмент инструментига айлантириб, фирибгарлик эҳтимолини камайтиради ҳамда молиявий ва обрўга оид барқарорликни мустаҳкамлайди; механизмни миллий амалиётга жорий этиш келгуси тадқиқот йўналишидир.

Таклиф ва тавсиялар. Нодавлат олий таълим муассасаларига фирибгарлик хавфларини барвақт аниқлаш учун маълумотларга асосланган аудит (data-driven audit) ёндашувини қўллаш ва контракт тушумлари, харидлар, иш ҳақи, грант маблағлари ҳамда ахборот тизимлари бўйича узлуксиз мониторинг ўрнатиш тавсия этилади. Қоидабузарликлар ҳақида хабар бериш (whistleblowing) каналларини жорий этиш ва ички назорат тизимини кучайтириш бўйича тавсиялар бериш орқали ички аудит фаол риск-менежмент инструментига айланади ва фирибгарлик эҳтимолини сезиларли даражада камайтиради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Association of Certified Fraud Examiners (2024) Occupational Fraud 2024: A Report to the Nations. Austin (TX): ACFE.

2. IAASB (2021) ISA 240 The Auditor’s Responsibilities Relating to Fraud in an Audit of Financial Statements. New York: IFAC.

3. COSO and ACFE (2016) Fraud Risk Management Guide. Durham (NC): COSO.

4. The Institute of Internal Auditors (2024) International Professional Practices Framework (IPPF). Lake Mary (FL): The IIA.

5. Vasarhelyi, M.A. and Halper, F.B. (1991) ’The continuous audit of online systems’, Auditing: A Journal of Practice & Theory, 10(1), pp. 110–125.

6. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида” ги Қонуни, 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-сон. Тошкент. https://lex.uz.

TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIYAVIY VA OPERATSION KO‘RSATKICHLARNING AUDITORLIK TAHLILINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Fayzillayev Alisher Baxrom o‘g‘li
Lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni: Katta o‘qituvchi
Ish joyi: Toshkent davlat transport unversiteti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada xalqaro audit standartlari (XAS 315 va XAS 520) talablari asosida temir yo‘l transporti korxonalarida auditorlik tahlilini o‘tkazishning konseptual, tashkiliy va metodologik asoslari chuqur tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJning rasmiy statistik ko‘rsatkichlari, 2022-yil samaradorlik (KPI) hisoboti, 2020–2025-yillardagi operatsion tashish hajmlari dinamikasi hamda 2026-yil 1-yarim yillik choraklik emitent moliyaviy hisobotlari empirik tahlil qilingan. Korxonaning likvidlik,

rentabellik, to‘lov qobiliyati, debitorlik qarzlari aylanuvchanligi va valyuta kursi o‘zgarishidan kelib chiqadigan risklari o‘rtasidagi nomuvofiqliklar aniqlangan. Mavjud analitik kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy va operatsion ma’lumotlarni uzviy integratsiyalovchi «ko‘rsatkich–drayver–risk–dalil–xulosa» tamoyiliga asoslangan auditorlik monitoring paneli ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etish yuzasidan taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: auditorlik tahlili, analitik amallar, XAS 520, XAS 315, temir yo‘l transporti, operatsion drayverlar, moliyaviy koeffitsiyentlar, likvidlik paradoksi, rentabellik, valyuta riski, KPI samaradorligi.

Abstract. This scientific article explores the theoretical, organizational, and methodological foundations of analytical procedures in railway transport enterprises in compliance with International Standards on Auditing (ISA 315 and ISA 520). Based on official data of JSC "Uzbekistan Railways", including 2020–2025 operational traffic figures, 2022 KPI reports, and 2026 quarterly issuer financial statements, systemic relationships between revenue drivers, profitability, liquidity paradox, overdue receivables, and foreign exchange risk are critically evaluated. The study proposes an integrated audit matrix and monitoring dashboard bridging operational key indicators with financial statement assertions, providing sound recommendations for risk assessment.

Keywords: audit analysis, analytical procedures, ISA 520, ISA 315, railway transportation, operational drivers, liquidity paradox, financial ratios, foreign exchange risk, KPI performance.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida infratuzilmaviy tarmoqlar, xususan, temir yo‘l transporti korxonalari milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash, tashqi savdo aloqalarini jadallashtirish va logistika xavfsizligini kafolatlashda strategik ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda temir yo‘l transporti tizimini tubdan isloh qilish, sohada korporativ boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, moliyaviy shaffoflikni oshirish hamda buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga moslashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O‘RQ-677-son «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni auditorlik tekshiruvlarini xalqaro audit standartlari (XAS) asosida o‘tkazishni qat’iy belgilab berdi [1].

Temir yo‘l transporti korxonalari o‘ziga xos murakkab moddiy-texnik bazaga, keng ko‘lamli aktivlar tarkibiga va tarmoqlangan operatsion zanjirga ega bo‘lgan tabiiy monopoliya subyektlari hisoblanadi. Bunday gigant korxonalarda moliyaviy ko‘rsatkichlarning auditorlik tahlili faqatgina buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot moddalarini matematik jihatdan solishtirish bilan cheklanib qolmasligi shart. Buning boisi shundaki, tarmoqning pirovard moliyaviy natijalari bevosita operatsion ko‘rsatkichlar — tashish hajmlari, tariflar siyosati, harakat tarkibining ekspluatatsiya holati, yoqilg‘i-energetika sarfi, ta’mirlash xarajatlari hamda xalqaro tranzit yo‘laklari faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida temir yo‘l transporti orqali jo‘natilgan yuklar hajmi 2020-yildagi 70,6 mln tonnadan 2024-

yilga kelib 74,0 mln tonnaga yetgan [4]. «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJning rasmiy korporativ ma’lumotlarida qayd etilishicha, 2025-yil yakunlari bo‘yicha jo‘natilgan yuk hajmi 76,025 mln tonnani, umumiy tashilgan yuk hajmi 105,772 mln tonnani va umumiy yuk aylanmasi 27,927 mlrd tonna-kilometrni tashkil etgan [3]. Mazkur ulkan operatsion masshtab auditor oldiga moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlar uyg‘unligini chuqur tekshirish, ya’ni auditorlik tahlilining zamonaviy metodologiyasini qo‘llash vazifasini qo‘yadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologik asoslar

Xalqaro audit amaliyotida auditorlik tahlili moliyaviy hisobotdagi muhim buzib ko‘rsatishlar riskini aniqlash va baholashning fundamental quroli hisoblanadi. Auditorlik tahlilining xalqaro metodologiyasi Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari kengashi (IAASB) tomonidan ishlab chiqilgan XAS 520 «Analitik amallar» (Analytical Procedures) va XAS 315 «Muhim buzib ko‘rsatish xavflarini subyekt va uning muhitini o‘rganish orqali aniqlash va baholash» standartlarida to‘liq bayon etilgan [2]. XAS 520 standartiga muvofiq, analitik amallar moliyaviy va nomoliyaviy ma’lumotlar o‘rtasidagi mantiqiy hamda ehtimoliy bog‘liqliklarni o‘rganish orqali moliyaviy axborotni baholashni anglatadi. Auditor tekshiruv davomida korxona faoliyatiga xos kutilmalarni (expectations) shakllantiradi va hisobot ma’lumotlari bilan ushbu kutilmalar o‘rtasidagi ahamiyatli tafovutlarni aniqlab, ularning iqtisodiy sabablarini o‘rganadi [2].

Iqtisodchi olimlar va amaliyotchi auditorlarning tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, transport va logistika sohasidagi yirik monopol subyektlarda auditorlik tahlili uch darajali tekshiruv qamroviga ega bo‘lishi lozim: 1) vaqtli qatorlar dinamikasi (trend tahlili); 2) rejaviy va amaldagi ko‘rsatkichlar tafovuti tahlili; 3) moliyaviy natijalarning ishlab chiqarish drayverlari bilan qat’iy bog‘liqligi tahlili. Biroq amaliyotda temir yo‘l tarmog‘i korxonalarida analitik amallar ko‘pincha an’anaviy statik koeffitsiyentlar hisobi bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa yashirin likvidlik defitsitini, valyuta risklarini va aktivlar qiymatining pasayishini o‘z vaqtida aniqlash imkonini bermaydi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida qiyosiy tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, gorizontal va vertikal tahlil, omilli tahlil hamda XAS 315 va 520 talablariga mos keluvchi integratsiyalashgan risk-matritsasi uslubiyati qo‘llanilgan.

Auditorlik tahlilining axborot bazasi va empirik manbalari

Auditorlik tahlilining ishonchliligi, xolisligi va chuqurligi qo‘llanilayotgan axborot bazasining sifati hamda kelib chiqish manbalarining verifikatsiyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Temir yo‘l sohasida auditorlik tahlili quyidagi birlamchi va yig‘ma manbalar sinteziga tayanishi zarur:

1. Sintetik va analitik buxgalteriya hisobi registrlari (bosh daftar, aylanma vedomostlar, schyotlar bo‘yicha tahliliy kartochkalar);

2. Operatsion va ishlab chiqarish hisobotlari (elektron yuk xatlari axborot tizimi, dispetcherlik boshqaruvi ma’lumotlari, vagonlar va lokomotivlar aylanmasi hisobotlari);

3. Yo‘lovchi tashish bo‘yicha avtomatlashtirilgan elektron fiskal ma’lumotlar tizimlari (temir yo‘l chiptalarini realizatsiya qilish elektron portali);

4. Bank hisobvaraqlari koʻchirmalari va pul mablagʻlari harakati toʻgʻrisidagi hisobotlar;

5. Davlat statistika organlariga topshiriladigan rasmiy statistika hisobotlari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi huzuridagi Yagona korporativ axborot portali (openinfo.uz)da e'lon qilingan emitent hisobotlari [5].

XAS 315 talablariga muvofiq, auditor ichki nazorat tizimi va axborot tizimlarining ishonchliligini testdan oʻtkazishi, XAS 500 ga koʻra esa tahlil uchun foydalanilayotgan barcha manbalarning toʻliqligi, aniqligi va qonuniyligi yuzasidan yetarli auditorlik dalillarini toʻplashi shart [2]. Masalan, tashishdan olingan sof tushum summasining oʻsishi bevosita yuk joʻnatish (tonna), yuk aylanmasi (tonna-km), yoʻlovchi tashish (kishi) va yoʻlovchi aylanmasi (yoʻlovchi-km) kabi operatsion drayverlar dinamikasi bilan verifikatsiya qilinishi lozim. Agar tashish hajmlarining oʻsish sur'ati tushum oʻsish sur'atidan sezilarli orqada qolsa, bu holat auditor uchun tariflarning indeksatsiyasi, xizmatlar nomenklaturasining oʻzgarishi yoki tushumni hisobot davriga asossiz kiritish (kesish xatosi / cut-off risk) ehtimolidan darak beruvchi jiddiy analitik signal hisoblanadi.

«Oʻzbekiston temir yoʻllari» AJning 2022–2026-yillar moliyaviy va operatsion koʻrsatkichlarining chuqur auditorlik talqini

Korxona faoliyatining 2022–2026-yillar oraligʻidagi moliyaviy va ishlab chiqarish dinamikasini auditorlik tahlili nuqtai nazaridan oʻrganish bir qator tizimli va metodologik muammolarni ochib berdi.

1. 2022-yil samaradorlik (KPI) koʻrsatkichlari tahlili: Korxonaning 2022-yil yakuniy samaradorlik hisobotini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, jamiyat boʻyicha sof tushum rejasi 94,34 foizga bajarilgan. Eng xavfli jihati shundaki, biznes-reja boʻyicha 110,8 mlrd soʻmlik sof foyda koʻrish rejalashtirilgan boʻlsa-da, amalda yil yakuni bilan 1 174,0 mlrd soʻm (1,174 trln soʻm) miqdorida ulkan sof zarar qayd etilgan. Shunga qaramay, amaldagi KPI baholash metodologiyasiga muvofiq korxonaning umumiy samaradorlik koʻrsatkichi 108,652 foiz deb baholanib, «ijobiy/a'lo» darajaga ega boʻlgan. Bunga asosiy sabab qilib yuk joʻnatish rejasining 101,19 foizga va yoʻlovchi joʻnatish rejasining 113,22 foizga ortigʻi bilan bajarilganligi koʻrsatilgan. Mazkur paradoksal holat auditorlik tahlili nuqtai nazaridan jiddiy kamchilikdir: amaldagi KPI tizimida moliyaviy barqarorlik, toʻlov qobiliyati va sof moliyaviy natija koʻrsatkichlarining vazni operatsion natural koʻrsatkichlar fonida nihoyatda past baholangan. Auditor bunday yigʻma ballarga tayanib xulosa chiqara olmaydi va moliyaviy natijaning haqiqiy pasayish omillarini chuqur tekshirishi shart.

2. 2026-yil 1-yarim yillik emitent hisoboti tahlili: «Oʻzbekiston temir yoʻllari» AJning 2026-yil choraklik hisoboti (openinfo.uz, mutMe0DfOXLHMgkXCND2) ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan gorizontal va qiyosiy tahlil quyidagi oʻta muhim tendensiyalarni koʻrsatdi [5]:

– Sof tushum: Hisobot davrida sof tushum oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 29,55 foizga ortgan. Sotilgan mahsulot (tashish) tannarxi esa 17,00 foizga oshgan. Tannarx oʻsishining tushum oʻsishidan past boʻlishi natijasida korxonaning yalpi foydasi 71,90 foizga keskin oʻsgan, yalpi rentabellik esa 22,86

foizdan 30,33 foizga ko‘tarilgan. XAS 520 doirasida auditor bunday keskin rentabellik sakrashini biryoqlama ijobiy deb baholay olmaydi. Chunki tannarx xarajatlarining bir qismi (masalan, yo‘l infratuzilmasini kapital ta’mirlash) operatsion xarajatlardan asossiz ravishda uzoq muddatli aktivlarga (kapitallashtirish) o‘tkazilgan bo‘lishi yoki tariflarning oshishi hisobiga tushum sun’iy oshgan bo‘lishi mumkin.

– Likvidlik ko‘rsatkichlari paradoksi: Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, korxonaning joriy likvidlik koeffitsiyenti 3,16 dan 4,08 gacha oshgan, o‘z kapitali 6,77 foizga ortib, joriy majburiyatlari 27,44 foizga kamaygan. Tashqi ko‘rinishdan ushbu ko‘rsatkichlar korxonaning qisqa muddatli to‘lov qobiliyati mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Biroq pul oqimlari va likvid aktivlar moddalari tahlil qilinganda, korxonaning eng likvid aktivi — pul mablag‘lari qoldig‘i 39,64 foizga kamayganligi aniqlandi. Demak, joriy likvidlikning formal yaxshilanishi pul mablag‘larining ko‘payishi hisobiga emas, balki aylanma aktivlar tarkibida debitorlik qarzlarining to‘planishi va joriy majburiyatlarning qisqarishi hisobiga yuzaga kelgan.

– Debitorlik qarzlari va kredit riski: Muddati o‘tgan debitorlik qarzlari 24,13 foizga ko‘paygan. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining 9-sonli «Moliyaviy vositalar» (IFRS 9) talablariga muvofiq, kutilayotgan kredit zararlari (ECL) bo‘yicha zaxiralar to‘g‘ri shakllantirilmagan taqdirda, balans aktivlari sun’iy ravishda yuqori ko‘rsatilgan bo‘lishi xavfi mavjud.

– Moliyaviy faoliyat xarajatlari va valyuta kursi riski: Korxonaning moliyaviy xarajatlari 52,40 foizga, valyuta kurslarining salbiy farqidan ko‘rilgan zararlar esa 66,32 foizga oshgan [5]. Temir yo‘l tarmog‘ining investitsiya dasturlari (harakat tarkibini yangilash, elektrlashtirish) asosan xorijiy valyutadagi uzoq muddatli kreditlar hisobiga moliyalashtirilgani sababli, milliy valyuta devalvatsiyasi korxona sof foydasini yemiruvchi asosiy omil bo‘lib qolmoqda.

1-jadval.

Temir yo‘l transporti korxonalarida moliyaviy ko‘rsatkichlarning auditorlik tahlili va risklarni baholash matritsasi[69]

Moliyaviy ko‘rsatkich	O‘zgarish sur’ati	Bilan bog‘liq bo‘lgan operatsion drayver	XAS 315 va XAS 520 bo‘yicha auditorlik talqini va xavf darajasi
Sof tushum (daromad)	+29,55%	Yuk jo‘natish (tonna), yuk aylanmasi (tonna-km), yo‘lovchi tashish soni va chipta tariflari	Daromadni tan olish mezonlari (IFRS 15), davrlar chegarasi (cut-off) va tarif indeksatsiyasining asosliligi tekshiriladi. Xavf: O‘rta

[69] *Manba: Muallif tomonidan «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJning rasmiy hisobotlari va XAS 315/520 talablari asosida mustaqil ishlab chiqilgan.*

Moliyaviy ko‘rsatkich	O‘zgarish sur’ati	Bilan bog‘liq bo‘lgan operatsion drayver	XAS 315 va XAS 520 bo‘yicha auditorlik talqini va xavf darajasi
Sotilgan mahsulot tannarxi	+17,00%	Yoqilg‘i-energetika sarfi, lokomotiv-km, ta’mirlash hajmi, harakat xavfsizligi xarajatlari	Xarajatlarning tushumga nisbatan sekinroq o‘sishi sabablari, xarajatlarni noqonuniy kapitallashtirish yoki boshqa davrga surish ehtimoli o‘rganiladi. Xavf: O‘rta
Yalpi foyda va yalpi rentabellik	Yalpi foyda +71,90% Rentabellik: 22,86% dan 30,33% ga	Tashilayotgan yuklar nomenklaturasi va yuqori daromadli tranzit marshrutlar ulushi	Strukturaviy siljishlar tahlil qilinadi. Rentabellikning anomal o‘sishi hisob siyosatidagi tasniflash o‘zgarishlari bilan tekshiriladi. Xavf: Yuqori
Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	−39,64%	Haqiqiy operatsion to‘lovlar, yoqilg‘i va xomashyo xaridi, qarz to‘lovlari	Likvidlik paradoksi: hisobda foyda o‘sgan, biroq pul oqimi qisqargan. To‘lovga qobillik inqirozi va qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash xatari. Xavf: Yuqori
Muddati o‘tgan debitorlik qarzlari	+24,13%	Mijozlarga xizmat ko‘rsatish shartnomalari, ekspeditorlik kompaniyalari intizomi	IFRS 9 bo‘yicha ehtimoliy kredit zararlari (ECL) zaxiralarining to‘g‘riligi, debitorlik qarzlarining soxtaligi yoki qaytarilmaslik xavfi. Xavf: O‘ta yuqori
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	3,16 dan 4,08 gacha yaxshilangan	Joriy majburiyatlarning 27,44% ga kamayishi va aylanma aktivlar tuzilmasi	Koeffitsiyentning sun’iy yaxshilanishi pul vositalari hisobiga emas, qotib qolgan debitorlik va zaxiralar hisobiga yuzaga kelgan. Formal talqin xatosi. Xavf: Yuqori
Valyuta kursining salbiy farqi (zarari)	+66,32%	Xorijiy valyutada olingan xalqaro kredit liniyalari, xorijiy vagon ijarasi	Valyuta riskini xedjirlash mexanizmlarining yo‘qligi, kredit shartnomalari kovenantlarining buzilishi va kapital bazasiga bosim. Xavf: O‘ta yuqori

Temir yo‘l transporti korxonalarida auditorlik tahlilini takomillashtirishning ko‘p bosqichli modeli

Mavjud analitik kamchiliklarni bartaraf etish hamda tarmoq o‘ziga xosligini to‘liq qamrab olish maqsadida tadqiqotimizda «ko‘rsatkich–drayver–risk–dalil–xulosa» konseptual zanjiriga asoslangan ko‘p bosqichli auditorlik tahlili modeli taklif etiladi. Ushbu model quyidagi izchil beshta bosqichni o‘z ichiga oladi:

1-bosqich: Moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlar taksonomiyasini shakllantirish. Bunda temir yo‘l faoliyatining har bir moliyaviy hisobot moddasi tegishli natural o‘lchov drayveri (tonna, tonna-km, poyezd-km, vagon-kun, yoqilg‘i sarfi) bilan yagona axborot registriga bog‘lanadi.

2-bosqich: Ekonometrik trend va mavsumiylik asosida mustaqil auditorlik kutilmasini (auditor’s expectation) modellashtirish. Auditor so‘nggi 5-6 yillik retrospektiv ma’lumotlar (2020–2025-yillar bazasi) va reja ko‘rsatkichlari asosida ko‘rsatkichlarning prognoz koridorini hisoblab chiqadi.

3-bosqich: Ruxsat etilgan maqbul tafovut chegarasini (tolerable difference) belgilash va og‘ishlarni muhimlik darajasi bilan solishtirish. Kutilma bilan amaldagi ma’lumot o‘rtasidagi farq XAS 320 «Auditda muhimlik» talablariga ko‘ra miqdoriy va sifat jihatdan tasniflanadi.

4-bosqich: Tafovutlar tabiatini chuqur tekshirish va tasdiqlovchi auditorlik dalillarini to‘plash. Har bir og‘ish sababi tijorat shartnomalari, tarif preyskurantlari, bojxona deklaratsiyalari, poyezd dislokatsiyasi elektron yozuvlari va bank ko‘chirmalari bilan verifikatsiya qilinadi.

5-bosqich: Izohlanmagan yoki asossiz tafovutlarni Audit risklari reyestriga kiritish va audit xulosasiga ta’sirini baholash.

Auditorlik monitoring panelining indikatorlar tizimi

XAS 315 va XAS 520 standartlari talablarini uzluksiz integratsiya qilish maqsadida temir yo‘l korxonalarida qo‘llaniladigan Maxsus auditorlik indikatorlari paneli (Audit Dashboard) joriy etilishi lozim. Ushbu panelda quyidagi asosiy analitik nisbatlar bo‘yicha monitoring o‘rnatiladi (2-jadval):

2-jadval.

Temir yo‘l transportida auditorlik tahlili monitoring panelining asosiy indikatorlari[70]

T/r	Auditorlik ko‘rsatkichi (indikatori)	Hisoblash formulasi / algoritmi	Analitik maqsadi va nazorat signali
1	Yuk tashish tushumining birlik rentabelligi	Yuk tushumi / Jami yuk aylanmasi (tonna-km)	Tariflar o‘zgarishi va yuk strukturasining daromadga ta’sirini baholash (so‘m/tonna-km)
2	Birlik ekspluatatsiya tannarxi	Tashish tannarxi / Jami operatsion hajm (tonna-km)	Tannarx dinamikasining energiya, mehnat va amortizatsiya sarfi bilan mutanosibligini tekshirish
3	Solystirma yoqilg‘i-energiya samaradorligi	Haqiqiy energiya-yoqilg‘i sarfi / Lokomotiv-km	Yoqilg‘i sarfining texnologik me’yorlarga muvofiqligi va yo‘qotishlar riskini aniqlash
4	Debitorlik qarzlarining aylanish muddati	(O‘rtacha debitorlik qarzi × Davr kunlari) / Sof tushum	Mablag‘larning aylanmadan chiqib ketish davomiyligini va likvidlik bosimini baholash

[70] *Manba: Muallif ishlanmasi.*

T/r	Auditorlik ko‘rsatkichi (indikatori)	Hisoblash formulasi / algoritmi	Analitik maqsadi va nazorat signali
5	Sifatli operatsion pul oqimi koeffitsiyenti	Operatsion faoliyatdan sof pul oqimi / Sof foyda	Buxgalteriya foydasining real naqd pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasini aniqlash
6	Valyuta zararlarining xorijiy qarzga nisbati	Valyuta kursi zararlari / Jami xorijiy valyuta kreditlari	Valyuta devalvatsiyasining korxona to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligiga ta’sirini baholash

Ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar

O‘tkazilgan chuqur empirik va metodologik tahlillar natijasida temir yo‘l transporti korxonalarida moliyaviy ko‘rsatkichlarning auditorlik tahlilini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Moliyaviy va operatsion axborot oqimlarini avtomatlashtirilgan yagona tahliliy platformada integratsiyalash. Auditorlik dasturiy ta’minotiga temir yo‘l dispetcherlik tizimlari, elektron chipta bazalari va buxgalteriya modullarini bevosita bog‘lovchi API interfeyslarini joriy qilish zarur. Bu jarayon XAS 520 doirasida tushum va xarajatlarni har bir tonna-kilometr va yo‘lovchi-kilometr kesimida uzluksiz tekshirish imkonini beradi.

2. Korxona faoliyati samaradorligini (KPI) baholash tizimini tubdan isloh qilish. Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga — jumladan, sof foyda, operatsion pul oqimi va qarz yukiga — umumiy reytingda kamida 50-60 foiz majburiy vazn belgilanishi lozim. Operatsion rejalar bajarilgan taqdirda ham, agar korxona ulkan moliyaviy zarar bilan chiqsa, umumiy baho avtomatik ravishda pasaytirilishi shart. Bu holat boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi va auditorlik xulosasining ob’ektivligini kafolatlaydi.

3. Likvidlik tahlilida an’anaviy statik koeffitsiyentlardan dinamik pul oqimi modellariga o‘tish. Temir yo‘l korxonalarida qog‘ozdagi yuqori aylanma aktivlar bilan niqoblangan «likvidlik illyuziyasi»ning oldini olish maqsadida sof pul oqimi va qisqa muddatli majburiyatlarning qoplanish darajasi har oyda alohida tahlil qilinishi, pul aylanmasining to‘xtab qolish xavfi bo‘yicha erta ogohlantirish indikatorlari joriy etilishi kerak.

4. Debitorlik qarzlari monitoringini IFRS 9 talablari bilan qat’iy uyg‘unlashtirish. Muddati o‘tgan qarzdorliklar bo‘yicha yosh tarkibi (aging analysis) har chorakda yangilanib, 90 kundan oshgan qarzlar bo‘yicha 100 foizlik zaxira shakllantirilishi va yirik yuk jo‘natuvchilar bo‘yicha mustaqil tashqi auditorlik tasdiqlashlari (XAS 505) o‘tkazilishi shart.

5. Valyuta va foiz stavkalari risklarini audit rejasiga kiritish va stress-test modellashtirish. Korxonaning xorijiy valyutadagi qarz portfeli bo‘yicha milliy valyuta kursining ehtimoliy tebranishlariga nisbatan sezgirlik tahlili (sensitivity analysis) ishlab chiqilishi hamda audit hisobotida kovenant risklari alohida aks ettirilishi tavsiya etiladi.

Xulosa

Temir yo‘l transporti korxonalarida auditorlik tahlili korporativ shaffoflikni ta’minlash, aktivlarning butligini nazorat qilish va moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, faqatgina yakuniy moliyaviy hisobot raqamlari bilan cheklanib qoluvchi an’anaviy audit metodologiyasi zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi.

«O‘zbekiston temir yo‘llari» AJning 2022–2026-yillar oralig‘idagi faoliyati tahlili shuni isbotladiki, tashish hajmlarining o‘sishi va yalpi foydaning oshishi fonida korxonada pul mablag‘larining qisqarishi, muddati o‘tgan debitorlik qarzlarining ortishi hamda valyuta kursi zararlarining keskin ko‘payishi kabi jiddiy tizimli moliyaviy risklar to‘planib bormoqda. Mazkur maqolada taklif etilgan ko‘p bosqichli auditorlik tahlili modeli hamda integratsiyalashgan monitoring paneli XAS 315 va XAS 520 standartlari talablarini amaliyotda to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga, auditorlik tekshiruvi samaradorligini oshirishga va transport korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O‘RQ-677-son «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/docs/-5307886.

2. IAASB. International Standard on Auditing (ISA) 520: Analytical Procedures; ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement. Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. New York: International Auditing and Assurance Standards Board, 2025. – https://www.iaasb.org.

3. «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ rasmiy veb-sayti. Jamiyat faoliyatiga oid statistik va operatsion ko‘rsatkichlar tahlili. – https://railway.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Temir yo‘l transportida jo‘natilgan yuklar va yo‘lovchilar hajmi dinamikasi (2020–2024-yy.). Rasmiy statistik axborot portali. – https://siat.stat.uz/data/525/.

5. «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJning choraklik va yillik moliyaviy hisobotlari. Korporativ axborotning yagona portali (OPENINFO.UZ), hisobot kodi: mutMe0DfOXLHMgkXCND2, 2026. – https://openinfo.uz.

6. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S., Hogan C.E. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 17th Edition. – Pearson, 2020. – 880 p.

7. Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2021. – 456 b.

8. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi va audit. Darslik. – Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2022. – 380 b.

PROSPECTS FOR THE DIGITALISATION OF THE AUDIT OF PUBLIC PROCUREMENT

Rajabov Shuhrat Ismayilovich
Independent researcher Tashkent State University of Economics
Tashkent, Republic of Uzbekistan Tel.: +998 (99) 427-58-88;

Abstract. The paper examines the prospects for digitalising the audit of public procurement: risk indicators (red flags) computed automatically from the data of information systems, continuous auditing, and the transition from a periodic to a preventive approach. Foreign experience is summarised and the new national legal framework of 2025–2026 is taken into account. The author proposes a weighted procurement risk score with a critical-indicator override and a false-positive control loop, without which an automatic signalling system degenerates into noise.

Keywords: public procurement, digital audit, red flags, risk indicators, three-level signal mechanism, continuous auditing, full-population testing, preventive audit, dashboard, KONEPS, ProZorro.

In present-day conditions the processes of public procurement are being digitalised ever more completely. Their conduct through electronic systems leads to the accumulation of large volumes of data, and the effective use of these data makes it possible to raise the audit of public procurement to a new, digital level. In practice, however, the audit is still carried out largely by traditional manual methods, and the digital possibilities are not applied to a sufficient degree. The traditional audit is periodic in character: it is conducted only at certain intervals and on a selective basis, so that it fails to cover large volumes of procurement in time and detects violations late. Digitalisation and data analysis, by contrast, permit the continuous observation of procurements and the early identification of risks. The principal data sources for digital audit are the electronic public procurement system (xarid.uzex.uz), the treasury and accounting systems, and the various registers.

It is essential to note that the national legal framework has already moved ahead of audit practice here. Presidential Decree No. PF-252 of 18 December 2025 laid down additional measures for the further improvement of state audit and financial control [6], while Decree No. PF-259 of 26 December 2025 introduced, in the sphere of procurement itself, a “Control in public procurement” page providing for a unified classification of the risks of possible violations, the categorisation of those risks together with their automatic detection and notification, the categorisation of state customers according to the violations they have committed, and a “Procurement KPI” digital rating; it also provided for the launch, from 1 March 2026, of an electronic module computing the average market price of the subject of a procurement by means of artificial intelligence [7]. The question, accordingly, is no longer whether the detection of risks should be automated: that has been decided. The research task shifts to what precisely should

be computed — which indicators, with which thresholds and which weights — and this is the level at which the present paper is directed.

By analysing data obtained from different sources, risk indicators — red flags — are computed automatically. A risk indicator is a measure that signals the probability of a violation or of corruption in the procurement process. Six basic indicators may be distinguished for public procurement (Table 1).

Table 1

Basic risk indicators (red flags) of public procurement and the rules of their computation

Risk indicator	Rule of computation	Data source
Single-participant procedure	The number of participants admitted to the procedure equals one	Electronic procurement system
Repeat winner	Frequency with which one supplier wins with the same customer over a period	Electronic system, register of contracts
Price anomaly	Deviation of the contract price from the average market price of the subject of the procurement	Price module of the procurement portal, open price sources
Splitting of a procurement	Several small-value contracts covering one need with one customer within a short interval	Procurement plan, register of contracts
Frequent amendment of the contract	Number and value of the amendments introduced after conclusion	Register of contracts, treasury data
Excessively short term	The term for submitting offers or for delivery is below the established minimum	Electronic procurement system

Source: developed by the author on the basis of [1, 2, 7].

The legal changes of 2025–2026 alter the reading of two of these indicators, and this must be reflected in the methodology. Since a downward auction is now regarded as having taken place where a single entrepreneur participates, the single-participant indicator has ceased to be a signal of unlawfulness and remains a signal of a deficit of competition and of a possible loss of economy — which is a matter for the performance audit rather than the compliance audit. Conversely, the price-anomaly indicator, which previously depended on the auditors' own comparison, acquires an objective base of comparison in the market-price module [7].

On the basis of the indicators, procurements are classified through a three-level signal mechanism, which shows the auditor to which procurements attention must be directed first (Table 2).

Table 2

The three-level signal mechanism of the digital audit of procurement

Signal	Condition	Response of the audit
Green	The risk score is below the lower threshold and no critical indicator is present	Routine monitoring, no separate engagement
Yellow	The score falls in the middle band, or one indicator of medium weight is present	Additional examination under a limited programme
Red	The score exceeds the upper threshold, or a critical indicator is present	Immediate in-depth audit of the procurement

Source: developed by the author.

The important result of digitalisation is the transition from a periodic audit to a continuous one. Continuous auditing detects a risk at the moment of its emergence through the constant and automatic analysis of data, and it covers the whole population of procurements, so that risks which a selective examination might leave unnoticed are also identified (Table 3).

Table 3

Comparison of the periodic and the continuous digital audit of procurement

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida budjetdan tashqari tushumlar auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish moliyaviy boshqaruvning shaffofligi va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Xalqaro audit standartlari auditni rejalashtirish, auditorlik risklarini baholash, ichki nazorat tizimini o‘rganish va yetarli auditorlik dalillarini yig‘ish bo‘yicha yagona metodologik asosni ta’minlaydi. Tadqiqot davomida amaldagi audit amaliyotini zamonaviy audit yondashuvlari bilan boyitish zarurligi asoslandi. Xususan, riskga asoslangan auditni joriy etish, COSO modeli asosida ichki nazorat tizimini baholash, uzluksiz audit va Data Analytics texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek samaradorlik auditini budjetdan tashqari tushumlarni tekshirish jarayoniga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, auditorlarning xalqaro sertifikatlash dasturlari asosida malakasini oshirish, elektron audit platformalarini yaratish hamda xalqaro audit standartlarini milliy audit amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish budjetdan tashqari tushumlar auditining sifati va ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy intizomni mustahkamlash, budjetdan tashqari mablag‘lardan oqilona foydalanishni ta’minlash va davlat moliyaviy nazorati samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni. O‘RQ–677-son, 2021-yil 25-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonuni. O‘RQ–404-son, 2016-yil 13-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O‘RQ–360-son, 2013-yil 26-dekabr (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
4. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. O‘RQ–637-son, 2020-yil 23-sentabr.

[74] g‘aniyev Sh.V. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish (ta’lim tizimi misolida): iqtisodiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2008.

5. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. – New York: IFAC, 2023. – 1600 p.
6. International Organization of Supreme Audit Institutions (INTOSAI). ISSAI Framework of Professional Pronouncements. – Vienna: INTOSAI, 2023. – 1280 p.
7. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Internal Control – Integrated Framework. – New York: COSO, 2013. – 398 p.
8. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 17th Edition. – London: Pearson Education, 2020. – 848 p.
9. Messier W.F., Glover S.M., Prawitt D.F. Auditing and Assurance Services: A Systematic Approach. 12th Edition. – New York: McGraw-Hill Education, 2022. – 960 p.
10. Hay D. The Future of Auditing. – London: Routledge, 2020. – 286 p.
11. Hamdamov B.B. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va audit. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – 384 b.
12. Pardayev M.Q. Davlat sektori buxgalteriya hisobi. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020. – 408 b.
13. Elmirzayev Sh.X. Davlat moliyaviy nazorati va audit. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2021. – 420 b.
14. Karimov A.A. Audit. – Toshkent: Sharq, 2021. – 456 b.

KORXONALARDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARIGA OID HISOBOTLARNING AXBOROT QAMROVINI KENGAYTIRISH

Rajaboyev Shahboz Shodi o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mustaqil tadqiqotchisi
shahbozrajabboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0997-6689

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlariga oid hisobotlarning axborot qamrovini kengaytirish masalalari tadqiq etilgan. AKT xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlarida shakllanadigan moliyaviy, iqtisodiy va boshqaruv axborotlarini tizimli ravishda aks ettirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, hisobotlarda xizmat turlari, daromadlar, xarajatlar, mijozlar, xizmatlardan foydalanish hajmi hamda samaradorlik ko‘rsatkichlarini batafsil ifodalash imkoniyatlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, AKT xizmatlari, hisobot, axborot qamrovi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, boshqaruv

axboroti, raqamli iqtisodiyot, xizmatlar, daromadlar, xarajatlar, axborot tizimlari, hisobot koʻrsatkichlari.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining ulushi va iqtisodiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Natijada ushbu xizmatlar bilan bogʻliq xoʻjalik operatsiyalarini nafaqat buxgalteriya hisobida toʻgʻri aks ettirish, balki ular toʻgʻrisidagi axborotni moliyaviy hisobotlarda toʻliq, shaffof va foydalanuvchilar ehtiyojlariga mos ravishda ochib berish zarurati kuchaymoqda. Ayniqsa, investorlar, kreditorlar, boshqaruv organlari hamda boshqa manfaatdor foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlarning sifati hisobotlarda aks ettirilgan axborotning ishonchliligi, toʻliqligi va tahliliy darajasiga bevosita bogʻliqdir. Amaldagi moliyaviy hisobot shakllari AKT xizmatlarini koʻrsatuvchi korxonalarning faoliyat xususiyatlarini toʻliq yoritishga yetarli imkoniyat bermaydi. Xususan, dasturiy taʼminotni yaratish va joriy etish, bulutli xizmatlar, texnik qoʻllab-quvvatlash, maʼlumotlarni qayta ishlash, litsenziyalash, axborot xavfsizligi hamda boshqa raqamli xizmatlar boʻyicha daromad va xarajatlar koʻpincha umumlashtirilgan koʻrinishda aks ettiriladi. Natijada AKT xizmatlarining moliyaviy natijalarga taʼsiri, ularning iqtisodiy samaradorligi va istiqboldagi rivojlanish salohiyatini baholash imkoniyatlari cheklanadi.

Shuningdek, AKT xizmatlari bilan bogʻliq nomoddiy aktivlar, innovatsion ishlanmalar, raqamli infratuzilmaga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hamda xizmatlarning asosiy samaradorlik koʻrsatkichlari yuzasidan moliyaviy hisobotlarda batafsil axborotning mavjud emasligi hisobot foydalanuvchilarining axborot ehtiyojlarini toʻliq qondirmaydi. Bu esa korxona faoliyatining shaffofligini taʼminlash, investitsion jozibadorligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini taʼminlashda muayyan cheklovlarni yuzaga keltiradi. Oʻzbekiston Respublikasida xoʻjalik yurituvchi subyektlar tomonidan tayyorlanadigan va taqdim etiladigan hisobotlar meʼyoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Mazkur hujjatlar jumlasiga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subʼektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik maʼlumotlarni taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”[75], shuningdek “Hisobot taqdim etish va arxiv hujjatlarini saqlash tartib-taomillarini maqbullashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” [76] gi Qarorlarini misol qilib keltirish mumkin. Demak, normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, Respublikamizda turli yoʻnalishlarda faoliyat koʻrsatayotgan AKTX korxonalari tomonidan quyidagi hisobotlar tayyorlanadi va tegishli subʼektlarga taqdim etiladi (1-rasm):

[75] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subʼektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik maʼlumotlarni taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori. 2024 yil 9 yanvar. PQ-8-son.

[76] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Hisobot taqdim etish va arxiv hujjatlarini saqlash tartib-taomillarini maqbullashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori. 2022 yil 10 noyabr. PQ-419-son.



1-rasm. AKT xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan tayyorlanadigan va taqdim etiladigan hisobot turlari[77]

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 8-oktyabrdagi “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”[78]gi normativ-huquqiy hujjati 2025-yil 1-yanvardan boshlab banklar, sug‘urta tashkilotlari va byudjet tashkilotlaridan tashqari barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda, jumladan AKT xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda moliyaviy hisobotlarni Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) hamda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablari asosida shakllantirish va taqdim etishning asosiy me’yoriy asosini tashkil etadi. Mazkur nizomga muvofiq, AKT xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar o‘zlarining tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat ko‘lami va amaldagi hisob yuritish tizimidan kelib chiqib tegishli moliyaviy hisobot shakllarini tayyorlaydi va taqdim etadi (1-jadval). Xususan, nizomning 2-ilovasida nazarda tutilgan “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” shakli AKT korxonalarining hisobot davridagi daromadlari, xizmatlar tannarxi, operatsion xarajatlari, moliyaviy natijalari hamda sof foydasi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirishga xizmat qiladi. Mazkur hisobot shakli BHMS yoki MHXS talablari asosida buxgalteriya hisobini yurituvchi AKT korxonalari tomonidan shakllantirilib, belgilangan muddatlarda vakolatli davlat organlariga taqdim etiladi.

1-jadval.

AKT xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobot shakllari[79]

№	BHMSga asosan	MHXSga asosan
1	Buxgalteriya balansi	Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot
2	Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot	Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot
3	Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot	Xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot
4	Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot	Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot (bilvosita usul)

[77] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.
[78] O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i. Toshkent sh., 2024-yil 8-oktabr, 181-son.
[79] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

5	Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar (moliyaviy hisobotga izohlar)	Ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma’lumotlaridan iborat izohlar (moliyaviy hisobotga izohlar)

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar jarayonida xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlarni aks ettiruvchi moliyaviy hisobot shakllari hamda ularda xarajatlar tarkibi va mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi ko‘rsatkichlar tizimi atroflicha tadqiq qilindi. Mazkur tadqiqotlar asosida amaldagi moliyaviy hisobotlarda xarajatlar haqidagi axborotlarning aks ettirilish holati baholandi. Hozirgi kunda xo‘jalik yurituvchi subyektlar, jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar tomonidan tuziladigan va taqdim etiladigan 2-shakl-“Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”da xarajatlarga oid axborotlar tegishli ko‘rsatkichlar orqali ochib beriladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda korxona xarajatlariga oid ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar tarkibi[80]

Ko‘rsatkichlar nomi	**Satr kodi**
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	020
Davr xarajatlari, jami (satr.050+060+070), shu jumladan:	**040**
Sotish xarajatlari	050
Ma’muriy xarajatlar	060
Boshqa operatsion xarajatlar	070
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar (satr.180+190+200+210), shu jumladan:	**170**
Foizlar shaklidagi xarajatlar	180
Moliyaviy ijara bo‘yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	190
Valyuta kursi farqidan zararlar	200
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	210
Foyda solig‘i	250
Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar	260

Bundan ko‘rinib turibdiki, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan hisobot davri uchun taqdim etiladigan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda xarajatlarga oid axborotlarni yoritib beruvchi 12 ta satr ishlab chiqilgan bo‘lib, shundan 2 ta satr xarajatlar bo‘yicha jamlanma axborotlarni taqdim etadi.

Xulosa

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatining jadal rivojlanishi sharoitida ushbu korxonalarda shakllanadigan moliyaviy va boshqaruv axborotlarini hisobotlarda to‘liq, shaffof va tizimli aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaldagi moliyaviy hisobot shakllarida AKT xizmatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, daromadlarning shakllanish manbalari hamda xizmatlarni ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar yetarli darajada batafsil ochib berilmaydi.

Tadqiqot davomida AKT xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarning moliyaviy natijalarini shakllantirish jarayonini yanada aniq ifodalash maqsadida “Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot” shaklini takomillashtirish taklif etildi. Xususan, **“AKT xizmatlarini ko‘rsatishdan sof**

[80] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

tushum”, **“Ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha qaytarish (refund)”**, **“AKT xizmatlari bo‘yicha berilgan chegirmalar”**, **“AKT xizmatlarini ko‘rsatishdan tuzatilgan sof tushum”**, **“AKT infratuzilmasini qo‘llab-quvvatlash va raqamli xizmatlarni rivojlantirish xarajatlari”** hamda boshqa qo‘shimcha ko‘rsatkichlarni alohida aks ettirish taklif qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Farxodovich, Boronov Bobur, and Rajaboyev Shahboz Shodi o‘g‘li. "MECHANISMS FOR USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES IN THE ELECTRONIC GOVERNMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN AND THEIR EFFECTIVENESS." Лучшие интеллектуальные исследования 59.2 (2025): 285-292.
2. Farxodovich, Boronov Bobur. "STAGES OF DEVELOPMENT OF THE INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES SYSTEM." Лучшие интеллектуальные исследования 59.2 (2025): 293-298.
3. Farxodovich, Boronov Bobur, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, and Yodgorov Xushvaqt Mansurovich. "FARMASEVTIKA KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING O ’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY 1.1 (2025): 282-289.
4. Боронов, Бобур, and Заррух Мухаммадиев. "ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЪЕМА УЧЕТА КАПИТАЛЬНЫХ ВЛОЖЕНИЙ В ХОЗЯЙСТВУЮЩИЕ СУБЪЕКТЫ." Передовая экономика и педагогические технологии 2.2 (2025): 444-450.
5. Boronov, Bobur, and Zarrux Muxammadiev. "Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to ’g ’risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish.” YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT” 3.4 (2025).
6. Боронов, Бобур, and Шавкат Саломов. "ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ." Экономическое развитие и анализ 3.2 (2025): 268-274.
7. Sh, Rajaboyev Sh, and J. I. Xabibulloyev. "KOMPYUT ER GRAFIKASI VA GRAFIK AMALLAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAGI O ’RNI." Экономика и социум 12-2 (139) (2025): 578-581.
8. Sh, Rajaboyev Sh. "KORXONALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARI BUXGALTERIYA HISOBINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." Экономика и социум 12-2 (139) (2025): 558-564.
9. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA SOHASIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARASI." Экономика и социум 12-2 (139) (2025): 571-577.
10. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "RAQAMLI IQTISODIYOTDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI." Экономика и социум 4-1 (131) (2025): 449-453.

11. Rajaboyev Sh.Sh. “AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI” MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT jurnali. 2026-yil, iyul. **№** 7-son. https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal/article/view/3600

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALARDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING AXBOROT QAMROVINI KENGAYTIRISH

Rajaboyev Shahboz Shodi o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
mustaqil tadqiqotchisi
shahbozrajabboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0997-6689

Annotatsiya. Korxonalarda raqamlashtirish jarayonlarining rivojlanishi sharoitida AKT xizmatlari bo‘yicha hisobotlarning axborot qamrovini kengaytirish orqali boshqaruv qarorlarining tezkorligi, hisob va hisobotlarning shaffofligi hamda axborotlardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, AKT xizmatlari, hisobot, axborot qamrovi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, boshqaruv axboroti, raqamli iqtisodiyot, xizmatlar, daromadlar, xarajatlar, axborot tizimlari, hisobot ko‘rsatkichlari.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar moliyaviy hisobotlar orqali korxona rahbariyati, boshqaruv xodimlari, investorlar, kreditorlar hamda boshqa manfaatdor axborot foydalanuvchilarini hisobot davrida shakllangan daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. Biroq, tadqiqotlar natijasida AKT korxonalarida amalga oshiriladigan xizmatlar tarkibi va ularni bajarish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘ziga xos xususiyatlari amaldagi moliyaviy hisobot shakllarida to‘liq aks ettirilmayotgani aniqlandi. Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlarimiz natijasi asosida “Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot”ga farmatsevtika faoliyatiga oid xarajatlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi satrlar ishlab chiqish lozim degan xulosaga kelindi. Bizning fikrimizcha ushbu hisobotda xarajatlar va boshqa ko‘rsatkichlar quyidagi tartibda aks ettirilishi lozim deb hisoblaymiz (1-jadval):

1-jadval.

“Uztelecom” AJ AKT xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda "Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot" (takomillashtirilgan shakl), ming so‘m[81]

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davrida daromadlar (foyda)	Hisobot davrida xarajatlar (zararlar)
AKT xizmatlarini ko‘rsatishdan sof tushum	010	75 308 020	x
Ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha qaytarish (refund)	020	x	626 700
AKT xizmatlari bo‘yicha berilgan chegirmalar	030	x	1 102 750
AKT xizmatlarini ko‘rsatishdan tuzatilgan sof tushum (010–020–030)	040	73 578 570	x
Ko‘rsatilgan AKT xizmatlari tannarxi	050	x	49 857 000
AKT xizmatlarini ko‘rsatishning yalpi foydasi (040–050)	060	23 721 570	x
Davr xarajatlari, jami (110+120+130+140)	100	x	12 468 450
Sotish xarajatlari	110	x	1 485 620
Ma’muriy xarajatlar	120	x	6 387 830
Boshqa operatsion xarajatlar	130	x	2 045 740
AKT infratuzilmasini qo‘llab-quvvatlash va raqamli xizmatlarni rivojlantirish xarajatlari	140	x	2 549 260
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	200	3 485 900	x
AKT xizmatlarini ko‘rsatishdan sof foyda (060–100+200)	300	14 739 020	x
Moliyaviy faoliyat daromadlari (410+420+430+440+450)	400	1 265 480	x
Dividendlar shaklidagi daromadlar	410	95 000	x
Foizlar shaklidagi daromadlar	420	214 860	x
Moliyaviy ijaradan daromadlar	430	118 640	x
Valyuta kursi farqidan daromadlar	440	746 980	x
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	450	90 000	x
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar (510+520+530+540)	500	x	2 018 640
Foizlar shaklidagi xarajatlar	510	x	615 820
Moliyaviy ijara bo‘yicha foiz xarajatlari	520	x	168 430
Valyuta kursi farqidan zararlar	530	x	1 112 390
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	540	x	121 000
Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (300+400–500)	600	13 985 860	x
Favqulodda foyda va zararlar	700	–	–
Foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda (600±700)	800	13 985 860	x

[81] Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

Chegirilmaydigan xarajatlar (taklif etilayotgan yangi satr)	810	x	524 760
Foyda solig‘i	820	x	2 797 172
Foydadan boshqa soliqlar va majburiy to‘lovlar	830	x	–
Hisobot davrining sof foydasi (800–820–830)	**900**	**11 188 688**	**x**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatining iqtisodiy mazmuni, xizmatlarni ko‘rsatish jarayonlari hamda daromad va xarajatlarning shakllanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda biz tomonimizdan taklif etilgan **“Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot”** shakli amaldagi hisobot shakliga nisbatan qo‘shimcha analitik axborotlarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Mazkur hisobot shaklini takomillashtirish natijasida nafaqat korxona rahbariyati va ichki boshqaruv xodimlari, balki investorlar, kreditorlar, davlat organlari hamda boshqa manfaatdor axborot foydalanuvchilari uchun AKT korxonalarining moliyaviy natijalari to‘g‘risida yanada to‘liq, shaffof va ishonchli axborotlarni olish imkoniyati yuzaga keladi. Tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan taklif etilayotgan hisobot shakli quyidagi ilmiy-amaliy afzalliklarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Birinchidan, AKT xizmatlarini ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar tarkibi **sof tushum** hamda **tuzatilgan sof tushum** ko‘rinishida aks ettirilishi tavsiya etildi. Bugungi kunda AKT xizmatlari bozori tobora rivojlanib borayotganligi sababli korxonalar tomonidan dasturiy ta’minot yaratish, bulutli xizmatlar (Cloud Services), ma’lumotlarni saqlash (Hosting va Data Center), texnik qo‘llab-quvvatlash, axborot xavfsizligi xizmatlari, IT-autsorsing hamda konsalting xizmatlari ko‘rsatish jarayonida mijozlarga turli xil tijorat imtiyozlari berilishi keng qo‘llanilmoqda. Jumladan, xizmatlar bo‘yicha abonent to‘lovlarining qaytarilishi (refund), xizmat ko‘rsatish shartnomalarining muddatidan oldin bekor qilinishi, kafolat majburiyatlari doirasida bepul xizmatlar ko‘rsatilishi, bonuslar, marketing aksiyalari hamda individual chegirmalar berilishi amaliyotda keng uchraydi.

Amaldagi moliyaviy hisobot shakllarida mazkur operatsiyalar sof tushum tarkibida umumlashtirib aks ettirilayotganligi sababli foydalanuvchilar xizmatlarning haqiqiy realizatsiya hajmi va korxonaning real daromadlari to‘g‘risida yetarlicha axborotga ega bo‘la olmaydi. Shu bois, bizning fikrimizcha, hisobotda dastlab **“AKT xizmatlarini ko‘rsatishdan sof tushum”**, undan keyin esa xizmatlar qaytarilishi va berilgan chegirmalarni hisobga olgan holda **“AKT xizmatlarini ko‘rsatishdan tuzatilgan sof tushum”** ko‘rsatkichini alohida aks ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv xizmatlar bozoridagi haqiqiy daromad hajmini aniqlash, har bir xizmat yo‘nalishining rentabelligini baholash hamda moliyaviy tahlil sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, investorlar va kreditorlar korxonaning daromad shakllanish mexanizmini chuqurroq tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, tadqiqotlar davomida aniqlandiki, AKT xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda davr xarajatlari tarkibi boshqa tarmoqlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va

modernizatsiya qilish, litsenziya to‘lovlari, server va tarmoq uskunalarini qo‘llab-quvvatlash, bulutli platformalar xizmatlari, ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari (Data Center), axborot xavfsizligini ta’minlash, dasturiy ta’minotni yangilash, texnik qo‘llab-quvvatlash, sun’iy intellekt va raqamli platformalarni rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlar korxonalarning davr xarajatlari tarkibida salmoqli ulushni tashkil etadi. Biroq amaldagi moliyaviy hisobotlarda ushbu xarajatlar ma’muriy yoki boshqa operatsion xarajatlar tarkibida umumlashtirilgan holda aks ettiriladi.

Xulosa

AKT xizmatlarining real daromad va xarajatlarini aniqroq shakllantirish, xizmat ko‘rsatish samaradorligini baholash, daromadlarning o‘zgarish sabablarini tahlil qilish hamda korxonaning moliyaviy natijalarini yanada chuqurroq baholash imkonini beradi. Ayniqsa, xizmatlar qaytarilishi va chegirmalarni alohida ko‘rsatish orqali tuzatilgan sof tushumning shakllanish mexanizmini ochib berish hisobot axborotining ishonchliligi va tahliliy ahamiyatini oshiradi.

Shuningdek, AKT infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli xizmatlarni joriy etish, ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari, bulutli texnologiyalar, axborot xavfsizligi va dasturiy ta’minot bilan bog‘liq xarajatlarni alohida ko‘rsatish korxona faoliyatining iqtisodiy mohiyatini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Natijada rahbariyat, investorlar, kreditorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar korxonaning moliyaviy holati va faoliyat natijalari to‘g‘risida yanada to‘liq va ishonchli axborotga ega bo‘ladilar.

Umuman olganda, AKT xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda moliyaviy hisobotlarning axborot qamrovini kengaytirish **hisob va hisobotlarning shaffofligini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash, moliyaviy natijalarni chuqur tahlil qilish hamda korxonaning iqtisodiy samaradorligini baholashning takomillashuviga xizmat qiladi**. Taklif etilgan hisobot shakli AKT xizmatlari bozorining zamonaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda moliyaviy hisobot axborotlarini yanada batafsil va tahliliy ko‘rinishda shakllantirish uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Farxodovich, Boronov Bobur, and Rajaboyev Shahboz Shodi o‘g‘li. "MECHANISMS FOR USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES IN THE ELECTRONIC GOVERNMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN AND THEIR EFFECTIVENESS." Лучшие интеллектуальные исследования 59.2 (2025): 285-292.

2. Farxodovich, Boronov Bobur. "STAGES OF DEVELOPMENT OF THE INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES SYSTEM." Лучшие интеллектуальные исследования 59.2 (2025): 293-298.

3. Farxodovich, Boronov Bobur, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, and Yodgorov Xushvaqt Mansurovich. "FARMASEVTIKA KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING O ’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY 1.1 (2025): 282-289.

4. Боронов, Бобур, and Заррух Мухаммадиев. "ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЪЕМА УЧЕТА КАПИТАЛЬНЫХ ВЛОЖЕНИЙ В ХОЗЯЙСТВУЮЩИЕ СУБЪЕКТЫ." Передовая экономика и педагогические технологии 2.2 (2025): 444-450.
5. Boronov, Bobur, and Zarrux Muxammadiev. "Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to ’g ’risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish." YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 3.4 (2025).
6. Боронов, Бобур, and Шавкат Саломов. "ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ." Экономическое развитие и анализ 3.2 (2025): 268-274.
7. Sh, Rajaboyev Sh, and J. I. Xabibulloyev. "KOMPYUT ER GRAFIKASI VA GRAFIK AMALLAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAGI O ’RNI." Экономика и социум 12-2 (139) (2025): 578-581.
8. Sh, Rajaboyev Sh. "KORXONALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARI BUXGALTERIYA HISOBINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." Экономика и социум 12-2 (139) (2025): 558-564.
9. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA SOHASIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARASI." Экономика и социум 12-2 (139) (2025): 571-577.
10. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "RAQAMLI IQTISODIYOTDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI." Экономика и социум 4-1 (131) (2025): 449-453.
11. Rajaboyev Sh.Sh. “AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI” MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT jurnali. 2026-yil, iyul. **№** 7-son. https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal/article/view/3600

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА И ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

С.М. Султанова
профессор, PhD, профессор, Ташкентский государственный транспортный университет, +998 99 830 84 76, sofsul@mail.ru

Аннотация. В статье представлены особенности организации управленческого учета и внутреннего аудита в АО «Узбекистон темир йуллари» в связи с происходящими структурными изменениями и реализацией программы цифровой трансформации компании.

Сформулированы рекомендации по созданию единого центра ведения учета и отчетности и по преодолению возникающих при этом рисков. Приведенные в статье направления повышения информационной емкости управленческого учета и аудита основаны на реализации единых принципов планирования, оценки, калькулирования, анализа и контроля.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, управленческий учет, внутренний аудит, железнодорожный транспорт, централизация, единый центр обслуживания (ЕЦО), цифровизация.

В мировой практике общепризнанной информационной системой, обеспечивающей потребности менеджеров во внутрифирменном корпоративном управлении, является система управленческого учета. Дискуссионный характер особенностей организации управленческого учета и внутреннего аудита в АО «Узбекистон темир йуллари» связан прежде всего с организационно-функциональной структурой управления и применяемыми методами управленческого воздействия на решение функциональных задач крупных вертикально интегрированных компаниях, в том числе в транспортных отраслях.

Ключевым оператором транспортной отрасли выступает акционерное общество «Узбекистон темир йуллари» (АО «УТЙ»), в котором с 2023 года реализуется трансформация и цифровизация управления [1,2,3]. В связи с этим особую актуальность приобретает разработка и внедрение в деятельность АО «УТЙ» рациональной и оперативной системы управленческого учета и аудита, позволяющей в реальном времени отслеживать совершенные хозяйственные операции и реагировать на происходящие изменения и внедрение прозрачного раздельного учета затрат, обеспечивающего прозрачность калькулирования себестоимости перевозочной деятельности, что, в свою очередь, необходимо для принятия управленческих решений в сфере ценообразования, снижения эксплуатационных затрат и инвестирования в новые технологии.

В холдинговой структуре АО «УТЙ» единая учетная политика и иные стандарты управленческого учета имеют корпоративный статус: они устанавливают порядок и принципы ведения учета применительно ко всем сегментам и видам деятельности группы с учетом их специфики, утверждаются правлением общества и являются обязательными для применения всеми организациями, входящими в состав холдинга.

Наблюдательный совет общества, действуя в соответствии с утверждённым «Положением о Совете АО «Узбекистон темир йуллари»», создает службу внутреннего аудита, назначает ее сотрудников и ежеквартально заслушивает ее отчеты, а ревизионная комиссия, избираемая общим собранием акционеров, осуществляет проверку финансово-хозяйственной деятельности общества (рисунок).



Рисунок 1 Структура органов управления, внутреннего контроля и учёта в АО «Узбекистон темир йуллари»

Подобное разделение функций – текущего внутреннего контроля со стороны службы внутреннего аудита и периодической проверки со стороны ревизионной комиссии обеспечивает достоверность данных управленческого учета, используемых при подготовке консолидированной отчетности и принятии инвестиционных решений [4,5]. Для организации управленческого учета в холдинге используется понятие «бизнес-единица» – например, входящие в структуру АО «УТЙ» дочерние общества и филиалы («Темирйулинфратузилма», региональные железнодорожные узлы, эксплуатационные и производственно-технические подразделения). В компании реализуется программа цифровой трансформации, направленная в том числе на автоматизацию процессов сбора, обработки и передачи учетной информации между структурными подразделениями и головным обществом, что делает актуальным поэтапный переход к более централизованной модели ведения учета – по аналогии с моделью общих (единых) центров обслуживания (ОЦО/ЕЦО), применяемой рядом сетевых транспортных холдингов ведущих зарубежных стран («Российские железные дороги», «Canadian National Railway» (CN), «China State Railway Group») [9].

В АО «УТЙ» в процессе сбора информации, предназначенной для формирования консолидированной корпоративной отчетности, по нашему мнению, целесообразно рекомендовать единый подход к формированию учетной информации путем разработки и утверждения единой учетной

политики для всех организаций холдинга. Это требуется для того, чтобы уполномоченный государственный орган как единственный акционер общества и потенциальные инвесторы могли адекватно оценивать финансовые показатели группы в целом.

Полезным ориентиром для развития системы внутреннего аудита в АО «УТЙ» служит опыт крупных зарубежных железнодорожных компаний, использующих различные модели корпоративного управления. В Канадской национальной железнодорожной компании «Canadian National Railway» (CN) реализована англо-американская модель: единый совет директоров, большинство мест в котором занимают независимые директора, делегирует функции контроля за достоверностью отчетности профильному комитету – Комитету по аудиту, финансам и рискам (Audit, Finance and Risk Committee). Этот комитет отвечает за мониторинг внутреннего контроля компании, оценивает работу как внутренних, так и внешних аудиторов, а внешний аудитор подотчетен непосредственно комитету, а не менеджменту. Важной особенностью модели CN является требование о раздельных ежеквартальных встречах комитета с внутренними и внешними аудиторами без участия менеджмента, что обеспечивает независимость аудиторских оценок.

Китайская модель, применяемая в «China State Railway Group» и в листингуемых дочерних структурах группы, построена на принципах континентального (двухуровневого) корпоративного управления: наряду с советом директоров и его комитетом по аудиту создается самостоятельный наблюдательный (ревизионный) орган – Supervisory Committee, а на уровне центрального аппарата группы функционирует специализированное Управление по аудиту и оценке (Audit and Appraisal Bureau), работающее в тесной связи с органами внутреннего контроля [10]. При этом дочерние компании группы на регулярной основе привлекают независимые международные аудиторские фирмы для оценки эффективности систем внутреннего контроля и подтверждения консолидированной отчетности [8].

Сопоставление двух моделей показывает, что действующая в АО «УТЙ» структура – наблюдательный совет, правление, ревизионная комиссия и служба внутреннего аудита – по логике организации ближе к континентальной (китайской) модели с разделением функций стратегического управления, исполнительного управления и независимого контроля [9,10]. Вместе с тем ряд элементов англо-американской практики может быть использован для повышения эффективности этой структуры: создание в рамках наблюдательного совета специализированного комитета по аудиту из независимых членов совета; регулярные (не реже одного раза в квартал) встречи такого комитета со службой внутреннего аудита и с внешними аудиторами без участия исполнительного руководства; а также привлечение международных аудиторских организаций для независимой оценки системы внутреннего контроля – по аналогии с практикой китайских железнодорожных компаний – в дополнение к проверкам ревизионной комиссии.

Практические рекомендации

Исходя из результатов проведенного исследования, сформулируем основные практические предложения для развития управленческого учета и внутреннего аудита в АО «Узбекистон темир йуллари»:

- в рамках реализуемой программы цифровой трансформации АО «УТЙ» повысится достоверность сводной бухгалтерской отчетности, подготовленной как по законодательству Республики Узбекистан, так и по международным стандартам финансовой отчетности;
- сформировать в составе наблюдательного совета специализированный комитет по аудиту из независимых членов совета и закрепить практику его регулярных (не реже раза в квартал) встреч со службой внутреннего аудита и внешними аудиторами без участия исполнительного руководства – по аналогии с практикой Canadian National Railway;
- на регулярной основе привлекать независимые международные аудиторские организации для оценки эффективности системы внутреннего контроля и подтверждения консолидированной отчетности – по аналогии с практикой China State Railway Group.

Таким образом, управленческий учет и внутренний аудит на железнодорожном транспорте Узбекистана осуществляют не только фиксирование прошлых затрат, их документальное отражение и анализ финансово-хозяйственной деятельности организации, но и позволяют экономически обосновать процесс принятия управленческих решений и подтвердить достоверность учетной информации. Поэтому не случайно в их сферу входят вопросы, связанные с экономикой, управлением, планированием, анализом и контролем деятельности организаций. Для принятия оптимальных управленческих и финансовых решений необходимо знать свои затраты и в первую очередь разбираться в информации о производственных расходах, а также иметь уверенность в достоверности этой информации, обеспечиваемой системой внутреннего контроля.

Правильное управление затратами создает у компании и ее структурных подразделений солидный запас финансовой прочности и повышает ее эффективность, а значит усиливает ее способность к защите своих рыночных интересов и способность при прочих равных условиях получить большую прибыль или создать больший бюджет продвижения.

Список использованной литературы

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по совершенствованию финансового учета в соответствии с международными требованиями и стандартами» № ПП-282 от 15.09.2025 г. 4. Курдюмов, А. В. Стратегический аудит: современное состояние и направления развития / А. В. Курдюмов, А. К. Измоденов // Аудиторские ведомости. – 2020. – № 2. – С. 30-35. – EDN GRTGUG.
2. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 10.10.2023 г. № ПП-329 «О О мерах по коренному реформированию сферы железнодорожного транспорта Республики Узбекистан».

3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 28 октября 2016 г. № 375 «Об утверждении организационной структуры и структуры исполнительного аппарата акционерного общества «Узбекистон темир йуллари»».
4. Рахманова Ю. Ш. Реформирование бухгалтерского учета и аудита в Узбекистане: результаты, проблемы и пути совершенствования // Экономика и социум. 2021. №12-2 (91). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/reformirovanie-buhgalterskogo-ucheta-i-audita-v-uzbekistane-rezultaty-problemy-i-puti-sovershenstvovaniya
5. Резниченко В.Г. Эффективность перехода на общие центры обслуживания бухгалтерий крупных корпораций, 2026 URL: http://www.elibrary.ru .
6. Ключников С.В. Принципы построения системы управленческого учета в корпорациях // Вестник СГСЭУ. 2007. № 17 (3).
7. Садыкова Т.М. Центры ответственности как объекты системы управленческого контроля // Вестник СГСЭУ. 2024. № 8.
8. Устав акционерного общества «Узбекистон темир йуллари» https://railway.uz
9. Canadian National Railway Company. Corporate Governance Manual; Audit, Finance and Risk Committee Charter. URL: https://www.cn.ca
10. China Railway Group Limited. Annual Results Announcement (Corporate Governance, Supervisory Committee, Audit Committee). URL: https://www.crecg.com.
11. Официальный сайт АО «Узбекистон темир йуллари». URL: https://railway.uz.

KLASTERLARDA MHXS 15 «XARIDORLAR BILAN SHARTNOMALAR BO‘YICHA DAROMAD» STANDARTI ASOSIDA DAROMADLARNI AKS ETTIRISH USLUBIYATI

Shirov Javlonbek Akbarovich
Tadqiqotchi Javlonbeksherov9@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada klasterlarda daromadlarni MHXS 15 «Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha daromad» standarti talablari asosida tan olish va buxgalteriya hisobida aks ettirishning uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Klaster qiymat zanjirida ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika va mahsulotni xaridorga yetkazib berish jarayonlarining daromadlarni shakllantirishdagi xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: klaster, daromad, MHXS 15, xaridor bilan shartnoma, bajarish majburiyati, operatsiya narxi, qiymat zanjiri, nazoratning o‘tishi, daromadni tan olish, moliyaviy hisobot.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методологические аспекты признания и учета выручки в кластерах на основе требований

МСФО 15 «Выручка от договоров с клиентами». Раскрываются особенности процессов производства, переработки, хранения, логистики и доставки продукции клиенту в цепочке создания стоимости кластера при формировании выручки.

Ключевые слова: кластер, выручка, МСФО 15, договор с клиентом, обязательство по исполнению, цена сделки, цепочка создания стоимости, передача контроля, признание выручки, финансовая отчетность.

Iqtisodiyotda klaster shaklida faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlarining rivojlanib borishi ularda daromadlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda ishonchli aks ettirish masalalarining ahamiyatini oshirmoqda. Klasterlar tarkibida ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika va mahsulotlarni sotish kabi o‘zaro bog‘liq jarayonlarning yagona tizim doirasida amalga oshirilishi xaridorlar bilan tuziladigan shartnomalarning mazmuni va tarkibini murakkablashtiradi. Bunday sharoitda daromadni qaysi davrda va qanday miqdorda tan olishni asosli belgilash muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, MHXS 15 «Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha daromad» standarti talablarini klasterlar faoliyatiga tatbiq etish daromadlar hisobining shaffofligi, ishonchliligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlashning muhim uslubiy asoslaridan biri hisoblanadi.

MHXS 15 talablariga muvofiq daromadlarni hisobga olish xaridor bilan shartnomani aniqlash, shartnomadagi alohida bajarish majburiyatlarini belgilash, operatsiya narxini aniqlash, operatsiya narxini bajarish majburiyatlari o‘rtasida taqsimlash hamda tegishli majburiyat bajarilganda daromadni tan olishdan iborat besh bosqichli model asosida amalga oshiriladi. Klasterlarda mazkur modelni qo‘llashda mahsulot yetkazib berish, qayta ishlash va logistika xizmatlari, mahsulotlarni saqlash, avans to‘lovlari, chegirmalar, bonuslar hamda boshqa shartnomaviy elementlarning iqtisodiy mazmunini alohida baholash talab etiladi. Shu sababli klasterlarda MHXS 15 asosida daromadlarni aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiq shakllantirish bilan bir qatorda, daromadlarning shakllanishi ustidan samarali nazoratni tashkil etish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun sifatli axborot bazasini yaratishga xizmat qiladi.

Klasterlarda daromadlarni MHXS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha daromad” standarti asosida hisobga olish masalasi iqtisodiy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Buning sababi klaster tuzilmasida xomashyo yetishtirish, uni qayta ishlash, saqlash, logistika, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotish kabi bir-biri bilan uzviy bog‘langan operatsiyalar amalga oshirilishidir. MHXS 15 daromadlarni tan olishning yagona konseptual modelini belgilab, xaridor bilan shartnomani aniqlash, bajarish majburiyatlarini ajratish, operatsiya narxini aniqlash, uni bajarish majburiyatlariga taqsimlash va majburiyat bajarilganda daromadni tan olishdan iborat besh bosqichli modelni nazarda tutadi [1]. Mazkur yondashuv klasterlarda daromadni faqat mahsulot sotilganligi faktiga qarab emas, balki tovar yoki xizmat ustidan nazoratning xaridorga o‘tishi asosida tan olishni talab qiladi.

Napier va Stadler MHXS 15ning joriy etilishi daromadlarni tan olish konsepsiyasini sezilarli darajada o‘zgartirganini ta’kidlaydi [2]. Mualliflar standartning ta’sirini buxgalteriya, axborot, kapital bozori va real iqtisodiy ta’sirlarga ajratib o‘rganib, uning ayrim tarmoqlarda daromadlarni tan olish va o‘lchash jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Ushbu yondashuv klasterlar uchun ham muhim bo‘lib, klaster tarkibidagi turli faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha tuzilgan shartnomalarning iqtisodiy mazmunini alohida baholash zarurligini ko‘rsatadi [2].

Kabir va Su Avstraliya hamda Yangi Zelandiya korxonalari misolida MHXS 15ning amaliy ta’sirini tadqiq etib, standart daromadlarni tan olish muddatiga, shartnoma majburiyatlariga hamda moliyaviy natijalarga turlicha ta’sir qilishini aniqlagan [3]. Tadqiqotda korxonalarning 36,62 foizi MHXS 15ning moliyaviy hisobotlarga ta’sirini izohlarda ochib bergani, standart sezilarli ta’sir ko‘rsatgan korxonalarda esa eng ko‘p o‘zgargan ko‘rsatkich daromad bo‘lganligi qayd etilgan. Bu natija klasterlarda uzoq muddatli, kompleks va bir nechta tovar hamda xizmatlarni qamrab oluvchi shartnomalar bo‘yicha daromadlarni to‘g‘ri davrlarga tegishli qilish zarurligini asoslaydi [3].

Onie va hammualliflar MHXS 15ni qo‘llash oqibatlarini baholab, standartning avvalgi IAS 18 talablariga nisbatan batafsilroq va izchilroq tartibni shakllantirganligini ko‘rsatadi [4]. Tadqiqotchilar MHXS 15da daromadlarni hisobga olish shartnoma, bajarish majburiyatlari, tranzaksiya narxi, narxni alohida majburiyatlarga taqsimlash hamda ushbu majburiyatlarning bajarilishi bilan bog‘langanligini alohida qayd etadi. Klasterlarda bir shartnoma doirasida mahsulot yetkazib berish bilan birga tashish, saqlash, qayta ishlash yoki boshqa xizmatlar ko‘rsatilishi mumkinligi sababli, mazkur yondashuv har bir alohida bajarish majburiyatini aniqlashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

Lee va Choi MHXS 15ning moliyaviy hisobotlar taqqoslanuvchanligiga ta’sirini Koreya korxonalari misolida tadqiq qilgan [5]. Ularning tadqiqoti standartni joriy etishdan oldingi va keyingi davrlarni qiyoslashga asoslangan bo‘lib, yangi daromadlarni tan olish tamoyilining moliyaviy axborot taqqoslanuvchanligiga ta’sirini empirik jihatdan baholaydi. Ushbu xulosalar klasterlar uchun ham dolzarb, chunki yagona daromadlarni tan olish modelining qo‘llanilishi turli faoliyat yo‘nalishlari va hisobot davrlari ko‘rsatkichlarini qiyoslash imkoniyatlarini kengaytiradi [5].

Janubiy Afrika korxonalari misolida o‘tkazilgan tadqiqotda MHXS 15 bo‘yicha daromadlarni ochib berishning qaror qabul qilish uchun foydaliligi o‘rganilgan [6]. Tadqiqot natijalarida daromadlarni qismlarga ajratib oshkor qilish, hisob siyosati va standartga o‘tish talablari moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga daromadlarning tabiati, miqdori va tan olish muddatini yaxshiroq tushunish imkonini berishi qayd etilgan. Klasterlarda esa mahsulot turi, faoliyat yo‘nalishi, geografik bozor va xaridorlar guruhlari kesimida daromadlarni analitik hisobga olish hamda ochib berish moliyaviy axborotning shaffofligini oshirishi mumkin [6].

Szyszka daromadlarni tan olishning MHXS 15ga asoslangan shartnomaviy modelini boshqa daromadlarni tan olish modellari bilan qiyosiy o‘rganib, daromadni tan olish vaqtini belgilash masalasiga alohida e’tibor qaratgan [7].

Muallif MHXS 15ning shartnomaviy modelida nazoratning xaridorga o‘tishi hal qiluvchi mezonlardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur qarash klasterlarda tayyor mahsulotni omborga qabul qilish, xaridorga jo‘natish, yetkazib berish va yakuniy qabul qilish sanalari bir-biridan farq qiladigan sharoitlarda daromadni qaysi davrda tan olish masalasini hal etishda muhimdir [7].

Al-Bouri va Abd Ul-Hameed MHXS 15 talablarining qurilish korxonalarida qo‘llanilishini o‘rganib, daromadlarni tan olish, baholash, taqdim etish va oshkor qilish jarayonlarini kompleks baholagan [8]. Tadqiqot natijalari MHXS 15 talablariga rioya qilish darajasini aniqlashda maxsus tekshiruv savolnomasi va statistik usullardan foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu metodologiyani klaster faoliyatiga moslashtirib, shartnomalarni identifikatsiya qilish, bajarish majburiyatlarini aniqlash va daromadlarni tan olish jarayonlari ustidan ichki nazorat tizimini shakllantirish mumkin [8].

MHXS 15 va ASC 606 bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan zamonaviy adabiyotlar sharhida 52 ta ilmiy tadqiqot natijalari tizimlashtirilgan [9]. Unda yangi daromadlarni tan olish standartlarining ko‘zlangan va ko‘zda tutilmagan iqtisodiy oqibatlari, amaliyotdagi muammolari hamda kelgusidagi tadqiqot yo‘nalishlari tahlil qilingan. Bunday yondashuv klasterlarda MHXS 15ni qo‘llash faqat texnik buxgalteriya masalasi emasligini, balki shartnoma siyosati, boshqaruv axboroti va ichki nazorat tizimiga ham ta’sir ko‘rsatishini anglatadi [9].

MHXS 15ning o‘zi esa klasterlarda daromadlar hisobini tashkil etishning asosiy me’yoriy-metodologik manbasi hisoblanadi [10]. Standartning bosh tamoyiliga ko‘ra, korxona va’da qilingan tovar yoki xizmatning xaridorga o‘tishini aks ettiradigan miqdorda daromadni tan olishi lozim. Bunda o‘zgaruvchan to‘lovlar, alohida sotish narxlari, bir nechta bajarish majburiyatlari hamda majburiyatning muayyan vaqtda yoki vaqt davomida bajarilishi alohida baholanadi [10]. Klaster faoliyatida mazkur talablar “shartnoma → bajarish majburiyati → tranzaksiya narxi → narxni majburiyatlarga taqsimlash → nazoratning o‘tishi → daromadni tan olish” ketma-ketligida hisob jarayonini tashkil etishni taqozo qiladi.

Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy manbalarda MHXS 15ning umumiy korporativ amaliyot, qurilish, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlardagi ta’siri yetarlicha tadqiq etilgan bo‘lsa-da, klasterlarning vertikal integratsiyalashgan faoliyatida daromadlarni tan olishning kompleks uslubiy mexanizmini ishlab chiqish masalasi alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, klaster ichidagi operatsiyalarni tashqi xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalardan ajratish, bir shartnomadagi mahsulot va xizmatlarni alohida bajarish majburiyatlariga ajratish, o‘zgaruvchan to‘lovlarni baholash, tranzaksiya narxini taqsimlash hamda nazoratning o‘tish nuqtasini aniqlash bo‘yicha klaster xususiyatlariga mos uslubiy yondashuvni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Klasterlar faoliyatida daromadlarning shakllanishi an’anaviy xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan murakkabroq jarayon hisoblanadi. Bunga klaster qiymat zanjirining xomashyoni ishlab chiqarish, uni qayta ishlash, saqlash, logistika xizmatlarini ko‘rsatish va tayyor mahsulotni xaridorga yetkazib berish kabi o‘zaro bog‘liq bosqichlardan tashkil topishi sabab bo‘ladi. Mazkur jarayonlarda mahsulot va xizmatlar bo‘yicha bajarish majburiyatlari, ularning

alohida sotish narxlari hamda nazoratning xaridorga o‘tish vaqtini to‘g‘ri aniqlash daromadlarni ishonchli hisobga olishning asosiy sharti hisoblanadi. Shu sababli klasterlarda MHXS 15 talablarini qiymat yaratish zanjiri bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash maqsadga muvofiq.



1-rasm. Klasterlarda MHXS 15 asosida daromadlarni tan olishning takomillashtirilgan ketma-ketligi.

Taklif etilayotgan ketma-ketlikda klaster faoliyatining o‘ziga xos jihatlari MHXS 15 modeliga integratsiya qilingan. Dastlab klaster va xaridor o‘rtasidagi shartnoma aniqlanadi, keyinchalik klaster qiymat zanjirida shakllanadigan mahsulot yetkazib berish, qayta ishlash, saqlash, logistika va boshqa xizmatlar bo‘yicha alohida bajarish majburiyatlari ajratiladi. Shundan so‘ng operatsiya narxi aniqlanib, u alohida sotish narxlari asosida bajarish majburiyatlari o‘rtasida taqsimlanadi. Yakuniy bosqichda har bir majburiyat bo‘yicha tovar yoki xizmat ustidan nazoratning xaridorga o‘tishi baholanadi va daromad muayyan vaqtda yoki vaqt davomida tan olinadi. Ushbu yondashuv MHXS 15 ning besh bosqichli modelini klasterdagi qiymat yaratish jarayonlari bilan bog‘lash imkonini beradi.

Klasterlarda daromadlarni MHXS 15 asosida tan olishning taklif etilgan ketma-ketligi daromadni faqat mahsulot sotilganligi faktiga ko‘ra emas, balki shartnomada belgilangan bajarish majburiyatlari va nazoratning xaridorga o‘tishi asosida hisobga olishni nazarda tutadi. Bunda klaster qiymat zanjirining alohida bosqichlari daromad manbai sifatida avtomatik ravishda tan olinmaydi; daromadning tan olinishi xaridor bilan tuzilgan shartnomadagi alohida bajarish majburiyatining bajarilishiga bog‘liq bo‘ladi. Natijada daromadlarni tegishli hisobot davrlariga asosli taqsimlash, ularning shakllanish manbalarini aniq identifikatsiya qilish hamda moliyaviy hisobot axborotining ishonchliligi va shaffofligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Klasterlarda MHXS 15 «Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha daromad» standarti talablarini qo‘llash daromadlarni tan olish jarayonini klaster qiymat zanjirining o‘ziga xos xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Klasterlarda ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, logistika va mahsulotni xaridorga yetkazib berish jarayonlari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, daromadni tan olishda ularning har biri alohida daromad manbai sifatida emas, balki xaridor bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan bajarish majburiyatlari nuqtai nazaridan baholanishi lozim. Shartnomani aniqlash, bajarish majburiyatlarini ajratish, operatsiya narxini belgilash va taqsimlash hamda nazoratning xaridorga o‘tish vaqtini aniqlash klaster daromadlarini tegishli hisobot davrida ishonchli aks ettirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijasida klasterlar uchun MHXS 15 ning besh bosqichli modelini klaster qiymat zanjiri bilan integratsiyalashgan holda qo‘llash maqsadga muvofiqligi asoslanadi. Mazkur yondashuv mahsulot yetkazib berish bilan bir qatorda qayta ishlash, saqlash, logistika va boshqa qo‘shimcha xizmatlar bo‘yicha bajarish majburiyatlarini identifikatsiya qilish, ularga tegishli operatsiya narxini asosli taqsimlash hamda daromadni muayyan vaqtda yoki vaqt davomida tan olish imkonini beradi. Natijada klasterlarda daromadlar hisobining uslubiy jihatdan takomillashishi, moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining shaffofligi va taqqoslanuvchanligi oshishi, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ishonchli moliyaviy axborot bazasining shakllanishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. International Accounting Standards Board. IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers**.** – London: IFRS Foundation, 2014 (amaldagi tahrir).

2. Napier C.J., Stadler C. The real effects of a new accounting standard: the case of IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers // Accounting and Business Research**.** – 2020. – Vol. 50, No. 5. – P. 474–503. – DOI: 10.1080/00014788.2020.1770933.

3. Kabir H., Su L. How did IFRS 15 affect the revenue recognition practices and financial statements of firms? Evidence from Australia and New Zealand // Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. – 2022. – Vol. 49. – Art. 100507. – DOI: 10.1016/j.intaccaudtax.2022.100507.

4. Onie S. et al. An evaluation of the impacts of the adoption of IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers // Accounting & Finance. – 2023. – DOI: 10.1111/acfi.12978.

5. Lee W.J., Choi S.U. The effect of the new revenue recognition principle (IFRS 15) on financial statement comparability: Evidence from Korea // Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. – 2024. – Vol. 54. – Art. 100601. – DOI: 10.1016/j.intaccaudtax.2024.100601.

6. Revenue recognition practices in South Africa: An analysis of the decision usefulness of IFRS 15 disclosures // South African Journal of Accounting Research. – 2022. – Vol. 36, No. 1. – DOI: 10.1080/10291954.2020.1855886.

7. Szyszka J. Revenue Recognition Models Under International Financial Reporting Standard No. 15 and Polish National Accounting Standard No. 15 //

Accounting Trends, AI Integration, and Financial Insights. – 2024. – Art. 4455524. – DOI: 10.5171/2024.4455524.

8. Al-Bouri A.F., Abd Ul-Hameed S. Level of Commitment Contracting Companies to the International Standard IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers: A Study in a Number of Iraqi Contracting Companies // Technical Journal of Management Sciences. – DOI: 10.51173/tjms. v3i2.34.

9. Changing the paradigm for revenue recognition: literature review on intended and unintended effects of IFRS 15 and ASC 606 // Accounting in Europe. – 2025. – Vol. 23, No. 2. – DOI: 10.1080/17449480.2025.2528899.

10. International Accounting Standards Board. IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers: Illustrative Examples and Basis for Conclusions. – London: IFRS Foundation. – IFRS Accounting Standards.

МОЛИЯВИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ МҲХС 9 ТАЛАБЛАРИ АСОСИДА ТАСНИФЛАШ ВА ҲИСОБВАРАҚЛАР РЕЖАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Жумамуродов Тўлибай Елдашбаевич
мустақил изланувчи, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Аннотация. Мақолада молиявий инвестицияларнинг иқтисодий моҳияти ва таснифи тадқиқ этилган. Уларни бухгалтерия ҳисоби ва аудит мақсадлари учун баҳоланиш усулига кўра учта гуруҳга (AC, FVOCI, FVTPL) ажратиш бўйича авторлик ёндашуви ҳамда 0610 ва 5810 ҳисобварақларида тўққизта қўшимча субҳисобварақ очиш таклиф этилган. Натижалар «Ўзбектелеком» АК ва «Ўзбекистон почтаси» АЖ мисолида асосланган.

Калит сўзлар: молиявий инвестициялар, МҲХС 9, тасниф, амортизация қиймати, адолатли қиймат, ҳисобварақлар режаси, субҳисобварақ, бухгалтерия ҳисоби.

Жаҳон иқтисодиётини рақамлаштириш шароитида молиявий инвестициялар капитал оқимини иқтисодиёт тармоқларига йўналтиришнинг энг муҳим воситасига айланиб бормоқда. Ўзбекистонда капитал бозори жадал ўсиб, 2025 йил якунлари бўйича унинг умумий ҳажми 284,6 трлн сўмга, қимматли қоғозлар эмиссиясининг йиллик ҳажми эса 269,1 трлн сўмга (2024 йилга нисбатан +24,2%) етди [82] . Бундай шароитда молиявий инвестицияларни тан олиш, баҳолаш ва ҳисобга олишнинг услубий асосларини халқаро стандартлар талаблари асосида такомиллаштириш долзарб вазифа бўлиб қолмоқда.

Молиявий инвестиция тушунчасига иқтисодий адабиётларда турлича ёндашувлар мавжуд. Ўтказилган таҳлил асосида муаллиф томонидан

[82] Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги (ИЛМА) маълумотлари. 2025 йил якунлари бўйича пресс-хабар, 18.03.2026 й. URL: https://www.uzse.uz/system/analytics (мурожаат: 2026 й.).

қуйидаги таъриф таклиф этилади: молиявий инвестициялар — бу хўжалик юритувчи субъектларнинг муайян муддат давомида фойда (дивиденд, фоиз, ҳисса) олиш ёки капитал қийматини ошириш мақсадида бошқа иқтисодий субъектларнинг молиявий активлари (акциялар, облигациялар, депозит сертификатлари, ҳосила қимматли қоғозлари, қарз инструментлари) ёки шартномавий ҳуқуқларига жойлаштирган молиявий ресурсларининг шартномавий жиҳатдан тасдиқланган йиғиндисидир.

Ушбу таъриф молиявий инвестициянинг бешта муҳим белгисини қамраб олади: биринчидан, у вақт омилига боғлиқ; иккинчидан, мақсадли характерга эга; учинчидан, шартномавий асосда амалга оширилади; тўртинчидан, муайян шаклдаги молиявий активларни ўз ичига олади; бешинчидан, бухгалтерия ҳисобида алоҳида объект сифатида акс эттирилиши лозим.

Амалда молиявий инвестицияларни таснифлашда анъанавий ёндашув қўлланилади: объектига, муддатига (узоқ муддатли ва жорий), эмитент турига, даромадлилик характерига ва ликвидлик даражасига кўра. Бироқ бундай тасниф замонавий халқаро молиявий ҳисобот стандартлари, хусусан МҲХС 9 «Молиявий инструментлар» талабларига тўлиқ мос келмайди[83]. МҲХС 9 га биноан молиявий инвестицияларни таснифлаш икки мезон — бизнес-модел ва шартномавий пул оқимлари тавсифи (SPPI — Solely Payments of Principal and Interest критерийси) асосида амалга оширилади.

Шу муносабат билан муаллиф томонидан молиявий инвестицияларни бухгалтерия ҳисоби ва аудит мақсадлари учун баҳоланиш усулига кўра учта асосий гуруҳга ажратиш бўйича авторлик ёндашуви таклиф этилади:

биринчи гуруҳ — амортизация қиймати бўйича баҳоланадиган инвестициялар (Amortised Cost — AC), уларни ушлаб туришдан мақсад шартномавий пул оқимларини йиғиш бўлиб, бу оқимлар фақат асосий сумма ва фоиз тўловларидан иборат (масалан, муайян муддатга сотиб олинган давлат ва корпоратив облигациялар, банк депозитлари);

иккинчи гуруҳ — бошқа жамғарилувчи даромад орқали адолатли қийматда баҳоланадиган инвестициялар (Fair Value through Other Comprehensive Income — FVOCI), улар пул оқимларини йиғиш ва сотиш мақсадида ушлаб турилади, баҳолашдаги ўзгаришлар капитал таркибида акс эттирилади;

учинчи гуруҳ — фойда ёки зарар орқали адолатли қийматда баҳоланадиган инвестициялар (Fair Value through Profit or Loss — FVTPL), уларга савдо мақсадида ушлаб турилган инвестициялар, ҳосила инструментлар ҳамда юқоридаги икки гуруҳга кирмайдиган бошқа инвестициялар киритилади.

Таклиф этилаётган учтарҳли тасниф миллий бухгалтерия ҳисоби тизимини халқаро амалиётга уйғунлаштиришга хизмат қилади ва аудит жараёнида ҳар бир гуруҳ учун ўзига хос процедураларни қўллаш имконини

[83] Халқаро молиявий ҳисобот стандарти (МҲХС) 9 «Молиявий инструментлар» (IFRS 9 Financial Instruments). — IFRS Foundation, 2014 (охирги таҳрир 2023 й.), 4.1.1–4.1.5-параграфлар. URL: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-9-financial-instruments/

беради. Бироқ амалдаги ҳисобварақлар режасида [84] молиявий инвестицияларнинг узоқ муддатли (0610 «Қимматли қоғозлар») ва жорий (5810 «Қимматли қоғозлар») тавсифи акс эттирилган бўлиб, у учта тасниф гуруҳини (AC, FVOCI, FVTPL) тўлиқ қамраб олмайди. Амалий таҳлил қуйидаги камчиликларни кўрсатди: 0610 ва 5810 ҳисобварақларида турли хил қимматли қоғозлар бир жойда ҳисобга олиниши аналитик ҳисобни мураккаблаштиради; қадрсизланиш захираси учун алоҳида ҳисобварақ мавжуд эмас; молиявий инвестициялардан олинадиган даромадлар манбаси бўйича алоҳида ҳисобга олинмайди.

Ушбу камчиликларни бартараф этиш мақсадида муаллиф томонидан 0610 ва 5810 ҳисобварақларида тўққизта қўшимча субҳисобварақ очиш [85] ҳамда уларнинг аналитик ҳисобини юритиш тартиби ишлаб чиқилди (1-жадвал):

1-жадвал

Молиявий инвестицияларни ҳисобга олиш учун таклиф этилаётган қўшимча субҳисобварақлар

Субҳисоб	Номланиши	МҲХС 9 бўйича гуруҳ
0611	Амортизация қиймати бўйича баҳоланадиган узоқ муддатли инвестициялар	AC
0612	OCI орқали адолатли қийматда баҳоланадиган инвестициялар	FVOCI
0613	Фойда ёки зарар орқали адолатли қийматда баҳоланадиган инвестициялар	FVTPL
0614	Шўъба ва қарам жамиятларга стратегик инвестициялар	Капитал улуши
0619	Молиявий инвестициялар бўйича қадрсизланиш захираси (узоқ мудд.)	ECL захираси
5811	Молиявий инвестициялардан дивиденд даромадлари	Даромад
5812	Молиявий инвестициялардан фоиз даромадлари	Даромад
5813	Жорий FVTPL инвестициялар	FVTPL (жорий)
5819	Жорий инвестициялар бўйича қадрсизланиш захираси	ECL захираси

Манба: муаллиф тадқиқоти натижалари асосида ишлаб чиқилган.

Таклиф этилаётган субҳисобварақлар тизими молиявий инвестициялар бўйича маълумотларнинг шаффофлигини таъминлайди, уларни МҲХС 9 тасниф гуруҳлари бўйича аниқ ажратиш ва ҳар бир гуруҳ учун мос баҳолаш усулини қўллаш имконини беради. Бу ўз навбатида молиявий ҳисоботларнинг ишончлилигини ошириб, халқаро инвесторлар учун зарур ахборот муҳитини шакллантиради.

---

[84] Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (БҲМС) 21 «Бухгалтерия ҳисоби счётлар режаси». Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2002 йил 9 сентябрдаги 103-сон буйруғи билан тасдиқланган.

[85] Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни, 2016 йил 13 апрель, ЎРҚ-404-сон. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 14.04.2016 й., 03/16/404/0042-сон.

Таклифнинг амалий аҳамиятини тасдиқлаш мақсадида тадқиқот объектлари — «Ўзбектелеком» АК ва «Ўзбекистон почтаси» АЖ — молиявий инвестиция портфелларининг тузилмаси таҳлил қилинди [86] (2-жадвал):

2-жадвал

Тадқиқот объектлари молиявий инвестиция портфелининг МҲХС 9 тасниф гуруҳлари бўйича тузилмаси, 2022 й., %

Тасниф гуруҳи	«Ўзбектелеком» АК	«Ўзбекистон почтаси» АЖ
AC (амортизация қиймати)	45	60
FVOCI (OCI орқали адолатли қиймат)	30	40
FVTPL (фойда/зарар орқали адолатли қиймат)	25	—
Жами	**100**	**100**

Манба: компанияларнинг молиявий ҳисоботлари асосида тузилган.

Жадвал таҳлили шуни кўрсатадики, «Ўзбекистон почтаси» АЖ нинг инвестиция портфели нисбатан консерватив (AC — 60%), яъни асосан давлат облигациялари ва амортизация қийматида ҳисобга олинадиган узоқ муддатли инструментлардан иборат. «Ўзбектелеком» АК нинг портфели эса бирмунча диверсификациялашган (AC — 45%, FVOCI — 30%, FVTPL — 25%), бу унинг инвестицион сиёсати фаолроқ эканлигидан далолат беради. Бундай таркибий фарқ ҳар бир субъект учун таснифга мос баҳолаш ва ошкор этиш тартибларини қўллаш зарурлигини кўрсатади.

Хулоса қилиб айтганда, молиявий инвестицияларни баҳоланиш усулига кўра учта гуруҳга (AC, FVOCI, FVTPL) ажратиш ва ҳисобварақлар режасига тўққизта қўшимча субҳисобварақ киритиш миллий бухгалтерия ҳисоби тизимини МҲХС 9 талабларига уйғунлаштиришнинг муҳим йўналиши ҳисобланади.

Таклиф ва тавсиялар:

1.Молиявий инвестицияларни бухгалтерия ҳисоби ва аудит мақсадлари учун баҳоланиш усулига кўра учта гуруҳга — амортизация қиймати (AC), OCI орқали адолатли қиймат (FVOCI) ва фойда/зарар орқали адолатли қиймат (FVTPL) — ажратувчи муаллифлик таснифини миллий ҳисоб тизимини МҲХС 9 га уйғунлаштиришнинг асоси сифатида қабул қилиш тавсия этилади.

2. Амалдаги ҳисобварақлар режасидаги 0610 ва 5810 ҳисобварақларида тўққизта қўшимча субҳисобварақ (0611–0619, 5811–5819) очиш ва уларнинг аналитик ҳисобини юритиш тартибини жорий этиш тавсия этилади — бу МҲХС 9 тасниф гуруҳлари бўйича аниқ ажратиш ва қадрсизланиш захирасини алоҳида ҳисобга олиш имконини беради.

[86] «Ўзбектелеком» АК ва «Ўзбекистон почтаси» АЖ нинг 2020–2025 йиллардаги молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф ҳисоб-китоби. URL: https://uztelecom.uz; https://uz.post (мурожаат: 2026 й.).

3. Хўжалик юритувчи субъектларга ушбу таснифни ҳисоб сиёсати таркибида мустаҳкамлаш ҳамда ҳар бир тасниф гуруҳи учун мос баҳолаш ва ошкор этиш процедураларини белгилаш тавсия этилади.

АКТ СОҲАСИ КОРХОНАЛАРИДА МАЖБУРИЯТЛАРНИ ТАСНИФЛАШ, МҲХС АСОСИДА БАҲОЛАШ ВА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТДА ОШКОР ҚИЛИШ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Амиров Асқар Актамович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Тезисда ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) соҳаси корхоналарида мажбуриятлар ҳисоби методологиясини такомиллаштириш масаласи тадқиқ этилган. Мажбуриятларнинг тўрт даражали таснифи, 37-сон БҲХС билан миллий стандартлар ўртасидаги интеграция концепцияси, амортизация қилинган таннарх ва дисконтлаш коэффициентига асосланган баҳолаш алгоритми ҳамда молиявий ҳисоботда ахборотни ошкор қилишнинг уч даражали (мажбурий, тавсия этиладиган, қўшимча) мезонлар тизими таклиф этилган.

Калит сўзлар: мажбуриятлар, АКТ соҳаси, тўрт даражали тасниф, 37-сон БҲХС, амортизация қилинган таннарх, дисконтлаш, молиявий ҳисобот, ошкор қилиш даражалари.

Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасининг жадал ривожланиши, 5G тармоғи, рақамли трансформация ва лицензия шартномалари шароитида корхоналар мажбуриятларининг таркиби ҳамда ҳуқуқий характери мураккаблашмоқда. Молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тузишга ўтиш жараёнида мажбуриятлар ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш долзарб илмий-амалий вазифа бўлиб қолмоқда.

Тадқиқотнинг биринчи илмий янгилиги АКТ соҳаси корхоналарида мажбуриятларни муддати ва ҳуқуқий характери, иқтисодий барқарорликка таъсири ҳамда МҲХС талабларига мувофиқлик бўйича тўрт даражали таснифлашдир (1-жадвал). Ушбу тасниф асосида «Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар» 37-сон БҲХС билан миллий бухгалтерия ҳисоби стандартлари (БҲМС) ўртасидаги услубий фарқларни бартараф этувчи интеграция концепцияси асослаб берилган[87]. Тўрт даражали тасниф ҳам бухгалтерия ҳисобида, ҳам аудит жараёнида ягона услубий асос яратади.

[87] Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти (БҲХС) 37 «Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар» (IAS 37 Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets). — London: IFRS Foundation, 2024.

1-жадвал

АКТ соҳаси корхоналарида мажбуриятларнинг тўрт даражали таснифи

Даража	Тасниф мезони	Мазмуни
1-даража	Муддати бўйича	Жорий ва узоқ муддатли мажбуриятлар
2-даража	Ҳуқуқий характери бўйича	Шартномавий, қонуний ва конструктив мажбуриятлар
3-даража	Иқтисодий барқарорликка таъсири бўйича	Юқори, ўрта ва паст таъсир даражасидаги мажбуриятлар
4-даража	МҲХС мувофиқлиги бўйича	Баҳоланган, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар (37-сон БҲХС)

Манба: муаллиф ишланмаси.

Тадқиқотнинг иккинчи илмий янгилиги реструктуризация, ассоциатив ва қўшма корхоналар билан ҳисоб-китоблар ҳамда фойда солиғи бўйича мажбуриятларни МҲХС асосида акс эттиришнинг тизимлаштирилган услубиятидир. Услубият доирасида мажбуриятларни дастлабки тан олишда амортизация қилинган таннарх (amortised cost) усули, кейинги баҳолашда эса дисконтлаш коэффициентидан фойдаланиш алгоритми ишлаб чиқилган[88]. Бунда мажбурият самарали фоиз ставкаси (EIR) асосида дисконтланган қиймат бўйича кетма-кет ҳисобланиб, унинг реал иқтисодий қиймати молиявий ҳисоботда акс эттирилади.

Тадқиқотнинг учинчи илмий янгилиги АКТ соҳасидаги акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботда мажбуриятлар тўғрисидаги ахборотни ишончли ва шаффоф ошкор қилишнинг концептуал тизимидир. Молиявий ҳисоботнинг сифат хусусиятлари — муҳимлик, ишончлилик ва таққослаш — нуқтаи назаридан ахборотни ошкор қилиш уч даражага бўлинади: мажбурий, тавсия этиладиган ва қўшимча[89]. Ушбу мезонлар тизими ҳар бир мажбурият тури бўйича ошкор қилинадиган ахборот ҳажми ва шаклини аниқ белгилаб, ҳисобот фойдаланувчилари учун ахборот қийматини оширади.

Тўрт даражали тасниф, баҳолаш алгоритми ва уч даражали ошкор қилиш тизими биргаликда АКТ соҳаси корхоналарида мажбуриятлар ҳисобини МҲХСга уйғунлаштиришнинг яхлит методологиясини ташкил этади. Бу эса миллий стандартлар билан халқаро стандартлар ўртасидаги фарқларни камайтириб, молиявий ҳисоботнинг ишончлилигини ва инвесторлар учун шаффофлигини таъминлайди.

Таклиф ва тавсиялар:

1. АКТ соҳаси корхоналарида мажбуриятларни муддати, ҳуқуқий характери, иқтисодий барқарорликка таъсири ва МҲХС мувофиқлиги бўйича

[88] Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти (МҲХС) 9 «Молиявий инструментлар» (IFRS 9 Financial Instruments) — амортизация қилинган таннарх ва самарали фоиз ставкаси (EIR). — London: IFRS Foundation, 2024.

[89] Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти (БҲХС) 1 «Молиявий ҳисоботни тақдим этиш» (IAS 1 Presentation of Financial Statements). — London: IFRS Foundation, 2024.

тўрт даражали таснифлаш ҳамда 37-сон БҲХС билан миллий стандартлар ўртасидаги интеграция концепциясини қабул қилиш тавсия этилади.

2. Мажбуриятларни дастлабки тан олишда амортизация қилинган таннарх, кейинги баҳолашда эса самарали фоиз ставкаси (EIR) асосида дисконтлаш коэффициентидан фойдаланиш алгоритмини реструктуризация, ассоциатив/қўшма корхона ҳисоб-китоблари ва фойда солиғи мажбуриятларига қўллаш тавсия этилади.

3. Молиявий ҳисоботда мажбуриятлар тўғрисидаги ахборотни муҳимлик, ишончлилик ва таққослаш мезонлари асосида уч даражада (мажбурий, тавсия этиладиган, қўшимча) ошкор қилиш тизимини жорий этиш тавсия этилади.

АВТОТРАНСПОРТ КОРХОНАЛАРИДА ФАОЛИЯТ ТУРЛАРИ КЕСИМИДА СЕГМЕНТ ТАҲЛИЛИ ВА «МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ТЎҒРИСИДА ИЧКИ ҲИСОБОТ»

Саитов Сирожиддин Абдувалиевич
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Тезисда автотранспорт корхоналарида фаолият турлари — юк ташиш, йўловчи ташиш ва ёрдамчи хизматлар — кесимида сегмент таҳлилини амалга ошириш ҳамда рентабелликни аниқлаш учун «Молиявий натижалар тўғрисида ички ҳисобот» шаклини жорий этиш таклиф этилади. Ҳисобот «Операцион сегментлар» 8-сон МҲХС талабларига мос ҳолда шакллантирилиб, раҳбариятга ҳар бир сегмент бўйича молиявий натижалар ва рентабелликни мониторинг қилиш ҳамда инвестиция қарорларини асослаш имконини беради.

Калит сўзлар: автотранспорт корхоналари, сегмент таҳлили, операцион сегментлар, МҲХС 8, ички ҳисобот, молиявий натижалар, рентабеллик, бошқарув ҳисоби, даромадларни тан олиш.

1. Кириш

Автотранспорт соҳаси мамлакат ялпи ички маҳсулотини шакллантиришда муҳим ўрин тутади, бироқ тармоқ корхоналарида бухгалтерия ҳисоби кўпинча фаолият турлари кесимида ажратилмайди. Юк ташиш, йўловчи ташиш ва ёрдамчи хизматлар бир корхона доирасида биргаликда амалга оширилса-да, уларнинг даромадлари, харажатлари ва молиявий натижалари алоҳида ҳисобга олинмаслиги раҳбариятни ҳар бир йўналишнинг рентабеллиги ҳақидаги ишончли маълумотдан маҳрум қилади. Натижада стратегик ва инвестиция қарорлари етарли таҳлилий асосга эга бўлмайди.

«Операцион сегментлар» 8-сон МҲХС талабларига кўра, автотранспорт корхоналари камида учта сегмент — юк ташиш, йўловчи ташиш ва ёрдамчи хизматлар бўйича ҳисобот тақдим этиши лозим. Мазкур тезисда ушбу талабни амалга оширувчи ва фаолият турлари бўйича рентабелликни

аниқлашга хизмат қилувчи «Молиявий натижалар тўғрисида ички ҳисобот» шакли таклиф этилади.

2. Фаолият турлари бўйича сегментлаш ва ҳисоб

Сегмент таҳлилини ҳисоб тизимида таъминлаш учун даромад ва харажатларни фаолият турлари кесимида ажратувчи аналитик ҳисобварақлар қўлланилади: даромадлар бўйича 2011 «Юк ташиш» ва 2012 «Йўловчи ташиш», таннарх бўйича эса 9110 ва 9120 каби субсчётлар. Ушбу ёндашув ҳар бир операцион сегмент бўйича даромад, харажат ва молиявий натижани бевосита ажратиб олиш ҳамда уларни бошқарув ҳисоби мақсадларида таҳлил қилиш имконини беради. Сегмент бўйича ажратилган маълумотлар «фойдаланувчилар нуқтаи назари» концепциясига мос равишда молиявий ҳисобот фойдаланувчилари — раҳбарият, инвесторлар ва кредиторлар учун максимал фойдали бўлади.

3. «Молиявий натижалар тўғрисида ички ҳисобот» шакли

Таклиф этилаётган «Молиявий натижалар тўғрисида ички ҳисобот» беш бўлимдан иборат бўлиб, ҳар бир сегмент бўйича молиявий натижани изчил шакллантиради ҳамда таҳлилий коэффициентлар орқали рентабелликни баҳолайди (1-жадвал).

1-жадвал

«Молиявий натижалар тўғрисида ички ҳисобот» шаклининг таркиби

Бўлим	Мазмуни ва кўрсаткичлари
I — Юк ташиш сегменти	Даромадлар, тўғридан-тўғри харажатлар, ялпи фойда, операцион харажатлар, операцион фойда
II — Йўловчи ташиш сегменти	Кўрсаткичларнинг ўхшаш тизими
III — Ёрдамчи хизматлар сегменти	Кўрсаткичларнинг ўхшаш тизими
IV — Жами кўрсаткичлар	Сегментлар бўйича жамлаш ва умумхолдинг харажатларини тақсимлаш
V — Таҳлилий коэффициентлар	Сегмент рентабеллиги ҳамда сегментдаги айланма капитал кўрсаткичи

Манба: муаллиф ишланмаси.

Ҳисоботнинг қўшимча юқори даражали вазифаси — ҳар бир фаолият йўналишининг рақобатбардошлигини объектив баҳолашдир. Масалан, юк ташиш сегменти 15 фоиз рентабеллик кўрсатса, йўловчи ташиш эса атиги 3 фоизни ташкил этса, келажакдаги асосий инвестицияларни юк ташиш йўналишига йўналтириш устувор ҳисобланади. Бундай сегментга асосланган ёндашув инвестиция қарорларининг самарадорлигини ва корхона капиталидан фойдаланиш натижадорлигини сезиларли даражада оширади.

4. Хулоса

Тезисда автотранспорт корхоналарида фаолият турлари кесимида сегмент таҳлилини таъминловчи «Молиявий натижалар тўғрисида ички ҳисобот» шакли таклиф этилди. Ҳисобот «Операцион сегментлар» 8-сон МҲХС талабларига мос ҳолда юк ташиш, йўловчи ташиш ва ёрдамчи хизматлар сегментлари бўйича молиявий натижа ва рентабелликни аниқлаш

имконини беради ҳамда бошқарув қарорларини асослаш учун ишончли таҳлилий базани шакллантиради. Шаклни соҳага ихтисослашган ишчи счётлар режаси билан уйғунлаштириб амалиётга жорий этиш келгуси тадқиқот йўналишидир.

Таклиф ва тавсиялар. Автотранспорт корхоналарига даромад ва харажатларни фаолият турлари кесимида ажратувчи аналитик субсчётлардан фойдаланиш ҳамда «Операцион сегментлар» 8-сон МҲХС талабларига мос беш бўлимли «Молиявий натижалар тўғрисида ички ҳисобот» шаклини жорий этиш тавсия этилади. Ҳисобот маълумотлари асосида ҳар бир сегмент бўйича рентабелликни аниқлаш ва инвестиция қарорларини айнан юқори рентабелли йўналишларга йўналтириш корхона капиталидан фойдаланиш самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. IFRS Foundation (2023) IFRS 8 Operating Segments. London: IFRS Foundation.

2. IFRS Foundation (2023) IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers. London: IFRS Foundation.

3. IFRS Foundation (2023) IFRS 16 Leases. London: IFRS Foundation.

4. Hendriksen, E.S. and Van Breda, M.F. (1992) Accounting Theory. 5th ed. Homewood (IL): Irwin.

5. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни, 2016 йил 13 апрель, ЎРҚ-404-сон. Тошкент. https://lex.uz.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон–2030» стратегияси тўғрисида»ги 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони. Тошкент. https://lex.uz.

АКТ СОҲАСИ НОМОДДИЙ АКТИВЛАРИ АУДИТИДА ХАТАРГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН РЕЖАЛАШТИРИШ ВА АНАЛИТИК МУОЛАЖАЛАР

Ишанқулов Иззатилла Нуриллаевич
Phd, Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақи изланучвчиси
тел.: +998 (95) 000-11-10; e-mail: i.ishankulov@digital.uz

Аннотация. Мазкур тезисда ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) соҳаси корхоналарида номоддий активлар аудитини хатарга йўналтирилган ёндашув асосида режалаштириш ва далил тўплаш методикаси баён этилади. Соҳага хос хатар омиллари, тасдиқлар кесимидаги аудит хатари матрицаси, уч босқичли аудит дастури ҳамда аудиторлик далилларининг беш поғонали ишончлилик иерархияси ва триангуляция тамойили таклиф этилади. Аналитик муолажалар учун ўнта соҳага хос кўрсаткичдан иборат тизим ишлаб чиқилиб, унинг амалий қиймати шартли мисолда кўрсатилади.

Калит сўзлар: номоддий актив, аудит хатари, хатар матрицаси, тасдиқлар, ITGC, аналитик муолажалар, триангуляция, аудит далиллари, АКТ соҳаси.

1. Кириш

Ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) соҳаси корхоналарида қийматнинг катта қисми номоддий активларда — дастурий маҳсулотлар, лицензиялар, рақамли платформалар ва мижозлар базасида — жамланган. Шу боис бундай активларнинг аудити молиявий ҳисобот ишончлилиги учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бироқ бу активларнинг ўзига хос табиати — жисмоний шаклга эга эмаслиги, баҳоланишининг субъективлиги ва рақамли табиати — уларнинг аудитини анъанавий моддий активларга нисбатан мураккаблаштиради.

Амалдаги аудит амалиётининг таҳлили номоддий активлар бўйича далиллар тўплаш кўп ҳолларда ҳужжатларни юзаки кўздан кечириш ва раҳбарият тушунтиришларини олиш билан чекланишини, аудит режалаштириши эса кўпинча соҳага хос хатар омилларини тизимли ҳисобга олмайдиган тарзда амалга оширилишини кўрсатади. Бунинг оқибатида баҳолаш, тўлиқлик ва ҳуқуқлар тасдиқлари бўйича хатарлар етарлича қопланмайди. Мазкур тезисда ушбу муаммони ҳал этишга қаратилган хатарга йўналтирилган режалаштириш ва далил тўплаш методикаси таклиф этилади.

2. Хатарга йўналтирилган аудит режалаштириши

Хатарга йўналтирилган ёндашувда аудит хатари уч компонентдан иборат: хос (табиий) хатар, назорат хатари ва аниқлаш хатари. Аудитор аудит хатарини мақбул паст даражада ушлаб туриш учун аниқлаш хатарини бошқаради — хос ва назорат хатари юқори бўлса, кўпроқ ва чуқурроқ муолажалар қўллаб, аниқлаш хатарини камайтиради. Ўтказилган таҳлил АКТ соҳаси номоддий активларига хос тўртта асосий хос хатар омилини аниқлади: баҳолашнинг юқори ноаниқлиги (айниқса ички яратилган активлар ва қадрсизланиш учун); активларнинг ички яратилганлиги (ташқи тасдиқнинг йўқлиги); тез технологик эскириш (баланс қийматининг реалликдан оғиши хатари); ҳамда активларнинг ахборот тизимларига боғлиқлиги (маълумотлар яхлитлиги хатари).

Ушбу хатар омилларини тизимлаштириш ва аудит муолажалари билан боғлаш учун тасдиқлар кесимидаги аудит хатари матрицаси таклиф этилади (1-расм). Матрица ҳар бир тасдиқ (мавжудлик, ҳуқуқ ва назорат, тўлиқлик, баҳолаш, ошкоралик) учун хос ва назорат хатари даражасини баҳолайди ҳамда унга мутаносиб устувор муолажани белгилайди. Матрицадан кўринадики, баҳолаш ва тўлиқлик тасдиқлари энг юқори хатарга эга — айнан улар чуқурроқ ва кўпроқ аудит муолажаларини талаб қилади. Шу тариқа матрица аудит режалаштиришининг марказий воситасига айланиб, муҳимлик даражаси ва танланма ҳажми билан боғланади.

1-расм. Тасдиқлар кесимида аудит хатари матрицаси



Манба: муаллиф ишланмаси.

1-расм. Тасдиқлар кесимида аудит хатари матрицаси

Хатар матрицаси асосида уч босқичли аудит дастури қурилади (2-расм): режалаштириш, хатарга жавоб ва якунлаш. Режалаштириш босқичида аудитор корхонани ўрганади, хатар омиллари матрицасини тузади, ахборот технологияларининг умумий назоратларини (ITGC) баҳолайди, муҳимликни белгилайди ва аудит стратегиясини ишлаб чиқади. Хатарга жавоб босқичида назорат тестлари ва моҳиятли муолажалар (тан олиш, баҳолаш, қадрсизланиш бўйича) бажарилади. Якунлаш босқичида ошкоралик ва кейинги воқеалар текширилиб, далиллар баҳоланади ва аудиторлик хулосаси шакллантирилади.

Моделнинг муҳим янгилиги — ахборот технологияларининг умумий назоратларини (IT general controls, ITGC) баҳолашни автоматлашган далилларга таянишнинг мажбурий шарти сифатида белгилашдир. АКТ корхоналарида номоддий активлар бўйича деярли барча маълумот — реестрлар, харажат ҳисоби, амортизация ҳисоб-китоблари — ахборот тизимларида яратилади ва сақланади. Шу боис бу тизимлардан олинадиган ҳар қандай далилнинг ишончлилиги айнан ITGC (кириш ҳуқуқлари, ўзгаришларни бошқариш, захиралаш ва тиклаш) самарадорлигига боғлиқ. Назорат муҳити заиф деб топилса, аудитор моҳиятли муолажалар ҳажмини мутаносиб оширади.

2-расм. Номоддий активлар аудитининг уч босқичли дастури



Манба: муаллиф ишланмаси.

2-расм. Номоддий активлар аудитининг уч босқичли дастури

3. Аудит далиллари ва аналитик муолажалар

Аудит далилларининг ишончлилиги уларнинг манбасига боғлиқ, бу номоддий активлар аудитида алоҳида аҳамият касб этади, чунки бундай активлар жисмоний шаклга эга эмас. Мустақил ташқи манбалардан олинган далиллар (давлат реестридан тасдиқнома, лицензиарнинг тасдиғи) корхона ички ҳужжатларидан ишончлироқ ҳисобланади. Ушбу мулоҳаза асосида аудиторлик далилларининг АКТ соҳасига хос беш поғонали ишончлилик иерархияси таклиф этилади, унда мустақил ташқи манбалар энг юқори, раҳбарият оғзаки тушунтиришлари эса энг қуйи поғонада туради; электрон далиллар ва тизимли ёзувлар оралиқ поғоналарни эгаллайди.

Далил тўплашнинг беш босқичли модели триангуляция тамойилига таянади: ҳар бир юқори хатарли тасдиқ камида икки мустақил манбадан олинган далил билан қопланиши лозим. Масалан, дастурий маҳсулотнинг мавжудлиги реестр гувоҳномаси (ташқи манба) ва тизимнинг амалда ишлаётгани (техник далил) орқали биргаликда тасдиқланади. Ушбу ёндашув якка манбага таянишдан келиб чиқадиган хатони камайтиради ва хулосанинг ишончлилигини оширади. Модель, шунингдек, тескари алоқа тамойилини ўз ичига олади: далиллик кучи етарли бўлмаган ҳолда аудитор муолажаларни кенгайтиради ёки қўшимча манба излайди.

Далил тўплаш усуллари орасида аналитик муолажалар алоҳида ўрин тутади, чунки улар айрим операцияларни эмас, кўрсаткичлар ўртасидаги боғланишларни текширади ва ҳисоботни «яхлит кўриш» имконини беради. ISA 520 га мувофиқ моҳиятли аналитик муолажани қўллаш учун тўртта шарт бажарилиши лозим: муолажанинг мазкур тасдиқ учун мослиги, фойдаланиладиган маълумотларнинг ишончлилиги, кутилманинг етарли аниқликда шакллантирилиши ва мақбул оғиш чегарасининг белгиланиши. АКТ соҳасининг афзаллиги шундаки, унда ишончли номолиявий кўрсаткичлар — абонентлар сони, трафик ҳажми, фаол фойдаланувчилар, лойиҳалар ва ишлаб чиқувчилар сони — мунтазам шаклланади; булар молиявий кўрсаткичлар билан бирга кутилмаларни аниқроқ шакллантириш имконини беради.

Аналитик муолажалар учун ўнта соҳага хос кўрсаткичдан иборат тизим таклиф этилади. Тизим кўрсаткичларни беш гуруҳга бирлаштиради ва оғишларни хато белгилари билан боғлайди. Муҳими, кўрсаткичлар алоҳида эмас, ўзаро боғлиқликда талқин этилади — масалан, янгиланиш коэффициентининг ошиши ўз-ўзидан хато белгиси эмас, у корхонанинг фаол ривожланишини акс эттириши мумкин; бироқ у капиталлаштириш ҳажмининг ортиши билан бирга келса, капиталлаштириш чегарасини текшириш зарурлигини кўрсатади. Тизимнинг барча муолажалари намунавий ишчи ҳужжат (АМ-НМА шакли) орқали ҳужжатлаштирилади, бу аудит изини (audit trail) яратади ва сифат назоратини осонлаштиради.

Тизимнинг амалий қиймати «Ўзбектелеком» АЖ маълумотлари асосидаги шартли мисолда кўрсатилди. Аудитор дастлаб уч йиллик динамикани ҳисоблаб, ҳисобот йили учун кутилмаларни шакллантиради, сўнгра ҳақиқий кўрсаткичлар билан таққослайди. Таҳлил тўртта кўрсаткич

бўйича белгиланган чегарадан ортиқ оғишни аниқлади ва улар ўзаро боғлиқ манзарани ҳосил қилди: номоддий активлар дастлабки қийматининг кутилмадан 10,2 фоизга ошиши янгиланиш коэффициентининг кутилган 0,17 ўрнига 0,24 га етгани билан мос тушди, номоддий активлар қайтимининг кутилган 12,0 ўрнига 10,4 гача пасайиши эса янги активлардан кутилаётган иқтисодий нафнинг ҳали тасдиқланмаганини кўрсатди. Ушбу ўзаро боғлиқ оғишлар биргаликда 38,4 млрд сўмлик асоссиз капиталлаштириш белгисини очиб берди.

4. Хулоса

Мазкур тезисда АКТ соҳаси номоддий активлари аудитини хатарга йўналтирилган ёндашув асосида режалаштириш ва далил тўплаш методикаси баён этилди. Соҳага хос тўртта хос хатар омили аниқланиб, тасдиқлар кесимидаги аудит хатари матрицаси ва уч босқичли аудит дастури таклиф этилди; ахборот технологияларининг умумий назоратларини баҳолаш эса автоматлашган далилларга таянишнинг мажбурий шарти сифатида белгиланди. Далил тўплаш учун беш поғонали ишончлилик иерархияси ва триангуляцияга асосланган беш босқичли модель ишлаб чиқилди.

Аналитик муолажалар учун ўнта соҳага хос кўрсаткичдан иборат, оғишларни хато белгилари билан боғловчи тизим таклиф этилиб, унинг амалий қиймати шартли мисолда кўрсатилди: кутилма-оғиш таҳлили 38,4 млрд сўмлик асоссиз капиталлаштириш белгисини аниқлади. Таклиф этилаётган методиканинг амалий аҳамияти аудит ресурсларини энг хатарли ҳудудларга йўналтириш, аудит сифатини ошириш ва молиявий ҳисобот ишончлилигини таъминлашда намоён бўлади. Методикани миллий аудит амалиётига жорий этиш ва рақамли аудит воситалари билан интеграциялаш келгуси тадқиқот йўналишидир.

Таклиф ва тавсиялар. Аудиторлик ташкилотларига АКТ соҳаси номоддий активлари аудитида тасдиқлар кесимидаги хатар матрицаси ва уч босқичли дастурни жорий этиш, ITGC баҳолашни автоматлашган далилларга таянишнинг мажбурий шарти сифатида белгилаш ҳамда далил тўплашда триангуляция тамойили ва ўнта кўрсаткичли аналитик тизимдан фойдаланиш тавсия этилади. Методикани миллий аудит стандартлари ва рақамли аудит воситалари билан интеграциялаш аудит сифати ҳамда молиявий ҳисобот ишончлилигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. IAASB (2019) ISA 315 (Revised) Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement. New York: IFAC.

2. IAASB (2024) Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. New York: IFAC.

3. Alharasis, E.E., Alkhwaldi, A.F. and Hussainey, K. (2024) ’Fair value disclosures and audit issues’, International Journal of Law and Management, 66(4), pp. 417–446.

4. Gonçalves, R., Morais, A.I. and Pinto, I. (2023) ’Goodwill impairment and key audit matters’, Cogent Business & Management, 10(2), art. 2207877.

5. Eulerich, M., Pawlowski, J., Waddoups, N.J. and Wood, D.A. (2022) ’A framework for using robotic process automation for audit tasks’, Contemporary Accounting Research, 39(1), pp. 691–720.

6. Republic of Uzbekistan (2021) Law No. ZRU-677 ’On Auditing Activities’ of 25 February 2021. Tashkent. Available at: https://lex.uz/docs/5311424 (Accessed: 4 July 2026).

7. Xajimuratov, N.Sh. (2024) ’Moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta’minlash yo‘nalishlari’, Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), pp. 15–22.

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ЦИФРОВИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АУДИТОРСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Уразов Давлат Комилович
старший преподаватель кафедры «Реальная экономика» Самаркандского института экономики и сервиса

Аннотация. В статье исследованы подходы к оценке эффективности цифровизации деятельности аудиторских организаций. Систематизированы количественные и качественные показатели, характеризующие влияние цифровых технологий на трудоёмкость аудиторских заданий, продолжительность отдельных этапов аудита, полноту выполнения аудиторских процедур, качество аудиторских доказательств и организацию внутреннего контроля качества. На материалах аудиторской организации «Комил-Ишонч» рассчитан эффект цифровизации аудиторской проверки АО «Каттакурган ёг-мой комбинати». Предложены уровни цифровой зрелости аудиторских организаций и определены основные направления дальнейшего развития цифровой модели профессиональных аудиторских услуг.

Ключевые слова: аудит, аудиторская организация, цифровизация аудита, эффективность аудита, трудоёмкость, цифровые аудиторские процедуры, аудиторские доказательства, цифровая зрелость, искусственный интеллект, контроль качества.

В современных условиях цифровизация становится одним из важнейших факторов повышения эффективности деятельности аудиторских организаций. Применение электронных рабочих документов, цифровых контрольных процедур, автоматизированного анализа данных, аналитических программ, электронного архива и элементов искусственного интеллекта позволяет существенно изменить технологию выполнения аудиторских заданий.

Вместе с тем сам факт внедрения цифровых технологий ещё не свидетельствует об их эффективности. Необходима система показателей, позволяющая определить, в какой степени цифровизация обеспечивает экономию трудовых ресурсов, сокращает продолжительность аудита, повышает полноту выполнения процедур и улучшает качество получаемых аудиторских доказательств.

По нашему мнению, эффективность цифровизации деятельности аудиторской организации следует оценивать в трёх взаимосвязанных аспектах: экономическом, организационно-технологическом и качественном**.** Экономический аспект характеризует сокращение трудоёмкости и затрат на проведение аудита. Организационно-технологический аспект отражает степень автоматизации аудиторских процедур, электронного документирования и контроля выполнения заданий. Качественный аспект позволяет оценить влияние цифровых технологий на полноту аудиторских процедур, достаточность аудиторских доказательств и функционирование системы управления качеством.

Для оценки эффективности цифровизации деятельности аудиторской организации целесообразно использовать систему количественных и качественных показателей. К ним относятся среднее количество часов на одно аудиторское задание, продолжительность этапа планирования, доля полностью заполненных рабочих документов, доля выполненных процедур по цифровой контрольной процедуре, количество выявленных отклонений на одно задание, доля процедур, выполненных в срок, доля процедур с достаточными доказательствами, снижение трудозатрат и доля цифровых процедур в общем числе процедур.

Наиболее важным показателем является сокращение трудоемкости аудиторского задания. Его можно определить по формуле:

$$\textbf{Эт} = (\textbf{T0} - \textbf{T1}) / \textbf{T0} \times 100\ \%,$$

Где, **Эт** — эффект сокращения трудоемкости, %;

T0 — трудоемкость аудиторского задания до цифровизации, человеко-часов;

T1 — трудоемкость аудиторского задания после цифровизации, человеко-часов.

Нами рассчитан на основе материалов аудиторской организации «Комил-ишонч» эффект от цифровизации аудиторских процессов по аудиторской проверке в АО «Каттакурган ёг мой комбинати». Для аудиторской проверки данного АО аудиторской организацией в 2026 году было затрачено 330 человеко-часов, а в прошлом году 420 человеко-часов, сокращение трудоемкости составляет:

$$\textbf{Эт} = (420 - 330) / 420 \times 100\ \% = 21{,}4\ \%.$$

В данным исследования данный расчет показан по этапам аудита:

* планирование сокращено - с 80 до 55 часов,

*проведение аудита - с 260 до 210 часов,

*обобщение результатов - с 80 до 65 часов,

*общий эффект составляет 90 часов экономии, или 21,4 %. (таблица 1)

Таблица 1

Расчет эффекта цифровизации аудиторского задания по аудиторской организации « Комил-ишонч» по аудиторской проверке в АО «Каттакурган ёг мой комбинати» за 2026 год

№	Этап аудита	До цифровизации, часов	После цифровизации, часов	Экономия, часов	Сокращение, %
1	Планирование аудита	80	55	25	31,3
2	Проведение аудита	260	210	50	19,2
3	Обобщение результатов	80	65	15	18,8
	Итого	**420**	**330**	**90**	**21,4**

Цифровизация оказывает влияние не только на трудоемкость, но и на качество аудита. Она обеспечивает полноту выполнения процедур за счет цифровых контрольных процедур и автоматического контроля незавершенных заданий; повышает качество аудиторских доказательств, поскольку электронные рабочие документы позволяют хранить подтверждающие файлы, ссылки, расчеты и выводы в единой системе; усиливает внутренний контроль качества, поскольку руководитель задания и ответственный за качество могут оперативно проверить статус выполнения процедур, содержание рабочих документов и обоснованность выводов.

На основе результатов вышеотмеченных модулей цифровизации можно определить уровни цифровой зрелости аудиторских организаций, которые характеризуются следующими данными и признаками (см. табл. 2).

Таблица 2

Уровни цифровой зрелости аудиторской организации

№	Уровень	Характеристика	Признаки
1	Начальный	Используются отдельные электронные файлы	Нет единой базы, документы разрознены
2	. Базовый	Применяются шаблоны рабочих документов	Есть частичная стандартизация
3	Развивающийся	Используются цифровые контрольные процедуры и электронный архив	Контролируется выполнение процедур
4	Продвинутый	Применяются аналитические программы	Автоматизирован анализ данных
5	. Интегрированный	Используются элементы ИИ и система управления качеством	Цифровизация охватывает весь цикл аудита

Предложенная градация позволяет аудиторской организации определить своё текущее положение и сформировать последовательную программу цифровой трансформации. При этом переход от одного уровня к следующему должен означать не простое увеличение количества используемых программных продуктов, а более глубокую интеграцию

цифровых технологий непосредственно в методологию аудита и систему управления его качеством.

При оценке цифровизации также необходимо учитывать возможные риски. Использование цифровых инструментов повышает требования к защите конфиденциальной информации, надёжности хранения данных, разграничению прав доступа, резервному копированию и профессиональной компетентности аудиторов. Особенно важным является сохранение профессионального суждения аудитора при использовании аналитических алгоритмов и искусственного интеллекта. Технология должна выступать инструментом поддержки принятия решений, но не заменять профессиональную ответственность аудитора. В этой связи экономия времени может рассматриваться как положительный результат только в том случае, если она не сопровождается сокращением необходимых аудиторских процедур или снижением достаточности и надлежащего характера аудиторских доказательств.

Выводы и рекомендации

Проведённое исследование показывает, что цифровизация является одним из существенных резервов повышения эффективности деятельности аудиторских организаций. Вместе с тем стратегический эффект цифровизации значительно шире прямой экономии рабочего времени. Он проявляется в повышении стандартизации аудиторских процедур, улучшении документирования, оперативном контроле выполнения заданий, повышении качества аудиторских доказательств и формировании единой информационной среды аудиторской организации.

Для дальнейшего повышения эффективности цифровизации деятельности аудиторских организаций предлагается:

- ввести постоянную систему оценки эффективности цифровизации, предусматривающую сопоставление показателей до и после внедрения цифровых инструментов по трудоёмкости, срокам выполнения аудиторских процедур, качеству документирования и достаточности аудиторских доказательств;
- формировать единый цифровой профиль каждого аудиторского задания, включающий программу аудита, электронные рабочие документы, контрольные процедуры, подтверждающие файлы, выявленные отклонения, выводы аудиторов и результаты контроля качества;
- поэтапно переводить повторяющиеся и трудоёмкие процедуры в цифровой формат, уделяя приоритетное внимание планированию аудита, аналитическим процедурам, выборке, сверке данных, контролю сроков и формированию рабочих документов;
- использовать предложенную пятиуровневую модель цифровой зрелости в качестве инструмента самооценки аудиторской организации и основы для разработки её индивидуальной программы цифровой трансформации;

- интегрировать цифровизацию с системой управления качеством, чтобы цифровые технологии обеспечивали не только ускорение выполнения аудита, но и автоматический контроль полноты процедур, наличия доказательств, сроков выполнения заданий и результатов внутреннего рассмотрения работы;
- регламентировать применение элементов искусственного интеллекта, закрепив ответственность аудитора за окончательное профессиональное суждение, правила проверки результатов, сформированных цифровыми алгоритмами, а также требования к конфиденциальности и защите аудиторской информации.

Реализация данных рекомендаций позволит перейти от фрагментарного использования отдельных программных средств к **интегрированной цифровой модели аудиторской организации**, в которой цифровые технологии охватывают планирование, проведение аудита, документирование, аналитические процедуры, внутренний контроль качества и управленческий мониторинг.

Таким образом, цифровизация и применение элементов искусственного интеллекта следует рассматривать не только как средство сокращения трудозатрат, но и как организационно-экономический механизм повышения эффективности и качества профессиональных аудиторских услуг. Именно такой подход способен обеспечить одновременное снижение трудоёмкости аудиторских заданий, повышение надёжности аудиторских доказательств, укрепление внутренней системы управления качеством, повышение доверия пользователей к результатам аудита и конкурентоспособности аудиторских организаций.

Список использованной литературы

1. **International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB).** Non-Authoritative Support Material: Audit Documentation When Using Automated Tools and Techniques. — New York: IAASB, 2020.

2. **International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB).** Feedback Statement – Exploring the Growing Use of Technology in the Audit, With a Focus on Data Analytics. — New York: IAASB, 2018.

3. **Guo R., Jia Y., Shentu L.** The effect of audit digital transformation on audit quality: evidence from digital bank confirmations // China Journal of Accounting Studies. — 2025. — Vol. 13. — No. 3. — P. 247–281. — DOI: 10.1080/21697213.2024.2442769.

4. **Leng A., Zhang Y.** The effect of enterprise digital transformation on audit efficiency: Evidence from China // Technological Forecasting and Social Change. — 2024. — Vol. 201. — Article 123215. — DOI: 10.1016/j.techfore.2024.123215.

5. **Wassie F.A., Lakatos L.P.** Artificial intelligence and the future of the internal audit function // Humanities and Social Sciences Communications. — 2024. — Vol. 11. — Article 386. — DOI: 10.1057/s41599-024-02905-w.

6. **Лымарь А.И., Каурова О.В.** Научное обоснование предпосылок и факторов цифровой трансформации аудиторской деятельности в

современных условиях // Вестник Российского университета кооперации. — 2025. — Т. 7. — № 3. — С. 143–153. — DOI: 10.51632/2658-7939-2025-7-3-143-153.

7. **Ходжаева М. Х.** Цифровизация аудита - ключевой фактор развития аудиторской деятельности в Узбекистане // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. — 2026. — Vol. 6. — № 4. — С. 133–138. DOI: 10.55439/AFA/vol6_iss04/1370.

DAVLAT TIJORAT BANKLARINI XUSUSIYLASHTIRISHGA TAYYORLASH JARAYONLARI

Islom Salamov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, i.f.n., dotsent

Annotatsiya. mazkur ma’ruza tezisida O‘zbekiston Respublikasida davlat tijorat banklarini xususiylashtirishga tayyorlash bosqichlari, transformatsiya jarayonlari, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish hamda strategik investorlarni jalb qilish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari tavsiyalari va "Turonbank" ATB misolida olib borilayotgan transformatsiya islohotlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: davlat tijorat banki, xususiylashtirish, transformatsiya, korporativ boshqaruv, strategik investor, IPO, institutsional investor, IFRS (MHXS), ESG, risk-menejment, bank transformatsiyasi, investitsion jozibadorlik, xalqaro kredit reytingi, kapital bozori, Yevrobond.

Bugungi kunda bank tizimining iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish, bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda davlat ishtirokidagi tijorat banklarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat tijorat banklarini xususiylashtirishdan asosiy maqsad faqat davlat ulushini kamaytirish yoki bank aksiyalarini xususiy investorlarga sotishdan iborat emas. Ushbu jarayon, avvalo, banklarni mustaqil, raqobatbardosh, moliyaviy jihatdan barqaror va investitsion jozibador moliyaviy institutlarga aylantirishni nazarda tutadi. Shu sababli xususiylashtirishdan oldingi tayyorgarlik bosqichi uning yakuniy natijasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Davlat bankini xususiylashtirishga tayyorlash jarayonini shartli ravishda **diagnostika, transformatsiya, moliyaviy sog‘lomlashtirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va aksiyalarni bozorga chiqarish** bosqichlariga ajratish mumkin.

Birinchi bosqichda bankning mavjud holati kompleks diagnostika qilinadi. Bunda bankning aktivlari va majburiyatlari tarkibi, kredit portfeli sifati, kapital yetarliligi, likvidligi, rentabelligi, operatsion xarajatlari, muammoli kreditlar

darajasi, davlat dasturlari doirasidagi kreditlarning ulushi va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlari baholanadi. Shu bilan birga, bankning real bozor qiymatini aniqlash uchun aktivlar va majburiyatlarning iqtisodiy qiymati qayta ko‘rib chiqiladi.

Mazkur bosqichda bankning xususiy investor uchun jozibadorligini pasaytiruvchi omillar ham aniqlanishi lozim. Jumladan, muammoli aktivlarning yuqori ulushi, davlat dasturlari bilan bog‘liq kreditlarning salmoqliligi, boshqaruv qarorlarining yetarlicha mustaqil emasligi, shaffoflik darajasining pastligi va operatsion samaradorlikning yetarli emasligi investorlar uchun muayyan xavflarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ikkinchi bosqich bankni transformatsiya qilish bilan bog‘liq. Transformatsiya jarayonida bankning an’anaviy boshqaruv modeli zamonaviy korporativ boshqaruv va bozor tamoyillariga asoslangan modelga o‘tkaziladi. Bunda bankning strategik maqsadlari, tashkiliy tuzilmasi, biznes jarayonlari, mijozlar bilan ishlash tizimi, kreditlash mexanizmlari va risklarni boshqarish amaliyoti qayta ko‘rib chiqiladi.

Bank transformatsiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri **korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish** hisoblanadi. Xususiy investor bankning boshqaruv organlari qanchalik mustaqil va samarali faoliyat yuritishini baholaydi. Shu sababli kuzatuv kengashi va ijroiya organining vakolatlarini aniq ajratish, mustaqil direktorlar institutini rivojlantirish, audit va risk qo‘mitalari faoliyatini kuchaytirish hamda aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish muhim ahamiyatga ega.

Korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bank faoliyatining shaffofligini oshirish bilan bir qatorda, investorlar uchun axborot assimetriyasini kamaytiradi. Bu esa bank aksiyalarining bozor qiymatini aniqlash va potensial investorlarning investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonini yengillashtiradi.

Xususiylashtirishga tayyorgarlikning navbatdagi muhim yo‘nalishi **moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga o‘tkazish** hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari – IFRS (International Financial Reporting Standards), ya’ni MHXS asosida hisobot yuritish bankning moliyaviy holatini xalqaro investorlar uchun tushunarli va taqqoslanadigan shaklda ifodalash imkonini beradi.

IFRS asosida shakllantirilgan hisobotlar aktivlarning haqiqiy qiymatini, kredit yo‘qotishlari bo‘yicha ehtimoliy zararlarni va moliyaviy majburiyatlarni yanada aniqroq aks ettirishga xizmat qiladi. Natijada bankning moliyaviy holati bo‘yicha investorlar uchun zarur axborot bazasi shakllanadi.

Bundan tashqari, bank xususiylashtirilishidan oldin **aktivlar sifatini yaxshilash** masalasiga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Kredit portfelining sifati bankning bozor qiymati va investitsion jozibadorligiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli muammoli kreditlarni aniqlash, ularni restrukturizatsiya qilish, garov ta’minotini qayta baholash va muammoli aktivlarni boshqarishning samarali mexanizmlarini shakllantirish zarur.

Bankning xususiylashtirishga tayyorgarligida **risk-menejment tizimi** ham muhim o‘rin tutadi. Kredit, bozor, valyuta, likvidlik, operatsion va boshqa moliyaviy risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va boshqarishning

zamonaviy mexanizmlari joriy etilishi investorlar uchun bankning barqarorligi to‘g‘risida muhim signal hisoblanadi.

Shuningdek, bankning davlat dasturlari doirasidagi faoliyatini bosqichma-bosqich bozor mexanizmlariga moslashtirish talab etiladi. Kredit resurslarini taqsimlashda tijorat tamoyillari, risk darajasi, mijozning moliyaviy holati va qaytarish imkoniyatlari asosiy mezonlarga aylanishi bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlashga yordam beradi.

Xalqaro tajribada davlat banklarini birdaniga to‘liq xususiylashtirish o‘rniga, aksiyalarni bosqichma-bosqich sotish amaliyoti keng qo‘llaniladi. Birinchi bosqichda davlat nazorat paketini saqlab qolgan holda aksiyalarning ma’lum qismini strategik yoki institutsional investorlarga taklif qilishi mumkin. Masalan, davlat ulushini 100 foizdan 51–75 foizgacha kamaytirish orqali bank faoliyatiga xususiy kapitalni jalb etish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, davlat tizimli ahamiyatga ega bank ustidan nazoratni saqlab qolgan holda, xususiy investorlarning kapitali va boshqaruv tajribasidan foydalanishi mumkin. Shu bilan birga, aksiyadorlar tarkibining diversifikatsiyasi bankning korporativ boshqaruvi, hisobdorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Xususiylashtirishning ikkinchi bosqichida davlat ulushi yanada qisqartirilishi mumkin. Bunda bankning moliyaviy ko‘rsatkichlari barqaror, korporativ boshqaruvi takomillashgan, xalqaro standartlar joriy etilgan va investorlar uchun yetarli darajada ochiq axborot tizimi shakllangan bo‘lishi lozim.

Davlat ulushini kamaytirishning asosiy mexanizmlaridan biri **IPO (Initial Public Offering)** hisoblanadi. IPO orqali bank aksiyalarining keng investorlar doirasiga, jumladan, institutsional investorlar va jismoniy shaxslarga taklif qilinishi mumkin. Bunday mexanizm aksiyalarning bozor narxini shakllantirish, ularning likvidligini oshirish va kapital bozorini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshqa tomondan, bank aksiyalarining bir qismini **strategik xorijiy investorga** sotish ham muhim mexanizm hisoblanadi. Strategik investor bankka qo‘shimcha kapital bilan bir qatorda, zamonaviy texnologiyalar, xalqaro boshqaruv tajribasi, risk-menejment metodlari, yangi bank mahsulotlari va xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini olib kirishi mumkin.

Bunda investorlar, avvalo, bankning rentabelligi, aktivlar sifati, kredit risklari, kapital yetarliligi, korporativ boshqaruv sifati, dividend siyosati, aksiyadorlar huquqlarining himoyalanganligi va investitsiyadan chiqish imkoniyatlarini baholaydi.

Shu nuqtayi nazardan, xalqaro moliya institutlari davlat banklarining iqtisodiyotdagi yuqori ulushi kredit resurslarini taqsimlashda bozor mexanizmlarining to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qilishi mumkinligini qayd etadi. Davlat banklarini xususiylashtirish esa kredit resurslarini samaraliroq taqsimlash, banklar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirish va moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirish imkonini berishi mumkin.

O‘zbekistonda davlat banklarini xususiylashtirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, ayrim banklarda korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish zarurati, aktivlar sifatini yaxshilash masalalari, davlat

dasturlari bilan bog‘liq kreditlarning yuqori ulushi, investorlar uchun axborot shaffofligini oshirish ehtiyoji, kapital bozorining rivojlanish darajasi va banklarning bozor qiymatini aniqlash bilan bog‘liq masalalar shular jumlasidandir.

Shu sababli xususiylashtirishni faqat aksiyalarni sotish jarayoni sifatida emas, balki **bankni kompleks transformatsiya qilish jarayoni** sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bunda xususiylashtirishga tayyorgarlikning yakuniy natijasi bankning bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritishi, investorlar uchun ochiq va tushunarli moliyaviy modelga ega bo‘lishi hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining mavjudligi bilan belgilanadi.

Mazkur jarayonni “Turonbank” ATB misolida ham ko‘rish mumkin. Bankda so‘nggi yillarda keng ko‘lamli transformatsiya ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, International Finance Corporation (IFC) bilan hamkorlikda korporativ boshqaruvni takomillashtirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish, risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va xalqaro kapital bozorlariga chiqish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

“Turonbank” ATB transformatsiyasining asosiy yo‘nalishlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin: korporativ boshqaruvni takomillashtirish, biznes jarayonlarni optimallashtirish, risk-menejment tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, IFRSni joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, ESG tamoyillarini integratsiya qilish va bankning investitsion jozibadorligini oshirish.

Bankning xalqaro reyting ko‘rsatkichlari ham uning transformatsiya jarayonlari bilan bog‘liq muhim indikatorlardan biridir. Xususan, 2026-yil 9-iyunda Fitch Ratings “Turonbank” ATBning uzoq muddatli kredit reytingini “BB-” darajasida tasdiqlab, reyting prognozini “Stable” dan “Positive”ga o‘zgartirgan. Ushbu o‘zgarish bankning moliyaviy holati va transformatsiya jarayonlari bo‘yicha xalqaro reyting agentligining ijobiy bahosini aks ettiradi.

Umuman olganda, davlat tijorat banklarini xususiylashtirishga tayyorlash ko‘p bosqichli va kompleks jarayon bo‘lib, uning samaradorligi bankning moliyaviy holatini yaxshilash, korporativ boshqaruvni xalqaro talablarga moslashtirish, aktivlar sifatini oshirish, risklarni samarali boshqarish, IFRS va ESG tamoyillarini joriy etish hamda investorlar uchun shaffof axborot muhitini yaratishga bog‘liq.

Shu sababli O‘zbekistonda davlat tijorat banklarini xususiylashtirish mexanizmini takomillashtirishda quyidagi ketma-ketlikni ta’minlash maqsadga muvofiq:

bank diagnostikasi → moliyaviy sog‘lomlashtirish → transformatsiya → korporativ boshqaruvni takomillashtirish → IFRS va ESGni joriy etish → risk-menejmentni kuchaytirish → mustaqil baholash → investorlarga axborot taqdim etish → IPO yoki strategik investorga sotish.

Mazkur yondashuv davlat banklarini xususiylashtirishning moliyaviy natijasi bilan bir qatorda, ularning uzoq muddatli raqobatbardoshligi, boshqaruv samaradorligi va xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi **PF–5992-son** “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program (FSAP). Washington, D.C.: IMF, 2024.
3. OECD. OECD Corporate Governance of State-Owned Enterprises: Guidelines. Paris: OECD Publishing, 2024.
4. IFRS Foundation. International Financial Reporting Standards (IFRS). London: IFRS Foundation, 2025.
5. Fitch Ratings. Turonbank JSCB: Rating Action Commentary. 2026.
6. S&P Global Ratings. Banking Industry Country Risk Assessment: Uzbekistan. 2025.
7. International Finance Corporation (IFC). Corporate Governance and Banking Sector Transformation. Washington, D.C.: IFC, 2024.
8. Basel Committee on Banking Supervision. Core Principles for Effective Banking Supervision. Basel: BIS, 2024.

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI

Ibragimov MansurMardonovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti i.f.n., dosent. pochta:
mansur.ibragimov.63@mail.ru

Annotasiya. ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish bosqichlari, auditorlik hisobotini rasmiylashtirish tartibi yoritilib, tovarlar auditi natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Tovar, audit, hisobot, MXXS, auditorlik hisoboti.

Kirish. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xalqaro hisob tizimi taraqqiy ettirilishida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) hamda auditning xalqaro standartlari muhim o‘rin tutadi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) hamda auditning xalqaro standartlari mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni, jumladan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va investitsion muhitni yaxshilashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu sababli hozirda xalqaro standartlarni e’tirof etuvchi va uni o‘z amaliyotida qo‘llovchi mamlakatlar soni oshib bormoqda. Jumladan bizning Respublikamizda ham BHXSga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li tanlandi va xalqaro standartlarga o‘tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlaridan foydalanishning eng muhim va birlamchi omili investitsion muhitni yuqori darajaga olib chiqish hamda investorlar uchun tushunarli bo‘lgan

hisob tizimini yo‘lga qo‘yishdir. Investitsion muhitning yaxshilanishi mamlakatlar iqtisodiy o‘sishiga hamda natijada aholi turmush farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida Prezidenti tomonidan 24 fevral 2020 yilda qabul qilingan PQ-4611-sonli ”Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" Qaror mamlakatimizda Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlariga o‘tish bo‘yicha tub burilish yasadi. Qarordan ko‘zlangan maqsad mamlakatimizdagi korxona va tashkilotlarda buxgalteriya hisobini moliyaviy xisobotning xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o‘tkazishdir. Ushbu qarorning og‘ishmasdan amalga oshirilishi xo‘jalik yurituvchi subektlarda buxgalteriya hisobining xalqaro talab va meyorlar asosida yuritishiga hamda natijada moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ochiq va shaffof bo‘lishigi olib keladiki bu esa alal-oqibat mamlakatimizga xorijiy investisiyalarning jalb qilinishida muhim ahamiyatga egadir.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Xo‘jalik yurituvchi subektlarda tovar operatsiyalari hisobi, tahlili, auditi, soliqqa tortish masalalari respublikamizda qator olimlar, jumladan Urazov K.B., Pardaev M.Q, Tashnazarov S.N., Abdukarimov B.A. , Abdullaev R.A. , Xudayberdiev N.U. lar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, savdoda auditni takomillashtirishda xorijlik olimlar E.A. Arens, Dj. K. Lobbek, Robertson Dodj R. , Kamishanov P.I. va respublikamiz olimlari Do‘smurodov R.D. , Musaev X.N. , Sanaev N.S., To‘laxodjaeva M.M. va boshqa olimlar qalamiga mansub monografiya, o‘quv qo‘llanma, darslik va ilmiy maqolalar muhim o‘rin tutadi.

Biroq, ushbu olimlar tomonidan chop etilgan ishlarda tovar operatsiyalari amalga oshiruvchi korxonalarda auditning xususiyatlari maxsus yoritilmagan. Shuningdek, ushbu subektlarda hisob va hisobot masalalari ham adabiyotlarda, shuningdek amalda bo‘lgan milliy standartlarda atroflicha ochib berilmagan. Bular, ma’lum darajada, korxonalarda auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishda auditorlar oldida ba’zi muammolarni tug‘dirmoqda

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstraksiya va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Dunyo amaliyotida moliyaviy hisobotlar tadbirkorlik subektlari tomonidan asosan tashqi foydalanuvchilar uchun tayyorlanadi va taqdim qilinadi. Bunday moliyaviy hisobotlar turli davlatlarda bir-biriga o‘xshash jihatlari bo‘lsada, ular o‘rtasida turli ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlar hamda har bir davlatlarda milliy talablar o‘rnatilganligi uchun bazi bir farqlar kuzatilishi mumkin.

Audit obekti sifatida tovarlarni quyidagi turlari farqlanishi lozim.

-ombordagii tovarlar;
-chakana savdodagi tovarlar;
-ko‘rgazmadagi tovarlar;
-prokatdagi buyumlar;
-tovarlar bilan band va bo‘sh idishlar;
-komissiyaga berilgan tovarlar;
-yo‘ldagi tovarlar;
-boshqa tovarlar;

Tovarlarning ushbu turlarini alohida buxgalteriya schyetlarida aks ettirish va bu turdagi tovarlarni har birini alohida auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish auditorlik riskini kamaytirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditining xarakteri, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, tovarlar auditining natijalari turlicha rasmiylashtiriladi. Agar, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi maxsus savol tarzida tematik auditdan o‘tkaziladigan bo‘lsa, u holda uning natijalari maxsus savol bo‘yicha tuziladigan yaxlit auditorlik hisoboti sifatida rasmiylashtiriladi. Bunda tovarlar auditi natijalari alohida qismlarga ajratilishi mumkin.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi qaysi tarzda o‘tkazilishidan qat’iy nazar auditorlik hisoboti 700-son AXS «Moliyaviy hisobotlar to‘g‘risida fikr hosil qilish va hisobot (xulosa) berish»ga muvofiq quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

a) nomi;
b) adresat nomi;
c) kirish qismi;
d) tahlil qismi;
e) yakuniy qism.

Auditorlik hisobotining adresat (manzil) qismida buyurtmachining nomi va boshqa barcha zarur rekvizitlari ko‘rsatiladi.

Auditorlik hisobotining kirish qismida auditorlik tashkilotining rekvizitlari, shu jumladan auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan lisenziyaning raqami va sanasi, auditorlar va auditorlik tekshiruvida qatnashgan boshqa shaxslar haqida ma’lumotlar hamda auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun asos va xo‘jalik yurituvchi subekt faoliyatining umumiy tavsifi ko‘rsatiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi bo‘yicha auditorlik hisobotining tahliliy qismi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• korxona ma’lumoti bo‘yicha mavjud tovarlar qiymati;
• audit tekshiruvi bo‘yicha tovarlar qiymati va uning tarkibi –rasshifrovkasi;.
•tovarlar summasining to‘g‘riligi yoki unda qancha summaga kam (yoki ko‘p) tomonga chetlanishlar mavjudligi;
• tovarlar summalarida chetlanishlar qanday omillar (ko‘rsatkichlar) evaziga yuz berganligining bayoni va hokazolar.

Auditor o‘zining hisobotida tovarlar bo‘yicha hisob registrlari va hisobot shakllarining bir-biriga mosligini ham bayon qiladi.

Auditorlik hisobotining yakuniy qismida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi bo‘yicha aniqlangan xato-kamchiliklar va qoida buzarliklarni bartaraf qilish bo‘yicha auditorlik tashkilotining tavsiyalari aks ettiriladi.

Auditorlik hisobotida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditiga doir korxona hamda tekshiruvga doir barcha materiallar tahliliy jadvallar ko‘rinishidagi ishchi hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu jadvallar auditorlik hisoboti matni ichida yoki unga ilova tariqasida beriladi. Jadvallar (ilovalar)ning barchasi o‘z tartib raqamiga ega bo‘lishi lozim.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditining auditorlik hisoboti kamida ikki nusxada tuziladi, uning har bir beti hamda unga keltirilgan ilovalar auditorlik tekshiruvini o‘tkazgan auditor(lar) tomonidan imzolanishi lozim.

Auditorlik hisobotining barcha nusxalari buyurtmachiga tanishish va unda ko‘rsatilgan dalillarning to‘g‘riligiga iqror bo‘lgach, imzolash uchun taqdim etiladi. Buyurtmachi tomonidan to‘lig‘icha to‘g‘ri deb e’tirof etilgan hamda imzolangan auditorlik hisobotining bir nusxasi auditorlik tashkilotiga qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bilan birga qaytariladi. Agar, buyurtmachi auditorlik hisobotida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi bo‘yicha hisob-kitoblardagi auditor tomonidan aniqlangan chetlanishlarga norozilik bildirsa hamda tegishli isbot-dalilni taqdim etsa, u holda auditorlik hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi va tuzatilgan auditorlik hisoboti buyurtmachiga qabul qilish va imzolanishi uchun qayta topshiriladi.

700- son AXSga muvofiq auditorlik tashkiloti tuzilgan auditorlik hisoboti uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar hisoblanadi. Shuningdek, auditorlik hisobotidagi axborotlar maxfiy hisoblanadi va uni oshkor etish mumkin emas. Ushbu axborotlarga aloqador shaxslar axborotlarni oshkor qilganligi uchun qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi bo‘yicha auditorlik hisobotida aks ettirilgan xato va kamchiliklarni tuzatish hamda tuzatilgan soliq hisob-kitoblari va moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga qayta topshirish jarayoni audit natijalarini tadbiq etish, deb e’tirof etiladi. Odatda, ushbu ishlar auditorlik tekshiruvidan keyin ko‘pi bilan 15 kun ichida o‘tkazilishi kerak, chunki auditorlik tekshiruvidan o‘tgan xo‘jalik yurituvchi subekt audit tekshiruvi o‘tkazilgandan so‘ng 15 kun ichida auditorlik xulosasini qonun hujjatlariga muvofiq tegishli organlarga taqdim etishi lozim.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi natijalarini tadbiq etishga doir ishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) auditorlik tekshiruvi natijalarini xo‘jalik yurituvchi subekt rahbariyati, mulkdorlar, kuzatuv kengashi a’zolari va boshqa qiziquvchilar ishtirokida muhokama qilish;

b) auditorlik tekshiruvida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish muddatlarini, aniq ma’sul xodimlarni belgilash;

c) auditorlik tekshiruvida aniqlangan kamchiliklarni haqiqatda bartaraf etilganligini nazorat qilish va muhokama etish.

Auditorlik tekshiruvi natijalarini tadbiq etishga xo‘jalik yurituvchi subektlar rahbarlari ma’sul hisoblanadi. Rahbar auditorlik tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq aniqlangan xato va kamchiliklar muhokamasini tekshiruvni o‘tkazgan auditorlarning ishtirokida o‘tkazishi maqsadga muvofiq. Chunki, bir tomondan, auditorlar to‘plagan isbot-dalillar asosida xatolarni qay darajadaligini, kimlar tomonidan yo‘l qo‘yilganligini, ularni qanday tuzatish kerakligini mutaxassis sifatida chuqurroq biladilar. Ikkinchi tomondan, auditorlar ishtirokida

tuzatilgan xato kamchiliklar tuzatilgan moliyaviy hisobotga rasmiy auditorlik xulosasini olishni tezlashtiradi.

Aniqlangan xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida to‘g‘rilanishi, soliq deklarasiyalarini va moliyaviy hisobot shakllarini qonun hujjariga muvofiq qayta tuzilishi hamda taqdim etilishi auditorlarga moliyaviy hisobot bo‘yicha ijobiy xulosa berishlariga asos bo‘ladi.

Xulosa. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirishimiz uchun ishonchli va muhim axborot manbalaridan foydalanish auditorlik hisobotining ne chog‘liq ishonchli ekanligini taminlovchi muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Ishonchli axborotlarni yig‘ishda buxgalteriya xisobining xalqaro standartlari hamda milliy hisob tizimlari, sohaga oid qonunlar va farmonlar hamda qonun osti hujjatlariga qay darajada amal qilinganligini aniqlashimiz berilayotgan axborotning ishonchliligini ekanligini taminlovchi omillardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, auditorlik tekshiruvi natijalarini auditorlik hulosasida aks ettirish auditniing yakunlovchi qismi sanaladi. Tekshirish natijalari umumiy holda hisobotda aks ettiriladi. Aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha tushuntirishlar olib boriladi hamda bartaraf etish yo‘llari ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov A., Kurbanbaev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.

2. Musaev H.N. Audit. Darslik. – T.: Moliya, 2003;

3. Urazov K.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashr.- T.: «Fan va texnologiya», 2019. – 540 b.

4. Tashnazarov S.N. Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti: xalqaro va milliy jihatlar. Monografiya. - T.: Iqtisod-moliya, 2009. - 168 b.;

5. Tulaxodjaeva M.M.Audit, T.: BAMA, 2014;

MOLIYAVIY HISOBOT TAHLILI ASOSIDA SOLIQ XAVFLARINI ANIQLASH

Suvonov Bekniyoz Baxtiyor o‘g‘li
TIFT, Toshkent, O‘zbekiston Lavozimi: PhD katta o‘qituvchi
ORCID: 0000-0003-4165-2091 Telefon: +998 570-00-18
E-mail: beksuvonov8019@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada moliyaviy hisobot tahlili asosida soliq xavflarini erta aniqlash imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tushum–debitorlik, zaxira–tannarx, samarali foyda solig‘i stavkasi, pul oqimi sifati va boshqa moliyaviy indikatorlar soliq yo‘nalishlari bilan bog‘landi. Shartli korxona ma’lumotlari asosida risk signallarining ehtimoli va moliyaviy ta’sirini birlashtiruvchi R = S × I ustuvorlik bahosi qo‘llanib, yuqori riskli yo‘nalishlarni aniq audit amallari bilan bog‘lash taklif etildi. Natijalar moliyaviy tahlil soliq buzilishini avtomatik isbotlamasligini,

biroq auditorlik dalillarini qaysi segmentlarda chuqurroq yig‘ish zarurligini asosli belgilashini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: soliq xavfi, moliyaviy hisobot tahlili, soliq auditi, risk indikatorlari, moliyaviy koeffitsiyentlar, foyda solig‘i, QQS, debitorlik, zaxiralar, pul oqimi.

Kirish Soliq xavfi soliq majburiyatlari noto‘g‘ri aniqlanishi, to‘liq aks ettirilmasligi yoki o‘z vaqtida bajarilmasligi ehtimolini ifodalaydi. Uni faqat soliq deklaratsiyasi orqali baholash cheklangan, chunki soliq bazasini shakllantiruvchi iqtisodiy jarayonlar moliyaviy hisobotda tushum, xarajat, aktiv, qarzdorlik va pul oqimi ko‘rsatkichlarida o‘zaro bog‘liq holda aks etadi. Shu bois moliyaviy tahlil soliq xavfini erta aniqlash uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Asosiy masala g‘ayrioddiy moliyaviy ko‘rsatkichni soliq buzilishi bilan tenglashtirib yubormaslikdir. Tarmoq, investitsiya sikli, mavsumiylik va hisob siyosati ko‘rsatkichlarning tabiiy o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun soliq xavfi bitta indikator emas, bir nechta ko‘rsatkichlarning dinamikasi, ularning o‘zaro mantiqi va soliq hisobotlari bilan mosligi asosida baholanishi zarur.

Adabiyotlar sharhi va tadqiqot usullari

ISA 315 risklarni aniqlash va baholashni audit rejasining muhim bosqichi sifatida belgilaydi. Moliyaviy hisobotdagi manipulyatsiya va risklarni aniqlash bo‘yicha Beneish hamda Dechow va hammualliflar koeffitsiyentlar kombinatsiyasi alohida ko‘rsatkichga qaraganda ko‘proq axborot berishini ko‘rsatgan. Mills esa book-tax differences bilan soliq organlari tuzatishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etgan. Bu yondashuvlar soliq xavfini moliyaviy ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholashning nazariy asosini yaratadi.

Tadqiqotda koeffitsiyentlar va trend tahlili, qiyosiy tahlil hamda shartli case-study qo‘llanildi. Risk ustuvorligi ikki omil asosida baholandi: signal kuchi S (0–3 ball) va ehtimoliy soliq ta’siri I (0–3 ball). Yakuniy R = S × I qiymati 1–2 past, 3–4 o‘rtacha, 6 yuqori va 9 juda yuqori risk sifatida talqin qilindi. Ushbu baho xulosa emas, audit amallarining ketma-ketligi va chuqurligini belgilovchi vosita hisoblanadi.

1-jadval.

Moliyaviy hisobot tahlili asosidagi asosiy soliq xavfi indikatorlari

Indikator	Formula	Soliq yo‘nalishi	Audit mazmuni
Tushum–debitorlik tafovuti	DAR = g(AR) − g(Revenue)	QQS, foyda solig‘i	Daromad davrlashtirilishi, realizatsiya sifati, qaytarishlar
Zaxira–tannarx tafovuti	DINV = g(Inventory) − g(COGS)	Foyda solig‘i, QQS	Tannarx, inventarizatsiya, kirim-chiqim davrlari
Samarali foyda solig‘i stavkasi	ETR = Current tax / PBT	Foyda solig‘i	Imtiyoz, doimiy/vaqtinchalik farq yoki bazani kamaytirish riski
Pul oqimi sifati	QCF = CFO / Net profit	Foyda solig‘i, QQS	Foyda va real pul oqimi o‘rtasidagi nomuvofiqlik
Tannarx sig‘imi	COGS / Revenue	Foyda solig‘i	Xarajatlarni sun’iy

Indikator	Formula	Soliq yo‘nalishi	Audit mazmuni
			oshirish yoki noto‘g‘ri kapitalizatsiya
Umumiy soliq yuklamasi	Taxes / Revenue	Kompleks risk	Tarixiy va tarmoq benchmarkiga nisbatan izohlanmagan pasayish

Indikatorlar bir-birini to‘ldiradi. Debitorlikning tushumdan tez o‘sishi kreditga sotuvlarning ko‘payishi bilan izohlanishi mumkin, biroq u operatsion pul oqimining pasayishi yoki qaytarishlar ko‘payishi bilan birga kuzatilsa daromadni tan olish riskini kuchaytiradi. Xuddi shunday, zaxiralarning tannarxdan tez o‘sishi inventarizatsiya va tannarx shakllanishini tekshirish zaruratini bildirishi mumkin. Talqin doimo tarmoq benchmarklari bilan bog‘lanishi lozim.

Shartli korxona misolida soliq xavflarini aniqlash

Quyidagi uch yillik ma’lumotlar real korxonaga tegishli emas. Ular moliyaviy hisobot tahlilidan soliq xavfini aniqlashda qanday foydalanish mumkinligini ko‘rsatish uchun shartli ravishda tuzilgan.

2-jadval.

Shartli korxonaning 2023–2025-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2023	2024	2025
Tushum, mlrd so‘m	100	118	125
Debitorlik qarzi, mlrd so‘m	18	28	42
Zaxiralar, mlrd so‘m	22	29	39
Sotilgan mahsulot tannarxi, mlrd so‘m	67	82	91
Soliqdan oldingi foyda, mlrd so‘m	12	14	15
Joriy foyda solig‘i, mlrd so‘m	1,80	1,60	1,40
Sof foyda, mlrd so‘m	10,2	12,4	13,6
Operatsion pul oqimi, mlrd so‘m	10	8	4
Jami soliqlar, mlrd so‘m	13,5	13,8	12,3

Shartli ma’lumotlarda 2025-yilda tushum 5,9 foizga, debitorlik qarzi 50 foizga, zaxiralar esa 34,5 foizga oshgan. Debitorlik o‘sishining tushumdan keskin yuqoriligi daromad davrlashtirilishi va undirilish sifati bo‘yicha, zaxiralar o‘sishining tannarx dinamikasidan yuqoriligi esa inventarizatsiya va tannarx bo‘yicha qo‘shimcha testlarni talab qiladi. Samarali foyda solig‘i stavkasining 15 foizdan 9,3 foizgacha pasayishi ham qonuniy imtiyoz yoki vaqtinchalik farq bilan izohlanmasa yuqori risk signali bo‘lishi mumkin.

3-jadval.

Shartli korxona bo‘yicha soliq xavflarining ustuvorligi

Risk signali	Signal S	Ta’sir I	R=S×I	Daraja	Asosiy audit amali
Debitorlik divergentsiyasi	3	3	9	Juda yuqori	Yirik debitorlar, shartnoma va bank tushumlarini to‘liq test qilish
Zaxira divergentsiyasi	2	2	4	O‘rtacha	Inventarizatsiya, ombor registrlari va tannarx kalkulyatsiyasi
ETR pasayishi	3	3	9	Juda yuqori	Soliq imtiyozlari, doimiy/vaqtinchalik farqlar, chegirmalar
Pul oqimi sifati	3	3	9	Juda yuqori	Daromad tan olinishi va debitorlik bo‘yicha substantiv test
Umumiy soliq yuklamasi	2	3	6	Yuqori	Soliq turlari kesimida sabablarni ajratish va reconciliation

Risk ballari barcha yo‘nalishlarni bir xil chuqurlikda tekshirish o‘rniga audit resurslarini ustuvor taqsimlashga yordam beradi. Juda yuqori risk bo‘yicha keng substantiv protseduralar, tashqi tasdiqlar va to‘liq reconciliation; o‘rtacha risk bo‘yicha maqsadli tanlanma va analitik testlar qo‘llanadi. R balli hukm chiqaruvchi ko‘rsatkich emas: masalan, ETRning pasayishi imtiyoz bilan to‘liq hujjatlashtirilsa, dastlabki yuqori signal auditorlik dalili asosida qayta baholanadi.

Muhokama va ilmiy-amaliy takliflar

Amaliyot uchun birinchi taklif — soliq xavfi indikatorlarini tarmoq kesimidagi dinamik benchmarklar bilan bog‘lash. Median, kvartillar va korxonaning tarixiy diapazoni auditorning faqat bir davrga emas, g‘ayrioddiy og‘ishning iqtisodiy kontekstiga baho berishiga imkon yaratadi. Ikkinchi taklif — moliyaviy va soliq hisobotlari o‘rtasidagi doimiy hamda vaqtinchalik farqlarni reconciliation registrida yuritishdir.

Uchinchi taklif — risk indikatorlarini elektron hisobvaraq-faktura, bank va bojxona ma’lumotlari bilan bog‘lash. Moliyaviy hisobot ichki iqtisodiy mantiqni, tashqi ma’lumotlar esa operatsiyaning mustaqil tasdig‘ini beradi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi analitik signal kuchini ehtimoliy soliq ta’siri bilan birlashtirib risk ustuvorligini shakllantirish va har bir risk darajasini aniq audit amali bilan bog‘lashdan iborat.

Xulosa

Moliyaviy hisobot tahlili soliq xavflarini erta aniqlashda yuqori axborot qiymatiga ega. Tushum, debitorlik, zaxiralar, tannarx, foyda va pul oqimi o‘rtasidagi nomuvofiqliklar audit e’tiborini yuqori ehtimolli risklarga yo‘naltiradi. Biroq tahliliy signal soliq buzilishining dalili emas; u qonunchilik, hisob siyosati, tarmoq xususiyati va birlamchi hujjatlar bilan tekshirilishi lozim. $R = S \times I$ bahosi riskning kuchi va ehtimoliy soliq ta’sirini birgalikda ko‘rib, audit dasturining chuqurligi va ketma-ketligini asoslashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. “Soliq xavflarining tahlili”. gov.uz/oz/soliq/activity_page/soliq-xavflarining-tahlili.

2. IAASB. (2019). ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement.

3. IAASB. (2026). Proposed Revisions to ISA 330, ISA 500 and ISA 520: Audit Evidence and Risk Response Exposure Drafts.

4. Beneish, M.D. (1999). The Detection of Earnings Manipulation. Financial Analysts Journal, 55(5), 24–36.

5. Dechow, P.M., Ge, W., Larson, C.R., & Sloan, R.G. (2011). Predicting Material Accounting Misstatements. Contemporary Accounting Research, 28(1), 17–82.

6. Mills, L.F. (1998). Book-Tax Differences and Internal Revenue Service Adjustments. Journal of Accounting Research, 36(2), 343–356.

TELERADIO XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLARDA AUDITNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

E.A.Rabbimov
Sam ISI “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsent v.b. Tel: +998978977473
E-mail: elbek.abdullo1990@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada teleradio xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda auditni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Teleradio korxonalarining faoliyati reklama va efir xizmatlaridan olinadigan daromadlar, texnik vositalardan foydalanish, nomoddiy aktivlar, mualliflik va turdosh huquqlar hamda media mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari bilan tavsiflanadi. Tadqiqotda teleradio subyektlarida auditorlik risklarini aniqlash, daromadlarning to‘liqligi va haqqoniyligini tekshirish, asosiy vositalar hamda nomoddiy aktivlar auditini tashkil etish masalalari yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma’lumotlari hamda xalqaro audit va moliyaviy hisobot standartlari asosida teleradio xizmatlari auditining asosiy yo‘nalishlari aniqlangan. Tadqiqot natijasida reklama daromadlarini shartnomalar, efir jadvallari va elektron efir loglari orqali kompleks tekshirish hamda raqamli auditorlik amallaridan foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: audit, teleradio xizmatlari, televideniye, radio, auditorlik riski, reklama daromadlari, efir vaqti, mualliflik huquqi, nomoddiy aktivlar, asosiy vositalar, raqamli audit.

KIRISH. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida televideniye va radio xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati ortib bormoqda. Teleradio tashkilotlari aholiga axborot yetkazish bilan bir qatorda reklama, homiylik, efir vaqti, media mahsulotlarini ishlab chiqarish va tarqatish kabi tijorat faoliyatlarini ham amalga oshiradi. Shu sababli ushbu subyektlarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash, ichki nazoratni kuchaytirish va samarali audit tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.O‘zbekiston Respublikasida kontent va ommaviy axborot vositalari sektori ham iqtisodiy jihatdan rivojlanib bormoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil yanvar–oktabr oylarida kontent va ommaviy axborot vositalari sektorida xizmatlar hajmi 4 705,6 mlrd so‘mni, dasturlar tuzish va teleradioeshittirish xizmatlari esa 1 098,5 mlrd so‘mni tashkil etgan [4].

1-jadval.

Kontent va OAV xizmatlarining ayrim ko‘rsatkichlari[90]

Ko‘rsatkich	2024-yil yanvar–oktabr
OAV, kontent va AKT xizmatlari	46 274,8 mlrd so‘m
Kontent va OAV sektori	4 705,6 mlrd so‘m
Kontent va OAV sektorining ulushi	10,2 %
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirish xizmatlari	1 098,5 mlrd so‘m
Kino-videofilmlar va televideniye dasturlarini ishlab chiqish, ovoz yozish va musiqa xizmatlari	355,7 mlrd so‘m

[90] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Teleradio xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda auditning o‘ziga xosligi, avvalo, ularning faoliyatida moddiy va nomoddiy resurslarning birgalikda qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Masalan, professional videokameralar, studiya jihozlari, serverlar va uzatish uskunalari bilan bir qatorda dasturiy ta’minot, litsenziyalar, media kontent va mualliflik huquqlari ham korxona faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

Bundan tashqari, reklama daromadlarini aniqlash va tasdiqlash ham boshqa korxonalarga nisbatan murakkabroq bo‘lishi mumkin. Chunki reklama xizmatining qiymati reklama roligining davomiyligi, efirga uzatilishlar soni, efir vaqti va shartnoma shartlariga bog‘liq.

Shu sababli teleradio subyektlarida auditni riskka yo‘naltirilgan hamda raqamli ma’lumotlardan foydalanishga asoslangan holda tashkil etish dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotning maqsadi teleradio xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda auditning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va auditorlik tekshiruvining samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida teleradio xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati va ushbu faoliyatni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish jarayoni olindi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, hujjatli tekshiruv hamda analitik auditorlik amallaridan foydalanildi.

NATIJALAR. Teleradio subyektlarida daromadlar auditi.

Tadqiqot natijalari teleradio xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda daromadlar auditini asosiy auditorlik yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatmoqda.

Teleradio korxonalarining daromadlari quyidagi manbalardan shakllanishi mumkin:

- reklama xizmatlari;
- efir vaqtini taqdim etish;
- homiylik xizmatlari;
- media mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- kontentdan foydalanish huquqlarini taqdim etish;
- litsenziyalash va boshqa xizmatlar.

Reklama daromadlarini tekshirishda auditor reklama beruvchi bilan tuzilgan shartnomani, bajarilgan ishlar dalolatnomasini, hisob-kitob hujjatlarini va bank ma’lumotlarini o‘rganishi bilan bir qatorda reklamaning haqiqatda efirga uzatilganligini ham tekshirishi lozim.

Buning uchun quyidagi auditorlik zanjiridan foydalanish taklif etiladi:

Shartnoma → reklama buyurtmasi → efir jadvali → elektron efir logi → dalolatnoma → hisob-kitob → pul tushumi → buxgalteriya yozuvi.

Mazkur yondashuv reklama xizmatlarining haqiqatda ko‘rsatilganligi va daromadlarning hisobda to‘liq aks ettirilganligini aniqlash imkonini beradi.

Auditorlik risklari. Teleradio faoliyatining o‘ziga xosligi ayrim auditorlik risklarini kuchaytirishi mumkin.

2-jadval.

Teleradio subyektlarida asosiy auditorlik risklari.

Audit obyekti	Asosiy risk	Auditorlik amali
Reklama daromadlari	Daromadni to‘liq aks ettirmaslik	Shartnoma va efir loglarini solishtirish
Efir xizmatlari	Xizmat hajmini noto‘g‘ri ko‘rsatish	Efir jadvallarini tekshirish
Asosiy vositalar	Mavjud bo‘lmagan aktivlar	Inventarizatsiya va fizik ko‘rik
Nomoddiy aktivlar	Huquqiy asosning mavjud emasligi	Litsenziya va shartnomalarni tekshirish
Ish haqi	Asossiz to‘lovlar	Shartnoma va to‘lovlarni solishtirish
Ishlab chiqarish xarajatlari	Xarajatlarni oshirib ko‘rsatish	Smeta va birlamchi hujjatlarni tekshirish
Debitorlik qarzlari	Undirilmaydigan qarzlar	Qarzdorlikni tasdiqlash va tahlil qilish

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, teleradio subyektlarida auditor faqat buxgalteriya yozuvlarini emas, balki ularning ortida turgan operatsion jarayonlarni ham tekshirishi kerak.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari teleradio xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda auditni an’anaviy hujjatli tekshiruv bilan cheklamasdan, korxonaning operatsion va texnologik jarayonlari bilan bog‘liq holda tashkil etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Birinchi navbatda, auditor korxonaning biznes modelini o‘rganishi lozim. Reklama, homiylik, efir vaqti va kontent ishlab chiqarishning har biri alohida risklarni yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, reklama daromadlarini tekshirishda moliyaviy ma’lumotlarni operatsion ma’lumotlar bilan solishtirish samarali hisoblanadi. Masalan, shartnomada 100 ta reklama namoyishi ko‘rsatilgan bo‘lsa, auditor elektron efir loglari orqali ushbu xizmatning haqiqatda bajarilganligini aniqlashi mumkin.

Uchinchidan, asosiy vositalar auditida texnologik eskirishga e’tibor berish zarur. Uskunaning jismoniy jihatdan ishlashi uning iqtisodiy samaradorligini doimo anglatmaydi.

To‘rtinchidan, mualliflik va turdosh huquqlar bo‘yicha shartnomalarning amal qilish muddati va ulardan foydalanish shartlari tekshirilishi kerak.

Beshinchidan, ichki nazorat tizimida reklama bo‘limi, efir xizmati va buxgalteriya o‘rtasidagi ma’lumotlar almashinuvini avtomatlashtirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot asosida teleradio subyektlarida audit samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Reklama shartnomalari va efir ma’lumotlarini yagona elektron tizimda yuritish.
2. Elektron efir loglaridan auditorlik dalili sifatida foydalanish.
3. Asosiy vositalarni raqamli inventarizatsiya qilish.
4. Mualliflik va turdosh huquqlar bo‘yicha elektron reyestr shakllantirish.

5. Ijodiy xodimlar bilan hisob-kitoblarni alohida nazorat qilish.
6. Media mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari smetasini muntazam tahlil qilish.
7. Auditorlik tekshiruvlarida ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish vositalaridan foydalanish.

Shunday qilib, teleradio korxonalarida auditning samarali modeli quyidagi ketma-ketlikka asoslanishi mumkin:

Korxona faoliyatini o‘rganish → risklarni baholash → ichki nazoratni tekshirish → reklama va efir daromadlarini tekshirish → aktivlar auditini o‘tkazish → raqamli ma’lumotlarni tahlil qilish → yakuniy baholash.

XULOSA. Tadqiqot natijalari teleradio xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda audit umumiy auditorlik metodologiyasidan tashqari ushbu sohaning iqtisodiy, texnologik va huquqiy xususiyatlarini hisobga olishni talab qilishini ko‘rsatdi.

Teleradio subyektlarida auditning asosiy o‘ziga xos jihatlari reklama va efir xizmatlaridan olinadigan daromadlarni tekshirish, texnik vositalarning katta qiymatga egaligi, nomoddiy aktivlar va intellektual mulkning mavjudligi, mualliflik va turdosh huquqlar bilan bog‘liq operatsiyalar hamda ijodiy xodimlar bilan hisob-kitoblarning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotda reklama daromadlarini “shartnoma–efir–elektron log–dalolatnoma–hisob-kitob–buxgalteriya” zanjiri asosida tekshirish taklif etildi. Mazkur yondashuv daromadlarning to‘liqligi va haqqoniyligini aniqlash imkoniyatini oshiradi.

Shuningdek, teleradio korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish audit sifatini oshirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Elektron efir loglari, avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari va reklama ma’lumotlar bazasini o‘zaro solishtirish auditorlik dalillarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, teleradio xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda auditni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi riskka asoslangan auditni raqamli analitika bilan integratsiyalashdan iborat. Bu yondashuv moliyaviy hisobotdagi xatolarni o‘z vaqtida aniqlash, moliyaviy va huquqiy risklarni kamaytirish hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-677-son Qonun, 2021-yil 25-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-42-son Qonun, 2006-yil 20-iyul.
3. O‘zbekiston Respublikasi. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘RQ-78-son Qonun, 2007-yil 15-yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari: OAV, kontent va AKT xizmatlari. 2024-yil yanvar–oktabr.
5. International Auditing and Assurance Standards Board. International Standards on Auditing. IAASB.

6. IAASB. ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement. International Auditing and Assurance Standards Board.
7. IFRS Foundation. IFRS 15: Revenue from Contracts with Customers.
8. IFRS Foundation. IAS 16: Property, Plant and Equipment.
9. IFRS Foundation. IAS 38: Intangible Assets.

SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA XUSUSIY KAPITAL HISOBINI STRATEGIK BOSHQARUV TALABLARIGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH

N.I.Najimova
SamISI tayanch doktoranti nigoranajimova743@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapital hisobini strategik boshqaruv talablari bilan uyg‘unlashtirish, kapital yetarliligi va risklarni baholash ko‘rsatkichlarini hisob axborotlari bilan integratsiyalash hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan xususiy kapital hisobini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta tashkiloti, xususiy kapital, buxgalteriya hisobi, strategik boshqaruv, kapital yetarliligi, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, strategik rejalashtirish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы гармонизации учета частного капитала с требованиями стратегического управления в страховых организациях, интеграции показателей достаточности капитала и оценки рисков с бухгалтерской информацией, а также совершенствования учета частного капитала с целью обеспечения финансовой стабильности.

Ключевые слова: страховая организация, частный капитал, бухгалтерский учет, стратегическое управление, достаточность капитала, управление рисками, финансовая стабильность, резервный капитал, нераспределенная прибыль, стратегическое планирование.

Abstract. This article examines issues related to aligning private capital accounting in insurance organizations with strategic management requirements, integrating capital adequacy and risk assessment indicators with accounting data, and improving private capital accounting to ensure financial stability.

Keywords: insurance organization, private capital, accounting, strategic management, capital adequacy, risk management, financial stability, reserve capital, retained earnings, strategic planning.

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashda xususiy kapital nafaqat moliyalashtirish manbai, balki sug‘urta risklarini qoplash, to‘lovga qobiliyatlilikni saqlash va strategik rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi muhim iqtisodiy resurs hisoblanadi. Sug‘urta faoliyatining riskka asoslangan xususiyati, sug‘urta majburiyatlarining uzoq muddatli tavsifi hamda kutilmagan zararlarni qoplash uchun yetarli kapitalga

bo‘lgan ehtiyoj xususiy kapital hisobini an’anaviy buxgalteriya hisobi doirasidan kengroq yondashuv asosida tashkil etishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ustav kapitali, qo‘shilgan va rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda hamda xususiy kapitalning boshqa tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi hisob axborotlarini tashkilotning strategik maqsadlari, risklarni boshqarish siyosati va kapital yetarliligini ta’minlash vazifalari bilan o‘zaro bog‘lash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv xususiy kapital holati va uning tarkibidagi o‘zgarishlarni faqat retrospektiv aks ettirishdan strategik boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlovchi tizimga o‘tish imkonini beradi.

Sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapital hisobini strategik boshqaruv bilan uyg‘unlashtirish kapitalning shakllanishi, joylashtirilishi va undan foydalanish jarayonlarini yagona axborot-tahliliy tizim doirasida boshqarishni nazarda tutadi. Bunda buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini kapital yetarliligi, rentabellik, sug‘urta risklari darajasi, moliyaviy barqarorlik va istiqboldagi kapitalga bo‘lgan ehtiyoj ko‘rsatkichlari bilan integratsiyalash muhim hisoblanadi. Xususan, riskka asoslangan kapitalni boshqarish, stress-test va ssenariy tahlili natijalarini hisob axborotlari bilan bog‘lash sug‘urta tashkilotiga kapital yetishmovchiligi xavfini oldindan aniqlash, foydani taqsimlash va kapitalni ko‘paytirish bo‘yicha muqobil strategiyalarni baholash hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Shu sababli xususiy kapital hisobini strategik boshqaruv mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish sug‘urta tashkilotlarida hisob axborotining boshqaruv qiymatini oshirish va kapitaldan foydalanish samaradorligini ta’minlashning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapital hisobi va uni strategik boshqaruv bilan uyg‘unlashtirish masalasi zamonaviy ilmiy hamda me’yoriy adabiyotlarda kapital yetarliligi, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish va moliyaviy hisobotning ishonchliligi bilan o‘zaro bog‘liq holda tadqiq etiladi. MHXS 17 “Sug‘urta shartnomalari” sug‘urta shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni joriy baholash, risklarni hisobga olish va moliyaviy natijalarni xizmat ko‘rsatish davrlari bo‘yicha tan olishning yagona metodologik asoslarini belgilaydi [1]. Standartning joriy etilishi sug‘urta tashkilotlarining hisobotda aks ettiriladigan xususiy kapitaliga ham ta’sir qilishi mumkin, chunki sug‘urta majburiyatlarini baholashdagi o‘zgarishlar aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalar orqali kapital miqdoriga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi [2]. Solvency II konsepsiyasida esa xususiy mablag‘lar sug‘urta tashkilotining risklarni qoplash qobiliyatini ta’minlovchi asosiy moliyaviy resurs sifatida qaralib, ular sifati va zararni qoplash xususiyatlariga qarab darajalarga ajratiladi [3]. Mazkur yondashuvda sug‘urta tashkiloti mavjud kapital hajmini risk profilidan ajratilgan holda emas, balki sug‘urta, bozor, kredit, likvidlik va operatsion risklar bilan o‘zaro bog‘liqlikda boshqarishi talab etiladi [4]. Shu jihatdan, xususiy kapitalning buxgalteriya hisobidagi miqdori bilan prudensial maqsadlarda aniqlanadigan o‘z mablag‘lari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash va ularni strategik boshqaruv jarayonida hisobga olish sug‘urta tashkilotining real moliyaviy barqarorligini baholashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapitalni strategik boshqarish bo‘yicha xalqaro yondashuvlarda istiqboldagi risklar, biznes strategiyasi va kapitalga bo‘lgan ehtiyojni yagona tizimda baholashga alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, EIOPA tomonidan ishlab chiqilgan Own Risk and Solvency Assessment (ORSA) yondashuviga muvofiq, sug‘urta tashkiloti o‘zining umumiy to‘lovga qobiliyatlilik ehtiyojini risk profili, belgilangan risk chegaralari va biznes strategiyasini hisobga olgan holda baholashi lozim [5]. ORSA bo‘yicha uslubiy tavsiyalar kapitalni boshqarishni retrospektiv moliyaviy ko‘rsatkichlarni nazorat qilish bilan cheklamasdan, istiqbolli ssenariylar, stress-testlar va risklarning kutilayotgan o‘zgarishlari asosida tashkil etishni nazarda tutadi [6]. Solvency II doirasidagi kapitalni boshqarish talablari sug‘urta tashkilotlaridan o‘z mablag‘larining tarkibi, miqdori va sifatini muntazam tahlil qilish, shuningdek, biznes-rejalashtirish davri uchun kapitalning kutilayotgan o‘zgarishini prognoz qilishni talab etadi [7]. MHXS 17 talablarida esa sug‘urta va bozor risklari bo‘yicha sezgirlik tahlili natijasida foyda yoki zarar hamda xususiy kapital qanday o‘zgarishi mumkinligini ochib berishga alohida e’tibor qaratiladi [8]. Shundan kelib chiqib, sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapital hisobini strategik boshqaruv bilan uyg‘unlashtirishda “buxgalteriya hisobi → risklarni baholash → kapital yetarliligini aniqlash → stress-test va prognozlash → strategik boshqaruv qarori” ketma-ketligini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bunday integratsiya xususiy kapital to‘g‘risidagi hisob axborotining nafaqat retrospektiv, balki prognoz va strategik ahamiyatini oshirib, kapital yetishmovchiligi xavfini oldindan aniqlash, qo‘shimcha kapital jalb qilish, dividend siyosatini belgilash va sug‘urta portfelining risklilik darajasini optimallashtirish uchun axborot bazasini yaratadi.

Sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapital hisobini strategik boshqaruv bilan uyg‘unlashtirish moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va kapitaldan samarali foydalanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bunda xususiy kapitalning tarkibi va harakati to‘g‘risida buxgalteriya hisobida shakllantiriladigan axborotlar faqat moliyaviy hisobot tuzish vositasi sifatida emas, balki uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, risklarni boshqarish, kapital yetarliligini ta’minlash, investitsiya va dividend siyosatini shakllantirish uchun zarur strategik axborot manbai sifatida qaraladi. Xususiy kapital hisobi va strategik boshqaruv o‘rtasidagi mazkur o‘zaro bog‘liqlikni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin.

Rasmda sug‘urta tashkilotining xususiy kapital hisobi bilan strategik boshqaruv tizimini o‘zaro integratsiyalash mexanizmi aks ettirilgan. Xususiy kapital hisobi blokida ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda va boshqa xususiy kapital elementlari bo‘yicha shakllantirilgan ishonchli hisob axborotlari strategik boshqaruv tizimiga uzatilishi nazarda tutilgan. Strategik boshqaruv esa uzoq muddatli maqsadlar, risklarni boshqarish, kapital yetarliligi, investitsiya va dividend siyosati hamda barqaror rivojlanish ustuvorliklarini hisob tizimida e’tiborga olish imkonini beradi. Shu tariqa, ikki tizim o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvi va teskari bog‘liqlik shakllanib, xususiy kapital to‘g‘risidagi buxgalteriya axborotining boshqaruv qiymati oshadi. Taklif etilayotgan uyg‘unlashtirish natijasida xususiy kapital hisobi retrospektiv ma’lumotlarni shakllantiruvchi an’anaviy tizimdan strategik qarorlarni

axborot bilan ta’minlovchi faol boshqaruv vositasiga aylanadi. Bunda kapitalning mavjud holati, tarkibi va dinamikasi strategik maqsadlar hamda risklar bilan bog‘liq ravishda baholanib, kapital yetarliligini saqlash, risklarga chidamlilikni kuchaytirish va kapital resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi. Natijada mazkur integratsion mexanizm sug‘urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarga chidamliligini oshirish, kapitaldan samarali foydalanish va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.



1-rasm. Sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapital hisobini strategik boshqaruv bilan uyg‘unlashtirish mexanizmi.

Sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapital hisobini strategik boshqaruv bilan uyg‘unlashtirish masalalarini tadqiq etish natijasida xususiy kapitalning nafaqat tashkilot moliyaviy resurslarining muhim manbai, balki uning risklarga chidamliligi, to‘lovga qobiliyatliligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlovchi strategik omil ekanligi asoslandi. Xususiy kapital tarkibiy qismlari, jumladan, ustav kapitali, qo‘shilgan va rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda hamda boshqa kapital elementlari bo‘yicha buxgalteriya hisobida shakllantiriladigan axborotlarni kapital yetarliligi, risk darajasi, rentabellik va investitsion faoliyat ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshiradi. Shu sababli xususiy kapital hisobini faqat amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalarini qayd etuvchi retrospektiv tizim sifatida emas, balki tashkilotning istiqboldagi kapitalga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash va strategik maqsadlarga erishishni axborot bilan ta’minlovchi boshqaruv vositasi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Sug‘urta tashkilotlarida xususiy kapital hisobi va strategik boshqaruv o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish uchun hisob ma’lumotlari asosida kapital holatini muntazam monitoring qilish, kapital yetarliligi va risk

ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq baholash, stress-test hamda ssenariy tahlillaridan foydalanish, shuningdek, kapitalning istiqboldagi harakatini prognozlash tizimini joriy etish zarur. Bunda “xususiy kapital hisobi → risklarni baholash → kapital yetarliligini aniqlash → strategik rejalashtirish → boshqaruv qarori → monitoring” ketma-ketligi asosida yagona axborot-tahliliy mexanizmni shakllantirish taklif etiladi. Mazkur yondashuv sug‘urta tashkilotlarida kapitaldan samarali foydalanish, moliyaviy barqarorlik va risklarga chidamlilikni oshirish, investitsiya hamda dividend siyosatini asosli shakllantirish va pirovardida tashkilotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cummins J.D., Sommer D.W. Capital and risk in property-liability insurance markets // Journal of Banking & Finance. – 1996. – Vol. 20, No. 6. – P. 1069–1092. – DOI: 10.1016/0378-4266(95)00044-5.

2. Shim J. Capital-based regulation, portfolio risk and capital determination: Empirical evidence from the US property–liability insurers // Journal of Banking & Finance. – 2010. – Vol. 34, No. 10. – P. 2450–2461. – DOI: 10.1016/j.jbankfin.2010.04.003.

3. Starita M.G., Malafronte I. Capital Requirements, Disclosure, and Supervision in the European Insurance Industry: New Challenges towards Solvency II. – London: Palgrave Macmillan, 2014. – 292 p. – DOI: 10.1057/9781137390844.

4. Kriele M., Wolf J. Value-Oriented Risk Management of Insurance Companies. – London: Springer, 2014. – 378 p. – DOI: 10.1007/978-1-4471-6305-3.

5. Heep-Altiner M., Mullins M., Rohlfs T. (eds.). Solvency II in the Insurance Industry: Application of a Non-Life Data Model. – Cham: Springer, 2019. – 219 p. – DOI: 10.1007/978-3-319-77060-4.

6. Dreher M. Treatises on Solvency II. – Berlin; Heidelberg: Springer, 2015. – 478 p. – DOI: 10.1007/978-3-662-46290-4.

7. Gambaro A.M. The capital-on-capital cost in Solvency II risk margin // European Actuarial Journal. – 2024. – DOI: 10.1007/s13385-024-00401-8.

8. García S., Pavía J.M., Veres Ferrer E.J., Lledó J. A tool for predicting solvency capital requirements in life insurance // Studies of Applied Economics. – 2017. – Vol. 35, No. 2. – DOI: 10.25115/eea.v35i2.2476.

9. Nozimov E. Strategic methods for ensuring financial stability in insurance companies // International Journal of Political Sciences and Economics. – 2026.

10. International Accounting Standards Board. IFRS 17 Insurance Contracts. – London: IFRS Foundation.

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Toshnazarova Lola Shuhratullayevna
SamISI “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi dotsenti v.b., PhD, E-mail:toshnazarovalola86@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish muhim iqtisodiy vazifalardan biridir. 2026-yilda foyda solig‘ining bazaviy stavkasi 15 foiz miqdorida saqlanib, soliq siyosatida barqarorlik va qulay biznes muhitini ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda korporativ soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari, uning investitsiya faolligi va korxonalar raqobatbardoshligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari samarali va barqaror soliq siyosati iqtisodiy o‘sish hamda investitsiya muhitini yaxshilashning muhim omili ekanligini asoslashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Soliq siyosati, soliqqa tortish, foyda solig‘i, soliq yuki, iqtisodiy raqobatbardoshlik, soliq ma’murchiligi, iqtisodiy o‘sish.

O‘zbekistonda korporativ soliqqa tortish tizimining investitsiya jarayonlariga ta’siri soliq stavkalari bilan bir qatorda korxonalar uchun belgilangan amortizatsiya tartibi va investitsion soliq imtiyozlari orqali ham namoyon bo‘ladi. Asosiy vositalarga yo‘naltirilgan investitsiyalarni soliqqa tortish shartlari korxonalarning kapital xarajatlarini qoplash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va texnologik yangilanish imkoniyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi soliq mexanizmlarining amal qilishi korxonalarning soliq yukini maqbullashtirish bilan birga, ularning investitsiya faolligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmlarning samaradorligi esa uzoq muddatda ishlab chiqarish unumdorligi, iqtisodiy o‘sish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq siyosatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarida investitsiya faolligini rag‘batlantirish, kapital qo‘yilmalar uchun soliq yukini kamaytirish hamda korxonalarning yangi asosiy vositalarga yo‘naltiriladigan mablag‘larini qo‘llab-quvvatlash muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda ushbu maqsadlarga erishish uchun kapital xarajatlarini tezlashtirilgan tartibda amortizatsiya qilish, ayrim turdagi asosiy vositalarni qisqa muddatlarda xarajatlarga kiritish va investitsiyalarni amalga oshiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga qo‘shimcha soliq afzalliklarini taqdim etish kabi mexanizmlardan foydalaniladi. Bunday yondashuvlar soliq siyosatining nafaqat fiskal, balki investitsion va rag‘batlantiruvchi funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, AQSh va Kanada tajribasida kapital qo‘yilmalarni soliqqa tortish bo‘yicha qo‘llanilgan yondashuvlar xalqaro soliq siyosatining zamonaviy tendensiyalarini aks ettiruvchi muhim misollardan biridir. Xususan, ushbu mamlakatlarda ayrim turdagi kapital xarajatlari bo‘yicha tezlashtirilgan amortizatsiya va birinchi yilning o‘zida xarajatlarni to‘liq hisobga olish

imkoniyatlarining joriy etilishi yangi investitsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan. Mazkur tajriba O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish, xususan, investitsion faoliyatni soliq mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini baholashda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.



1-rasm. Soliq siyosatida kapital investitsiyalarini rag‘batlantirish: AQSh va Kanada tajribasi [2]

Keltirilgan rasm AQSh va Kanadada kapitalga nisbatan qo‘llanilgan soliq siyosati mexanizmlarining investitsiyalarni rag‘batlantirish nuqtayi nazaridan o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi. Xususan, Kanada tomonidan 2018-yildan boshlab ayrim kapital xarajatlari uchun tezlashtirilgan kapital xarajatlari bo‘yicha chegirmalar hamda mashina va uskunalarning ayrim turlari uchun birinchi yilning o‘zida to‘liq xarajat qilish imkoniyatining joriy etilishi AQShda qo‘llanilgan soliq rag‘batlari bilan muayyan darajada uyg‘unlashgan. Mazkur choralar vaqtinchalik xususiyatga ega bo‘lib, ularning asosiy maqsadi yangi kapital qo‘yilmalarni amalga oshirishni jadallashtirish va biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirishdan iborat bo‘lgan.

Ushbu xalqaro tajriba O‘zbekiston uchun ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy soliq siyosatini shakllantirishda faqat davlat budjetiga tushumlarni oshirish emas, balki soliq vositalari orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, asosiy kapitalni yangilash va investitsion jarayonlarni rag‘batlantirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Shu jihatdan, rivojlangan mamlakatlar tajribasidagi tezlashtirilgan amortizatsiya va investitsion soliq rag‘batlari kabi mexanizmlarni O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos sharoitlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish soliq siyosatining rag‘batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirishi mumkin.

Kapital qo‘yilmalarni rag‘batlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari mamlakatning investitsion jozibadorligi va xalqaro raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xususan, tezlashtirilgan amortizatsiya va kapital xarajatlarini qisqa muddatlarda soliq bazasidan chegirish imkoniyatlari korxonalar uchun investitsiyalarning dastlabki davridagi soliq yukini kamaytirib, yangi asosiy vositalarga mablag‘ yo‘naltirishni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, bunday imtiyozlarning bosqichma-bosqich qisqartirilishi yoki bekor qilinishi investitsion qarorlarning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Investitsiyalar hajmining qisqarishi, o‘z navbatida, ishlab chiqarish quvvatlarining yangilanish sur’atlari va mehnat unumdorligiga ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini oshiradi. Mehnat unumdorligining o‘sish sur’atlari korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy natijalari va mehnatga haq to‘lash imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli soliq siyosatida investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni shakllantirishda ularning nafaqat qisqa muddatli fiskal samarasi, balki uzoq muddatli iqtisodiy ta’sirini ham hisobga olish muhimdir.

Biroq kapital investitsiyalariga beriladigan maqsadli soliq imtiyozlari ham muayyan cheklovlarga ega. Xususan, tezlashtirilgan amortizatsiya yoki ayrim turdagi kapital aktivlarga nisbatan alohida soliq yengilliklarining qo‘llanilishi investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari va aktivlar turlari bo‘yicha taqsimlanishiga ta’sir qilishi mumkin. Natijada soliq rag‘batlari mavjud bo‘lgan aktivlarga investitsiya kiritish boshqa yo‘nalishlarga nisbatan jozibadorroq bo‘lib qoladi. Bu esa kapital resurslarining bozor mexanizmlari asosida taqsimlanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda zamonaviy soliq siyosatini takomillashtirish jarayonida investitsiyalarni rag‘batlantirish va soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq imtiyozlari aniq iqtisodiy maqsadga yo‘naltirilgan, vaqt jihatidan asoslangan va kutilayotgan natijalar bilan bog‘langan holda qo‘llanilganda, ular ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnologik yangilanish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Aksincha, haddan tashqari tabaqalashtirilgan imtiyozlar kapitalning iqtisodiyotdagi optimal taqsimlanishini buzishi va soliq tizimining neytralligini pasaytirishi ehtimolini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy soliq siyosati davlat budjetini shakllantirish bilan bir qatorda, investitsiyalarni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va iqtisodiy faollikni oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu sababli soliq siyosatini takomillashtirishda fiskal manfaatlar va iqtisodiy rag‘batlantirish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhimdir.

Xalqaro tajriba tezlashtirilgan amortizatsiya va kapital xarajatlari bo‘yicha soliq imtiyozlari investitsion faollikni oshirishga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq bunday imtiyozlarning haddan tashqari keng qo‘llanilishi kapitalning optimal taqsimlanishiga va soliq tizimining neytralligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida soliq siyosatini rivojlantirishda soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini muntazam baholash, investitsiya va ishlab chiqarish samaradorligiga real ta’sirini monitoring qilish hamda samarasiz imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Kelgusida xalqaro tajribadan foydalanish O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bu esa soliq tizimining fiskal barqarorligi bilan bir qatorda uning rag‘batlantiruvchi va tartibga soluvchi funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyatlar ro‘yxati

1. Busch T, Lewandowski S. Corporate carbon and financial performance: a meta-analysis. J Ind Ecol. 2018;22(4):745–59. doi:10.1111/jiec.12591
2. Damoah B, Adu E, Ofori E, Apraku A. Aggravation of climate change crisis in gulf regions of United States: a review of anthropogenic factors. J Ecohumanism. 2024;3(4):438–49. doi: 10.62754/joe.v3i4.3534
3. Flammer C. Corporate green bonds. J Financ Econ. 2021;142(2):499–516. doi: 10.1016/j.jfineco.2021.01.010
4. Campiglio E, Daumas L, Monnin P, von Jagow A. Climate risks in financial assets. J Econ Surv. 2023;37:950–92. doi: 10.1111/joes.12525
5. Hu Y, Jin Y. Unraveling the influence of green bonds on environmental sustainability and paving the way for sustainable energy projects in green finance. Environ Sci Pollut Res. 2023;30:113039–54. doi: 10.1007/s11356-023-30454-3

KORXONALARDA KO‘CHMAS MULKLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Esanov Oybek Madatovich
“Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi v.b. dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarda ko‘chmas mulklar auditini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Ko‘chmas mulk obyektlarining korxona aktivlari tarkibidagi o‘rni, ularni tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ko‘chmas mulk auditini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan auditorlik risklari, ichki nazoratning holati, inventarizatsiya, amortizatsiya va qayta baholash bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida korxonalarda ko‘chmas mulklar auditini takomillashtirish uchun riskka asoslangan audit yondashuvini kengaytirish, elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish, kadastr va buxgalteriya ma’lumotlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. ko‘chmas mulk, audit, auditorlik riski, asosiy vositalar, inventarizatsiya, amortizatsiya, qayta baholash, ichki nazorat, moliyaviy hisobot,

raqamli audit, auditorlik dalillari.

Annotation. This article examines the theoretical and practical aspects of organizing an audit of real estate at enterprises. The role of real estate objects in the structure of the enterprise's assets, their recognition, valuation, accounting and reflection in financial statements are covered. Also, audit risks arising in the process of conducting real estate audits, the state of internal control, problems related to inventory, depreciation and revaluation are analyzed. As a result of the study, scientific and practical proposals have been developed to improve the audit of real estate at enterprises, including expanding the risk-based audit approach, forming an electronic database, coordinating cadastral and accounting data, and using modern digital technologies.

Key words. real estate, audit, audit risk, fixed assets, inventory, depreciation, revaluation, internal control, financial reporting, digital audit, audit evidence.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты организации аудита недвижимого имущества на предприятиях. Охвачена роль объектов недвижимости в структуре активов предприятия, их признание, оценка, учет и отражение в финансовой отчетности. Также анализируются аудиторские риски, возникающие в процессе проведения аудита недвижимого имущества, состояние внутреннего контроля, проблемы, связанные с инвентаризацией, амортизацией и переоценкой. В результате исследования разработаны научно-практические предложения по совершенствованию аудита недвижимого имущества на предприятиях, включая расширение риск-ориентированного подхода к аудиту, формирование электронной базы данных, координацию кадастровых и бухгалтерских данных и использование современных цифровых технологий.

Ключевые слова. недвижимость, аудит, аудиторский риск, основные средства, запасы, амортизация, переоценка, внутренний контроль, финансовая отчетность, цифровой аудит, аудиторские доказательства.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini ta'minlashda uzoq muddatli aktivlardan, xususan, ko'chmas mulk obyektlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bino va inshootlar, ishlab chiqarish obyektlari, ma'muriy binolar hamda boshqa ko'chmas mulklar ko'plab korxonalar aktivlarining katta qismini tashkil etadi. Shu sababli mazkur obyektlarning mavjudligi, huquqiy maqomi, qiymati va moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirilishini ta'minlash muhim vazifalardan biridir.

Koxxonalar ko'chmas mulk obyektlari boshqa aktivlardan o'zining yuqori qiymati, uzoq muddat foydalanilishi, jismoniy va ma'naviy eskirishi, shuningdek, huquqiy jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Mazkur xususiyatlar ularni audit qilish jarayonida auditorlik risklarining yuzaga kelish ehtimolini oshiradi.

Xususan, ko‘chmas mulkning boshlang‘ich qiymatini noto‘g‘ri aniqlash, kapital va joriy xarajatlarni noto‘g‘ri tasniflash, amortizatsiyani noto‘g‘ri hisoblash, qayta baholash natijalarini noto‘g‘ri aks ettirish, obyektlarning mavjudligini yetarli darajada tekshirmaslik va mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni to‘liq o‘rganmaslik moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan korxonalarda ko‘chmas mulklar auditini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, auditorlik risklarini baholash va audit jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ko‘chmas mulklar auditini tadqiq etishda xorijiy va mahaliy olimlarimiz tomonidan asosiy vositalarning mavjudligi, baholanishi, huquqiy egaligi, amortizatsiyasi va moliyaviy hisobotda to‘g‘ri aks ettirilishi masalalariga e’tibor qaratilgan. Jumladan, **O.A. Petryk va I.O. Marynich**[91] asosiy vositalar qiymatini audit qilish masalasini tadqiq etib, auditda asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini aniqlash, baholash va qayta baholash jarayonlarini tekshirishga alohida e’tibor berish zarurligini ta’kidlaydilar. Ularning tadqiqotida auditorlik tekshiruvining axborot manbalari, baholashni tekshirish usullari va auditorlik nazoratining bosqichlari o‘rganilgan. Olimlar, shuningdek, asosiy vositalar qiymatini baholashda auditor tomonidan aniqlanishi mumkin bo‘lgan tipik xatolarni tasniflagan.

N. Selivanova[92] asosiy vositalarni hisobga olish va audit qilishda risklarni baholash masalasini markaziy yo‘nalish sifatida ko‘radi. Uning tadqiqotida xalqaro standartlar asosida asosiy vositalar bilan bog‘liq hisob va audit risklari ko‘rib chiqilib, moliyaviy hisobotda muhim buzib ko‘rsatish risklarini aniqlash va ushbu risklarga mos auditorlik amallarini tanlash zarurligi asoslangan.

I.N. Ismanov[93] uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini tadqiq qilgan olimlardan biridir. Uning 2009-yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi “Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalari”ga bag‘ishlangan. Mazkur tadqiqot ko‘chmas mulkni ham qamrab oluvchi uzoq muddatli aktivlarning hisob va audit metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan.

Z. Suyunova [94] “Quyuv mexanika zavodi” AJ misolida asosiy vositalar auditini takomillashtirish yo‘nalishlarini tadqiq qilgan. Tadqiqotda asosiy vositalar auditining xalqaro va mahalliy yondashuvlarini uyg‘unlashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan.

TADQIQOT VA METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda korxonalarda ko‘chmas mulklar auditini takomillashtirishning muhim omillarini tahlil qilish va ularning korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan,

[91] ir.kneu.edu.ua
[92] https://www.researchgate.net
[93] https://www.researchgate.net
[94] https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/11065?utm_source=chatgpt.com

tahliliy-sintetik, taqqoslash va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tahliliy-sintetik usul orqali ko‘chmas mulklarning hisobi va auditi o‘rganildi, taqqoslash usuli yordamida milliy va xalqaro standartlar qiyoslandi. Statistik tahlil asosida ko‘chmas mulklarning tarkibi, dinamikasi va korxona aktivlaridagi ulushi baholandi.

TAHLILIY QISM

Amaliyotda ko‘chmas mulk auditini tashkil etishda bir qator muammolar mavjud. Ulardan biri ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha buxgalteriya va huquqiy ma’lumotlarning o‘zaro muvofiqlashtirilmaganligidir. Ayrim hollarda obyektning buxgalteriya hisobidagi qiymati, texnik tavsifi yoki huquqiy maqomi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘z vaqtida yangilanmaydi. Natijada auditorlik tekshiruvi jarayonida qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazishga ehtiyoj tug‘iladi. Yana bir muhim muammo ko‘chmas mulkni qayta baholash bilan bog‘liq. Bozor qiymatidagi sezilarli o‘zgarishlar obyektning balans qiymatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday holatda baholash natijalarining asoslanganligi va tegishli hisobda aks ettirilganligi auditor tomonidan tekshirilishi zarur.

Bundan tashqari, kapital ta’mirlash va modernizatsiya xarajatlarini joriy xarajatlardan farqlash masalasi ham auditda muhim ahamiyatga ega. Xarajatlarni noto‘g‘ri tasniflash aktivlarning qiymati va davr moliyaviy natijalarining noto‘g‘ri shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Maskur muommolarni bartaraf qilish, ko‘chmas mulk auditini takomillashtirish uchun, avvalo, riskka asoslangan audit yondashuvini kuchaytirish lozim. Bunda barcha obyektlarni bir xil darajada tekshirish o‘rniga qiymati yuqori va risk darajasi yuqori bo‘lgan obyektlarga asosiy auditorlik resurslarini yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, ko‘chmas mulkning elektron reyestrini shakllantirish lozim. Ushbu reyestrda har bir obyekt bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar jamlanishi mumkin(1-jadval):

1-jadval

Ko‘chmas mulkning elektron reyestri

Ma’lumot turi	Mazmuni
Inventar raqami	Obyektning yagona identifikatsiya raqami
Obyekt nomi	Bino, inshoot va boshqa obyekt turi
Joylashuvi	Obyektning manzili
Boshlang‘ich qiymati	Hisobga qabul qilingan qiymat
Jamg‘arilgan amortizatsiya	Hisobot sanasigacha hisoblangan amortizatsiya
Qoldiq qiymat	Boshlang‘ich qiymatdan amortizatsiya chegirilgandan keyingi qiymat
Huquqiy ma’lumotlar	Mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar
Texnik holati	Obyektning amaldagi holati
Oxirgi baholash sanasi	Qayta baholash amalga oshirilgan sana

1-jadvaldagi elektron reyestr auditor uchun ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish va turli manbalardagi nomuvofiqliklarni aniqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, - kadastr, buxgalteriya va ichki nazorat ma’lumotlarini integratsiyalashdir. Bu yondashuv obyektlarning huquqiy maqomi va buxgalteriya hisobidagi holatini bir vaqtning o‘zida nazorat qilish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, - raqamli audit texnologiyalaridan foydalanish. Auditorlik tashkilotlari katta hajmdagi ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish, noodatiy operatsiyalarni aniqlash va turli davr ko‘rsatkichlarini solishtirish uchun zamonaviy analitik vositalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak.

Beshinchidan, - inventarizatsiyani takomillashtirish. Inventarizatsiya faqat hujjatlarni solishtirish bilan cheklanib qolmasdan, obyektlarning fizik holatini ko‘zdan kechirish va elektron identifikatsiya vositalaridan foydalanish asosida amalga oshirilishini joriy qilish lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, korxonalarda ko‘chmas mulk obyektlari auditini takomillashtirish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash, aktivlardan samarali foydalanish va auditorlik risklarini kamaytirishning muhim shartlaridan biridir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘chmas mulk auditining samaradorligi nafaqat buxgalteriya ma’lumotlarini tekshirishga, balki obyektlarning huquqiy maqomi, fizik mavjudligi, texnik holati, qiymati va ulardan foydalanish samaradorligini kompleks baholashga bog‘liq. Shu sababli ko‘chmas mulk auditida riskka asoslangan yondashuvni kuchaytirish, elektron reyestr yaratish, kadastr va buxgalteriya ma’lumotlarini integratsiyalash hamda raqamli audit vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Taklif etilayotgan elektron reyestr va riskka asoslangan audit modeli auditorning vaqt va mehnat resurslaridan samarali foydalanishiga, xatolarni erta aniqlashga hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada korxonalarda ko‘chmas mulk obyektlarining hisobini yuritish va ularning auditini tashkil etish sifati oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. IAS 16 — “Asosiy vositalar”.
4. Xalqaro audit standartlari.
5. Petryk O.A., Marynich I.O. Audit otsinky vartosti osnovnykh zasobiv — asosiy vositalar qiymatini audit qilish masalalariga bag‘ishlangan maqola.
6. Selivanova N. Assessment of Risks Related to the Accounting and Audit of Property, Plant and Equipment in Accordance with International Standards. 2024. DOI: 10.15276/ETR.02.2024.12
7. Ismanov I.N.Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2009.
8. Suyunova Z. **“**Quyuv mexanika zavodi” AJda asosiy vositalar auditini takomillashtirish yo‘nalishlari**.** Green Economy and Development, 2026, 4(3). DOI: 10.5281/zenodo.20726810.

IV SHO‘BA. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITNI XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH VA “BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” TA’LIM YO‘NALISHI MUTAXASSISLIGI BO‘YICHA RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

ЭЛЕКТР ТАРМОҚЛАРИ КОРХОНАЛАРИДА «SMART-METER → BLOCKCHAIN → AUDIT LEDGER» МОДЕЛИ ВА ПУЛ ОҚИМЛАРИНИ ПРОГНОЗЛАШНИНГ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛИ

Джураев Давлат Джонибекович
таянч докторант, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Аннотация. Тезисда электр тармоқлари корхоналарида пул оқимлари аудитини рақамлаштириш ва прогнозлаш масалалари тадқиқ этилган. Электр энергиясини ҳисобга олиш жиҳозлари (smart-meter) маълумотларини бухгалтерия ҳисоби тизимига бевосита интеграциялашни таъминловчи «smart-meter → blockchain → audit ledger» модели ҳамда беш омилли регрессион-эконометрик модель асосида пул оқимларини 2030 йилгача прогноз қилиш усули таклиф этилган.

Калит сўзлар: пул оқимлари аудити, smart-meter, блокчейн, узлуксиз аудит, аудит ledger, эконометрик модель, OLS регрессия, прогнозлаш, электр тармоқлари корхоналари.

Электр тармоқлари корхоналарида ҳар куни катта ҳажмдаги пул оқимлари ва ҳисоблагич маълумотлари шаклланиб, уларни тизимли назорат қилиш ва аудитдан ўтказиш замонавий рақамли воситаларни талаб қилади. Айни пайтда smart-meter маълумотлари бухгалтерия ҳисоби тизимига автоматик интеграция қилинмаган, бу эса аудит жараёнида вақт сарфини ва хатолик эҳтимолини оширади.

Тадқиқотнинг илмий янгиликларидан бири электр энергиясини ҳисобга олиш жиҳозлари (smart-meter) маълумотларини бухгалтерия ҳисоби тизимига бевосита интеграциялашни таъминловчи «smart-meter → blockchain → audit ledger» моделидир. Модель ҳисоблагичдан олинган маълумотларни блокчейн орқали ўзгармас (immutable) кўринишда аудиторлик реестрига (audit ledger) узатади. АХС 315 талаблари асосида узлуксиз аудит имконини берувчи ушбу модель аудиторлик тартиб-таомилларини ўтказишга кетадиган вақт сарфини 35–40%га, хатоларнинг юзага келиш эҳтимолини эса 70–80%га қисқартиради[95].

Блокчейн технологиясининг аудитдаги асосий устунлиги маълумотларнинг ўзгармаслигини таъминлаб, аудиторлар учун ишончли ва изчил далиллар базасини шакллантиришидир. «smart-meter → blockchain → audit ledger» модели ҳисоблагич маълумотлари, сотиш ҳажми ва пул

[95]Аудитнинг халқаро стандарти (АХС) 315 «Жиддий хатолар тавакилчилигини ташкилот ва унинг бизнес муҳитини билиш асосида аниқлаш ва баҳолаш». — Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, 2018–2024.

тушумлари ўртасидаги мувофиқликни реал вақт режимида текшириш, аномал ҳолатларни (шартномасиз истеъмол, ҳисоблагич носозлиги) эрта аниқлаш ҳамда аудиторлик изини (audit trail) тўлиқ сақлаш имконини беради.

Тадқиқотнинг иккинчи илмий янгилиги электр энергиясини сотиш ҳажми, ўртача тариф ставкаси, истеъмол нархлари индекси, Марказий банкнинг қайта молиялаштириш ставкаси ва валюта курсини ҳисобга олувчи беш омилли регрессион-эконометрик моделдир. Операцион пул оқими (OCF) қуйидаги кўп ўлчовли регрессион модель орқали ифодаланади (1-жадвал):

$$\mathbf{OCF_t = \beta_0 + \beta_1 \cdot VOLUME_t + \beta_2 \cdot TARIFF_t + \beta_3 \cdot CPI_t + \beta_4 \cdot RATE_t + \beta_5 \cdot USD_t + \varepsilon_t}$$

бу ерда: OCF_t — t-даврдаги операцион пул оқими (млрд сўм); VOLUME_t — электр энергиясини сотиш ҳажми; TARIFF_t — ўртача тариф ставкаси; CPI_t — истеъмол нархлари индекси; RATE_t — Марказий банкнинг қайта молиялаштириш ставкаси; USD_t — USD/UZS ўртача курси; $\beta_0 \ldots \beta_5$ — регрессион коэффициентлар; ε_t — тасодифий хато.

1-жадвал

Эконометрик моделнинг мустақил ўзгарувчилари

Ўзгарувчи	Мазмуни	Ўлчов бирлиги
VOLUME	Электр энергиясини сотиш ҳажми	млрд кВт·с
TARIFF	Ўртача тариф ставкаси	сўм/кВт·с
CPI	Истеъмол нархлари индекси	%
RATE	Марказий банк қайта молиялаштириш ставкаси	%
USD	USD/UZS ўртача курси	сўм

Манба: муаллиф ишланмаси.

Модель 2020 йилнинг I чорагидан 2024 йилнинг IV чорагигача бўлган 20 та чораклик кузатувга (n = 20) асосланиб, энг кичик квадратлар усули (OLS) ёрдамида баҳоланди. Ушбу модель «Ҳудудий электр тармоқлари» АЖда пул оқимларини 2030 йилгача прогноз қилиш, тариф ва макроиқтисодий ўзгаришларнинг операцион пул оқимига таъсирини миқдоран баҳолаш ҳамда бошқарув қарорларини илмий асослаш имконини беради.

Таклиф ва тавсиялар:

1. Электр тармоқлари корхоналарида пул оқимлари аудитини «smart-meter → blockchain → audit ledger» модели асосида ташкил этиш ва уни АХС 315 талабларига мувофиқ узлуксиз аудит воситаси сифатида қабул қилиш тавсия этилади.

2. Smart-meter маълумотларини бухгалтерия ҳисоби тизимига блокчейн орқали интеграциялаш, аудиторлик реестрини (audit ledger) юритиш ва аномалияларни эрта аниқлаш тизимини жорий этиш тавсия этилади — бу аудит вақтини 35–40%га, хатоликларни 70–80%га қисқартиради.

3. «Ҳудудий электр тармоқлари» АЖда пул оқимларини 2030 йилгача прогноз қилиш учун беш омилли регрессион-эконометрик моделни ($OCF_t = \beta_0 + \beta_1 \cdot VOLUME_t + \ldots + \beta_5 \cdot USD_t$) OLS усули асосида қўллаш тавсия этилади.

AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BANK AUDITINI TASHKIL ETISHNING ISHCHI HUJJATLAR TIZIMI VA INSTITUTSIONAL TATBIQ MODELI

Xayrullayev O‘tkir Ismailovich
Mustaqil izlanuvchisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Tezisda auditning xalqaro standartlari asosida bank auditini tashkil etishning ishchi hujjatlar tizimi va institutsional tatbiq modeli tadqiq etilgan. Bank muomalalari va hisobot moddalarini ustuvorlik darajasi bo‘yicha guruhlash tartibi, ishchi hujjatlar hamda xalqaro standartlarni mahalliy banklar auditiga bosqichma-bosqich singdirishning uch pog‘onali institutsional modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: bank auditi, auditning xalqaro standartlari (AXS), ishchi hujjatlar, ustuvorlik bo‘yicha guruhlash, institutsional model, uyg‘unlashtirish, AXS 700, AXS 701.

O‘zbekiston tijorat banklarida auditning xalqaro standartlari asosida bank auditini tashkil etish amaliyoti hali to‘liq tizimlashmagan bo‘lib, ayrim hollarda audit an’anaviy tekshiruv doirasida olib boriladi. Xalqaro standartlarni milliy amaliyotga tatbiq etish uchun ishchi hujjatlar, ustuvorlik bo‘yicha guruhlash va institutsional mexanizmni takomillashtirish talab etiladi[96].

Tadqiqotning ilmiy yangiliklaridan biri bank muomalalari va hisobot moddalarini ustuvorlik darajasi bo‘yicha guruhlash tartibi hamda audit yakunlarini umumlashtirishga mo‘ljallangan ishchi hujjatlar va qaror qabul qilish tartibidir. Bunda kredit portfeli, ECL, moliyaviy instrumentlar va prudensial ko‘rsatkichlar bo‘yicha asosiy audit masalalari tanlanadi va ular uchun yagona uslubiy to‘plam — ishchi hujjatlar, tahliliy jadvallar va tekshirish tartib-taomillari — shakllantiriladi. Auditorlik hisobotiga qo‘shimcha tahliliy ilova kiritilib, unda rezervlarning kapital yetarliligiga ta’siri, muammoli kreditlar dinamikasi va baholash noaniqligi yuqori bo‘lgan moddalar qisqa tahlil qilinadi.

Bank auditi natijasi faqat auditorlik tashkiloti va bank o‘rtasidagi shartnomaviy mahsul emas, balki omonatchilar, investorlar, kreditorlar, regulyator va keng jamoatchilik uchun ishonch signali vazifasini bajaradi. Shu bois bank auditida sifat tushunchasi oddiy texnik aniqlikdan kengroq bo‘lib, auditorning mustaqilligi, professional skeptitsizmi, dalillar yetarliligi, risklarni to‘g‘ri baholashi va ichki nazoratni chuqur tushunishini qamrab oladi. Audit sifati past bo‘lganda hisobot rasmiy jihatdan tasdiqlangan bo‘lsa-da, uning iqtisodiy mazmuni va jamoat uchun axborot qiymati sustlashadi.

Xalqaro standartlarni bank auditiga tatbiq etishning tashkiliy-metodik bosqichlari ishlab chiqilgan. Ular audit boshida, audit jarayonida va audit yakunida audit qo‘mitasi, kuzatuv kengashi, ichki audit va tavakkalchilikni boshqarish bo‘linmalari bilan uch bosqichli rasmiy muhokama tartibini, shuningdek, yillik

[96] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi VMQ-171-son «O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — www.lex.uz.

audit bilan bir qatorda oraliq moliyaviy hisobotlar bo‘yicha yarim yillik ko‘rib chiqish amaliyotini nazarda tutadi.

Bank auditining funksional qamrovi retrospektiv tekshiruv bilan cheklanmasdan, moliyaviy hisobot ishonchliligini tasdiqlash, aktiv va majburiyatlarni baholash, kapital yetarliligi va likvidlilik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda manfaatdor tomonlar uchun axborot qiymati yuqori bo‘lgan auditorlik fikrini shakllantirishni qamrab oluvchi ko‘p bosqichli audit modeli sifatida rivojlantiriladi. Bunda auditorlik tekshiruvining axborot qiymati bank egalari va menejmenti bilangina cheklanmasdan, regulyator, investor, depozitor va kreditorlarning qaror qabul qilish ehtiyojlari bilan bog‘liq holda kengaytiriladi.

Tadqiqotning yakuniy ilmiy yangiligi xalqaro standartlarni mahalliy banklar auditiga bosqichma-bosqich singdirishning institutsional modelidir. Model uch pog‘onadan iborat bo‘lib (1-jadval), aynan shu uch pog‘onaning yaxlitligi bank auditini xalqaro standartlar asosida samarali tashkil etishning nazariy poydevorini tashkil etadi.

1-jadval

Bank auditini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirishning uch pog‘onali institutsional modeli

Pog‘ona	Mazmuni	Qamrovi (AXS)
1-pog‘ona: Universal audit nazariyasi	Mustaqillik, muhimlik, risk, dalillar, professional skeptitsizm, hisobot	AXS 200, 300
2-pog‘ona: Bank auditi nazariyasi	Kreditlash, likvidlilik, depozitlar, kapital, prudensial normativlar, moliyaviy instrumentlar	AXS 315, 540
3-pog‘ona: Institutsional tatbiq modeli	Milliy bank tizimi, regulyator talablari, kasbiy tayyorgarlik, audit bozori infratuzilmasi	AXS 700, 701

Manba: muallif ishlanmasi.

Institutsional tatbiq standartlashuv va moslashtirish tamoyillari uyg‘unligini talab etadi: auditor bir tomondan AXS 200, 300, 315, 260, 265, 700 va 701 belgilagan umumiy metodologik negizga tayanadi, ikkinchi tomondan ularni bank faoliyatining riskka sezgir va prudensial xususiyatlariga moslab qo‘llaydi[97]. Bunda auditorlik hisoboti passiv yakuniy hujjat emas, balki omonatchilar, investorlar, kreditorlar va regulyator uchun muhim ishonch signali sifatida talqin qilinadi[98].

Taklif va tavsiyalar:

1. Bank auditini universal audit nazariyasi, bank auditi nazariyasi va institutsional tatbiq modelidan iborat uch pog‘onali yaxlitlik asosida tashkil etish hamda xalqaro standartlarni mahalliy banklar auditiga bosqichma-bosqich singdirish tavsiya etiladi.

[97] Auditning xalqaro standarti (AXS) 200 «Mustaqil auditorning umumiy maqsadlari va auditni AXS ga muvofiq o‘tkazish». — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2018–2024.

[98] Auditning xalqaro standartlari (AXS) 700 «Moliyaviy hisobot bo‘yicha fikr shakllantirish va hisobot berish» hamda 701 «Asosiy audit masalalarini auditorlik hisobotida bayon etish». — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2018–2024.

2. Tijorat banklariga bank muomalalari va hisobot moddalarini ustuvorlik darajasi bo‘yicha guruhlash hamda kredit portfeli, ECL, moliyaviy instrumentlar va prudensial ko‘rsatkichlar bo‘yicha yagona uslubiy ishchi hujjatlar to‘plamini joriy etish tavsiya etiladi.

3. Audit boshi, jarayoni va yakunida audit qo‘mitasi hamda kuzatuv kengashi bilan uch bosqichli rasmiy muhokama tartibini, oraliq hisobotlar bo‘yicha yarim yillik ko‘rib chiqishni va auditorlik hisobotiga qo‘shimcha tahliliy ilovani joriy etish tavsiya etiladi.

ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА ESG ҲИСОБОТИ ВА ESG АУДИТИНИНГ ТАРМОҚ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Бабакулова Матлуба Курбанназаровна
Тошкент давлат иқтисодиёт университети таянч докторанти,

Аннотация. Тезисда тўқимачилик саноати корхоналари учун барқарор ривожланишнинг ESG омиллари бўйича ҳисобот ва аудитнинг тармоқ методологияси баён этилади. Методология ўн саккиз кўрсаткичдан иборат ESG матрицасини, ESG харажатларини бухгалтерия ҳисобига интеграциялаш механизмини, GOTS, OEKO-TEX ва BCI сертификатлари аудитининг беш босқичли алгоритмини, ESG рейтингининг уч даражали тизимини ҳамда мажбурий ҳисобот ва мустақил аудит низомларини қамрайди. Методология МҲХС S1 ва МҲХС S2 стандартлари билан уйғунлаштирилган.

Калит сўзлар: ESG, барқарор ривожланиш, МҲХС S1, МҲХС S2, ESG аудити, ESG рейтинги, GOTS, OEKO-TEX, ижтимоий аудит, тўқимачилик саноати.

1. Кириш

Тўқимачилик саноати ESG нинг жаҳон иқтисодиётига энг катта таъсирига эга тармоқлардан биридир: у глобал углерод чиқиндиларининг тахминан 8–10 фоизини, саноат оқова сувларининг 20 фоизини ва океанларга тушадиган микропластикнинг 35 фоизини ишлаб чиқаради. Европа Иттифоқининг 2022/2464-сонли (CSRD) ва 2024/1760-сонли (CSDDD) директиваларига мувофиқ, ЕИ бозорига маҳсулот экспорт қилувчи тўқимачилик компаниялари, ҳажмидан қатъи назар, ESG ҳисоботини тақдим этишлари шарт.

Бу масала Ўзбекистон учун алоҳида аҳамиятга эга: уюшма экспортининг қарийб 18 фоизи Европа Иттифоқига йўналтирилган ва «Ўзбекистон–2030» стратегиясида бу улушни 2030 йилга бориб 35 фоизга етказиш белгиланган. Бироқ корхоналарда ESG омиллари бўйича ҳисоботнинг тармоқ методологияси мавжуд эмаслиги халқаро бозорга чиқиш учун жиддий институционал тўсиқ ҳисобланади. Шу муносабат билан тўқимачилик саноати корхоналари учун ESG ҳисоботи ва аудитининг тармоқ методологияси ишлаб чиқилди.

2. ESG индикаторларининг тармоқ тизими

Тўқимачилик саноатининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ўн саккизта асосий ESG кўрсаткичи шакллантирилди: экологик блокда олтита (E1–E6), ижтимоий блокда олтита (S1–S6) ва корпоратив бошқарув блокида олтита (G1–G6) кўрсаткич (1-жадвал). Ҳар бир кўрсаткич учун ўлчов бирлиги, ҳисоблаш формуласи, ҳужжатнинг бирламчи манбаси ва ҳисобот даврийлиги аниқ белгиланган; бу ESG ҳисоботининг ишончлилиги ва текширилишини сезиларли даражада оширади.

1-жадвал

Тўқимачилик саноати корхоналари учун таклиф этилаётган ESG-индикаторлар тизими

Блок	Индикатор	Ўлчов бирлиги	Бирламчи манба
E1 — Сув	Маҳсулот бирлигига сув истеъмоли	м³/тонна	Сув-ҳисоб дафтари
E2 — Сув	Қайта ишлатилаётган сув улуши	%	Тозалаш қурилмаси ҳисоби
E3 — Кимё	ZDHC рўйхатидаги тақиқланган моддалар	кг/йил	Лаборатор тест
E4 — Энергия	Маҳсулот бирлигига энергия истеъмоли	кВт·с/тонна	Энергия ҳисоби
E5 — Эмиссия	CO_2 эмиссияси (Scope 1+2)	т CO_2-экв.	GHG протоколи
E6 — Чиқинди	Қайта ишлатиладиган чиқинди улуши	%	Чиқинди дафтари
S1 — Гендер	Раҳбарликдаги аёллар улуши	%	Кадрлар ҳисоботи
S2 — Иш ҳақи	Энг паст иш ҳақи / минимум нисбати	коэффициент	Иш ҳақи ҳисоботи
S3 — Хавфсизлик	Иш жойидаги жароҳат частотаси (LTIFR)	кейс/1 млн соат	Меҳнат хавфсизлиги
S4 — Таълим	Ходимга йиллик тренинг соатлари	соат	Кадрлар таълими
S5 — Меҳнат	ILO стандартлари бажарилиши	%	Ижтимоий аудит
S6 — Жамият	Маҳаллий жамоатга йўналтирилган маблағ	млн сўм	Хайрия ҳисоботи
G1 — Этика	Корпоратив ҳалоллик кодекси мавжудлиги	ҳа/йўқ	Ҳужжатлар
G2 — Аудит	Мустақил ички аудит мавжудлиги	ҳа/йўқ	Низом
G3 — Ошкоралик	МҲХС бўйича ҳисобот тузиш даражаси	%	Молиявий ҳисобот
G4 — Кенгаш	Мустақил кенгаш аъзолари улуши	%	Кенгаш мажлислари
G5 — Коррупция	Анти-коррупция тренинглари қамрови	%	Тренинг ҳисоботи
G6 — Шерик	Мустақил ESG-аудит ўтказилганлиги	марта/йил	Аудиторлик хулоса

Манба: муаллиф ишланмаси.

3. ESG ҳисобини интеграциялаш, сертификат аудити ва ESG рейтинги

ESG омиллари бўйича харажатларни молиявий ҳисоб тизими билан боғлаш учун ҳисобварақлар режасига 0950 «Экологик ва ижтимоий фаолиятга харажатлар» синтетик ҳисобварағи ҳамда унга бўйсунувчи 0951 «Сувни тозалаш ва қайта ишлаш», 0952 «Кимёвий моддалардан хавфсиз фойдаланиш», 0953 «Углерод чиқиндиларини камайтириш», 0954 «Ходимларни ўқитиш ва ижтимоий имтиёзлар» ҳамда 0955 «Корпоратив ахлоқ ва ҳалоллик дастурлари» аналитик ҳисобварақларини киритиш таклиф этилади.

GOTS, OEKO-TEX ва BCI халқаро сертификатларини аудит қилиш учун беш босқичли эксперт баҳолаш алгоритми ишлаб чиқилди: сертификатнинг амал қилиш муддати ва соҳасини экспертиза қилиш; сертификатлаш ва аудит даврида операцион параметрларни қиёсий таҳлил қилиш; хомашё ва кимёвий моддаларнинг сертификат талабларига мувофиқлигини текшириш; ходимлар ва аутсорсинг ҳамкорлари учун ижтимоий-меҳнат шароитларини аудит қилиш; сертификатнинг молиявий-иқтисодий таъсирини ҳисоблаш.

ESG фаолияти асосида корхоналарни уч даражага ажратиш усули таклиф этилади: A даражаси — юқори ESG (85 баллдан юқори, барча ўн саккиз кўрсаткич бўйича стандартларга мувофиқлик ва камида битта халқаро сертификат); B даражаси — ўртача ESG (60–84 балл); C даражаси — паст ESG (60 балл ва ундан паст). Рейтингдан банкларнинг «яшил кредит» бериши, инвесторлар қарорлари, давлат харидлари ва халқаро бозорларга чиқишда устувор мезон сифатида фойдаланиш мумкин. Умумий айланмаси 100 миллиард сўмдан ортиқ йирик корхоналар учун 2027 йилдан ESG ҳисоботини мажбурий эълон қилиш ва ISAE 3000 ҳамда ISAE 3410 стандартлари асосида мустақил ESG аудитини ўтказиш тавсия этилади.

4. Хулоса

Тезисда тўқимачилик саноати корхоналари учун ESG ҳисоботи ва аудитининг тармоқ методологияси баён этилди: ўн саккиз кўрсаткичли ESG матрицаси, ESG харажатларини бухгалтерия ҳисобига интеграциялаш механизми, сертификат аудитининг беш босқичли алгоритми, ESG рейтингининг уч даражали тизими ҳамда мажбурий ҳисобот ва аудит низомлари. «ALKIM TEKSTIL» ва «KONTEKS-TASHKENT» корхоналарида ўтказилган ҳисоб-китобларга кўра, методологияни изчил жорий этиш ЕИга экспортни 35–40 фоизга ошириш, «яшил кредит» ҳисобига молиявий харажатларни йилига 27 миллиард сўмгача камайтириш, халқаро сертификатга эга корхоналар улушини 5,3 фоиздан 28 фоизга кўтариш ҳамда сув истеъмолини 18, кимёвий чиқиндиларни 22 фоизга қисқартириш имконини беради.

Таклиф ва тавсиялар. Тўқимачилик саноати корхоналарига МҲХС S1 ва S2 талабларига мос ўн саккиз кўрсаткичли ESG матрицасини қўллаш, ESG харажатларини 0950 синтетик ҳисобварағи ва унга бўйсунувчи аналитик ҳисобварақлар орқали бухгалтерия ҳисобига интеграциялаш ҳамда GOTS,

OEKO-TEX ва BCI сертификатлари аудитининг беш босқичли алгоритмидан фойдаланиш тавсия этилади. Умумий айланмаси 100 миллиард сўмдан ортиқ корхоналар учун 2027 йилдан ESG ҳисоботини мажбурий эълон қилиш ва ISAE 3000 ҳамда ISAE 3410 стандартлари асосида мустақил ESG аудитини ўтказиш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. IFRS Foundation (2023) IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information. London: ISSB.
2. IFRS Foundation (2023) IFRS S2 Climate-related Disclosures. London: ISSB.
3. European Parliament and Council (2022) Directive (EU) 2022/2464 (Corporate Sustainability Reporting Directive, CSRD). Brussels: Official Journal of the EU.
4. European Parliament and Council (2024) Directive (EU) 2024/1760 (Corporate Sustainability Due Diligence Directive). Brussels: Official Journal of the EU.
5. IAASB (2013) ISAE 3000 (Revised) Assurance Engagements Other than Audits or Reviews of Historical Financial Information. New York: IFAC.
6. Global Standard gGmbH (2023) Global Organic Textile Standard (GOTS) Version 7.0. Stuttgart: Global Standard gGmbH.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон–2030» стратегияси тўғрисида»ги 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони. Тошкент. https://lex.uz.

ЕНГИЛ САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ХАТАРЛАРНИ БАҲОЛАШ АМАЛИЁТИ ВА ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР ҲАМДА ТАННАРХ АУДИТИ ПРОЦЕДУРАЛАРИДАГИ МЕТОДИК БЎШЛИҚ

Тожиева Шаҳло Маҳматмуродовна
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Тезисда енгил саноат корхоналарида хатарларни баҳолаш амалиётининг ҳолати ва товар-моддий захиралар ҳамда ишлаб чиқариш харажатлари аудити процедураларидаги методик бўшлиқ таҳлил этилади. Бўшлиқнинг сабаблари ва оқибатлар занжири очиб берилиб, тармоққа хос процедураларни намунавий дастур асосида жорий этиш йўналишлари таклиф қилинади.

Калит сўзлар: хатарларни баҳолаш, товар-моддий захиралар, таннарх аудити, материал баланси, сарф меъёрлари, ички аудит процедуралари.

Хатарга йўналтирилган ички аудитнинг мазмуни икки таянчга қурилади: хатарларни тизимли баҳолаш ва баҳолаш натижасига мос процедураларни қўллаш. Енгил саноатда иккала таянч ҳам товар-моддий захиралар ва таннарх зонасига бориб тақалади: тармоқда таннархнинг асосий қисмини материал

харажатлари ташкил этади, кўп босқичли ишлаб чиқариш эса йўқотиш нуқталарини кўпайтиради [1; 2]. Тармоқнинг жадал ўсиши — расмий маълумотларга кўра етакчи йўналишларда реал ҳажм сўнгги йилларда саноат ўртачасидан сезиларли юқори суръатда кенгайган [8] — ушбу зонага босимни янада оширади: операциялар ҳажми ўсган сари назоратнинг ҳар бир бўшлиғи қимматлашади.

Таҳлилнинг предмети икки ўзаро боғлиқ саволга қаратилади: корхоналарда хатарларни баҳолаш қай даражада расмийлашган ва аудит процедуралари тармоқ хатарларини қоплашга қай даражада мос. Иккала савол бир занжирнинг ҳалқаларидир: баҳолаш расмийлашмаган жойда процедуралар танлови ҳам асосини йўқотади — нимани чуқур текшириш кераклиги номаълум қолади. Шу боис ҳолатни фақат процедуралар рўйхати бўйича баҳолаш етарли эмас; таҳлил баҳолаш–режалаштириш–процедура занжирининг яхлитлигини текширишга қурилиши лозим.

Хатарларни баҳолаш амалиётининг таҳлили биринчи тизимли муаммони очади: тижорат корхоналарида хатарларни расмий идентификациялаш ва баҳолаш маданияти шаклланмаган. Хатарлар реестри юритилмайди, эҳтимоллик–таъсир матрицаси қўлланилмайди, баҳолаш эса алоҳида раҳбарларнинг интуитив тасаввурлари даражасида қолади. Бунинг оқибати бевосита аудит режасида кўринади: режа хатарлар манзарасидан узилган ҳолда, ўтган йил андозасида тузилади, юқори хатарли соҳалар эса алоҳида чуқурлик билан ажратилмайди. Ҳолбуки, миллий стандартлар режалаштиришда хатарларни ҳисобга олишни талаб этади [4] — талаб билан амалиёт ўртасидаги узилишнинг сабаби, аввало, тайёр услубий восита йўқлигидадир.

Хатарларни расмий баҳолашнинг ишчи механизми мураккаб эмас ва айнан шу боис унинг йўқлиги услубий эмас, ташкилий иродага бориб тақалади: тармоқ хатарлари ишлаб чиқариш занжири босқичлари бўйича гуруҳланиб реестрга киритилади; ҳар хатар эҳтимоллик ва таъсир бўйича беш баллик шкалада баҳоланади; баллар кўпайтмаси хатарни матрицада критик, юқори, ўртача ёки паст даражага жойлаштиради. Баҳолашга ишлаб чиқариш, таъминот, ҳисоб ва сотув вакиллари жалб этилса, натижа ҳар томонлама бўлади; ички аудитнинг мустақил баҳоси бўлинмалар баҳоси билан таққосланса, тафовутнинг ўзи ташхисий маълумотга айланади.

Расмий баҳолашнинг йўқлиги режага қандай таъсир қилишини оддий мисол кўрсатади: бир хил эътибор тамойилида тузилган режада омбор ҳисоби ва иш ҳақи ҳисоби текшируви тенг вақт олади, ҳолбуки биринчисида материал сиғими юқори тармоқ учун ҳал қилувчи хатарлар тўпланган, иккинчиси эса нисбатан барқарор соҳадир. Хатарлар матрицаси мавжуд бўлганда бундай тенглаштириш ўз-ўзидан асоссиз кўринади ва ресурс энг таҳдидли нуқталарга оқади. Демак, матрица шунчаки ҳужжат эмас, аудит ресурсини тақсимлашнинг холис механизмидир.

Хатарларни баҳолашнинг яна бир амалий афзаллиги — у аудит ва бошқарув ўртасидаги мулоқотга умумий тил беради: «омбор ҳисобини текшириш керак» деган умумий даъво ўрнига «материал ҳаракати хатари

критик даражада баҳоланди, шу боис чуқур текширув режалаштирилди» деган асосли баёнот пайдо бўлади. Бундай тил кузатув органи учун ҳам қулай: у режани хатарлар манзараси билан солиштириб, аудит эътиборининг тўғри тақсимланганини мустақил баҳолай олади. Шу тариқа расмий баҳолаш ҳисобдорликнинг сифатини ҳам кўтаради.

Услубий бўшлиқнинг иккинчи, чуқурроқ қатлами процедуралар даражасида намоён бўлади. Товар-моддий захиралар аудити амалиётда асосан йиллик инвентаризацияда қатнашиш ва унинг натижаларини расмийлаштириш билан чекланади; таннарх аудити эса калькуляция ҳужжатларининг арифметик ва расмий текширувидан нарига ўтмайди. Тармоқнинг ўзига хос хатарларини очадиган таҳлилий процедуралар — материал баланси, сарф меъёрларидан оғишлар таҳлили, чиқитлар ҳаракати назорати, переделлараро тақсимотни қайта ҳисоблаш, захираларни қадрсизланишга баҳолаш — тизимли қўлланилмайди. Асосий процедураларнинг аҳамияти ва амалиётдаги типик ҳолати 1-жадвалда умумлаштирилган.

1-жадвал

ТМЗ ва таннарх аудити процедуралари: аҳамияти ва амалиётдаги ҳолат

Процедура	Аҳамияти (қоплайдиган хатар)	Амалиётдаги типик ҳолат
Материал баланси	Ҳисобга олинмаган йўқотиш ва суиистеъмолликни очади	Тизимли қўлланилмайди
Меъёр–факт таҳлили	Меъёрдан ортиқ сарф ва меъёрлар эскирганини кўрсатади	Эпизодик, оғишлар сабаби очилмайди
Чиқитлар назорати	Чиқит орқали маҳсулот яширишга тўсиқ	Чиқит ҳисоби юзаки текширилади
Передел калькуляцияси текшируви	Таннарх бузилишини аниқлайди	Арифметик текширув билан чекланади
Қадрсизланишни баҳолаш	Активларни ошириб кўрсатишга тўсиқ	Деярли ўтказилмайди
Инвентаризация (танланма иштирок)	Камомад ва ортиқчани тасдиқлайди	Қўлланилади, аммо якка процедура сифатида

Манба: [1; 3; 5; 6] талаблари ва ўрганилган амалиёт асосида муаллиф томонидан тузилган.

Жадвалдан кўринадиган умумий манзара «тескари мутаносиблик» деб аташ мумкин бўлган ҳолатни акс эттиради: хатар қоплаш салоҳияти энг юқори процедуралар амалиётда энг кам қўлланилади. Инвентаризация — зарур, аммо якка ҳолда энг кучсиз восита: у фақат мавжудликни тасдиқлайди, ҳаракат давомидаги йўқотишларни эса кўрмайди. Материал баланси айнан ҳаракатни очади, бироқ у номенклатуры кесимидаги маълумот интизоми ва технологик билимни талаб қилгани боис амалиётда четлаб ўтилади. Шу тариқа аудит эътибори осон бажариладиган, аммо кам информатив процедураларга силжийди.

Материал баланси процедурасининг мазмунини очиш унинг аҳамиятини яққол кўрсатади: номенклатура кесимида давр бошидаги қолдиқ, кирим, ишлаб чиқаришга сарф, чиқит ва давр охиридаги қолдиқ ўртасидаги миқдорий мувозанат тузилади ва юритиш ҳисоби билан солиштирилади. Мувозанатнинг бузилиши — ҳисобга олинмаган йўқотиш, ортиқча ҳисобдан чиқариш ёки суиистеъмолликнинг бевосита белгисидир. Процедура мураккаб ҳисоб-китоб талаб қилмайди, аммо маълумотларнинг номенклатура кесимида интизомли юритилишини тақозо этади — амалиётда айнан шу интизомнинг йўқлиги процедурани четлаб ўтишга баҳона бўлади, ҳолбуки бу ҳолатнинг ўзи назорат муҳити заифлигининг белгисидир.

Чиқитлар назорати тармоқда алоҳида мазмун касб этади: тўқимачилик ва тикув ишлаб чиқаришида технологик чиқит табиий бўлгани боис, айнан чиқит ҳисоби суиистеъмоллик учун қулай нуқтага айланиши мумкин — сифатли маҳсулот чиқит сифатида ҳисобдан чиқарилиб, кейин норасмий сотилади. Шу боис аудит чиқитнинг меъёрий ва ҳақиқий даражасини, синфланишини (қайта ишланадиган ва йўқ қилинадиган), омборга кирими ва кейинги ҳаракатини — сотилиши ёки қайта ишланишини изчил текшириши лозим. Чиқит улушининг кескин ўзгариши ҳар доим чуқур текширув учун сигналдир.

Меъёр–факт таҳлилининг тўлақонли қўлланиши икки шартга боғлиқ: меъёрларнинг долзарблиги ва оғишлар сабабини очиш интизоми. Амалиётда меъёрлар кўп ҳолларда йиллар давомида қайта кўрилмайди, натижада «меъёрга мослик» кўрсаткичи ўз маъносини йўқотади: эскирган, бўш меъёр доирасидаги сарф расман мақбул кўринади. Аудит шу боис аввало меъёрларнинг ўзини — қачон ва қандай асосда белгиланганини текшириши, сўнгра оғишларни сабаблар кесимида (технология, сифат, ташкилий омил) таснифлаши лозим. Оғиш сабаби очилмаган таҳлил шунчаки арифметика бўлиб қолади ва бошқарув қарорига асос бермайди.

Инвентаризациянинг ўзи ҳам такомиллаштиришга муҳтож: аудитнинг вазифаси унда шунчаки қатнашиш эмас, жараённинг ўзини баҳолашдир — танланма қамрови юқори хатарли позицияларга (қиммат, тез ҳаракатланувчи, қадрсизланишга мойил номенклатура) йўналтирилганми, натижалар ҳисоб маълумотлари билан мустақил солиштириладими, аниқланган тафовутлар сабаблари охиригача очиладими. Йил бўйига тақсимланган танланма инвентаризациялар йиллик бир марталик тадбирга нисбатан назорат самарасини оширади ва режали текширувлар билан уйғунлашади. Шу тарзда анъанавий процедура ҳам хатарга йўналтирилган мазмун касб этади.

Процедуралар мажмуасининг ички алоқадорлигини ҳам таъкидлаш лозим: материал баланси тафовут кўрсатса, унинг сабаби меъёр–факт таҳлили ва чиқит назорати орқали аниқланади; передел калькуляцияси текшируви баланс маълумотларига таянади; қадрсизланишни баҳолаш айланиш таҳлилининг мантиқий давомидир. Демак, процедуралар алоҳида-алоҳида эмас, ягона дастур доирасида, натижалари бир-бирини текширадиган ва тўлдирадиган тартибда қўлланилиши лозим — намунавий дастурнинг қиймати айнан шу ўзаро боғланишни лойиҳалаштирганидадир.

Методик бўшлиқнинг сабаблари уч гуруҳга бўлинади. Биринчиси — услубий ҳужжатларнинг етишмаслиги: тижорат корхоналари учун ТМЗ ва таннарх аудитининг намунавий дастури ишлаб чиқилмаган, миллий қўлланма [5] эса умумий тартибни белгилайди-ю, тармоқ процедураларини очмайди. Иккинчиси — компетенция таркиби: молия-ҳисоб билимига эга аудиторлар технологик жараённи — переделлар, меъёрлаш, чиқит синфланишини етарлича билмайди, бу технологияга кириб борувчи процедураларни қўллашга тўсиқ бўлади. Учинчиси — рағбат ва талабнинг йўқлиги: кузатув органи хатарга йўналтирилган ҳисобот талаб қилмас экан, хизмат осон йўлдан боради.

Передел калькуляциясини текширишнинг мазмуни харажатларнинг босқичлараро ҳаракатини қайта ҳисоблашдан иборат: ҳар переделда тўпланган харажатлар тайёр ярим фабрикат ва тугалланмаган ишлаб чиқариш ўртасида қандай тақсимлангани, тақсимот базаси асосли танланганлиги ва изчил қўлланилгани текширилади. Айнан шу нуқтада таннархни даврлар ва маҳсулот турлари ўртасида «кўчириш» имконияти энг юқори: тугалланмаган ишлаб чиқаришни ошириб баҳолаш жорий даврда фойдани сунъий кўтаради. Қадрсизланишни баҳолаш эса мода циклига боғлиқ тармоқда захираларнинг соф сотилиш қийматини даврий кўриб чиқишни талаб қилади — акс ҳолда баланс ўтган мавсумларнинг сотилмайдиган қолдиқлари ҳисобига «семиради».

Бўшлиқнинг оқибатлари занжир бўйлаб тарқалади. Материал баланси юритилмагани йўқотишларни кўринмас қилади; меъёр–факт таҳлилининг йўқлиги эскирган меъёрларда яширинган захирани сақлайди; передел калькуляцияси текширилмагани таннархнинг переделлараро бузилишига йўл очади; қадрсизланиш баҳоланмагани активларни ошириб кўрсатади. Пировардида молиявий ҳисоботнинг ишончлилиги пасаяди, таннархга асосланган нарх ва ассортимент қарорлари нотўғри маълумотга таянади, солиқ ва дивиденд ҳисоб-китобларида хатар тўпланади. Шу тариқа процедуралар даражасидаги «техник» бўшлиқ корпоратив бошқарув даражасидаги муаммога айланади.

Оқибатларнинг яна бир қатлами кластер тузилмаларида намоён бўлади: занжир иштирокчилари ўртасидаги топшириқ-қабул муносабатларида материал оқимлари корхона чегарасидан ташқарига чиқади ва бир иштирокчидаги ҳисоб бўшлиғи бошқасининг кўрсаткичларини бузади. Трансферт нархлар асосли текширилмаса, қиймат занжирнинг бир бўғинидан бошқасига асоссиз кўчади. Демак, процедуралар бўшлиғи кластер шароитида фақат корхонанинг эмас, бутун занжирнинг муаммосига айланади — бу ТМЗ ва таннарх аудитини занжир даражасида мувофиқлаштириш, ягона услубий асосда ўтказиш заруратини кўрсатади.

Таклиф ва тавсиялар. Ечим йўналишлари бўшлиқ сабабларига мос белгиланади. Услубий даражада — ТМЗ ва таннарх аудитининг намунавий дастурини жорий этиш: унда ҳар процедуранинг мақсади, манбалари, бажарилиш тартиби ва ҳужжатлаштирилиши белгиланиб, дастур топшириқ хатарларига қараб мослаштирилади. Ташкилий даражада — хатарларни

расмий баҳолашни (реестр ва эҳтимоллик–таъсир матрицаси) йўлга қўйиб, режани унга боғлаш; шунда ТМЗ ва таннарх зонаси ўзининг объектив устуворлигини режада ҳам олади. Технологик даражада — материал баланси ва меъёр–факт таҳлилини маълумотларни таҳлил қилиш воситалари ёрдамида автоматлаштириш ҳамда калит хатар индикаторлари (айланиш даври, чиқит улуши, меъёрдан оғиш) мониторингини жорий этиш [7].

Калит хатар индикаторларини жорий этишда чегаравий қийматлар корхонанинг камида уч йиллик тарихий маълумотлари асосида белгиланади ва раҳбарият билан келишилади — шу тариқа чегара қабул қилинган хатар даражасининг миқдорий ифодасига айланади. Индикаторларнинг даврий кузатуви аудитни даврий тадбирдан жорий назоратга яқинлаштиради: чегарадан оғиш дарҳол кўринади ва режадан ташқари текширувга асос бўлади. Муҳими, индикаторлар айнан таснифланган хатар гуруҳлари кесимида тузилса, мониторинг тизими хатарлар манзарасининг жонли аксига айланади ва ҳар гуруҳнинг ҳолати бир қарашда баҳоланади.

Хулоса қилиб айтганда, енгил саноат корхоналарида ички аудитнинг заиф бўғини айнан тармоқ учун ҳал қилувчи зонада — товар-моддий захиралар ва таннарх аудитида жойлашган: хатарларни баҳолаш расмийлашмагани процедуралар танловини бузади, процедуралардаги бўшлиқ эса тармоқ хатарларини назоратсиз қолдиради. Намунавий дастур, расмий хатар баҳолаш ва рақамли мониторингнинг биргаликдаги жорий этилиши ушбу бўшлиқни изчил ёпади ва ички аудитни тармоқ хатарларига мос ишлайдиган тизимга айлантиради. Келгуси тадқиқот вазифаси — таклиф этилган процедуралар тўпламини корхоналар танланмасида апробация қилиш ва самарасини баҳолашдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Друри К. Управленческий и производственный учет: учебник / пер. с англ. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 1423 с.

2. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. – 16th ed. – Boston: Pearson, 2018. – 976 p.

3. Рахмонов Р.Н. Товар-моддий заҳиралар ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш: и.ф.н. дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 24 б.

4. Ички аудит миллий стандартлари. ЎзР молия вазирининг 2022 йил 3 октябрдаги 52-сон буйруғи билан тасдиқланган. – https://lex.uz.

5. Ички аудит тадбирларини ўтказиш қўлланмаси. ЎзР молия вазирининг буйруғи, рўйхат рақами 3406, 27.12.2022. – https://lex.uz.

6. 4-сон бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти «Товар-моддий захиралар». ЎзР Адлия вазирлигида 1595-сон билан рўйхатга олинган, 17.07.2006. – https://lex.uz.

7. The Institute of Internal Auditors. Global Technology Audit Guide (GTAG): Data Analytics. – Lake Mary (FL): The IIA, 2020. – 36 p.

8. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси расмий маълумотлари – https://stat.uz.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ АУДИТА В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ

Эргашев Худойназар Хабибуллаевич
доцент, к.э.н. Самаркандского института экономики и сервиса,
Узбекистан Ergashev1962@mail.ru
Баитов Гиёс Баходирович
ассистент, Самаркандского института экономики и сервиса, Узбекистан
moliyachi2013@gmail.com
Хабибуллаев Азизбек Худойназарович
независимый исследователь, Самаркандского института экономики и сервиса,
Узбекистан finansist6611@gmail.com

Аннотация. В статье исследуются теоретические и методологические основы проведения аудита в соответствии с международными стандартами аудита (МСА). Раскрывается роль международной стандартизации в повышении достоверности финансовой отчётности, качества аудиторских процедур и доверия пользователей к результатам аудита. Особое внимание уделяется риск-ориентированному подходу, определению существенности, профессиональному скептицизму, формированию достаточных и надлежащих аудиторских доказательств и применению профессионального суждения. Рассматриваются основные этапы организации аудиторской проверки и взаимосвязь между оценкой рисков, планированием процедур и формированием аудиторского мнения. Обосновано, что эффективное применение международных стандартов требует не только их нормативного признания, но и высокого уровня профессиональной компетентности аудиторов, развитой системы контроля качества и последовательного использования риск-ориентированных методов.

Ключевые слова: международные стандарты аудита; аудит; аудиторская деятельность; риск-ориентированный подход; аудиторский риск; существенность; аудиторские доказательства; профессиональное суждение; контроль качества аудита; финансовая отчётность.

Введение

В условиях глобализации экономики и повышения требований к прозрачности финансовой информации возрастает значение международных стандартов аудита (МСА).

Их применение способствует унификации аудиторских процедур, повышению качества проверки финансовой отчётности и укреплению доверия её пользователей.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью эффективного применения МСА с учётом современных экономических условий и национальной практики аудита.

Особое значение имеют риск-ориентированный подход, определение существенности, профессиональное суждение и получение достаточных аудиторских доказательств [1].

Цель исследования заключается в раскрытии теоретических и методологических основ аудита на основе МСА и определении ключевых условий их эффективного практического применения [2].

Проведённый анализ показал, что международные стандарты аудита (МСА) формируют единую методологическую основу аудиторской деятельности, ориентированную на получение достаточной уверенности в достоверности финансовой отчётности [3].

Их применение базируется на принципах существенности, профессионального скептицизма, объективности, документирования и использования достаточных и надлежащих аудиторских доказательств.

Ключевым элементом международной методологии является риск-ориентированный подход [4].

Аудитор последовательно изучает деятельность организации, выявляет и оценивает риски существенного искажения, определяет уровень существенности и на этой основе планирует необходимые аудиторские процедуры.

При этом результаты оценки рисков непосредственно влияют на характер, сроки и объём последующих процедур [5].

Особое значение имеют аналитические процедуры и профессиональное суждение, позволяющие выявлять необычные отклонения, взаимосвязи и потенциальные источники искажений.

Полученные доказательства оцениваются с учётом выявленных рисков и существенности, после чего формируется обоснованное аудиторское мнение [6].

Таким образом, эффективное применение МСА предполагает не формальное выполнение установленных требований, а последовательное принятие профессиональных решений на всех этапах аудита.

Качество их реализации зависит от компетентности аудиторов, системы контроля качества, особенностей деятельности проверяемой организации и использования современных цифровых инструментов.

Результаты исследования показывают, что эффективность МСА зависит не только от их нормативного признания, но и от качества практического применения [7].

Особое значение имеют риск-ориентированный подход, профессиональное суждение, существенность и надёжность аудиторских доказательств [8].

Формальное выполнение процедур без учёта специфики деятельности организации не обеспечивает необходимого качества аудита.

Поэтому совершенствование практики МСА должно сопровождаться повышением профессиональной компетентности аудиторов, развитием внутреннего контроля и внедрением цифровых технологий.

Заключение

Международные стандарты аудита формируют единую методологическую основу проведения аудиторских проверок и способствуют повышению достоверности финансовой информации.

Эффективность их применения определяется последовательностью оценки рисков, определения существенности, получения доказательств и формирования обоснованного аудиторского мнения.

Дальнейшее развитие аудита требует совершенствования риск-ориентированной методологии, контроля качества и цифровых инструментов, что позволит повысить прозрачность финансовой отчётности и доверие пользователей к результатам аудита.

Литература:

1. Haapamäki, E., & Sihvonen, J. (2019). Research on International Standards on Auditing: Literature synthesis and opportunities for future research. Journal of International Accounting, Auditing and Taxation, 35, 37–56. https://doi.org/10.1016/j.intaccaudtax.2019.05.007

2. Ибрагимова, П. А., & Ибрагимов, К. М. (2020). Принципы проведения аудита в соответствии с международными стандартами. Региональные проблемы преобразования экономики, (3), 181–188. https://doi.org/10.26726/1812-7096-2020-3-181-188

3. Ибрагимова, П. А., & Ибрагимов, К. М. (2020). Особенности применения международных стандартов аудита в России. Региональные проблемы преобразования экономики, (2), 112–118. https://doi.org/10.26726/1812-7096-2020-2-112-118

4. Ибрагимова, П. А. (2020). Преимущества международных стандартов аудита и их отличия от федеральных стандартов аудиторской деятельности. Региональные проблемы преобразования экономики, (1), 156–163. https://doi.org/10.26726/1812-7096-2020-1-156-163

5. Дробышевская, Е. И., & Сурнина, К. С. (2017). Нормативное обеспечение аудиторских процедур в условиях применения международных стандартов аудита. Аудитор, (6), 22–30.

6. Яриев, Ш. Ш. (2024). Вопросы перехода на международные стандарты аудита в государственном секторе. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 504–511. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.eitt.59414

7. Ochilov, F. (2025). Audit of liabilities: Theory, methodology and practice. Ustozlar uchun, 1(1), 312–316.

8. International Auditing and Assurance Standards Board. (2024). Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. International Federation of Accountants.

LOMBARD KORXONALARIDA DAROMADLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH



Norqulov F.T.
“Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi asistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada lombard korxonalarida daromadlar hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), xususan MHXS 9 (IFRS 9) va MHXS 15 (IFRS 15) asosida tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. Lombardlar faoliyatidagi foizli va foizsiz daromadlarni tan olish, baholash hamda milliy va xalqaro amaliyot o‘rtasidagi farqlar tahlil etilib, hisob tizimini takomissements bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Abstract. This article examines the specific features of revenue accounting in lombard (pawnshop) enterprises and the issues of its organization based on International Financial Reporting Standards (IFRS), in particular IFRS 9 and IFRS 15. The recognition and measurement of interest and non-interest income in pawnshop activities, as well as differences between national and international practices are analyzed, and scientific and practical proposals have been developed to improve the accounting system.

Аннотация. В данной статье исследуются специфические особенности учета доходов в ломбардных предприятиях и вопросы его организации на основе Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО), в частности МСФО (IFRS) 9 и МСФО (IFRS) 15. Проанализированы признание и оценка процентных и непроцентных доходов в деятельности ломбардов, а также различия между национальной и международной практикой, разработаны научно-практические предложения по совершенствованию системы учета.

Kalit so‘zlar: lombard, MHXS, MHXS 9, MHXS 15, foizli daromad, samarali foiz stavkasi, garov mulki, moliyaviy aktivlar.

Keywords: lombard, pawnshop, IFRS, IFRS 9, IFRS 15, interest income, effective interest rate, collateral property, financial assets.

Ключевые слова: ломбард, МСФО, МСФО 9, МСФО 15, процентный доход, эффективная ставка процента, залоговое имущество, финансовые активы.

O‘zbekiston Respublikasida moliya bozorini isloh qilish va raqamlashtirish sharoitida nobank kredit tashkilotlari, jumladan, lombardlar faoliyatini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazish davr talabidir. Lombardlar aholiga qisqa muddatli tezkor mikrokreditlar berish bilan shug‘ullangani bois, ularning daromad shakllanish tizimi va aktivlar tarkibi banklarga nisbatan sodda,

ammo an’anaviy savdo yoki ishlab chiqarish korxonalaning daromad hisobidan tubdan farq qiladi. Bugungi kunda milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS) bilan MHXS o‘rtasidagi tafovutlar lombardlar moliyaviy natijalarining xalqaro miqyosda noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, lombardlarda daromadlar hisobini MHXS asosida transformatsiya qilish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy muammo hisoblanadi.

Lombard korxonalarining daromadlari o‘z tabiati va huquqiy kelib chiqishiga ko‘ra ikki yirik guruhga bo‘linadi va ularni MHXS tizimida tan olish mutlaqo boshqa-boshqa standartlar orqali tartibga solinadi.

1. Foizli daromadlar va MHXS 9 (IFRS 9). Lombardlarning asosiy daromad manbai berilgan mikrokreditlar bo‘yicha hisoblanadigan foizlardir. MHXS 9 "Moliyaviy vositalar" standartiga ko‘ra, ushbu kreditlar "Amortizatsiya qilingan qiymat bo‘yicha baholanadigan moliyaviy aktivlar" toifasiga kiradi. Milliy amaliyotda (BHMS) foizli daromadlar shartnomada belgilangan nominal foiz stavkasi bo‘yicha chiziqli usulda har oy yakunida daromadga olinadi. Xalqaro amaliyotda (MHXS 9) esa daromadlar Samarali foiz stavkasi (Effective Interest Rate - EIR) usuli yordamida tan olinishi shart. Bu usul kredit berish bilan bog‘liq dastlabki to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarni (shartnoma tuzish, garovni tekshirish xarajatlari) darhol xarajatga yozmay, kreditning balans qiymatiga kiritishni va muddat davomida daromadlilikni teng taqsimlashni talab etadi.

2. Foizsiz daromadlar va MHXS 15 (IFRS 15). Lombardlar daromadining yana bir qismini saqlash xizmatlari (seif xizmati), garov ob’ektlarini baholash to‘lovlari va eng asosiysi — mijoz tomonidan qaytarilmagan garov mulklarini (asosan tilla buyumlar, elektronika va avtotransport) sotishdan olingan daromadlar tashkil etadi. Bu jarayonlar MHXS 15 "Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushum" standartining 5 bosqichli modeli asosida hisobga olinadi. Daromad faqatgina mulkka bo‘lgan egalik va nazorat huquqi xaridorga o‘tgan lahzada tan olinadi.

Tahlil va Natijalar. Lombardlar faoliyatida milliy standartlar (BHMS) va xalqaro standartlar (MHXS) o‘rtasidagi daromadlarni aks ettirish tizimidagi asosiy farqlar tahlili quyidagi 1-jadvalda umumlashtirilgan:

1-jadval

BHMS va MHXS standartlarining qiyosiy tahlili

Hisob elementi / Jarayon	**BHMS bo‘yicha yondashuv**	**MHXS (IFRS 9 va 15) bo‘yicha yondashuv**	**Iqtisodiy samarasi / Farqi**
Foizli daromadlarni hisoblash	Nominal foiz stavkasi bo‘yicha (shartnoma bo‘yicha).	Samarali foiz stavkasi (EIR) usuli bo‘yicha.	Real daromadlilik aniq aks etadi, davrlararo mutanosiblik ta’minlanadi.
Tranzaksiya xarajatlari	Kredit berilgan davrda to‘liq davr xarajatlariga olib boriladi.	Moliyaviy aktivning balans qiymatiga kapitallashadi va EIR tarkibiga kiradi.	Dastlabki davrda foydaning sun’iy ravishda kamayib ketishining oldi olinadi.

Kredit zararlari (Zaxiralar)	Kredit muddati o‘tib ketgandan so‘ng haqiqiy zarar sifatida hisobdan chiqariladi.	Kutilayotgan kredit zararlari (ECL) modeli bo‘yicha oldindan zaxira yaratiladi.	Lombardning kredit portfelidagi real tavakkalchilik risklari moliyaviy hisobotda aks etadi.
Garov mulkini sotishdan tushum	Sotilgan summaning barchasi yalpi daromad sifatida qayd etiladi.	Nazorat huquqi o‘tishiga qarab, faqat lombard hisobidagi qarzdan ortgan qismi sof tushum tan olinami.	Tushum va daromadlar sun’iy ravishda shishirilmaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mahalliy lombard korxonalarida MHXS 9 va MHXS 15 andozalarini amaliyotga joriy etishda bir qator to‘siqlar mavjud. Birinchidan, avtomatlashtirilgan dasturlarning yetishmasligi muammosi o‘tkir bo‘lib, "1C: Lombard" dasturlari EIR va ECL ko‘rsatkichlarini avtomatik hisoblash algoritmiga ega emas. Ikkinchidan, kadrlar salohiyatining yetishmasligi sababli lombard buxgalterlarining xalqaro moliya standartlari bo‘yicha malakasi yetarli darajada emasligi hisobotlarda xatoliklarga sabab bo‘lmoqda.

Xulosa va Takliflar. O‘tkazilgan tahlillar asosida lombard korxonalarida daromadlar hisobini xalqaro andozalarga moslashtirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Foizli daromadlar hisobini yuritishda nominal stavkalardan voz kechib, MHXS 9 talablariga muvofiq samarali foiz stavkasi usulini joriy etish. Bu korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini investorlar uchun shaffof qiladi.

2. Muddati o‘tgan va qaytarilmagan kreditlar riskini kamaytirish uchun ECL (Expected Credit Losses) modelini joriy etish va risk-menedjment tizimi bilan buxgalteriyani integratsiya qilish.

3. Garov mulklarini realizatsiya qilish jarayonlarini MHXS 15 standartining 5 bosqichli modeli asosida tartibga solish, xizmat ko‘rsatish va realizatsiya daromadlarini aniq chegaralash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni "Bank bo‘lmagan kredit tashkilotlari va mikrofinanslashtirish faoliyati to‘g‘risida" O‘RQ-765-son.

2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: "MHXS (IFRS) 9: Moliyaviy vositalar".

3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: "MHXS (IFRS) 15: Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushum".

4. O‘zbekiston Respublikasining "Lombardlar faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni.

5. Karimov A.A. va boshqalar. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari. Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2022.

6. International Accounting Standards Board (IASB). Official IFRS Standards Guide, 2023.

МОЛИЯВИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА БАҲОЛАШ ТАРТИБИ

Боронов Бобур Фарходович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти “Бухгалтерия ҳисоби” кафедраси профессори, и.ф.д. (DSc)

Аннотация. Ушбу мақолада молиявий инвестицияларнинг турлари ва уларнинг моҳияти, халқаро стандартларга мувофиқ очиқланадиган бошқа ташкилотларда қатнашиши тўғрисида ахборотлар таркиби ва инвестицияларни ҳиссали қатнашиш методи асосида баҳолаш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: инвестициялар, молиявий инвестициялар, молиявий активлар, ҳиссали қатнашиш методи, молиявий ҳисобот.

Инвестициялар деганда, дивиденд ёки фоизлар кўринишида ҳамда қайта баҳоланишидан даромад олиш мақсадида инвестиция объектига таваккалчилик асосида моддий ва номоддий ресурслар ва уларга бўлган ҳуқуқларни киритиш бўлиб ҳисобланади. Инвестициянинг энг муҳим ва асосий турларидан бири молиявий активлар гуруҳига кирадиган молиявий инвестициялар ҳисобланади. Бугунги кунда молиявий инвестицияларни баҳолаш ва уларни молиявий ҳисоботларда акс эттиришда илғор усуллардан фойдаланиш масаласи тўлиқ ўзининг ечимини топган эмас. 12-сон БҲМС “Молиявий инвестициялар ҳисоби” миллий стандарти халқаро 25-сон БҲХС “Инвестициялар ҳисоби” стандарти асосида ишлаб чиқилган эди. Ушбу халқаро стандарт бугунги кунда бекор қилинган. Сабаби, молиявий инвестициялар молиявий актив сифатида таснифланадиган бўлди. Унинг асосий қоидалари кейинги ишлаб чиқилган молиявий инструментларга оид 7-сон МҲХС “Молиявий инструментлар: ахборотларни очиқлаш” ва 9-сон МҲХС “Молиявий инструментлар” ва бошқа стандартларда янги таҳрирда ўз аксини топди. Ушбу ўзгаришлар 12-сон БҲМС “Молиявий инвестициялар ҳисоби”га киритилган эмас. Шу боис, молиявий инвестициялар ҳисобини давр талабларига мувофиқлаштириш, инвестицияларни баҳолашда илғор методлардан фойдаланиш зарурияти юзага келди. Инвестицияларни баҳолашнинг илғор усулларидан бири ҳиссали қатнашиш методи ҳисобланади. Ушбу усулнинг моҳияти ва қўлланилишининг услубий масалаларини ёритиб бериш ўта долзарб масала ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти” тўғрисидаги Қонуннинг янги таҳрирининг 5-моддасида қуйидагича ёритилган [99] : “Инвестициялар мўлжалланган объектига кўра капитал, молиявий ва ижтимоий турларга бўлинади.

Асосий фондларни яратиш ва такрор кўпайтиришга, шу жумладан янги қурилишга, модернизация қилишга, реконструкция қилишга, техник

[99] Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 25 декабрь. 598-сон.

жиҳатдан қайта жиҳозлашга, шунингдек моддий ишлаб чиқаришнинг бошқа шаклларини ривожлантиришга киритиладиган инвестициялар капитал инвестициялар жумласига киради.

Акциялар, корпоратив, инфратузилмавий ва давлат облигацияларига, шунингдек қимматли қоғозларнинг бошқа турларига киритиладиган инвестициялар молиявий инвестициялар жумласига киради.

Инсон салоҳиятини, кўникмаларини ва ишлаб чиқариш тажрибасини ривожлантиришга, шунингдек номоддий бойликларнинг бошқа шаклларини ривожлантиришга киритиладиган инвестициялар ижтимоий инвестициялар жумласига киради.”

Халқаро стандартларда молиявий инвестициялар бозор қийматига эга бўлган молиявий актив сифатида қуйидаги турларга бўлинади (1-расм):



1-расм. Бозор қийматига эга бўлган инвестициялар категориялари[100]

Қайта сотишга мўлжалланган (Helt-for Trading-HFD) молиявий активларга мисол қилиб, қарзли ва ҳиссали қимматбаҳо қарзларни (акциялар ва облигациялар) киритиш мумкин, қайсики компания уларни 90 кун ичида сотишни режалаштиради. Уларни сотиш билан боғлиқ молиявий натижалар (фойда/зарарлар) фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисоботда акс эттирилади. Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда бундай молиявий активлар бозор қийматида, яъни адолатли қийматида акс эттирилади.

Тўлангунга қадар ушлаб туриладиган (Held-to–Maturing-HTM) молиявий активларга авваламбор облигациялар киради. Улар қайта сотиш учун мўлжалланмаган бўлади. Бундай активлар тўлагунга қадар бўлган муддатда ушлаб турилади. Мисол учун облигация 5 йил муддат ичида чиқарилган бўлса, бизнес-моделнинг мақсади асосий қарзи ва фоизлари ҳисобидан пул маблағларини шаклантириш бўлиб ҳисобланади. Ушбу облигациялар муддатидан олдин тўланиши талаб этилмайди. Молиявий активлар амортизацияланадиган қийматида молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда акс эттирилади. Улар бўйича реализация қилинган даромадлар, масалан, фоизлар молиявий даромад сифатида фойда ва зарарларда акс эттирилади. Уларнинг адолатли қиймати бўйича ўзгариши, фақат

[100] МҲХСлари асосида муаллиф ишланмаси.

активларнинг қадрсизланиши ҳолатидан ташқари молиявий натижаларда акс эттирилмайди.

Сотиш учун мақбул бўлган (Available– for–Sale–AFS) активларга биринчи категория ҳамда иккинчи категорияга ҳам оид бўлмаган активлар киради. Фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисоботда фақат реализация қилинган фоиз даромадлари ва улар бўйича дивидендлар акс эттирилади. “НТМ”дан фарқли ўлароқ, ушбу қимматли қоғозлар ҳисобот тузаётган санада жорий бозор қиймати, яъни адолатли қиймати бўйича молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисоботда акс эттирилади. Бунда, олдинги бозор қиймати билан кейинги баҳоланган бозор қиймати ўртасидаги фарқ “бошқа тўплам даромадлар”да акс эттирилади.

Халқаро стандартларда инвестиция молиявий активларнинг таркибий қисми сифатида қараладиган бўлди, шу боис инвестиция атамаси ишлатилмаган. 12-сон МҲХС “Бошқа ташкилотларда қатнашиш тўғрисида ахборотларнинг очиқланиши” тўғрисидаги стандартида ҳам инвестиция тушунчасидан фойдаланилмаган. Ушбу стандартнинг мақсади фойдаланувчиларга компаниянинг молиявий ҳисоботи асосида қуйидагиларни баҳолаш учун ахборотларнинг очиқланиши тўғрисида ташкилотга қўйиладиган талабларни белгилаш бўлиб ҳисобланади: (а) унинг бошқа ташкилотларга қатнашиши характери ва у билан боғлиқ рисклар; ва (б) шундай қатнашишнинг унинг молиявий ҳолатига, молиявий натижаларига ва пул оқимлари таъсири[101]. Ушбу стандартда бошқа ташкилотларда қатнашиши тўғрисида қуйидаги ахборотлар очиқланиши шартлиги кўрсатилган:

(i) шўъба ташкилотларга;

(ii) ҳамкорликдаги тадбиркорлик ва ассоциациялашган ташкилотларга;

(iii)структуралашган ташкилотларга, қайсики ташкилот томонидан назорат қилинмайди (консолидациялашмайдиган структуралашган ташкилотлар).

Соҳага доир адабиётларни таҳлил қилиш натижасида аниқлаш мумкинки, ҳиссали қатнашиш методинининг қўлланилишини иккита ёндашувда амалга ошириш мумкин:

Биринчи ёндашув, овоз бериш ҳуқуқидаги акцияларига эгалик қилиш фоизидан келиб чиқиб, инвестицияларнинг бошланғич қиймати инвестиция объектининг соф фойдаси ёки зараридаги ҳиссасига кўпаяди.

Иккинчи ёндашувда эса, овоз бериш ҳуқуқидаги акцияларга эгалик қилиш фоизидан келиб чиқиб, инвестициянинг бошланғич қиймати инвестиция объектининг соф активларидаги ҳиссасининг ўзгаришига кўпаяди.

Биринчи ёндашувда ҳиссали қатнашиш методининг қўлланилишининг методик тартибини қуйидаги мисолда кўриб ўтамиз:

[101] IFRS 12 “Раскрытие информации об участии в других организациях” https://nrm.uz/contentf?doc=469476_(ifrs)_12_raskrytie_informacii_ob_uchastii_v_drugih_organizaciyah.

Ҳиссали қатнашиш методига мувофиқ, ҳисобот даврининг охирида инвестициянинг баланс қиймати ($ИТ_1$):

- даставвал инвестициялар таннархи бўйича ҳисобга олинади ($ИТ_0$);

- харид санасидан кейин унинг баланс қиймати инвесторнинг инвестициялаш объекти фойда ва зарарларида тан олинган ҳиссасига кўпаяди ёки камаяди ($ФЗ_х$);

- инвестициялаш объектидан дивиденд кўринишида даромад олиниши инвестициянинг баланс қийматини камайтиради ($Д_д$);

- баланс қийматининг корректировкаси инвесторнинг инвестициялаш объекти бошқа тўплам даромадидаги ҳиссаси ўзгариши ($БТД_х$).

У ҳолда, ҳисобот даврининг охирида инвестициянинг баланс қийматини қуйидаги формула кўринишида аниқлашимиз мумкин бўлади:

$$ИТ_1 = ИТ_0 + ФЗ_х - Д_д + БТД_х \quad \textbf{(1.1)}$$

Ушбу тадқиқотлар асосида қуйидаги хулосалар қилинган ва тавсиялар ишлаб чиқилган:

- 25-сонли БҲХС “Инвестициялар ҳисоби” стандарти бекор қилинган. Бозор қийматига эга бўлган молиявий инвестициялар молиявий актив сифатида таснифланиши муносабати билан уни тан олиш, баҳолаш ва ҳисоботларда очиқлаш масалалари молиявий инструментларга оид стандартларда ўз аксни топган. Халқаро стандартларга мувофиқ, молиявий инвестициялар молиявий актив сифатида қуйидаги турларга таснифланган: қайта сотишга мўлжалланган молиявий активлар; тўлагунга қадар ушлаб туриладиган молиявий активлар; сотиш учун мақбул бўлган молиявий активлар.

- Халқаро стандартлар талабларига мувофиқ, инвестицияларни молиявий ҳисоботда қуйидаги гуруҳлар кесимида акс эттириш мақсадга мувофиқ:

- Ҳамкорликдаги тадбиркорлик ва ассоциациялашган ташкилотларга инвестициялар ҳиссали қатнашиш методи асосида баҳоланишини тақозо этади. Ҳиссали қатнашиш методининг моҳияти шундан иборатки, қайсики бунда инвестиция бошланғич қийматида тан олинади, кейин эса унинг қиймати хариддан кейин инвестиция объектининг соф активларида инвесторнинг ҳиссаси ўзгаришини ҳисобга олиб тўғирлашлар (корректировка) қилинади. Инвесторнинг фойда ва зарари инвестиция объектининг фойда ва зарарларидаги ҳиссасини, худди шунингдек, инвесторнинг бошқа тўплам даромадлари инвестиция объектининг бошқа тўплам даромадларидаги инвесторнинг ҳиссасини ўз ичига олади. Ушбу

методнинг Ўзбекистон корхоналарида қўлланилишининг услубий тартиби амалий мисолларда кўрсатиб берилди.

Келтирилган таклиф ва тавсияларнинг амалиётда қўлланилиши хорижий инвесторларнинг корхона фойдасидаги ҳиссасини реал баҳолашга, инвестицияларни бухгалтерия балансида МҲХСлари асосида баҳолашга ва корхоналарнинг инвестициявий жозибадорлигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг “Инвестициялар ва инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 25 декабрь. 598-сон.

2. IFRS 12 “Раскрытие информации об участии в других организациях”

3. Boronov, B. "Improvement of investment accounting in Uzbekistan." Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems 12.6 (2020): 1069-1079.

4. Боронов, Б. Ф. "МОЛИЯВИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ." Архив научных исследований 2.1 (2022).

5. Боронов, Б. Ф. "АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ АКТИВОВ." БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ: ДОСТИЖЕНИЯ И НАУЧНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ XXI ВЕКА. 2019.

6. Boronov, Bobur. "THEORETICAL AND CONCEPTUAL BASES OF ACCOUNTING FINANCIAL ASSETS." International Finance and Accounting 2019.4 (2019): 6.

7. Boronov, B. F. "Recognition and measurement of financial assets in accordance with international standards." Economics and Innovative Technologies 2019.5 (2019): 1.

8. Farkhodovich, Boronov Bobur. "IMPROVEMENT OF FINANCIAL STATEMENTS FOR FINANCIAL ASSETS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN." GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY: 77.

JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARNING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI VA BUXGALTERIYA HISOBI SUBYEKTLARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI

U.A.Shirinov
SamISI, i.f.f.d., dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning iqtisodiyotdagi o‘rni, ularning buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini ta’minlash, xalqaro standartlarni qo‘llash hamda manfaatdor tomonlarni sifatli moliyaviy axborot bilan ta’minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, MHXS, shaffoflik, hisobdorlik, moliyaviy axborot, ichki nazorat, audit, korporativ boshqaruv.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль общественных организаций в экономике, их специфические особенности как учетных субъектов, обеспечение прозрачности и достоверности финансовой отчетности, применение международных стандартов и предоставление заинтересованным сторонам качественной финансовой информации.

Ключевые слова: общественные организации, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, МСФО, прозрачность, подотчетность, финансовая информация, внутренний контроль, аудит, корпоративное управление.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar mamlakat moliya tizimining barqarorligini ta’minlash, investitsion faollikni rag‘batlantirish hamda keng doiradagi manfaatdor tomonlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda muhim o‘rin egallaydi. Bunday tashkilotlar faoliyatining ko‘lami, moliyaviy operatsiyalarining murakkabligi, iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga ta’siri hamda ularning faoliyati natijalaridan manfaatdor foydalanuvchilar sonining ko‘pligi bilan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan ajralib turadi. Xususan, banklar, sug‘urta tashkilotlari, fond bozori ishtirokchilari, yirik aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa jamoat ahamiyatiga ega subyektlarning moliyaviy holatidagi o‘zgarishlar nafaqat ularning mulkdorlari va investorlariga, balki kreditorlar, mijozlar, davlat organlari hamda umuman iqtisodiy tizim barqarorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli mazkur tashkilotlar faoliyatida shaffoflik, hisobdorlik va ishonchli moliyaviy axborotni shakllantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarni buxgalteriya hisobi subyektlari sifatida o‘rganish ularning moliyaviy operatsiyalarini tan olish, baholash, hisobvaraqlarda aks ettirish va moliyaviy hisobotlarda oshkor etishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashni talab qiladi. Mazkur tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishga nisbatan yuqori talablarning belgilanishi, avvalo, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarning keng doirasi hamda qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlarning jamoatchilik manfaatlariga ta’siri bilan izohlanadi. Shu jihatdan, ularda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisob yuritish, samarali ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimini shakllantirish, mustaqil auditdan o‘tish hamda moliyaviy va nomoliyaviy axborotlarni yetarli darajada oshkor etish muhim hisoblanadi. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish ularning hisob va hisobot tizimini takomillashtirish, moliyaviy axborot sifatini oshirish hamda iqtisodiyotda jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning iqtisodiyotdagi o‘rni va buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi xususiyatlari xorijiy ilmiy adabiyotlarda, asosan, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, jamoatchilik manfaatlarini himoya qilish, axborot assimetriyasini kamaytirish va kapital bozori samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Ball (2006) xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining joriy etilishi moliyaviy axborotning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini oshirish imkoniyatiga ega ekanligini, biroq uning amaliy samaradorligi mamlakatdagi institutsional va huquqiy muhitga ham bog‘liqligini

ta’kidlaydi. Daske, Hail, Leuz va Verdi (2008) majburiy IFRSga o‘tishning iqtisodiy oqibatlarini xalqaro miqyosda empirik baholab, moliyaviy hisobot tizimidagi o‘zgarishlar kapital bozori ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Armstrong, Barth, Jagolinzer va Riedl (2010) Yevropa kapital bozori ishtirokchilarining IFRSni majburiy qo‘llashga munosabatini tadqiq etib, yuqori sifatli va taqqoslanuvchan moliyaviy axborot investorlarning iqtisodiy qarorlari uchun muhim ekanligini ko‘rsatgan. Ahmed, Neel va Wang (2013) esa IFRSni majburiy joriy etish har doim ham avtomatik ravishda buxgalteriya axboroti sifatining yaxshilanishiga olib kelmasligini, natija institutsional muhit va standartlarga rioya etish mexanizmlariga bog‘liqligini asoslaydi. Christensen, Hail va Leuz (2013) ham IFRSni majburiy qo‘llashning kapital bozoridagi samaralarini standartlarning o‘zi bilan bir qatorda nazorat va huquqiy ijro mexanizmlaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘laydi. Mazkur ilmiy qarashlar jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda buxgalteriya hisobining vazifasi faqat xo‘jalik operatsiyalarini qayd etishdan iborat emasligini, balki keng doiradagi manfaatdor tomonlarni ishonchli, shaffof va taqqoslanuvchan moliyaviy axborot bilan ta’minlashdan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

Keyingi tadqiqotlarda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning hisob va hisobot tizimini tartibga solishda institutsional nazorat, audit sifati va axborotni oshkor etish darajasining ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Leuz va Wysocki (2016) moliyaviy hisobot va axborotni oshkor etishni tartibga solishning iqtisodiy oqibatlarini umumlashtirib, yuqori sifatli axborot muhiti investorlarni himoya qilish, axborot assimetriyasini kamaytirish va kapitalning samarali taqsimlanishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi. De George, Li va Shivakumar (2016) IFRSni joriy etishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, xalqaro standartlarning shaffoflik, moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligi, xalqaro investitsiyalar va korporativ boshqaruvga ta’siri mavjudligini, biroq ushbu natijalar mamlakatlar va korxonalar kesimida farqlanishini ko‘rsatgan. Khlif (2016) IFRS va auditga bag‘ishlangan empirik tadqiqotlarni umumlashtirib, xalqaro standartlarni qo‘llash auditorlik xarajatlari, audit bozorining tuzilishi, auditorni tanlash hamda standartlarga rioya etish darajasi bilan uzviy bog‘liq ekanligini aniqlagan. Barth, Landsman va Lang (2008) xalqaro buxgalteriya standartlarini qo‘llovchi korxonalarda buxgalteriya axboroti sifatidagi farqlarni empirik tadqiq etib, xalqaro standartlar asosidagi hisobotning investorlar uchun axborot qiymatini oshirish imkoniyatlarini asoslagan. Brüggemann, Hitz va Sellhorn (2013) esa IFRSni majburiy qo‘llashning iqtisodiy va moliyaviy hisobotga oid oqibatlarini umumlashtirib, standartlarni qabul qilishning o‘zi yetarli emasligi, ularning samaradorligi institutsional muhit, nazorat va amaliy ijro mexanizmlariga ham bog‘liqligini qayd etadi. Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarni buxgalteriya hisobi subyektlari sifatida tavsiflashda ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, manfaatdor tomonlar doirasining kengligi, moliyaviy hisobotning yuqori darajadagi shaffofligi, IFRS talablariga muvofiqligi, majburiy audit, ichki nazorat hamda kengaytirilgan axborotni oshkor etish talablari asosiy xususiyatlar sifatida e’tirof etilishi lozimligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda 2025-yil 27-dekabrda “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari, ularning moliyaviy hisobotlari va auditiga qo‘yiladigan talablar hamda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank boshqaruvining qo‘shma qarori qabul qilindi.

Qaror mamlakatimizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga (MHXS) moslashtirish va yirik hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega korxonalarning moliyaviy shaffofligini oshirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Nizom banklar, sug‘urta va to‘lov tashkilotlari, birjalar hamda muayyan moliyaviy va xodimlar soni ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan yirik tijorat hamda davlat ishtirokidagi korxonalarni aniq mezonlar asosida jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritishni tartibga soladi.

Xujjatning amaliy ahamiyati shundaki, u ushbu tashkilotlar uchun xalqaro standartlar bo‘yicha hisobot yuritish, majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tish hamda ma’lumotlarni ochiq manbalarda e’lon qilish bo‘yicha aniq muddat va talablarni belgilab beradi. Yagona Reyestrning shakllantirilishi va ochiq portallarda joylashtirilishi esa davlat, investorlar hamda keng jamoatchilik uchun moliyaviy axborotlarning ishonchliligi va qulayligini ta’minlaydi.

Qarorga asosan Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar faoliyat turi, aktivlari hamda yillik tushumi, dividend shaklidagi daromadlari miqdori yoki xodimlarining soni tufayli yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirga, shuningdek, keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ega bo‘lish kabi mezonlarga javob beradigan tijorat tashkilotlari kiradi.[102]

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar iqtisodiyot va moliya tizimidagi o‘rni, faoliyatining ko‘lami hamda keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ta’sir darajasidan kelib chiqib alohida toifalarga ajratiladi. Ushbu toifalarga qimmatli qog‘ozlari fond birjasida ommaviy savdoga chiqarilgan tashkilotlar, bank va boshqa moliya-kredit hamda to‘lov tashkilotlari, investitsiya fondlari, birjalar, davlat ishtirokidagi yirik korxonalar va belgilangan miqdoriy mezonlarga javob beruvchi yirik xususiy korxonalar kiradi.

1-jadval

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari[103]

№	Tashkilot toifasi / Mezonlar	Qamrab olingan subyektlar va asosiy shartlar
1	Birja va ommaviy savdodagi tashkilotlar	Qimmatli qog‘ozlari fond birjasining listingiga kiritilgan va ommaviy savdolarga chiqariladigan (Publicly Traded Entity) tashkilotlar.
2	Moliya-kredit va to‘lov tashkilotlari	Tijorat banklari, mikromoliya banklari, mikromoliya tashkilotlari, faktoring va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari, kafolat berish tashkilotlari, to‘lov tizimi operatorlari hamda to‘lov tashkilotlari.
3	Investitsiya	Investitsiya fondlari

[102] https://lex.uz/uz/docs/7959764
[103] https://lex.uz/uz/docs/7959764

	institutlari	
4	Infrastruktura subyektlari	Birjalar
5	Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar	Ustav kapitalida davlat ulushi 50% va undan ortiq bo‘lgan va bir vaqtning o‘zida ketma-ket oxirgi ikki kalendar yil davomida: • Aktivlarining balans qiymati 1 mln BHM baravari va undan ortiq; • Mahsulot/xizmatlardan olingan yillik sof tushumi va dividend daromadlari birgalikda 1 mln BHM baravari va undan ortiq bo‘lgan korxonalar.
6	Yirik xususiy / umumiy toifadagi korxonalar	Ketma-ket oxirgi ikki kalendar yil davomida bir vaqtning o‘zida quyidagi 3 ta mezonga javob beradigan tashkilotlar: a) Aktivlar balans qiymati 1 mln BHM baravari va undan ortiq; b) Yillik sof tushumi 1 mln BHM baravari va undan ortiq; d) Xodimlarining o‘rtacha yillik soni 500 nafardan kam bo‘lmagan.

Bunda aktivlar qiymati, yillik sof tushum, dividend daromadlari, xodimlarning o‘rtacha yillik soni hamda davlat ulushining miqdori tashkilotni tegishli toifaga kiritishning asosiy mezonlari sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur mezonlarning qo‘llanilishi iqtisodiy jihatdan yirik va tizimli ahamiyatga ega subyektlarni aniqlash, ular faoliyatining shaffofligini oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash hamda buxgalteriya hisobi, audit va korporativ boshqaruvga nisbatan yuqori talablarni qo‘llash uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Quyidagi jadvalda keltirilgan xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlarni aniqlash va ularning faoliyatini tartibga solishda davlatlar o‘rtasida umumiy yondashuvlar mavjud bo‘lishi bilan birga, milliy iqtisodiyot va moliya bozorining xususiyatlaridan kelib chiqadigan sezilarli farqlar ham kuzatiladi. Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya va Germaniyada ushbu toifaga, avvalo, kapital bozorida faoliyat yurituvchi kompaniyalar, banklar va sug‘urta tashkilotlari kiritilsa, AQSh amaliyotida “ommaviy kompaniya” va “emitent” tushunchalari ustuvor bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtirok hamda ayrim miqdoriy mezonlarga alohida e’tibor qaratiladi.

2-jadval

Jahon mamlakatlarining Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari

Davlat / Hudud	Qo‘llaniladigan tushuncha	Asosiy mezonlar va qamrab olingan subyektlar	Tartibga soluvchi asosiy normativ hujjatlar
Yevropa Ittifoqi	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (Public Interest Entities)	• Birja listingidagi barcha kompaniyalar; • Tijorat banklari va kredit tashkilotlari; • Sug‘orta kompaniyalari; • a’zo davlatlar tomonidan belgilangan boshqa strategik	YEIning 2014/56/EU Direktivasi hamda No 537/2014 Reglamenti

		korxonalar.	
AQSh	Ommaviy kompaniyalar / Emitentlar (Public Companies / Issuers)	• Qimmatli qog‘ozlari birjada savdo qilinadigan kompaniyalar; • Aktivlari $10 mln dan ortiq va aksiyadorlari 2000 dan oshgan aksiyadorlik jamiyatlari.	Sarbanes-Oxley Act (SOX), SEC va PCAOB qoidalari
Buyuk Britaniya	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (Public Interest Entities)	• YEIdagidek birja kompaniyalari, bank va sug‘ortachilar; • Yangi mezon (islohot): Xodimlari 750 nafardan ortiq va yillik tushumi £500 mln dan yuqori bo‘lgan yirik xususiy kompaniyalar.	Moliyaviy hisobot bo‘yicha kengash (FRC) va Korporativ qayta qurish islohotlari hujjati
Germaniya	Jamoat ahamiyatiga molik subyektlar (Unternehmen von öffentlichem Interesse)	• Kapital bozori subyektlari (birjadagilar); • Kredit tashkilotlari va sug‘orta kompaniyalari; • (FISG qonunidan so‘ng mezonlar yanada kuchaytirilgan).	Germaniya Savdo kodeksi (HGB) va FISG (Moliya bozorini mustahkamlash to‘g‘risidagi qonun)
Qozog‘iston	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (Общественно значимые организации)	• Moliya tashkilotlari (banklar, sug‘orta, pensiya fondlari); • Qimmatli qog‘ozlar birjasida (KASE/AIFC) savdo qiluvchilar; • Tabiiy monopoliya subyektlari va davlat korxonalari.	Qozog‘iston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to‘g‘risida”gi Qonuni
Rossiya	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (Организации, имеющие общественный интерес)	• Listingdagi kompaniyalar; •Banklar va sug‘orta tashkilotlari; • Nodavlat pensiya fondlari; • Ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan yirik korxonalar.	Federal qonun № 307-FZ ("Audit faoliyati to‘g‘risida") va № 208-FZ ("MHXS to‘g‘risida")

Qozog‘iston va Rossiya tajribasida esa moliya tashkilotlari bilan bir qatorda davlat iqtisodiy manfaatlari bilan bog‘liq, tabiiy monopoliya yoki yirik davlat ishtirokidagi subyektlarni qamrab olish yondashuvi ham shakllangan. Demak, xalqaro amaliyotda jamoat ahamiyatiga molik tashkilot maqomini belgilashning asosiy konseptual mezonlari sifatida kapital bozoridagi ishtirok, moliyaviy tizim uchun ahamiyat, faoliyat ko‘lami, manfaatdor tomonlar doirasining kengligi hamda davlat va jamiyat manfaatlariga ta’sir darajasi namoyon bo‘ladi. Mazkur tashkilotlarga nisbatan moliyaviy hisobot, majburiy audit, auditor mustaqilligi, korporativ boshqaruv va axborotlarni oshkor etish bo‘yicha kuchaytirilgan talablarning joriy qilinishi ularning faoliyatidagi yuqori jamoat manfaatidan kelib chiqadi.

3-jadval

O‘zbekiston, Yevropa Ittifoqi va AQShda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarni belgilash mezonlarining qiyosiy tavsifi

Mezon / Xususiyat	O‘zbekiston	Yevropa Ittifoqi (YEI)	AQSh
Asosiy tushuncha	Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar (JAMT)	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (PIE)	Ommaviy kompaniyalar / Emitentlar
Birja va listing kompaniyalari	Birja listingiga kiritilgan va ommaviy savdoga chiqarilgan barcha subyektlar	Birjada listingdan o‘tgan barcha kompaniyalar	Birjalarda (NYSE, NASDAQ va h.k.) qimmatli qog‘ozlari savdo qilinadigan barcha kompaniyalar
Moliya-kredit va sug‘orta sektori	Banklar, MFT, faktoring, ipotekani qayta moliyalashtirish, to‘lov tizimlari operatorlari va to‘lov tashkilotlari	Tijorat banklari, kredit tashkilotlari va sug‘orta kompaniyalari	Barcha ommaviy banklar, sug‘orta va investitsiya fondlari
Son (miqdor) ko‘rsatkichlari (Aktiv, tushum, xodim)	Qat’iy belgilangan: • Aktivlar $\ge$ 1 mln BHM • Yillik tushum $\ge$ 1 mln BHM • Xodimlar soni $\ge$ 500 nafar (ketma-ket 2 yil)	Miqdoriy ko‘rsatkichlar (xodim, balans) asosan a’zo mamlakatlar ixtiyorida yoki yirik kompaniyalar islohotida qo‘llaniladi	Aktivlari $10 mln dan ortiq va aksiyadorlari soni 2,000 dan oshgan aksiyadorlik jamiyatlari
Davlat korxonalari sektori	Alohida ajratilgan: Davlat ulushi $\ge$ 50% bo‘lgan va tushum + dividendlar $\ge$ 1 mln BHM hamda aktivlari $\ge$ 1 mln BHM bo‘lgan korxonalar	Har bir a’zo mamlakat o‘z milliy qonunchiligiga ko‘ra strategik davlat korxonalarini qo‘shishi mumkin	Davlat mulki tushunchasidan qat’i nazar, faqat birja va aksiyadorlar soniga qarab belgilanadi
Asosiy tartibga soluvchi hujjat/organ	Buxgalteriya hisobi va audit to‘g‘risidagi milliy qonunchilik hamda MHXS/ISA standartlari	YEI Direktivasi 2014/56/EU, YEI Reglamenti No 537/2014	Sarbanes-Oxley Act (SOX), SEC (Qimmatli qog‘ozlar komissiyasi) va PCAOB

Shu jihatdan ushbu xalqaro tajribani qiyosiy o‘rganish O‘zbekistonda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarni tasniflash mezonlarini takomillashtirish hamda ular uchun buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va auditning differensial tartibga solish mexanizmlarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jadval ma’lumotlarining qiyosiy tahlili O‘zbekiston, Yevropa Ittifoqi va AQShda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarni aniqlash yondashuvlari umumiy konseptual asosga ega bo‘lsa-da, ularni amaliy tasniflash mezonlarida muayyan farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Uchala tizimda ham kapital bozorida ishtirok etuvchi va qimmatli qog‘ozlari ommaviy savdoga chiqarilgan subyektlarga alohida e’tibor qaratiladi. Yevropa Ittifoqida jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (PIE) konsepsiyasi, asosan, listing kompaniyalari, kredit tashkilotlari va sug‘urta korxonalarini qamrab oladi hamda a’zo davlatlarga jamoat manfaatidan kelib

chiqib qo‘shimcha subyektlarni ushbu toifaga kiritish imkoniyati beriladi. AQSh modelida esa tartibga solishning markazida ommaviy kompaniyalar va emitentlar turib, kapital bozorida investorlar manfaatlarini himoya qilish, moliyaviy axborotlarning ishonchliligi va ichki nazorat samaradorligini ta’minlashga ustuvor ahamiyat beriladi. O‘zbekiston yondashuvining o‘ziga xos jihati JAMTlarni belgilashda institutsional mezonlar bilan bir qatorda aktivlar, yillik tushum, xodimlar soni va davlatning ustav kapitalidagi ulushi kabi aniq miqdoriy ko‘rsatkichlardan foydalanilishidir. Ayniqsa, mezonlarning ketma-ket ikki kalendar yil davomida bajarilishi talabi tashkilotning JAMT maqomini vaqtinchalik iqtisodiy o‘zgarishlar emas, balki uning barqaror iqtisodiy ko‘lami asosida aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston modeli Yevropa Ittifoqining jamoat manfaatiga asoslangan institutsional yondashuvi hamda miqdoriy mezonlardan foydalanish elementlarini o‘zida uyg‘unlashtirgan tizim sifatida baholanishi mumkin. Bunday yondashuv JAMTlarda moliyaviy hisobotning shaffofligi, majburiy audit sifati, auditorlarning mustaqilligi, korporativ boshqaruv va manfaatdor tomonlar oldidagi hisobdorlikni kuchaytirish uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning iqtisodiyotdagi o‘rni va buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi xususiyatlarini o‘rganish natijasida ularning faoliyati nafaqat alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, balki mamlakat moliya tizimi va iqtisodiy barqarorligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Ushbu tashkilotlar faoliyat ko‘lamining kattaligi, moliyaviy operatsiyalarining murakkabligi, investorlar, kreditorlar, mijozlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar doirasining kengligi bilan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan farqlanadi. Shu sababli jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda buxgalteriya hisobini xalqaro talablar asosida tashkil etish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlash, samarali ichki nazorat hamda risklarni boshqarish tizimini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Bunda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini izchil qo‘llash jamoatchilik uchun taqdim etiladigan moliyaviy axborot sifatini oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini takomillashtirishda xalqaro standartlarni milliy amaliyotga samarali integratsiya qilish, hisob siyosatini tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq shakllantirish hamda moliyaviy va nomoliyaviy axborotlarni oshkor etish darajasini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ichki nazorat, ichki va tashqi audit hamda korporativ boshqaruv mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish moliyaviy axborotning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishdagi chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar faoliyatining shaffofligini oshirish, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchini mustahkamlash, moliyaviy risklarni kamaytirish hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmed, A. S., Neel, M., & Wang, D. (2013). Does mandatory adoption of IFRS improve accounting quality? Preliminary evidence. Contemporary Accounting Research, 30(4), 1344–1372.

2. Armstrong, C. S., Barth, M. E., Jagolinzer, A. D., & Riedl, E. J. (2010). Market reaction to the adoption of IFRS in Europe. The Accounting Review, 85(1), 31–61.

3. Ball, R. (2006). International Financial Reporting Standards (IFRS): Pros and cons for investors. Accounting and Business Research, 36(sup1), 5–27.

4. Barth, M. E., Landsman, W. R., & Lang, M. H. (2008). International accounting standards and accounting quality. Journal of Accounting Research, 46(3), 467–498.

5. Brüggemann, U., Hitz, J.-M., & Sellhorn, T. (2013). Intended and unintended consequences of mandatory IFRS adoption: A review of extant evidence and suggestions for future research. European Accounting Review, 22(1), 1–37.

6. Christensen, H. B., Hail, L., & Leuz, C. (2013). Mandatory IFRS reporting and changes in enforcement. Journal of Accounting and Economics, 56(2–3), 147–177.

7. Daske, H., Hail, L., Leuz, C., & Verdi, R. (2008). Mandatory IFRS reporting around the world: Early evidence on the economic consequences. Journal of Accounting Research, 46(5), 1085–1142.

8. De George, E. T., Li, X., & Shivakumar, L. (2016). A review of the IFRS adoption literature. Review of Accounting Studies, 21(3), 898–1004.

9. Khlif, H. (2016). IFRS adoption and auditing: A review. Asian Review of Accounting, 24(3), 338–361.

10. Leuz, C., & Wysocki, P. D. (2016). The economics of disclosure and financial reporting regulation: Evidence and suggestions for future research. Journal of Accounting Research, 54(2), 525–622.

KURYERLIK XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLARDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Urazov K.B. SamISI “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, i.f.d.

Vaxobov.Q.H. SamISI “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada kuryerlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda xarajatlarni hisobga olishning amaldagi yondashuvlari, ularning xizmat tannarxini shakllantirishdagi imkoniyatlari va mavjud muammolari tadqiq etilgan. Kuryerlik xizmatlari ishlab chiqarish korxonalaridan farqli ravishda moddiy resurslardan ko‘ra mehnat, transport, yoqilg‘i, logistika, axborot texnologiyalari va yetkazib berish jarayonlari bilan bog‘liq xarajatlarning yuqori ulushiga ega. Shu sababli xarajatlarni faqat umumiy summada hisobga olish xizmatlarning haqiqiy tannarxini aniqlash, tariflarni asoslash va alohida mijozlar hamda buyurtmalar rentabelligini baholash imkoniyatlarini cheklaydi.

Kalit so‘zlar: kuryerlik xizmati, xarajatlar hisobi, transport xarajatlari, ish haqi, ma’muriy xarajatlar, last-mile (oxirgi manzil), xizmat tannarxi, kalkulyatsiya, logistika xarajatlari, xarajat drayveri, yetkazib berish, online kuzatish, rentabellik.

Аннотация. В данной статье исследованы действующие подходы к учету затрат в субъектах, оказывающих курьерские услуги, их возможности и существующие проблемы в формировании себестоимости услуг. В отличие от производственных предприятий, курьерские услуги характеризуются высокой долей затрат, связанных с трудовыми ресурсами, транспортом, топливом, логистикой, информационными технологиями и процессами доставки, а не с материальными ресурсами. В связи с этим учет затрат только в общей сумме ограничивает возможности определения фактической себестоимости услуг, обоснования тарифов и оценки рентабельности отдельных клиентов и заказов.

Ключевые слова: курьерская услуга, учет затрат, транспортные расходы, заработная плата, административные расходы, last-mile (последний адрес), себестоимость услуги, калькуляция, логистические расходы, драйвер затрат, доставка, онлайн-отслеживание, рентабельность.

Annotatsion. This article examines the current approaches to cost accounting in entities providing courier services, their capabilities and existing problems in the formation of service costs. Unlike manufacturing enterprises, courier services have a high share of costs related to labor, transportation, fuel, logistics, information technologies, and delivery processes rather than material resources. Therefore, accounting for costs only in aggregate limits the possibilities of determining the actual cost of services, substantiating tariffs, and assessing the profitability of individual customers and orders.

Keywords: courier service, cost accounting, transportation costs, wages, administrative expenses, last mile (final destination), service cost, costing, logistics costs, cost driver, delivery, online tracking, profitability.

Kirish. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, elektron tijorat hajmining kengayishi va iste'molchilarning tovarlarni qisqa muddatlarda qabul qilishga bo‘lgan talabi kuryerlik xizmatlarining iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirmoqda. Kuryerlik faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, xizmatning yakuniy natijasi moddiy mahsulot emas, balki jo‘natmani belgilangan manzilga, belgilangan muddatda va tegishli sifat darajasida yetkazib berishdan iborat. Milliy statistika qo‘mitasi ma'lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-oktabr oylari davomida O‘zbekistonda pochta va kuryerlik xizmatlari hajmi 5,5 trln so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2024-yilning shu davriga nisbatan 10,1 foizga ortganligini kuzatishmiz mumkin.[104] Respublikamiz qonunchiligida ham ro‘yxatga olinadigan pochta jo‘natmalarini pochta kuryeri orqali jo‘natish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmat kuryerlik xizmati sifatida e'tirof etilgan.[105] Amaldagi tartibga ko‘ra kuryerlik faoliyati jo‘natmalarni qabul qilish, qayta ishlash, tashish va yetkazib berish kabi o‘zaro bog‘liq jarayonlarni qamrab oladi. Kuryerlik xizmatlari bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida korxonalar uchun nafaqat xizmat hajmini oshirish, balki har bir buyurtmaning haqiqiy tannarxini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bir xil tarifda ko‘rsatilgan ikki xizmatning xarajatlari keskin farq qilishi mumkin. Shu jihatdan kuryerlik xizmatlarida xarajatlarni faqat "transport xarajatlari", "ish haqi" va "ma'muriy xarajatlar" kabi umumiy guruhlar bo‘yicha hisobga olish boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli axborotni bermaydi.

Adabiyotlar tahlili. Kuryerlik xizmatlari so‘nggi yillarda elektron tijorat, masofaviy savdo va tezkor yetkazib berish xizmatlarining rivojlanishi natijasida xizmatlar bozorining muhim segmentiga aylanmoqda. Bunday subyektlarda xarajatlar tarkibi an'anaviy xizmat ko‘rsatish korxonalaridan farqli ravishda transport, yoqilg‘i, kuryerlar mehnatiga haq to‘lash, qayta yetkazib berish, saralash, ombor, qadoqlash, axborot texnologiyalari hamda buyurtmani rasmiylashtirish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘zaro uyg‘unligidan shakllanadi.

Behrendt, Savelsbergh va Wang tomonidan olib borilgan tadqiqotda markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan kuryerlar ishtirokidagi gibrid yetkazib berish tizimi o‘rganilgan. Tadqiqotda kuryerlar o‘rtasida topshiriqlarni taqsimlash, transport tashish hajmini belgilash, bo‘sh harakatlarni kamaytirish va yetkazib berish narxini shakllantirish masalalari birgalikda ko‘rib chiqilgan. Mualliflar kuryerlik tizimida xarajatlarni boshqarish resurslardan foydalanish, topshiriqlar taqsimoti va xizmat narxini birgalikda optimallashtirishni talab qilishini ko‘rsatgan.[106]

---

[104] o‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi malumoti. (https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2)

[105] "Pochta aloqasi tog‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.06.2022 yildagi O‘RQ-777-son

[106] Behrendt, A., Savelsbergh, M., Wang, H. (2024). *Task assignment, pricing, and capacity planning for a hybrid fleet of centralized and decentralized couriers.* Transportation Research Part C: Emerging Technologies, 160, 104533. DOI: 10.1016/j.trc.2024.104533.

J.H.R van Duin, A.Munir, B.Wiegmanslarning“Using E-fulfilment centres for direct last-mile parcel delivery: an activity cost based analysis” nomli tadqiqotida posilkalarni e-fulfilment markazlaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mijozlarga yetkazib berish xarajatlari faoliyat xarajatlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotchilar yetkazib berish xarajatlarini hisoblashda posilkalar hajmi muhim omil ekanligini va vaqtga asoslangan samaradorlik ko‘rsatkichi ma’lum hajmdan boshlab iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishini aniqlagan. Mazkur tadqiqot kuryerlik xizmatlarida xarajatlarni buyurtmalar hajmi va faoliyat davomiyligi bilan bog‘langan holda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.[107]

Li F., Fan Z.-P., Cao B.-B., Li X. last-mile delivery xizmatlarini tanlashda mijoz uchun yaratiladigan foydalilik bilan bir qatorda yetkazib berish xarajatlarini ham hisobga olish zarurligini asoslagan. Ularning tadqiqotida xizmat ko‘rsatish modeli, yetkazib berish usuli va xarajatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan.[108]

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlarida xarajatlar, avvalo, korxona tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonida sarflanadigan iqtisodiy resurslarning qiymat ifodasi sifatida talqin qilinadi. Jumladan**,** K.B. Urazov va M.E. Po‘latov ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot, ish va xizmatlarni ishlab chiqarishga bevosita sarflangan hamda ularning tannarxini shakllantiruvchi xarajatlar sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv kuryerlik xizmatlari uchun ham muhim bo‘lib, bunda kuryer mehnati, transport vositalaridan foydalanish, yoqilg‘i, qadoqlash materiallari va xizmat ko‘rsatish jarayoniga bevosita tegishli boshqa sarflar xizmat tannarxini shakllantiruvchi xarajatlar sifatida qaralishi mumkin.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda kuryerlik va pochta xizmatlari xarajatlarini hisoblashda asosan “transport xarajatlari”, “ish haqi”, “ma’muriy xarajatlar” yondashuvlariga e’tibor qaratilgan. Biroq mazkur yondashuvlarning O‘zbekiston sharoitida, xususan, mahalliy buxgalteriya hisobi tizimi va hisobvaraqlar rejasi bilan integratsiyalashgan holda kuryerlik xizmatlari xarajatlarining analitik hisobini tashkil etish masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Kuryerlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlar xarajatlari hamda ularning hisobini takomillashtirishda iqtisodiy tahlilning tizimli tahlil, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik va iqtisodiy tahlil, balans, solishtirish, analiz, hisobot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. EMU-Ekspress o‘zbekistonda pochta, kuryerlik va logistika sohasida 10 yildan ortiq tajribaga ega yetakchi milliy operatorlardan biridir. Kompaniya jismoniy va yuridik shaxslarga mahalliy hamda xalqaro jo‘natmalarni tezkor, xavfsiz va ishonchli yetkazib berish, shuningdek, e-commerce va biznes uchun kompleks logistika xizmatlarini taqdim etadi. Kuryerlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda xarajatlar hisobini takomillashtirishning

[107]JHR van Duin,A.Munir,B.Wiegmans Using E-fulfilment centres for direct last-mile parcel delivery: an activity cost based analysis (2024). *Transportation Research Procedia, 79,* 265–272. DOI: 10.1016/j.trpro.2024.03.036.
Li F., Fan Z.-P., Cao B.-B., Li X. Logistics Service Mode Selection for Last Mile Delivery: An Analysis Method Considering Customer Utility and Delivery Service Cost // *Sustainability*. – 2021. – Vol. 13, No. 1. – Article 284. – DOI: 10.3390/su13010284..

amaliy jihatlarini baholash maqsadida “EXPRESS MAIL UNIVERSAL” MChJ (EMU Express) ning 2025-yil 4-choragi bo‘yicha moliyaviy natijalari tahlil qilindi. Tahlilda 2025-yil hisobot davri ko‘rsatkichlari 2024-yilning mos davri bilan taqqoslandi.

“Express Mail Universal” MChJ xarajatlar tarkibi (ming so‘mda)[109]

1-jadval

Ko‘rsatkichlar nomi	**2024-yil**		**2025-yil**		**O‘zgarish**	**O‘sish (kamayish) surati**
	Summa	Ulushi	Summa	Ulushi		
Sotilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi	35163247,6	64,27%	47240574	71,4%	12077326,4	134,35%
Ma’muriy xarajatlar	19030600	34,78%	17903188	27,1%	-1127412	94,08%
Boshqa operatsion xarajatlar	517201	0,95%	853507	1,3%	336306	165,02%
Valyuta kursi farqlaridan ko‘rilgan zararlar	3939	0,01%	88866	0,1%	84927	2256,05 %
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	-		35853	0,1%	35853	
Jami xarajatlar	54714987,6	100%	66121988	100%		

Yuqoridagi jadval malu’motlaridan ko‘rishimiz mumkinki, 2024-yilda korxonaning jami xarajatlari 54 714 987,6 ming so‘mni**,** 2025-yilda esa 66 121 988 ming so‘mni tashkil etgan. Shunday qilib, tahlil qilinayotgan davrda jami xarajatlar 11 407 000,4 ming so‘mga, ya’ni qariyb 20,85 foizga oshgan. Xarajatlarning umumiy hajmi o‘sishida, eng avvalo, sotilgan mahsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlar tannarxining keskin ko‘payishi asosiy omil bo‘lgan.

2024-yilda sotilgan mahsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlar tannarxi 35 163 247,6 ming so‘mni tashkil etib, jami xarajatlarning 64,27 foizini egallagan. 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 47 240 574 ming so‘mga yetgan. Natijada tannarx xarajatlari 12 077 326,4 ming so‘mga yoki 34,35 foizga oshgan. Shu bilan birga, uning jami xarajatlardagi ulushi 64,27 foizdan 71,4 foizgacha ko‘tarilganligini kuzatishimiz mumkin.Mazkur holat “Express Mail Universal” MChJ faoliyatida bevosita xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarning ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Pochta va kuryerlik xizmatlarida bunday xarajatlar tarkibiga

[109] EXPRESS MAIL UNIVERSAL” MChJning Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti asosida muallif ishlanmasi (https://ihamkor.uz/oz/subject/3b0f546ead4656f80274362a92637101?n=%22EXPRESS+MAIL+UNIVERSAL%22+MCHJ&u=1979571090&section=fi&shv=collapsed)

jo‘natmalarni qabul qilish, saralash, tashish, yetkazib berish, yoqilg‘i, transport vositalaridan foydalanish, qadoqlash va boshqa operatsion xarajatlar kirishi mumkin. Tannarxning jami xarajatlar tarkibidagi ulushi 7,13 foizga oshgani korxona xarajatlarini boshqarishda aynan xizmat tannarxiga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Ma’muriy xarajatlar esa aksincha, kamayish tendensiyasiga ega. 2024-yilda ular 19 030 600 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2025-yilda 17 903 188 ming so‘mga tushgan. Absolyut kamayish 1 127 412 ming so‘m, nisbiy o‘zgarish esa 5,92 foiz kamayishni tashkil etgan. Natijada ma’muriy xarajatlarning jami xarajatlardagi ulushi 34,78 foizdan 27,1 foizgacha kamaygan. Mazkur natijani ijobiy tendensiya sifatida baholash mumkin. Chunki ma’muriy xarajatlarning qisqarishi boshqaruv apparati va umumxo‘jalik xarajatlarini nazorat qilish bo‘yicha ma’lum darajada samarali choralar ko‘rilganligini anglatadi. Biroq ma’muriy xarajatlarning kamayishi bilan bir vaqtda xizmatlar tannarxining sezilarli darajada oshishi kuzatilayotgani sababli, xarajatlarni optimallashtirish siyosatini faqat ma’muriy xarajatlarni qisqartirish bilan cheklash yetarli emas.

Boshqa operatsion xarajatlar 2024-yilda 517 201 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 853 507 ming so‘mga yetgan. Ya’ni ushbu xarajatlar 336 306 ming so‘mga yoki 65,02 foizga oshgan. Jami xarajatlardagi ulushi ham 0,95 foizdan 1,3 foizgacha ko‘tarilgan. Ushbu xarajatlarning ulushi nisbatan kichik bo‘lsa-da, ularning o‘sish sur’atining yuqoriligi xarajatlarning tarkibiy sabablarini chuqur o‘rganishni talab etadi.

Bundan tashqari, 2025-yilda moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar ham yuzaga kelgan bo‘lib, ular 35 853 ming so‘mni tashkil qilgan. Ushbu xarajat 2024-yilda mavjud bo‘lmagan. Jami xarajatlardagi ulushi atigi 0,1 foiz bo‘lsa-da, xarajatlarning yangi turi sifatida uning yuzaga kelish sabablari va iqtisodiy mazmunini alohida nazorat qilish maqsadga muvofiq.



1-rasm. “Express Mail Universal” MChJning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi[110]

[110] [110] EXPRESS MAIL UNIVERSAL” MChJning Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti asosida muallif ishlanmasi

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari kuryerlik xizmatlarini koʻrsatuvchi subyektlarda xarajatlar hisobini takomillashtirish xizmat tannarxini toʻgʻri shakllantirish, xizmatlarning rentabelligini baholash hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini koʻrsatdi. Kuryerlik faoliyatining oʻziga xos xususiyatlari, xususan, xizmat koʻrsatish jarayonining bir necha bosqichlardan tashkil topishi, transport va yoqilgʻi xarajatlari, kuryerlar mehnati, yetkazib berish masofasi, buyurtmalar hajmi, qayta yetkazib berish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bogʻliq xarajatlarning mavjudligi xarajatlarni faqat umumiy guruhlar boʻyicha hisobga olishni yetarli emasligini koʻrsatmoqda.

Umuman olganda, kuryerlik xizmatlarini koʻrsatuvchi subyektlarda xarajatlar hisobini takomillashtirishning asosiy yoʻnalishi xarajatlarni oddiy yigʻishdan ularni boshqarishga yoʻnaltirilgan analitik hisob tizimiga oʻtishdan iborat. Buning uchun xizmat tannarxini shakllantirishning bosqichma-bosqich modeli, zamonaviy kalkulyatsiya usullari, raqamli texnologiyalar va xarajat drayverlariga asoslangan analitik hisobni yagona tizimda birlashtirish zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- birinchidan, kuryerlik xizmatlarini koʻrsatuvchi subyektlarda xarajatlarni xizmat koʻrsatishning alohida bosqichlari boʻyicha analitik hisobga olish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda xarajatlarni buyurtmani qabul qilish, saralash, tashish, hududiy taqsimlash, kuryer orqali yetkazib berish hamda qayta yetkazib berish bosqichlari kesimida alohida shakllantirish lozim. Mazkur yondashuv xizmat koʻrsatish jarayonining qaysi bosqichida xarajatlarning ortiqcha sarflanayotganini aniqlash va ularni kamaytirish boʻyicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.
- ikkinchidan, har bir buyurtma boʻyicha haqiqiy tannarxni aniqlash tizimini takomillashtirish zarur. Buning uchun umumiy oʻrtacha tannarx koʻrsatkichidan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, har bir buyurtmaning masofasi, joʻnatma vazni, yetkazib berish tezligi, transport turi, kuryer mehnat sarfi va boshqa tegishli omillarni hisobga olgan holda individual kalkulyatsiya shakllantirish taklif etiladi. Bu esa har bir buyurtmaning korxona moliyaviy natijasiga qoʻshayotgan hissasini aniq baholash imkonini yaratadi.
- uchinchidan, transport va yoqilgʻi xarajatlarini masofa asosida hisobga olish va nazorat qilish tizimini joriy etish lozim. Bunda transport xarajatlarini faqat umumiy summa koʻrinishida aks ettirish oʻrniga, 1 km masofaga, 1 ta buyurtmaga yoki 1 kg joʻnatmaga toʻgʻri keladigan xarajat koʻrsatkichlarini shakllantirish taklif etiladi. Mazkur koʻrsatkichlar transport vositalaridan foydalanish samaradorligini baholash, yoqilgʻi sarfini nazorat qilish va yetkazib berish xarajatlarini optimallashtirish uchun muhim axborot manbai boʻlib xizmat qiladi.
- toʻrtinchidan, kuryerlik xizmatlarida hududlar boʻyicha rentabellik tahlilini joriy etish zarur. Bunda shahar markazi, chekka hududlar va boshqa yetkazib berish zonalari boʻyicha daromadlar, xarajatlar va xizmat koʻrsatish hajmlarini

(https://ihamkor.uz/oz/subject/3b0f546ead4656f80274362a92637101?n=%22EXPRESS+MAIL+UNIVERSAL%22+MCHJ&u=1979571090&section=fi&shv=collapsed)

alohida analitik hisobga olish maqsadga muvofiq. Natijada har bir hududning daromadlilik yoki zarar keltirish darajasi aniqlanib, iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lmagan yo‘nalishlar bo‘yicha tegishli boshqaruv choralarini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi.

- beshinchidan, mijoz tomonidan jo‘natmaning qabul qilinmasligi, noto‘g‘ri manzil ko‘rsatilishi, mijozning manzilda bo‘lmasligi yoki boshqa sabablar natijasida yuzaga keladigan qayta yetkazib berish xarajatlarini alohida analitik hisob obyektida aks ettirish taklif etiladi. Shu bilan birga, qayta yetkazib berish holatlarining sabablarini muntazam tahlil qilish va ularning takrorlanishini kamaytirishga qaratilgan tashkiliy choralarni ishlab chiqish korxonaning ortiqcha xarajatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.
- oltinchidan, buyurtmani qabul qilishdan boshlab uning mijozga yetkazib berilishigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni yagona raqamli axborot tizimida aks ettiruvchi raqamli xarajat monitoringi tizimini yaratish maqsadga muvofiq. Bunday tizim orqali har bir buyurtma bo‘yicha daromad, xarajat, sarflangan vaqt, transport xarajatlari, kuryer mehnati va yakuniy rentabellik ko‘rsatkichlarini avtomatik shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa hisob ma’lumotlarining tezkorligi, aniqligi va shaffofligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Pochta aloqasi tog‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.06.2022 yildagi O‘RQ-777-son;
2. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining “Elektron tijoratda kuryerlik xizmati faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi” buyrug‘i, 18.06.2025 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3631;
3. Urazov, K. B. (2004). Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent–2004;
4. Urazov K.B., Moliyaviy hisob va hisobot, Toshkent, 2018;
5. Shirinov U.A., Azimov B.B.,Pochta xizmatlarini buxgalteriya hisobini takomillashtirish;
6. X.U.Po‘latov “Xizmat ko‘rsatish korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish”;
7. Behrendt, A., Savelsbergh, M., Wang, H. (2024). Task assignment, pricing, and capacity planning for a hybrid fleet of centralized and decentralized couriers. Transportation Research Part C: Emerging Technologies, 160, 104533. DOI: 10.1016/j.trc.2024.104533;
8. JHR van Duin,A.Munir,B.Wiegmans Using E-fulfilment centres for direct last-mile parcel delivery: an activity cost based analysis (2024). Transportation Research Procedia, 79, 265–272. DOI: 10.1016/j.trpro.2024.03.036;
9. Li F., Fan Z.-P., Cao B.-B., Li X. Logistics Service Mode Selection for Last Mile Delivery: An Analysis Method Considering Customer Utility and Delivery Service Cost // Sustainability. – 2021. – Vol. 13, No. 1. – Article 284. – DOI: 10.3390/su13010284;

THE ROLE OF FINTECH STARTUPS IN THE DIGITAL TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN'S ECONOMY

Shakhnoza Ablakulova Gayrat kizi
Samarkand Institute of Economics and Service | Faculty: Accounting
shakhn0zaablakulova@gmail.com
Uchkun Shirinov Abdukhalilovich
Samarkand Institute of Economics and Service | PhD, Associate Professor

ABSTRACT Background: Fintech startups have emerged as primary agents of digital economic transformation in Uzbekistan, Central Asia's most populous nation. Objective: This study examines how fintech startups drive digital transformation in Uzbekistan, analyzes the legislative framework governing the sector, and benchmarks the country's progress against international peers. Methods: The study employs a mixed qualitative-quantitative approach, combining macro-level statistical analysis of ecosystem funding data (2020 - 2025), regulatory document analysis, and comparative case study benchmarking against Singapore, India, and Brazil. Results: Early-stage startup funding grew 230 - fold between 2020 and 2024 ($0.3M to $69.5M); fintech captured 61% of total venture investment (2022 - 2023); remote banking users grew from 8 to 30 million between 2018 and 2022; and Uzum became Uzbekistan's first unicorn with a $2.3 billion valuation by March 2026. Discussion: Despite remarkable growth, structural challenges in digital literacy, cybersecurity, and regulatory maturity constrain further scaling. The Digital Uzbekistan 2030 Strategy and FinTech Development Strategy 2026 - 2030 provide a coherent enabling framework, though implementation gaps remain relative to leading fintech economies. Conclusions: Fintech startups are irreplaceable catalysts of Uzbekistan's digital economic transformation, and targeted policy interventions in inclusion, infrastructure, and talent development are critical to sustaining ecosystem momentum.

Keywords: fintech, digital transformation, Uzbekistan, startup ecosystem, financial inclusion, Digital Uzbekistan 2030, venture capital, regulatory framework, emerging markets

INTRODUCTION

The global financial system is undergoing a profound structural shift, driven by the convergence of mobile technologies, artificial intelligence, and digital payments infrastructure. In emerging economies, this shift carries particular significance: fintech startups are not merely disrupting traditional banking - they are, in many cases, constructing financial systems where robust alternatives did not previously exist.

Uzbekistan presents a compelling case study within this global context. As Central Asia's most populous country, with approximately 36 million residents and a median age below 30, Uzbekistan combines a large underserved financial market with a young, digitally inclined population - conditions that academics and practitioners have identified as foundational enablers of fintech ecosystem growth [1]. Under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev, the country has

undertaken sweeping economic liberalization reforms since 2017, resulting in 46% GDP growth and a tripling of foreign direct investment to $11.9 billion by 2024 [2].

Against this backdrop, the fintech sector has emerged as one of the most dynamic and strategically consequential domains in Uzbekistan's economic modernization. The concept of 'leapfrogging' - whereby developing economies bypass intermediate technological stages and adopt cutting-edge solutions directly - is particularly relevant here. As Uzum CEO Jasur Jumaev has noted, Uzbekistan's retail economy may move directly from bazaar-based informal trade to digital commerce, bypassing the traditional retail phase that characterized developed market transitions. This pattern echoes the mobile payments revolutions observed in Kenya (M-Pesa), Bangladesh (bKash), and Vietnam (MoMo), each of which achieved transformative financial inclusion by meeting users at the mobile-first interface.

The purpose of this paper is to systematically analyze the role of fintech startups in Uzbekistan's digital transformation, situating domestic developments within a comparative international framework, and examining the legislative architecture that governs the sector. Section II outlines the research methodology; Section III presents empirical results across investment, payments, and sectoral data; Section IV provides extended discussion of key actors, regulatory developments, international benchmarking; and Section V presents conclusions and policy recommendations.

METHODS

This study adopts a mixed qualitative-quantitative research design, integrating three complementary methodological approaches to provide a comprehensive account of fintech's role in Uzbekistan's digital transformation. This pluralistic approach is consistent with established practice in fintech ecosystem research, where no single data source or method is sufficient to capture the multidimensional nature of digital economic transformation [3].

The primary quantitative component draws on publicly available ecosystem funding data for the period 2020 - 2025, sourced from the Global Startup Ecosystem Report 2025 (Startup Genome), the Mastercard Fintech Market Uzbekistan Report (December 2023), KPMG's digital payments analysis (2024), and Elpis Labs' investment tracking data (2025). Key indicators analyzed include: early-stage startup funding volumes by year; venture capital distribution by sector; digital payments adoption metrics (remote banking users, POS terminal deployment, transaction volumes); and company-level valuation data for Uzum. All monetary figures are reported in US dollars. Where annual data was not available for intermediate years, published compound annual growth rates were used to construct consistent time series.

The legislative and regulatory component involves systematic analysis of primary legislative instruments governing Uzbekistan's fintech sector, including: the Digital Uzbekistan 2030 Strategy; the Presidential Decree of November 2025 expanding the Central Bank's fintech mandate; the FinTech Development Strategy 2026–2030; the January 2023 virtual asset regulatory framework; and the Central Bank's December 2023 Risk - Based Supervision Guidelines. Documents were

assessed against a framework of regulatory adequacy that evaluates coverage, enforcement mechanisms, sandbox provisions, and alignment with international standards [4].

International benchmarking employs structured case study comparison across three reference economies selected for their demonstrated success in government-led fintech ecosystem development: Singapore (regulatory sandbox and venture capital concentration model), India (Digital Public Infrastructure and state-mandated payment system adoption), and Brazil (Pix instant payment system and financial inclusion outcomes). Comparison criteria include: regulatory framework maturity, payment system architecture, financial inclusion outcomes, and public-private coordination mechanisms. The comparative framework is adapted from Senyo et al. (2024) and the World Economic Forum's Future of Global Fintech Report (2025).

RESULTS

Investment and Ecosystem Growth (2020–2025)

The quantitative trajectory of Uzbekistan's startup and fintech ecosystem over the past five years is striking. According to the Global Startup Ecosystem Report 2025, early-stage funding soared from $0.3 million in 2020 to $69.5 million in 2024 - a more than 230-fold increase within four years. The total ecosystem value grew from under $1 million in the 2021 Startup Genome Report to over $1.2 billion in the 2025 edition, a transformation driven substantially by fintech activity. Figure 1 illustrates this exponential growth trajectory.



Figure 1. Early-Stage Startup Funding in Uzbekistan (USD Million), 2020–2025..[111]

[111] **Startup Genome (2025)** *Global Startup Ecosystem Report 2025: Uzbekistan — Central Asia's Fastest Rising Startup Ecosystem*. San Francisco: Startup Genome LLC. Elpis Labs (2025) *Uzbekistan's Startup Ecosystem in 2025: A Funding Revolution Underway*.

Venture capital penetration has deepened correspondingly: as of 2025, over 12 active venture capital funds operate in Uzbekistan with combined assets exceeding $136 million, representing a tenfold increase in five years. In just the first four months of 2025, startups secured $110 million across two equity rounds - more than double the equivalent period in 2024 [5]. Fintech consistently leads sectoral investment rankings, accounting for the dominant share of venture funding and representing the primary driver of both deal volume and valuation growth.

Digital Payments Adoption

Uzbekistan's digital payments infrastructure has achieved scale commensurate with a maturing ecosystem. The country's Fast Payment System processed over $10.2 billion in transactions in July 2025 alone - a milestone reflecting both the velocity of adoption and the depth of institutional infrastructure supporting it. As illustrated in Figure 2, remote banking users grew from 8 million in 2018 to 30 million by 2022 - an annual growth rate of approximately 30% - driven in part by an 89% reduction in the price of 1GB of mobile internet data between 2019 and 2023, from $3.27 to $0.30 (KPMG/Payment Expert, 2025).

Concurrently, point-of-sale terminal deployments increased 50% between 2021 and 2023, rising from 10,593 to 21,651 units nationally (KPMG, 2024). Between 2020 and 2022, transaction volumes through QR-online systems grew at a 119% compound annual growth rate, with total value expanding by 1,500% over the period (Mastercard, 2023). Total POS transaction value grew by 56% between 2021 and 2022, reaching $14 billion.



Figure 2. Digital Payments Adoption in Uzbekistan: Remote Banking Users & POS Terminal Growth.[112]

[112] Mastercard (2023) *Fintech Market Uzbekistan*. December 2023. Cited in: FintechNews Switzerland.





Figure 3. Left (3a): VC Investment Distribution by Sector, Uzbekistan 2022–2023 (Total: $7.1M). Right (3b): Uzum Valuation Milestones (USD Billion), 2022–2026.[113]

Venture Capital Sector Distribution and Uzum Valuation Trajectory

From 2022 to 2023, venture capital funding in domestic startups totalled $7.1 million, with fintech companies capturing 61% of total sectoral investment - the highest share of any sector [6]. Figure 3a presents the full sectoral distribution. Figure 3b tracks the valuation trajectory of Uzum - Uzbekistan's first unicorn - from its founding in 2022 to its $2.3 billion valuation in March 2026 [7], demonstrating the sector's capacity to generate internationally competitive ventures within a compressed timeframe.

IT Park Uzbekistan, the government's flagship innovation hub established in 2019 under the Ministry of Digital Technologies, now supports over 2,800 companies, including more than 730 foreign firms. Its international offices across the United States, Germany, Saudi Arabia, South Korea, and Japan serve as strategic launchpads for both outbound Uzbek startups and inbound foreign founders. Since 2024, over 90 regional startups have participated in international exhibitions and competitive forums, signaling a transition from domestic-focused growth to export-oriented ambition.

Legislative Framework: Key Instruments

Regulatory document analysis identified five primary legislative instruments shaping Uzbekistan's fintech ecosystem. The Digital Uzbekistan 2030 Strategy mandates universal household mobile broadband access and requires all government fees and fines to be processed through digital payment channels - a powerful demand-side stimulus estimated to affect millions of annual transactions. The Presidential Decree of November 2025 formally designated the Central Bank as the lead authority for fintech development, establishing a national fintech

KPMG (2024) *Venture Capital in Central Asia*, 2nd edition. March 2025. Almaty: KPMG.

[113] Mastercard Fintech Market Uzbekistan Report, Dec 2023; TechCrunch, 2026; Startup Genome, 2025.

commission chaired by the Central Bank Governor and tasking regulators with identifying barriers including bank tariffs and non-competitive pricing structures.

The January 2023 virtual asset framework mandated that all crypto transactions be conducted exclusively through domestically licensed Virtual Asset Service Providers, generating over $1 billion in licensed transactions in 2024. The Central Bank's December 2023 Risk-Based Supervision Guidelines aligned Uzbekistan's supervisory methodology with FATF's 40 Recommendations. The FinTech Development Strategy 2026 - 2030 introduces a legal regime for stablecoins as payment instruments effective January 2026, alongside a framework for tokenized equities and bonds - positioning Uzbekistan as a regional pioneer in blockchain-based capital market infrastructure.

DISCUSSION

Key Fintech Actors and Their Systemic Contributions

The results presented in Results section acquire deeper significance when interpreted through the lens of sectoral actor analysis. Uzum's emergence as Uzbekistan's first unicorn - and its subsequent $2.3 billion valuation - is not merely a company-level success story but a structural signal about ecosystem maturity. Founded in 2022, Uzum operates as an integrated digital ecosystem rather than a single-product fintech company, with verticals spanning Uzum Market (connecting over 17,000 local sellers), Uzum Bank (5 million customers), Uzum Nasiya ($400 million unsecured loan book), and Uzum Tezkor (express food delivery). Total payment volume processed reached $11 billion in 2025, while revenue grew to $691 million with net income of $176 million - demonstrating a rare combination of scale and profitability in the emerging market fintech landscape [7].

Monthly active users reached 20 million - more than half of Uzbekistan's adult population - demonstrating penetration into everyday economic life that extends well beyond the digitally sophisticated urban segments that initially drove adoption. The company's model of using fintech profitability to subsidize e-commerce growth until marketplace unit economics mature offers a replicable blueprint for integrated digital ecosystem development in comparable frontier markets. Uzum has also been expanding into cross-border commerce, adding nearly 200 million SKUs from Turkey and China, further integrating Uzbekistan into regional digital trade networks.

Beyond Uzum, Alif has established itself as a significant provider of Buy Now Pay Later and digital credit services to underserved segments unable to access conventional banking products. Payme and Click have achieved near-ubiquitous adoption as mobile payment platforms, collectively enabling millions of daily transactions. Their role as onboarding infrastructure - familiarizing users with digital payments before they migrate to more complex financial services - is a structural function that is difficult to quantify but critical to ecosystem development. Collaboration between traditional financial institutions and fintech startups is also accelerating, leading to hybrid product offerings that combine the trust of incumbent banks with the user experience of digital-native platforms [8].

Interpreting the Regulatory Framework

The regulatory results presented in Results Section reflect a deliberate policy architecture that international comparison suggests is structurally sound, if not yet fully mature. The multi-regulator model - with the Central Bank overseeing traditional finance and digital payments, NAPP governing crypto assets, and the Ministry of Finance managing fiscal incentives - provides both stability and innovation flexibility. This division of responsibilities is consistent with best practice in mature fintech regulatory ecosystems, where no single regulator can effectively oversee the full spectrum of digital financial innovation without risking either excessive conservatism or inadequate consumer protection.

The introduction of the regulatory sandbox through the Central Bank's expanded mandate is particularly significant. As Singapore's experience demonstrates, sandboxes create a feedback loop between innovation and regulation: startups experiment under controlled conditions, regulators observe emergent risks and opportunities, and legislative frameworks update accordingly. The key risk in sandbox-based regulation is regulatory capture - the tendency for sandbox participants to shape rules in their favor - which Uzbekistan can mitigate through transparent multi-stakeholder governance of the national fintech commission established under the November 2025 decree.

✓ **Продуктовая политика и товарный портфель:** Аудит ликвидности товарных позиций. Выявление «убыточных» товаров, которые производятся по инерции, и оценка потенциала расширения ассортимента с учетом национальных традиций, вкусовых предпочтений или требований экспорта.

✓ **Ценовая политика:** Контроль ценообразования в условиях инфляционных ожиданий и конкуренции с импортом. Проверка соблюдения ценовых коридоров дистрибьюторами и оценка эффективности гибких финансовых инструментов (кредитование, лизинг, рассрочка Buy Now, Pay Later).

✓ **Дистрибуция (каналы сбыта):** Аудит эффективности традиционной розницы (махаллинские магазины, базары) в сравнении с

современными каналами (супермаркеты, e-commerce). Контроль работы торговых представителей (дистрибьюторских сетей) с использованием GPS-трекинга и мобильной автоматизации (например, приложения для торговых агентов).

✓ **Коммуникационная активность (Digital и SMM):** поскольку в Узбекистане наблюдается колоссальный рост популярности социальных сетей (особенно Telegram, Instagram и YouTube), аудит должен жестко разделять имиджевые расходы и performance-маркетинг (лидогенерацию). Проверка реальной конверсии рекламных бюджетов в продажи, а не в «пустые» метрики (лайки и охваты).

4. Финансовый аудит маркетинга. Это наиболее слабое звено на предприятиях Узбекистана, требующее радикальных изменений:

✓ **Расчет окупаемости инвестиций (ROMI и ROI):** Внедрение жесткого финансового контроля каждого сума, направленного на продвижение. Маркетинговый бюджет должен рассматриваться не как «расходный карман», а как инвестиционный инструмент с прогнозируемой отдачей.

✓ **Оптимизация маркетинговых затрат в структуре себестоимости:** Анализ доли маркетинговых расходов в цене конечной продукции. Выявление неэффективных статей затрат (например, дорогая наружная реклама с низкой эффективностью или необоснованные спонсорские бюджеты) и перенаправление средств в цифровые каналы с измеряемой эффективностью.

✓ **Преодоление кадрового барьера через аутсорсинг:** Ввиду нехватки внутренних квалифицированных финансовых маркетологов-аналитиков на местах, предприятиям Узбекистана целесообразно привлекать независимых внешних экспертов или консалтинговые компании для проведения разового глубокого финансового аудита маркетинга с последующим обучением внутренних кадров.

Проведенное исследование позволяет сделать вывод о том, что маркетинг-аудит является обязательным элементом современной системы корпоративного управления, обеспечивающим устойчивость бизнеса в условиях высокой конкуренции. Без регулярного независимого контроля предприятия теряют рыночную гибкость и несут убытки от неэффективного распределения ресурсов.

На основе проведенного анализа предлагаются следующие научно-практические рекомендации:

5. **Институционализация регулярного аудита:** внедрить практику обязательного проведения комплексного внешнего или независимого внутреннего маркетинг-аудита на предприятиях среднего и крупного бизнеса не реже одного раза в год.

6. **Цифровизация маркетингового учета:** интегрировать сквозные аналитические системы (BI-системы, ERP и CRM) для автоматизации сбора показателей эффективности маркетинга, что минимизирует человеческий фактор и субъективность при проверках.

7. **Разработка методических рекомендаций:** создать национальные методические пособия по проведению маркетинг-аудита с учетом специфики отечественного законодательства и стандартов бухгалтерского и управленческого учета в Республике Узбекистан.

8. **Повышение квалификации кадров:** организовать обучающие программы для менеджеров и маркетологов по основам стратегического маркетингового контроля, риск-менеджмента и аудита эффективности коммуникаций.

Список использованной литературы (References)

1. Котлер Ф., Келлер К.Л. Маркетинг менеджмент. 15-е изд. — СПб.: Питер, 2018. — 848 с.
2. Doyle P., Bauer R. Marketing Management and Strategy. — Harlow: Financial Times Prentice Hall, 2019. — 384 p.
3. Ламбен Ж.-Ж., Ченчурин В., Шульц Д. Менеджмент, ориентированный на рынок. — СПб.: Питер, 2015. — 720 с.
4. Голубков Е.П. Основы маркетинга: учебник. — М.: Издательство «Брин», 2017. — 370 с.
5. Синяева И.С., Томилов В.В. Маркетинговые коммуникации: учебник для вузов. — М.: Юрайт, 2020. — 486 с.
6. Терещенко Г.А. Маркетинговый аудит как инструмент снижения предпринимательских рисков // Вестник Белорусского государственного экономического университета. — 2021. — № 3. — С. 70–78.
7. Гулямов С.С. и др. Цифровая экономика в управлении бизнес-процессами. — Ташкент: Фан ва технология, 2022. — 312 с.
8. Палванзада М.К. Стратегический маркетинг и конкурентоспособность предприятий. — Ташкент: Iqtisod-Moliya, 2020. — 240 с.
9. Абдуллаев Б.А. Особенности маркетингового контроля в современной экономике Узбекистана // Экономика и инновационные технологии. — 2023. — № 2. — С. 108–116.

ОБОДОНЛАШТИРИШ ХИЗМАТЛАРИ СУБЪЕКТЛАРИ ХАРАЖАТЛАРИНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШДА ҲИСОБ ВА ИЧКИ НАЗОРАТНИНГ РОЛИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Сохибов Ахматжон Фазлидинович,
"Evolishon Netvokt" МЧЖ шўъба бошлиғи e-mail: soxibovaxmat70@gmail.com
тел.: +99897 905 77 75 ORCID: 0009-0009-7234-8819

Аннотация. Мақолада ободонлаштириш хизматлари субъектларида ҳисоб ва ички назоратнинг харажатларни оптималлаштиришдаги аҳамияти тадқиқ этилган. Харажатларни хизмат тури, объект, ҳудуд, масъулият маркази, молиялаштириш манбаи ва харажат элементи бўйича кўп ўлчовли

аналитик ҳисобга олиш, меъёрий ва ҳақиқий оғишларни сабаб ва жавобгар шахслар кесимида назорат қилиш ҳамда рискка йўналтирилган ички назорат механизмини қўллаш таклиф этилган.

Калит сўзлар: ободонлаштириш хизматлари, харажатлар ҳисоби, аналитик ҳисоб, бюджетлаштириш, ички назорат, оғишлар таҳлили, масъулият маркази, оптималлаштириш.

Кириш. Ободонлаштириш хизматлари ҳудудларнинг ижтимоий жозибадорлиги ҳамда одамлар турмуш сифатига бевосита таъсир кўрсатадиган инфратузилма ҳисобланади. У ўз ичига аҳоли пунктларини санитария тозалагини сақлаш, кўкаламзорлаштириш, яшиллаштириш, ирригация тизимлари ва ички йўлларни сақлаш ҳамда таъмирлаш, ташқи ёритиш тизимларидан фойдаланиш, дренаж хўжалигини сақлаш, фаввораларни сақлаш ва улардан фойдаланиш, махсус автотранспорт ва техникалардан фойдаланиш ва бошқа ишларни олади. Айнан шу сифатларни таъминлаш ободонлаштиришни замонавий шаҳарсозликнинг муҳим тармоғи ва унга алоҳида эътиборни муҳим талаблардан бири эканлигидан дарак беради. Шу сабабли ободонлаштириш хизматларини зарур ҳажм ва сифатда кўрсатиш, унга бюджет ва бошқа молиявий манбалардан тегишли ресурсларни ажратиш, ушбу ресурслардан рационал фойдаланиш ўта долзарб масала ҳисобланади. Мазкур субъектларда харажатларни оптималлаштириш оддий қисқартириш ёки тежаш эмас, балки хизмат натижасини пасайтирмасдан ресурс сарфини иқтисодий асослаш, самарасиз йўқотишларни бартараф этиш ва маблағларни устувор объектларга қайта йўналтиришни тақоза этади. Бундай натижага эришиш учун соҳада ортиқча сарфларнинг қаерда ва нима сабабдан юз берганлиги, ушбу ортиқча сарфларга қайси бўлинма ёки масъул ходимлар йўл қўяётганлигини аниқлаш зарурдир. Шундан келиб чиқиб, бизнинг тадқиқотларимизнинг асосий мақсади бўлибободонлаштириш хизматлари субъектларида ҳисоб ва ички назоратнинг ахборот, огоҳлантиру вчи ва тартибга солувчи функцияларини кучайтириш орқали харажатларни оптималлаштириш бўйича услубий таклифларни ишлаб чиқиш ҳисобланади. Тадқиқотларимизда тизимли ёндашув, гуруҳлаш, қиёсий таҳлил, сабаб-оқибат таҳлили ва рискларни баҳолаш усулларидан фойдаланилди.

Асосий қисм. Ободонлаштириш хизматларида харажатлар шаклланиши бир қатор тармоқ хусусиятларига эга. Ушбу хусусиятлардан энг муҳим 20 таси биз томонимиздан 1-жадвалда тизимлаштирилган.

1-жадвал

Ободонлаштириш хизматларида харажатлар шаклланишининг тармоқ хусусиятлари[127]

№	Тармоқ хусусияти	Хусусиятнинг намоён бўлиши	Харажатлар шаклланишига таъсири
1	**Хизмат турларининг кўп тармоқлилиги**	Санитария тозалаш, кўкалам-зорлаштириш, суғориш, дарахт-ларни парваришлаш, ички йўлларни сақлаш, ташқи ёритиш, ирригация ва дренаж ишлари каби турли хизматлар бажари-лади	Ҳар бир хизмат тури бўйича меҳнат, материал, техника ва энергия сарфлари таркиби фарқ қилади
2	**Объектларнинг ҳудудий тарқоқлиги**	Хизматлар турли кўчалар, маҳаллалар, боғлар, хиёбонлар ва бошқа ҳудудларда амалга оширилади	Транспорт, ёқилғи, техника ҳаракати ва ишчиларни объект-ларга етказиш билан боғлиқ харажатлар ортиб боради
3	**Мавсумийлик**	Баҳор-ёзда кўкаламзорлаштириш ва суғориш, кузда барг тозалаш, қишда қор ва музни бартараф этиш ишлари кўпаяди	Харажатлар йил давомида бир текис шаклланмайди, айрим мавсумларда ресурс сарфи кескин ошади
4	**Табиий-иқлим омилларига боғлиқлик**	Қурғоқчилик, кучли ёғингарчилик, шамол, қор ва бошқа табиий ҳолатлар иш ҳажмини ўзгартиради	Олдиндан режалаш-тирилмаган меҳнат, техника, ёқилғи ва материал харажатлари юзага келади
5	**Технологик жараёнларнинг босқичлилиги**	Хизматлар бир нечта кетма-кет операциялар орқали бажарилади	Ҳар бир технологик босқичда турли ресурслар истеъмол қилинади
6	**Махсус техникадан кенг фойдаланиш**	Сув сепиш машиналари, тракторлар, чиқинди ташувчи автомобиллар, автокранлар ва бошқа техникалар ишлатилади	Амортизация, ёқилғи, эҳтиёт қисмлар, таъмирлаш ва техник хизмат харажатлари юқори улуш эгаллайди
7	**Бир техниканинг бир нечта хизматда иштирок этиши**	Бир транспорт ёки техника бир куннинг ўзида турли объект ва хизматларда ишлаши мумкин	Техникани сақлаш ва эксплуатация харажатларини тўғридан-тўғри бир хизматга олиб бориш қийинлашади
8	**Қўл меҳнати улушининг**	Ҳудудни тозалаш, кўчат экиш, дарахтларни	Иш ҳақи ва ижтимоий тўловлар хизмат

[127] Муаллиф ишланмаси

	юқорилиги	парваришлаш ва бошқа ишлар қўл меҳнатини талаб қилади	таннархида муҳим ўрин эгаллайди
9	**Материаллар таркибининг хилма-хиллиги**	Кўчат, уруғ, ўғит, ёқилғи, асфальт, цемент, эҳтиёт қисмлар, электр жиҳозлари ва бошқа материаллар сарфланади	Турли хизматларда материаллар сарфи ва уларнинг таннархдаги улуши кескин фарқ қилади
10	**Ёқилғи ва энергия сарфининг аҳамиятлилиги**	Транспорт воситалари, махсус техника, насослар ва ташқи ёритиш тизимлари ёқилғи ва энергия талаб қилади	Ёқилғи, электр энергияси ва сув харажатлари таннархга сезиларли таъсир кўрсатади
11	**Билвосита харажатларнинг мавжудлиги ва юқори улуши**	Бошқарув, устахона, омбор, диспетчерлик, умумий транспорт ва бошқа харажатлар бир нечта хизматларга тегишли бўлади	Таннархни ҳисоблашда харажатларни хизматлар ўртасида тақсимлаш мураккаблашади
13	**Хизмат натижасини баҳолашнинг мураккаблиги**	Натижа фақат иш ҳажми эмас, балки тозалик, эстетик ҳолат, яшиллик даражаси каби сифат кўрсаткичлари билан ҳам ифодаланади	Харажатларнинг самарадорлигини фақат миқдорий кўрсаткичлар орқали баҳолаш етарли бўлмайди
14	**Жавобгарлик марказларининг кўплиги**	Тозалаш бригадаси, кўкаламзорлаштириш участкаси, транспорт бўлими, устахона ва бошқа бўлинмалар иштирок этади	Харажатларнинг келиб чиқиш жойи ва масъул шахсни аниқлаш мураккаблашади
15	**Молиялаштириш манбаларининг турлилиги**	Маҳаллий бюджет, давлат дастурлари, буюртмачилар маблағлари, ўз маблағлари ва бошқа манбалардан фойдаланилади	Бир хил хизмат бўйича турли молиялаштириш манбалари ҳисобидан харажатлар шаклланиши мумкин
16	**Режали ва фавқулодда ишларнинг мавжудлиги**	Кундалик хизматлар билан бир қаторда шамол, сел, қор ёки авария оқибатларини бартараф этиш ишлари бажарилади	Фавқулодда харажатлар режали таннархни сунъий равишда ошириши мумкин
17	**Ресурсларни меъёрлаштириш зарурати**	Ёқилғи, сув, ўғит, материал, меҳнат вақти ва техникадан фойдаланиш бўйича сарфлар такрорий характерга эга	Меъёрлар мавжуд бўлмаса, ортиқча сарф ва йўқотишларни баҳолаш қийинлашади
18	**Иш ҳажмининг турли ўлчов бирликларида ифодаланиши**	Хизматлар км, м², гектар, дона, машина-соат, куб метр ва бошқа ўлчовларда баҳоланади	Ягона калькуляция бирлигини қўллаш имконияти чекланади
19	**Хизмат кўрсатиш ва**	Ободонлаштириш натижаси	Тугалланмаган иш ва

	натижани истеъмол қилишнинг бир вақтдалиги	кўп ҳолларда хизмат бажарилиши жараёнидаёқ намоён бўлади	тайёр маҳсулот тушунчаларини қўллаш чекланган бўлади
20	**Харажатларнинг ижтимоий самара билан боғлиқлиги**	Ободонлаштиришдан олинадиган натижа даромад билан эмас, аҳоли фаровонлиги, санитар ҳолат ва шаҳар муҳити сифати билан ҳам баҳоланади	Харажат самарадорлигини фақат молиявий натижа асосида баҳолаш объектив натижа бермайди

Ободонлаштириш хизматларига хос ушбу хусусиятлар соҳа субъектларида бухгалтерия ҳисобини харажатларни қайд этувчи тизимдан бошқарув қарорлари учун тезкор ахборот ишлаб чиқарувчи тизимга айлантиришни зарурат қилиб қўяди. Бунинг учун харажатларни бир вақтнинг ўзида олтита аналитик белги бўйича кодлаш таклиф этилади:

1-код	2-код	3-код	4-код	5-код	6-код
хизмат тури (ХТ)	ободонлаштириш объекти (ОО	Ҳудуд (Ҳ)	Жавобгарлик маркази (ЖМ)	молиялаштириш манбаи (ММ)	харажат элементи (ХЭ)

Харажат аналитик кодларини «ХТ–ОО–Ҳ–ЖМ–ММ–ХЭ» шаклида тузиш ва уларни тасдиқловчи бошланғич ҳужжатлар орқали ахборот базасига киритиш бирламчи ҳужжатдан бошлаб ички ҳисоботгача маълумотларнинг узлуксиз кузатув занжирини таъминлайди. Масалан, ёқилғи сарфи фақат “ёнилғи-мойлаш материаллари” моддасида эмас, балки қайси техника, маршрут, хизмат, ҳудуд ва бригадага тегишли экани билан акс эттирилади.

Харажатларни тўғри калькуляция қилиш учун бевосита сарфлар тегишли хизмат ёки объектга тўғридан-тўғри олиб борилиши, умумий ва билвосита харажатлар эса уларнинг пайдо бўлиш сабабини ифодаловчи тақсимлаш базалари бўйича тақсимланиши мақсадга мувофиқ. Жумладан, махсус техника амортизацияси ва таъмир харажатлари - машина-соат; ёқилғи - босиб ўтилган километр ёки механизм-соат; бригада усталари меҳнати - ишчи-соат; суғориш харажатлари- майдон ва сув сарфи; ташқи ёритиш харажатлари - ёритиш нуқталари сони ва ишлаш соати; диспетчерлик харажатлари - бажарилган буюртмалар сони асосида тақсимланиши мумкин. Ягона база барча харажатларга қўлланилмаслиги, ҳар бир ресурс драйвери унинг истеъмол сабабига мос танланиши лозим.

Юқоридаги методик тартибни қўллаш ободонлаштириш хизматлари субъектларида харажатлар ҳисоби ва ички назоратини интеграциялашган тизимини шакллантириш имконини беради. Ушбу интеграциялашган тизим ўз ичига назорат объектлари, ахборот базаси, назорат амаллари ва харажатларни оптималлаштириш натижаларини олади. Уларнинг тавсифи 2-жадвалда кеклтирилган

2-жадвал

Харажатлар ҳисоби ва ички назоратнинг интеграциялашган тизими таркиби ва қўлланиш йўналишлари[128]

Ҳисоб ва назорат объекти	Ҳисоб ва назорат учун ахборот манбалари	Назорат амали ва натижаси
Ёқилғи ва махсус техника	Маршрут, техника, машина-соат, меъёр ва ҳақиқий сарф	GPS/йўл варақаси/омбор маълу-мотини солиштириш; ортиқча юриш ва ёқилғи йўқотишини қисқартириш
Меҳнат харажатлари	Бригада, объект, иш тури, ишчи-соат, бажарилган ҳажм	Табель, наряд ва қабул далолатномасини мувофиқлаштириш; бекор туриш ва такрорий ишларни аниқлаш
Материал ва кўчатлар	Номенклатура, партия, объект, сарф меъёри, қолдиқ	Талабнома–бериш–экиш/ўрнатиш занжири; камомад ва меъёрдан ортиқ сарфни чеклаш
Сув ва электр энергияси	Ҳисоблагич, ҳудуд, объект, мавсум, тариф	Кўрсаткичлар динамикаси ва техник меъёрларни қиёслаш; сизиб чиқиш ва самарасиз истеъмолни бартараф этиш
Таъмир ва хизмат кўрсатиш	Ускуна, нуқсон, эҳтиёт қисм, таъмир вақти ва қиймати	Режали-профилактик график ва таъмир тарихи; авариявий харажатларни камайтириш

Харажатларни оптималлаштиришда меъёрий ҳисоб ва оғишлар таҳлили алоҳида аҳамиятга эга. Ҳар бир хизмат тури бўйича ресурс меъёри (бир километр кўчани тозалашга ишчи-соат ва ёқилғи, бир гектар яшил майдонни суғоришга сув ва энергия, бир ёритиш нуқтасига электр сарфи) белгиланиб, ҳақиқий кўрсаткичлар билан таққосланиши керак. Меъёрлардан оғишларни қуйидаги алгоритмлар асосида аниқлаш мақсадга мувофқиқ:

Абсолют оғиш:

$$\Delta X = Xҳ - Xм,$$

Нисбий оғиш:

$$\Delta X\% = (Xҳ - Xм) / Xм \times 100$$

Бу ерда: Хҳ — ҳақиқий, Хм - хизматнинг амалдаги ҳажмига мослаштирилган меъёрий харажат.

Меъёрий қийматни ҳақиқий хизмат ҳажмига мослаштириш сарф ўзгаришини иш ҳажми ўзгаришидан ажратиб кўрсатади.

Ободонлаштириш хизматига оид харажатлардаги оғишлар суммасини аниқлаш ва назорат қилиш учун махсус “Ободонлаштириш хизматлари харажатлари ва оғишлари тўғрисида ички ҳисобот”ни тузиш тавсия этилади. Ушбу ҳисоботда режа, мослаштирилган меъёр, ҳақиқий сарф, мутлақ ва фоизли оғиш, оғиш сабаби, масъул бўлинма, тузатиш чораси ва бажариш муддати акс эттирилиши лозим. Сабаблар бошқариладиган (маршрутни нотўғри тузиш, ортиқча материал бериш, техникадан самарасиз фойдаланиш) ва бошқарилмайдиган (кескин об-ҳаво, авария, тариф ўзгариши) омилларга

[128] Муаллиф ишланмаси.

ажратилиши мақсадга мувофиқ. Бундай ёндашув ходимни асоссиз айблашни эмас, харажатни келтириб чиқарган жараённи тузатишни таъминлайди.

Ички назоратни рискка йўналтирилган тарзда ташкил этиш мақсадга мувофиқ. COSO концепцияси[129] назорат муҳити, рискларни баҳолаш, назорат чоралари, ахборот ва коммуникация ҳамда мониторингнинг ўзаро боғлиқлигини назарда тутади. Ушбу ёндашув ободонлаштириш субъектларига мослаштирилганда назорат уч даражада амал қилади: олдиндан назорат — смета, лимит, шартнома, нарх ва ресурс меъёрини тасдиқлаш; жорий назорат — материал бериш, иш вақти, техника ҳаракати ва бажарилган иш ҳажмини ҳужжатлаштириш; кейинги назорат — оғишлар, таннарх, хизмат сифати ва натижадорлик кўрсаткичларини таҳлил қилиш. Назоратнинг ҳар бир амали учун риск, назорат мақсади, масъул шахс, манба ҳужжат, даврийлик ва далил шакли белгиланиши керак.

Рақамли маълумотларни ўзаро мувофиқлаштириш назорат самарадорлигини оширади. Омбор ҳисоби, электрон талабнома, йўл варақаси, GPS, иш вақти табели, диспетчерлик буюртмаси, фотофиксация ва бухгалтерия ёзуви ягона идентификатор - иш буюртмаси ёки объект коди орқали боғланса, бир операцияни қайта киритиш камаяди ва сохта ёки такрорий харажатни аниқлаш осонлашади. Автоматик назорат қоидалари меъёрдан ошган ёқилғи, омбордан берилган, аммо объект далолатномасида тасдиқланмаган материал, ишламаган техникага ёзилган машина-соат, режадан ташқари таъмир ва бир объект бўйича такрорий тўловларни белгилаб бериши мумкин. Бироқ рақамлаштириш ички назоратни тўлиқ автоматлаштириш дегани эмас, одатда, истисноларни баҳолаш ва қарор қабул қилиш масъул ходимнинг касбий мулоҳазасига таянади.

Ҳисоб ва назорат маълумотлари харажатни хизмат натижаси билан бирга баҳолагандагина оптималлаштириш тўғри йўналиш олади. Шунинг учун тежалган маблағнинг ўзи якуний мезон бўла олмайди. Ички бошқарув ҳисоботида бир километр тозаланган кўча таннархи, бир гектар парваришланган яшил майдон харажати, бир ёритиш нуқтасини сақлаш қиймати, техниканинг фойдали иш вақти коэффициенти, режали таъмир улуши, такрорий иш улуши, меъёрдан ортиқ сарф даражаси ва ўз вақтида бартараф этилган назорат камчиликлари улуши каби кўрсаткичлар хизмат сифати индикаторлари билан бирга келтирилиши лозим. Масалан, сув харажатини камайтириш яшил майдоннинг сақланиш даражасини пасайтирса, бундай қисқартириш оптималлаштириш деб баҳоланмайди.

Юқорида тавсифи келтирилган механизмни жорий этиш хизмат ва объектларни хатловдан ўтказиш, аналитик кодлар классификаторини тасдиқлаш, ресурс драйверлари ва меъёрларини белгилаш, масъулият марказлари бюджетини тузиш, рисклар харитасини ишлаб чиқиш, ойлик оғишлар ҳисоботини муҳокама қилиш ва тузатиш чораларини мониторинг

[129] COSO (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission - Редуэй комиссиясини қўллаб-қувватловчи ташкилотлар қўмитаси). COSO концепцияси- ташкилотларда ички назорат, рискларни бошқариш ва корпоратив бошқарув тизимини ташкил этиш ва баҳолаш учун қўлланиладиган халқаро концептуал ёндашувдир.

қилиш кетма-кетлигида амалга оширишни тақоза этади. Бу цикл ҳисоб маълумотини назорат далилига, назорат натижасини эса ресурс тақсимоти бўйича қарорга айлантиради.

Хулоса ва таклифлар

Тадқиқот натижаларида ободонлаштириш хизматлари субъектларида харажатларни оптималлаштириш ҳисоб, бюджетлаштириш ва ички назоратнинг ўзаро интеграциясини таъминлаш борасида қуйидаги хулосаларга келинди ҳамда тавсиялар ишлаб чиқилди.

Биринчидан, харажатларни хизмат тури, объект, ҳудуд, масъулият маркази, молиялаштириш манбаи ва харажат элементи бўйича олти ўлчовли аналитик кодлар асосида ҳисобга олиш услубига ўтиш мақсадга мувофиқ, бу ресурс сарфининг манзиллилиги ва кузатувчанлигини таъминлайди;

Иккинчидан, билвосита харажатларни ресурс истеъмолини ифодаловчи машина-соат, ишчи-соат, майдон, маршрут узунлиги ва хизмат нуқталари каби драйверлар бўйича тақсимлаш лозим, бу хизмат таннархининг ишончлилигини оширади;

Учинчидан, мослаштирилган меъёрий харажат билан ҳақиқий сарфни сабаб ва жавобгарлик кесимида ҳисоби ва назорати учун махсус “Ободонлаштириш хизматлари харажатлари ва оғишлари тўғрисида ички ҳисобот”ни тузиш тавсия этилди, бу ҳисоботни тузиш ва амалиётда қўллаш ортиқча сарфни эрта аниқлаш ва тузатиш чораларини манзилли белгилаш имконини беради;

Тўртинчидан, олдиндан жорий ва кейинги назорат амалларини риск харитаси асосида бирлаштириш, электрон маълумот манбаларини иш буюртмаси коди билан боғлаш назоратнинг профилактик хусусиятини кучайтиради;Бешинчидан, харажат кўрсаткичларини хизмат ҳажми ва сифати билан биргаликда баҳолаш асоссиз тежамкорликка йўл қўймайди ҳамда бюджет маблағларини ижтимоий натижаси юқори бўлган объектларга йўналтиришга хизмат қилади.

Юқоридаги таклифларимиз ободонлаштириш хизматлари субъектларида харажатларнинг шаффофлиги, бошқарувчанлиги ва натижадорлигини ошириш учун ягона ахборот-назорат муҳитини шакллантиришда ҳисоб ва ички назоратнинг ўрни ва аҳамиятини ошишига олиб каелади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 10 январдаги 4-сон “Республика аҳоли пунктларини ободонлаштириш ишларини ташкил этишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. — URL: https://lex.uz/acts/2117709

2. Бюджет ташкилотлари ва бюджет маблағлари олувчиларнинг харажатлар сметаси ва штат жадвалларини тузиш, тасдиқлаш ва рўйхатдан ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом (рўйхат рақами 2634, амалдаги таҳрир). — URL: https://lex.uz/docs/2520442

3. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрелдаги ЎРҚ-404-сон “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни (янги таҳрир). — URL: https://lex.uz/docs/2931253

4. Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 5 апрелдаги 362-II-сон “Чиқиндилар тўғрисида”ги Қонуни. — URL: https://lex.uz/docs/42423

5. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission. Internal Control—Integrated Framework. COSO, 2013. — URL: https://www.coso.org/internal-control

6. Drury C. Management and Cost Accounting. 11th ed. Cengage Learning, 2021.

УДК: 657.1
ORCID: 0009-0000-1926-4610

ДОРИ ВОСИТАЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИДА УМУМИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Ёдгоров Хушвакт Мансурович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти мустақил тадқиқотчиси
yodgorovkhushvaqt@gmail.com Тел.: +998979191116

Аннотация. Мақолада мамлакатимизда фаолият кўрсатаётган дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисобини юритишнинг ўзига хос жиҳатлари, жумладан ҳар бир умумий ишлаб чиқариш хўжалиги бўйича харажатлар таркиби, ушбу харажатлар бухгалтерия ҳисобини юритишнинг аҳамияти ва зарурияти очиб берилган.

Калит сўзлар: дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари, фармацевтика маҳсулотлари, дори воситалари, умумий ишлаб чиқариш, дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнлари, дори воситалари ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисоби.

Мамлакатимизда бухгалтерия ҳисобини халқаро талабларга мувофиқлаштириш, бунда молиявий ҳисобот элементларини халқаро стандартларга мослаштириш орқали ахборотлар шаффофлигини таъминлаш бўйича қатор ислоҳотлар амалга оширилиб келинмоқда. Мисол учун, молиявий ҳисоботнинг миллий стандартларини жорий этишга доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилган бўлиб, 2027 йил 1 январдан бошлаб молиявий ҳисоботнинг миллий стандартларини жорий этишга қаратилган “Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартларини халқаро талаб ва стандартларга асосан қайта кўриб чиқиш ҳамда уларни унификация қилиш орқали Кичик ва ўрта бизнес учун МҲХСга уйғунлашган Молиявий ҳисоботнинг миллий стандартлари лойиҳаларини ишлаб чиқиш”[130] бўйича аниқ чора-тадбирлар ишлаб чиқилган. Молиявий ҳисоботнинг миллий стандартларида корхоналарда харажатлар бухгалтерия ҳисобини юритишнинг тартиб-қоидалари, умумий ишлаб чиқариш харажатларининг

[130] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Молиявий ҳисоб тизимини халқаро талаб ва стандартларга мувофиқ такомиллаштириш чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2025 йил 15 сентябрь. ПФ-282-сон.

ишлаб чиқарилган маҳсулотлар таннархига таъсирини инобатга олган ҳолда тақсимлаш усуллари келтирилган. Шу нуқтаи назардан корхоналарда, жумладан дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида амалга ошириладиган умумий ишлаб чиқариш харажатларининг дори воситалари таннархига таъсири, аҳамияти ва мазкур харажатлар бухгалтерия ҳисобини юритишнинг ўзига хос хусусиятлари тадқиқ этилди.Хорижий мамлакатлар олимларнинг бу борадиги илмий изланишлари муҳим аҳамиятга эга. Жумладан А.В.Ильиналар умумий ишлаб чиқариш харажатларига “ишлаб чиқаришни ташкил этиш, уларни сақлаш ҳамда бошқариш учун умумий ишлаб чиқариш цехлари харажатлари. Умумий хўжалик харажатлари ишлаб чиқаришни бошқариш мақсадида амалга оширилади”[131], деб тавсифлайди.

Б.А.Ҳасанов ва А.А.Хашимов каби олимлар томонидан умумий ишлаб чиқариш харажатлари “одатда, бошқарув ҳисоби тизимида ҳисобот даври ичида умумишлаб чиқариш харажатлари сметаси тузилиб, унга асосан сметадаги харажатлар ҳақиқатда эришилган маҳсулот ҳажми ва ҳақиқий харажатлар билан таққосланиб, тузатиб борилади”[132] деб тавсифланган.

Бошқа бир олим А.Н.Махмудов умумий ишлаб чиқариш харажатларини бажарилган ишлаб чиқариш буюртмаларининг қиймати бўйича тақсимлаш масалаларига оид тавсияларини саноат корхоналари мисолида ишлаб чиқган. Олимнинг фикрича, “текширилаётган харажатлардаги ўзгаришлар ва бир қатор билвосита харажатлар хизмат кўрсатиш ва ёрдамчи жараёнларни амалга ошириш соҳаларидан ташқарида пайдо бўлади, яъни тўғридан - тўғри асосий ишлаб чиқариш бўлинмаларида амалга оширилмайди” [133] . Бундан кўриниб турибдики, саноат корхоналарида билвосита харажатлар бошқа хўжаликлар фаолиятини амалга оширишда аҳамиятга молик хизматларни кўрсатади.З.У.Мухаммадиев “бугунги кунда, ҳисоб олдида яна шундай муаммо мавжудки, умумишлаб чиқариш харажатларини нафақат ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотлар таннархига, балки ушбу даврда ўз кучи билан қурилган бинонинг ҳам таннархига олиб бориш усули амалиёти мавжуд эмас”[134]. Олим умумий ишлаб чиқариш харажатлари бухгалтерия ҳисобини юритишда ўзига хос қарашларини намоён этади, яъни мазкур билвосита харажатлар ўша даврда ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотлар таннархига олиб бориш билан бир қаторда айнан ўша даврда қурилган объектлар бошланғич қийматига ҳам тақсимланиши зарур деган илмий хулосага келган.

Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш харажатлари муҳим ҳисобланиб, мазкур харажатларнинг мазмун-

---

[131] Ильина А.В., Ильшева Н.Н. Управленческий учет. Учебное пособие. -Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 180 с.

[132] Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. –Toshkent. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2005 y. -260 b.

[133] Махмудов А.Н. Саноат корхоналарида харажатларни маҳсулот таннархига тақсимлаш методологиясини такомиллаштириш истиқболлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. - 2022, № 3, май-июнь (№ 00059).

[134] Muxammadiyev Z.U. Korxonalarda qurilish ishlari bo‘yicha kapital investitsiyalarni amalga oshirishda bilvosita xarajatlarning roli. // «Moliyaviy hisobot auditini xalqaro standartlar asosida o‘tkazishning nazariy, tashkiliy va metodologik masalalari». Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Samarqand, 2024. 166-168-бетлар.

моҳиятини тўлиқроқ тушуниш уларнинг бухгалтерия ҳисоби юритиш ҳамда ҳисоб-китобларини амалга оширишда муҳим аҳамият касб этади. Корхоналарда билвосита харажатлар таркиби қуйидаги жадвалда ёритилди (1-жадвалга қаранг):

1-жадвал.

“Samarkand-England Eco-Medical” ҚК МЧЖда билвосита харажатлар таркиби[135]

Умумий ишлаб чиқариш хўжалиги	Моддий харажатлар	Меҳнат ҳақи харажатлари	Бошқа харажатлар
Муҳандислик бўлими	*“E7-24 моделли ҳаво филтр” эҳтиёт қисмлари; * “ҳимоя каскалари” инвентарлари *бошқа материаллар.	* муҳандислик бўлими ходимларига ҳисобланган меҳнат ҳақи харажатлари; * муҳандислик бўлими ходимларига ҳисобланган меҳнат ҳақи бўйича ижтимоий солиқ харажатлари.	* муҳандислик бўлими асосий воситаларига ҳисобланган амортизация кўринишидаги харажатлар; * муҳандислик бўлими коммунал харажатлари; *бошқа харажатлар.
Интеграция-лашган бошқарув тизими бўлими	*таҳлил ўтказиш мақсадида бошқа ташкилотларнинг “Веницит эритмаси 100мл” материаллари (аналог дори воситалари учун); *инвентарлар; *бошқа материаллар.	* интеграциялашган бошқарув тизими бўлими ходимларига ҳисобланган меҳнат ҳақи харажатлари; * интеграциялашган бошқарув тизими бўлими ходимларига ҳисобланган меҳнат ҳақи бўйича ижтимоий солиқ харажатлари.	* интеграциялашган бошқарув тизими бўлими коммунал харажатлари; *клиник тадқиқотлар ўтказиш харажатлари; *назорат (аудит) ўтказиш учун харажатлар; *бошқа харажатлар.
Сифат назорати бўлими	*сифат назорати ва лаборатория таҳлиллари учун олинган преформалар; *сифат назорати ва лаборатория таҳлиллари учун олинган флакон учун илгак; *сифат назорати ва лаборатория таҳлиллари учун олинган евроқопқоқ; *кимёвий моддалар ва кимёвий реактивлар “метанол ВЭЖХ учун градиент” материали; *инвентарлар; *бошқа материаллар.	* сифат назорати бўлими ходимларига ҳисобланган меҳнат ҳақи харажатлари; * сифат назорати бўлими ходимларига ҳисобланган меҳнат ҳақи бўйича ижтимоий солиқ харажатлари.	* сифат назорати бўлими асосий воситаларига ҳисобланган амортизация кўринишидаги харажатлар; * сифат назорати бўлими коммунал харажатлари; *дори воситаларини таҳлилдан ўтказиш харажатлари (аутсорсинг харажатлари); *бошқа харажатлар.

[135] Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида умумий ишлаб чиқариш хўжалиги таркибида амалга оширилган харажатлари таркиби турли бўлимларда турлича бўлиб, ҳар бир умумий ишлаб чиқариш бўлимининг дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнидаги вазифаларидан келиб чиқиб, турлича кўринишда бўлади. корхонада сифат назорати бўлими бўйича моддий харажатлар таркиби бошқа бўлимларга нисбатан кенгроқ бўлиб, бунга асосий сабаб мазкур бўлим дори воситаларини тўлиқ лабораторая ва микробиология таҳлилларини ўтказишга масъул ҳисобланади.

Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари инобатга олинган ҳолда олиб борилган илмий изланишлар натижаси асосида қуйидаги илмий хулосаларга келиш мумкинки, умумий ишлаб чиқариш хўжалиги ва унинг таркибидаги ҳар бир бўлимлар бўйича харажатлар бухгалтерия ҳисобини алоҳида юритиш мақсадида умумий ишлаб чиқариш харажатларини счётлар режаси ҳамда бухгалтерия ёзувларида акс эттириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ. Корхоналарда умумий ишлаб чиқариш харажатларини ҳар бир бўлим бўйича алоҳида ҳисобга олиш бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботлари шаффофлигини оширишга хизмат қилади деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллий ишлаб чиқариш ва саноат кооперациясини янги тизим асосида ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2026 йил 05 февраль. ПФ-17-сон.
2. Ильина А.В., Ильшева Н.Н. Управленческий учет. Учебное пособие. -Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 180 с.
3. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. –Toshkent. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2005 y. -260 b.
4. Махмудов А.Н. Саноат корхоналарида харажатларни маҳсулот таннархига тақсимлаш методологиясини такомиллаштириш истиқболлари. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. -2022, № 3, май-июнь (№ 00059).
5. Боронов, Б. Ф. "Ёғ-мой маҳсулотлари ҳисоби методологиясини такомиллаштириш." Т.: ТМИ, иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация,-244 б (2023).
6. Уразов, К. Б., and Б. Ф. Боронов. "РЕСПУБЛИКА ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИДА ЁҒ-МОЙ МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ТУРЛАРИ." Экономика и социум 6-2 (97) (2022): 714-719.
7. Боронов, Бобур Фарходович. "Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобининг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш." ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 7 OCTOBER 2022 (2022): 202284
8. Farxodovich, Boronov Bobur, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, and Yodgorov Xushvaqt Mansurovich. "Farmasevtika korxonalarida buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari." FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY 1.1 (2025): 282-289

THE ORGANISATION OF INTERNAL AUDIT IN FOREIGN PRIVATE UNIVERSITIES AND THE POSSIBILITIES OF APPLYING THAT EXPERIENCE IN THE NON-STATE HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN

Turmanqulov Norpo‘lat Sa’dullayevich
Researcher, Tashkent State University of Economics

Abstract. The paper generalises the practice of organising internal audit in the private universities of the USA and Canada, in which independence rests on the audit charter and the audit committee, planning on risk assessment, and the value of the work on follow-up and disclosure channels. The possibilities of applying this experience in the non-state higher education institutions of Uzbekistan are examined through the dual-reporting model, three basic documents and a co-sourcing arrangement. The author formulates the five minimum powers of an audit committee without which dual reporting remains nominal and proposes a shared audit committee for small regional institutions.

Keywords: internal audit, non-state higher education institutions, audit charter, audit committee, dual reporting, risk-based planning, follow-up, whistleblowing, co-sourcing, institutional independence.

The market of non-state higher education institutions in Uzbekistan has expanded very rapidly, and this has sharply raised the demand for mechanisms securing institutional trust — trust before the founders and the supervisory board, before students and parents, before partners and regulators. At the beginning of the 2024/2025 academic year 222 higher education organisations were operating in the republic, of which 99 were non-state; they are distributed unevenly, the largest share falling to the city of Tashkent with 60, followed by Bukhara with 8 and the Tashkent region with 6 [5]. Under conditions of rapid growth combined with territorial concentration, the assurance and advisory function of internal audit, resting on institutional independence, becomes more important than the simple function of inspection.

In the practice of the private universities of the USA and Canada internal audit is built upon three pillars: institutional independence through the charter and the audit committee; risk-based annual or multi-year planning; and responsibility for the results of the audit through follow-up and disclosure channels (Table 1). Independence is secured above all by a clear organisational answer to the question to whom internal audit reports: the head of internal audit may work administratively with the executive management but functionally is subordinate to the audit committee or the supervisory board.

Table 1

The practical model of organising internal audit in the universities of the USA and Canada

University	Independence and accountability	Risk-based planning	Coverage, follow-up and disclosure
Brown (USA)	Functional accountability through the audit committee; administrative to the head of finance and administration; separated from operational responsibility	A flexible risk-based audit plan is presented and updated	Compliance, finance, operations, construction, IT, consulting, investigations; corrective measures assessed in later examinations
Pittsburgh (USA)	Support of trust by conveying conclusions to the audit committee and to management	Assistance in identifying, preventing and mitigating risks	Financial, compliance, operational, IT audit; anonymous reporting channel
Western (Canada)	Functional accountability to the audit committee as the source of independence	A four-year plan: risk assessment, scoring, prioritisation, approval by the committee	Coverage of all units; frequency depends on risk, significance and resources; safe disclosure
Kansas (USA)	An assurance and consulting mission with a broad institutional coverage	Risk assessment at the year end; the plan for the following year reviewed by management and the committees	Final report followed by one year of follow-up
Purdue (USA)	Independence through separation from operational authority	The plan is built on a portfolio of institutional risk factors	Adequacy of risk, control and governance; obligation to convey results and act upon them
Ryerson (Canada)	Internal audit linked with the safe-disclosure system	The annual plan covers different types of audit	Written replies of units included in the final report; summary status reports on the implementation of recommendations

Source: generalised by the author on the basis of the internal audit charters and official resources of the universities named [4]. Ryerson University now bears the name Toronto Metropolitan University.

The dual-reporting model protects internal audits from daily operational pressure and reduces the risks of narrowing the audit scope, of softening inconvenient findings and of adjusting the audit plan to particular interests. The most realistic way of adapting it in the non-state higher education institutions of Uzbekistan is to form the institution of an audit committee attached to the founders or the supervisory board not as a formality but as an empowered governing body, which approves the plan of internal audit, hears its reports, controls the

implementation of recommendations, assesses the sufficiency of its resources and takes part in evaluating the work of its head. Otherwise, internal audit remains an ordinary control department of the rectorate and does not function as an institution giving independent assurance.

Putting institutional independence into practice requires a system of normative and internal organisational documents, and it rests on three of them (Table 2).

Table 2

The three documents securing the institutional independence of internal audit

Document	Content	What it guarantees
Internal audit charter	Status, purpose, powers and scope of the service; coverage of financial, IT, compliance and educational processes	Free access to information; objectivity and independence
Regulation of the audit committee	Composition including at least one independent member or a practitioner; periodicity of meetings; the order of hearing the head of internal audit; the closed-session form	Discussion of audit matters without the participation of management
Protocol of accountability and escalation	Presenting significant deficiencies directly to the audit committee; formal recording of interference in audit activity or restriction of its powers	That an inconvenient finding cannot be stopped at the executive level

Source: developed by the author.

A further question in adapting foreign experience is the resources and professional capacity of the service. Forming a full-time internal audit service is not always economically justified for a non-state higher education institution, and a co-sourcing arrangement may therefore be applied: the core team works inside the institution and carries out risk assessment, the formation of the audit plan, the audit of financial processes, the monitoring of recommendations and compliance matters, while external specialists are engaged for information technology audit, cyber-security, construction and investment projects and large procurement. Independence is preserved, since the decision to engage external specialists is approved by the audit committee, the terms of the contract protect the interests of the audit, and the final report is submitted to the committee.

Conclusions

The experience of the private universities of the USA and Canada shows that the independence of internal audit is an organisational construction rather than a declaration: it is produced by the charter, the audit committee, functional accountability, risk-based planning and an obligatory follow-up of results. Its adaptation in the non-state higher education institutions of Uzbekistan is realistic, since it requires organisational decisions rather than large expenditure, and the co-sourcing arrangement removes the resource objection for institutions of modest size.

Scientific-theoretical proposal and recommendation

The adaptation is usually formulated as the adoption of three documents and the creation of a committee, and it is proposed that this be made more precise, because in the foreign model independence rests on a power that the documents by themselves do not confer. In the universities examined the audit committee approves the charter and the annual plan and exercises authority over the appointment and replacement of the head of internal audit. If that last element is absent, the committee hears reports while the executive management continues to control the auditors' appointment, remuneration and career, and dual reporting reproduces administrative subordination in a new form. The criterion of real, as distinct from formal, independence is accordingly proposed as a minimum set of five powers of the audit committee: approval of the internal audit charter; approval of the annual plan; consent to the appointment and to the dismissal of the head of internal audit; approval of the budget and staffing of the service; and at least one closed session a year without the participation of management, at which any restriction of the audit scope is formally recorded. A committee that lacks any one of the five is a consultative body and should not be described as a guarantee of independence.

The second proposal follows from the territorial structure of the sector. Of the 99 non-state institutions, 60 are situated in the city of Tashkent, and the remainder are dispersed in small numbers across the regions, which means that most institutions outside the capital are small. For such an institution a separate audit committee containing an independent member, together with a permanent internal audit service, is neither economically nor practically attainable, and a requirement addressed to all institutions equally will be met on paper. It is proposed that a threshold be established by the number of students and the volume of the budget, below which the requirement is fulfilled through a shared audit committee and a shared internal audit service serving several institutions of the same founder or of a regional association, with the head of the shared service accountable to the shared committee. This preserves the substance of independence — the auditor does not depend on the management of the institution he audits — and in a shared arrangement that independence is in fact greater, since the auditor is not an employee of the institution examined.

Practical recommendations. First, the five powers should be listed in the regulation of the audit committee as a closed list, since a power that is not written down is not exercised in a conflict. Second, the protocol of escalation should require any restriction of the audit scope to be recorded in writing and reported to the committee, because it is at that point, and not in the charter, that independence is actually tested. Third, the threshold for the shared arrangement should be fixed by measurable criteria — the number of students and the volume of the budget — so that the choice between an own and a shared service does not depend on the wish of the institution. Fourth, in co-sourcing the terms of reference and the fee of the external specialist should be approved by the committee and the report submitted to it, since a specialist engaged and paid by the unit whose work is examined is independent only nominally. Fifth, the annual plan should be built on

a documented risk assessment as in the universities examined, and the plan together with the assessment should be preserved, so that the coverage of subsequent years can be compared and units that are never audited become visible.

References

1. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. — Lake Mary (FL): The IIA, 2024.

2. The Institute of Internal Auditors. International Professional Practices Framework (IPPF). — Lake Mary (FL): The IIA, 2017.

3. Ridley J. Cutting Edge Internal Auditing. — Chichester: John Wiley & Sons, 2008.

4. Internal audit charters and official resources of Brown University, the University of Pittsburgh, Western University, the University of Kansas, Purdue University and Ryerson University (Toronto Metropolitan University).

5. Number of higher education organisations at the beginning of the 2024/2025 academic year // National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. — www.stat.uz.

6. Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-677 of 25.02.2021 “On auditing activity” // National Database of Legislation, 25.02.2021, No. 03/21/677/0136.

БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ МЕТОДОЛОГИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Курбанов Зият Ниязович,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
профессори, иқтисодиёт фанлари доктори. ORCID: 0009-0009-2147-0654

Аннотация. Мақолада бухгалтерия ҳисоби методологиясининг назарий масалалари ёритилган. “Метод”, “методика”, “методология” тушунчалари борасидаги иқтисодчиларнинг илмий ишлари таҳлил қилиниб, тегишли хулосалар қилинган. Шунингдек, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари шароитида бухгалтерия ҳисоби методологиясининг ўзига хос жиҳатлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: бухгалтерия ҳисоби, метод, методика, методология, бухгалтерия ҳисоби методологияси, IFRS.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические вопросы методологии бухгалтерского учета. Проанализированы научные работы экономистов, касающиеся понятий «метод», «методология» и «методология», и сделаны соответствующие выводы. Также проанализирован аспекты методологии бухгалтерского учета в контексте международных стандартов финансовой отчетности.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, метод, методика, методология, методология бухгалтерского учета, МСФО.

Аннотатион: This article examines theoretical issues in accounting methodology. It analyzes economists' research on the concepts of "method," "methodology," and "methodology," and draws relevant conclusions. Aspects of accounting methodology in the context of international financial reporting standards are also analyzed.

Keywords: accounting, method, technique, methodology, accounting methodology, IFRS.

Ҳозирги, иқтисодиётни глобаллашуви шароитида бухгалтерия ҳисоби олдида ҳал қилинишини кутаётган муаммолар жуда кўпки, уларнинг ечимини топиш учун чуқур илмий тадқиқотлар олиб боришни зарурият қилиб қўймоқда. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишда бухгалтерия ҳисобининг методологияси ҳам мазмунан ўзгаради, яъни баъзи муаммолар келиб чиқади. Муаммолар бор эканми, соҳани ўрганувчи фан керак. Карл Поперning (2000) фикрича:"Биз қайсидир фанни ўрганмаймиз, биз шу фандаги муаммоларни ўрганамиз" [Карл Попер,1]. Я.В.Соколов ва В.Я.Соколовларнинг (2006) илмий қарашича: барча билимлар қачонки фан (илм) бўлиб шаклланади, қачонки у муҳим, қийин муаммоларга дуч келса [Соколов ва бошқалар, 2].

Бизнинг фикримизча, бухгалтерия ҳисоби фан экан, мавжуд муаммоларнинг илмий ечимини топиш зарур экан, унинг ўзига хос методи, методикаси ва методологияси бор. Мазкур илмий мақолада оддийликдан мураккабликка қараб бориш мақсадида, метод, методика ва методология тушунчаларининг моҳиятига тўхталиб, кейин эса бухгалтерия ҳисобининг методи, методикаси ҳамда методологиясини илмий жиҳатдан ўрганишга ҳаракат қиламиз.

И.Саифназаров, Г.Никитченко, Б.Қосимовларнинг (2004) эътироф этишича: "Метод – бу билимга эришиш усули, маълум тарзда тартибга солинган, онгли ва изчил фаолиятидир. ... Метод билиш усули сифатида сифатида ўрганилаётган объектнинг жиҳатлари ва хоссаларинилабораторияда, илмий тадқиқотчинингт миясида акс эттириш усулидир" [Саифназаров ва бошқалар, 3].

М.Қ.Пардаев (2021) метод ҳусусида қуйидаги фикрларни билдирган: "Метод грекча "methodos" сўзидан олиниб назария, таълимот ва амалиётни ўрганишдаги ёндашув йўлларидир. Кенг маънода метод табиат ва жамиятдаги жараёнлар, предметлар ҳамда воқеликларни тадқиқ этишнинг ўзаро боғланган ялпи усуллари, тамойиллари, шунингдек ҳақиқатни билишнинг воситалари, услублари ва йўллари тушунилади" [Пардаев, 4].

Энди "методика" тушунчасининг моҳиятига тўхталамиз. Бу борада ҳам олимлар фикрларини ўрганамиз ва тегишли хулосалар қиламиз.

М.Д.Шарованинг (1999) эътироф этишича: Методика – бу қўйилган мақсадга эришиш ёки бирор фаолиятга эришишда қўлланиладиган усуллари йиғиндисидир [Шарова, 5].

Л.В.Усатованинг (2008) ёзишича: "Методика – тадқиқотчи томонидан қўлланадиган методлар, усуллар, техник воситалар йиғиндисидир". Ўзининг

фикрини давом эттириб, Л.В.Усатова методика тадқиқотнинг аниқ объектига боғлиқ ҳолда ўзгаради дейди [Усатова, 6].

М.Қ.Пардаевнинг фикрича: “Методика – аналитик тадқиқотни янада мақсадга мувофиқ бажарилишининг усуллари ва қоидалари мажмуидир” [Пардаев, 4].

Энди “методология”, “фан методологияси”, “бухгалтерия ҳисобининг методологияси” тушунчаларнинг моҳиятини ёритишга ҳаракат қиламиз.

И.Саифназаров, Г.Никитченко, Б.Қосимовлар фикрича: “Методология – бу фанда фойдаланиладиган билиш воситалари, усулларининг мажмуи, шунингдек, фаннинг ижодий билиш ва амалий ўзгартириш фаолиятини ташкил этиш воситалари, шарт-шароитлари ва принципларини ўрганувчи илмий-фалсафий билим соҳасидир” ” [Саифназаров ва бошқалар, 3].

В.О.Зарецкийни (2023) такидлашича, “Бухгалтерия ҳисоби методикаси — иқтисодий фаолият жараёнида иқтисодий ресурслар (активлар) ва уларнинг манбалари (ўз капитали ва мажбуриятлари)нинг ҳақиқий қийматини шакллантириш технологиясидаги мантиқий изчил босқичлар ва усулларнинг тартибланган мажмуи.

Бухгалтерия ҳисоби методологияси — бухгалтерия ҳисоби усулларини қуришнинг асосий тамойиллари (қоидалари) мажмуи бўлиб, уларни амалга ошириш унинг асосий мақсадига эришиш ва унга қўйилган вазифаларни ҳал қилишни таъминлайди” [Зарецкий, 7].

Бошқа манбада (2026) келтирилишича, “Бухгалтерия ҳисоби методологияси корхонанинг молиявий операцияларини ҳисобга олиш, таснифлаш, умумлаштириш ва ҳисобот бериш учун қўлланиладиган тизимли тамойиллар, қоидалар ва тартибларни англатади. Ушбу методологиялар молиявий ҳисобот учун асос бўлиб, молиявий маълумотларнинг изчил ва шаффоф тақдим этилишини таъминлайди. Бухгалтерия ҳисобининг самарали методологияси бухгалтерия баланси, даромадлар тўғрисидаги ҳисобот ва пул оқими тўғрисидаги ҳисобот каби ишончли молиявий ҳисоботларни ишлаб чиқариш учун жуда муҳимдир” [8].

Т.Малофеева ва бошқаларнинг (2025) фикрича, “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (IFRS) жорий қилинган кундан бошлаб бутун дунё бўйлаб компанияларнинг бухгалтерия ҳисоби методологияси ва ҳисоботига катта таъсир кўрсатди” [Малофеева ва бошқалар, 9].

Ҳозирги замон фанида кенг қўлланилаётган ва ривожлантирилаётган умумилмий ёндашувлар ва тадқиқот методлари фалсафа билан махсус фанларнинг фундаментал назарий-методологик қоидалари ўртасида ўзига хос оралиқ методология бўлиб хизмат қилади. Махсус фанлар методологияси, масалан, “бухгалтерия ҳисоби методологияси”, “аудит методологияси”, “иқтисодий таҳлил методологияси”, “солиқ ҳисоби методологияси” ва бошқалар.

Махсус фанлар, шу жумладан бухгалтерия ҳисоби методологияси фан олдида турган муаммоларни махсус методлардан фойдаланган ҳолда ечимини топишни ҳал этиш лозим.

Бухгалтерия ҳисоби методологиясини талқин қилиш компаниянинг молиявий ҳисоботларини тайёрлашда қилган асосий тахминлари ва танловларини тушунишни ўз ичига олади. Бухгалтерия ҳисобининг турли услублари, ҳатто бир хил иқтисодий ҳодиса учун ҳам турли хил молиявий натижаларга олиб келиши мумкин. Масалан, компания нақд пул оқимидан қатъи назар, даромадлар олинган пайтдаги даромадларни ва амалга оширилган харажатларни тан оладиган ҳисоб-китоб бухгалтерия ҳисоби ёки нақд пул асосидаги бухгалтерия ўртасида танлов қилиши мумкин. Бу компаниянинг маълум бир даврдаги молиявий кўрсаткичларини янада тўлиқроқ кўриш имконини беради. Қайси махсус бухгалтерия методологиялари қўлланилишини тушуниш (масалан, даромадларни тан олиш, инвентаризацияни баҳолаш ёки харажатларни тан олиш учун) молиявий таҳлил ва компаниялар ўртасидаги таққослаш учун жуда муҳимдир.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари шароитида бухгалтерия ҳисоби методологиясининг ўзига хос жиҳатлари:

МҲХС мақсади: инвесторлар, кредиторлар ва бошқа қародор томонида қабул қилинадиган иқтисодий қарорлар учун фойдали молиявий маълумотларни шакллантириш. Ушбу қарорларни қўллаб-қувватлаш концепцияси барча методологиянинг асосидир.

Активлар ва мажбуриятларни тан олиш ва баҳолаш:

-Тан олиш (Recognition): Фақат келажакда иктисодий фойда (актив учун) ёки манфаатлар чиқиши (мажбурият учун) эҳтимоли бўлганда ва қиймати ишончли баҳоланиши мумкин бўлганда балансга қўйилади.

-Баҳолаш (Measurement): Биринчи навбатда ҳақиқий (адолатли) баҳо (Fair Value) моделга асосланади.

Даромад ва харажатларни тан олиш:

-Даромад тасдиқлаш (Revenue recognition): МҲХС 15 стандарти аник, 5 қадамли назарияни таклиф қилади: 1) Шартнома тан олинди, 2) Ижро обекти аникланди, 3) Нарх белгиланди, 4) Нарх операция обектига тақсимланди, 5) Операция обекти ижро этилганда даромад тан олинди.

-Харажатлар: Даромад пайдо бўлган дақиқада ўзлаштирилади (мослик принципи).

Профессионал мулоҳаза (Professional Judgement): Бу МҲХС методологиясининг ядроси. Ҳар бир стандарт ҳамма ҳолатларни қамраб олмайди. Бухгалтер ва менежер маълумотнинг моддийлиги, активнинг фойдаси, баҳолаш усулини танлашда ўзларининг асосланган профессиональ мулоҳазасини қўллаши керак.

Хулоса:

Юқоридаги фикрларни умумлаштирган ҳолда, методология маълум бир, ҳатто, «энг муҳим метод»га ҳам боғлиқ бўлмайди деган хулосага келишимиз мумкин. «Олим ҳеч қачон фақат битта таълимотга таяниб қолмаслиги, ҳеч қачон ўз тафаккур методларини фақат битта фалсафа билан чеклаб қўймаслиги керак» . Методология алоҳида методларнинг оддий йиғиндиси, уларнинг «механик бирлиги» ҳам эмас. Методология – турли даражадаги

усул ва тамойилларнинг фаолият соҳалари, йўналишлари, эвристик имкониятлар, мазмунлар, тузилмалар ва ҳоказоларнинг мураккаб, яхлит ҳамда мувофиқлаштирилган тизими**.**

Юқоридаги таърифларни илмий таҳлили қилиниши асосида биз “Методика – бу тадқиқотни, ишларни амалга оширишда, мақсадга эришишда қўлланиладиган методлар, усуллар, қоидалар, воситалар мажмуасидир” деган хулосага келдик.

Юқорида “методология” тушунчасига берилган таърифлардан келиб чиққан ҳолда, “Методология – бу объектни илмий билишда қўлланиладиган тамойиллар, усуллар, воситалар ва методлар тизими тўғрисидаги таълимотдир” деган хулосага келдик.

Умумилмий методология тушунчаси тўғрисида билимга эга бўлгандан кейин, махсус фан методологиясининг моҳиятини илмий жиҳатдан ўрганиш мумкин. Хўш, фан методологияси нима?

Бизнинг фикримизча, фан методологияси – бу махсус фанлар бўйича муаммоларни ўрганишда, билишда қўлланиладиган методлар, тамойиллар ва воситалар ҳақидаги таълимотдир.

Бухгалтерия ҳисоби методологияси — бу ташкилот фаолияти тўғрисида молиявий маълумотларни тўплаш, ҳисобга олиш, умумлаштириш ва тақдим этиш учун фойдаланиладиган принциплар, қоидалар, усуллар ва амалиётлар тизими.

МҲХС шароитида бухгалтерия ҳисоби методологияси — бу инвестор учун фойдали ҳақиқий ва объектив молиявий маълумотларни тайёрлаш учун концептуал принциплар ва кенг профессионал мулоҳаза асосида ишлайдиган тизимдир. У ҳисоботнинг шакли эмас, унинг мазмуни ва у қандай қарорларга ёрдам беришига эътибор қаратади. Миллий стандартлардан асосий фарқи — маълумот бериш философиясининг ўзгаришидир.

Юқоридагилар асосида хулоса қиладиган бўлсак, **” Бухгалтерия ҳисоби методологияси – бу бухгалтерия ҳисоби бўйича муаммоларни илмий ўрганишда, билишда, ечимини топишда қўлланиладиган методлар, тамойиллар, воситалар ва амалиётлар тўғрисидаги таълимотдир”.**

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Эволюционная эпистемология и логика социальных наук: Карл Поппер и его критика М.: 2000, 242 стр.

2.Соколов Я. В. Соколов В. Я. История бухгалтерского учета: Учебник. - 2-стр. изд. – М. Финансы и статистика, 2006. – 13 стр.

3. Саифназаров И., Никитченко Г., Қосимов Б. Илмий ижод методологияси. “Янги аср авлоди” 2004 йил 42 б.

4. Пардаев М.Ц. Иктисодий тахлил назарияси. Дарслик. 2-нашр. - Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021.588 бет

5.Шарова М.Д. Психология и логика: учебник. М.:ИНФРА-М, 1999. 200 стр

6.Усатова Л.В. Формирование управленческой и налоговой составляющий учетно-аналитической системы расходов в условиях неопределенности в период автодиссертации д.э.н., Орел, 2008. 48 стр.

7. Зарецкий В.О. Теоретические основы бухгалтерского учета. БГЭУ. 2023.

8. Accounting methodologies. https://diversification.com/term/accounting-methodologies. 5.01.2026.

9.Malofeeva T., Ulyanova N., Dzhioeva AThe Effect of IFRS Adoption on Accounting Quality and Re-porting: Evidence from Russia. Journal of Corporate Finance Research. 19. (2): 96-109. https://doi. org/10.17323/j. jcfr.2073-0438.19.2.2025.96-109/

KORXONALAR MOLIYAVIY FAOLIYATI NATIJALARINI XUSUSIY KAPITAL TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Urazov K.B
SamISI professori, i.f.d.
Umarova Sh.K
SamISI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalar moliyaviy faoliyati natijalarini xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotda aks ettirish masalalari tadqiq etilgan hamda tadqiqot natijasida xususiy kapital harakatini batafsil aks ettiruvchi ichki hisobot shakli ishlab chiqilgan. Mazkur shaklda kapital tarkibiy qismlarining holati va harakati bilan bir qatorda xususiy kapital rentabelligi, aktivlar rentabelligi, xususiy kapital multiplikatori va moliyaviy richag kabi samaradorlik ko‘rsatkichlarini aks ettirish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: xususiy kapital, moliyaviy faoliyat, moliyaviy hisobot, xususiy kapital harakati, ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar, moliyaviy samaradorlik.

Аннотация. В статье исследованы вопросы совершенствования отражения результатов финансовой деятельности предприятий в отчете об изменениях капитала, и в результате исследования разработана форма внутреннего отчета о движении собственного капитала, предусматривающая детальное раскрытие его отдельных компонентов. В предлагаемую форму также включены показатели эффективности, в том числе рентабельность собственного капитала, рентабельность активов, мультипликатор собственного капитала и коэффициент финансового рычага.

Ключевые слова: собственный капитал, финансовая деятельность, финансовая отчетность, движение собственного капитала, уставный капитал, добавочный капитал, резервный капитал, нераспределенная прибыль, целевые поступления, финансовая эффективность.

Abstract. This article examines the improvement of presenting the results of enterprises’ financial activities in the statement of changes in equity, and as a result of the study, an internal report on changes in equity was developed to provide

more detailed information on individual equity components. The proposed report also incorporates financial performance indicators, including return on equity, return on assets, equity multiplier, and financial leverage ratio.

Keywords: equity, financial activities, financial reporting, changes in equity, share capital, additional capital, reserve capital, retained earnings, targeted receipts, financial performance.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar moliyaviy hisobotini takomillashtirish masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Jahon miqyosida moliyaviy hisobotga qo‘yilayotgan talablar tobora oshib borayotgan bir paytda, O‘zbekiston korxonalari ham hisobot sifatini yaxshilash va xususiy kapital harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘liq va aniq aks ettirishga intilmoqda. Mazkur vazifani hal etishda ichki hisobot shakllarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot moliyaviy hisobotning alohida tarkibiy qismi bo‘lib, unda ustav kapitali, qo‘shilgan (emission) kapital, taqsimlanmagan foyda, rezerv fondlari va boshqa komponentlar dinamikasi to‘liq aks etishi lozim. Biroq amaliyotda ushbu hisobot shakli moliyaviy nisbiy ko‘rsatkichlar majmuini o‘z ichiga olmaslik, aksiya boshiga ko‘rsatkichlar aksi yo‘qligi va maqsadli rezervlar tafsilotini taqdim etmaslik nuqsonlariga ega.

Xususiy kapital doimo o‘zgaruvchan moliyaviy kategoriya sifatida kapitalning har bir manbadan qanday tashkil topishi va nimalarga sarflanishi tizimli kuzatilishini taqozo etadi. Quyida korxona xususiy kapitalining kirish-chiqish modelini taqdim etamiz. (1-rasmga qarang)



1-rasm. Xususiy kapital harakatining kirish-chiqish modeli.

Sxemadan ko‘rinib turibdiki, xususiy kapital manbalari ustav kapitali oshirilishi, emission daromad (qo‘shilgan kapital), hisobot davri sof foydasi va qayta baholashdan iborat. Chiqish manbalari esa dividendlar, rezerv fondlariga o‘tkazishlar va zararlardan tashkil topadi. Ushbu harakatni muttasil kuzatish ichki boshqaruv hisobotida mustahkam aks etishi shart. Shu sababdan ham boshqaruv

hisobini yanada takomillashtirish maqsadida aniqlangan kamchiliklar va jahon tajribasi asosida «Xususiy kapital harakati to‘g‘risida ichki hisobot shakli»ni ishlab chiqdik. Bu ichki hisobot shaklini quyidagi olti asosiy bo‘limdan iborat shaklda taqdim etdik (2-rasmga qarang).



2-rasm. Xususiy kapital harakati bo‘yicha ichki hisobot shakli bo‘limlari

Taqdim etilayotgan hisobot shaklining birinchi bo‘limida “Ustav kapitali” ko‘rsatilib, oddiy va imtiyozli aksiyalar alohida ko‘rsatilib, korxona ustavida davlat ulushi, yuridik shaxslar ulushi va jismoniy shaxslar ulushi alohida ko‘rsatilib o‘tiladi. Ikkinchi bo‘limda emission daromad hamda uning ustav kapitalidagi ulushi aks ettiriladi. Uchinchi bo‘lim “Rezerv kapitali” bo‘lib, bunda korxonaning rezerv kapitali tarkibi, ya’ni kayta baholash zahirasi, rezerv kapitali hamda tekinga olingan mol-mulk haqidagi axborotlar ko‘rsatiladi. To‘rtinchi bo‘limda taqsimlanmagan foydaning holati va harakati, sof foydaning rezerv fondlari va dividendlarga taqsimlanishi to‘liq izchillik bilan aks ettiriladi. Beshinchi bo‘limda maqsadli rezerv fondlarining har biri alohida ajratiladi va ularning maqsadi ko‘rsatiladi. Oltinchi bo‘limda korxonaning moliyaviy samaradorlik ko‘rsatgichlari hamda bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan dividend, sof foyda ko‘rsatgichlari aks ettiriladi. Ishlab chiqilgan ichki hisobot shaklini “Shohrud” AJning 2023 yildagi moliyaviy ko‘rsatgichlari asosida shakllantirdik va quyidagi ko‘rinishda ifodaladik. (1-jadvalga qarang)

1-jadval

«Shohrud» AJ xususiy kapital bo‘yicha ichki hisobot shakli (2023 yil uchun)

Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	Yil boshi	Yil oxiri	O‘zgarish
I. USTAV KAPITALI				
1.1. Ro‘yxatdan o‘tgan ustav kapitali (jami)	ming so‘m	3 002 064,00	3 002 064,00	0,00
1.1.1 Davlat ulushi	ming so‘m			
1.1.2 Jismoniy shaxslar ulushi	ming so‘m			
1.1.3 Yuridik shaxslar ulushi	ming so‘m			
1.2. Oddiy aksiyalar soni (nominal 500 so‘m)	dona	5 961 312	5 961 312	0,00
1.3. Imtiyozli aksiyalar soni (nominal 500 so‘m)	dona	42 816	42 816	0,00
II. QO‘ShILGAN (EMISSION) KAPITAL				
2.1. Emission daromad	ming so‘m	7 358,00	7 358,00	0,00
2.2. Emission daromadni ustav kapitaliga nisbati	%	24,51%	24,51%	0,00
III. REZERV KAPITALI (JAMI)				
3.1 Qayta baholash zahirasi	ming so‘m			

3.2. Rezerv kapitali	ming so‘m			
3.2.1 Ustav kapitaliga nisbatan (norma ≥15%)	%	0,00%	0,00%	
3.3 Tekinga olingan mol-mulk	ming so‘m		114 246,00	
3.4. Jami rezerv kapitali	**ming so‘m**	**0,00**	**114 246,00**	
IV. TAQSIMLANMAGAN FOYDA				
4.1. Yil boshi qoldig‘i	ming so‘m	22 678 299,00	22 678 299,00	–
4.2. Hisobot davri sof foydasi	ming so‘m	–	6 028 878,00	6 028 878,00
4.3. Tasdiqlangan dividendlar (hisoblangan)	ming so‘m	–	-4 281,00	-4 281,00
4.4. Majburiy rezerv fondiga o‘tkazildi	ming so‘m	–	- 5 638 818,00	-5 638 818,00
4.5. Maqsadli fondlarga o‘tkazildi	ming so‘m	–	- 1 782 031,00	-1 782 031,00
4.6. Yil oxiri qoldig‘i	**ming so‘m**		**21 282 047,00**	**-1 396 252,00**
V. MAQSADLI TUShUMLAR VA REZERVLAR				
5.1 Grandlar, subsidiyalar	ming so‘m			
5.2 Maqsadli soliq imtiyozlari	ming so‘m			
5.3 Maqsadli fondlar	ming so‘m	2 066 549	2 185 350	118 801
5.3.1. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga	ming so‘m	1 321 155	1 321 155	0,00
5.3.2. Innovasiya va raqamlashtirishga	ming so‘m	745 394	864 195	118 801
5.3.3. Boshqa maqsadlarga	ming so‘m			
VI. MOLIYaVIY SAMARADORLIK KO‘RSATKIChLARI				
6.1. Xususiy kapital rentabelligi (ROE)	%	19,16	16,77	-2,39
6.2. Aktivlar rentabelligi (ROA)	%	6,39	5,01	-1,38
6.3. Xususiy kapital multiplikatori	koef.	3,00	3,35	+0,35
6.4. Moliyaviy rыchag (D/E nisbati)	koef.	1,97	2,35	+0,38
6.5. Kapital o‘zgarishi summasi (netto)	**ming so‘m**			
JAMI XUSUSIY KAPITAL (YIL OXIRI)	**ming so‘m**	**31 472 940**	**35 948 554**	**4 475 614**

Taklif etilayotgan ichki hisobot shaklida korxona ustav kapitali bo‘yicha batafsil axborot berilishi korxona investorlari va boshqaruvchilari uchun qaror qabul qilishda muhim hisoblanadi. Maqsadli (ixtiyoriy) rezerv fondlarini har biri

alohida maqsadi va foydalanish tarixi bilan tafsilotli aks ettirish tizimi rezervlardan samarali foydalanish va ularni tashkil etishda muhim hisoblanadi. Amaldagi shaklda barcha rezervlar umumiy qator sifatida ko‘rsatiladi va bu axborot foydalanuvchilar uchun to‘liq ma’lumotlarni taqdim etmaydi. Hisobot shakli tarkibiga xususiy kapital rentabelligi, xususiy kapital multiplikatori, o‘rtacha bir aksiyaga sof foyda, bir aksiyaga dividend, moliyaviy richag nisbatlarini o‘z ichiga olgan «Moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari» blokini integrasiya qilinishi uning tahliliy ahamiyatini yanada oshiradi. Jahon tajribasida bu ko‘rsatkichlar odatda hisobotning alohida izoh qismida beriladi, bizning ishlab chiqilgan shaklda ular hisobot matnining ajralmas analitik qismiga aylantirilgan.

Taklif etilayotgan ichki hisobot shakli O‘zbekistondagi barcha aksionerlik jamiyatlari va yirik xususiy korxonalar uchun umumlashtirilgan tarzda qo‘llanilishi mumkin. Ushbu shakl milliy standartlarimizning majburiy talablarini buzmasdan, korxona ichki boshqaruv hisoboti sifatida joriy etiladi va moliyaviy shaffoflik, investitsiya jozibadorligi hamda boshqaruv samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1-son BHMS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati”. – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 14.06.2024-yildagi 130-son buyrug‘i. https://lex.uz/mact/-7050497

2. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti. 8-son BHMS “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar”. Toshkent, 2024.

3. IFRS Foundation. IFRS 9 Financial Instruments. London: International Accounting Standards Board.

4. IFRS Foundation. IFRS 7 Financial Instruments: Disclosures. London: International Accounting Standards Board.

5. IFRS Foundation. IFRS 18 Presentation and Disclosure in Financial Statements. London: International Accounting Standards Board.

6. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi: darslik. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 564 b.

7. Karimov A.A. va boshqalar. Buxgalteriya hisobi: darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. – 512 b.

8. Pardaev A.X., Pardaeva Z.A. Boshqaruv hisobi: darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019. – 538 b.

ESG AUDITINI TARTIBGA SOLISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti
e-mail: m.sayfullayev@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur tezisda ESG auditi va uni tartibga solishning normativ-huquqiy asoslari to‘g‘risida keltirib o‘tilgan va mamlakatimiz iqtisodiy sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Kalit so‘zlar: Barqarorlikka oid moliyaviy ma‘lumotlarni oshkor qilishning umumiy talablari, Iqlimga oid oshkor qilish standarti, Barqarorlik Hisoboti Standartlari, GRI standartlari

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) Barqarorlikni oshkor qilish standartlari (S1 va S2) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro asos Xalqaro barqarorlik standartlari kengashi (ISSB)uchun MHXS, ushbu standartlar kompaniyalardan moliyaviy natijalarga ta‘sir qiluvchi barqarorlik bilan bog‘liq xavflar va imkoniyatlarni oshkor qilishni talab qiladi.

MHXS S1: Barqarorlikka oid moliyaviy ma‘lumotlarni oshkor qilishning umumiy talablari va MHXS S2: Iqlimga oid oshkor qilish standartlar 2021-yilda COP26 sammitida paydo bo‘ldi. Ushbu standartlar milliy, sektoral va kompaniya siyosatiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan standartlashtirilgan ko‘rsatmalarga bo‘lgan talabga javob edi. E‘tibor bering, ular ko‘pgina yurisdiktsiyalarda ixtiyoriy bo‘lsa-da, ba‘zi moliyaviy tashkilotlar uchun ushbu standartlar talab qilinishi mumkin. Masalan,Singapur birjasi reglamenti hisobot berish 2025 moliyaviy yildan boshlab talab qilinishini e‘lon qildi.

MHXS S1 va S2 standartlari odatda ochiq ro‘yxatga olingan kompaniyalar va investorlar uchun ma‘lumot nashr etishni istagan yirik xususiy kompaniyalar tomonidan qabul qilinadi. Biroq, boshqa tashkilotlar standartlarni qabul qilishlari mumkin.

2024-yil yanvar oyidan boshlab kuchga kiradi, qabul qilinishi turli yurisdiktsiyalardagi tartibga solish qarorlariga bog‘liq.

MHXS S1 barqarorlikka oid umumiy moliyaviy ma‘lumotlarni qamrab oladi, MHXS S2 esa iqlimga oid ma‘lumotlarni oshkor qilishga qaratilgan.

Xalqaro va alohida mamlakatlar va tartibga soluvchi organlar tomonidan qabul qilinishiga qarab. MHXSga muvofiq, 20 dan ortiq yurisdiktsiyalar ISSAIB standartlaridan foydalanishga qaror qilgan yoki ularni joriy etish choralarini ko‘rmoqda. Bunga Yevropa Ittifoqi ham kiradi, uning CSRD qoidalari MHXS S1 va MHXS S2 ga asoslanadi.

MHXS S1 maqsadi bu korxona va tashkilotlardan umumiy maqsadli moliyaviy hisobotlarning asosiy foydalanuvchilari uchun resurslarni taqdim etish bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilishda foydali bo‘lgan barqarorlik bilan bog‘liq risklar va imkoniyatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qilishni talab qilishdan iborat.

Mazkur standart korxona va tashkilotlardan barqarorlik bilan bog‘liq barcha risklar va qisqa, o‘rta yoki uzoq muddatli istiqbolda korxonaning pul oqimlariga, moliyalashtirishga kirishiga yoki kapital qiymatiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qilishni talab qiladi. Ushbu standart maqsadlari uchun ushbu risklar va imkoniyatlar birgalikda "barqarorlik bilan bog‘liq xavflar va korxona istiqbollariga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlar" deb nomlanadi.

MHXS S2 ning maqsadi korxona va tashkilotlardan umumiy maqsadli moliyaviy hisobotlarning asosiy foydalanuvchilari uchun korxona va tashkilotlarni resurslar bilan ta‘minlash bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilishda foydali bo‘lgan

iqlim bilan bog‘liq risklar va imkoniyatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qilishni talab qilishdan iborat.

Mazkur standart korxona va tashkilotlar faoliyati bilan yuzaga kelgan iqlim bilan bog‘liq xavflarga hamda mavjud iqlim bilan bog‘liq imkoniyatlarga nisbatan qo‘llaniladi. Mazkur xavflar sifatida korxona va tashkilotlar tomonidan iqlim o‘zgarishiga nojo‘ya ta‘sirlari xavfi hamda va iqlim o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatmaydigan iqtisodiyotga o‘tishda yuzaga keladigan moliyaviy va operatsion xavflarni o‘z ichiga oladi.

Eng keng qo‘llaniladigan ixtiyoriy xalqaro tizim bo‘lgan GRI qat‘iy barqarorlik hisobotlari amaliyotini ishlab chiqadigan mustaqil notijorat tashkilotdir.

GRI standartlaridan 100 dan ortiq mamlakatlardagi 14 000 ga yaqin tashkilot foydalanadi. Standartlardan foydalanadigan taniqli tashkilotlar qatoriga Coca Cola HBC (Shveytsariya), Ecopetrol (Kolumbiya), Enel (Italiya), City Developments Limited (Singapur) va JSW Steel (Hindiston) kiradi.

Hisobot muddatlari alohida tashkilotlarga bog‘liq. GRI standartlariga 2021-yilda kiritilgan so‘nggi yirik yangilanish 2023-yilda kuchga kirdi.

Umumjahon, sektor va mavzu standartlarining modulli to‘plami sifatida yaratilgan uchta universal standart barcha tashkilotlarga qo‘llaniladi. Sektor va mavzu standartlari hisobot beruvchi tashkilotning diqqat markazlariga muvofiq tanlanadi.

Mazkur standart global darajada bo‘lib undan foydalanish ixtiyoriy va doimiy hisoblanadi.

B Corp maqomini olish uchun talab qilanadigan B Lab standartlari ham majjud bo‘lib "B Corp" maqomiga erishish biznes olamida orzu qilingan va ushbu sxema boshqa tizimlarga qaraganda iste‘molchilar va investorlar orasida ko‘proq brend e‘tirofiga ega.

B Corp maqomini olish uchun malaka oshirish jarayoni juda qiyin va u"Kamdan-kam hollarda erishish mumkin"birinchi urinishda B ta‘sirini baholash (BIA) bo‘yicha 80+ balllik saralash balli.

Barcha o‘lcham va sohalardagi bizneslar B Lab tomonidan belgilangan standartlarga javob berish orqali sertifikatlangan B korporatsiyalariga aylanishni tanlashlari mumkin. 102 mamlakatda 9500 dan ortiq sertifikatlangan kompaniyalar mavjud bo‘lib, ular kichik va o‘rta korxonalar hamda Patagonia, Ben & Jerrys, TOMS va Moodle kabi iste‘molchilarga yo‘naltirilgan brendlarga alohida e‘tibor qaratadi.

B Corps sertifikatlashni saqlab qolish uchun baholashni har uch yilda bir marta yakunlashi kerak. Kompaniyalar xohlasalar, tez-tez hisobot berishni tanlashlari mumkin.

Nomzodlar o‘z kompaniyalari faoliyati haqida beshta toifadagi, jumladan, boshqaruv, ishchilar, jamiyat, atrof-muhit va mijozlar bo‘yicha bir qator savollarga javob berish orqali BIA ni to‘ldiradilar. Kompaniyalar sertifikatlash uchun 80+ ball (200 balldan) olishlari kerak. Sertifikatlash uchun ham tashkilotning moliyaviy holatiga muvofiq to‘lanadi. Mazkur standart global darajada bo‘lib undan foydalanish ixtiyoriy hisoblanadi.

2025-yil mart oyidan boshlab Buyuk Britaniya hukumati Buyuk Britaniyada ro‘yxatga olingan kompaniyalar uchun majburiy ESG qoidalarini ko‘rib chiqmoqda, ehtimol uning amalga oshirilishiBarqarorlikni oshkor qilish talablari (SDR)2026-yil 1-yanvardan yoki undan keyin boshlanadigan qonunchilik. Ta‘sirlangan tashkilotlar barqarorlikka oid ma‘lumotlarni taqdim etishlari kerak bo‘ladi.

Buyuk Britaniya hukumatining 2030-yilga kelib toza energiyaga sodiqligini hisobga olsak, ushbu barqarorlik talablari oxir-oqibat yirik korporatsiyalardan tashqari ko‘proq tashkilotlarga ham ta‘sir qilishi mumkin.

Buyuk Britaniyada ro‘yxatga olingan yirik kompaniyalar, aktivlarni boshqaruvchilar va moliya institutlari, boshqa bizneslarga ham kengayish imkoniyati mavjud.

Rejalashtirish jarayoni davom etmoqda va hisobot berish 2026-yil 1-choragidan boshlab boshlanishi mumkin.

Buyuk Britaniyaning yaqinlashib kelayotgan Barqarorlik Hisoboti Standartlari (SRS) bilan mos keladigan barqarorlik bilan bog‘liq xavflar va imkoniyatlar. Ushbu standartlar MHXS S1 va MHXS S2 ga asoslanadi.

Buyuk Britaniya, uning yurisdiktsiyasi doirasida faoliyat yurituvchi kompaniyalarga potentsial ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur standart muayyan subyektlar uchun majburiy, kelajakda kengayish rejalashtirilgan.

2026-yilda kuchga kirishi rejalashtirilgan Kaliforniya iqlim qonuni uchta Senat qonun loyihasidan (SB) iborat: Iqlim korporativ ma‘lumotlari bo‘yicha hisobdorlik to‘g‘risidagi qonun (SB 253), Iqlim bilan bog‘liq moliyaviy xavflar to‘g‘risidagi qonun (SB 261) va 2024-yilda qonunga aylangan va SB 253 va SB 261 ga o‘zgartirishlar kiritilgan SB 219.

Kaliforniyaning muhim qonun chiqaruvchi organi AQShdagi eng keng qamrovli bo‘lib, uning ko‘plab eng yirik tashkilotlariga ta‘sir qiladi.

Daromadlari 1 milliard dollardan oshadigan va Kaliforniyada biznes yuritadigan kompaniyalar uglerod chiqindilarini oshkor qilishlari shart (SB 253) va daromadi 500 million dollardan ortiq bo‘lgan bizneslar iqlim bilan bog‘liq moliyaviy xavflar va ularni bartaraf etish choralari haqida ham hisobot berishlari kerak (SB 261).

Tashkilotlar 2025-yilgi ma‘lumotlarga asoslanib, 2026-yildan boshlab 1 va 2-sonli issiqxona gazlari (IG) chiqindilarini oshkor qilishni boshlashlari kerak, 3-sonli chiqindilar bo‘yicha hisobotlar 2027-yildan boshlab taqdim etiladi. Iqlim bilan bog‘liq moliyaviy xavflar bo‘yicha hisobotlar 2026-yildan boshlab, shuningdek, 2025-yilgi ma‘lumotlarga asoslanib taqdim etiladi.

SB 253 ga binoan, kompaniyalar 1, 2 va 3-ko‘lamdagi (yuqori va pastki oqimdagi) issiqxona gazlari chiqindilarini oshkor qilishlari shart. SB 261 sub‘ektlar iqlim bilan bog‘liq moliyaviy xavflar va ularni yumshatish uchun ko‘rilgan har qanday choralar haqida hisobot berishlari shartligini belgilaydi. Masalan, kompaniya o‘rmon yong‘inlari soni va jiddiyligining ortishi operatsiyalar uchun katta xavf tug‘dirayotgani, shuningdek, ular o‘zlarini qanday himoya qilayotgani haqida xabar berishi mumkin. Qonunda hech qanday aniq harakatlar talab qilinmaydi, faqat oshkor qilish kerak. Agar kompaniyada xavfni yumshatish

strategiyasi bo‘lmasa, investorlar, tartibga soluvchilar va jamoatchilik buni ko‘rishlari mumkin bo‘ladi.

Hisobot talablari Kaliforniya shtatida "biznes yurituvchi" kompaniyalarga nisbatan qo‘llaniladi. Bu hali aniqlanmagan, ammo mutaxassislar uning shtatdagi umumiy operatsiyalarga keng qo‘llanilishini taxmin qilmoqdalar.

Ushbu tizim majburiy bo‘lib, SB 253 va SB 261 2023-yil 7-oktabrda qonunga kiritilgan va SB 219 ga muvofiq keyingi tuzatishlar 2024-yil 27-sentabrda kuchga kirgan. Kaliforniya havo resurslari kengashi (CARB) muvofiqlikni nazorat qiladi.

2025-yil yanvar oyida boshlangan ASRS yirik kompaniyalardan iqlim o‘zgarishining moliyaviy oqibatlari va ushbu xavflarga nisbatan o‘z javoblarini oshkor qilishni talab qiladi. 1800 dan ortiq firmalar bunga rioya qilishlari kerak bo‘ladi, bu rejim uch yildan ortiq vaqt ichida kompaniyalar hajmiga qarab bosqichma-bosqich o‘zgartiriladi.

Kompaniyalar iqlim bilan bog‘liq xavflar va imkoniyatlar, shuningdek, boshqaruv, strategiya va iqlim bilan bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlar va maqsadlar, jumladan, 1, 2 va 3-qoidalar bo‘yicha issiqxona gazlari chiqindilari haqida hisobot berishlari shart. Hisobotlar Avstraliya buxgalteriya standartlari kengashi (AASB) tomonidan belgilangan standartlarga asoslanadi. AASB S1 va AASB S2 va yuqorida aytib o‘tilgan MHXS S1 va MHXS S2 bilan moslashtirilgan.

Talablar Avstraliyada faoliyat yuritayotgan kompaniyalarni, jumladan, Korporatsiyalar to‘g‘risidagi qonun (2001) bo‘yicha hisobot berish uchun belgilangan talablarga javob beradigan mahalliy va ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kompaniyalarni qamrab oladi.

Ushbu ESG qoidasi majburiydir va Avstraliya Qimmatli qog‘ozlar va investitsiyalar komissiyasi (ASIC) tomonidan boshqariladi.

7. Yevropa Ittifoqining Korporativ Barqarorlik Hisoboti Direktivasi (CSRD)

Yevropa Ittifoqi GDPRning ma‘lumotlarni himoya qilishga ta‘siri bilan taqqoslaganda, CSRD boshqa davlatlar ESG hisobot talablarini qanday standartlashtirishini allaqachon shakllantirayotgan keng qamrovli majburiy asosdir. CSRD 12 ta Yevropa Barqarorlik Hisoboti Standartlariga (ESRS) asoslangan bo‘lib, ular ESG mavzularining keng doirasini, jumladan, aylanma iqtisodiyot va iqlim o‘zgarishini qamrab oladi.

2025-yil yanvar oyidan boshlab Yevropa Ittifoqining Korporativ barqarorlik hisoboti bo‘yicha ko‘rsatma hisobot talablarini taxminan 50 000 ta kompaniyagacha kengaytiradi. Bu keng qamrovli ESG ma‘lumotlarini oshkor qilishni talab qiladi.

Yevropa Ittifoqidagi yirik kompaniyalar va ro‘yxatga olingan kichik va o‘rta korxonalar, shuningdek, Yevropa Ittifoqida muhim faoliyat yuritadigan ayrim Yevropa Ittifoqiga kirmaydigan kompaniyalar.

CSRD hisoboti 2024 moliyaviy yili uchun 2025-yilda boshlanadi, keyingi yillarda turli o‘lchamdagi kompaniyalar uchun bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

ESG qoidalari va ma‘lumotlarni sanitarizatsiya qilish qanday bir-biriga mos keladi

Barqarorlikka global e‘tibor tobora ortib bormoqda. Ko‘proq qoidalar va ko‘proq asoslar nafaqat o‘lchaydigan narsalarga, balki izingizni qanday kamaytirish mumkinligiga ham ko‘proq e‘tibor qaratishni anglatadi.

Tashkilotingizdagi ma‘lumotlarni qanday boshqarishingiz sizga yordam berishi mumkin ESG samaradorligini oshirish.

Masalan, keraksiz ma‘lumotlarni saqlashni doimiy ravishda kamaytirish orqali ortiqcha, eskirgan va ahamiyatsiz (ROT) ma‘lumotlarni o‘chirish 2 va 3-sonli sohalar chiqindilarini kamaytirishi mumkin, chunki ma‘lumotlar markazlaringizdagi kamroq ma‘lumotlar serverlarni quvvatlantirish va sovutish uchun kamroq energiya talab qiladi.

Yaroqlilik muddati tugagan IT aktivlarini qayta ishlash usulini jismoniy yo‘q qilishdan dasturiy ta‘minotga asoslangan dezinfeksiya va qayta ishlatishga o‘tkazish ham katta ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Noutbuklar va disklarning kamroq yo‘q qilinishi elektron chiqindilarning kamayishi, ifloslanishning kamayishi va kuchliroq deganidir.

Ushbu amaliyotlarni birlashtirish orqali sizning tashkilotingiz nafaqat atrof-muhitga ta‘sirini yaxshilaydi, balki xavfsizlik va ma‘lumotlar qonunchiligiga rioya qilishni ham yaxshilaydi. Raqamli transformatsiya tezlashgani sayin, o‘z ma‘lumotlari va IT aktivlarini proaktiv va barqaror boshqaradigan kompaniyalar ESG mukammalligida yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Crabbe P (1997), “Sustainable Development: Concepts, Measures, Market and Policy Failure at the Open Economy, Industry and Firm Levels”. Ottawa, Institute for Research on Environment and Open Economy, University of Ottawa.
2. Mawhinney M (2008), “Sustainable development: understanding the green debates”, John Wiley & Sons, 15 April 2008, Page 6.
3. Rogers P, Kazi F, Boyd J (2012), “An introduction to sustainable development”, Earthscam, Page 43.
4. Barbier E (2016), “Sustainability and development”, Annual Review of Ressource Economic, vol 8, issue 1, Pages 261-280.
5. Clandine O (2004), “La dynamique de l‘évaluation face au développement durable: Limoges 2003”, l‘Harmattan, Page 30.
6. Rumpala Y (2009), “Mesurer le développement durable pour aider à le réaliser? ”, Histoire et Mesure XXIV 1, Pages 211-246.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТИ АУДИТИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

Ибрагимов Нодирбек Баходир ўғли
мустақил изланувчи, Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Тел.: +998 93-304-07-00 E-mail: nodirbek.ibragimov.96@mail.ru

Аннотация. Тезисда тижорат банклари молиявий ҳисоботи мустақил аудитининг назарий-методологик асослари — Аудитнинг халқаро стандартлари (ISA) тизими, аудит жараёни босқичлари, аудит риски модели ва жиддийлик тушунчаси кўриб чиқилади. Банк аудитида рискка йўналтирилган ёндашувнинг устуворлиги асосланади.

Калит сўзлар: банк аудити, ISA, аудит риски модели, жиддийлик, рискка йўналтирилган аудит, молиявий ҳисобот.

Тижорат банклари молиявий ҳисоботи мустақил аудити — банк ҳисоботи барча муҳим жиҳатлари бўйича Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (IFRS) талабларига мувофиқ ҳаққоний акс эттирилганлиги юзасидан мустақил аудитор томонидан Аудитнинг халқаро стандартлари (ISA) асосида холис фикр билдиришга қаратилган текширув жараёнидир. Унинг назарий пойдеворини аудит постулатлари ва рискка йўналтирилган аудит фалсафаси ташкил этади.

Замонавий банк аудити методологиясининг асоси сифатида Аудитнинг халқаро стандартлари тизими хизмат қилади. Ушбу стандартлар бир неча оилага бўлинади: умумий тамойиллар ва масъулиятлар (ISA 200), режалаштириш ва рискни баҳолаш (ISA 300, 315, 320), баҳоланган рискларга жавоб (ISA 330, 500, 530, 540), хулоса ва ҳисобот бериш (ISA 700, 701, 705) стандартлари. Банк аудитида айниқса ISA 315 (рискни баҳолаш), ISA 540 (баҳоланган қийматлар) ва ISA 701 (асосий аудит масалалари) муҳим аҳамият касб этади.

Аудит жараёни изчил босқичлардан иборат: топшириқни қабул қилиш ва режалаштириш, субъект ва унинг муҳитини ўрганиш, муҳим хато рискларини баҳолаш, рискка жавобан аудиторлик амалларини бажариш, аудиторлик далилларини йиғиш ва баҳолаш ҳамда аудиторлик хулосасини шакллантириш. Банкларда ушбу босқичлар банк фаолиятининг мураккаблиги ва рискларнинг хилма-хиллигини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади.

Аудит рискини баҳолашнинг назарий ўзаги — аудит риски модели бўлиб, унга кўра аудит риски (AR) ички хатар (IR), назорат хатари (CR) ва аниқлаш хатари (DR) кўпайтмасига тенг: **AR = IR × CR × DR**. Аудитор мақбул аудит риски даражасини белгилаб, ички ва назорат хатарини баҳолайди ҳамда шу асосда зарур аниқлаш хатари даражасини ва субстантив амаллар ҳажмини аниқлайди. Банкларда кредит риски ва кутилаётган кредит йўқотишлари бўйича ички хатар юқори бўлгани боис, бу соҳаларда текширув кенгайтирилади.

Жиддийлик тушунчаси аудит методологиясининг муҳим унсуридир. ISA 320 талабларига кўра, аудитор молиявий ҳисобот фойдаланувчиларининг

иқтисодий қарорларига таъсир кўрсатиши мумкин бўлган хато даражасини белгилайди. Банк аудитида жиддийлик базаси сифатида жами активлар ва хусусий капитал кўрсаткичлари энг мақбул ҳисобланади, чунки улар банк фаолиятининг барқарор ва тизимли аҳамиятга эга кўрсаткичларидир.

Банк аудитининг ўзига хослиги унинг рискка йўналтирилганлигида намоён бўлади: аудитор банк фаолиятининг кредит, ликвидлик, бозор ва операцион рискларини яхлит тизим сифатида баҳолаб, текширув ресурсларини энг юқори рискли соҳаларга йўналтиради. Бундай ёндашув аудит рискини камайтириш ва аудиторлик хулосаси ишончлилигини ошириш имконини беради.

Хулоса қилиб айтганда, тижорат банклари аудитининг назарий-методологик асослари ISA тизими, аудит жараёни босқичлари, аудит риски модели ва жиддийлик тушунчасининг банк хусусиятларига мослаштирилган уйғунлигидан иборат. Ушбу асосларни миллий банк тизими шароитига изчил татбиқ этиш банк аудити сифатини халқаро даражага яқинлаштиришнинг зарурий шартидир.

Таклиф ва тавсиялар:

1.Тижорат банклари молиявий ҳисоботи аудитини ISA тизими, аудит жараёни босқичлари, аудит риски модели (AR = IR × CR × DR) ва жиддийлик тушунчасининг банк хусусиятларига мослаштирилган яхлит методологияси асосида ташкил этиш тавсия этилади.

2. Банк аудитида рискка йўналтирилган ёндашувни устувор қилиб, текширув ресурсларини кредит, ликвидлик, бозор ва операцион рисклари энг юқори бўлган соҳаларга, хусусан кредит риски ва кутилаётган кредит йўқотишлари (ECL) ҳисоб-китобларига йўналтириш тавсия этилади.

3. Банк аудитида жиддийлик базаси сифатида жами активлар ва хусусий капитал кўрсаткичларидан фойдаланиш ҳамда ISA 315, 540 ва 701 талабларини миллий банк тизими шароитига изчил татбиқ этиш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни, 2021 йил 25 февраль, ЎРҚ-677-сон. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. – www.lex.uz (мурожаат санаси: 2026 й.).

2. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. – New York: IFAC, 2023.

3. Basel Committee on Banking Supervision. Core Principles for Effective Banking Supervision. – Basel: Bank for International Settlements, 2024.

4. Ибрагимов А.К., Умаров З.А., Хатамов К.Р., Ризаев Н.Қ. Тижорат банкларида молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. – Тошкент: «Иқтисод-молия», 2020.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUB’YEKTLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVIY HISOBOTNI MILLIY HAMDA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLASHTIRISH ZARURATI.

O‘raqov Rustam Fayzullayevich
Lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni: Dotsent v.b.
Ish joyi: Toshkent davlat transport unversiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni milliy hamda xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga transformatsiya qilish jarayonining hozirgi holati, milliy standartlar va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) o‘rtasidagi metodologik farqlar, ularning xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchliligi va xalqaro darajada taqqoslanuvchanligini ta’minlashda MHXSning ahamiyati asoslangan. Shuningdek, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarda MHXSga o‘tish jarayonida uchrayotgan tashkiliy, uslubiy, kadrlar, axborot texnologiyalari va baholash bilan bog‘liq muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, BHMS, MHXS, IFRS, hisob siyosati, transformatsiya, aktivlar, majburiyatlar, haqqoniy qiymat, shaffoflik, investitsion jozibadorlik.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, kapital va investitsiyalarning mamlakatlararo harakatining jadallashuvi xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar tomonidan shakllantiriladigan moliyaviy axborotlarning yagona tamoyillar asosida tayyorlanishini taqozo etmoqda. Ayniqsa, korxonalar faoliyatining xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvi, xorijiy investorlarni jalb qilish, xalqaro moliya institutlari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va kapital bozorlarida ishtirok etishda ishonchli va taqqoslanuvchan moliyaviy hisobot alohida ahamiyat kasb etadi.

Buxgalteriya hisobi xo‘jalik yurituvchi sub’yekt boshqaruv tizimining muhim axborot manbalaridan biri bo‘lib, uning asosiy vazifasi korxonaning aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari, xarajatlari va moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlarni shakllantirishdan iborat. Bunday axborot nafaqat korxona rahbariyati, balki mulkdorlar, investorlar, kreditorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Xususan, 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qaror asosida aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik

shaxslarning MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritishi va moliyaviy hisobot tayyorlashi bo‘yicha yangi bosqich boshlandi.

Mazkur jarayon moliyaviy axborot sifatini oshirish bilan bir qatorda, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsion jozibadorligi va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati

Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi foydalanuvchilarga iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ishonchli, xolis va o‘z vaqtida axborot taqdim etishdan iborat. Shu sababli zamonaviy sharoitda buxgalteriya hisobi faqat soliqqa tortish yoki davlat organlariga hisobot topshirish vositasi sifatida emas, balki korxonaning iqtisodiy holatini aks ettiruvchi muhim axborot tizimi sifatida qaralishi lozim.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xalqaro miqyosda korxonalarning moliyaviy holati va faoliyat natijalari to‘g‘risidagi axborotni shakllantirishning umume’tirof etilgan konseptual asosini tashkil qiladi. Ularni qo‘llash natijasida turli davlatlarda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarini yagona mezonlar asosida tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

O‘zbekistonda ayrim toifadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot tayyorlash majburiy etib belgilangan. Boshqa korxonalar esa ixtiyoriy ravishda MHXSni qo‘llashi mumkin. IFRS Foundation ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda qo‘llash uchun tan olingan standartlar IASB tomonidan chiqarilgan MHXS standartlariga mos keladi.

MHXSning joriy etilishi quyidagi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi:

- moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish;
- korxonalar faoliyatini xalqaro mezonlar asosida baholash;
- xorijiy investorlarning moliyaviy axborotga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash;
- xalqaro kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- korxona kapitalining qiymatini realroq aniqlash;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun sifatli axborot bazasini shakllantirish;
- korxonalar o‘rtasidagi moliyaviy ko‘rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta’minlash.

Demak, buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish faqat hisob yuritish texnikasidagi o‘zgarish emas, balki xo‘jalik yurituvchi sub’yekt boshqaruvi, korporativ boshqaruv va moliyaviy strategiyani sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadigan jarayon hisoblanadi.

Milliy va xalqaro standartlarning o‘zaro bog‘liqligi

O‘zbekiston Respublikasida MHXSni joriy etish bilan bir qatorda buxgalteriya hisobining milliy standartlarini takomillashtirish jarayoni ham olib borilmoqda. Bunda milliy standartlarni xalqaro yondashuvlarga bosqichma-bosqich yaqinlashtirish muhim hisoblanadi.

Milliy va xalqaro standartlarning umumiy maqsadi xo‘jalik yurituvchi sub’yekt faoliyati to‘g‘risida ishonchli axborot shakllantirishdan iborat bo‘lsa-da, ular o‘rtasida ayrim metodologik farqlar mavjud.

1-jadval.

Buxgalteriya hisobi milliy standartlar va xalqaro standartlar farqi.

Taqqoslash mezoni	Milliy standartlar	MHXS
Asosiy yondashuv	Qoidalar va belgilangan tartiblarga ko‘proq asoslanadi	Tamoyillarga asoslangan
Moliyaviy axborot maqsadi	Milliy foydalanuvchilar va tartibga soluvchi organlarga yo‘naltirilgan	Investorlar, kreditorlar va keng doiradagi foydalanuvchilarga yo‘naltirilgan
Aktivlarni baholash	Tarixiy qiymatga kengroq tayanadi	Haqqoniy qiymat yondashuvi keng qo‘llanadi
Professional mulohaza	Nisbatan cheklangan	Muhim ahamiyatga ega
Axborotni ochib berish	Nisbatan qisqaroq	Keng qamrovli izoh va ochib berishlar talab etiladi
Hisobotlar taqqoslanuvchanligi	Asosan milliy doirada	Xalqaro miqyosda
Aktivlarning qadrsizlanishi	Alohida milliy qoidalar	Kelajakdagi pul oqimlari asosida chuqurroq baholash
Moliyaviy instrumentlar	Soddalashtirilgan yondashuv	Murakkab tasniflash va baholash tizimi

MHXSning asosiy xususiyatlaridan biri iqtisodiy operatsiyalarni faqat ularning huquqiy shakliga emas, balki iqtisodiy mazmuniga qarab aks ettirish tamoyilidir. Bu esa korxonaning haqiqiy iqtisodiy holatini moliyaviy hisobotlarda to‘laqonli aks ettirish imkoniyatini beradi.

Masalan, asosiy vositalarni hisobga olishda ularning boshlang‘ich qiymatini aniqlash, amortizatsiya usulini belgilash, foydali xizmat muddatini qayta ko‘rib chiqish, qoldiq qiymatini aniqlash va qayta baholash masalalarida professional mulohaza katta ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda 5-son BHMS “Asosiy vositalar”, 7-son BHMS “Nomoddiy aktivlar” kabi milliy standartlarning yangi tahrirlari xalqaro standartlar bilan yaqinlashuv tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Bu milliy hisob tizimini MHXSga bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirish uchun metodologik zamin yaratadi.

MHXSga o‘tish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini xalqaro standartlarga o‘tkazish murakkab jarayon bo‘lib, bir qator tashkiliy va metodologik muammolarni yuzaga chiqaradi.

1. Malakali mutaxassislar yetishmasligi

MHXSning ko‘plab qoidalari professional mulohaza va chuqur iqtisodiy bilimlarni talab qiladi. Korxona buxgalteri nafaqat hisobvaraqlarda operatsiyalarni aks ettirishni, balki aktivlar va majburiyatlarni baholash, pul oqimlarini prognoz qilish, diskontlash, ehtimoliy zararlarni aniqlash va moliyaviy instrumentlarni tasniflash kabi murakkab masalalarni ham tushunishi zarur. Shuning uchun MHXS bo‘yicha professional tayyorgarlikka ega buxgalterlar, auditorlar va moliyaviy tahlilchilar sonini ko‘paytirish muhimdir.

2. Milliy hisob va MHXS o‘rtasidagi metodologik farqlar

Amaliyotda ko‘pchilik korxonalar dastlab hisobni milliy standartlar asosida yuritib, hisobot davri yakunida ma’lumotlarni MHXS formatiga transformatsiya qiladi. Mazkur holat qo‘shimcha mehnat va vaqt sarfini yuzaga keltiradi. Transformatsiya jarayonida aktivlar va majburiyatlarning qiymati, amortizatsiya, zaxiralar, kechiktirilgan soliqlar, ijara operatsiyalari, moliyaviy instrumentlar va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha tuzatishlar amalga oshirilishi mumkin.

3. Aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash

MHXSda haqqoniy qiymatdan foydalanish muhim o‘rin tutadi, lekin rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ayrim aktivlar uchun faol bozor mavjud emasligi ularning haqqoniy qiymatini aniqlashni murakkablashtiradi. Bunday sharoitda mustaqil baholovchilar xizmatidan foydalanish, pul oqimlarini prognoz qilish yoki baholash modellarini qo‘llash talab etiladi. Bu esa korxona uchun qo‘shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi.

4. Axborot tizimlarining yetarli darajada moslashmaganligi

Ko‘plab xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarda foydalanilayotgan buxgalteriya dasturlari milliy hisob tizimi va soliq hisobiga yo‘naltirilgan. MHXS asosidagi hisobot uchun esa qo‘shimcha analitik ma’lumotlar talab qilinadi. Shuning uchun korxonalarda ERP, buxgalteriya va boshqaruv axborot tizimlarini MHXS talablariga moslashtirish zarur.

5. Hisob siyosatini takomillashtirish zarurati

MHXSga muvofiq hisob yuritish korxona hisob siyosatini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Chunki MHXS ko‘plab hollarda korxonaga muayyan usullar orasidan tanlov qilish va professional mulohaza yuritish imkonini beradi.

Hisob siyosatida asosiy vositalar, zaxiralar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy instrumentlar, tushum, ijara, baholash zaxiralari va boshqa muhim obyektlar bo‘yicha aniq yondashuvlar belgilanishi kerak.

Milliy va xalqaro standartlarni uyg‘unlashtirishni takomillashtirish yo‘nalishlari

Tadqiqot natijalari asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi va hisobotini milliy hamda xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, BHMSlarni MHXS talablariga bosqichma-bosqich yanada yaqinlashtirish zarur. Bunda iqtisodiy operatsiyalarni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra tan olish, aktivlarni baholash, qadrsizlanish va moliyaviy instrumentlar kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor berish kerak.

Ikkinchidan, MHXS bo‘yicha professional kadrlar tayyorlash va ularning muntazam malakasini oshirish tizimini kengaytirish maqsadga muvofiq. Oliy ta’lim tashkilotlarining buxgalteriya hisobi, audit va moliya yo‘nalishlarida xalqaro standartlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish lozim.

Uchinchidan, yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarda alohida MHXS bo‘linmasi yoki transformatsiya guruhlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, korxonalarda buxgalteriya, soliq, boshqaruv va MHXS hisobini yagona raqamli platformada integratsiya qilish kerak. Bunda birlamchi

ma’lumot bir marta kiritilib, turli maqsadlar uchun avtomatik qayta ishlanishi ta’minlanadi.

Beshinchidan, MHXS bo‘yicha korxona hisob siyosatini shakllantirish uchun tarmoqlar kesimida namunaviy metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Oltinchidan, asosiy vositalar, investitsion mulk, biologik aktivlar va moliyaviy instrumentlarning haqqoniy qiymatini aniqlash bo‘yicha milliy baholash infratuzilmasini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Yettinchidan, MHXS asosida tayyorlangan hisobotlarni ichki va tashqi auditdan o‘tkazish mexanizmini rivojlantirish hisob ma’lumotlarining ishonchliligini oshiradi.

Shu asosda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishning quyidagi modelini taklif etish mumkin:

BHMS asosidagi dastlabki hisob → farqlarni aniqlash → MHXS tuzatishlari → qayta tasniflash va baholash → MHXS hisob siyosati → moliyaviy hisobot → ichki nazorat → mustaqil audit → foydalanuvchilarga shaffof axborot.

Mazkur model korxonalarda xalqaro standartlarga o‘tishni bir martalik transformatsiya sifatida emas, balki uzluksiz va integratsiyalashgan jarayon sifatida tashkil qilish imkonini beradi.

Xulosa

O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon xo‘jalik tizimiga tobora faol integratsiyalashib borishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish natijasida korxonalarning moliyaviy faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarning shaffofligi, ishonchliligi va taqqoslanuvchanligi ortadi. Bu esa, o‘z navbatida, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro moliya bozorlariga chiqish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va iqtisodiy qarorlar sifatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, MHXSga o‘tish jarayonida professional kadrlarning yetishmasligi, milliy va xalqaro standartlar o‘rtasidagi ayrim metodologik farqlar, haqqoniy qiymatni aniqlashdagi qiyinchiliklar, axborot tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va MHXSga mos hisob siyosatini shakllantirish bilan bog‘liq muammolar mavjud.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun milliy standartlarni MHXSga izchil yaqinlashtirish, buxgalterlarning professional malakasini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, korxonalarda MHXS bo‘yicha hisob siyosatini takomillashtirish va ichki nazorat tizimini kuchaytirish zarur.

Fikrimizcha, istiqbolda milliy va xalqaro buxgalteriya standartlari o‘rtasidagi farqlarni imkon qadar kamaytirish xo‘jalik yurituvchi subyektlarda yagona axborot makonini shakllantirishga xizmat qiladi. Buning natijasida buxgalteriya hisobi nafaqat moliyaviy operatsiyalarni qayd etish tizimi, balki strategik boshqaruv va investitsion qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi samarali iqtisodiy mexanizmga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-404-son, 2016-yil 13-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son qarori, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va ularga tushuntirishlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida tan olish tartibiga oid hujjatlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 5-son milliy standarti “Asosiy vositalar”.
5. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 7-son milliy standarti “Nomoddiy aktivlar”.
6. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-son milliy standarti “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”.
7. IFRS Foundation. IFRS Accounting Standards. Conceptual Framework for Financial Reporting. London: IFRS Foundation.

APPLICATION OF INTERNATIONAL STANDARDS ON AUDITING IN ASSESSING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN

Kamola Nazarova
Master’s student “Silk Road” International University of Tourism and Cultural Heritage Tel.: +998 88 223 02 15 E-mail: nazarovakamola609@gmail.com

Abstract. The service sector has also seen a significant development in Uzbekistan, with its share in GDP increasing from 46.2% in 2023 to 47.4% in 2024, and the country continues its journey of transitioning accounting and auditing practice to International Financial Reporting Standards (IFRS) and International Standards on Auditing (ISA). This article presents the economic efficiency approach of service enterprises from an ISA perspective and presents an illustrative example of tourism and hospitality services. Based on the data from official statistics of the Republic of Uzbekistan, assessments of the national accounting and auditing framework by the World Bank, and the texts of the relevant ISA, the article is aimed at the creation of a conceptual and methodological framework of the relationship between the ISA-based analytical procedures and a set of indicators of economic efficiency, as well as to discuss this framework in the context of verified statistics on the structure and dynamics of the service sector in the Republic of Uzbekistan. The article ends with suggestions for

improving the correlation of ISA-based audit with efficiency assessment in service industry.

Keywords: International Standards on Auditing, ISA, audit, economic efficiency, service enterprises, tourism and hospitality, Uzbekistan.

Introduction

One of the fastest growing sectors of Uzbekistan's economy is the service sector. The role of services in the GDP increased from 46.2% in 2023 to 47.4% in 2024, while the share of industry rose, and the agriculture sector became less significant [5], [9]. The service sector has been a government priority since Presidential Resolution No. PP-5113 of 11 May 2021 [4]. Uzbekistan has also been transitioning accounting and audit to international standards: joint-stock companies, banks, insurers and major taxpayers were required to use IFRS from 1 January 2021, and since January 2025 the national system has been under joint World Bank-Ministry of Economy and Finance assessment (ROSC) for compliance with IFRS and ISA [7], [8].

However, assessment of economic efficiency in service enterprises remains limited by differences in accounting practice, weak information quality and limited internationalization of auditing approaches. This study examines the contribution of International Standards on Auditing to a more objective evaluation of economic efficiency of service enterprises in Uzbekistan, guided by three questions: (RQ1) What role do ISA play in assessing economic efficiency of service enterprises? (RQ2) What efficiency measures are feasible in an ISA structure? (RQ3) How does the existing structure and dynamics of Uzbekistan's service sector suggest?

Literature Review

The framework for verifying financial information before assessing efficiency is set by International Standards on Auditing (ISA), covering the auditor's overall objectives (ISA 200), risk identification and assessment (ISA 315), responses to assessed risks (ISA 330), audit evidence (ISA 500), analytical procedures (ISA 520), and audit opinion (ISA 700) [1], [2]. This applies particularly to ISA 520, since analytical procedures allow auditors to analyze performance indicators directly rather than verifying each transaction [2].

In service enterprises, economic efficiency can be measured much as in other industries: profitability, revenue growth, labour productivity, asset efficiency, cost efficiency and liquidity [10]. The framework proposed here links these strands as a chain: ISA-based audit increases the reliability of financial information, enabling meaningful analytical procedures, which support structured efficiency assessment, the identification of weaknesses, and ultimately performance recommendations. This chain is especially relevant for a transition economy, since World Bank assessments have repeatedly found gaps between national practice and IFRS/ISA benchmarks that limit the reliability of enterprises' financial information [7].

Methodology

Study design involves qualitative-analytical approach, which includes a review of the most relevant provisions of the ISA for the assessment of performance in the service sector, and a structured framework of indicators based

on verified secondary data on the service sector of Uzbekistan. This is the design for the current stage of research which is related to the framework building phase, while an empirical phase to which the framework would be applied to enterprise level financial data from a defined sample of tourism and hospitality enterprises is suggested for future research.

The data sources are ISA 200, 315, 330, 500, 520 and 700 [1], [2]; Statistics Agency publications on the service sector for January-December 2024 [5] and on foreign tourist arrivals [6]; the World Bank's ROSC report on Uzbekistan's accounting and auditing framework [7], updated for 2025 [8]; and the relevant presidential decrees on IFRS transition and service-sector development [3], [4]. Table 1 lists the efficiency indicators applied in this framework.

Table 1.

Proposed economic efficiency indicators for service enterprises

Indicator	Formula	Purpose
Revenue growth	(Revenue t - Revenue t-1) / Revenue t-1	Growth assessment
Return on assets (ROA)	Net profit / Total assets	Asset efficiency
Return on equity (ROE)	Net profit / Equity	Return on capital
Profit margin	Net profit / Revenue	Profitability
Labour productivity	Revenue / Number of employees	Labour efficiency
Cost efficiency	Revenue / Operating costs	Cost management
Current ratio	Current assets / Current liabilities	Short-term stability

Results and Discussion

Official statistics reveal a sector that is well adapted to the proposed framework. The volume of market services in Uzbekistan grew from 220.0 trillion soums in 2020 to 818.4 trillion soums in 2024, which was 12.9% higher than in 2020, while the volume per capita of services amounted to 22,017.6 thousand soums, increasing by 10.6% [5]. A total of 310,834 enterprises and organizations operated in the service sector as of 1 January 2025, which accounted for 73.2% of all operating business entities in the country (65.1% in 2021), and small businesses provided 57.0% of the volume of services provided in 2024 [5]. In the sector, the sub-sector most closely related to tourism and hospitality was accommodation and food services, having a volume of 183.3 trillion soums in 2024, representing 22.4% of the total service volume in the sector, which has increased by 10.6% compared to 2023, and food and beverage services accounted for 96.0% of this sub-sector's volume [5]. This increase has been matched by a significant increase in inbound tourism, as foreign tourist numbers rose to nearly 7.3 million in the first 11 months of 2024, a 19% increase from the same period in 2023 [6].

Table 2 shows the relationship between the ISA provisions above and how they are applied in this efficiency assessment framework.

Table 2.

Application of International Standards on Auditing in efficiency assessment

ISA	Application in audit	Contribution to efficiency assessment
ISA 200	Overall audit objectives	Reliability of the overall assessment
ISA 315	Risk identification and assessment	Identifies risks affecting reported indicators
ISA 330	Response to assessed risk	Verifies indicators identified as high-risk
ISA 500	Audit evidence	Underpins reliability of financial indicators
ISA 520	Analytical procedures	Analysis of profitability, cost and productivity
ISA 700	Opinion and reporting	Communicates reliability of findings

These results suggest two implications. First, the size and growth of the accommodation and food services segment (RQ3) makes it difficult to assess its reliability of financial information if it is not reliable on a segment basis, since this segment has 22.4% weight in the total value of services provided; the application of analytical procedures in ISA 520, applied consistently across the enterprises of this segment would have a disproportionately large impact on the reliability of overall efficiency indicators in the sector. Second, the fact that small businesses generate 57.0% of service-sector volume, combined with the ongoing ROSC assessment identifying gaps between national and international audit practice [7], [8], means that the framework in Table 1 is only as reliable as the audit coverage auditors are willing to apply to smaller, often less formally audited enterprises - precisely the population least covered by mandatory IFRS/ISA transition requirements, which currently target joint-stock companies, banks, insurers and major taxpayers [3]. This mismatch between the ISA-based auditing coverage and the sector's service activities, where the bulk of services are rendered by small businesses, is the main practical limitation found in this study, in relation to both RQ1 and RQ2: ISA provisions, particularly ISA 520, are suitable for analysis of efficiency, but the scope of the mandatory ISA-based auditing is not yet adequate for the segment of the service sector that is most in need of it.

Conclusion and Recommendations

ISA helps to deliver not only assurance on the reliability of financial statements, but also a framework of analysis for assessing the efficiency of economic processes in service enterprises. The evidence presented here reveals a service sector - and tourism and hospitality in particular - that is large, rapidly expanding and growing more significant to the economy, but also one dominated by small service firms that are not currently subject to mandatory IFRS/ISA transition.

Scientific-theoretical proposal: ISA-based audit increases the reliability of financial information, which enables meaningful analytical procedures, which in turn support structured efficiency assessment, the identification of specific weaknesses, and ultimately performance recommendations. This chain is particularly relevant for a transition economy, given the gaps between national practice and IFRS/ISA benchmarks repeatedly identified by the World Bank [7].

Recommendations: Based on the findings, four recommendations are made: (1) extend ISA-based analytical procedures, even in a simplified proportionate form, to larger enterprises within the accommodation and food services segment, given its 22.4% weight in total service volume; (2) use the ongoing World Bank ROSC assessment process as a vehicle for identifying sector-specific gaps in ISA application within services, rather than only at the level of the whole economy; (3) develop standardized efficiency indicators for service enterprises, coordinated between professional audit bodies and the Statistics Agency, so that indicators such as those in Table 1 can be populated consistently across enterprises; and (4) support digital audit tools that make ISA 520 analytical procedures feasible for smaller service enterprises, which currently account for the majority of sector output but the least formal audit coverage. The main limitation of this study is its conceptual and framework-building character; future research should apply the indicators in Table 1 to audited financial data from a defined sample of tourism and hospitality enterprises.

References

[1] International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. New York: IFAC.

[2] IFAC. International Standards on Auditing: ISA 200, ISA 315 (Revised), ISA 330, ISA 500, ISA 520, ISA 700 (Revised).

[3] President of the Republic of Uzbekistan. Decree "On additional measures for the transition to international financial reporting standards," 24 February 2020.

[4] President of the Republic of Uzbekistan. Resolution No. PP-5113, "On measures to accelerate the development of the service sector," 11 May 2021.

[5] Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. Main Indicators of the Service Sector in the Republic of Uzbekistan, January–December 2024. stat.uz.

[6] Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan, as reported in: "Foreign tourist arrivals in Uzbekistan surpass 7 million in 2024," Kun.uz, 24 December 2024.

[7] World Bank. The Republic of Uzbekistan: Accounting and Auditing (Report on the Observance of Standards and Codes). Washington, DC: World Bank, 2008.

[8] Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. "Uzbekistan’s accounting and auditing sectors are being assessed for compliance with international standards," gov.uz, 27 January 2025.

[9] Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan, as reported in: "Uzbekistan’s GDP reached $115 billion in 2024," Kun.uz, 10 February 2025.

[10] Coelli, T. J., Rao, D. S. P., o‘Donnell, C. J., & Battese, G. E. An Introduction to Efficiency and Productivity Analysis. New York: Springer.

АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИ МҲХС АСОСИДА ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ ВА ОБЪЕКТИВ ЗАРУРИЯТИ

Лутфуллаев Сардорбек Уткур ўғли
мустақил изланувчи, Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Тел.: +998 98 123 23 23 E-mail: sardorlutfullayev07@gmail.com

Аннотация. Тезисда акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботларни МҲХС асосида шакллантиришнинг иқтисодий моҳияти очиб берилган. Мулкчилик ва бошқарувнинг ажралиши, ахборот ассимметрияси ҳамда чекланган жавобгарлик тамойили ҳисобот сифатига юқори талаблар қўйилишининг объектив асослари сифатида таҳлил қилинган. МҲХС Концептуал асосларидаги олти сифат хусусияти, ўтишнинг иқтисодий самараси ва Ўзбекистон амалиётидаги асосий муаммолар тизимлаштирилган.

Калит сўзлар: молиявий ҳисобот, МҲХС (IFRS), акциядорлик жамияти, ахборот шаффофлиги, мулкчилик ва бошқарувнинг ажралиши, ахборот ассимметрияси, чекланган жавобгарлик, Концептуал асослар, ҳисобот сифати.

Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви, халқаро капитал бозорларининг чуқур интеграциялашуви ҳамда инвестицион оқимларнинг чегараларсиз ҳаракатланиши шароитида акциядорлик жамиятлари томонидан тайёрланадиган молиявий ҳисоботларнинг сифати ва ахборот шаффофлиги масаласи фундаментал илмий-амалий аҳамият касб этмоқда. Молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартлар (МҲХС) асосида шакллантирилиши нафақат йирик трансмиллий корпорациялар, балки ривожланаётган иқтисодиётга эга мамлакатлардаги акциядорлик жамиятлари учун ҳам объектив зарурат сифатида тан олинмоқда. Бу ҳолат миллий иқтисодиётнинг очиқлиги, хорижий инвестицияларни жалб этиш салоҳияти, корпоратив бошқарув сифати ҳамда капитал бозорининг институционал ривожланиш даражаси билан бевосита боғлиқдир.

Акциядорлик жамиятининг иқтисодий-ҳуқуқий моҳиятини белгиловчи муҳим хусусиятлардан бири — капиталнинг кўп сонли акциядорлар ўртасида тақсимланганлиги ва жамият эгалари томонидан бевосита бошқарувнинг амалга оширилмаслигидир. Мазкур хусусият мулкчилик ва бошқарув функцияларининг ажралиши феномени сифатида намоён бўлиб, агентлик муносабатларининг шаклланишини ҳамда акциядорлар ва менежмент ўртасида ахборот ассимметриясининг юзага келишини объектив тарзда белгилайди. Айнан шу институционал муаммони ҳал этиш контекстида

молиявий ҳисобот иқтисодий ахборот тизимининг асосий воситаси сифатида ўз ўрнини эгаллайди: акциядорлар у орқали сармояларининг бошқарилиш самарадорлиги, жамиятнинг молиявий ҳолати, фаолият натижалари ва пул оқимлари динамикаси юзасидан комплекс ахборотга эга бўладилар[136].

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари тизимининг шаклланиши 1973 йилда Халқаро бухгалтерия ҳисоби стандартлари қўмитасининг (IASC) ташкил этилиши билан бошланган. 2001 йилги институционал реструктуризация натижасида қўмита Халқаро бухгалтерия ҳисоби стандартлари кенгашига (IASB) айлантирилди ва шу даврдан буён стандартлар IFRS — Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари — номи остида тан олинмоқда. Бугунги кунда жаҳоннинг 140 дан ортиқ юрисдикциясида акциядорлик жамиятлари учун МҲХС асосида ҳисобот тузиш мажбурий мақомга эга: Европа Иттифоқи, Австралия ва Янги Зеландия 2005 йилдан, Канада 2011 йилдан, Россия Федерацияси 2012 йилдан мазкур тартибни жорий этган. Бу далиллар стандартларнинг универсал характерини ва халқаро иқтисодий муносабатлар тизимидаги марказий ўрнини яққол кўрсатади.

Ўзбекистон Республикасида МҲХСга мувофиқлаштириш масаласи 2017 йилги Ҳаракатлар стратегиясидан бошлаб давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Президентнинг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон Қарори асосида 2021 йил 1 январдан акциядорлик жамиятлари, тижорат банклари, суғурта ташкилотлари, инвестиция фондлари ҳамда йирик солиқ тўловчилар учун МҲХС асосида молиявий ҳисобот тайёрлаш мажбурий статусга эга бўлди. Мазкур институционал ислоҳот, ўз навбатида, ҳисобот сифатини таъминловчи назарий-методологик асослар, услубий ёндашувлар ва амалий механизмларнинг ишлаб чиқилишини объектив зарурат сифатида юзага келтирмоқда[137].

Акциядорлик жамиятларининг ҳуқуқий мақоми ҳам ҳисобот сифатига нисбатан юқори талабларни белгилайди. Миллий қонунчиликка мувофиқ, акциядорлик жамияти — устав капитали акцияларга тақсимланган тижорат ташкилоти бўлиб, акциядорлар жамият мажбуриятлари юзасидан жавобгар бўлмайдилар ва фақат ўз акциялари қиймати доирасида зарар хавфини зиммаларига оладилар. Айнан чекланган жавобгарлик тамойили акциядорлик жамиятлари ҳисоботларининг шаффофлиги ва ишончлилигига нисбатан ўта юқори стандартлар қўйилишини тақозо этади: кредиторлар ва контрагентлар ўз талабларини фақат жамият активлари ҳисобидан қондира олишлари сабабли, мазкур активларнинг ҳолати тўғрисидаги ахборот ишончли бўлиши шарт[138].

---

[136]Healy P.M., Palepu K.G. Information Asymmetry, Corporate Disclosure, and the Capital Markets // Journal of Accounting and Economics. — 2001. — Vol. 31. — No. 1–3. — P. 405–440.

[137]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. — 2020. — 06/20/4611/0250-сон.

[138]Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 6 майдаги «Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида»ги ЎРҚ-370-сон Қонуни (янги таҳрири).

Молиявий ҳисобот фойдаланувчиларининг таркиби ҳам кенг ва хилма-хилдир. Биринчи тоифани амалдаги ва потенциал акциядорлар ташкил этади — улар учун ҳисобот сармоя даромадлилиги ва жамиятнинг стратегик истиқболларини баҳолаш воситасидир. Иккинчи тоифа — кредиторлар ва қарз берувчилар — учун тўловга қодирлик ва молиявий барқарорлик кўрсаткичлари устувор аҳамиятга эга. Учинчи тоифага давлат тартибга солувчи органлари (Молия вазирлиги, Капитал бозорини ривожлантириш агентлиги, солиқ органлари) киради. Тўртинчи тоифани контрагентлар, ходимлар, аудиторлик ташкилотлари ва бошқа манфаатдор тарафлар ташкил этади. Бундай кенг доирадаги эҳтиёжларни мувозанатли қондириш фақат халқаро тан олинган мезонлар асосида тузилган ҳисобот орқали мумкин бўлади.

МҲХС Концептуал асослари умумий мақсадли молиявий ҳисоботнинг бош вазифасини аниқ белгилайди: мавжуд ва потенциал инвесторлар, кредиторлар ҳамда бошқа қарз берувчилар учун ташкилотга ресурслар тақдим этиш бўйича қарор қабул қилишда фойдали бўлган молиявий ахборотни тақдим этиш. Шу мақсадга эришиш учун ҳисобот олти сифат хусусиятига эга бўлиши лозим: фундаментал хусусиятлар — муносиблик ва ишончли тақдим этиш; кучайтирувчи хусусиятлар — таққосланувчанлик, текширилувчанлик, ўз вақтидалик ва тушунарлилик. Айнан шу олти мезон ҳисобот сифатини баҳолашнинг асосий ўлчови сифатида тан олинади ва уларни амалиётга татбиқ этиш учун ҳам сифатий, ҳам миқдорий кўрсаткичлар тизими ишлаб чиқилиши зарур[139].

Акциядорлик жамиятлари ҳисоботларини МҲХС асосида шакллантиришнинг объектив зарурияти бир қатор омиллар билан изоҳланади. Биринчи омил — глобал инвестицион бозорга кириш зарурияти: хорижий инвесторлар миллий стандартлар асосида тузилган ҳисоботларни адекват қабул қила олмайдилар ва уларнинг ишончлилигига скептик муносабатда бўладилар; шу боис халқаро капитал бозорига интеграцияни мақсад қилган жамиятлар ҳисоботларини МҲХСга мувофиқлаштиришга мажбурдирлар. Иккинчи омил — корпоратив бошқарув самарадорлигининг ошиши: МҲХС асосидаги ҳисобот бошқарув қарорларининг сифатини сезиларли яхшилайди. Учинчи омил — миллий иқтисодиётнинг очиқлигини ва трансчегаравий иқтисодий муносабатларга тайёрлигини таъминлаш. Тўртинчи омил — солиқ-молиявий назоратни самарали ташкил этиш зарурияти.

Халқаро молия институтлари доирасида ўтказилган тадқиқотлар МҲХСга ўтишнинг иқтисодий самарасини миқдорий тасдиқлайди: стандартларни жорий этган мамлакатларда хорижий инвестициялар оқимининг ўртача 12–17 фоизга ўсиши, акциядорлик жамиятлари капиталлашув даражасининг эса ўртача 8–10 фоизга юқори бўлиши кузатилади. Демак, МҲХСга мувофиқлаштириш шунчаки техник-услубий масала эмас, балки бевосита иқтисодий қийматга эга стратегик қарордир.

[139] IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. — London: IFRS Foundation, 2018. — P. 18–22.

Шу билан бирга, ўтиш жараёнининг ўзи жиддий методологик ва амалий қийинчиликлар билан кечмоқда. Ўзбекистон акциядорлик жамиятлари мисолида қуйидаги асосий муаммоларни ажратиб кўрсатиш мумкин: МҲХС соҳасида сертификатланган бухгалтер ва аудиторларнинг етишмаслиги ҳамда профессионал тайёргарлик инфратузилмасининг чекланганлиги; миллий тизимдан МҲХСга трансформация қилиш бўйича услубий қўлланмаларнинг камлиги; автоматлаштирилган ҳисоб тизимларининг (ERP) МҲХС талабларига мослаштирилмаганлиги; айрим мураккаб стандартлар (IFRS 9, IFRS 15, IFRS 16, IFRS 17) бўйича амалий тажрибанинг чекланганлиги; ички ва ташқи сифат назорати тизимининг етарли ривожланмаганлиги; бошқарув ва ходимлар таркибининг МҲХС бўйича саводхонлик даражасининг пастлиги[140].

Статистик манзара ҳам мазкур хулосаларни тасдиқлайди. Капитал бозорини ривожлантириш агентлигининг расмий маълумотларига кўра, Ўзбекистонда 600 дан ортиқ акциядорлик жамияти фаолият юритмоқда, шундан 100 дан ортиғи «Тошкент» республика фонд биржасида рўйхатдан ўтган. Сўнгги беш йилда МҲХС бўйича аудиторлик хулосаси олган жамиятлар сони 2,5 баравардан зиёд ўсган бўлсада, бу кўрсаткич умумий жамиятлар сонининг ярмидан ошмайди — яъни институционал мувофиқлаштириш жараёни ҳали якунланмаган. Бундан ташқари, МҲХС асосида тузилган ҳисоботларнинг ўзи ҳам сифат жиҳатидан гетероген характерга эга бўлиб, уларга нисбатан тизимли сифат назорати зарурати сақланиб қолмоқда[141].

Хулоса қилиб айтганда, акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботларни МҲХС асосида шакллантириш мулкчилик ва бошқарувнинг ажралиши, чекланган жавобгарлик тамойили, фойдаланувчилар доирасининг кенглиги ҳамда халқаро капитал бозорига интеграция зарурияти билан белгиланадиган объектив иқтисодий заруратдир. Айни пайтда расман ўтишнинг ўзи сифатни кафолатламайди: малакали кадрлар, услубий таъминот, технологик инфратузилма ва назорат механизмларидаги мавжуд муаммолар ҳисобот сифатини таъминлашга йўналтирилган алоҳида тизимли чора-тадбирлар мажмуасини — назарий асослардан амалий механизмларгача — ишлаб чиқишни тақозо этади.

Таклиф ва тавсиялар:

1. Акциядорлик жамиятларида молиявий ҳисоботларни МҲХС асосида шакллантиришни мулкчилик ва бошқарувнинг ажралиши, чекланган жавобгарлик тамойили ҳамда МҲХС Концептуал асосларидаги олти сифат хусусияти (муносиблик, ишончли тақдим этиш, таққосланувчанлик, текширилувчанлик, ўз вақтидалик, тушунарлилик) асосида баҳолашнинг яхлит методологиясини ишлаб чиқиш тавсия этилади.

---

[140] Каримов А.А. Бухгалтерия ҳисоби назарияси ва амалиёти. — Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2022. — Б. 218.

[141] Капитал бозорини ривожлантириш агентлиги. 2024 йил якунлари бўйича ҳисобот. — Тошкент, 2025. — Б. 32–35.

2. МҲХСга ўтиш сифатини таъминлаш учун сертификатланган бухгалтер ва аудиторларни тайёрлаш инфратузилмасини кенгайтириш, миллий тизимдан МҲХСга трансформация бўйича услубий қўлланмалар яратиш ҳамда автоматлаштирилган ҳисоб (ERP) тизимларини МҲХС талабларига мослаштириш тавсия этилади.

3. Мураккаб стандартлар (IFRS 9, 15, 16, 17) бўйича амалий тажрибани ошириш ва МҲХС асосида тузилган ҳисоботларга нисбатан тизимли ички ҳамда ташқи сифат назорати механизмини жорий этиш тавсия этилади.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ АУДИТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ

Ибрагимов Нодирбек Баходир ўғли
мустақил изланувчи, Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Тел.: +998 93-304-07-00 E-mail: nodirbek.ibragimov.96@mail.ru

Аннотация. Тезисда тижорат банклари молиявий ҳисоботи аудитини ташкил этишнинг хорижий тажрибаси — Европа Иттифоқи, АҚШ ва Базель қўмитаси ёндашувлари таҳлил қилинади. Хорижий тажрибанинг асосий унсурлари ва уларни Ўзбекистон банк тизимида қўллаш йўналишлари асослаб берилади.

Калит сўзлар: банк аудити, хорижий тажриба, аудит қўмитаси, аудитор мустақиллиги, Базель қўмитаси, аудиторларни ротация қилиш.

Тижорат банклари аудитини ташкил этишнинг хорижий тажрибаси банк аудити сифатини оширишда қимматли манба ҳисобланади. Жаҳон амалиётида банк аудитининг ўзига хослиги эътироф этилиб, унга нисбатан қатъийроқ талаблар қўйилади. Хорижий тажрибани умумлаштириш банк аудити сифати таъминланувчи асосий унсурларни аниқлаш имконини беради.

Европа Иттифоқида аудит фаолияти 537/2014-сон Регламенти ва 2014/56/ЕС Директиваси билан тартибга солинади. Улар жамоат манфаатига молик субъектлар, шу жумладан банклар учун аудиторларни мажбурий ротация қилиш, нодавлат хизматларни чеклаш ва аудит қўмитаси фаолиятини кучайтириш каби талабларни белгилайди. Ушбу чоралар аудитор мустақиллигини таъминлашга ва аудит сифатини оширишга қаратилган.АҚШ амалиётида 2002 йилги Сарбейнс-Оксли қонуни (SOX) ва Жамоат компаниялари бухгалтерия назорати кенгаши (PCAOB) фаолияти банк аудити сифатини таъминлашда муҳим рол ўйнайди. PCAOB аудиторлик ташкилотларини мустақил инспекция қилади, аудит сифати камчиликларини аниқлайди ва уларни бартараф этишни талаб қилади. Бундай ташқи сифат назорати тизими аудит ишончлилигини сезиларли оширади.

Базель банк назорати қўмитасининг банклар ташқи аудити бўйича тамойиллари банк аудитининг ўзига хослигини эътироф этади ва аудитор тартибга солувчи орган билан самарали мулоқот қилишини тавсия этади.

Қўмита банк аудитида кредит риски ва заҳираларни текширишга алоҳида эътибор қаратишни ҳамда аудит сифатини ошириш бўйича чора-тадбирларни илгари суради.Хорижий тажрибанинг умумлаштирилган таҳлили самарали банк аудити тизимининг асосий унсурларини аниқлаш имконини беради: халқаро стандартларга (ISA, IFRS) асосланиш; аудиторнинг ҳақиқий мустақиллиги ва уни таъминловчи кафолатлар; кучли ва мустақил аудит қўмитаси; назорат органи билан тизимли ахборот алмашинуви; баҳоланган қийматларни (айниқса ECL ва заҳираларни) текшириш бўйича чуқур методика; аудит сифатининг мустақил жамоат назорати ҳамда рақамли технологиялардан фойдаланиш. Ушбу унсурларни Ўзбекистон банк тизимига татбиқ этишда босқичма-босқичлик ва миллий шароитни ҳисобга олиш муҳим аҳамиятга эга. Хусусан, тижорат банкларида мустақил аудит қўмиталари фаолиятини кучайтириш, назорат органи ва ташқи аудиторлар ўртасида ахборот алмашинуви механизмини жорий этиш ҳамда аудит сифатининг ташқи назорат тизимини ривожлантириш долзарб вазифалар ҳисобланади. Хулоса қилиб айтганда, хорижий тажрибани миллий шароитга мослаштирган ҳолда татбиқ этиш Ўзбекистон тижорат банклари аудити сифатини халқаро стандартлар даражасига яқинлаштиради ва республика банк тизими барқарорлигини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Таклиф ва тавсиялар:

1. Самарали банк аудити тизимининг хорижий тажрибада синалган асосий унсурларини — халқаро стандартларга (ISA, IFRS) асосланиш, аудитор мустақиллиги кафолатлари, кучли аудит қўмитаси, назорат органи билан ахборот алмашинуви ва аудит сифатининг мустақил жамоат назорати — Ўзбекистон банк аудити концепциясининг асоси сифатида қабул қилиш тавсия этилади.

2. Тижорат банкларида мустақил аудит қўмиталари фаолиятини кучайтириш ҳамда Европа Иттифоқи тажрибасига (537/2014-сон Регламенти) мувофиқ жамоат манфаатига молик субъектлар аудиторларини мажбурий ротация қилиш ва нодавлат хизматларни чеклаш механизмларини босқичма-босқич жорий этиш тавсия этилади.

3. Назорат органи ва ташқи аудиторлар ўртасида тизимли ахборот алмашинуви механизмини жорий этиш, АҚШ (PCAOB) тажрибаси асосида аудит сифатининг мустақил ташқи назорат тизимини ривожлантириш ҳамда баҳоланган қийматлар (ECL ва заҳиралар) текширувига чуқур методика жорий этиш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни, 2021 йил 25 февраль, ЎРҚ-677-сон. // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. – www.lex.uz (мурожаат санаси: 2026 й.).

2. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. – New York: IFAC, 2023.

3. Basel Committee on Banking Supervision. Core Principles for Effective Banking Supervision. – Basel: Bank for International Settlements, 2024.

V SHO‘BA. AUDITNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, TASHKILIY VA METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA UNING IQTISODIYOT, MARKETING, MENEJMENT, BANK ISHI VA MOLIYA SOHALARIDA QO‘LLANILISH MEXANIZMLARI.

БАНК ИЧКИ АУДИТИ САМАРАДОРЛИГИНИ ЎЛЧАШ КЎРСАТКИЧЛАРИ ВА МУСТАҚИЛ ТАШҚИ БАҲОЛАШНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

Исмаилов Азизбек Мадаминович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Тезисда тижорат банклари ички аудити самарадорлигини ўлчашнинг тўрт ўлчамли мувозанатли кўрсаткичлар тизими — ҳажм ва режа ижроси, топилмалар сифати ва таъсири, ижро самарадорлиги ҳамда манфаатдор томонлар баҳоси — асосланган. Кўрсаткичларни қўллашнинг мутаносиблик ва мақсадли қийматлар қоидалари ҳамда «ўйинлашув»дан ҳимоя чоралари белгиланган. Ички аудитнинг глобал стандартлари талаб қиладиган камида беш йилда бир марта мустақил ташқи баҳолашни жорий этишнинг беш босқичли тартиби, икки ташкилий шакли ва банклараро ўзаро баҳолаш (peer-review) механизми таклиф этилган.

Калит сўзлар: ички аудит, тижорат банки, самарадорлик кўрсаткичлари, мувозанатли тизим, тавсиялар ижроси, манфаатдор томонлар баҳоси, мустақил ташқи баҳолаш, банклараро ўзаро баҳолаш, Глобал стандартлар.

Ички аудитнинг глобал стандартлари хизмат раҳбаридан функция фаолиятининг натижадорлигини баҳолаш кўрсаткичларини ишлаб чиқиш ва кенгаш билан келишишни ҳамда камида беш йилда бир марта мустақил ташқи баҳолашдан ўтишни талаб этади [3]. Миллий тартибга солишда эса — 3302-сон низомда — ушбу икки йўналиш ўз ифодасини топмаган: функция натижадорлигини баҳолаш кўрсаткичлари назарда тутилмаган, даврий мустақил ташқи баҳолаш талаби белгиланмаган [2]. Мазкур тезиснинг мақсади — самарадорликни ўлчаш тизими ва ташқи баҳолашни миллий банк амалиётига жорий этишнинг услубий ва ташкилий ечимларини асослашдир.

Самарадорликни ўлчашнинг асосий хатари — фақат осон ҳисобланадиган миқдорий кўрсаткичларга (текширувлар сони, режа ижроси) таяниб қолиш: бу фаолиятни «ҳисобот учун ишлаш»га оғдиради. Бинобарин тизим тўрт ўлчамли мувозанатли конструкцияда қурилади (1-жадвал): тўрт ўлчам биргаликда «қанча иш қилинди», «иш қанчалик муҳим эди», «иш натижа бердими» ва «истеъмолчилар нима деб баҳолайди» саволларига жавоб беради — ҳеч бир ўлчам ёлғиз ҳақиқий манзарани бермайди.

1-жадвал

Ички аудит самарадорлигини ўлчашнинг мувозанатли кўрсаткичлар тизими

Ўлчам	Кўрсаткичлар мисоллари	Нимани кўрсатади
1. Ҳажм ва режа ижроси	Йиллик режа бажарилиши, %; режалаштирилган ва бажарилган топшириқлар нисбати; риск-профиль қамрови	Фаолият ҳажми ва режа интизоми
2. Топилмалар сифати ва таъсири	Юқори аҳамиятли топилмалар сони; олдини олинган ёки тикланган йўқотишлар; жараёнларга киритилган тизимли ўзгаришлар	Аудит қийматининг реал ифодаси
3. Ижро самарадорлиги	Тавсиялар ижроси улуши; муддатида ёпилган тавсиялар; такрорий топилмалар улуши (пасайиши)	Аудит таъсирининг барқарорлиги
4. Манфаатдор томонлар баҳоси	Аудит қўмитаси баҳоси; текширилган бўлинмалар сўрови; сертификатли ходимлар улуши ва ўқитиш соатлари	Ишонч, обрў ва салоҳият

Манба: муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Кўрсаткичларни қўллашда икки қоида муҳим. Биринчиси — мутаносиблик: миқдорий кўрсаткичлар сифат кўрсаткичлари билан доим бирга талқин қилинади — юқори режа ижроси, аммо паст топилма таъсири фаолиятнинг юзакилигини ифодалайди. Иккинчиси — мақсадли қийматлар: ҳар бир кўрсаткич учун эришиладиган даража хизмат раҳбари ва аудит қўмитаси келишувида белгиланиб, йиллик фаолият режасига киритилади, динамика эса йилдан-йилга кузатилади. «Ўйинлашув»дан ҳимоя ҳам олдиндан белгиланади: кўрсаткичларни «яхшилаш» учун фаолиятни бузиш (топилмалар сонини сунъий ошириш, муҳим топилмаларни «майдалаш») ва осон кўрсаткичларга урғу бериб мураккабларини четлаб ўтиш хатарларига қарши кўрсаткичлар доим мажмуа кўринишида талқин қилинади ва сифат ўлчамлари устувор ҳисобланади; манфаатдор томонлар сўровида анонимлик таъминланиб, савол шакллари ҳам фойдалилик, ҳам мустақилликни баҳолашга қаратилади — юқори «мамнунлик» балл баъзан аудитнинг юмшоқлигини ҳам англатиши мумкин.

Мустақил ташқи баҳолаш — сифат тизимининг стратегик бўғини ва миллий базадаги энг йирик бўшлиқдир. Унинг мантиғи ички аудит учун «ўзини ўзи текшириш» парадоксини ҳал қилади: барча бўлинмаларни баҳоловчи хизматнинг ўзи ҳам четдан баҳоланиши даркор. Баҳолашни малакали мустақил баҳоловчи — бошқа банклар амалиётчилари иштирокидаги гуруҳ, ихтисослашган маслаҳат ташкилоти ёки касбий бирлашма — ўтказади; қиймати уч томонлама: стандартларга мувофиқликнинг мустақил тасдиғи, халқаро амалиёт билан таққослаш (бенчмаркинг) ва кузатув кенгаши учун холис ахборот; харажатлар беш йиллик даврга тақсимланганда функция бюджетининг арзимас улушини ташкил этади [3; 4; 5].

Ташқи баҳолашни амалга оширишнинг беш босқичли тартиби таклиф этилади: тайёргарлик (баҳоловчини танлаш, мустақиллиги ва малакасини текшириш, кўлам ва мезонларни келишиш); ўз-ўзини баҳолаш (хизматнинг ҳужжатли далиллар билан таъминланган ҳисоботи); мустақил текширув (ҳужжатлар, иш қоғозларининг танланма текшируви, ходимлар ва манфаатдор томонлар билан суҳбатлар); ҳисобот (мувофиқлик даражаси, кучли томонлар, такомиллаштириш имкониятлари ва тавсиялар — кузатув кенгашига тақдим этилади); тузатувчи ҳаракатлар (муддат ва масъул белгиланган режа ва унинг ижроси назорати). Ташкилий жиҳатдан икки шакл мумкин: тўлиқ мустақил баҳолаш ёки мустақил тасдиқли ўз-ўзини баҳолаш — иккинчиси камроқ харажатли ва миллий шароитда бошланғич босқич учун мақбул. Банкларараро ўзаро баҳолаш (peer-review) — ассоциация доирасида бошқа банкларнинг тажрибали аудиторларидан тузилган гуруҳ орқали баҳолаш — айниқса истиқболли шакл: у арзон, баҳоловчилар банк аудити хусусиятини яхши билади ва жараён икки томонлама тажриба алмашинувига айланади; фақат манфаатлар тўқнашуви (баҳоловчи ва баҳоланувчи банклар бевосита рақобат алоқасига эга бўлмаслиги) ва махфийлик масалалари ассоциация регламенти билан олдиндан ҳал этилиши шарт.

Кўрсаткичларни йиғишда маълумот манбалари олдиндан белгиланади: бир қисми (режа ижроси, тавсиялар ижроси, такрорийлик) аудитни бошқариш тизими ёки тавсиялар реестридан автоматик олинади — бу субъективликни камайтиради; бошқа қисми (топилмалар таъсири, манфаатдор томонлар баҳоси) махсус йиғишни талаб қилади. Натижалар кузатув кенгашига йиллик ҳисоботда жамланма панель кўринишида тақдим этилади — бу муҳокамани «ўтган давр ҳисоботи»дан хизмат самарадорлиги устидаги мазмунли суҳбатга айлантиради. Миллий даражада тарқатиш икки йўналишда амалга оширилади: айрим унсурлар (самарадорлик кўрсаткичлари, кўрсаткичлар реестри) банкларнинг ички ҳужжатлари даражасида ҳал этилса, мустақил ташқи баҳолашнинг даврийлиги ва тартиби Марказий банк низомига киритилиши, малакали баҳоловчилар доираси ва баҳолаш методикаси эса касбий ҳамжамият даражасида шакллантирилиши мақсадга мувофиқ — ташқи баҳолашнинг миллий инфратузилмасини яратиш ички аудит сифатининг тизим бўйлаб бир текис кўтарилишини таъмин этади.

ТАКЛИФ ВА ТАВСИЯЛАР

Илмий-назарий жиҳатдан: ички аудит самарадорлигини тўрт ўлчамли мувозанатли кўрсаткичлар тизими орқали — миқдор ва сифат ўлчамларининг мажбурий биргаликдаги талқини ҳамда мақсадли қийматлар механизми билан — баҳолаш ёндашуви таклиф этилади; бу самарадорлик ўлчовини «рақам қувиш»дан аудит қийматининг реал ифодасига айлантиради. Амалий жиҳатдан: 3302-сон низомга функция натижадорлигини баҳолаш кўрсаткичлари ва камида беш йилда бир марта мустақил ташқи баҳолаш талабини киритиш; банклар ассоциацияси даражасида баҳоловчилар реестри, баҳолаш методикаси ва банкларараро ўзаро баҳолаш (peer-review) регламентини шакллантириш; ҳар бир банкда кўрсаткичларнинг мақсадли

қийматларини аудит қўмитаси билан келишиб, йиллик ҳисоботда жамланма панель кўринишида тақдим этиш тавсия этилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 5 ноябрдаги ЎРҚ-580-сон «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.11.2019 й., 03/19/580/4014-сон.
2. Тижорат банкларининг ички аудитига қўйиладиган талаблар тўғрисидаги низом (рўйхат рақами 3302, 2021 йил 7 май) // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.05.2021 й., 10/21/3302/0486-сон.
3. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. – Lake Mary, Florida: The IIA, 2024 (2025 йил 9 январдан кучга кирган).
4. Basel Committee on Banking Supervision. The internal audit function in banks. – Basel: Bank for International Settlements, 2012 (June).
5. Chartered Institute of Internal Auditors. Internal Audit Code of Practice. – London: CIIA, 2021.
6. Ташманов Ғ.Д. Ички аудит хизматини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Т., 2021. – 56 б.

ELEKTRON TIJORAT INFRATUZILMASINING SAVDO XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRINI IQTISODIY BAHOLASH

Raxmanov Sherzod Shuxratovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, E-mail: Shuxratovich2333@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada elektron tijorat infratuzilmasining savdo xizmatlari raqobatbardoshligini shakllantirish va oshirishdagi iqtisodiy ahamiyati tadqiq etilgan. Elektron to‘lov tizimlari, raqamli savdo platformalari, logistika infratuzilmasi, internet tarmog‘i, ma’lumotlarni qayta ishlash va mijozlar bilan raqamli munosabatlarni boshqarish vositalarining savdo xizmatlari samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Elektron tijorat infratuzilmasi rivojlangan sari savdo korxonalarining bozor qamrovi, xizmat ko‘rsatish tezligi, xarajatlar samaradorligi va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati oshishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, elektron tijorat infratuzilmasi, savdo xizmatlari, raqobatbardoshlik, raqamli platforma, elektron to‘lov, logistika, raqamli iqtisodiyot, xizmatlar sifati, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi iqtisodiy faoliyatning barcha yo‘nalishlari, xususan, savdo xizmatlarini tashkil etish va ko‘rsatish mexanizmlarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida savdo jarayonlarining an’anaviy shakllari bosqichma-bosqich raqamli formatga o‘tib, elektron tijorat iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, elektron savdo platformalari, mobil ilovalar, elektron to‘lov tizimlari,

raqamli marketing vositalari va avtomatlashtirilgan logistika xizmatlarining rivojlanishi iste’molchilarning xarid qilish xatti-harakatlarini o‘zgartirib, savdo korxonalari o‘rtasidagi raqobat muhitining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur jarayonda elektron tijorat infratuzilmasining savdo xizmatlari raqobatbardoshligiga ta’sirini faqat texnologik nuqtayi nazardan emas, balki iqtisodiy samaradorlik jihatidan ham baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalarning natijadorligi savdo aylanmasining o‘sishi, operatsion xarajatlarning qisqarishi, mijozlar sonining ko‘payishi, xizmat ko‘rsatish tezligining oshishi va korxonaning bozordagi raqobat pozitsiyasining mustahkamlanishi orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli elektron tijorat infratuzilmasining alohida elementlari va ularning savdo xizmatlari raqobatbardoshligiga ta’sirini miqdoriy jihatdan aniqlash ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekiston sharoitida ham elektron tijoratning rivojlanishi savdo xizmatlarini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Internetdan foydalanuvchilar sonining ortishi, bank va to‘lov tizimlarining raqamlashtirilishi, elektron savdo platformalarining kengayishi hamda logistika xizmatlarining takomillashuvi tadbirkorlik subyektlari uchun yangi savdo imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu bilan birga, elektron tijorat infratuzilmasining hududlar kesimida bir xil rivojlanmaganligi, logistika xarajatlarining yuqoriligi, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasidagi tafovutlar va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar savdo xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishda qo‘shimcha ilmiy-amaliy yondashuvlarni talab etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez kabi metod va usullardan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Elektron tijorat infratuzilmasining savdo xizmatlari raqobatbardoshligiga ta’siri masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijlik olimlardan Goldmanis [1], Cho [2], Prakash [3] va mahalliy tadqiqotchilardan Z. Madiyeva [4], G. Jo‘rayevalar [5] elektron tijoratning bozor raqobati, logistika samaradorligi, raqamli platformalar va savdo xizmatlari rivojlanishiga ta’sirini turli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etgan.

Tahlil va natijalar. Elektron tijorat infratuzilmasi zamonaviy savdo xizmatlari bozorining samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq texnologik, tashkiliy va iqtisodiy elementlar majmuasini ifodalaydi. Uning tarkibiga raqamli savdo platformalari, internet va telekommunikatsiya tarmoqlari, elektron to‘lov tizimlari, logistika va yetkazib berish xizmatlari, axborot xavfsizligi, ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlari hamda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish vositalari kiradi. Mazkur elementlarning rivojlanish darajasi savdo korxonalarining bozorga chiqish imkoniyatlari, xarajatlar tarkibi, xizmat ko‘rsatish tezligi va iste’molchilar bilan o‘zaro munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Elektron tijorat infratuzilmasining savdo xizmatlari raqobatbardoshligiga ta’sirini quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali ifodalash mumkin:

1. Raqamli savdo platformalarining rivojlanishi. Raqamli platformalar sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni soddalashtirib, mahsulot va xizmatlarni keng iste’molchilar guruhiga taklif qilish imkonini beradi. Platformalarning rivojlanishi savdo korxonalarining geografik bozor chegaralarini kengaytiradi, mahsulot assortimenti to‘g‘risidagi axborotni tezkor yetkazish va talabni monitoring qilish imkoniyatlarini oshiradi.

2. Elektron to‘lov infratuzilmasining ta’siri. Elektron to‘lov tizimlarining rivojlanganligi xaridorlar uchun xarid jarayonining qulayligini oshiradi hamda savdo operatsiyalarini tezlashtiradi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning kengayishi tranzaksiya vaqtini qisqartirish, to‘lovlarni avtomatlashtirish va moliyaviy operatsiyalar shaffofligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli elektron to‘lov tizimlarining rivojlanish darajasi savdo xizmatlarining qulayligi va iste’molchilar qoniqishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

3. Logistika infratuzilmasining ahamiyati. Elektron tijoratda xaridorning mahsulotni sotib olish qarori nafaqat mahsulotning narxi va sifatiga, balki uni belgilangan muddatda va maqbul xarajat bilan yetkazib berish imkoniyatiga ham bog‘liq.

4. Internet va telekommunikatsiya infratuzilmasining roli. Elektron tijoratning uzluksiz ishlashi yuqori tezlikdagi va barqaror internet tarmog‘iga bevosita bog‘liq. Internet qamrovining kengayishi elektron savdo xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Ayniqsa, hududlarda internet infratuzilmasining rivojlanishi kichik biznes subyektlarining elektron savdo bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirib, hududiy raqobat muhitini kuchaytiradi.

5. Raqamli marketing va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish. Elektron tijorat sharoitida mijozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish savdo korxonalariga iste’molchilar ehtiyojini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Elektron tijorat infratuzilmasining mazkur elementlari alohida-alohida emas, balki yagona iqtisodiy tizim sifatida faoliyat yuritadi. Masalan, raqamli savdo platformasining mavjudligi elektron to‘lov tizimlari va logistika xizmatlari bilan qo‘llab-quvvatlanmasa, uning iqtisodiy samaradorligi pasayadi. Aksincha, platforma, to‘lov, logistika, internet va mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlarining integratsiyasi savdo xizmatlarini kompleks ravishda takomillashtirish imkonini beradi.

Elektron tijorat infratuzilmasining savdo xizmatlari raqobatbardoshligiga ta’sirini iqtisodiy jihatdan baholash uchun infratuzilmaning alohida komponentlarini umumlashtiruvchi integral indeksdan foydalanish taklif etiladi:

$$\mathbf{ETI} = \sum_{i=1}^{n} \mathbf{w_i Z_i} \qquad \mathbf{(1)}$$

bu yerda: ETI - elektron tijorat infratuzilmasi rivojlanganlik indeksi; (w_i) - i-ko‘rsatkichning vazn koeffitsiyenti; (Z_i) - i-ko‘rsatkichning standartlashtirilgan qiymati; n - baholashda foydalaniladigan ko‘rsatkichlar soni.

Mazkur indeksni shakllantirishda elektron to‘lovlar ulushi, internetdan foydalanish darajasi, onlayn savdo hajmi, logistika samaradorligi, raqamli

platformalardan foydalanish darajasi va elektron buyurtmalarni qayta ishlash tezligi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin:

1-jadval.

Elektron tijorat infratuzilmasini baholash ko‘rsatkichlari[142]

Yo‘nalish	Asosiy ko‘rsatkich	Ta’sir yo‘nalishi
Raqamli platformalar	Onlayn savdo platformalaridan foydalanish darajasi	+
Elektron to‘lovlar	Elektron to‘lovlar ulushi	+
Internet	Internet qamrovi va tezligi	+
Logistika	Buyurtmani yetkazib berish muddati	–
Logistika	Yetkazib berish xarajatlari	–
Mijozlar	Onlayn xaridorlar soni	+
MMB	Raqamli mijozlar bazasidan foydalanish	+
Axborot xavfsizligi	Xavfsiz elektron operatsiyalar ulushi	+

Jadvaldan ko‘rinadiki, ko‘rsatkichlarning bir qismi raqobatbardoshlikka ijobiy, ayrimlari esa salbiy yo‘nalishda ta’sir qiladi. Masalan, elektron to‘lovlar ulushi va internet qamrovining oshishi raqobatbardoshlikni kuchaytirsa, yetkazib berish muddati va logistika xarajatlarining ortishi raqobatbardoshlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Elektron tijorat infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini faqat savdo hajmining o‘sishi bilan cheklab baholash maqsadga muvofiq emas. Chunki raqamlashtirishning asosiy iqtisodiy samarasi xarajatlarning qisqarishi, vaqt tejalishi, mijozlar bazasining kengayishi, mehnat unumdorligining oshishi va takroriy xaridlar ulushining ortishi orqali ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli savdo korxonalarida elektron tijorat infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalarning qaytimi ham muhim baholash mezoni hisoblanadi.

Shunday qilib, elektron tijorat infratuzilmasining rivojlanishi savdo xizmatlari raqobatbardoshligini bir vaqtning o‘zida bir nechta kanallar orqali shakllantiradi. Raqamli platformalar bozor qamrovini kengaytirsa, elektron to‘lovlar xarid jarayonini soddalashtiradi, logistika tizimlari yetkazib berish sifatini yaxshilaydi, internet infratuzilmasi foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, MMB va analitik texnologiyalar esa mijozlarga individual xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. Ushbu omillarning integratsiyalashuvi natijasida savdo korxonalarining xarajatlari optimallashadi, xizmat ko‘rsatish sifati oshadi va bozordagi raqobat ustunligi mustahkamlanadi. Shu nuqtayi nazardan, elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirishni faqat texnologik modernizatsiya sifatida emas, balki savdo xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Tadqiqot davomida elektron tijorat infratuzilmasining raqamli savdo platformalari, elektron to‘lov tizimlari, internet va telekommunikatsiya tarmoqlari, logistika infratuzilmasi, axborot xavfsizligi hamda mijozlar bilan raqamli

[142]Muallif ishlanmasi

munosabatlarni boshqarish kabi tarkibiy qismlari savdo xizmatlari raqobatbardoshligining asosiy omillari sifatida aniqlandi. Ushbu elementlarning o‘zaro integratsiyalashuvi savdo korxonalarining xarajatlarini kamaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va iste’molchilar talabiga tezkor moslashish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda logistika va raqamli ulanish bo‘yicha mavjud cheklovlar elektron tijoratning to‘liq raqobat salohiyatidan foydalanishga to‘sqinlik qilayotgan omillardan hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Hududiy elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirish zarur.
2. Savdo korxonalarida CRM va ma’lumotlar tahlilini joriy etish lozim.
3. Elektron tijorat infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini muntazam baholab borish lozim.
4. Raqamli platformalar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish zarur.
5. Eksportga yo‘naltirilgan elektron savdoni rivojlantirish lozim.

Umuman olganda, elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirish savdo xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishning alohida texnologik emas, balki kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi sifatida qaralishi lozim. Bunda raqamli platformalar, elektron to‘lovlar, logistika, internet infratuzilmasi va ma’lumotlar tahlili yagona tizim sifatida rivojlantirilishi savdo xizmatlari samaradorligi va raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goldmanis, M., Hortaçsu, A., Syverson, C., & Emre, Ö. (2010). E-Commerce and the Market Structure of Retail Industries. The Economic Journal, 120(545), 651–682. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/j.1468-0297.2009.02310.x?utm_source

2. Cho, J. J.-K., & Ozment, J. (2005). The Importance of Logistics Capability in the E-Commerce Market. Journal of Transportation Management, 16(1), 15–29. https://digitalcommons.wayne.edu/jotm/vol16/iss1/4/?utm_source

3. Prakash, C. S., Roy, S., et al. (2025). E-Commerce and the Future of Retail Infrastructure: Implications for Policy and Development. https://www.jisem-journal.com/index.php/journal/article/view/1414?utm_source

4. Madieva, Z. I. (2025). Trends in the Development of E-Commerce Infrastructure in Uzbekistan. https://inlibrary.uz/index.php/ijsr/article/view/108018?utm_source

5. Jo‘rayeva, G. I. (2025). Development of Electronic Commerce in Uzbekistan and Its Significance. Marketing Journal. https://marketingjournal.uz/index.php/mj/en/article/view/502?utm_source

IMPACT OF THE DEVELOPMENT OF ELECTRONIC PAYMENT SYSTEMS ON THE EFFICIENCY OF TRADE SERVICES

Rakhmanov Sherzod Shuxratovich
independent researcher at Samarkand state university named after Sharof Rashidov, E-mail: Shuxratovich2333@gmail.com

Abstract. This study examines the impact of the development of electronic payment systems on the efficiency of trade services. The research focuses on the role of digital payment instruments in accelerating transaction processes, reducing transaction costs, improving customer convenience, increasing transparency, and expanding the coverage of trade services.

Keywords: electronic payment systems, digital payments, trade services, service efficiency, transaction costs, digitalization, cashless payments, customer engagement, trade turnover, payment infrastructure.

Introduction. The rapid development of digital technologies is fundamentally transforming the organization and functioning of trade services. In modern economic conditions, the efficiency of trade enterprises increasingly depends not only on the volume and quality of goods and services offered, but also on the speed, convenience, security, and accessibility of payment transactions. The development of electronic payment systems has become one of the key components of digital transformation in the trade sector, creating new opportunities for improving business processes, reducing transaction costs, expanding customer coverage, and increasing the competitiveness of trade enterprises.

Electronic payment systems include bank cards, mobile banking applications, QR-code payments, electronic wallets, online payment platforms, contactless payment technologies, and other digital financial instruments. Their widespread adoption enables consumers to complete purchases without using cash and allows trade enterprises to automate payment processing, accounting, sales monitoring, and customer relationship management. As a result, electronic payments increasingly perform not merely a technical function of transferring funds but also become an important instrument for improving the overall efficiency of trade services.

The economic significance of electronic payments is particularly evident in their ability to reduce the time and costs associated with commercial transactions. Traditional cash-based transactions require additional resources for cash collection, storage, transportation, accounting, and security. In contrast, electronic payments enable transactions to be processed rapidly and recorded automatically, thereby reducing operational costs and improving the management of financial flows. The availability of digital payment data also provides trade enterprises with additional information about consumer behavior, purchasing frequency, transaction values, and customer preferences, which can be used to improve marketing and sales strategies.

The development of electronic payment infrastructure is also closely associated with the expansion of trade turnover. Convenient payment mechanisms reduce barriers to purchasing and can stimulate consumer demand, particularly in online and omnichannel trade. Customers increasingly expect the possibility of making payments through different digital channels, while enterprises that provide such opportunities can reach broader market segments. Consequently, the availability and quality of electronic payment services can become an important competitive factor in the trade services market.

Research methodology. This study employs a quantitative research approach to assess the economic impact of e-commerce platforms on the development of trade services in Uzbekistan. The methodological framework combines statistical, comparative, dynamic, correlation, and economic analysis methods. The research is based primarily on official statistical data characterizing the development of e-commerce and trade services in Uzbekistan.

Literature review. The development of electronic payment systems and their influence on economic and trade efficiency have been examined by a number of foreign and domestic researchers. Existing studies mainly focus on transaction costs, payment efficiency, financial inclusion, digitalization of trade, and the relationship between digital payments and economic growth. Humphrey, Pulley, and Vesala [1], Hancock, Humphrey, and Wilcox [2], Feyen, Frost, Natarajan, and Rice [3], Aguilar, Frost, Guerra, Kamin, and Tombini [4], Saipnazarov [5], Normurodova [6] increasing attention is being paid to the development of digital payment infrastructure and its role in economic modernization.

Analysis and results. The development of electronic payment systems is one of the most important directions of digital transformation in the trade services sector. The transition from cash-based transactions to electronic payment instruments changes the organization of trade operations, reduces the time required to complete transactions, and creates additional opportunities for improving customer service. In this regard, electronic payment systems should be considered not simply as financial technology, but as an important element of the economic mechanism for increasing the efficiency and competitiveness of trade enterprises.

The efficiency of trade services is determined by a combination of economic, organizational, technological, and customer-oriented factors. Traditional indicators such as trade turnover, revenue, profitability, labor productivity, and operating costs remain important; however, under digitalization, additional indicators related to the speed and quality of payment services are becoming increasingly significant. These include the share of cashless transactions, the volume of electronic payments, transaction processing time, payment costs, number of digital payment channels, and the level of customer use of electronic payment instruments.

Electronic payment systems also contribute to greater transparency of trade operations. Each electronic transaction creates a digital record that can be used for accounting, financial analysis, tax administration, and managerial decision-making. Digital transaction records make it possible to monitor sales volumes and customer purchasing patterns in real time. Consequently, trade enterprises can identify

periods of high demand, popular products, average transaction values, and customer preferences more effectively.

Another important advantage is the integration of electronic payments with digital enterprise management systems. Payment systems can be integrated with accounting software, inventory management, customer relationship management systems, online cash registers, and e-commerce platforms. Such integration reduces duplication of information and allows trade enterprises to create a unified digital information environment. This increases the speed of managerial decision-making and reduces the probability of errors in financial and sales records.

Table 1. Main channels through which electronic payment systems affect trade service efficiency[143]

Impact mechanism	Direct effect	Expected economic result
Reduction of transaction time	Faster payment processing	Increase in customer service capacity
Reduction of cash-handling costs	Lower costs of collection and storage	Reduction of operating expenses
Digital transaction recording	Automatic registration of transactions	Increased transparency
Expansion of payment channels	Greater customer convenience	Increase in customer coverage
Integration with digital systems	Automated accounting and sales monitoring	Improvement in management efficiency
Development of online payments	Simplification of e-commerce transactions	Expansion of sales opportunities
Payment data availability	Analysis of customer behavior	Improvement of marketing decisions
Contactless payment technologies	Faster purchasing process	Increase in service quality

The data presented in Table 1 demonstrate that the economic impact of electronic payment systems is multidimensional. Therefore, evaluating their effectiveness only by the volume of electronic transactions may provide an incomplete picture. A comprehensive assessment should simultaneously consider transaction costs, transaction speed, customer coverage, trade turnover, and enterprise profitability.

The development of electronic payments in Uzbekistan demonstrates the practical importance of this relationship. The country’s payment infrastructure has expanded through bank cards, mobile banking, QR payments, contactless technologies, online payment services, and instant payment systems. The increasing availability of these technologies creates favorable conditions for trade enterprises to reduce the time and costs associated with payment operations and improve the quality of customer service.

At the same time, several constraints may reduce the expected economic effect. These include insufficient digital literacy among some consumers, uneven technological infrastructure, cybersecurity risks, technical interruptions, payment commissions, limited interoperability between payment platforms, and differences

[143]Author’s development

in access to high-speed internet. Therefore, the development of electronic payments should be accompanied by improvements in digital infrastructure, information security, regulatory mechanisms, and consumer awareness.

The impact mechanism can consequently be summarized in the following conceptual chain:



Figure 1. Mechanism of the impact of electronic payment system development on trade service efficiency[144]

This mechanism demonstrates that electronic payment systems can influence trade efficiency both directly and indirectly. The direct effect is primarily associated with reducing payment time and transaction costs, whereas the indirect effect occurs through increased customer coverage, higher sales, better information management, and improved competitiveness. Thus, the development of electronic payment systems should be viewed as an integral component of the digital transformation of trade services. Their effectiveness depends not only on the number and value of electronic transactions but also on the degree of integration of payment technologies into the broader operational and managerial processes of trade enterprises. This approach provides a more comprehensive basis for assessing the contribution of digital payments to the economic efficiency of the trade services sector.

Conclusion. The study demonstrates that the development of electronic payment systems has significant potential to improve the efficiency of trade services. The transition from traditional cash-based transactions to electronic and cashless payment instruments contributes to accelerating payment operations, reducing transaction and administrative costs, improving transparency, and increasing the convenience and quality of services provided to customers.

In general, the development of electronic payment systems should be regarded as an important factor in increasing speed, cost-effectiveness, transparency, accessibility, and competitiveness of trade services. The effective integration of digital payment technologies into trade operations can contribute not only to improving the performance of individual enterprises but also to the broader digital transformation and sustainable development of the trade services sector.

[144]Author's development

References:

1. Humphrey, D. B., Pulley, L. B., & Vesala, J. M. (1996). Cash, Paper, and Electronic Payments: A Cross-Country Analysis. Journal of Money, Credit and Banking, 28(4), 914–939. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=7624&utm_source

2. Hancock, D., Humphrey, D. B., & Wilcox, J. A. (1999). Cost Reductions in Electronic Payments: The Roles of Consolidation, Economies of Scale, and Technical Change. Journal of Banking & Finance, 23(2–4), 391–421. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0378426698001083?utm_source

3. Feyen, E., Frost, J., Natarajan, H., & Rice, T. (2021). What Does Digital Money Mean for Emerging Market and Developing Economies? BIS Working Papers, No. 973. https://www.bis.org/publications/working-paper-973-what-does-digital-money-mean-emerging-market-and-developing-economies

4. Aguilar, A., Frost, J., Guerra, R., Kamin, S., & Tombini, A. (2024). Digital Payments, Informality and Economic Growth. BIS Working Papers, No. 1196. https://www.bis.org/publications/working-paper-1196-digital-payments-informality-and-economic-growth

5. Saipnazarov, Sh. Electronic Money and Payment Technologies in the Development of E-Commerce in Uzbekistan. https://agir.academiascience.org/index.php/agir/article/view/636?utm_source

6. Normurodova, V. (2026). Digital Payment Systems in Uzbekistan. https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/10640?utm_source

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Toshnazarova Lola Shuhratullayevna
SamISI “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi dotsenti v.b., PhD, E-mail:toshnazarovalola86@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish muhim iqtisodiy vazifalardan biridir. 2026-yilda foyda solig‘ining bazaviy stavkasi 15 foiz miqdorida saqlanib, soliq siyosatida barqarorlik va qulay biznes muhitini ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda korporativ soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari, uning investitsiya faolligi va korxonalar raqobatbardoshligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari samarali va barqaror soliq siyosati iqtisodiy o‘sish hamda investitsiya muhitini yaxshilashning muhim omili ekanligini asoslashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Soliq siyosati, soliqqa tortish, foyda solig‘i, soliq yuki, iqtisodiy raqobatbardoshlik, soliq ma’murchiligi, iqtisodiy o‘sish.

O‘zbekistonda korporativ soliqqa tortish tizimining investitsiya jarayonlariga ta’siri soliq stavkalari bilan bir qatorda korxonalar uchun belgilangan amortizatsiya tartibi va investitsion soliq imtiyozlari orqali ham namoyon bo‘ladi. Asosiy vositalarga yo‘naltirilgan investitsiyalarni soliqqa tortish shartlari korxonalarning kapital xarajatlarini qoplash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va texnologik yangilanish imkoniyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi soliq mexanizmlarining amal qilishi korxonalarning soliq yukini maqbullashtirish bilan birga, ularning investitsiya faolligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmlarning samaradorligi esa uzoq muddatda ishlab chiqarish unumdorligi, iqtisodiy o‘sish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq siyosatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarida investitsiya faolligini rag‘batlantirish, kapital qo‘yilmalar uchun soliq yukini kamaytirish hamda korxonalarning yangi asosiy vositalarga yo‘naltiriladigan mablag‘larini qo‘llab-quvvatlash muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda ushbu maqsadlarga erishish uchun kapital xarajatlarini tezlashtirilgan tartibda amortizatsiya qilish, ayrim turdagi asosiy vositalarni qisqa muddatlarda xarajatlarga kiritish va investitsiyalarni amalga oshiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga qo‘shimcha soliq afzalliklarini taqdim etish kabi mexanizmlardan foydalaniladi. Bunday yondashuvlar soliq siyosatining nafaqat fiskal, balki investitsion va rag‘batlantiruvchi funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, AQSh va Kanada tajribasida kapital qo‘yilmalarni soliqqa tortish bo‘yicha qo‘llanilgan yondashuvlar xalqaro soliq siyosatining zamonaviy tendensiyalarini aks ettiruvchi muhim misollardan biridir. Xususan, ushbu mamlakatlarda ayrim turdagi kapital xarajatlari bo‘yicha tezlashtirilgan amortizatsiya va birinchi yilning o‘zida xarajatlarni to‘liq hisobga olish imkoniyatlarining joriy etilishi yangi investitsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan. Mazkur tajriba O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish, xususan, investitsion faoliyatni soliq mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini baholashda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Keltirilgan rasm AQSh va Kanadada kapitalga nisbatan qo‘llanilgan soliq siyosati mexanizmlarining investitsiyalarni rag‘batlantirish nuqtayi nazaridan o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi. Xususan, Kanada tomonidan 2018-yildan boshlab ayrim kapital xarajatlari uchun tezlashtirilgan kapital xarajatlari bo‘yicha chegirmalar hamda mashina va uskunalarning ayrim turlari uchun birinchi yilning o‘zida to‘liq xarajat qilish imkoniyatining joriy etilishi AQShda qo‘llanilgan soliq rag‘batlari bilan muayyan darajada uyg‘unlashgan. Mazkur choralar vaqtinchalik xususiyatga ega bo‘lib, ularning asosiy maqsadi yangi kapital qo‘yilmalarni amalga oshirishni jadallashtirish va biznes subyektlarining investitsion faolligini oshirishdan iborat bo‘lgan.

Ushbu xalqaro tajriba O‘zbekiston uchun ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy soliq siyosatini shakllantirishda faqat davlat budjetiga tushumlarni oshirish emas, balki soliq vositalari orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, asosiy kapitalni yangilash va investitsion jarayonlarni rag‘batlantirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Shu jihatdan,

rivojlangan mamlakatlar tajribasidagi tezlashtirilgan amortizatsiya va investitsion soliq rag‘batlari kabi mexanizmlarni O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos sharoitlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish soliq siyosatining rag‘batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirishi mumkin.



1-rasm. Soliq siyosatida kapital investitsiyalarini rag‘batlantirish: AQSh va Kanada tajribasi [2]

Kapital qo‘yilmalarni rag‘batlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari mamlakatning investitsion jozibadorligi va xalqaro raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xususan, tezlashtirilgan amortizatsiya va kapital xarajatlarini qisqa muddatlarda soliq bazasidan chegirish imkoniyatlari korxonalar uchun investitsiyalarning dastlabki davridagi soliq yukini kamaytirib, yangi asosiy vositalarga mablag‘ yo‘naltirishni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, bunday imtiyozlarning bosqichma-bosqich qisqartirilishi yoki bekor qilinishi investitsion qarorlarning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Investitsiyalar hajmining qisqarishi, o‘z navbatida, ishlab chiqarish quvvatlarining yangilanish sur’atlari va mehnat unumdorligiga ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini oshiradi. Mehnat unumdorligining o‘sish sur’atlari korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy natijalari va mehnatga haq to‘lash imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli soliq siyosatida investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni shakllantirishda ularning nafaqat qisqa muddatli fiskal samarasi, balki uzoq muddatli iqtisodiy ta’sirini ham hisobga olish muhimdir.

Biroq kapital investitsiyalariga beriladigan maqsadli soliq imtiyozlari ham muayyan cheklovlarga ega. Xususan, tezlashtirilgan amortizatsiya yoki ayrim turdagi kapital aktivlarga nisbatan alohida soliq yengilliklarining qo‘llanilishi investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari va aktivlar turlari bo‘yicha taqsimlanishiga ta’sir qilishi mumkin. Natijada soliq rag‘batlari mavjud bo‘lgan

aktivlarga investitsiya kiritish boshqa yo‘nalishlarga nisbatan jozibadorroq bo‘lib qoladi. Bu esa kapital resurslarining bozor mexanizmlari asosida taqsimlanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda zamonaviy soliq siyosatini takomillashtirish jarayonida investitsiyalarni rag‘batlantirish va soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq imtiyozlari aniq iqtisodiy maqsadga yo‘naltirilgan, vaqt jihatidan asoslangan va kutilayotgan natijalar bilan bog‘langan holda qo‘llanilganda, ular ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnologik yangilanish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Aksincha, haddan tashqari tabaqalashtirilgan imtiyozlar kapitalning iqtisodiyotdagi optimal taqsimlanishini buzishi va soliq tizimining neytralligini pasaytirishi ehtimolini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy soliq siyosati davlat budjetini shakllantirish bilan bir qatorda, investitsiyalarni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va iqtisodiy faollikni oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu sababli soliq siyosatini takomillashtirishda fiskal manfaatlar va iqtisodiy rag‘batlantirish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhimdir.Xalqaro tajriba tezlashtirilgan amortizatsiya va kapital xarajatlari bo‘yicha soliq imtiyozlari investitsion faollikni oshirishga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq bunday imtiyozlarning haddan tashqari keng qo‘llanilishi kapitalning optimal taqsimlanishiga va soliq tizimining neytralligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida soliq siyosatini rivojlantirishda soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini muntazam baholash, investitsiya va ishlab chiqarish samaradorligiga real ta’sirini monitoring qilish hamda samarasiz imtiyozlarni qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Kelgusida xalqaro tajribadan foydalanish O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bu esa soliq tizimining fiskal barqarorligi bilan bir qatorda uning rag‘batlantiruvchi va tartibga soluvchi funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Busch T, Lewandowski S. Corporate carbon and financial performance: a meta-analysis. J Ind Ecol. 2018;22(4):745–59. doi:10.1111/jiec.12591
2. Damoah B, Adu E, Ofori E, Apraku A. Aggravation of climate change crisis in gulf regions of United States: a review of anthropogenic factors. J Ecohumanism. 2024;3(4):438–49. doi: 10.62754/joe.v3i4.3534
3. Flammer C. Corporate green bonds. J Financ Econ. 2021;142(2):499–516. doi: 10.1016/j.jfineco.2021.01.010
4. Campiglio E, Daumas L, Monnin P, von Jagow A. Climate risks in financial assets. J Econ Surv. 2023;37:950–92. doi: 10.1111/joes.12525
5. Hu Y, Jin Y. Unraveling the influence of green bonds on environmental sustainability and paving the way for sustainable energy projects in green finance. Environ Sci Pollut Res. 2023; 30:113039–54. doi: 10.1007/s11356-023-30454-3

МЕҲНАТГА ҲАҚ ТЎЛАШ ҲИСОБИНИ 19-СОН БҲХС ТАЛАБЛАРИГА МОСЛАШТИРИШДА 6710-СЧЁТ ДОИРАСИДА ТЎРТ БОСҚИЧЛИ ИШЧИ СЧЁТЛАР ТИЗИМИ

Намозов Илхом Зиёдулло ўғли
Тошкент давлат иқтисодиёт университети таянч докторанти

Аннотация. Мазкур тезисда целлюлоза-қоғоз саноати корхоналарида меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисобини «Ходимларнинг даромадлари» 19-сон БҲХС талабларига мослаштириш мақсадида 6710 «Ходимлар билан меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китоблар» счёти доирасида тўрт босқичли ишчи счётлар тизими (6711–6714) таклиф этилади. Тизим ходимлар даромадларини 19-сон БҲХСнинг тўртта тоифасига мувофиқ ажратиб, ҳисоб хатолари ҳажмини камайтириш, ҳисобнинг таҳлилийлигини ошириш ва халқаро стандартларга мувофиқ ҳисоботни шакллантириш жараёнини тезлаштириш имконини беради.

Калит сўзлар: меҳнатга ҳақ тўлаш, 19-сон БҲХС, ишчи счётлар, ходимлар даромадлари, 6710-счёт, таҳлилийлик, ҳисоб хатолари, целлюлоза-қоғоз саноати.

1. Кириш

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари тизимида меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисоби масалалари бевосита «Ходимларнинг даромадлари» 19-сон БҲХС (Employee Benefits) стандарти билан тартибга солинади. Ушбу стандарт ходимларга тўланадиган мукофотларни тўртта асосий тоифага ажратади: қисқа муддатли мукофотлар, меҳнат фаолиятини тугатиш бўйича мукофотлар, бошқа узоқ муддатли мукофотлар ва ишдан бўшатиш нафақалари. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сонли қарорига мувофиқ, 2021 йил 1 январдан йирик хўжалик юритувчи субъектлар молиявий ҳисоботни халқаро стандартларга мувофиқ тузишга ўтдилар. Бу меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисобининг миллий амалиётини 19-сон БҲХС талабларига мослаштириш заруратини келтириб чиқарди.

Ўзбекистонда амалдаги 21-сон БҲМСга мувофиқ меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китобларни ҳисобга олиш учун ягона 6710-счёт назарда тутилган. Бироқ бу счёт ходимлар даромадларини 19-сон БҲХСнинг тўртта тоифаси бўйича ажратмайди, натижада ҳисобнинг таҳлилийлиги паст ва халқаро стандартларга мувофиқ ҳисобот тузиш мураккаблашади. Хорижий капитал иштирокидаги «Global Komsco Daewoo» МЧЖ каби ҳам миллий, ҳам халқаро стандартлар бўйича ҳисобот тузиши шарт бўлган корхоналар учун бу муаммо алоҳида аҳамият касб этади. Мазкур тезисда ушбу муаммони ҳал этишга қаратилган ишчи счётлар тизими таклиф этилади.

2. Миллий ва халқаро стандартлар ўртасидаги фарқлар

Меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисоби борасида миллий (БҲМС) ва халқаро (19-сон БҲХС) стандартлар ўртасида сезиларли фарқлар мавжуд (1-жадвал).

Фарқлар даромад турлари таснифи, тан олиш даври, актуар ҳисоб-китоблар, дисконтлаш ва ошкор этиш талаблари бўйича намоён бўлади.

1-жадвал.

Меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисобида миллий ва халқаро стандартларнинг фарқлари

Таққослаш мезони	Миллий стандарт (БҲМС)	Халқаро стандарт (19-сон БҲХС)
Даромад турлари	Асосий ва қўшимча иш ҳақи ҳамда мукофот тўловлари	Тўртта тоифа: қисқа муддатли, меҳнат фаолиятини якунлаш, бошқа узоқ муддатли ва ишдан бўшатиш нафақалари
Тан олиш даври	Ҳисобланган ҳисобот даврида харажат сифатида тан олинади	Ходим хизмат кўрсатган даврда тан олинади
Актуар ҳисоб-китоблар	Қўлланмайди	Узоқ муддатли мукофотлар учун мажбурий
Дисконтлаш	Қўлланмайди	Узоқ муддатли мажбуриятлар учун талаб этилади
Ошкор этиш талаблари	Чекланган	Батафсил ва комплексли

Жадвалдан кўринадики, миллий стандарт ходимлар даромадларини тоифаларга ажратмайди, актуар баҳолаш ва дисконтлашни қўлламайди. Ушбу фарқларни бартараф этиш ва халқаро стандартларга мувофиқ ҳисоб юритиш учун счётлар тизимини 19-сон БҲХС тоифаларига мувофиқ қайта тузиш зарур.

3. Тўрт босқичли ишчи счётлар тизими

Аниқланган фарқларни бартараф этиш ва меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисобини 19-сон БҲХС талабларига мослаштириш мақсадида 6710-счёт доирасида тўрт босқичли ишчи счётлар тизимини киритиш таклиф этилади (2-жадвал). Ҳар бир ишчи счёт 19-сон БҲХСнинг муайян тоифасига мос келади.

2-жадвал.

6710-счёт доирасида таклиф этилаётган ишчи счётлар тизими

Ишчи счёт	Номи	19-сон БҲХС бўйича тоифаси
6711	Ходимларнинг қисқа муддатли даромадлари	Қисқа муддатли мукофотлар (иш ҳақи, мукофот, таътил тўловлари)
6712	Ходимларнинг узоқ муддатли даромадлари	Бошқа узоқ муддатли мукофотлар (актуар баҳолаш асосида)
6713	Меҳнат фаолиятини тўхтатиш бўйича нафақалар	Ишдан бўшатиш нафақалари
6714	Меҳнат фаолиятини тугатгандан кейинги мукофотлар	Меҳнат фаолиятидан кейинги мукофотлар (пенсия режалари)

Ишчи счётлар тизимининг қўлланилиши учта асосий натижани таъминлайди. Биринчидан, ходимлар даромадларини тоифалар бўйича алоҳида ҳисобга олиш ҳисоб хатолари ҳажмини камайтиради. Иккинчидан, ҳар бир тоифа бўйича маълумотларнинг алоҳида тўпланиши ҳисобнинг таҳлилийлигини оширади ва бошқарув қарорлари учун асос яратади. Учинчидан, счётлар тизимининг 19-сон БҲХС тоифаларига мослиги халқаро стандартларга мувофиқ молиявий ҳисоботни шакллантириш жараёнини тезлаштиради.

Тизимнинг амалий қиймати айниқса узоқ муддатли ва меҳнат фаолиятидан кейинги мукофотлар (6712 ва 6714 счётлари) ҳисобида намоён бўлади, чунки бу тоифалар актуар баҳолаш ва дисконтлашни талаб қилади. Уларни алоҳида ишчи счётларда ажратиш актуар ҳисоб-китоблар натижаларини изчил акс эттириш ва молиявий ҳисоботда тегишли ошкор қилишни таъминлаш имконини беради.

4. Хулоса

Мазкур тезисда целлюлоза-қоғоз саноати корхоналарида меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисобини 19-сон БҲХС талабларига мослаштириш мақсадида 6710-счёт доирасида тўрт босқичли ишчи счётлар тизими (6711–6714) таклиф этилди. Ҳар бир ишчи счёт 19-сон БҲХСнинг тўртта тоифасидан бирига мос келиши асослаб берилди: 6711 — қисқа муддатли даромадлар; 6712 — узоқ муддатли даромадлар; 6713 — меҳнат фаолиятини тўхтатиш бўйича нафақалар; 6714 — меҳнат фаолиятидан кейинги мукофотлар.

Таклиф этилаётган тизимнинг амалий аҳамияти ҳисоб хатолари ҳажмини камайтириш, ҳисобнинг таҳлилийлигини ошириш ва халқаро стандартларга мувофиқ ҳисоботни шакллантириш жараёнини тезлаштиришда намоён бўлади. Ишчи счётлар тизимини намунавий ҳисоб сиёсати ва типовой бухгалтерия ёзувлари билан бирга целлюлоза-қоғоз саноати корхоналари амалиётига жорий этиш келгуси тадқиқот йўналишидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. IASB (2023) IAS 19 Employee Benefits. London: IFRS Foundation.
2. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2002 йил 9 сентябрдаги 103-сонли буйруғи билан тасдиқланган 21-сон БҲМС «Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома» (Адлия вазирлигида 2002 йил 23 октябрда 1181-сон билан рўйхатга олинган).
3. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни, 2016 йил 13 апрелдаги ЎРҚ-404-сонли Қонун // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. — 2016. — 14.04.2016.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. 2022 йил 28 октябрдаги ЎРҚ-798-сонли Қонун. — Тошкент: «Адолат», 2022.

INVESTITSIYALARNI BAHOLASHDA ZAMONAVIY DASTURLAR VA TEXNIK VOSITALARNING O‘RNI VA ZARURIYATI

Ergasheva A.X
Lavozimi, ilmiy darajasi: assistant Ish joyi: Investitsiya va Innovatsiyalar kafedrasi
Telefon / e-mail: azizaergasheva445@gamail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda investitsiya loyihalarini iqtisodiy baholash jarayonida zamonaviy dasturiy mahsulotlar va texnik vositalardan foydalanishning nazariy hamda amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Investitsion qarorlarning samaradorligi dastlabki kapital hajmi bilan bir qatorda kelgusidagi pul oqimlari, diskont stavkasi, inflyatsiya, risk, bozor kon’yunkturasi va moliyalashtirish shartlarini to‘g‘ri hisobga olishga bog‘liqligi asoslangan. NPV, IRR, PI, diskontlangan qoplash muddati, sezgirlik va ssenariy tahlili, shuningdek Monte-Karlo modellashtirishini avtomatlashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Elektron jadvallar, statistik-analitik dasturlar, ma’lumotlarni vizuallashtirish platformalari, bulutli texnologiyalar va sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish investitsiya tahlilining tezkorligi, aniqligi va shaffofligini oshirishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsion loyiha, investitsiyalarni baholash, NPV, IRR, diskontlash, risk, Monte-Karlo usuli, raqamli texnologiyalar, dasturiy ta’minot, sun’iy intellekt, moliyaviy tahlil.

Zamonaviy iqtisodiyotda investitsiya faoliyati xo‘jalik yurituvchi subyektlarning uzoq muddatli rivojlanishi, ishlab chiqarish salohiyatini yangilashi va raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Korxonaning yangi texnologiyalarni joriy etishi, ishlab chiqarish quvvatini kengaytirishi, asosiy vositalarni modernizatsiya qilishi yoki yangi bozorga kirishi kapital qo‘yilmalar samaradorligini oldindan baholashni talab etadi. Shu sababli investitsion qarorning sifati faqat kutilayotgan foyda miqdori bilan emas, balki pul oqimlarining vaqt qiymati, risk va noaniqlik omillarining qanchalik asosli hisobga olingani bilan belgilanadi.

Investitsiyalarni baholashning klassik metodlari sof joriy qiymat — NPV (Net Present Value), ichki rentabellik normasi — IRR (Internal Rate of Return), rentabellik indeksi — PI (Profitability Index), oddiy va diskontlangan qoplash muddati kabi ko‘rsatkichlarga tayanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar investitsiya loyihasining daromadliligi, kapitalning qanchalik tez qaytishi va investor qiymatining o‘sish imkoniyatini turli jihatlardan ifodalaydi. Biroq ular ishonchli natija berishi uchun kiruvchi ma’lumotlar to‘liq, izchil va iqtisodiy sharoitga mos bo‘lishi zarur.

Sof joriy qiymat nazariyasida kelgusidagi pul oqimlari ma’lum diskont stavkasi orqali bugungi qiymatga keltiriladi. Umumiy ko‘rinishda $NPV = \Sigma CF_t/(1+r)^t - I_0$ munosabati qo‘llanadi. Bu yerda CF_t — tegishli davrdagi sof pul oqimi, r — diskont stavkasi, t — davr, I_0 esa dastlabki investitsiya hajmini anglatadi. NPVning musbat bo‘lishi loyiha qiymat yaratish salohiyatiga ega ekanini ko‘rsatsa-da, real iqtisodiyotda sotuv hajmi, narx, xomashyo tannarxi, foiz stavkasi, inflyatsiya, soliq yuki va valyuta kursi kabi omillar doimiy emas. Shu bois investitsiya bahosi bitta statik hisob-kitob bilan cheklanmasligi kerak.

Zamonaviy dasturiy vositalarning zaruriyati aynan koʻp omilli va oʻzgaruvchan iqtisodiy muhitni hisobga olish ehtiyojidan kelib chiqadi. Elektron jadvallar yordamida pul oqimlarini davrlar kesimida tuzish, diskontlash, NPV va IRRni avtomatik hisoblash, kredit va amortizatsiya jadvallarini shakllantirish, soliq taʼsirini aniqlash hamda bir nechta investitsiya variantlarini oʻzaro taqqoslash mumkin. Modelning asosiy parametrlaridan biri oʻzgartirilganda natijalarning avtomatik qayta hisoblanishi mutaxassis vaqtini tejaydi va qoʻlda hisoblashdagi texnik xatolar ehtimolini kamaytiradi.

Microsoft Excel kabi dasturlar kichik va oʻrta hajmdagi investitsiya loyihalari uchun amaliy jihatdan qulay vosita boʻlib, formulalar, moliyaviy funksiyalar, maʼlumotlar jadvallari va optimallashtirish elementlari orqali turli modellarni tuzish imkonini beradi. Shu bilan birga, murakkab loyihalarda elektron jadvalning oʻzi yetarli boʻlmasligi mumkin. Katta hajmdagi maʼlumotlar, koʻp sonli oʻzgaruvchilar va ehtimollik taqsimotlari bilan ishlashda statistik dasturlash muhitlari, simulyatsiya vositalari va biznes-analitika platformalaridan foydalanish tahlilning metodologik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Investitsion riskni baholashda sezgirlik tahlili muhim oʻrin tutadi. Ushbu usul loyihaning biror muhim parametri oʻzgarganda yakuniy natija qay darajada oʻzgarishini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, mahsulot sotish narxining pasayishi, xomashyo xarajatlarining oshishi yoki diskont stavkasining koʻtarilishi NPV va IRRga turlicha taʼsir koʻrsatadi. Dasturiy vositalar yordamida bunday oʻzgarishlarning koʻplab variantlarini qisqa vaqtda hisoblash hamda loyiha natijasiga eng kuchli taʼsir qiluvchi omillarni ajratib koʻrsatish mumkin.

Ssenariyli tahlil esa bir vaqtning oʻzida bir nechta koʻrsatkichlarning oʻzgarishini nazarda tutadi. Amaliyotda optimistik, bazaviy va pessimistik ssenariylar shakllantirilib, har bir holatda loyiha natijasi qayta baholanadi. Bunday yondashuv investor yoki korxona rahbariyatiga faqat rejalashtirilgan daromadni emas, balki noqulay bozor sharoitlarida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan zarar ehtimolini ham oldindan koʻrish imkonini beradi. Natijada investitsion qaror birgina prognozga emas, balki muqobil holatlar tizimiga asoslanadi.

Risk va noaniqlik yuqori boʻlgan loyihalarda Monte-Karlo simulyatsiyasi ayniqsa samarali hisoblanadi. Mazkur metodda asosiy oʻzgaruvchilarga ehtimollik taqsimotlari berilib, kompyuter vositasida yuzlab yoki minglab ehtimoliy kombinatsiyalar hosil qilinadi. Natijada investorga bitta NPV qiymati emas, balki uning ehtimoliy diapazoni, oʻrtacha qiymati, tarqalishi va loyiha zarar bilan yakunlanish ehtimoli ham taqdim etiladi. Bu esa riskni faqat sifat jihatdan tavsiflashdan uni miqdoriy oʻlchash bosqichiga olib oʻtadi.

Python, R va MATLAB singari statistik va dasturlash muhitlari investitsion tahlilning ilgʻor vositalaridan sanaladi. Ular katta hajmdagi maʼlumotlarni qayta ishlash, regressiya va vaqt qatori modellarini qurish, prognozlar ishlab chiqish, portfel riskini oʻlchash hamda takrorlanuvchi hisob-kitoblarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, turli bozor koʻrsatkichlarini muntazam yangilab borish talab qilinadigan investitsiya portfellarida algoritmik yondashuv maʼlumotlarni qoʻlda qayta ishlashga nisbatan samaraliroq natija beradi.

Investitsiyalarni baholashda zamonaviy texnik vositalar ham bevosita ahamiyatga ega. Kuchli hisoblash imkoniyatiga ega kompyuterlar, serverlar, bulutli infratuzilma, elektron ma’lumotlar bazalari va yuqori tezlikdagi ma’lumot almashinuvi investitsion tahlilning texnologik poydevorini shakllantiradi. Bulutli platformalar bir loyiha ustida turli bo‘limlar yoki hududlardagi mutaxassislarning hamkorlikda ishlashi, ma’lumotlarni markazlashtirilgan tarzda saqlashi va versiyalarni nazorat qilishi uchun qulay muhit yaratadi.

Ma’lumotlarni vizuallashtirish platformalari investitsion qaror qabul qilish sifatini oshiradigan yana bir yo‘nalishdir. Power BI kabi vositalar loyiha qiymati, xarajatlar dinamikasi, pul oqimlari, rentabellik, qarzdorlik va risk indikatorlarini interaktiv boshqaruv panellarida aks ettirishga imkon beradi. Ko‘p sonli moliyaviy ko‘rsatkichlarning jadval shaklida taqdim etilishi rahbar uchun murakkab bo‘lishi mumkin, grafik va vizual ko‘rinish esa muhim tendensiyalarni tezroq anglashga yordam beradi.

Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalarining rivojlanishi investitsion tahlilga yangi imkoniyatlarni olib kirmoqda. Tarixiy ma’lumotlardan foydalanib talab, narx yoki xarajat dinamikasini prognozlash, ma’lumotlar orasidagi yashirin bog‘liqliklarni aniqlash va turli tavakkalchilik belgilarini erta aniqlash mumkin. Shu bilan birga, sun’iy intellekt natijalari mutlaq haqiqat sifatida qabul qilinmasligi lozim. Modelning xulosasi kiritilgan ma’lumotlar sifati, tanlangan algoritm, parametrlar va iqtisodiy kontekstning to‘g‘ri talqin qilinishiga bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan, investitsion baholashda “inson + texnologiya” tamoyili maqbul yondashuv sanaladi. Dasturiy vosita katta hajmdagi hisoblash, tahlil va modellashtirishni bajaradi, mutaxassis esa natijalarning iqtisodiy mazmunini sharhlaydi, mantiqiy cheklovlarni aniqlaydi va yakuniy boshqaruv qarorini shakllantiradi. Demak, raqamlashtirish iqtisodchi yoki auditorning kasbiy fikrlashini almashtirmaydi, balki uning analitik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Zamonaviy dasturlarning yana bir muhim afzalligi investitsiya hisob-kitoblarining audit qilinuvchanligini oshirishidir. Raqamli modelda dastlabki ma’lumotlar, formulalar, o‘zgartirishlar va yakuniy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni qayta kuzatish imkoniyati mavjud. Bu auditor uchun investitsion qaror qanday faraz va ko‘rsatkichlar asosida qabul qilinganini tekshirishni osonlashtiradi. Shuningdek, elektron izlarning mavjudligi hisob-kitobga kiritilgan o‘zgarishlar tarixini aniqlash va mas’uliyatni aniqroq taqsimlash imkonini beradi.

Biroq dasturiy vositalar har doim ham xatoni avtomatik ravishda bartaraf etmaydi. Noto‘g‘ri formula, xato kiritilgan boshlang‘ich ma’lumot, haddan tashqari optimistik prognoz yoki modelning noto‘g‘ri tuzilishi ishonchsiz natijaga olib kelishi mumkin. Raqamlashtirish inson xatosining yo‘qolishini emas, ayrim hollarda uning tizimli tus olishini ham yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli investitsion modelni mustaqil tekshirish, ma’lumot manbalarini verifikatsiya qilish va nazorat protseduralarini joriy etish zarur.

Dasturiy ta’minotni tanlashda korxonaning hajmi, investitsiya loyihalarining murakkabligi, xodimlarning raqamli kompetensiyasi, axborot xavfsizligi talablari va iqtisodiy samaradorlik mezonlari hisobga olinishi kerak. Kichik loyihalar uchun

elektron jadvallar yetarli bo‘lishi mumkin, yirik va yuqori riskli loyihalarda esa maxsus statistik, simulyatsion va biznes-analitika vositalaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, dastur narxi emas, balki uning qaror sifatiga qo‘shadigan qiymati asosiy tanlov mezoni bo‘lishi lozim.

Umuman, zamonaviy dasturlar va texnik vositalardan foydalanish investitsion tahlilning uchta muhim sifatini kuchaytiradi: hisob-kitoblar tezkorligi va aniqligi, risklarni ko‘p variantli modellashtirish imkoniyati hamda qarorlarning shaffof va tekshiriladigan bo‘lishi. Shu sababli raqamli texnologiyalar investitsiyalarni baholashning yordamchi elementi emas, balki zamonaviy moliyaviy tahlilning metodologik infratuzilmasiga aylanib bormoqda.

Xulosa

Olib borilgan tahlil investitsion qarorlarning ishonchliligi foydalanilayotgan ko‘rsatkichlar soni bilan emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi, risk va noaniqlikning qanchalik to‘g‘ri hisobga olingani hamda tahlil natijalarining tekshiriluvchanligi bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Zamonaviy dasturiy va texnik vositalar investitsiya loyihasini bir martalik statik hisob-kitobdan ko‘p variantli, muntazam yangilanadigan va audit qilinadigan raqamli modelga aylantiradi. Elektron jadvallar, statistik dasturlar, simulyatsiya texnologiyalari, biznes-analitika platformalari, bulutli hisoblash va sun’iy intellekt elementlaridan oqilona foydalanish investitsiya samaradorligini yanada asosli baholash imkonini beradi. Bunda texnologiya mutaxassisning iqtisodiy tafakkurini almashtirmasdan, uning qaror qabul qilish imkoniyatlarini kuchaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy-nazariy va amaliy taklif hamda tavsiyalar

1. Investitsion loyihalarni baholashda NPV va IRR kabi an’anaviy ko‘rsatkichlarni sezgirlik tahlili, ssenariyli baholash va Monte-Karlo simulyatsiyasi bilan birlashtiruvchi integratsiyalashgan raqamli modelni joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Yirik investitsiya loyihalarida bitta prognoz natijasiga tayanish o‘rniga ehtimollik asosidagi baholash tizimidan foydalanish, loyiha natijalarining diapazoni va zarar ehtimolini alohida ko‘rsatish tavsiya etiladi.

3. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda investitsiya loyihalari bo‘yicha yagona elektron ma’lumotlar bazasi va raqamli audit izini shakllantirish lozim; bunda boshlang‘ich ma’lumotlar, formulalar, o‘zgarishlar va qarorlar tarixi saqlanib borilishi kerak.

4. Investitsiya va audit yo‘nalishidagi mutaxassislarning malakasini oshirish dasturlariga Excel asosidagi moliyaviy modellashtirish, statistik tahlil, Python yoki R, ma’lumotlarni vizuallashtirish va sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha amaliy modullarni kiritish zarur.

5. Avtomatlashtirilgan investitsion modellar uchun mustaqil tekshirish mexanizmini joriy etib, dastur natijalarini ekspert bahosi, ma’lumot manbalarini verifikatsiya qilish va auditorlik nazorati bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
2. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. Wiley.
3. Ross S.A., Westerfield R.W., Jaffe J., Jordan B.D. Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
4. Berk J., DeMarzo P. Corporate Finance. Pearson.
5. Mun J. Real Options Analysis: Tools and Techniques for Valuing Strategic Investments and Decisions. Wiley.
6. Hull J.C. Risk Management and Financial Institutions. Wiley.
7. Pinto J.E. et al. Equity Asset Valuation. CFA Institute Investment Series.
8. International Federation of Accountants. Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements.
9. Microsoft. Microsoft Excel: Financial and Data Analysis Tools. Official documentation.
10. Python Software Foundation. Python Documentation.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ИЧКИ АУДИТ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ ИНТЕГРАЛ ИНДЕКС МОДЕЛИ

Нарзиев Хаётжон Азаматович
мустақил изланувчи, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Аннотация. Тезисда тижорат банкларида ички аудит самарадорлигини комплекс баҳолашнинг тўрт блокли интеграл индекс модели таклиф этилган, блок вазнлари Saaty AHP усули асосида белгиланган ҳамда модель Ўзбекистоннинг саккизта етакчи банки маълумотларида апробациядан ўтказилган.

Калит сўзлар: ички аудит самарадорлиги, тижорат банклари, интеграл индекс, композит кўрсаткич, Saaty AHP усули, аудит қамрови, рискни аниқлаш, бенчмаркинг, сифатни таъминлаш дастури.

Ўзбекистон банкларида ички аудит хизматлари ташкилий жиҳатдан шаклланган бўлса-да, уларнинг самарадорлигини ўлчашнинг ягона, илмий асосланган воситаси мавжуд эмас: банклар турли хусусий кўрсаткичлардан фойдаланади, бу эса банкларараро таққослаш ва назорат органи учун яхлит манзара ҳосил қилиш имконини бермайди. Айни пайтда «Ички аудитнинг глобал стандартлари» самарадорликни мунтазам ўлчаб боришни сифатни таъминлаш дастурининг таркибий қисми сифатида талаб қилади. Халқаро эмпирик адабиёт синтези ҳам ягона ўлчов тизими шаклланмаганини кўрсатади — демак, кўп омилли композит индекс яратиш ҳам назарий, ҳам амалий заруратдир.

Таклиф этилаётган модель самарадорликни тўрт блок орқали яхлит ифодалайди: аудит қамрови (Q) — аудит универсининг қамраб олинган улуши, юқори рискли объектлар қамрови ва режа бажарилиши; аудит сифати (S) — иш қоғозларининг стандартларга мувофиқлиги, ички сифат баҳолашлари ва аудит қўмитаси қониқиши; рискни аниқлаш қобилияти (R) — юқори рискли соҳалардаги топилмалар улуши ва муаммоларни эрта аниқлаш; тавсияларнинг бажарилиш даражаси (T) — муддатида бажарилган тавсиялар улуши ва такрорий топилмаларнинг камайиши. Барча хусусий кўрсаткичлар [0; 1] оралиғига нормаллаштирилади.

Блок вазнлари иерархияларни таҳлил қилиш усули (Saaty AHP) ёрдамида, банк аудит хизматлари раҳбарлари, назорат органи мутахассислари ва соҳа олимларидан иборат эксперт гуруҳининг жуфт таққослашлари асосида аниқланди; мувофиқлик нисбати барча матрицаларда 0,10 дан паст бўлди. Интеграл индекс қуйидаги кўринишда ҳисобланади (1-жадвал):

$$IA = 0{,}25 \cdot Q + 0{,}30 \cdot S + 0{,}25 \cdot R + 0{,}20 \cdot T$$

1-жадвал

Интеграл индекс блоклари ва вазнлари

Блок	Вазни	Мазмуни
Q — аудит қамрови	0,25	Универс қамрови, рискли объектлар, режа ижроси
S — аудит сифати	0,30	Стандартларга мувофиқлик, сифат баҳолари
R — рискни аниқлаш	0,25	Рискли соҳалардаги топилмалар, эрта аниқлаш
T — тавсиялар ижроси	0,20	Муддатида бажарилиш, такрорий топилмалар

Моделнинг саккизта етакчи банк 2024 йил маълумотларидаги апробацияси индекс қийматлари 0,55–0,72 оралиғида, ўртача 0,64 даражада эканини кўрсатди — бу халқаро етакчи мезондан (0,80) сезиларли паст. Барча банкларда энг заиф звено рискни аниқлаш блоки экани аниқланди, бу ички аудитнинг ҳамон ретроспектив текширувга йўналганлигидан далолат беради. Сценарий ҳисоб-китобларига кўра, рискка йўналтирилган режалаштириш ва тавсиялар мониторингини автоматлаштириш ҳисобига индексни 2028 йилгача 0,82 даражага етказиш мумкин.

Хулоса сифатида таъкидлаш жоизки, интеграл индекс банклар учун сифатни таъминлаш дастурининг ўлчов ядроси, Марказий банк учун эса банклараро бенчмаркинг ва масофадан баҳолаш воситаси бўлиб хизмат қилиши мумкин; блокли тузилиши эса умумий қийматнинг пастлиги қайси омил ҳисобига юзага келаётганини кўрсатиб, бошқарув аралашувининг аниқ нуқталарини белгилайди.

Таклиф ва тавсиялар:

1. (Илмий-назарий) Ички аудит самарадорлигини баҳолашнинг тўрт блокли (Q, S, R, T) интеграл индекс моделини — блок вазнлари Saaty AHP

усули асосида асосланган ҳолда — миллий банк амалиёти учун ягона композит ўлчов воситаси сифатида қабул қилиш тавсия этилади.

2. (Амалий) Тижорат банкларига интеграл индексни сифатни таъминлаш ва такомиллаштириш дастурининг ўлчов ядроси сифатида жорий этиш, айниқса энг заиф звено — рискни аниқлаш (R) блоки бўйича кўрсаткичларни мунтазам мониторинг қилиш тавсия этилади.

3. (Амалий) Марказий банкка интеграл индексдан банклараро бенчмаркинг ва масофадан (офсайт) назорат воситаси сифатида фойдаланиш ҳамда рискка йўналтирилган режалаштириш ва тавсиялар мониторингини автоматлаштириш орқали индексни 2028 йилгача халқаро мезон (0,80–0,82) даражасига етказиш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. IIA (2024). Global Internal Audit Standards. – Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2024. – 119 p.

2. Saaty, T.L. (2008). Decision making with the analytic hierarchy process // International Journal of Services Sciences. – Vol. 1, № 1. – Pp. 83–98.

3. Lenz, R., Hahn, U. (2015). A synthesis of empirical internal audit effectiveness literature pointing to new research opportunities // Managerial Auditing Journal. – Vol. 30, № 1. – Pp. 5–33.

4. Cohen, A., Sayag, G. (2010). The effectiveness of internal auditing: An empirical examination of its determinants in Israeli organisations // Australian Accounting Review. – Vol. 20, № 3. – Pp. 296–307.

5. BCBS (2012). The internal audit function in banks. – Basel: Bank for International Settlements, 2012. – 19 p.

ЦЕЛЛЮЛОЗА-ҚОҒОЗ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА МЕҲНАТГА ҲАҚ ТЎЛАШ ҲИСОБИНИ МҲХС ВА ERP-ТИЗИМЛАР ТАЛАБЛАРИГА МОСЛАШТИРИШ ҲАМДА РЕАЛ ВАҚТ РЕЖИМИДА ИНТЕГРАЦИЯЛАШ

Намозов Илхом Зиёдулло ўғли
Тошкент давлат иқтисодиёт университети таянч докторанти

Аннотация. Мазкур тезисда целлюлоза-қоғоз саноати корхоналарида меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲХС) ва корхона ресурсларини бошқаришнинг замонавий тизимлари (ERP) талабларига мослаштириш бўйича услубий ёндашув баён этилади. ERP-тизимларининг қиёсий таҳлили, multi-GAAP функционаллиги асосида параллел ҳисобни юритиш ҳамда меҳнатга ҳақ тўлаш фондини шакллантириш, тақсимлаш ва ҳисобга олиш жараёнларини солиқ ва статистика ҳисоботлари билан реал вақт («real-time») режимида узлуксиз боғлаш зарурлиги асосланади.

Калит сўзлар: меҳнатга ҳақ тўлаш, ERP-тизимлар, МҲХС, 19-сон БҲХС, автоматлаштириш, реал вақт, multi-GAAP, солиқ ҳисоботи, целлюлоза-қоғоз саноати.

1. Кириш

Рақамли иқтисодиёт шароитида меҳнатга ҳақ тўлашни ҳисоблаш ишини автоматлаштириш нафақат қулайлик, балки иқтисодий зарурият ҳисобланади. Gartner тадқиқот компаниясининг маълумотларига кўра, инсон капиталини бошқариш (HCM) жаҳон бозорининг ҳажми 2023 йилда 25,2 млрд АҚШ долларини ташкил этиб, ҳар йили тахминан 10,5 фоизга ўсиб бормоқда. Целлюлоза-қоғоз саноати корхоналарида ишлаб чиқаришнинг узлуксиз циклда амалга оширилиши, меҳнатга ҳақ тўлаш фондининг мураккаб таркиби ва хорижий капитал иштироки бундай корхоналарнинг ҳисобини автоматлаштириш ва халқаро стандартларга мослаштиришни долзарб қилади.

Хорижий капитал иштирокидаги «Global Komsco Daewoo» МЧЖ каби корхоналар ҳисоботни ҳам миллий, ҳам халқаро стандартларга мувофиқ шакллантиришлари шарт. Бироқ амалдаги ҳисоб амалиётининг таҳлили меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисобини МҲХС ва ERP-тизимлар талабларига мослаштириш бўйича тизимли услубий ёндашувнинг етишмаслигини кўрсатади. Мазкур тезисда ушбу муаммони ҳал этишга қаратилган услубий ёндашув таклиф этилади.

2. ERP-тизимлари ва multi-GAAP асосида ҳисобни ташкил этиш

Меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисобини автоматлаштириш учун етакчи ERP/HCM тизимлари — SAP HCM, Oracle HCM Cloud, Workday HCM, Microsoft Dynamics 365 HR ва 1С:ЗУП — қиёсий таҳлил қилинди (1-жадвал). Ҳар бир тизим ўзининг архитектураси, интеграция имкониятлари ва миллий қонунчиликка мослашуви бўйича фарқланади.

1-жадвал.

Меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисобини автоматлаштирувчи ERP/HCM тизимларининг қиёсий таҳлили

Тизим	Ишлаб чиқарувчи	Афзалликлари	Чекловлари
SAP HCM	SAP (Германия)	Кенг функционаллик, халқаро стандартларга мослик	Юқори жорий этиш харажатлари
Oracle HCM Cloud	Oracle (АҚШ)	Булутли архитектура, AI имкониятлари	Барқарор интернет талаб этади, маҳаллий мослашув чекланган
Workday HCM	Workday (АҚШ)	Замонавий интерфейс, тезкор жорий этиш	Ривожланаётган бозорларда чекланган тажриба
Microsoft Dynamics 365 HR	Microsoft (АҚШ)	Microsoft экотизимига мослик, Power BI интеграцияси	Кадр модули бошқа модулларга боғлиқ
1С:ЗУП	1С (Россия)	МДҲ қонунчилигига мослик, нисбатан арзон	Санкциялар таъсири, чекланган янгиланишлар

Замонавий ERP-тизимлари multi-GAAP функционаллигини — бир вақтнинг ўзида бир нечта бухгалтерия ҳисоби стандартларини қўллаш имкониятини — қўллаб-қувватлайди. Бу параллел ҳисобни юритиш ва ягона

ахборот тизими доирасида ҳам миллий (БҲМС), ҳам халқаро (19-сон БҲХС) талаблар бўйича ҳисоботларни шакллантириш имконини беради. «Global Komsco Daewoo» МЧЖ Oracle HCM Cloud тизимининг ходимларни бошқариш ва иш ҳақини ҳисоблаш модулларини жорий этган.

Автоматлаштиришнинг иқтисодий самараси сезиларли: халқаро тадқиқотларга кўра, қўлда ҳисоблашда хатоликлар даражаси 10–15 фоизни ташкил этса, автоматлаштирилган тизимларда бу кўрсаткич 0,1–0,5 фоизгача камаяди; ҳисоб-китоблар тезлиги эса 5–7 мартага ошади. Тахминан 260 нафар ходими бўлган корхонада иш ҳақини ҳисоблаш автоматлаштирилган тарзда ўртача 1–2 соат давом этса, қўлда усулда худди шу жараён 2–3 иш кунини талаб этади.

3. Реал вақт режимида солиқ ва статистика ҳисоботлари билан интеграция

Таклиф этилаётган услубий ёндашувнинг марказий ғояси — меҳнатга ҳақ тўлаш фондини шакллантириш, тақсимлаш ва ҳисобга олиш жараёнларини солиқ ва статистика ҳисоботлари билан реал вақт режимида узлуксиз боғлашдир. Ушбу интеграция бир қатор афзалликларни таъминлайди: биринчидан, солиқлар ва ижтимоий тўловларни автоматик ҳисоблаш ва уларни қўлда аралашувсиз бюджетга ўтказиш; иккинчидан, электрон ҳисоботларни автоматик шакллантириш орқали назорат органлари билан ўзаро ҳамкорликни осонлаштириш; учинчидан, ҳар бир ходимга шахсий кабинет орқали ўз иш ҳақи маълумотларини реал вақтда кўриш имконини бериш.

Реал вақт режимидаги интеграция халқаро тенденцияларга мос келади. Италияда 2021 йилдан барча юридик шахслар иш ҳақи ва солиқ мажбуриятлари билан боғлиқ операцияларни реал вақт режимида солиқ органларига тақдим этишлари шарт. Ўзбекистонда 2021 йилдан бошлаб soliq.uz платформаси асосида электрон солиқ маъмуриятчилиги тизими ривожлантирилмоқда, бу миллий амалиётнинг солиқ ва бухгалтерия ҳисобини рақамлаштиришнинг халқаро тенденциялари билан босқичма-босқич уйғунлашаётганини кўрсатади.

Меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисобини 19-сон БҲХС талабларига мослаштиришда қуйидаги йўналишларга эътибор қаратиш лозим: ҳисоб сиёсатини стандарт талабларига мувофиқ қайта кўриб чиқиш; узоқ муддатли ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китобларни актуар усуллардан фойдаланиб амалга ошириш; узоқ муддатли мажбуриятларни дисконтлаш механизмини жорий этиш; молиявий ҳисоботда ошкор қилиш талабларига тўлиқ риоя этиш. Ушбу йўналишлар ERP-тизимларининг multi-GAAP имкониятлари билан бирга реал вақт режимида амалга оширилиши мумкин.

4. Хулоса

Мазкур тезисда целлюлоза-қоғоз саноати корхоналарида меҳнатга ҳақ тўлаш ҳисобини МҲХС ва ERP-тизимлар талабларига мослаштириш бўйича услубий ёндашув баён этилди. Етакчи ERP/HCM тизимларининг қиёсий таҳлили ўтказилиб, multi-GAAP функционаллиги асосида параллел ҳисобни юритиш ва ягона ахборот тизими доирасида ҳам миллий, ҳам халқаро

стандартлар бўйича ҳисобот шакллантириш имконияти асосланди. Меҳнатга ҳақ тўлаш жараёнларини солиқ ва статистика ҳисоботлари билан реал вақт режимида узлуксиз боғлаш зарурлиги кўрсатилди.

Таклиф этилаётган ёндашувнинг амалий аҳамияти иш ҳақини ҳисоблашдаги хатоликларни камайтириш (10–15 фоиздан 0,1–0,5 фоизгача), ҳисоб-китоблар тезлигини 5–7 мартага ошириш, солиқ ва ижтимоий тўловларни автоматлаштириш ҳамда молиявий ҳисобот шаффофлигини таъминлашда намоён бўлади. Услубий ёндашувни целлюлоза-қоғоз саноати корхоналари амалиётига жорий этиш келгуси тадқиқот йўналишидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. IASB (2023) IAS 19 Employee Benefits. London: IFRS Foundation.

2. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни, 2016 йил 13 апрелдаги ЎРҚ-404-сонли Қонун // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. — 2016. — 14.04.2016.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сонли Қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2002 йил 9 сентябрдаги 103-сонли буйруғи билан тасдиқланган 21-сон БҲМС «Хўжалик юритувчи субъектларда бухгалтерия ҳисобининг ҳисобварақлар режаси ва уни қўллаш бўйича йўриқнома» (Адлия вазирлигида 2002 йил 23 октябрда 1181-сон билан рўйхатга олинган).

5. Gartner (2023) Human Capital Management (HCM) Software Market. Stamford: Gartner Research.

МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАР СИФАТИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШДА ХАЛҚАРО ТАЖРИБА ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Лутфуллаев Сардорбек Уткур ўғли
мустақил изланувчи, Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Тел.: +998 98 123 23 23 E-mail: sardorlutfullayev07@gmail.com

Аннотация. Тезисда молиявий ҳисоботлар сифатини назорат қилишнинг тўрт халқаро модели — Англо-Саксон, Континентал Европа, Осиё-Тинч океани ва аралаш (транзит) моделлари — қиёсий таҳлил қилинган. Назорат самарасининг ижро механизмларига боғлиқлиги бўйича эмпирик хулосалар умумлаштирилган ҳамда халқаро тажрибани Ўзбекистон шароитига мослаштирилган ҳолда қўллашнинг устувор йўналишлари асосланган.

Калит сўзлар: молиявий ҳисобот сифати, сифат назорати, МҲХС (IFRS), Англо-Саксон модели, Континентал Европа модели, PCAOB, ижро механизмлари (enforcement), аудит сифати, репутацион интизом.

Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви ва капитал бозорларининг интеграциялашуви шароитида акциядорлик жамиятлари молиявий ҳисоботлари сифатини назорат қилишнинг халқаро тажрибаси муҳим назарий ва амалий аҳамият касб этмоқда. Ҳозирги кунда дунёнинг 140 дан ортиқ юрисдикциясида МҲХС тўлиқ ёки қисман қабул қилинган бўлиб, ҳар бир мамлакатда ҳисобот сифатини назорат қилишнинг ўзига хос институционал тизими шаклланган. Мазкур тажрибаларни илмий ўрганиш ва Ўзбекистон шароитига мослаштириш миллий сифат назорати тизимини такомиллаштиришнинг муҳим омили ҳисобланади.

МҲХСни қабул қилиш ҳолати бўйича жаҳон давлатлари тўрт тоифага бўлинади: давлатларнинг 58 фоизи стандартларни тўлиқ татбиқ этган, 22 фоизи миллий стандартларни МҲХСга босқичма-босқич яқинлаштириш (конвергенция) йўлидан бормоқда, 12 фоизи қисман қабул қилган, 8 фоизи эса ҳозирча қабул қилмаган. АҚШ ва Хитой каби йирик иқтисодиётлар ўз миллий стандартларини сақлаб келаётган бўлсаларда, улар ҳам конвергенция йўналишида илгариламоқда. Бу тенденция МҲХСнинг жаҳон миқёсида ягона универсал ҳисоб тилига айланиб бораётганидан далолат беради.

Илмий адабиётда молиявий ҳисобот сифатини назорат қилишнинг тўрт асосий халқаро модели ажратилади. Биринчиси — Англо-Саксон модели (АҚШ, Буюк Британия, Канада, Австралия) бўлиб, у давлат ва профессионал-жамоат ташкилотларининг кучли иштироки билан тавсифланади. Моделнинг ривожида 2002 йилги Сарбейнс–Оксли қонунининг қабул қилиниши ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлди: йирик корпоратив инқирозлардан кейин қабул қилинган мазкур қонун ички назорат самарадорлигини раҳбарият томонидан расман тасдиқлаш институтини ва аудит фаолияти устидан мустақил жамоат назоратини (PCAOB) жорий этди. PCAOB ҳар йили ўнлаб йирик аудиторлик фирмаларини мажбурий текширади ва жавобгарлик чораларини қўллаш ваколатига эга — айнан қатъий жавобгарлик механизми юқори сифатли ҳисоботнинг таъминланишига хизмат қилади[145].

Иккинчиси — Континентал Европа модели (Германия, Франция, Италия) бўлиб, унда назорат икки даражада амалга оширилади: умумевропа даражасида ESMA орқали, миллий даражада эса ихтисослашган органлар (Германияда FREP, Францияда AMF) ёрдамида. Германия тажрибаси айниқса ибратлидир: FREP риск принципига асосланган танлама текширувлар ўтказади ва текширилган ҳисоботларнинг учдан бирига яқинида хатоликларни аниқлаб тузаттиради. Учинчиси — Осиё-Тинч океани модели (Япония, Сингапур, Корея) мувофиқлаштирилган ёндашув ва технологик инновациялар билан ажралиб туради: Япониянинг J-SOX тизими ички назорат тасдиғини корпоратив гуруҳларга мослаштирган, Сингапур ACRA органи эса ҳисобот сифати кузатуви дастурини самарали юритади. Тўртинчиси — аралаш (транзит) модели (Россия, Қозоғистон, Ўзбекистон) давлат назоратининг устунлиги ва ҳуқуқий базани такомиллаштириш босқичида эканлиги билан тавсифланади.

[145]Sarbanes-Oxley Act of 2002 // Public Law 107-204, 116 Stat. 745.

Халқаро эмпирик тадқиқотлар сифат назоратининг ҳал қилувчи ролини ишончли тасдиқлайди. Х.Б. Кристенсен, Л. Хейл ва К. Лёзнинг фундаментал тадқиқоти кўрсатишича, МҲХСни қабул қилишнинг капитал бозорига ижобий таъсири айнан ижро механизмлари кучайтирилган мамлакатларда намоён бўлади. Х. Даске ва ҳаммуаллифларнинг 26 мамлакат маълумотлари асосидаги тадқиқоти ҳам шу хулосани тасдиқлайди: МҲХСнинг иқтисодий самараси стандартларни расман қабул қилишда эмас, балки самарали назорат тизимининг мавжудлигидадир[146]. П. Браун, Ж. Преиато ва А. Тарканинг 51 юрисдикция бўйича компаратив тадқиқоти эса мамлакатлараро фарқларни айнан ижро институтларининг кучи белгилашини миқдорий кўрсатган[147]. Мазкур хулосалар Ўзбекистон учун бевосита долзарбдир: МҲХСга расман ўтилган ҳозирги босқичда асосий вазифа назорат инфратузилмасини шакллантиришдир[148].

FRC маълумотларига кўра, мамлакат акциядорлик жамиятларининг мутлақ кўпчилиги МҲХС талабларини тўлиқ бажаради — бунга мунтазам мониторинг, текширув натижаларини ошкор қилиш ва аудит сифати индикаторлари тизими орқали эришилган. Сингапурда ҳисобот сифати кузатуви дастури компанияларни текшириш натижаларини тоифалаштирилган ҳолда эълон қилади, бу эса жамиятлар учун кучли репутацион рағбат яратади. АҚШда эса йирик эмитентлар учун ҳисоботни 60 кун ичида топшириш талаби ўз вақтидалик мезонини қатъий таъминлайди[149].

Ўзбекистоннинг жорий ҳолати халқаро мезонлар призмасида баҳоланганда қуйидаги манзара намоён бўлади. Жаҳон банкининг ROSC ҳисоботи мамлакатимизда МҲХСни жорий этиш бўйича бажарилган ишларни ижобий баҳолаган ҳолда, учта тизимли камчиликни қайд этган: ҳисобот сифати назоратини амалга оширувчи ихтисослашган органнинг йўқлиги, услубий қўлланмаларнинг чекланганлиги ҳамда малакали мутахассисларнинг етишмаслиги. Демак, миллий тизим транзит моделдан ривожланган моделларга ўтиш босқичида турибди ва бу ўтишнинг муваффақияти халқаро тажрибани қанчалик оқилона ўзлаштиришга боғлиқ[150].

Халқаро тажрибани мослаштиришда муҳим методологик тамойилга риоя этиш зарур: хорижий механизмларни механик кўчириб олиш мақсадга мувофиқ эмас — улар Ўзбекистоннинг иқтисодий, ҳуқуқий ва институционал шароитларига рационал мослаштирилган ҳолда қўлланилиши лозим. Масалан, РСАОВ каби алоҳида жамоат назорати органини дарҳол ташкил этиш ўрнига, мавжуд институтлар (Капитал бозорини ривожлантириш

---

[146] Christensen H.B., Hail L., Leuz C. Mandatory IFRS Reporting and Changes in Enforcement // Journal of Accounting and Economics. — 2013. — Vol. 56. — No. 2–3. — P. 147–177.

[147] Daske H., Hail L., Leuz C., Verdi R. Mandatory IFRS Reporting around the World: Early Evidence on the Economic Consequences // Journal of Accounting Research. — 2008. — Vol. 46. — No. 5. — P. 1085–1142.

[148] Brown P., Preiato J., Tarca A. Measuring Country Differences in Enforcement of Accounting Standards // Journal of Business Finance & Accounting. — 2014. — Vol. 41. — No. 1–2. — P. 1–52.

[149] Financial Reporting Council (FRC). Annual Enforcement Review. — London: FRC, 2023. — P. 14–19.

[150] World Bank. Report on the Observance of Standards and Codes (ROSC) — Uzbekistan. — Washington: World Bank, 2022. — P. 38–44.

агентлиги, Аудиторлар палатаси) негизида ҳисобот сифати кузатуви функциясини босқичма-босқич шакллантириш; FREP тажрибасидаги риск принципига асосланган танлама текширувларни жорий этиш; Сингапур амалиётидаги натижаларни ошкор қилиш механизмини миллий корпоратив ахборот портали имкониятлари билан уйғунлаштириш мумкин[151].

Юқоридаги таҳлил асосида халқаро тажрибани Ўзбекистонда қўллашнинг қуйидаги устувор йўналишларини ажратиб кўрсатиш мумкин: биринчидан, ҳисобот сифати устидан мониторинг функциясини аниқ институтга бириктириш ва унинг ваколатларини меъёрий белгилаш; иккинчидан, риск принципига асосланган танлама текширувлар амалиётини жорий этиш ҳамда муаммоли соҳаларга (молиявий инструментлар, ижара, даромадларни тан олиш) устувор эътибор қаратиш; учинчидан, текширув натижаларини умумлаштирилган ҳолда ошкор қилиш орқали репутацион рағбат механизмини яратиш; тўртинчидан, аудит сифати индикаторлари тизимини ривожлантириш; бешинчидан, халқаро сертификатлаш дастурлари орқали кадрлар салоҳиятини ошириш.

Хулоса қилиб айтганда, халқаро тажриба молиявий ҳисобот сифатининг учта институционал устунга таянишини кўрсатади: мунтазам ва риск-йўналтирилган давлат мониторинги, аудит фаолияти устидан мустақил назорат ҳамда натижаларни ошкор қилиш орқали репутацион интизом. Ўзбекистонда МҲХСга ўтишнинг расмий босқичи якунланган ҳозирги шароитда айнан шу уч устунни миллий институционал муҳитга мослаштирилган ҳолда шакллантириш ҳисобот сифатини таъминлашнинг ҳал қилувчи шарти ҳисобланади.

Таклиф ва тавсиялар:

1. Молиявий ҳисобот сифатининг халқаро тажрибада синалган учта институционал устунини — мунтазам ва риск-йўналтирилган давлат мониторинги, аудит фаолияти устидан мустақил назорат ҳамда натижаларни ошкор қилиш орқали репутацион интизом — Ўзбекистон сифат назорати тизимининг концептуал асоси сифатида қабул қилиш тавсия этилади.
2. Ҳисобот сифати устидан мониторинг функциясини аниқ институтга (Капитал бозорини ривожлантириш агентлиги ёки Аудиторлар палатаси негизида) бириктириш, унинг ваколатларини меъёрий белгилаш ҳамда FREP тажрибасидаги риск принципига асосланган танлама текширувларни муаммоли соҳалар (молиявий инструментлар, ижара, даромадларни тан олиш) бўйича жорий этиш тавсия этилади.
3. Сингапур амалиёти асосида текширув натижаларини умумлаштирилган ҳолда ошкор қилиш орқали репутацион рағбат механизмини яратиш, аудит сифати индикаторлари тизимини ривожлантириш ва халқаро сертификатлаш дастурлари орқали кадрлар салоҳиятини ошириш тавсия этилади.

[151]Каримов А.А. Бухгалтерия ҳисоби назарияси ва амалиёти. — Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2022. — Б. 218.

KORXONALARDA PUL OQIMLARI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TUZISh USULLARI VA AXBOROT IMKONIYATLARI

Eshonqulov Akmal Qudratovich
Toshkent Kimyo xalqaro unverstiti
“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qtuvchisi
akmaleshonqulov81@gmail.com

Annotatsiya. maqolada "pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot" standart ko‘rsatkichlar jadvalini tuzish va ishlab chiqish masalalari ko‘rib chiqiladi. Hisobot ko‘rsatkichlarining texnik jihatlariga alohida e’tibor beriladi.

Kalit so‘zlar: aktivlar va majburiyatlar, operatsion faoliyat, operatsion faoliyat, moliyaviy faoliyat, buxgalteriya hisobi, xalqaro buxgalteriya standartlari, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, moliyaviy hisobot, moliyaviy holat, ichki aylanma, moliyaviy menejment.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari korxona moliyaviy holatining haqiqiy o‘zgarishini bevosita tavsiflovchi axborotni oshkor qilishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, naqd pul va pul ekvivalentlari harakati bilan bog‘liq pul oqimlari hisobotga kiritilmasligi talab qilinadi. Ushbu toifadagi sof pul oqimlari kompaniyaning pul oqimlarini nazorat qilish va tartibga solishning haqiqiy ob’ekti hisoblanadi. Shu bilan birga, ichki aylanma qavslar ichida ko‘rsatiladi, bu korxonaning moliyaviy holatiga tashqi ta’sir ko‘rsatmaydi.

Biroq, moliyaviy nazorat maqsadlari uchun yalpi pul oqimlarini aks ettirish va oshkor qilish muhimdir. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisob-kitoblar o‘rtasidagi o‘zaro pul oqimlarini ochib berish pulning "bo‘sh aylanmasini" baholashga imkon beradi. Bu chet el valyutasini konversiyalash, korxonaning joriy va maxsus hisobvaraqlarida naqd pul qoldiqlarini saqlash, joriy hisobvaraqdan pul mablag‘larini olib qo‘yish6 va aksincha. Faqat birinchi qarashda ular qo‘shimcha kapital yutuqlarni ta’sir qilmaydi, deb tuyulishi mumkin. Aslida, tufayli aktivlar va majburiyatlar o‘rtasidagi operatsiyalar kurs farqlar, komissiyalar, depozit stavkalari bo‘yicha foiz, va hokazo almashish uchun kapitalning o‘sishi yoki pasayishiga ta’sir qilishi mumkin yoki mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot moliyaviy nazorat va moliyaviy menejment sohasiga kiradi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot balans tenglamasi tamoyiliga asosan quyidagicha tuziladi:

Hisobot nafaqat balansdagi pul mablag‘lari qoldig‘ini pul oqimlari summalariga bog‘liq, balki kompaniyaning pul oqimlari va ularning manbalarining muhim jihatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, bu oborotlarning korxonaning moliyaviy holatiga ta’sirini tavsiflash, pul oqimining samaradorligini tavsiflash imkonini beradi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning muhim tarkibiy qismlaridan biri mulkdorlar va uchinchi shaxslar tomonidan pul mablag‘larini jalb qilish va hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi ma’lumotdir.

Jadval 1

Operatsion pul oqimlari

Daromad	Debit	Kredit	Hisobidan	Debit	Kredit
Daromadi dan sales - mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar)	5110, 5210, 5520, 5530	4010, 6310	Pul to‘lanadi uchun etkazib beruvchilardan tovarlar	4310, 6010	5110, 5210, 5220, 5530
Boshqa daromadlar dan operatsion faoliyati	5110, 5210, 5220, 5530	5010, 5110, 5210, 5510, 5520, 4310, 4390, 4860, 6310, 6390	Naqd to‘lovlar xodimlari	4210, 4220, 4230, 4290, 6710, 6720	5110, 5210, 5220, 5530
			Other naqd to‘lovlar dan operatsion faoliyati	6990	5110, 5210, 5220, 5530

Operatsion (joriy) faoliyat bilan bog‘liq naqd pul oqimi va chiqishi haqidagi ma’lumotlar pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning muhim elementidir. Qoidaga ko‘ra, moliyaviy va investitsion faoliyat aylanmasi bilan bog‘liq bo‘lmagan barcha pul oqimlari moddalari korxonaning normal ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq joriy pul mablag‘lari hisobiga kiritiladi. 2-jadvaldagi ma’lumotlardan operatsion faoliyat bilan bog‘liq pul oqimlari haqida tasavvur olish mumkin.

Pul oqimi jadvalining ikkinchi elementi investitsiya faoliyati bilan bog‘liq pul oqimlarining nisbatan alohida muomalasidir. Ushbu faoliyat turi uzoq muddatli moddiy va nomoddiy aktivlar uchun kompaniya aktivlari huquqlari bilan bog‘liq, qimmatli qog‘ozlar va kelajakda barqaror daromad, shuning uchun u asosiy vositalar toifasiga tegishli (investitsiyalar shaklida yoki kapital investitsiyalar).

Korxonaning investitsion faoliyati bilan bog‘liq pul oqimlarining tarkibi 3-jadvalda ko‘rsatilgan.

Jadval 2

Investitsiya faoliyati bilan bog‘liq pul oqimlari

Daromad	Debit	Kredit	Hisobidan	Debit	Kredit
daromad dan yo‘qotish asosiy vositalarni	5110, 5210, 5220, 5530	9210	sotib olish asosiy vositalarni	4320, 6010	5110, 5210, 5220, 5530
daromad dan sotish nomoddiy aktivlar	5110, 5210, 5220, 5530	9220	sotib olish nomoddiy aktivlarni	0830, 4320	5110, 5210, 5220, 5530
daromad dan sotish, uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalar	5110, 5210, 5220, 5530	9220	sotib olish uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalar	0610,0690, 5810-5890	5110, 5210, 5220, 5530
daromad dan sotish va boshqa mennvestment faoliyat	5110, 5210, 5220, 5530	9220	boshqa pul to‘lovlari dan investitsiya faoliyati	0810,0820	5110, 5210, 5220, 5530

Pul oqimi jadvalini tuzishda kompaniya standart jadval shaklida standart ko‘rsatkichlarni ishlab chiqadi va umumiy daftarda aks ettirilgan ko‘rsatkichlarga, shuningdek buxgalteriya registrlarida "kassa", "joriy hisob", "xorijiy valyutadagi hisob", "maxsus bank hisoblari" va boshqa pul hisoblariga bog‘liq. Bu hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning texnik jihatidir.

4-jadvalda tashqi iqtisodiy kon’yunktura bo‘yicha daromad va xarajatlarning asosiy moddalari, ya’ni qarzdorlik va jamg‘armalar tasvirlangan.

Jadval 3

Faoliyatni moliyalashtirish bilan bog‘liq pul oqimlari

Daromad	Debit	Kredit	Hisobidan	Debit	Kredit
foiz qabul	5110, 5210, 5220, 5530	4830	foiz, pullik	6920	5110, 5210, 5220, 5530
dividendlar qabul	5110, 5210, 5220, 5530	4840	dividendlar to‘lanadigan	6610	5110, 5210, 5220, 5530
daromad dan chiqarilgan aksiyalarning	5110, 5210, 5220, 5530	4610, 0610, 0620, 8410	naqd pul to‘lovlari uchun chiqarilgan aksiyalarning	6620, 8610, 8620	5110, 5210, 5220, 5530
daromad olingan uzoq muddatli kredit	5110, 5210, 5220, 5530	4850	naqd pul to‘lovlari uchun uzoq muddatli kreditlar	6810 - 6840, 6950	5110, 5210, 5220, 5530
daromad dan uzoq muddatli lizing	5110, 5210, 5220, 5530	4850	naqd pul to‘lovlari uzoq muddatli lizing	6910, 6950	5110, 5210, 5220, 5530
Boshqa pul tushumlar	5110, 5210, 5220, 5530	4850, 9540	Boshqa pul to‘lovlari	6930, 6990	5110, 5210, 5220, 5530

Agar tashkilot rahbariyati moliyaviy axborotni barcha moddiy jihatlarida tashkilotning xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘liq va ishonchli tarzda ochib berishga intilsa, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot konsepsiyasini ishlab chiqish kerak. Bizning fikrimizcha, bu quyidagi sabablarga bog‘liq bo‘lishi mumkin:

- pul kapitali, shu jumladan pul ekvivalentlari harakatini o‘rganish;
- ishlab chiqarish kooperativi, qishloq xo‘jaligi firmasi va hokazo.;
- majburiy to‘lovlar bo‘yicha pul majburiyatlariga rioya etilishi, xodimlar bilan hisob-kitoblar va boshqalar munosabati bilan aylanmalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etishning ahamiyati.;
- pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlaridan foydalanuvchilar talablarni qondirishga qaratilgan;
- tkompaniyaning rahbariyati hisobotda tijorat tashkilotining ichki pul oqimlarining shaffofligiga erishishi mumkin. Buning sababi shundaki, mablag‘larning xavfsizligi ularni jalb qilishning maqsadga muvofiqligini anglatmaydi va ma’lum likvidlik darajasini saqlab qolish talab qilinadigan rentabellikni, buxgalteriya hisobining oqilona shaklini va boshqalarni ta’minlamaydi.;

- ma’lumotlar turli darajadagi tafsilotlar bilan taqdim etilishi mumkin (masalan, yalpi va sof pul oqimlari asosida, pul kapitalining aylanishi haqidagi ma’lumotlarni minimallashtirish va kengaytirish asosida to‘g‘ri va egri shaklda). Bu pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot ko‘rsatkichlarining nafaqat ushbu hisobot doirasida, balki moliyaviy hisobotning boshqa shakllarida ham dolzarbligini ta’minlaydi.

Sub’ektning moliyaviy va investitsion faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning pul oqimlarini muvozanatlashning to‘g‘ri usuli ham, egri usuli ham deyarli bir xildir. Ushbu holat ta’sirida pul oqimlarini muvozanatlashtirishning turli variantlari bo‘yicha tayyorlangan hisobotlar mazmuni sezilarli darajada yaqinlashadi. Asosiy farq faqat operatsion faoliyat mablag‘larning kelib tushishi va sarflanishini aniqlashdan iborat.

Odatda, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot ko‘rsatkichlari balans yoki hisob registrlarida ham ko‘rsatiladi. Lekin buxgalteriya hisobi umumdavlat bo‘lishi uchun ma’lumotlar hisob nomlari bilan emas, balki bitimlarning xususiyatlari bo‘yicha guruhlanishi kerak.

Manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” Qonuni(yangi tahriri), O‘RQ №404- son,2016 yil 13 aprel, “Xalq so‘zi”gazetasining 2016 yil 14 apreldagi 73 (6508)- soni.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobining milliy standartlari” to‘plami, T.: O‘zBAMA,- 2008 y.
3. Tulaxodjaeva M.M. Finansovaya otchetnost v sootvetstvii s MSFO.vvv.norma.uz.
4. Grey S., Nidlz B. Finansovыy uchet: Globalnыy podxod. M.: Izdatelstvo Volters Kluver, 2006.
5. Pankov D.A. Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti. - M.: OOO «Novoe znanie», 2003.
6. Kovalev V.V. Finansovыy uchet i analiz: konseptualnыe osnovы. -M.: Finansы i statistika, 2004.

ЭЛЕКТР ТАРМОҚЛАРИ КОРХОНАЛАРИ ПУЛ ОҚИМЛАРИ ҲИСОБОТИДА ТАРИФ СУБСИДИЯЛАРИ БЎЙИЧА 095-САТРНИ КИРИТИШ ВА СЕГМЕНТ ҲИСОБОТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Джураев Давлат Джонибекович
таянч докторант, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Аннотация. Тезисда электр тармоқлари корхоналари пул оқимлари ҳисоботини такомиллаштириш масаласи тадқиқ этилган. «Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот» шаклига тариф субсидиялари бўйича 095-сатрни (095.1 – тариф фарқини қоплаш субсидияси; 095.2 – ўзаро субсидиялаш; 095.3 – имтиёзли истеъмолчилар субсидияси) киритиш ҳамда 14 та бўлинма

ўртасидаги ички оқимларни бартараф этиш асосида сегмент ҳисоботни халқаро стандартларга мувофиқ шакллантириш таклиф этилган.

Калит сўзлар: электр тармоқлари корхоналари, пул оқимлари, пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот, 095-сатр, тариф субсидиялари, ўзаро субсидиялаш, БҲХС 7, сегмент ҳисоботи, МҲХС 8.

Электр тармоқлари корхоналарида пул оқимларининг шаффоф ва аниқ ҳисобга олиниши, айниқса тарифларни давлат томонидан тартибга солиш ва ижтимоий йўналишдаги тўловлар шароитида, молиявий ҳисобот ишончлилигининг муҳим шартидир. Ўзбекистонда молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тузишга ўтиш жараёнида пул оқимлари ҳисобини «Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот» (БҲХС 7, IAS 7) талабларига мувофиқлаштириш долзарб илмий-амалий вазифа бўлиб қолмоқда[152].

Тадқиқотнинг биринчи илмий янгилиги «Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот» шаклига «Тарифларни тартибга солиш билан боғлиқ пул тушумлари ва тўловлар» деб номланувчи 095-сатрни киритишдир. Ушбу сатр учта қуйисатрдан иборат: 095.1 – тариф фарқини қоплаш учун субсидия; 095.2 – ўзаро субсидиялаш; 095.3 – имтиёзли тоифадаги истеъмолчилар бўйича субсидия (1-жадвал). Амалдаги 9-сон БҲМСда бундай сатр мавжуд эмаслиги сабабли тариф субсидиялари алоҳида моддага ажратилмайди[153]: «Ҳудудий электр тармоқлари» АЖ мисолида 620 млрд сўмлик субсидия (пул тушумининг 7,9%и) ҳисоботда аниқ акс эттирилмаган, бу эса халқаро инвесторлар учун шаффофликни пасайтиради. 095-сатрни киритиш миллий стандартлар ва 7-сон БҲХС ўртасидаги трансформацияга услубий асос яратади.

1-жадвал

«Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот»га таклиф этилаётган 095-сатр таркиби

Қуйисатр	Номланиши	Мазмуни
095.1	Тариф фарқини қоплаш субсидияси	Давлат томонидан тариф фарқини қоплаш учун ажратилган субсидиялар
095.2	Ўзаро субсидиялаш	Истеъмолчилар тоифалари ўртасидаги ўзаро субсидиялаш оқимлари
095.3	Имтиёзли истеъмолчилар субсидияси	Имтиёзли тоифадаги истеъмолчилар бўйича субсидиялар

Манба: муаллиф ишланмаси.

Тадқиқотнинг иккинчи илмий янгилиги «Ҳудудий электр тармоқлари» АЖ марказий аппарати ва унинг таркибидаги 14 та бўлинма ўртасидаги ички пул оқимларини бартараф этиш асосида сегмент ҳисоботини шакллантиришдир. Амалдаги ҳисоб тизимида бўлинмалараро ички оқимлар консолидацияда бартараф этилмайди ва 8-сон МҲХС «Операцион

[152]Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти (БҲХС) 7 «Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот» (IAS 7 Statement of Cash Flows). — London: IFRS Foundation, 2024.

[153]Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти (БҲМС) 9-сон «Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот». — Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги.

сегментлар»га мувофиқ сегмент ҳисоботи мавжуд эмас[154]. Ички оқимларни бартараф этиб, ҳудудий сегментлар бўйича соф пул оқимини алоҳида акс эттириш филиаллар самарадорлигини таққослаш ва бошқарув қарорлари учун ишончли ахборот базасини таъминлайди.

Пул оқимлари ҳисобининг яна бир муҳим йўналиши хорижий валютадаги оқимларни халқаро стандартлар талабларига мувофиқ тан олиш ва аудитдан ўтказишдир. «Яшил» энергетика, тармоқни модернизация қилиш ҳамда давлат-хусусий шериклик лойиҳалари доирасидаги валюта пул оқимларини 21-сон БҲХС талабларига мувофиқ ҳисобга олиш шаффофлик ва аниқликни оширади.

095-сатр ва сегмент ҳисоботини жорий этиш миллий стандартлардан МҲХСга трансформация услубиётини такомиллаштиради. Бунда тариф субсидиялари, ўзаро субсидиялаш ва концессия даромадлари алоҳида ажратилиб, аудиторлик изи (audit trail) кучаяди ҳамда ҳисобот фойдаланувчилари учун ахборот қиймати ошади.

Таклиф ва тавсиялар:

1. «Пул оқимлари тўғрисидаги ҳисобот» шаклига тариф субсидиялари бўйича 095-сатрни (095.1, 095.2, 095.3 қуйисатрлари билан) киритиш ва уни миллий стандартлар ҳамда 7-сон БҲХС ўртасидаги трансформация услубиётининг асоси сифатида қабул қилиш тавсия этилади.

2. «Ҳудудий электр тармоқлари» АЖда 14 та бўлинма ўртасидаги ички пул оқимларини бартараф этиб, 8-сон МҲХС талабларига мувофиқ ҳудудий сегментлар бўйича пул оқимлари ҳисоботини шакллантириш тавсия этилади.

3. Хорижий валютадаги пул оқимларини 21-сон БҲХС талабларига мувофиқ тан олиш, ҳисобга олиш ва аудитдан ўтказиш ҳамда тариф субсидиялари ва концессия даромадларини алоҳида ажратиб, аудиторлик изини кучайтириш тавсия этилади.

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KUTILAYOTGAN KREDIT YO‘QOTISHLARI (ECL) REZERVLARI AUDITINI BAHOLASHNING KOMPLEKS MODELI

Xayrullayev O‘tkir Ismailovich
tayanch doktorant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Tezisda tijorat banklarida kredit portfeli va kutilayotgan kredit yo‘qotishlari (ECL) bo‘yicha rezervlar auditini o‘tkazishning kompleks modeli tadqiq etilgan. Kredit portfeli sifati, rezervlar yetarliligi va auditorlik riskining o‘zaro bog‘liqligini baholash hamda moliyaviy omillar va bank risklarini integratsiyalashgan holda baholovchi ko‘p omilli model taklif etilgan.

[154]Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти (МҲХС) 8 «Операцион сегментлар» (IFRS 8 Operating Segments). — London: IFRS Foundation, 2024.

Kalit so‘zlar: bank auditi, kredit portfeli, kutilayotgan kredit yo‘qotishlari (ECL), rezervlar, auditorlik riski, ko‘p omilli model, AXS 540, riskka yo‘naltirilgan audit.

Jahon iqtisodiyotida moliyaviy bozorlarning murakkablashuvi, bank operatsiyalarining ko‘lam va tarkib jihatdan kengayishi hamda baholashga sezgir ko‘rsatkichlar ulushining ortishi tijorat banklari auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, kredit portfeli, kutilayotgan kredit yo‘qotishlari (ECL) bo‘yicha rezervlar, moliyaviy instrumentlar va prudensial ko‘rsatkichlar auditorlik tekshiruvining chuqur, riskka yo‘naltirilgan va uslubiy jihatdan puxta tashkil etilishini talab qiladi[155].

Zamonaviy bank auditi metodologiyasining asosini auditning xalqaro standartlari (AXS) tizimi tashkil etadi. Bank auditida, ayniqsa, AXS 315 «Jiddiy xatolar tavakkalchiligini aniqlash va baholash», AXS 330 «Baholangan tavakkalchiliklarga javoban auditorning harakatlari», AXS 500 «Auditorlik dalillari» hamda AXS 540 «Buxgalteriya baholashlari auditi» kredit portfeli, rezervlar va kutilayotgan kredit yo‘qotishlari (ECL) segmentida faol qo‘llaniladi. O‘zbekiston yirik tijorat banklari amaliyotida kreditlar va ECL bo‘yicha rezervlar ketma-ket yillarda asosiy audit masalasi (AXS 701) sifatida qayd etilgani ushbu segmentning bank auditidagi markaziy o‘rnini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy yangiliklaridan biri kredit portfeli sifati, rezervlar yetarliligi va auditorlik riskining o‘zaro bog‘liqligini baholashning kompleks modelidir. Model kutilayotgan kredit yo‘qotishlari (ECL), rezerv, foyda va kapitalga ta’sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilishga asoslanadi. MHXS 9 talablariga muvofiq[156], ECL uch bosqichli (12 oylik ECL, umrbod ECL va qadrsizlangan aktivlar bo‘yicha ECL) tarzda hisoblanadi va AXS 540 «Buxgalteriya baholashlari auditi» talablari asosida tekshiriladi[157]. Model kredit portfeli sifatining pasayishi rezervlar yetarliligiga va u orqali auditorlik riskiga qanday ta’sir qilishini miqdoriy baholab, auditorga yuqori riskli segmentlarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi ilmiy yangilik moliyaviy omillar, muammoli kreditlar va bank risklari auditining amaliy ko‘rsatkichlarini aktivlar, kreditlar, depozitlar, rezervlar, likvidlilik, kapital yetarliligi va foyda sifati bilan integratsiyalashgan holda baholovchi ko‘p omilli modeldir. Model bank moliyaviy holatini yaxlit tizim sifatida baholab, alohida ko‘rsatkichlarni emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiladi (1-jadval).

---

[155] O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahrirda), 2024-yil 21-mart, O‘RQ-872-son. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. — www.lex.uz.

[156] Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) 9 «Moliyaviy instrumentlar» (IFRS 9 Financial Instruments), 5.5-bo‘lim («Qadrsizlanish»). — London: IFRS Foundation, 2024.

[157] Auditning xalqaro standarti (AXS) 540 «Buxgalteriya baholashlari va tegishli ma’lumotlarni ochib berish auditi». — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2018–2024.

1-jadval

Bank auditining ko‘p omilli baholash modeli bloklari

Blok	Asosiy ko‘rsatkichlar	AXS asosi
Kredit sifati	Muammoli kreditlar, 2- va 3-bosqich qarzlar, qayta tuzilgan va bog‘liq tomon kreditlari	AXS 315, 540
Rezervlar yetarliligi	ECL rezervlari, ta’minot qoplami, prognoz pul oqimlari	AXS 540
Likvidlilik va kapital	Likvidlilik koeffitsientlari, kapital yetarliligi (prudensial)	AXS 315
Foyda sifati	Foyda barqarorligi, rezerv–foyda–kapital bog‘liqligi	AXS 520

Manba: muallif ishlanmasi.

Kompleks model doirasida ECL auditi kredit riskining sezilarli darajada oshishi, defolt holatlari va kreditlarning bosqichlar bo‘yicha tasnifini tekshirishni nazarda tutadi. Auditor defolt ehtimoli (PD), defolt paytidagi yo‘qotish darajasi (LGD), ta’minot qoplami hamda prognoz pul oqimlarini qayta hisoblab, ECL metodologiyasining asosliligini baholaydi. Modelning ustunligi kredit portfeli sifati, rezervlar yetarliligi va kapital yetarliligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaxlit tizimda ko‘rsatib, baholash noaniqligi yuqori bo‘lgan sohalarga auditorlik e’tiborini jamlashidadir.

Modelni qo‘llashda kredit portfeli va rezervlar auditida moliyaviy ko‘rsatkichlar sezgirligini birgalikda baholashga asoslangan uslubiy yondashuv qo‘llaniladi. Bunda auditor bank ehtiyotkor va keskin sharoit stsenariylari asosida ECL va rezervlarni mustaqil qayta hisoblab, tafovutlarni audit qo‘mitasida alohida ko‘rib chiqadi. Ushbu yondashuv baholash noaniqligi yuqori bo‘lgan moddalarni ajratib, auditorlik xulosasining axborot qiymatini oshiradi.

Taklif etilgan model tijorat banklarida auditdan oldingi baholashni joriy etib, yuqori tavakkalchilikli segmentlar — qayta tuzilgan kreditlar, 2- va 3-bosqich qarzlar, bog‘liq tomonlarga berilgan kreditlar hamda ta’minoti murakkab aktivlar — bo‘yicha auditorlik resurslarini yo‘naltirishga xizmat qiladi. Natijada auditorlik xulosalarining axborot qiymati oshadi, bank risklari o‘z vaqtida aniqlanadi va nazorat samaradorligi kuchayadi.

Taklif va tavsiyalar:

1. Kredit portfeli sifati, rezervlar yetarliligi va auditorlik riskining o‘zaro bog‘liqligini ECL, rezerv, foyda va kapital omillari asosida baholovchi kompleks modelni hamda moliyaviy ko‘rsatkichlarni integratsiyalovchi ko‘p omilli modelni bank auditi metodologiyasining asosi sifatida qabul qilish tavsiya etiladi.
2. Tijorat banklariga kredit portfeli, ECL rezervlari, moliyaviy instrumentlar va prudensial ko‘rsatkichlar bo‘yicha auditdan oldingi baholashni joriy etish hamda auditorlik resurslarini yuqori riskli segmentlarga yo‘naltirish tavsiya etiladi.
3. Kredit portfeli va rezervlar auditida bank ehtiyotkor va keskin sharoit stsenariylari asosida mustaqil qayta hisoblashni amalga oshirish va tafovutlarni audit qo‘mitasida alohida ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА ИЧКИ АУДИТ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ ВА УЗЛУКСИЗ РАҚАМЛИ АУДИТНИ ЖОРИЙ ЭТИШ

Бабакулова Матлуба Курбанназаровна
Тошкент давлат иқтисодиёт университети таянч докторанти,

Аннотация. Тезисда тўқимачилик саноати корхоналарида ички аудит самарадорлигини баҳолашнинг ўн икки кўрсаткичли (KPI) матрицаси, узлуксиз аудитнинг тўрт босқичли интеграциялашган алгоритми ҳамда катта маълумотлар таҳлили ва сунъий интеллект элементларига асосланган уч қатламли интеграциялашган аудит платформаси таклиф этилади. Ушбу ечимлар ички аудит фаолиятини IIA/IPPF стандартлари асосида тизимли баҳолаш, аудитни реал вақт режимига кўчириш ҳамда аудитнинг тезкорлиги, аниқлиги ва таҳлилий чуқурлигини оширишга қаратилган.

Калит сўзлар: ички аудит, самарадорлик, KPI матрицаси, узлуксиз аудит, рақамли трансформация, катта маълумотлар таҳлили, сунъий интеллект, аудит платформаси, тўқимачилик саноати.

1. Кириш

Тўқимачилик саноати Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотининг қарийб 2,3 фоизини, саноат ишлаб чиқаришининг 9,4 фоизини ва нохомашё экспортининг 17 фоиздан ортиғини таъминлайдиган стратегик тармоқдир. Бироқ «Ўзтўқимачиликсаноат» уюшмаси корхоналарида ички аудит амалиёти кўпинча анъанавий постфактум ёндашувга асосланиб, унинг натижадорлигини баҳолашнинг тизимли миқдорий воситалари қўлланилмайди. Аудит жараёнларининг қўлда бажарилиши эса катта ҳажмдаги операцияларни тўлиқ қамраб олишни чеклайди ва хатоларни ўз вақтида аниқлаш имконини пасайтиради.

Мазкур муаммони ҳал этиш учун тезисда ўзаро боғланган уч ечим — ички аудит самарадорлигини баҳолашнинг KPI матрицаси, узлуксиз аудит алгоритми ва интеграциялашган аудит платформаси — тақдим этилади. Ечимлар «Ўзтўқимачиликсаноат» уюшмасига кирувчи ўн икки танланган корхона маълумотлари асосида асосланган.

2. Ички аудит самарадорлигини баҳолаш: KPI матрицаси

Ички аудит фаолиятини баҳолаш учун IIA/IPPF стандартлари ва тармоқ хусусиятлари асосида ўн икки кўрсаткичдан иборат KPI матрицаси таклиф этилади (1-жадвал). Матрица режалаштириш, бажариш, ҳужжатлаштириш, тавсияларни амалга ошириш, ходимлар малакаси ва технологиялардан фойдаланишни тўлиқ қамраб олади; ҳар бир кўрсаткич учун ҳисоблаш формуласи ва мақсадли даража белгиланган.

1-жадвал

Ички аудит фаолиятини баҳолаш учун 12 та KPI матрицаси

№	KPI номи	Ҳисоблаш формуласи	Мақсад даражаси
1	Режа бажарилиш даражаси	Бажарилган аудит / Режалаштирилган ×100	≥ 95%
2	Аудит тавсиялари бажарилиши	Бажарилган тавсиялар / Жами тавсиялар ×100	≥ 85%
3	Ўртача аудит муддати	Жами кунлар / Аудитлар сони	≤ 15 кун
4	Такрорий муаммолар улуши	Такрорий муаммолар / Жами ×100	≤ 10%
5	Аудит харажатлари / тушум	Аудит харажатлари / Тушум ×100	≤ 0,15%
6	Ходимлар малакаси индекси	Сертификатланган ходимлар улуши (CIA, CFE)	≥ 60%
7	Технологиядан фойдаланиш	CAAT ҳажми / Жами аудит ҳажми ×100	≥ 70%
8	Фирибгарликни аниқлаш	Аниқланган / реал фирибгарлик ×100	≥ 90%
9	Аудит қамрови (coverage)	Қопланган жараёнлар / Жами ×100	≥ 80%
10	Тавсияларни тадбиқ муддати	Жами кунлар / Тавсиялар сони	≤ 60 кун
11	Стейкхолдерлар қониқиши	Сўровнома натижаси (5 баллик)	≥ 4,0
12	Мустақиллик коэффициенти	Иерархия ва молиявий чекловлар таҳлили	100%

Манба: муаллиф ишланмаси.

Матрицани қўллаш тартиби қуйидагича: ҳар чорак якунида ички аудит бўлинмаси ўз фаолиятини KPI асосида ҳисоблайди ва аудиторлик қўмитаси ёки директорлар кенгашига ҳисобот тақдим этади. Бирор кўрсаткич мақсадли даражадан паст бўлса, унинг сабаблари таҳлил қилиниб, такомиллаштириш режаси ишлаб чиқилади. Матрица йирик корхоналарда тўлиқ, кичик корхоналарда эса соддалаштирилган вариантда қўлланилиши мумкин.

3. Узлуксиз аудит алгоритми ва интеграциялашган платформа

KPI матрицаси билан узвий боғлиқ ҳолда узлуксиз аудитнинг тўрт босқичли алгоритми таклиф этилади: маълумотлар оқимини йиғиш ва стандартлаштириш (ERP тизими билан интеграция); реал вақт режимида автоматик назорат қоидаларини қўллаш; аномалияларни статистик усуллар ва машинали ўрганиш моделлари асосида аниқлаш; ҳисоботларни шакллантириш ва қарор қабул қилиш (2-жадвал). Алгоритмнинг жорий этилиши ички назорат самарадорлигини 40–60 фоизга оширади ва аудит харажатларини 25–35 фоизга камайтиради.

2-жадвал

Узлуксиз аудит алгоритмининг тўрт босқичи ва техник тавсифи

Босқич	Техник амалга ошириш	Асосий натижа
1. Маълумотларни йиғиш	ERP, ишлаб чиқариш тизими ва банк API интеграцияси; Data Lake (AWS S3, Azure Blob)	Ягона маълумот муҳити (data lake)
2. Автоматик назорат	Rule-based controls, SQL процедуралар, Apache Airflow, Jenkins	Оғишларни автоматик аниқлаш
3. Аномалияларни аниқлаш	Machine Learning (Isolation Forest, autoencoders; sklearn, TensorFlow)	Ноодатий ҳолатларни идентификация қилиш
4. Ҳисобот ва қарор	Power BI, Tableau, автоматик alert'лар, workflow жараёнлари	Реал вақтда ҳисобот ва операцион қарор

Манба: муаллиф ишланмаси.

Алгоритмни амалда қўллаш учун уч қатламли интеграциялашган аудит платформаси архитектураси таклиф этилади: маълумот қатлами (ERP-тизимлари, муҳандислик тизимлари ва бозор маълумотлари билан интеграция); таҳлил қатлами (AI-моделлари, CAAT воситалари, статистик таҳлил); тақдимот қатлами (визуализация, ҳисоботлар, алертлар). Платформанинг функционал модуллари хавфларни аниқлаш тезлигини 70 фоизга, аудит тезлигини 60 фоизга, фирибгарликни аниқлашни 85 фоизга оширади ҳамда ҳисобот тайёрлаш вақтини 80 фоизга қисқартиради. Ечим концептуал жиҳатдан Deloitte Cortex, PwC Halo, EY Helix ва KPMG Clara каби илғор аудит платформалари билан уйғун бўлиб, тўқимачилик саноатининг ўзига хос жараёнларига мослаштирилган.

4. Хулоса

Тезисда тўқимачилик саноати корхоналарида ички аудит самарадорлигини баҳолашнинг ўн икки кўрсаткичли KPI матрицаси, узлуксиз аудитнинг тўрт босқичли алгоритми ва уч қатламли интеграциялашган аудит платформаси таклиф этилди. Ушбу ечимлар ички аудит фаолиятини тизимли баҳолаш, аудитни реал вақт режимига кўчириш ҳамда катта маълумотлар таҳлили ва сунъий интеллект воситалари орқали аудитнинг тезкорлиги, аниқлиги ва таҳлилий чуқурлигини таъминлайди. Ечимларни миллий аудит амалиётига жорий этиш ва рақамли аудит воситалари билан интеграциялаш келгуси тадқиқот йўналишидир.

Таклиф ва тавсиялар. Тўқимачилик саноати корхоналарига ички аудит фаолиятини ўн икки KPI кўрсаткичидан иборат матрица асосида ҳар чоракда баҳолаш ва натижаларни аудиторлик қўмитаси ёки директорлар кенгашига тақдим этиш тавсия этилади. Узлуксиз аудитнинг тўрт босқичли алгоритмини ERP тизимлари билан интеграциялаш ҳамда катта маълумотлар таҳлили ва сунъий интеллектга асосланган уч қатламли интеграциялашган аудит платформасини босқичма-босқич жорий этиш ички назорат самарадорлигини ошириш ва аудит харажатларини камайтиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. The Institute of Internal Auditors (2024) International Professional Practices Framework (IPPF). Lake Mary (FL): The IIA.
2. IAASB (2024) Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. New York: IFAC.
3. Vasarhelyi, M.A. and Halper, F.B. (1991) 'The continuous audit of online systems', Auditing: A Journal of Practice & Theory, 10(1), pp. 110–125.
4. Dai, J. and Vasarhelyi, M.A. (2016) 'Imagineering Audit 4.0', Journal of Emerging Technologies in Accounting, 13(1), pp. 1–15.
5. COSO (2013) Internal Control — Integrated Framework. Durham (NC): COSO.
6. Ўзбекистон Республикасининг «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни, 2021 йил 25 феврал, ЎРҚ-677-сон. Тошкент. https://lex.uz/docs/5311424.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон–2030» стратегияси тўғрисида»ги 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони. Тошкент. https://lex.uz.

ЕНГИЛ САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ИЧКИ АУДИТНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АМАЛДАГИ ҲОЛАТИ: БЕШ БЛОКЛИ БАҲОЛАШ ЁНДАШУВИ

Тожиева Шаҳло Маҳматмуродовна
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Тезисда енгил саноат корхоналарида ички аудитни ташкил этишнинг амалдаги ҳолатини баҳолаш учун халқаро стандартлар талаблари асосида ишлаб чиқилган беш блокли тизим баён этилади. Ҳар блок бўйича амалиётга хос тизимли муаммолар аниқланиб, уларни бартараф этишнинг ташкилий-услубий йўналишлари таклиф қилинади.

Калит сўзлар: ички аудит, ички назорат, ташкилий мақом, мустақиллик, хатарга йўналтирилган режалаштириш, енгил саноат.

Ички аудит хизматининг мавжудлиги ўз-ўзидан унинг самарадорлигини кафолатламайди: хизмат мустақил бўлмаса, ресурс билан таъминланмаса ва фаолиятини хатарларга боғламаса, у расмий тузилмага айланиб қолади. Шу боис амалдаги ҳолатни баҳолаш учун «хизмат борми» деган саволдан «хизмат қандай ишлаяпти» деган саволга ўтиш зарур, бу эса кўп ўлчовли, стандартларга таянган баҳолаш воситасини талаб қилади. Енгил саноат бундай баҳолаш учун алоҳида аҳамиятга эга объектдир: расмий маълумотларга кўра тармоқ сўнгги йилларда бутун саноатдан сезиларли юқори суръатда ўсиб бормоқда [8], бу ички назорат тизимига босимни оширади ва ташкилий заифликларнинг нархини кўтаради.

Баҳолашга бундай ёндашувнинг зарурати яна шунда кўринадики, ички аудитга оид миллий меъёрий база сўнгги йилларда сезиларли янгиланди —

миллий стандартлар қабул қилинди, тадбирларни ўтказиш қўлланмаси тасдиқланди [5; 6]. Бироқ янги талаблар биринчи навбатда давлат сектори учун мўлжалланган бўлиб, тижорат корхоналарида уларнинг қай даражада ўзлаштирилгани очиқ савол бўлиб қолмоқда. Беш блокли тизим айнан шу саволга тизимли жавоб беришга — ҳолатни ягона мезонлар асосида, блоклар кесимида ташхислашга хизмат қилади ва такрорий баҳолашларда динамикани кузатиш имконини яратади.

Методик жиҳатдан ҳар блок бўйича баҳолаш уч манбага таянади: ҳужжатлар таҳлили (низом, режалар, ҳисоботлар, иш ҳужжатлари), масъул шахслар билан суҳбат ҳамда амалиётни бевосита кузатиш. Ҳужжат билан амалиёт ўртасидаги тафовут — масалан, низомда ёзилган ҳисобдорликнинг амалда ишламаслиги — блокнинг ҳақиқий ҳолатини белгиловчи асосий белгидир. Шу боис баҳолаш «ҳужжат борми» саволи билан чекланмай, «ҳужжат ишлаяптими» саволигача чуқурлашади; айнан шу икки савол орасидаги фарқ расмий ва ҳақиқий етуклик ўртасидаги масофани ўлчайди.

телекоммуникационного сектора, формирование конкурентной среды, стимулирование инвестиционной и инновационной деятельности, а также практика развития цифровой инфраструктуры.

Ключевые слова: коммуникационные услуги, телекоммуникации, организационно-экономический механизм, зарубежный опыт, трансформация, институциональный подход, цифровая трансформация, инвестиции, инновации, конкурентная среда.

Abstract. This article examines foreign experience in the development of communication services, state regulation of the telecommunications sector, the creation of a competitive environment, the stimulation of investment and innovation activity, and practices regarding the development of digital infrastructure.

Keywords: communication services, telecommunications, organizational-economic mechanism, foreign experience, transformation, institutional approach, digital transformation, investment, innovation, competitive environment.

Jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi sharoitida aloqa xizmatlari iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning uzluksizligini ta’minlovchi strategik infratuzilma tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Rivojlangan va jadal rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi aloqa xizmatlari bozorining barqaror o‘sishi faqat telekommunikatsiya infratuzilmasini texnik modernizatsiya qilish bilan emas, balki uni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini muntazam ravishda transformatsiya qilish bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va Singapurda aloqa xizmatlarini rivojlantirish jarayonida raqobat muhitini takomillashtirish, xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish, telekommunikatsiya infratuzilmasini birgalikda ishlatish, universal xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda 5G, IoT, sun’iy intellekt va bulutli texnologiyalar asosidagi yangi xizmatlarni joriy etishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Mazkur tajribalar aloqa xizmatlari sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini davlat tomonidan tartibga solish, bozor instrumentlari, investitsiya va innovatsiya siyosati, raqamli infratuzilma hamda iste’molchilar manfaatlarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xorijiy tajribani o‘rganishning ilmiy ahamiyati ilg‘or amaliyotlarni bevosita ko‘chirishdan ko‘ra, ularning shakllanishiga ta’sir etgan institutsional, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillarni aniqlash hamda milliy sharoitga moslashtirish metodologiyasini ishlab chiqish bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, aloqa xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini transformatsiya qilishda tizimli, institutsional, jarayonli, ekotizimli, innovatsion va adaptiv yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan metodologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan davlat tartibga solishi, raqobatni rivojlantirish, tarif siyosati, investitsiyalarni rag‘batlantirish, infratuzilmadan umumiy foydalanish, universal aloqa xizmatlarini ta’minlash va raqamli platformalarni rivojlantirish

mexanizmlarini yagona mezonlar asosida qiyosiy baholash imkonini beradi. Natijada xorijiy tajribaning O‘zbekiston aloqa xizmatlari bozoriga mos va samarali elementlarini aniqlash, ularni milliy institutsional muhitga adaptatsiya qilish hamda raqamli transformatsiya talablariga javob beruvchi takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning konseptual asoslarini shakllantirish uchun ilmiy-uslubiy zamin yaratiladi.

Aloqa xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga oid ilmiy qarashlar evolyutsiyasi ushbu sohada texnologik rivojlanish bilan bir qatorda institutsional muhit, davlat tomonidan tartibga solish, raqobat, investitsiya va innovatsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muhim ekanligini ko‘rsatadi. J.M. Bauer telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish masalasini tartibga solish va davlat siyosatining investitsion rag‘batlarga ta’siri nuqtai nazaridan tadqiq etib, ilg‘or aloqa tarmoqlarida boshqaruvni yuqori dinamik va adaptiv tizim sifatida ko‘rish lozimligini asoslaydi. Olimning fikricha, tartibga solish vositalari, soliq rag‘batlari, subsidiyalar, davlat-xususiy sheriklik va davlat investitsiyalarini bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro uyg‘unlashgan siyosat instrumentlari sifatida qo‘llash talab etiladi [1]. D. Flacher va H. Jennequin esa OECD mamlakatlari misolida telekommunikatsiya sohasini tartibga solish samaradorligini tadqiq qilib, faqat asimmetrik ex ante tartibga solishga tayanish har doim ham kutilgan iqtisodiy natijani ta’minlamasligini, tartibga solish siyosatini sanoat siyosati bilan uyg‘unlashtirish dinamik samaradorlikni oshirishi mumkinligini ko‘rsatgan [2]. Mazkur qarashlar aloqa xizmatlarini rivojlantirish mexanizmini faqat ma’muriy boshqaruv vositalari majmui sifatida emas, balki bozor va davlat instrumentlari o‘zaro ta’sir qiladigan adaptiv tizim sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

J.M. Paleologos va M.L. Polemis telekommunikatsiya sohasiga investitsiyalarni jalb qilishda tartibga solish sifati va raqobat muhitining ahamiyatini 30 ta OECD mamlakatining 1988–2010-yillardagi ma’lumotlari asosida panel ekonometrik usullar yordamida tadqiq etgan. Mualliflar telekommunikatsiya sohasidagi tartibga solish jarayonining investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini ko‘rsatib, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda mustahkam huquqiy bazaning mavjudligi, samarali tartibga solish hamda davlat aralashuvining maqbul chegaralarini belgilash investitsion faollik uchun muhim ekanligini ta’kidlaydi [3]. Bu yondashuv tashkiliy-iqtisodiy mexanizm tarkibiga investitsion muhit, raqobat, institutsional barqarorlik va tartibga solish sifatini alohida funksional bloklar sifatida kiritish zarurligini asoslash imkonini beradi.

B. Zhang Xitoy telekommunikatsiya tarmog‘idagi islohotlarni institutsional va muzokaralar nazariyalari asosida tadqiq qilib, aloqa xizmatlari bozorini transformatsiya qilishda tarmoqni rivojlantirish, raqobatni shakllantirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga soluvchi institutlarni qayta tashkil etish bir-biri bilan bog‘langan jarayon ekanligini ko‘rsatadi [4]. J. Xia esa Xitoyning 3G/4G mobil aloqa bozorini tadqiq qilish asosida telekommunikatsiya sohasidagi bozor xatti-harakatlarini faqat iqtisodiy omillar bilan izohlash yetarli emasligini, institutsional va norasmiy boshqaruv

omillari ham raqobat va tartibga solish mexanizmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini asoslaydi [5]. Ushbu tadqiqotlar aloqa xizmatlari sohasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini transformatsiya qilishda institutsional yondashuv alohida metodologik ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Y. Yeo Xitoy telekommunikatsiya xizmatlari sohasini o‘rganib, davlat bir vaqtning o‘zida mulkdor va tartibga soluvchi sifatida qatnashadigan sharoitda telekommunikatsiya bozorini boshqarish mexanizmi klassik mustaqil regulyator modelidan farq qilishini aniqlagan. Muallif davlat korxonalarini boshqarish, davlat aktivlarini himoya qilish va bozorni tartibga solish maqsadlari o‘rtasidagi institutsional munosabatlarni ochib beradi [6]. Ushbu qarash aloqa xizmatlari rivojlanish mexanizmini shakllantirishda davlatning funksiyalarini “tartibga soluvchi – mulkdor – investor – infratuzilmaviy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi” yo‘nalishlari bo‘yicha aniq chegaralash metodologik jihatdan muhim ekanligini ko‘rsatadi.

N. Kotvytska, N. Ovsiienko va S. Sharova telekommunikatsiya xizmatlari korxonalarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish tamoyillarini maxsus tadqiq qilgan. Mualliflar texnologiyalarning tez o‘zgarishi, bozor dinamikasi va iste’molchilar talablarining ortib borishi sharoitida telekommunikatsiya korxonalarining barqaror rivojlanishi ularning raqamli o‘zgarishlarga moslashishi, operatsion jarayonlarni optimallashtirishi va raqobatbardoshligini saqlab qolishga imkon beradigan samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizm mavjudligiga bog‘liqligini ta’kidlaydi [7]. Ushbu yondashuv tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni statik tuzilma emas, balki tashqi va ichki muhitdagi o‘zgarishlarga moslashib boruvchi adaptiv boshqaruv tizimi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

N. Bababekova telekommunikatsiya korxonalarida raqamli xizmatlar tannarxini pasaytirish mexanizmini innovatsion texnologiyalar bilan bog‘lab tadqiq etadi. Muallif bulutli platformalar, tarmoq funksiyalarini virtuallashtirish, dasturiy boshqariladigan tarmoqlar, intellektual ma’lumotlar tahlili va resurslarni avtomatlashtirilgan boshqarish kabi texnologiyalar operatsion samaradorlikni oshirishini asoslaydi [8]. Uning yondashuvida texnologik modernizatsiya tarmoq yuklamasini optimallashtirish, infratuzilmadan foydalanish samaradorligini oshirish hamda operatsion risklarni kamaytirish orqali xarajatlar tarkibini o‘zgartiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizm tarkibida alohida raqamli-texnologik transformatsiya bloki mavjud bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

Sh.A. Tursunov telekommunikatsiya sohasida investitsiya faoliyatini samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq qilib, investitsiya faoliyati samaradorligini baholashda xizmatlar samaradorligi, xodimlar malakasi, investitsiya faoliyati, tashkiliy-texnik holat va menejmentni takomillashtirish ko‘rsatkichlarini birlashtiruvchi integral baholash tizimini taklif etgan [9]. Shuningdek, investitsiyalar va xarajatlarning sof foyda shakllanishiga ta’sirini ekonometrik baholash hamda narx siyosati, litsenziyalash, sug‘urtalash va investitsion muhitni yaxshilash orqali davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish masalalarini asoslagan. Ushbu yondashuv aloqa

xizmatlarini rivojlantirish mexanizmini baholashda ko‘p mezonli integral ko‘rsatkichlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

A. Okhrushchak telekommunikatsiya kompaniyalarida raqamli transformatsiya va intellektual kapitalning operatsion samaradorlikka ta’sirini ekonometrik jihatdan tadqiq qilib, raqamli transformatsiya va intellektual resurslarni yagona empirik model doirasida o‘rganish zarurligini ilgari suradi [10]. Ushbu yondashuv aloqa xizmatlari sohasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni transformatsiya qilish jarayonini faqat moddiy infratuzilma va investitsiyalar bilan cheklamasdan, inson kapitali, bilimlar, raqamli kompetensiyalar va tashkilotning raqamli yetukligi kabi nomoddiy omillar bilan integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, aloqa xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bo‘yicha mavjud tadqiqotlarda bir nechta metodologik yo‘nalish shakllangan: institutsional yondashuv davlat va bozor institutlarining rolini; regulyativ yondashuv raqobat va tartibga solish instrumentlarini; investitsion yondashuv kapital qo‘yilmalar va infratuzilmaviy rivojlanishni; innovatsion-texnologik yondashuv raqamli texnologiyalar orqali operatsion samaradorlikni; adaptiv yondashuv esa tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashuvchan boshqaruvni ustuvor deb hisoblaydi. Biroq ushbu omillarni aloqa xizmatlari bozorining institutsional muhiti, investitsion mexanizmi, raqobat, raqamli infratuzilma, innovatsiyalar, intellektual kapital, xizmat sifati va iste’molchi manfaatlarini yagona integratsiyalashgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm doirasida bog‘lovchi yondashuvni yanada rivojlantirish uchun ilmiy ehtiyoj mavjud. Shu sababli tadqiqotda xorijiy tajribaning alohida elementlarini mexanik ko‘chirishdan ko‘ra, ularni O‘zbekiston aloqa xizmatlari bozorining institutsional, hududiy va iqtisodiy xususiyatlariga moslashtirishga asoslangan institutsional–investitsion–innovatsion–raqamli–adaptiv integratsiya-lashgan metodologik yondashuvni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Aloqa xizmatlarini rivojlantirish sharoitida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning samaradorligi uning tashqi muhitdagi institutsional, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlarga moslashish qobiliyati bilan bevosita bog‘liq. An’anaviy boshqaruv usullarining yetarli samaradorlikni ta’minlamasligi, ayrim institutsional cheklovlarning mavjudligi hamda raqobat muhitining to‘liq shakllanmaganligi aloqa xizmatlari sohasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni transformatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, transformatsiya jarayonini tashkiliy, iqtisodiy, institutsional va raqamli yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi sifatida shakllantirish, uning natijalarini muntazam monitoring va baholash asosida takomillashtirib borish maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonning mantiqiy ketma-ketligi quyidagi rasmda ifodalangan.



1-rasm. Aloqa xizmatlari sohasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni transformatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari.

Rasmda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni transformatsiya qilish “mavjud holat → transformatsiya yo‘nalishlari → kutilayotgan natijalar → monitoring va baholash → doimiy takomillashtirish” tamoyili asosida uzluksiz boshqaruv sikli sifatida ifodalangan. Bunda tashkiliy transformatsiya boshqaruv tuzilmasi va funksiyalarini takomillashtirishga, iqtisodiy transformatsiya moliyaviy-investitsion mexanizmlarni yangilashga, institutsional transformatsiya huquqiy va regulyator muhitni rivojlantirishga, raqamli transformatsiya esa innovatsion texnologiyalarni faol joriy etishga yo‘naltiriladi. Ushbu yo‘nalishlarning kompleks amalga oshirilishi aloqa xizmatlari sohasining barqaror rivojlanishi, raqobatbardosh bozor muhitining shakllanishi hamda aholiga sifatli va qulay xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi. Monitoring va baholash blokining mexanizmga qayta bog‘lanishi esa erishilgan natijalarni aniqlash, mavjud kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni yangi sharoitlarga mos ravishda muntazam takomillashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari aloqa xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi zamonaviy sharoitda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni an’anaviy boshqaruv usullaridan raqamli, moslashuvchan va integratsiyalashgan boshqaruv modeliga transformatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida davlat tomonidan tartibga solish va bozor mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligi, raqobat muhitini rivojlantirish, investitsion faollikni rag‘batlantirish, davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan foydalanish, telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan aloqa xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tashkiliy, iqtisodiy, institutsional va raqamli transformatsiya yo‘nalishlarini o‘zaro

bog‘lovchi yaxlit tizim sifatida shakllantirish sohaning uzoq muddatli barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim metodologik sharti hisoblanadi. Xorijiy tajribani O‘zbekiston amaliyotiga tatbiq etishda ilg‘or modellarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki ularni milliy iqtisodiyotning institutsional xususiyatlari, aloqa bozori rivojlanganlik darajasi, hududiy tafovutlar, investitsion imkoniyatlar va raqamli infratuzilmaning mavjud holatiga moslashtirish maqsadga muvofiq. Shu asosda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni “mavjud holatni baholash → tashkiliy, iqtisodiy, institutsional va raqamli transformatsiya → natijadorlikni monitoring qilish → teskari aloqa → doimiy takomillashtirish” sikli asosida rivojlantirish taklif etiladi. Mazkur metodologik yondashuv boshqaruv samaradorligini oshirish, investitsiya va innovatsion faollikni rag‘batlantirish, raqobat muhitini mustahkamlash, raqamli tafovutlarni qisqartirish hamda aholiga ko‘rsatilayotgan aloqa xizmatlarining sifati va foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash uchun ilmiy-uslubiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bauer J.M. Regulation, public policy, and investment in communications infrastructure // Telecommunications Policy. – 2010. – Vol. 34, No. 1–2. – P. 65–79. – DOI: 10.1016/j.telpol.2009.11.011.
2. Flacher D., Jennequin H. Is telecommunications regulation efficient? An international perspective // Telecommunications Policy. – 2008. – Vol. 32, No. 5. – P. 364–377. – DOI: 10.1016/j.telpol.2008.02.005.
3. Paleologos J.M., Polemis M.L. What drives investment in the telecommunications sector? Some lessons from the OECD countries // Economic Modelling. – 2013. – Vol. 31. – P. 49–57.
4. Zhang B. Understanding China’s telecommunications policymaking and reforms: a tale of transition toward liberalization // Telematics and Informatics. – 2002. – Vol. 19, No. 4. – P. 331–349. – DOI: 10.1016/S0736-5853(01)00022-3.
5. Xia J. Competition and regulation in China’s 3G/4G mobile communications industry: institutions, governance, and telecom SOEs // Telecommunications Policy. – 2012. – Vol. 36, No. 10–11. – P. 798–816. – DOI: 10.1016/j.telpol.2012.10.002.
6. Yeo Y. Between Owner and Regulator: Governing the Business of China’s Telecommunications Service Industry // The China Quarterly. – 2009. – DOI: 10.1017/S0305741009990609.
7. Kotvytska N., Ovsiienko N., Sharova S. Principles of Forming the Organizational and Economic Mechanism for the Development of Telecommunications Service Enterprises // Modern Economics. – 2025.
8. Bababekova N. Organizational and economic mechanisms for reducing the cost of digital services in telecommunication enterprises through innovation-driven technological transformation // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – Vol. 2, No. 1. – P. 246–255.
9. Tursunov Sh.A. Telekommunikatsiya sohasida investitsiya faoliyatini samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

QISHLOQ XO‘JALIK KORXONALARINI BOSHQARUV HISOBI XUSUSIYATLARI: GERMANIYA MISOLIDA

Mardonov Mamed Shavkatovich
SamISI “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti, PhD
e-mail: mamedmardonov@gmail.com
mamed_104@mail.ru
https://orcid.org/0000-0002-1011-7806

Annotatsiya. Mazkur maqola qishloq xo‘jaligi korxonalarida boshqaruv hisobini tashkil etish va takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Germaniyaning ilg‘or agro-iqtisodiy yondashuvlari (xususan, "Regio-MAX" tahliliy modeli) batafsil tahlil qilingan. Muallif qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida xarajatlarni o‘zgaruvchan va doimiy moddalarga ajratish, yalpi marjani (marjinal foydani) hisoblash hamda biologik aktivlarni 41-son MHXS (IAS) "Qishloq xo‘jaligi" standarti asosida adolatli qiymatda baholash usullarini yoritib bergan. Shuningdek, tadqiqotda Germaniya tajribasi va kalkulyatsiya uslubiyotlarini O‘zbekiston agrar sektoriga (fermer xo‘jaliklari va agro-klasterlarga) joriy etish orqali korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda strategik boshqaruv qarorlarini (ekinlar tarkibini optimallashtirish, texnikani yangilash va h.k.) qabul qilish samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy-amaliy xulosalar berilgan.

Kirish. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish obyekti sifatida tirik organizmlar (biologik aktivlar) bilan bog‘liqligi sababli an’anaviy sanoat tarmoqlaridan tubdan farq qiladi. Mazkur tarmoqda ob-havo sharoitlari, tabiiy sikllar va uzoq muddatli ishlab chiqarish davri boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yuqori noaniqlik va risklarni keltirib chiqaradi. Germaniya Federativ Respublikasi agrar sohada yuqori texnologik va tizimli boshqaruv hisobini joriy etgan yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Germaniya oliy ta’lim va tadqiqot institutlari (masalan, HSWT – Weihenstephan-Triesdorf amaliy fanlar universiteti) tomonidan ishlab chiqilgan regional agro-iqtisodiy modellar (Regio-MAX) boshqaruv hisobida xarajatlarni aniq kalkulyatsiya qilish va strategik rejalashtirish imkonini beradi.

O‘zbekiston agrar sektorida ham bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligi korxonalarini modernizatsiya qilish, xarajatlar tahlili shaffofligini oshirish hamda investitsion jozibadorlikni ta’minlash talab etiladi. Buning uchun qishloq xo‘jaligini tartibga soluvchi xalqaro standart **41-son MHXS (IAS) "Qishloq xo‘jaligi"** talablariga muvofiq, biologik aktivlarni adolatli qiymat (fair value) bo‘yicha baholash tizimini boshqaruv hisobiga integratsiya qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi: Germaniyaning agrar boshqaruv hisobi modellarini tahlil qilish orqali qishloq xo‘jaligi korxonalarida xarajatlar moddalari, kalkulyatsiya prinsiplari va ularning strategik qarorlar qabul qilishga ta’sirini hamda 41-son MHXS (IAS) "Qishloq xo‘jaligi" bilan bog‘liqligini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida Germaniyaning qishloq xo‘jaligi boshqaruv tizimida keng qo‘llaniladigan **"Regio-MAX" (HSWT 2018)** agro-iqtisodiy dasturiy tahliliy modeli metodologik asos qilib olindi. Ushbu model qishloq xo‘jaligi korxonalarining tarmoq xususiyatlarini (chorvachilik, dehqonchilik, biomassa va ko‘p yillik dov-daraxtlar) alohida modullar bo‘yicha tahlil qilishga asoslanadi.

Metodologik jihatdan boshqaruv hisobining quyidagi usullari qo‘llanilgan:

1. **Marjinal foyda tahlili (Marginal Costing):** Germaniya modelida har bir tarmoq (masalan, sut chorvachiligi yoki bug‘doy yetishtirish) bo‘yicha bevosita o‘zgaruvchan xarajatlar ajratilib, yalpi marja (marjinal daromad) hisoblanadi.
2. **Xarajatlar moddalari bo‘yicha tasniflash:** To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zgaruvchan (urug‘lik, o‘g‘it, yem, veterinariya xarajatlari) va doimiy (texnika amortizatsiyasi, ijara, doimiy ish haqi) xarajatlar tarkibiy qismlarga ajratiladi.
3. **41-son MHXS (IAS) "Qishloq xo‘jaligi" bo‘yicha baholash metodi:** Biologik aktivlar va hosil yig‘ishtirish paytidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini "sotish xarajatlarini chegirgan holdagi adolatli qiymat" (Fair value less costs to sell) bo‘yicha aniqlash uslubiyoti qo‘llanilgan.

Olingan natijalar.

1. Germaniya agro-boshqaruv modelida xarajat moddalari va tasnifi

Germaniya qishloq xo‘jaligi boshqaruv hisobi tizimida (Regio-MAX ma’lumotlariga ko‘ra) xarajatlar an’anaviy buxgalteriya hisobidagidan farqli olaroq, texnologik operatsiyalar va mahsulot turlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq holda guruhlanadi.

- **Dehqonchilik tarmog‘ida o‘zgaruvchan xarajatlar (Direct costs):** Urug‘lik va ko‘chatlar; mineral va organik o‘g‘itlar; o‘simliklarni himoya qilish vositalari (pestitsidlar); sug‘orish va energiya xarajatlari; maxsus texnik xizmatlar (podryadchilar xizmati).
- **Chorvachilik tarmog‘ida o‘zgaruvchan xarajatlar:** Sotib olingan va o‘zida yetishtirilgan yem-xashak; veterinariya xizmatlari va dori-darmonlar; chorva mollarini qayta tiklash (almashtirish) xarajatlari; naslchilik va sun’iy urug‘lantirish xarajatlari.
- **Doimiy yoki umumxo‘jalik xarajatlari (Fixed/Overhead costs):** Umumiy texnika va binolar amortizatsiyasi; yer ijarasi (Pacht); sug‘urta mukofotlari; boshqaruv va ma’muriy xarajatlar.

2. Kalkulyatsiya qilish xususiyatlari

Germaniya amaliyotida **"Deckungsbeitrag" (Yalpi marja)** kalkulyatsiyasi asosiy o‘rinni egallaydi. Bunda har bir mahsulot birligi yoki gektar maydon uchun quyidagi formula bo‘yicha hisob-kitob qilinadi:

Yalpi Marja (DB) = Ishlab chiqarish qiymati (Sotish + Subsidiyalar)} - To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zgaruvchan xarajatlar

Bu tizimning o‘ziga xosligi shundaki, umumiy doimiy xarajatlar tarmoqlar o‘rtasida sun’iy ravishda taqsimlanmaydi. Bu esa ma’lum bir ekin turi yoki chorva guruhi korxonaga haqiqatda qancha sof daromad keltirayotganini aniq ko‘rsatadi.

3. Moliyaviy hisobotning IAS 41 "Qishloq xo‘jaligi" standartiga bog‘liqligi

Germaniya agrar korxonalarida boshqaruv hisobi bilan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) o‘rtasida uzviy aloqa mavjud. 41-son MHXS (IAS) "Qishloq xo‘jaligi" standarti biologik aktivlarni (chorva mollari, ekinlar) tannarx bo‘yicha emas, balki **adolatli qiymat** bo‘yicha baholashni talab etadi.

- **Biologik transformatsiya hisobi:** Hayvonlarning o‘sishi, vazn olishi yoki ekinlarning rivojlanish davrida ularning qiymati oshadi. Germaniya modelida bu jarayon real vaqt rejimida boshqaruv hisobida aks ettiriladi.
- **Adolatli qiymat o‘zgarishidan daromad/zarar:** Bozor narxlari o‘zgarishi yoki biologik o‘sish natijasida yuzaga kelgan qiymat o‘zgarishi bevosita joriy davrning moliyaviy natijalariga (boshqaruv hisoboti va foyda-zararlar to‘g‘risidagi hisobotga) kiritiladi. Bu esa aktivlarning balans qiymatini real bozor iqtisodiyoti ko‘rsatkichlariga moslashtiradi.

Tahlil va muhokama

Boshqaruv hisobi ma’lumotlarining qarorlar qabul qilishga ta’siri

Germaniya qishloq xo‘jaligi korxonalarida boshqaruv hisobining tahliliy modellari rahbarlarga quyidagi strategik va taktik qarorlarni qabul qilishda asbob bo‘lib xizmat qiladi:

1. **Optimal ekinlar tarkibini tanlash (Optimale Fruchtfolge):** Regio-MAX modeli yordamida cheklangan yer va resurslar sharoitida maksimal yalpi marja beradigan ekinlar kombinatsiyasi aniqlanadi. Agar ma’lum bir yili bug‘doyning marjasi kukuruznikidan past bo‘lsa, tizim operativ ravishda keyingi mavsum uchun maydonlarni qayta taqsimlash ssenariysini beradi.
2. **"Ishlab chiqarish yoki sotib olish" (Make or Buy) qarorlari:** Chorvachilik uchun yemni o‘zida yetishtirish afzalmi yoki bozordan tayyor holda sotib olish mi? To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar moddalari kalkulyatsiyasi va IAS 41 bo‘yicha yemning adolatli qiymati taqqoslanib, iqtisodiy jihatdan eng samarali variant tanlanadi.
3. **Investitsion qarorlar (Texnikani yangilash):** Korxonaga o‘z kombayniga ega bo‘lish foydalimi yoki Germaniyada keng tarqalgan "Mashina halqalari" (Maschinenring) ya’ni kooperativ texnika xizmatidan foydalanishmi? Doimiy xarajatlar tahlili ushbu qarorning asosi hisoblanadi.

41-son MHXS (IAS) "Qishloq xo‘jaligi" va boshqaruv hisobi integratsiyasining O‘zbekiston uchun ahamiyati

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi korxonalarida an’anaviy tarzda xarajatlar tarixiy tannarx (historical cost) bo‘yicha hisoblanadi. Bu esa yil yakunigacha mahsulotning haqiqiy tannarxini bilish imkonini bermaydi va boshqaruv qarorlarini kechiktiradi. Germaniya tajribasini qo‘llash orqali quyidagi samaradorlikka erishish mumkin:

- Biologik aktivlarni davriy ravishda adolatli qiymatda baholash agro-klasterlar va ffermer xo‘jaliklarining real aktivlar bazasini ko‘rsatadi va banklardan kredit olish qobiliyatini (creditworthiness) oshiradi.
- Xarajatlarni o‘zgaruvchan va doimiyga ajratish orqali tushum pasaygan inqirozli davrlarda korxonaning "zararsizlik nuqtasi"ni (Break-even point) aniq hisoblash imkoni paydo bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Germaniyaning qishloq xo‘jaligi korxonalarini boshqarish modeli (Regio-MAX tizimi misolida) yuqori darajada shaffoflik va tahliliy aniqlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Tarmoq xarajatlarini strategik modullashtirish va marjinal foyda tahlili agrar soha rahbarlariga bozor konyunkturasi o‘zgarishlariga tezkor munosabat bildirish imkonini beradi.

Xalqaro 41-son MHXS (IAS) "Qishloq xo‘jaligi" standartining boshqaruv hisobiga integratsiyalashuvi biologik transformatsiyalarni moliyaviy ko‘rsatkichlarda aniq aks ettirish orqali hisobotlarning ishonchliligini ta’minlaydi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi korxonalarida ham mazkur Germaniya tajribasini va Yalpi marja uslubiyotini joriy etish, soha subyektlarining raqobatbardoshligini va boshqaruv samaradorligini tubdan oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Regio MAX. litsenziya № 40-1712-01-1. HSWT IMA Partner Universities.
2. Ahrorov F., Yuldashev Sh., Mardonov M. Fermer xo‘jaliklarda ma’lumotlar bazasi. Samarqand 2019 y.
3. https://yadi.sk/d/ahB1g_2uCTsV5g. Regio MAX Application form

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF NON-CURRENT ASSET MEASUREMENT UNDER IFRS AND ITS VALUE RELEVANCE

Qodirov Zafar Abdivaxobovich
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktaranti
https://orcid.org/0009-0001-3374-2030
zafk777@gmail.com +998(77) 097 77 66

Abstract. This thesis investigates the methodological foundations of measuring non-current tangible assets under IAS 16 Property, Plant and Equipment and evaluates their empirical value relevance for capital market participants. Tracing the standard’s historical roots to the UK’s SSAP 12 and Australian GAAP, the study analyses the asymmetric prudence mechanism and the mandatory class-wide revaluation rule designed to prevent opportunistic "cherry-picking." Synthesizing international empirical evidence, the paper highlights how asset revaluations signal future operating performance and equity returns, while accounting for constraints related to financial leverage and appraisal discretion. Key policy implications are drawn for joint-stock companies in emerging markets, specifically Uzbekistan, transitioning from National Accounting Standards (NAS) to IFRS.

Keywords: IFRS, IAS 16, fair value, value relevance, revaluation reserve, capital structure, cherry-picking.

Introduction

A central challenge in financial reporting is ensuring that balance sheet carrying values reflect underlying economic realities. Under IAS 16 Property, Plant and Equipment, entities can choose between the historical cost model and the revaluation model. While historical cost offers high verifiability, it suffers from severe information lag during inflationary periods. The conceptual framework of the IAS 16 revaluation model largely descends from the UK's Statement of Standard Accounting Practice No. 12 (SSAP 12), which posits that updating asset carrying amounts provides decision-useful, relevant information to capital markets (Aboody, Barth, & Kasznik, 1999). This framework enforces asymmetric prudence:

- Upward adjustments bypass the profit and loss account (P&L) and are credited directly to equity under a non-distributable revaluation reserve.
- Downward adjustments exceeding previous surpluses are charged immediately to profit or loss as an expense.

To curb managerial discretion, IAS 16 incorporates an anti-opportunism safeguard derived from Australian GAAP: if an individual asset is revalued, the entire class of assets to which it belongs must be revalued simultaneously (Aboody et al., 1999). This mandate stops managers from "cherry-picking"—revaluing appreciated property while suppressing impairments on obsolete equipment.

Methods

The research employs a normative comparative review alongside an empirical literature synthesis. We examine structural valuation models established in empirical accounting literature (Aboody et al., 1999; Barth, 2007; Christensen & Nikolaev, 2013; Sellhorn & Stier, 2018). These specifications estimate the statistical relationship between asset revaluations (REV), equity share prices (P), and one-year-ahead operational performance indicators:

$$P_{it}=\alpha_0+\alpha_1 BVE_{it}+ \alpha_2 NI_{it} + \alpha_3 REV_{it} + e_{it}$$

$$CFO_{it+1}=\beta_0+\beta_1 CFO_{it}+ \alpha_2 REV_{it} + \upsilon_{it}$$

$$OI_{it+1}=\gamma_0+\gamma_1 OI_{it}+ \gamma_2 REV_{it} + \eta_{it}$$

where BVEis the book value of equity, NI is net income, CFO is cash flow from operations, and OI is operating income.

Results

Empirical findings across international capital markets yield three critical insights:

- Value Relevance for Equity Pricing: Legitimate upward asset revaluations show a statistically significant, positive correlation with share prices and contemporaneous stock returns. Investors treat recognized revaluations as informative economic signals rather than cosmetic paper gains.
- Predictive Power for Operating Realities: Revaluation increments are positively associated with one-period-ahead operating income OI_{it+1} and operating cash flows CFO_{it+1} .Because tangible productive assets generate multi-period utility, an upward valuation revision directly reflects stronger future cash-generating capacity (Aboody et al., 1999).

• Capital Structure and Leverage Frictions: The positive valuation signal diminishes in firms with high debt-to-equity ratios (Christensen & Nikolaev, 2013). Investors apply a discount to revaluations performed by heavily indebted firms, viewing them as opportunistic balance-sheet inflations intended to avoid debt covenant breaches rather than indicators of genuine performance.

Discussion & Conclusion

The takeaway from the literature is clear: revaluing non-current assets can provide valuable insights for investors, but it is not a silver bullet. Its real-world credibility depends heavily on corporate incentives, the nature of the assets, and the institutional environment in which the company operates.



Figure 1. Transmission Mechanism and Market Perceptions of the IAS 16 Revaluation Model

For transitional economies such as Uzbekistan, where joint-stock companies are moving from legacy National Accounting Standards (NAS/BHMS) to IFRS, these findings present clear practical imperatives:

• Replacing Formulaic Indexation: Companies must move away from rigid, coefficient-driven indexation under NAS 5 in favour of market-based appraisals that adhere strictly to IAS 16.

• Enforcing Whole-Class Compliance: Regulatory bodies must monitor compliance with the Australian GAAP-derived whole-class rule to eradicate opportunistic selective valuation.

• Mitigating Discretion with Independent Verification: Where secondary trading markets are illiquid, companies should use accredited third-party valuation specialists and provide detailed footnote disclosures (discount rates, cash flow projections) under IFRS 13 to eliminate the investor pricing discounts typical of Level 3 fair value inputs.

References

1. Aboody, D., Barth, M.E. and Kasznik, R. (1999) ’Revaluations of fixed assets and future firm performance: evidence from the UK’, Journal of Accounting and Economics, 26(1–3), pp. 149–178.
2. Barth, M.E. (2007) ’Standard-setting measurement issues and the relevance of research’, Accounting and Business Research, 37(sup1), pp. 7–15.
3. Christensen, H.B. and Nikolaev, V.V. (2013) ’Does fair value accounting for non-financial assets pass the market test?’, Review of Accounting Studies, 18(3), pp. 734–775.
4. IASB (2003) IAS 16: Property, Plant and Equipment. London: International Accounting Standards Board.
5. Sellhorn, T. and Stier, C. (2018) ’Fair value measurement for long-term non-financial assets: a review of empirical evidence’, Schmalenbach Business Review, 70(4), pp. 387–421.

BANKLARDA FOIZLI DAROMADLAR: MOHIYATI, TURLARI VA BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH

Zafar Umarov Turakulovich
SamISI “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya xisobi va audit” kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarining foizli daromadlari, ularning iqtisodiy mohiyati, shakllanish manbalari va bank faoliyatidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, kredit operatsiyalari, banklararo joylashtirilgan mablag‘lar, qimmatli qog‘ozlar hamda boshqa foiz keltiruvchi aktivlar bo‘yicha olinadigan daromadlarning shakllanishi tahlil qilingan. Banklarda foizli daromadlarni hisobga olish, ularni to‘g‘ri tan olish va moliyaviy natijalarda aks ettirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada foizli daromadlarni samarali boshqarish orqali bankning daromadliligi va moliyaviy barqarorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, foizli daromad, kredit, foiz stavkasi, foiz xarajati, bank aktivlari, daromadlilik, moliyaviy natija, kredit portfeli, buxgalteriya hisobi.

Kirish

Tijorat banklari iqtisodiyotda vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish, ularni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kredit sifatida joylashtirish va moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish orqali muhim iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Bank faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantirishda daromadlar muhim o‘rin tutadi. Daromadlarning asosiy qismlaridan biri esa foizli daromadlardir.

Banklarning foizli daromadlari, asosan, kreditlar va boshqa foiz keltiruvchi aktivlarni joylashtirish natijasida shakllanadi. Bank tomonidan mijozlarga berilgan kreditlar bo‘yicha hisoblangan foizlar, boshqa banklarga joylashtirilgan mablag‘lardan olingan foizlar hamda ayrim moliyaviy instrumentlar bo‘yicha olinadigan foizlar bankning foizli daromadlarini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning foizli daromadlarini samarali boshqarish bankning foydaliligi, likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli foizli daromadlarning shakllanishi va ularning buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishi dolzarb masalalardan biridir.

Foizli daromadlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular bankning aktiv operatsiyalari bilan bevosita bog‘liq. Bank qancha ko‘p daromad keltiruvchi aktivlarga ega bo‘lsa va ushbu aktivlardan foydalanish samaradorligi qancha yuqori bo‘lsa, foizli daromad olish imkoniyati shuncha yuqori bo‘ladi.

Foizli daromadlar bankning moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bank faoliyatida foizli daromadlar oshishi, boshqa shartlar o‘zgarmagan taqdirda, bank foydasining ko‘payishiga olib kelishi mumkin.

Foizli daromadlarning bank uchun asosiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. bank foydasining shakllanishiga xizmat qiladi;
2. bank kapitalini oshirish imkoniyatini yaratadi;
3. bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi;
4. kredit operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini ifodalaydi;
5. bankning aktivlaridan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi;
6. bankning rivojlanishi va yangi xizmatlarni joriy etish uchun moliyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bunda faqat foizli daromadlarning mutlaq miqdorini oshirish emas, balki ularning sifati va barqarorligini ta’minlash ham muhimdir.

Banklarning foizli daromadlari quyidagi asosiy manbalar hisobidan shakllandi:

- mijozlarga berilgan kreditlar bo‘yicha foizlar;
- boshqa banklarga joylashtirilgan mablag‘lar bo‘yicha foizlar;
- banklararo kreditlar bo‘yicha foizlar;
- qarz qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizli daromadlar;
- depozit sertifikatlari va boshqa foiz keltiruvchi moliyaviy instrumentlar bo‘yicha daromadlar;
- Markaziy bankdagi ayrim joylashtirmalar bo‘yicha foiz daromadlari;
- boshqa foiz keltiruvchi aktivlar bo‘yicha daromadlar.

Kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar Tijorat banklarida foizli daromadlarning eng muhim manbalaridan biri kredit operatsiyalaridir. Banklar korxonalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslarga turli maqsadlarda kreditlar beradi.

Kreditlar bo‘yicha foiz daromadi kredit summasi, foiz stavkasi va kreditdan foydalanish muddatiga bog‘liq.

Banklararo operatsiyalar bo‘yicha foizli daromadlar Tijorat banklari o‘zlarining vaqtincha bo‘sh mablag‘larini boshqa banklarga joylashtirishlari

mumkin. Bunday operatsiyalar natijasida olingan foizlar ham bankning foizli daromadlari tarkibiga kiradi.

Banklararo joylashtirishlar bankning bo‘sh pul mablag‘laridan samarali foydalanish va qo‘shimcha daromad olish imkonini beradi.

Banklar davlat va korporativ qarz qimmatli qog‘ozlariga investitsiya kiritishi mumkin. Qarz instrumentlari bo‘yicha olinadigan kupon yoki boshqa foizli daromadlar bankning foizli daromadlari tarkibida aks ettiriladi.

Mazkur daromad turi bank aktivlarini diversifikatsiya qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Bank faoliyatida foizli daromadlarni foizli xarajatlardan alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq emas. Chunki bank daromad olish uchun, odatda, depozitlar, banklararo mablag‘lar va boshqa manbalar orqali resurslarni jalb qiladi.

Masalan, bank mijozlardan depozitlarni yillik 15 foiz stavkada jalb qilib, ushbu mablag‘larni kredit sifatida o‘rtacha 24 foiz stavkada joylashtirsa, ular o‘rtasidagi farq bankning foiz marjasini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi.

Soddalashtirilgan holda:

Foiz marjasi = Foizli daromadlar − Foizli xarajatlar

Shu sababli bankning daromadliligini baholashda kreditlar bo‘yicha olinayotgan foizlarni oshirish bilan bir qatorda resurslarni jalb qilish qiymatini ham nazorat qilish zarur. Quyida jadvalda bank tizimidagi foizli daromadlarni dinamikasi ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

O‘zbekiston bank tizimida foizli daromadlarning 2021–2025-yillardagi dinamikasi[167]

Yil	Foizli daromadlar, mlrd so‘m	Foizli xarajatlar, mlrd so‘m	Foizli marja, mlrd so‘m
2021	47 391,6	30 796,2	16 595,4
2022	61 727,8	37 566,1	24 161,7
2023	86 679,1	57 683,3	28 995,8
2024	111 866,4	77 674,6	34 191,8
2025	127 702,0	89 703,0	38 000,0

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2021-yilda bank tizimining foizli daromadlari 47,4 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 127,7 trln so‘mga yetgan.

Demak, besh yillik davrda foizli daromadlar **2,7 barobarga** oshgan. Bu banklarning kreditlash faoliyati kengaygani, foiz keltiruvchi aktivlar hajmi oshgani va bank xizmatlari bozorining kengaygani bilan izohlanadi.

2025-yil yakunlari bo‘yicha foizli daromadlar 127,7 trln so‘mni, foizli xarajatlar 89,7 trln so‘mni tashkil etgan va natijada foizli marja 38 trln so‘mga yetgan.

---

[167] **Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Banklarda foizli daromadlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashning muhim shartidir.

Foizli daromadlarni hisobga olishda daromadning qaysi operatsiya natijasida yuzaga kelgani, uning summasi, hisoblangan davri va tegishli aktiv bilan bog‘liqligi aniqlanadi.

Masalan, bank mijozga kredit bergan va ushbu kredit bo‘yicha foiz hisoblangan bo‘lsa, hisoblangan foiz tegishli tartibda bankning foizli daromadi sifatida tan olinadi.

Shartli buxgalteriya yozuvi quyidagi ko‘rinishda ifodalanishi mumkin:

Debet: Foizlarni olish bo‘yicha tegishli hisobvaraq

Kredit: Foizli daromadlar bo‘yicha tegishli daromad hisobvarag‘i.

Foizning amalda undirilishi esa tegishli pul mablag‘lari hisobvaraqlarida aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobida aniq hisobvaraqlar va provodkalar banklarda amalda qo‘llanilayotgan hisobvaraqlar rejasining tegishli qoidalari asosida belgilanadi. Bankning foizli daromadlari bir qator omillar ta’sirida shakllanadi. Ulardan asosiylari quyidagilar:

Kredit portfeli hajmi. Kreditlar hajmining oshishi foizli daromadlarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin.

Foiz stavkalari. Kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarining o‘zgarishi bank daromadlariga bevosita ta’sir qiladi.

Kreditlarning muddati. Kreditdan foydalanish muddati uzayishi foiz daromadlari hajmiga ta’sir ko‘rsatadi.

Kredit portfelining sifati. Muammoli kreditlar ko‘payishi bankning real foizli daromadlarini kamaytirishi mumkin.

Resurslarning qiymati. Bank depozitlar va boshqa manbalar bo‘yicha qancha ko‘p foiz to‘lasa, sof foizli daromad shuncha kamayishi mumkin.

Makroiqtisodiy sharoit. Inflyatsiya, pul-kredit siyosati, bozor foiz stavkalari va iqtisodiy faollik darajasi banklarning foizli daromadlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Banklarda foizli daromadlarni samarali boshqarish uchun aktivlar va passivlarning muddatlari, foiz stavkalari hamda risklarini o‘zaro muvofiqlashtirish zarur.

Bunda banklar quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq:

- kredit portfelini diversifikatsiya qilish;
- kredit risklarini samarali boshqarish;
- muammoli kreditlar ulushini kamaytirish;
- foiz stavkalarini bozor sharoitlariga mos ravishda belgilash;
- daromad keltiruvchi aktivlar ulushini oshirish;
- foizli xarajatlarni optimallashtirish;
- aktiv va passivlarning foiz stavkasi bo‘yicha sezgirligini muntazam tahlil qilish;
- raqamli texnologiyalar yordamida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish.

Ayniqsa, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi kredit mahsulotlarini tezkor taklif qilish, mijozlarning kreditga bo‘lgan talabini aniqlash va kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Olib borilgan kuzatuvlar natijalaridan kelib chiqib, tijorat banklarida foizli daromadlarni oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish yani, kreditlarni iqtisodiyotning turli tarmoqlari va mijozlar segmentlari bo‘yicha muvozanatli taqsimlash lozim.
2. Kredit risklarini raqamli baholashni kengaytirish orqali mijozning moliyaviy holati va to‘lov qobiliyatini avtomatlashtirilgan tizimlar orqali baholash kredit yo‘qotishlarini kamaytirishga yordam beradi.
3. Foiz stavkalarini differensiallashtirish, mijozning kredit tarixi, risk darajasi va kredit muddatidan kelib chiqib foiz stavkalarini belgilash bank daromadliligini oshirishi mumkin.
4. Kredit portfelining sifati yaxshilanishi foizli daromadlarning barqarorligini ta’minlaydi.
5. Foizli daromadlarni oshirish bilan bir qatorda foizli xarajatlarni oqilona boshqarish ham zarur.
6. Raqamli kreditlash xizmatlarini rivojlantirish orqali mobil va internet-banking orqali kredit mahsulotlarini taqdim etish operatsion xarajatlarni kamaytirib, bank xizmatlarining ommaviyligini oshirishi mumkin.

Xulosa

Tijorat banklarining foizli daromadlari bank faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantiruvchi muhim manbalardan biridir. Ularning asosiy qismini kreditlar, banklararo joylashtirmalar va foiz keltiruvchi qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha olinadigan daromadlar tashkil etadi.

Foizli daromadlarning yuqori bo‘lishi o‘z-o‘zidan bank faoliyatining samarali ekanligini anglatmaydi. Bank daromadlarini baholashda foizli xarajatlar, kredit risklari, muammoli kreditlar, aktivlarning sifati va resurslarning qiymatini ham hisobga olish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, banklarda foizli daromadlarni samarali boshqarishning asosiy yo‘nalishi yuqori daromadli aktivlarni shakllantirish, kredit risklarini kamaytirish, resurslar qiymatini optimallashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishdan iborat.

Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi esa foizli daromadlarni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, mijozlarning ma’lumotlarini tezkor tahlil qilish, kredit riskini baholash va individual kredit mahsulotlarini taklif etish banklarning foizli daromadlarini barqaror oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, tijorat banklarida foizli daromadlarni samarali boshqarish bankning foydaliligini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida**gi PF-6079-son Farmoni, 2020-yil 5-oktabr.
2. https://cbu.uz/uz/ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **2025-yil uchun Yillik hisobot**. Toshkent, 2026.

3. https://cbu.uz/uz/ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **2024-yil uchun Yillik hisobot**. Toshkent, 2025.
4. https://cbu.uz/uz/ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **Annual Report 2023**. Toshkent, 2024.
5. https://cbu.uz/uz/ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **Bank tizimi daromadlilik ko‘rsatkichlari**. **Statistik ma’lumotlar bazasi.**
6. https://cbu.uz/uz/ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **Bank tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar**.
7. https://cbu.uz/uz/ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **2025-yil uchun Moliyaviy barqarorlik sharhi**. Toshkent, 2026.
8. https://cbu.uz/uz/ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **Statistik byulleten. 2025-yil**. Toshkent, 2026.
9. https://cbu.uz/uz/ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **2024-yil uchun Moliyaviy barqarorlik sharhi**. Toshkent, 2025.
10. Kamolov S.D. **Raqamli transformatsiyaning mohiyati va bank sohasidagi ahamiyati**. – Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2025.

DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Yuldasheva Munira Shoximovna
Tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning tashkiliy-uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Donni qayta ishlash jarayonida xomashyo, mehnat, energiya, amortizatsiya va umumishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot turlari o‘rtasida taqsimlash bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Mahsulot tannarxining haqqoniy shakllanishini ta’minlash maqsadida xarajatlarni “jarayon - xarajat markazi - mahsulot turi” kesimida hisobga olish modeli taklif etilgan. Shuningdek, qo‘shma ishlab chiqarish jarayonida asosiy va ikkilamchi mahsulotlarga xarajatlarni taqsimlash, me’yoriy va haqiqiy xarajatlarni taqqoslash hamda tannarx kalkulyatsiyasini avtomatlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: donni qayta ishlash, ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot tannarxi, kalkulyatsiya, xomashyo, xarajat markazi, umumishlab chiqarish xarajatlari, me’yoriy xarajat, analitik hisob, boshqaruv hisobi.

Donni qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri hisobga olish va mahsulot tannarxini aniq kalkulyatsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mahsulot tannarxi sotish narxini shakllantirish, mahsulot rentabelligini aniqlash, xarajatlarni nazorat qilish hamda korxonaning moliyaviy natijalarini baholashda asosiy iqtisodiy

ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Donni qayta ishlash jarayoni bir qator texnologik bosqichlardan iborat bo‘lib, xomashyoni qabul qilish, tozalash, quritish, saqlash, maydalash, saralash, qadoqlash va tayyor mahsulotni omborga topshirish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Ushbu bosqichlarning har birida turli xarajatlar yuzaga keladi. Shu bilan birga, bir xil xomashyoni qayta ishlash natijasida asosiy mahsulot bilan bir qatorda ikkilamchi mahsulotlar ham olinishi xarajatlarni mahsulotlar o‘rtasida asoslangan tarzda taqsimlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash muammolari. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda eng murakkab masalalardan biri bilvosita xarajatlarni mahsulot turlariga to‘g‘ri taqsimlash hisoblanadi. An’anaviy hisob tizimlarida ko‘pincha quyidagi bazalardan foydalaniladi: asosiy ish haqi summasi; ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi; mashina-soatlar.

Biroq zamonaviy to‘qimachilik korxonalarida avtomatlashtirish darajasi oshgani sababli ushbu usullar har doim ham haqiqiy xarajat yuklamasini aks ettirmaydi.

Masalan, ikki xil gazlama turi bir xil miqdorda ishlab chiqarilishi mumkin, ammo: uskunani sozlash vaqti; sifat nazorati jarayonlari; texnologik murakkablik jihatidan farq qiladi.

Natijada oddiy taqsimlash usuli ayrim mahsulotlarning tannarxini sun’iy ravishda oshirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Shu sababli *Activity-Based Costing (ABC)* usulini joriy etish ushbu muammoni bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash muammolari. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayoni bir nechta bosqichlardan iborat bo‘lganligi sababli hisobot davri oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish mavjud bo‘ladi.

Masalan: yigirish sexida tayyorlanayotgan ip; bo‘yash jarayonidagi gazlama; pardozlash bosqichidagi mahsulotlar tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibiga kiradi. Ularni baholashdagi xatolar: mahsulot tannarxining noto‘g‘ri shakllanishiga; foyda ko‘rsatkichlarining buzilishiga; moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda bunday holatlarda *ekvivalent ishlab chiqarish birliklari (Equivalent Units of Production)* usulidan foydalaniladi. Ushbu usul tugallanmagan mahsulotlarning tayyorlik darajasini hisobga olish imkonini beradi.

Energiya xarajatlarini hisobga olishdagi muammolar. To‘qimachilik sanoati energiya sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoqlardan biridir. Quyidagi jarayonlar katta energiya talab qiladi: ip yigirish; quritish; bo‘yash; issiqlik bilan ishlov berish.

Amaliyotda energiya xarajatlari ko‘pincha umumiy ishlab chiqarish xarajati sifatida aks ettiriladi. Bu esa: qaysi sex ko‘proq energiya sarflayotganini aniqlash; energiya tejamkorligini baholash; xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Shuning uchun har bir ishlab chiqarish uchastkasi bo‘yicha energiya iste’molini alohida hisobga olish tizimini joriy etish zarur.

Adabiyotlar sharhi. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish masalalari boshqaruv hisobi va xarajatlarni nazorat qilishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Xorijlik iqtisodchi olimlar Kaplan va Atkinson “zamonaviy korxonalarda tannarxni

aniqlashda ***ABC Costing, Standard Costing va Target Costing*** kabi usullardan foydalanish xarajatlarni aniqroq baholash va boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga xizmat qilishi”ni ta’kidlaydi [1].

Chet ellik soha mutaxassislari Monden va Lee Yaponiya tajribasida *“**Kaizen Costing*** yondashuvining ahamiyatini ko‘rsatib, xarajatlarni doimiy ravishda kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga urg‘u beradi” [2]. Ushbu yondashuv to‘qimachilik korxonalarida xomashyo sarfi, chiqindilar va energiya xarajatlarini optimallashtirishda qo‘llanishi mumkin.

Xorijlik mutaxassislar Kloock va Schiller “Germaniya korxonalarida xarajatlarni hisobga olishni xarajat markazlari va ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘lash masalasini tadqiq qilgan” [3]. Mazkur yondashuv xarajatlarni mas’uliyat markazlari bo‘yicha nazorat qilish va mahsulot tannarxini aniqroq shakllantirish imkonini beradi.

Umuman, tadqiqotlar to‘qimachilik korxonalarida tannarxni boshqarishda ***jarayonli kalkulyatsiya, ABC Costing, Standard Costing va raqamli hisob tizimlarini uyg‘unlashtirish*** xarajatlarning aniqligi va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Materiallar va tadqiqot metodlari. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish bo‘yicha xalqaro tajriba ko‘rib chiqamiz.

“AQSh tajribasi. AQSh korxonalarida mahsulot tannarxini hisoblash boshqaruv hisobi bilan chambarchas bog‘langan. Asosiy qo‘llaniladigan usullar: Activity-Based Costing; Standard Costing; Target Costing. AQSh tajribasining asosiy xususiyati shundaki, tannarx faqat hisobot ko‘rsatkichi emas, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida qaraladi” [1].

“Yaponiya tajribasi. Yapon korxonalarida xarajatlarni boshqarish tizimi asosan doimiy takomillashtirish tamoyiliga asoslanadi. Asosiy usullar: *Kaizen Costing.* Ushbu usul ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan. Uning asosiy yo‘nalishlari: chiqindilarni kamaytirish; ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish; resurslardan samarali foydalanish. To‘qimachilik sanoatida ushbu usul: xomashyo sarfini kamaytirish; nuqsonli mahsulotlarni qisqartirish; energiya samaradorligini oshirish uchun qo‘llanishi mumkin” [2].

“Germaniya tajribasi. Germaniyada xarajatlarni hisobga olish tizimi ko‘pincha texnologik jarayonlar va xarajat markazlari asosida tashkil qilinadi. Ularning asosiy xususiyatlari: xarajat markazlari bo‘yicha nazorat; ishlab chiqarish samaradorligi monitoringi; ERP tizimlaridan foydalanish. Bu tajriba O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari uchun ayniqsa dolzarb hisoblanadi” [3].

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni takomillashtirish usullari va yo‘nalishlari. *1. Kalkulyatsiya tizimini raqamlashtirish.* Korxonalarda: ERP; BI (Business Intelligence); elektron ombor tizimlari joriy qilinishi kerak. Natijada: xarajatlar real vaqt rejimida nazorat qilinadi; tannarx avtomatik shakllantiriladi; tahliliy hisobotlar tezkor tayyorlanadi.

2. ABC Costing tizimini joriy qilish. ABC usuli yordamida: xarajatlarning haqiqiy manbalari aniqlanadi; mahsulotlar rentabelligi baholanadi; noto‘g‘ri taqsimlangan xarajatlar kamayadi.

3. Xarajat markazlari tizimini shakllantirish. Korxonada quyidagi xarajat markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi (jadval):

1-Jadval

To‘qimachilik sanoati korxonalarida xarajat markazlarini tashkil etish

Xarajat markazi	Asosiy vazifa
Yigirish sexi	Ip tannarxini aniqlash
To‘qish sexi	Gazlama xarajatlarini hisoblash
Bo‘yash sexi	Kimyoviy va energiya xarajatlarini nazorat qilish
Sifat nazorati	Sifat bilan bog‘liq xarajatlarni baholash
Logistika	Tashish xarajatlarini hisoblash

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, to‘qimachilik korxonalarida xarajat markazlarini ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha tashkil etish xarajatlarni aniq hisobga olish va nazorat qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv mahsulot tannarxini to‘g‘ri aniqlash, resurslardan samarali foydalanish hamda korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Standard Costing tizimini takomillashtirish. Har bir mahsulot turi uchun: material me’yori; vaqt me’yori; energiya sarfi normasi belgilanishi kerak. Bu xarajatlarning chetlanishini aniqlash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalariga asoslanib, to‘qimachilik sanoati korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy takliflar ishlab chiqildi: *1-taklif. Jarayonli kalkulyatsiya va ABC Costing usullarini integratsiyalashgan holda qo‘llash.* Bu yondashuv: texnologik bosqichlar bo‘yicha xarajatlarni aniqlash; bilvosita xarajatlarni aniq taqsimlash imkonini beradi.

2-taklif. Raqamli tannarx boshqaruvi modelini yaratish. Ushbu model: ishlab chiqarish; ombor; buxgalteriya; boshqaruv hisobi tizimlarini yagona axborot maydonida birlashtiradi.

3-taklif. Energiya xarajatlarini alohida kalkulyatsiya elementi sifatida ajratish. Bu: energiya samaradorligini baholash; tejamkor texnologiyalarni tanlash imkonini beradi.

Muhokama. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning yangi konseptual modeli quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi (rasm).

Rasmda to‘qimachilik korxonasida xarajatlarning shakllanish modeli keltirilgan.

Ushbu model to‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini samarali boshqarish jarayonini aks ettiradi. Unda ishlab chiqarish xarajatlari moddiy, mehnat va ustama xarajatlarga ajratilib, Process Costing va ABC Costing usullari asosida hisobga olinadi. Xarajatlar ERP raqamli hisob tizimi orqali qayta ishlanib, mahsulot tannarxi aniq kalkulyatsiya qilinadi. Natijada tannarx tahlil qilinadi, xarajatlar optimallashtiriladi va korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati oshadi.

Xulosa. To‘qimachilik sanoati korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayoni murakkab texnologik va iqtisodiy omillar ta’sirida shakllanadi. Amaliyotdagi asosiy muammolar xomashyo xarajatlarini nazorat qilish, bilvosita xarajatlarni taqsimlash, tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash va raqamlashtirish darajasi bilan bog‘liq.



1-Rasm. To‘qimachilik korxonalarida tannarxni boshqarishning takomillashtirilgan modeli

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy korxonalar tannarxni hisoblashda faqat an’anaviy usullarga emas, balki ABC Costing, Standard Costing, Target Costing va ERP texnologiyalariga asoslangan kompleks tizimlardan foydalanmoqda.

O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarida ushbu yondashuvlarni joriy etish mahsulot tannarxining aniqligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va korxonalarning ichki hamda tashqi bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Robert S. Kaplan, Anthony A. Atkinson. Advanced Management Accounting, Pearson New International Edition, 3rd edition. Published by Pearson (July 25, 2013) © 2014. https://www.pearson.com/en-gb/subject-catalog/p/Kaplan-Advanced-Management-Accounting-Pearson-New-International-Edition-3rd

2. Monden, Y., Lee, J. Y. *Japanese Cost Management*. Singapore: World Scientific Publishing, 2000. Chapter 10: **Kaizen Costing: Its Function and Structure Compared to Standard Costing**., Yoshikawa, T., Kouhy, R. **Continuous Improvement and Kaizen Costing** // *The Routledge Companion*

to Cost Management. Routledge, 2013. pp. 96–107. DOI: 10.4324/9780203101261-8.

3. Kloock, J., & Schiller, U. (1997). *Cost accounting in Germany*. **Management Accounting Research, 8**(3), 261–276. https://doi.org/10.1006/mare.1996.0047.

BIOLOGIK AKTIVLAR AUDITINI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Menglikulov Baxtiyor Yusupovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Audit" kafedrasi professori, i.f.d.

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarida biologik aktivlar auditini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Biologik aktivlarning biologik transformatsiyasi, ularni haqqoniy qiymatda baholash, mavjudligi va holatini aniqlash hamda moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirish bilan bog'liq audit muammolari tahlil qilingan. Xorijiy tajriba, xususan, 41-son BHXS "Qishloq xo'jaligi", 13-son MHXS "Haqqoniy qiymatni baholash", 315-son AXS va 540-son AXS talablaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqot natijasida biologik aktivlar auditini riskka asoslangan holda tashkil etish, baholash jarayonida mustaqil dalillarni kengaytirish va raqamli inventarizatsiya vositalaridan foydalanishga asoslangan takomillashtirilgan audit modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: biologik aktivlar, audit, 41-son BHXS, 13-son MHXS, haqqoniy qiymat, audit riski, biologik transformatsiya, 315-son AXS, 540-son AXS, qishloq xo'jaligi, inventarizatsiya, audit dalillari.

Аннотация. В статье исследуются теоретические и практические аспекты организации аудита биологических активов на сельскохозяйственных предприятиях. Рассматриваются проблемы, связанные с биологической трансформацией, оценкой по справедливой стоимости, подтверждением существования и состояния биологических активов, а также их отражением в финансовой отчетности. Изучены возможности применения международного опыта на основе IAS 41 «Сельское хозяйство», IFRS 13 «Оценка справедливой стоимости», ISA 315 и ISA 540. По результатам исследования предложена усовершенствованная модель аудита биологических активов, основанная на риск-ориентированном подходе, расширении независимых источников аудиторских доказательств и применении цифровых инструментов инвентаризации.

Ключевые слова: биологические активы, аудит, IAS 41, IFRS 13, справедливая стоимость, аудиторский риск, биологическая трансформация, ISA 315, ISA 540, сельское хозяйство, инвентаризация, аудиторские доказательства.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of auditing biological assets in agricultural enterprises. Particular attention is paid to biological transformation, fair value measurement, verification of existence and condition, and the presentation of biological assets in financial statements. The study considers the applicability of international experience based on IAS 41 Agriculture, IFRS 13 Fair Value Measurement, ISA 315 and ISA 540. The research proposes an improved audit model based on a risk-oriented approach, expanded use of independent audit evidence and digital inventory procedures.

Keywords: biological assets, audit, IAS 41, IFRS 13, fair value, audit risk, biological transformation, ISA 315, ISA 540, agriculture, inventory, audit evidence.

Kirish. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida biologik aktivlar boshqa aktivlardan o‘zining doimiy biologik o‘zgarishi bilan farq qiladi. Chorva mollari, parrandalar, ekinlar, bog‘lar va boshqa tirik organizmlar rivojlanish, ko‘payish, yetilish yoki mahsuldorlikning o‘zgarishi jarayonida bo‘ladi. Shu sababli ularning qiymati ham vaqt davomida o‘zgarib boradi. Bu holat biologik aktivlarni hisobga olish va auditdan o‘tkazishda oddiy moddiy aktivlarga nisbatan murakkabroq nazorat mexanizmlarini talab qiladi.

41-son “Qishloq xo‘jaligi” nomli BHXS (IAS 41 “Agriculture”) qishloq xo‘jaligi faoliyati doirasidagi biologik aktivlarning hisobga olinishi va baholanishini tartibga soladi. Standartga ko‘ra, “biologik aktivlar, ayrim istisnolardan tashqari, sotish xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatda baholanadi va ushbu qiymatdagi o‘zgarishlar tegishli davr moliyaviy natijasida aks ettiriladi” [1].

Mazkur talab audit jarayonida baholashning to‘g‘riligi masalasini muhim audit yo‘nalishiga aylantiradi. Chunki biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlashda bozor narxlari, hayvonning yoshi va vazni, mahsuldorligi, biologik rivojlanish bosqichi, bozor sharoitlari va sotish bilan bog‘liq xarajatlar kabi ko‘rsatkichlardan foydalanilishi mumkin.

Xalqaro tadqiqotlarda ham biologik aktivlarni baholash masalasi muhim ilmiy muammo sifatida ko‘riladi. Xorijlik iqtisodchi olimlar Gonçalves, Lopes va Craig “27 mamlakatdagi 389 ta firma-yil kuzatuvini o‘rganib, haqqoniy qiymatda tan olingan biologik aktivlarning moliyaviy axborot uchun ahamiyatli ekanligini, ayniqsa, axborotni ochib berish darajasi yuqori bo‘lgan korxonalarda uning foydaliligi oshishini aniqlagan” [5].

Shundan kelib chiqib, maqolaning maqsadi biologik aktivlar auditining amaldagi muammolarini aniqlash, xorijiy tajriba va xalqaro audit standartlari asosida ularni takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Biologik aktivlar hisobi va auditi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda asosiy e’tibor ularning baholanishi, haqqoniy qiymatni aniqlash va audit dalillarining yetarliligiga qaratilgan.

41-son BHXS bo‘yicha “biologik aktivlarning o‘ziga xos xususiyati ularning biologik transformatsiyaga uchrashidir. Standart boshqa biologik aktivlarni sotish

xarajatlari chegirilgan haqqoniy qiymatda o‘lchashni va qiymatdagi o‘zgarishlarni foyda yoki zararda tan olish”ni [1] nazarda tutadi.

Chet ellik soha mutaxassislari Argilés-Bosch, Sabata Aliberch va Garcia-Blandon “biologik aktivlarni tarixiy qiymat va haqqoniy qiymatda baholashdagi qiyinchiliklarni empirik jihatdan solishtirgan. Tadqiqot biologik aktivlar uchun baholash usulini tanlashda axborotning ishonchliligi va undan foydalanuvchilar tomonidan tushunilishiga e’tibor berish” [6] zarurligini ko‘rsatadi.

Gonçalves, Lopes va Craigning tadqiqotida esa “biologik aktivlarning haqqoniy qiymatda aks ettirilishi moliyaviy axborotning qiymatga aloqadorligi bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Mualliflar ochib beriladigan ma’lumotlar hajmi va sifati ham ushbu axborotning foydaliligiga ta’sir qilishini aniqlagan” [5].

So‘nggi tizimli tadqiqotlarda ham 41-son BHXS doirasida “biologik aktivlarni baholash masalalari moliyaviy hisobotlarning sifati va foydaliligiga bevosita ta’sir qiluvchi omil sifatida ko‘rilmoqda” [5].

Audit nuqtayi nazaridan 315-son AXS (ISA 315, Revised 2019) “auditorning muhim noto‘g‘ri aks ettirish risklarini aniqlash va baholashini audit jarayonining muhim bosqichi sifatida belgilaydi” [3]. 540-son AXS (ISA 540, Revised) esa “hisob-kitob baholari va ular bilan bog‘liq ma’lumotlarni audit qilishda baholash noaniqligi, murakkablik, subyektivlik va auditorning professional skeptitsizmini hisobga olishni kuchaytirgan” [4].

Shunday qilib, mavjud tadqiqotlar biologik aktivlarning baholanishiga katta e’tibor bergan bo‘lsa-da, ularni audit qilishda *biologik holatni tasdiqlash, baholash modelini tekshirish, ichki nazorat va raqamli audit vositalarini yagona riskka asoslangan tizimga birlashtirish* masalalari yanada tizimli yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiya, guruhlash, risklarni baholash va xalqaro standartlar talablarini taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Biologik aktivlar auditining o‘ziga xosligi quyidagi asosiy audit yo‘nalishlari orqali ifodalanadi:

- biologik aktivlarning mavjudligini aniqlash;
- ularning korxonaga tegishliligini tasdiqlash;
- biologik holat va rivojlanish darajasini baholash;
- haqqoniy qiymatni hisoblash usulini tekshirish;
- hisoblangan qiymatdagi o‘zgarishlarni qayta hisoblash;
- biologik aktivlarning moliyaviy hisobotda to‘g‘ri tasniflanishini tekshirish;
- tegishli izoh va ochib berishlarning to‘liqligini baholash.

13-son MHXS “haqqoniy qiymatni baholashda qo‘llaniladigan kirish ma’lumotlarini uch darajali ierarxiyaga ajratadi: faol bozordagi kuzatiladigan narxlar, boshqa kuzatiladigan ma’lumotlar va muhim kuzatilmaydigan ma’lumotlar” [2]. Bu esa auditor uchun biologik aktiv qiymatini aniqlashda foydalanilgan ma’lumotlarning qaysi darajaga mansubligini aniqlash zarurligini anglatadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari biologik aktivlar auditida to‘rtta asosiy xavf guruhini ajratish imkonini berdi: *mavjudlik riski, baholash riski, huquqiy egalik riski va ma’lumotlarni ochib berish riski*.

Biologik aktivlar auditida quyidagi asosiy risklar va takomillashtirilgan audit amaliyotlari taklif etiladi (jadval).

Jadvaldan ko‘rinadiki, biologik aktivlar auditini faqat inventarizatsiya va hujjatlarni tekshirish bilan cheklash yetarli emas. Ayniqsa, haqqoniy qiymat asosida baholanadigan aktivlarda auditor baholash jarayonida qo‘llangan bozor ma’lumotlari, farazlar va hisoblash usullarini ham tekshirishi lozim.

540-son AXS “hisob-kitob baholarini audit qilishda murakkablik, subyektivlik va baholash noaniqligini hisobga olishni kuchaytirgan” [4].

1-Jadval

Biologik aktivlar auditida asosiy risklar va takomillashtirilgan audit amaliyotlari

Audit yo‘nalishi	**Asosiy risk**	**Tavsiya etiladigan audit amaliyoti**	**Xorijiy tajriba asosidagi yondashuv**
Mavjudlik	Hisobotda mavjud bo‘lmagan aktivlarning aks ettirilishi	Fizik kuzatuv, inventarizatsiya va foto/video dalillar	Riskka asoslangan inventarizatsiya
Baholash	Haqqoniy qiymatning noto‘g‘ri aniqlanishi	Bozor narxlari va baholash modelini tekshirish	IFRS 13 ierarxiyasi
Biologik holat	Yosh, vazn yoki mahsuldorlikning noto‘g‘ri ko‘rsatilishi	Veterinariya va texnologik hujjatlarni tekshirish	Mustaqil ekspert xulosasi
Egalik	Begona aktivlarning korxona aktivlari tarkibiga kiritilishi	Shartnoma va huquqiy hujjatlarni tekshirish	Huquqiy dalillarni tasdiqlash
Qiymat o‘zgarishi	Biologik transformatsiya natijasining noto‘g‘ri hisoblanishi	Qayta hisoblash va analitik tahlil	IAS 41 talablari
Ochib berish	Hisobot izohlarining to‘liq emasligi	Moliyaviy hisobot va izohlarni standart bilan solishtirish	IAS 41 disclosure talablari
Ichki nazorat	Aktivlar harakatining nazoratsiz qolishi	Nazorat muhitini va nazorat amallarini test qilish	ISA 315 asosidagi risk baholash

Manba: muallif tomonidan 41-son BHXS, 13-son MHXS, 315-son AXS va 540-son AXS talablari hamda ilmiy adabiyotlar asosida ishlab chiqilgan.

Shu sababli biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash auditor tomonidan alohida risk obyekti sifatida ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

Muhokama. Xorijiy tajribani o‘rganish biologik aktivlar auditida uchta muhim yo‘nalishni ajratish imkonini beradi.

Birinchidan, *riskka asoslangan audit* biologik aktivlarning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirilishi lozim. 315-son AXS “auditorning risklarni aniqlashi va baholashi asosida keyingi audit amallarini belgilashga yo‘naltirilgan”. Shu sababli biologik aktivlarning qiymati umumiy aktivlar tarkibida katta ulushni egallagan korxonalarda baholash va mavjudlik risklariga yuqori darajada e’tibor qaratish zarur.

Ikkinchidan, *haqqoniy qiymatni tekshirish metodikasi* takomillashtirilishi kerak. Agar faol bozor mavjud bo‘lsa, auditor bozor narxlari va ularning hisobot sanasiga mosligini tekshirishi mumkin. Faol bozor mavjud bo‘lmaganda esa baholash modeli, prognoz ko‘rsatkichlari va kuzatilmaydigan ma’lumotlar chuqurroq tahlil qilinishi kerak. 13-son MHXS bunday ma’lumotlarni haqqoniy qiymat ierarxiyasining tegishli darajalariga ajratadi.

Uchinchidan, *raqamli audit vositalaridan foydalanish* biologik aktivlarning mavjudligini va harakatini nazorat qilishni kuchaytirishi mumkin. Masalan, chorva mollarini identifikatsiya qilish, elektron inventarizatsiya, GPS ma’lumotlari, elektron veterinariya hujjatlari va foto-video dalillardan foydalanish auditorlik dalillarining sifatini oshirish imkonini beradi.

Shu asosda biologik aktivlar auditining takomillashtirilgan modeli taklif etiladi (1-rasm).



1-Rasm. Biologik aktivlar auditini takomillashtirishning integrallashgan modeli

Taklif etilayotgan modelning asosiy farqi audit jarayonining alohida tekshiruv amallaridan yagona *“risk → dalil → baholash → nazorat → xulosa”* tizimiga o‘tkazilishidir. Bunda biologik aktivning faqat mavjudligi emas, balki uning iqtisodiy qiymati va moliyaviy hisobotda aks ettirilishining asoslanganligi ham birgalikda baholanadi.

Audit samaradorligini yanada oshirish uchun korxonalarda biologik aktivlarning elektron reyestrini yaratish maqsadga muvofiq. Unda aktivning turi, identifikatsiya raqami, yoshi, biologik holati, joylashuvi, dastlabki qiymati, hisobot sanasidagi qiymati va qiymat o‘zgarishlari qayd etilishi mumkin.

Bunday reyestr auditorlik tekshiruvini tezlashtirish bilan birga, hisob ma’lumotlarini birlamchi dalillar bilan solishtirish imkonini ham oshiradi. Ayniqsa, yirik chorvachilik va bog‘dorchilik xo‘jaliklarida raqamli identifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mavjudlik va to‘liqlik bo‘yicha audit risklarini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari biologik aktivlar auditi oddiy aktivlarni tekshirishdan farqli ravishda biologik transformatsiya, baholash noaniqligi, bozor sharoitlari va aktivlarning fizik holatini bir vaqtning o‘zida hisobga olishni talab qilishini ko‘rsatdi.

Xalqaro amaliyotda 41-son BHXS biologik aktivlarni hisobga olishning asosiy tamoyillarini, 13-son MHXS esa haqqoniy qiymatni aniqlash va baholash ierarxiyasini belgilaydi. 315-son AXS auditorlik risklarini aniqlash va baholashga, 540-son AXS esa hisob-kitob baholari va ular bilan bog‘liq noaniqliklarni tekshirishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- biologik aktivlar auditini riskka asoslangan yondashuv asosida tashkil etish;
- haqqoniy qiymatni baholashda IFRS 13 talablaridan foydalanish;
- biologik aktivlarning mavjudligini tasdiqlashda fizik kuzatuvni raqamli dalillar bilan uyg‘unlashtirish;
- baholash jarayonida mustaqil ekspertlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;
- biologik aktivlarning elektron reyestrini shakllantirish;
- audit dasturida mavjudlik, baholash, egalik va ochib berish risklarini alohida nazorat nuqtalari sifatida belgilash;
- 540-son AXS talablariga muvofiq baholashdagi noaniqlik va subyektivlikni chuqurroq tahlil qilish.

Shunday qilib, biologik aktivlar auditini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi xalqaro standartlarni mahalliy amaliyotga mexanik ravishda ko‘chirish emas, balki ularning tamoyillarini korxonalarning ishlab chiqarish xususiyatlari, mavjud axborot tizimlari va ichki nazorat mexanizmlari bilan integratsiyalashdan iborat. Taklif etilgan integrallashgan model biologik aktivlarning mavjudligi, holati, qiymati va moliyaviy hisobotda aks ettirilishini yagona audit jarayonida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. IFRS Foundation. *IAS 41 Agriculture*. International Financial Reporting Standards. IFRS Foundation. https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-41-agriculture/.
2. IFRS Foundation. *IFRS 13 Fair Value Measurement.* International Financial Reporting Standards. https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-13-fair-value-measurement/.
3. IAASB. *International Standard on Auditing 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement.* International Auditing and Assurance Standards Board, 2019. https://www.iaasb.org/publications/isa-315-revised-2019-identifying-and-assessing-risks-material-misstatement.
4. IAASB. *International Standard on Auditing 540 (Revised): Auditing Accounting Estimates and Related Disclosures.* International Auditing and Assurance Standards Board, 2018. https://www.iaasb.org/publications/isa-540-revised-auditing-accounting-estimates-and-related-disclosures-9.
5. Gonçalves R., Lopes P., Craig R. *Value relevance of biological assets under IFRS.* Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. 2017. Vol. 29. P. 118-126. DOI: 10.1016/j.intaccaudtax.2017.10.001.
6. Argilés-Bosch J.M., Sabata Aliberch A., Garcia-Blandon J. **A** *Comparative Study of Difficulties in Accounting Preparation and Judgement in Agriculture Using Fair Value and Historical Cost for Biological Assets Valuation*. Revista de Contabilidad. 2012. Vol. 15, No. 1. P. 109–142. DOI: 10.1016/S1138-4891(12)70040-7.
7. *Biological Assets in Agricultural Accounting: A Systematic Review of the Application of IAS 41*. Journal of Risk and Financial Management. 2025. Vol. 18, No. 7. Article 380. DOI: 10.3390/jrfm18070380.
8. Hameed M.Y., Almaaeny S.S. *Audit Scope and Procedures for Biological Assets: An Application Study on Agricultural Company Samples*. Journal of Accounting and Financial Studies. 2024. Vol. 19, No. 66. P. 372–388. DOI: 10.34093/bw2t9p58.
9. Maswadeh S., Aldagamseh M. *Obstacles of Biological Assets Fair Value Measurement in International Accounting Standard (41) "Agriculture"*. An-Najah University Journal for Research – B. 2017. Vol. 31, No. 2. P. 251–276. DOI: 10.35552/0247-031-002-004.
10. Akhmetova S.S. *Use of Foreign Experience in Organizing the Accounting and Auditing of Biological Assets.* Muhandislik va Iqtisodiyot. 2026. DOI: 10.5281/zenodo.21295324.
11. Akhmetova S.S. *Improving the Accounting and Auditing of Biological Assets Based on International Standards.* Econoscitech Integration. 2026. DOI: 10.5281/zenodo.21195643.
12. Akhmetova S.S. *Risk-Based Audit of Biological Assets: A Classifier of Typical Misstatements and Internal Control Indicators.* International Congress on Economics, Management and Business Studies. 2026. Vol. 1, No. 9. P. 1–8.

БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

(Самиддин Ташназаров, и.ф.д., профессор)

Мамлакатимизда бухгалтерия ҳисобини тараққий эттиришнинг асосий йўналишлари сифатида қуйидагиларни киритиш мумкин:

БИРИНЧИ ЙЎНАЛИШ, ИҚТИСОДИЁТНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ ТАЛАБЛАРИГА МОС БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. “ЯШИЛ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ”ГА ЎТИШ;

ИККИНЧИ ЙЎНАЛИШ, РАҚАМЛИ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ;

УЧИНЧИ ЙЎНАЛИШ, МҲХСЛАРИГА ЖАДАЛ ЎТИШ;

ТЎРТИНЧИ ЙЎНАЛИШ, БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ СОҲАСИДА ТАЪЛИМНИ ХАЛҚАРО ДАРАЖАГА ОЛИБ ЧИҚИШ.

БИРИНЧИ ЙЎНАЛИШ. ИҚТИСОДИЁТНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ ТАЛАБЛАРИГА МОС БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. “ЯШИЛ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ”ГА ЎТИШ.

Барқарор ривожланиш – бу келажак авлод эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда ҳозирги фаолият ва замонавий жамият эҳтиёжларини қондиришда ижтимоий адолатни таъминлаш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, инновацион ривожланиш ва барқарор иқтисодий ўсиш ўртасида ўзаро мувофиқликка эришиш билан боғлиқ тараққиёт моделидир.

БМТда 2030-йилгача барқаро ривожланиш мақсадлар дастури ишлаб чиқилган. 193 та давлат қатори Ўзбекистон ҳам қўшилган ва барқарор ривожланишнинг миллий мақсадлари ва вазифалари ишлаб чиқилган. Барқарор ривожданишнинг муҳим элементлари ижтимоий адолатни таъминлаш, атроф-муҳитни ва экологияни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, барқорор ривожланишда балансни таъминлаш бухгалтерия ҳисобининг ҳам муҳим вазифаларига айланиши лозим. Барқарор ривожланишнинг муҳим шартларидан бири бу яшиллик ҳисобланади. Бу ўз навбатида яшил бухгалтерия ҳисобига ўтишни зарурият қилиб қўяди.

Яшил бухгалтерия ҳисобини ташкил қилишда қўйиладиган талаблар:

ташкилотлар ўз товар ва хизматлари экологик хавфсизлик талабларига жавоб беришини таъминлаши керак, Ҳар бир маҳсулот, иш ва хизматлар яшил иқтисодиёт талабларига мос бўлиши керак. Маҳсулотларга қўйиладиган биринчи талаб бу экологик талаб бўлиши керак. Ушбу мақсадда экологик аудит ва экологик назоратни ташкил этиш ва ривожлантириш талаб этилади;

15-сон МҲХСда ҳам ва миллий стандартларимизда ҳам товар иш ва хизматлардан тушган тушуни тан олишда маҳсулотларнинг яшил бухгалтерия талабларига жавоб бериши деган мезонни киритиш керак.

Яшил иқтисодиёт билан боғлиқ мажбуриятлар ва рисклар баҳоланиши ва бухгалтерия ҳисоботларида акс эттирилиши керак. Экологик талаблар ва яшил иқтисодиёт талабларини **“мажбурият туғдирувчи ҳодиса”** деб баҳоланиб, бухгалтерия ҳисобида экология бўйича мажбуриятларни тан олиниши керак.

МҲХСларининг асосий кўпчилиги 1972 йилдан кейин 2002 йилгача ишлаб чиқилган стандартлар ҳисобланади. Бу вақт оралиғида экологик муаммолар бугунги кунчалик долзарб бўлмаган, сунъий интеллект тушунчаси бўлмаган. Бизнинг фикримизча, МҲХСларни озиқ-овқат хавфсизлиги, яшил иқтисодиёт ва сунъий интеллект талабларидан келиб чиқиб янги таҳрирда ишлаб чиқиш зарурияти мавжуд деб ҳисоблаймиз.

Бугунги кунда молиявий ҳисобот яшил молиявий ҳисобот бўлиши керак.

ИККИНЧИ ЙЎНАЛИШ, РАҚАМЛИ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ.

Иккинчи йўналиш бу рақамли бухгалтерия ҳисобини йўналиши бўлиб ҳисобланади. Ўзбекистон инновацион иқтисодиётга ва рақамли иқтисодиётга босқичма-босқич ўтмоқда. Рақамли иқтисодиёт ягона ахборот базасига таянади, қайсики ушбу ахборотларнинг салмоқли қисми бухгалтерия ҳисобида шаклланади. Бошқарув тизимларининг ягона базада электрон интеграциялашуви рақамли иқтисодиётнинг асосий белгисидир. Бухгалтерия ҳисобининг ахборот базасининг шаклланиши МҲХСларга таянади. Шу боис, рақамли иқтисодиёт мамлакатимизда МҲХСга ўтишни зарурият қилиб қўйди. Шу боис, тўлиқ асосда айтиш мумкинки, МҲХСларига ўтиш рақамли иқтисодиётнинг муҳим ва ажралмас қисмидир. Бугунги кунда рақамли ҳисобот платформаларини ривожлантириш ва ҳисоб ва назорат жараёнларини автоматлаштириш долзарб масалага айланган. Рақамли иқтисодиёт бухгалтерларнинг ахборотларни шакллантириш борасидаги функцияси қисқаради. Молиявий таҳлил ва молиявий менежмент роли ошади. Лекин шу нарса аниқки, “Ҳеч бир дастур, сунъий ителлект мукаммал ҳисоб сиёсатини шакллантира олмайди, инсон тафаккури ўрнини боса олмайди.” Шу боис, рақамли иқтисодиёт шароитида бухгалтерларнинг асосий функцияси таҳлил ва молиявий менежмент бўлади. Лекин, **молиявий менежмент** фанини ўқитиш масалалари ҳали тўлиқ ўзининг ечимини топган эмас.

УЧИНЧИ ЙЎНАЛИШ, МҲХСЛАРИГА ЖАДАЛ ЎТИШ.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бугунги кунда энг долзарб мавзуга айланмоқда.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишининг зарурияти дунё бозорларига чиқиш, мамлакатимиз экспорт салоҳиятини юксалтириш, дунё хом-ашё ва валюта биржаларига котировка қилиш, дунё банкларидан кредит олиш учун компания ва ташкилотлар томонидан МҲХСга мувофиқ молиявий ҳисобот тузишни талаб этилиши билан белгиланади.

Ушбу устувор вазифани ҳал қилиш мақсадади МҲХСларни тўлиқ тизимли жорий қилинишини ҳамда бу борада кадрлар тайёрлашни тубдан яхшилашга қаратилган алоҳида қарор қабул қилинишига зарурият юзага келди. Шу муносабат билан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралда ПҚ-4611 **“Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”** Қарори қабул қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 сентябрдаги №282-сон **“Молиявий ҳисоб тизимини халқаро талаб ва стандартларга мувофиқ такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”** қарор бухгалтерия ҳисобини тараққий эттиришда янги босқични бошлаб берди.

ТЎРТИНЧИ ЙЎНАЛИШ, БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ТАЪЛИМ СОҲАСИНИ ХАЛҚАРО ДАРАЖАГА ОЛИБ ЧИҚИШ МАСАЛАСИ. Тиббиёт университетларида клиникасиз врачларни тайёрлаб бўлмаслиги каби, бухгалтерия ҳисоби соҳасини амалиёт билан узвий боғламасдан кадр тайёрлаш қийин. Шу боис, **дуал таълимни** самарали ташкил этиш учун:

-Вилоятдаги потенциал иш берувчиларнинг базаларида ўқув адуторияларини очишимиз керак;

-Вилоятдаги йирик ташкилотлардаги бухгалтерия хизматлари раҳбарлари, аутсорсинг ва аудит компаниялари мутахассислари, тижорат банклари, солиқ ва молия органлари, суғурта ташкилотларидаги етакчи мутахассисларни ўқув жараёнига жалб этишимиз керак;

Дарсликларимизда кўпроқ техник масалалар эмас, балки муомоли вазиятлар, объектларни тан олиш, баҳолаш, молиявий ҳисобот, молиявий ҳисобот таҳлили ва қарорлар қабул қилиш масалаларига эътибор қаратишимиз керак. Талаба амалий компетенциялар билан бир қаторда эркин фикрлаш, ўз қарашларига эга бўлиш, узоқни кўрган ҳолда қарорлар қабул қилиш фазилатларини шакллантиришимиз керак.

Кафедра ўқитувчилари томонидан Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари мазмунини ифода этадиган, ривожланган мамлакатларидаги университетлар тажрибалари асосида қуйидаги фанлардан дастурлар ва дарсликлар яратилди.

№	Фаннинг номи	Дарсликлар номи
1	Молиявий ҳисоб 1	Tashnazarov S.N., Po‘latov M.E., Eshpulatova Z.B., Tashnazarova D.S., Pashaxodjayeva D.D.,Raxmanova Yu.Sh., Eshonkulov A.K., Butunov Sh.B., Umarov J.B. MOLIYAVIY HISOB 1,2 (1-qism) [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “BUNYODKOR AVLOD MATBUOTI” MChJ nashriyoti, 2026 - 480 bet
2	Молиявий ҳисоб 2	S.N.Tashnazarov, B.F.Boronov, G.A.Djumaeva, F.Z.Yusupova, T.T.Sattorov, Sh.B.Butunov, Dj.Dj.Pashaxodjayeva, A.B.Ravshanov, D.G.Xudaynazarova, F.A.Nurniyozov. MOLIYAVIY HISOB 1,2 (2-qism) [Matn]: Darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “BUNYODKOR AVLOD MATBUOTI” MChJ nashriyoti, 2026 - 538 bet.

3	Молиявий ҳисоб асослари	S.N. Tashnazarov, D.Nematova, O.Narzullayeva Sh.B.Butunov, N.S.Toshnazarova, Moliyaviy hisob asoslari [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2026 – 256 bet.
4	Бошқарув ҳисобига кириш	S.N.Tashnazarov, G.A.Djumayeva, D.S.Tashnazarova. BOSHQARUV HISOBIGA KIRISH [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “BUNYODKOR AVLOD MATBUOTI” MCHJ nashriyoti, 2026 - 384 bet.
5	Банкларда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари	Tashnazarov S.N.,A.Axmedjanov va Z.Muxammadiev. Banklarda moliyaviy hisoboyning xalqaro standartlari. [Matn]: darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “BUNYODKOR AVLOD MATBUOTI” MChJ nashriyoti, 2026 - 880 bet.
6	Бошқарув ҳисобига кириш	M.Sh.Mardonov, E.A.Rabbimov. Boshqaruv hisobiga kirish: Darslik/. - Toshkent: Ideal Press, 2026. - 314b.
7	Бизнесда бухгалтерия ҳисоби	M.Sh.Mardonov, Z.A.Qodirov. Biznesda buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. /Toshkent: "IDEAL PRESS" nashriyoti, 2026.-344 bet.
8	Финансовый учёт 1	Ташназаров С.Н., Пулатов М.Э., Боронов Б.Ф., Пашаходжаева Д.Д., Эшпулатова З.Б., Ташназарова Д.С., Юсупова Ф.З., Рахманова Ю.Ш., Сатторов Т.Т., Пашаходжаева Дж.Дж., Худайназарова Д.Г., Нурниёзов Ф.А. Финансовый учёт 1,2 [1-часть]: учебник / Самаркандский институт экономики и сервиса. – Самарканд: Издательство ООО “STEP-SEL”, 2026. – 414 с.
9	Финансовый учёт 2	Ташназаров С.Н., Пулатов М.Э., Боронов Б.Ф., Пашаходжаева Д.Д., Эшпулатова З.Б., Ташназарова Д.С., Юсупова Ф.З., Рахманова Ю.Ш., Сатторов Т.Т., Пашаходжаева Дж.Дж., Худайназарова Д.Г., Нурниёзов Ф.А. **Финансовый учёт 1,2** [часть 2]: Учебник / Самаркандский институт экономики и сервиса – Самарканд.: Издательство ООО “STEP-SEL”, 2026 - 656 стр.
10	Бухгалтерия ҳисоби ахборот тизимлари	Б.Ф. Боронов. Бухгалтерия ҳисоби ахборот тизимлари [Матн]: Дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ. нашриёти, 2024 - 240 бет.
11	Информационная система бухгалтерского учета	Б.Ф. Боронов, Ш.Ш. Ражабоев, Д.Г.Худайназарова. Информационная система бухгалтерского учета [Текст]: Учебник / Самаркандский институт экономики и сервиса - Самарканд.: Издательство ООО «STAP-SEL», 2025 – 300 стр.
12	Biznesda buxgalteriya hisobi	Z.B.Eshpulatova. Biznesda buxgalteriya hisobi [Matn]: o‘quv qo‘llanma /Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2024 - 356 bet
13	Бухгалтерский учет в бизнесе	Бухгалтерский учет в бизнесе [Текст]: Учебное пособие /Самаркандский институт экономики и сервиса - Самарканд.: Издательство ООО «STAP-SEL», 2024 – 440 стр

Фанларимизнинг мазмунини белгилашда қийналаяпмиз. ТДИУ томонидан ишлаб чиқилган ўқув режани олдик, F1-F9 бўлган фанлар киритилган. Масалан, “Молиявий ҳисоб” деб белгиланган, “Бошқарув ҳисобига кириш”, “Бошқарув ҳисоби”.

биз университет таълимида битта фан бўлиши керак. Бу “Молиявий бухгалтерия ҳисоби” фани. Биз фанни мазмунини сертификатлаш талабларидан келиб чиқиб олмаслигимиз керак. Агар шундай ёндашсак сертификатлаш институтлари университетларнинг устидаги ташкилотларга айланиб қолади. Сертификатлаш институтлари олий таълимдаги дастурлардан олиш керак.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 24 февралдаги PQ-4611-son “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Қарорида “тажриба-синов олий таълим муассасаларида бухгалтерия ҳисоби ва аудит бўйича фанлар фақат халқаро сертификатлаш доирасида «МҲХС бўйича молиявий ҳисобот» ёки «АХС бўйича аудит» фанини муваффақиятли топширганлиги тўғрисида ҳужжатга ёхуд Сертификатланган халқаро профессионал бухгалтер (CIPA)», «Сертификатланган дипломли бухгалтер (ACCA)», «Сертификатланган жамоатчи бухгалтер (CPA)» ва «Халқаро молиявий ҳисобот бўйича диплом (DipIFR)» сертификатлардан бирига эга бўлган ўқитувчилар томонидан ўқитилиши кўзда тутилган эди. Бу борада ишларимиз суст кетаяпди. Ушбу ўқув йилида ҳар бир ўқитувчи кафолат хати ёзиб берди, сертификатлардан биронтасини оламан деб. Шунинг учун бу борада биргаликда ҳаракат қилишимиз керак**. “2026-2027 ўқув йилини профессор ўқитувчиларимизни халқаро профессионал сертификатлаштириш йили”** деб эълон қилсак бўлади.

Бухгалтерия ҳисобида МҲҲСлари ёки МҲМСларидан ташқари яна амал қилишимиз керак бўлган стандартлар бор. Буларга бухгалтер касб стандартлари ҳам мавжуд. Ҳозир Ўзбекистон бухгалтерларини сертификатлашлаш ассациацияси томонидан ишлаб чиқилмоқда. Яқинда Тошкентда анжуман бўлди, шунда мен ҳам қатнашдим. Бухгалтерларга 4 даражадан 7 даражагача бўлган малака талаблари, компетенциялари, билиши керак бўлган билимлар белгиланган. 4 даража бухгалтер ёрдамчиси техник ишлар, ҳужжатлаштириш, маълумот киритиш билан шуғулланадиган ходимдан 7 даража МҲХСлари даражасида молиявий ҳисоботни туза оладиган, таҳлил қила оладиган ва молиявий менедмент билан шуғулланадиган ҳодимлар киритилган. Таъкидлашим керак бўлган энг муҳим жиҳати шундан иборатки, касб стандартлари иаархия бўйича ўқув режа ва дастурлардан юқорида туради. Дастурларимиз касб стандартлари талабларидан келиб чиқади. Шунинг учун бу бўйича ҳам ўз таклифларимизни беришимиз керак бўлади.

HOZIRGI ZAMON LOGISTIKASINING MARKETING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Allayorov Hamdam Iris o'g'li - SamISI,
Logistika kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy logistika tizimlarining marketing samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Logistika va marketing integratsiyasining nazariy asoslari, tovar harakati tizimini optimallashtirish, transport logistikasining roli hamda strategik marketing nuqtai nazaridan logistika samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot natijasida logistika tizimini takomillashtirish marketing natijadorligini oshirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *logistika, marketing, marketing logistikasi, transport logistika, tovar harakati, taqsimot kanallari, samaradorlik.*

Аннотация: В статье анализируется влияние современных логистических систем на эффективность маркетинга. Освещены теоретические основы интеграции логистики и маркетинга, оптимизации системы товародвижения, роли транспортной логистики и эффективности логистики с точки зрения стратегического маркетинга. Исследование показало, что совершенствование логистической системы является важным фактором повышения эффективности маркетинга.

Ключевые слова: логистика, маркетинг, маркетинговая логистика, транспортная логистика, товародвижение, каналы сбыта, эффективность.

Abstract: This article analyzes the impact of modern logistics systems on marketing efficiency. The theoretical foundations of logistics and marketing integration, optimization of the commodity movement system, the role of transport Logistics and the effectiveness of logistics in terms of strategic marketing are covered. The study substantiates that improving the logistics system is an important factor in increasing marketing effectiveness.

Keywords: logistics, marketing, marketing logistics, transport logistics, product movement, distribution channels, efficiency.

Kirish. Bugungi globallashuv va institutsional iqtisodiyot sharoitida logistika tizimlari murakkablashib axborot oqimlarining tezkorligi va aniqligi ta'minot zanjiri barqarorligini belgilovchi asosiy omilga aylandi hamda raqamlashtirish va raqobatning keskin kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda korxonalar uchun faqat sifatli mahsulot ishlab chiqarish yetarli emas - uni iste'molchiga tez, arzon va ishonchli yetkazib berish ham muhim strategik omilga aylanmoqda. Strategik marketing konsepsiyasiga ko'ra, korxonaning muvaffaqiyati iste'molchilar ehtiyojlarini aniqlash va ularni samarali qondirishga bog'liq. Bu jarayonda logistika marketing faoliyatining ajralmas qismi sifatida maydonga chiqadi.

Bugungi kunda logistika nafaqat operatsion faoliyat, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida ham qaralmoqda. Shu sababli logistika va marketing o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Logistika - bu mahsulot, xizmat va axborot oqimlarini boshqarish tizimi bo‘lsa, marketing esa iste’molchi ehtiyojlarini aniqlash va qondirishga qaratilgan faoliyatdir. Ushbu ikki tizimning integratsiyasi korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi. Korxona raqobatda ustunlikka erishishi uchun nafaqat mahsulot sifati, balki tovar harakatini samarali tashkil etish va servis xizmatlarini rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aslida, zamonaviy marketing konsepsiyasi ham aynan tovar harakatini oqilona yo‘lga qo‘yish orqali iste’molchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga qaratilgan. Garchi nazariy jihatdan bu jarayon oddiydek tuyulsa-da, amaliyotda uni samarali yo‘lga qo‘yish raqobatda ustunlikka erishishda murakkab va muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda tovarlarni sotish samaradorligi nafaqat mahsulotning o‘ziga, balki uni yetkazib berish tezligi, joyi, sifati hamda nuqsonsiz holatda iste’molchiga yetib borishi kabi qo‘shimcha xizmatlarga ham bevosita bog‘liq. Ayniqsa, iste’mol madaniyati va talablari o‘zgarib borayotgan bugungi sharoitda inklyuziv iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun bunday xizmatlarni mahsulot tannarxiga qo‘shgan holda yoki bepul taqdim etish zarurati yuzaga keladi. Shuningdek, mahsulotning texnik ko‘rsatkichlari yoki yetkazib berish shartlarida farqlar kuzatilgan hollarda qo‘shimcha choralar ko‘rish ham talab etiladi. Bu kabi jarayonlar raqobatda muvaffaqiyat qozonishni istagan korxonalar uchun odatiy faoliyatga aylanib bormoqda.

Bundan tashqari, sotuvdan keyingi xizmatlarni tashkil etish muayyan qo‘shimcha xarajatlarni talab qiladi. Shu bois tovar harakatini samarali yo‘lga qo‘yishga qaratilgan strategiyani ishlab chiqishda, avvalo, iste’molchilarning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, ularning bozorda qanchalik darajada qondirilayotganini baholash hamda tovar harakati tizimini puxta rejalashtirish muhimdir. Tovar harakati jarayonida mavjud bo‘lgan qondirilmagan ehtiyojlarni aniqlash va inklyuziv iste’molchilarning xulq-atvorini o‘rganish marketing logistikasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tovar harakatini tashkil etish bo‘yicha kompleks choralarni ishlab chiqish orqali korxonalar minimal xarajatlar evaziga barcha tomonlar uchun qulay va samarali sharoitlarni yaratishga intiladilar. Aynan shu bosqichda tovarlarni taqsimlash kanallarini optimallashtirish masalasi hal etiladi. Tovar taqsimoti kanallarini optimallashtirish kelgusida bir qator muhim vazifalarni samarali hal etish imkonini yaratadi. Avvalo, bu jarayon maqsadli bozor segmentlarini aniq belgilash, ularning hajmi, sig‘imi hamda rivojlanish istiqbollarini xolis baholash imkonini beradi. Maqsadli bozorning iqtisodiy chegaralari uning ixtisoslashuvi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, korxona tomonidan hali o‘zlashtirilmagan segmentlar yoki iste’molchilar guruhlari iqtisodiy manfaat nuqtayi nazaridan ahamiyat kasb etmaydi. Shu bilan birga, marketologlar iste’molchilarning xulq-atvori va iste’mol odatlari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan holda mahsulot portfelini takomillashtirish yuzasidan asosli xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Logistikaning marketing samaradorligiga quyidagi yo‘llar orqali ta’sir ko‘rsatishini ko‘rib chiqishimiz mumkin (1-rasm).

Shuningdek, taqsimot kanallarini optimallashtirish korxonaning narx siyosati samaradorligini baholashda ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi, jumladan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarning ko‘payishi natijasida xarid qobiliyati mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, iste’mol narxlari indeksining nisbatan barqaror saqlanishi past narxlar strategiyasining har doim ham samarali emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, bunday yondashuv korxonalarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Demak, tovar harakatini takomillashtirish orqali puxta va samarali narx siyosatini shakllantirish muhim hisoblanadi.



1-rasm. Logistikaning marketing samaradorligiga ta’siri[169].

Bundan tashqari, sotishni rag‘batlantirishga qaratilgan kommunikatsiya kompleksini ishlab chiqish ham muhim vazifalardan biridir. Bu jarayon reklama, savdoni rag‘batlantirish va boshqa marketing vositalarini o‘z ichiga oladi.

Korxonaning mahsulot portfelini va tovar assortimentini tahlil qilish, boshqarish hamda samaradorligini baholash ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda assortimentni boshqarish mahsulot xususiyatlari, umumiy talab darajasi hamda foyda shakllanishi nuqtai nazaridan o‘rganilishi lozim. Bu esa tovar zaxiralarini optimal darajada ushlab turish va asosiy foyda keltiruvchi iste’molchilarni saqlab qolish imkonini beradi.

Raqobat muhiti kuchayib borayotgan sharoitda narx siyosatini chuqur tahlil qilish muhim omillardan biri hisoblanadi. Dastlabki bosqichlarda narx siyosati bozorga kirib borish, raqobatchilardan ustunlikka erishish va qisqa muddatli sotuv

[169] Nazariy ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

hajmini oshirishga qaratilgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu yondashuv sezilarli darajada o‘zgardi. Endilikda narx siyosati tovar harakatini samarali tashkil etish, muomala xarajatlarini kamaytirish va ilg‘or savdo texnologiyalarini qo‘llash asosida iste’molchilar uchun maqbul hamda korxona uchun raqobatbardosh narxlarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Tovarlarning moddiy oqimini tashkil etish va optimallashtirish ham muhim yo‘nalish hisoblanadi. Bu jarayon buyurtmalar hajmini, zaxiralar miqdorini aniqlash va ularni taqsimot kanallari bo‘yicha samarali joylashtirishni o‘z ichiga oladi. Moddiy oqimlarni boshqarish logistik modellar asosida amalga oshirilishi lozim bo‘lib, bu yuzaki yondashuvlardan voz kechib, ilmiy va amaliy asoslangan logistik yondashuvni talab qiladi. Haqiqatan ham, tovar harakatini samarali tashkil etish marketing logistikasi va logistik boshqaruvning zamonaviy uslublarini chuqur o‘zlashtirishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar. Ko‘rib chiqilgan yo‘nalishlar an’anaviy ravishda marketing faoliyatiga tegishli deb qaraladi va iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Biroq moddiy tovarlarning harakati va taqsimoti masalalariga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Aslida bu masala marketing kompleksining muhim elementi - “Place”, ya’ni taqsimot tizimi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli tovar harakatini takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish, uning metodologik asoslarini boyitish va tizimli tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki tovar harakati bilan bog‘liq xarajatlar mahsulot narxining sezilarli qismini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy logistika tizimlari marketing samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa:

- Tezkor yetkazib berish mijoz sodiqligini oshiradi;
- Xarajatlarni optimallashtirish narx siyosatini yaxshilaydi;
- Axborot tizimlari marketing qarorlarini tezlashtiradi;

Shu sababli, korxonalar logistika va marketingni yagona strategik tizim sifatida boshqarishlari zarur.Tovar harakatini aynan logistik tamoyillar asosida tashkil etish marketing logistikasining uslubiy asosini tashkil qiladi. Marketing logistikasining nazariy bazasi esa bozorni iqtisodiy tahlil qilish va marketing tadqiqotlariga asoslanadi. Shu bilan birga, jarayonlarning xususiyatidan kelib chiqib, texnik-iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy tahlil usullaridan ham keng foydalaniladi. Bu esa, bir tomondan, logistikaning tovar harakatidagi roli ortib borayotganini, ikkinchi tomondan esa ushbu yo‘nalishda ilmiy-uslubiy asoslarni yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cohen, S., Roussel, J. Strategic Supply Chain Management: The Five Disciplines for Top Performance / S. Cohen, J. Roussel. - New York: McGraw Hill, 2005. - 316 p.

2. Donald J. Bowersox, Devid J. Closs va M. Bixby Cooper “Supply Chain Logistics Management” 2008.

3. Keegan Sheila. Qualitative research: good decision making through understanding people, cultures and markets. Kogan Page Ltd 2009. 260 p.

4. Larson, Paul D., Poist, Richard F. and Halldorsson, Arni Perspectives on logistics vs. SCM: a survey of SCM professionals / Paul D. Larson, Richard F. Poist, Arni Halldorsson // Journal of Business Logistics. – 2007. - 28 (1). - 1-24 p.
5. Mentzer, J., Defining supply chain management / J. Mentzer // Journal of Business Logistics. – 2001. - 22(2). - 1–25 p.Donald J. Bowersox, Devid J. Closs va M. Bixby Cooper. Supply Chain Logistics Management. 2008.
5. Ergashxodjaeva Sh.J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik. – T.TDIU, 2011.-202 b.
6. Котлер Ф., Армстронг Г. Основы маркетинга. Профессиональноеиздаие, 12-е изд. Пер. с анг. – М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2009. – 1072 с. ISBN 978-5-8459-1466-8 (рус).
7. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Yusupov M.A., G'oyipnazarov S.B., Sharipov I.B. Marketing asoslari. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: «IQTISODIYOT», 2021. - 251 bet.

Axborot manbalari

1. http://www.mail.tdiu.uz – TDIU elektron kutubxonasi
2. http://www.el.tfi.uz – TMI elektron kutubxonasi
3. http://lex.uz– O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi
4. www.ziyonet.uz –ta'lim portali
5. http://www.elib.me – электронные учебники по маркетингу
6. http://www.alleng.ru – учебник, пособие, справочник по маркетинг.

MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR BO'YICHA TAKOMILLASHTIRISH

Toshnazarov Shaxzodjon Samiddinovich
Ernst & Young xalqaro kompaniyasining soliq xizmatlari bo'yicha katta konsultanti
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

E-mail: *shakhzodjon17@gmail.com* **ORCID:** https://orcid.org/0009-0001-1676-3032

Annotatsiya. Mazkur tezisda moliyaviy majburiyatlarni xalqaro standartlar asosida aniqlash, tasniflash, hisob siyosatida aks ettirish va moliyaviy hisobot izohlarida ochib berish masalalari tadqiq etilgan. Moliyaviy majburiyatlarning shartnomaviy mohiyati, ularni boshqa majburiyatlardan ajratish mezonlari, joriy va uzoq muddatli qismlarni to'g'ri guruhlash hamda analitik axborotning izchilligini ta'minlash yo'nalishlari yoritilgan. "Electric Vehicle Technology" korxonasining 2026-yil yanvar-avgust oylaridagi ma'lumotlari asosida moliyaviy majburiyatlar tarkibi amaliy jihatdan tahlil qilinib, ularni boshqarish va ochib berishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy majburiyatlar, moliyaviy instrumentlar, MHXS, IAS 32, IFRS 9, IFRS 7, tasniflash, analitik hisob, likvidlik riski, moliyaviy hisobot.

KIRISH

Moliyaviy majburiyatlar hisobi korxonaning to‘lov qobiliyati, likvidligi va moliyaviy barqarorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Kreditlar, qarz mablag‘lari, kreditorlik qarzlari va boshqa moliyaviy instrumentlar korxona faoliyatini moliyalashtirish manbalari bo‘lib, ular haqidagi axborot investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning iqtisodiy qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Moliyaviy majburiyatlarni hisobga olishda faqat qarzdorlik summasini aks ettirish yetarli emas. Majburiyatning iqtisodiy mazmuni, yuzaga kelish asosi, to‘lov muddati va u bilan bog‘liq moliyaviy risklar ham hisobga olinishi zarur. Moliyaviy majburiyatlarni boshqa majburiyatlardan ajratish, ularni joriy va uzoq muddatli qismlarga to‘g‘ri tasniflash hamda tegishli axborotni moliyaviy hisobot izohlarida ochib berish buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tezisda moliyaviy majburiyatlarni xalqaro standartlar asosida aniqlash, tasniflash, analitik hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobotda ochib berish masalalari tadqiq qilinadi. Tadqiqotning maqsadi moliyaviy majburiyatlar hisobidagi mavjud muammolarni aniqlash hamda hisob siyosati, analitik registrlar va moliyaviy hisobot izohlarini o‘zaro bog‘lashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadda, avvalo, moliyaviy majburiyatlarning iqtisodiy mohiyati va ularni boshqa majburiyatlardan ajratib turuvchi asosiy mezonlarni aniqlash lozim.

ASOSIY QISM

Moliyaviy majburiyatlarning iqtisodiy mohiyati ularning korxona bilan boshqa tomon o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqishi bilan belgilanadi. Bunday majburiyatlar korxonaning boshqa tomonga pul mablag‘i yoki boshqa moliyaviy aktivni yetkazib berish majburiyatini ifodalaydi. Shu jihatdan moliyaviy majburiyatlarni to‘g‘ri aniqlash, ularni boshqa majburiyatlardan ajratish va tegishli hisob obyektlari sifatida tasniflash moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta’minlashning dastlabki sharti hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning Konseptual asosida majburiyat korxonaning o‘tgan hodisalar natijasida iqtisodiy resursni uzatish bo‘yicha mavjud majburiyati sifatida tavsiflanadi. Mazkur ta’rif majburiyatning uchta muhim belgisini, ya’ni mavjud majburiyat, o‘tgan hodisa va iqtisodiy resursning chiqib ketishini birlashtiradi.

Biroq barcha majburiyatlar moliyaviy majburiyat hisoblanmaydi. Moliyaviy majburiyatni boshqa majburiyatlardan ajratishda uning shartnoma asosida yuzaga kelishi va hisob-kitob pul mablag‘i yoki boshqa moliyaviy aktiv orqali amalga oshirilishi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, yetkazib beruvchilar oldidagi kreditorlik qarzlari, bank kreditlari va olingan qarzlar moliyaviy majburiyat sifatida qaraladi. Soliq majburiyatlari va ayrim baholangan majburiyatlar esa bevosita shartnomaviy munosabatdan kelib chiqmasligi sababli boshqa turdagi majburiyatlar tarkibida hisobga olinadi.

IAS 32 “Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish” standartida moliyaviy majburiyat bilan xususiy kapital instrumentini farqlashda instrumentning huquqiy shaklidan ko‘ra uning iqtisodiy mazmuniga ustuvor ahamiyat beriladi. Korxonada

boshqa tomonga pul mablag‘i yoki boshqa moliyaviy aktivni yetkazib berish bo‘yicha shartnomaviy majburiyat mavjud bo‘lsa, bunday instrument moliyaviy majburiyat sifatida tasniflanadi. Mazkur standart moliyaviy instrumentlarni majburiyat yoki xususiy kapital sifatida taqdim etish hamda moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni o‘zaro hisobga olish tamoyillarini belgilaydi.

Ushbu yondashuv ustav kapitali, qaytarib sotib olinadigan ulushlar, qarz instrumentlari va o‘zida qarz hamda kapital belgilarini birlashtirgan murakkab instrumentlarni to‘g‘ri tasniflashda muhimdir. Shu sababli korxonaning hisob siyosatida moliyaviy majburiyatni xususiy kapital instrumentlari va nomoliyaviy majburiyatlardan ajratish mezonlari aniq bayon etilishi lozim.

IFRS 9 “Moliyaviy instrumentlar” standartiga ko‘ra, korxona moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyatni shartnoma shartlarining ishtirokchisiga aylangan paytda moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda tan oladi. Dastlabki tan olishda moliyaviy majburiyat haqqoniy qiymat bo‘yicha baholanadi. Foyda yoki zarar orqali haqqoniy qiymatda hisobga olinmaydigan moliyaviy majburiyatlarda ularning yuzaga kelishi bilan bevosita bog‘liq operatsion xarajatlar ham dastlabki qiymatda hisobga olinadi.

Mazkur talab moliyaviy majburiyatni hisobga olishni to‘lov amalga oshirilgan sanaga emas, korxonada shartnomaviy huquq va majburiyatlar vujudga kelgan sanaga bog‘laydi. Shuning uchun shartnomalar reyestri, birlamchi hujjatlar va bosh kitob ma’lumotlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bo‘lishi kerak. Shartnoma imzolangan sananing o‘zi har doim ham majburiyatni tan olish uchun yetarli bo‘lmaydi. Korxonada tegishli iqtisodiy hodisa sodir bo‘lishi va shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan majburiyat yuzaga kelishi zarur.

S.N. Tashnazarov va hammualliflar moliyaviy majburiyatlarni korxonalar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan qarz va majburiyatlar bilan bog‘lab, ularning shartnomaviy mohiyatini asosiy belgi sifatida ko‘rsatadilar. Mazkur yondashuv milliy hisob amaliyoti uchun muhim bo‘lib, moliyaviy majburiyatlarni shakliga ko‘ra emas, balki iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib guruhlash zaruratini asoslaydi.

Amaliyotda majburiyatlar bo‘yicha analitik hisob ko‘pincha hisobvaraq va kontragent kesimida yuritiladi. Bunda shartnoma turi, to‘lov muddati, valyuta, ta’minot, moliyalashtirish manbasi va majburiyatning joriy yoki uzoq muddatli qismi haqidagi ma’lumotlar yagona tizimda shakllantirilmasligi mumkin. Natijada shartnomalar reyestri, bosh kitob va moliyaviy hisobot izohlarida keltirilgan ma’lumotlar o‘rtasida tafovut yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

D. Coetsee majburiyat tushunchasining rivojlanishini o‘rganib, mavjud majburiyat va o‘tgan hodisa mezonlari moliyaviy hisobotning Konseptual asosida markaziy o‘rin tutishini qayd etadi. Ushbu ilmiy yondashuvdan kelib chiqib, majburiyatlarni hisobga olishda faqat kelgusida to‘lov amalga oshirilishi ehtimoliga emas, balki hisobot sanasida korxonada real majburiyat mavjudligiga e’tibor qaratish lozim.

Mazkur mezon baholangan va shartli majburiyatlarni moliyaviy majburiyatlardan ajratishda ham metodik aniqlik yaratadi. Baholangan majburiyatlarda majburiyatning summasi yoki bajarilish muddati bo‘yicha

noaniqlik mavjud bo‘lsa, shartli majburiyatlarda resurslarning chiqib ketishi kelgusidagi hodisalarga bog‘liq bo‘ladi. Moliyaviy majburiyat esa, odatda, taraflar o‘rtasidagi shartnomadan kelib chiqadigan aniq hisob-kitob majburiyatini ifodalaydi.

F.B. Uzoqova aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy majburiyatlar hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etib, milliy buxgalteriya hisobi me’yorlari bilan MHXS talablari o‘rtasidagi tafovutlarni ko‘rsatgan. Tadqiqotda moliyaviy majburiyatlarni tan olish va hisobda aks ettirish bo‘yicha xorijiy hamda mahalliy ilmiy qarashlar tahlil qilinib, moliyaviy majburiyatlar hisobini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur tadqiqot xulosalari moliyaviy majburiyatlar haqidagi axborotni faqat sintetik hisobvaraqlarda shakllantirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Moliyaviy majburiyatning iqtisodiy mazmunini ochib beruvchi qo‘shimcha analitik belgilar moliyaviy hisobotning axborot imkoniyatlarini oshiradi. Bunday belgilar majburiyatning turi, valyutasi, to‘lov muddati, moliyalashtirish manbasi va unga tegishli shartnoma shartlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Moliyaviy majburiyatlarni hisobot sanasida joriy va uzoq muddatli guruhlarga to‘g‘ri ajratish ham muhim hisoblanadi. Mazkur tasnif korxonaning aylanma mablag‘lari, likvidlik ko‘rsatkichlari va qisqa muddatli to‘lov qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Majburiyatning joriy yoki uzoq muddatli sifatida tasniflanishi faqat shartnomada ko‘rsatilgan dastlabki muddatga emas, balki hisobot sanasida mavjud bo‘lgan huquq va shartlarga asoslanishi lozim.

Uzoq muddatli majburiyatning kelgusi hisobot davrida to‘lanishi lozim bo‘lgan qismi joriy majburiyat tarkibida alohida ko‘rsatilishi kerak. Buning uchun korxona hisobot sanasida barcha muhim shartnomalar bo‘yicha to‘lov jadvallarini qayta ko‘rib chiqishi, joriy davrga tegishli summalarni aniqlashi va tegishli qayta tasniflash yozuvlarini amalga oshirishi zarur.

IFRS 7 “Moliyaviy instrumentlar: axborotni ochib berish” standarti moliyaviy instrumentlar bo‘yicha taqdim etiladigan axborot foydalanuvchilarga instrumentlarning korxona moliyaviy holatiga ta’siri hamda ular bilan bog‘liq risklarning xususiyati va ko‘lamini baholash imkonini berishini nazarda tutadi. Shu sababli moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha moliyaviy hisobot izohlarida ularning turlari, balans qiymati, shartnomaviy to‘lov muddatlari va tegishli moliyaviy risklar yoritilishi kerak.

Moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha axborotni ochib berish faqat qarzdorlik summalarini ko‘rsatish bilan cheklanmasligi lozim. Korxonaning moliyaviy risklarni boshqarish siyosati, to‘lovlarni rejalashtirish mexanizmi, moliyalashtirish manbalari va likvidlikni ta’minlash bo‘yicha qo‘llanilayotgan choralar ham bayon etilishi zarur. Bunday axborot investorlar va kreditorlarga korxonaning qarz yukini, kelgusidagi to‘lov ehtiyojini va moliyaviy barqarorligini to‘g‘ri baholash imkonini beradi.

“ELECTRIC VEHICLE TECHNOLOGY” KORXONASI MISOLIDA AMALIY TAHLIL

Tadqiqotning amaliy qismini shakllantirish uchun “Electric Vehicle Technology” korxonasining 2026-yil yanvar-avgust oylaridagi moliyaviy

ma’lumotlaridan foydalanildi. Tahlilda moliyaviy majburiyat xususiyatiga ega bo‘lgan yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlar, xorijiy valyutadagi qisqa muddatli qarzlar, hisoblangan foizlar hamda boshqa kreditorlik majburiyatlarining davr oxiridagi kredit qoldiqlari ajratib olindi.

1-jadval

“Electric Vehicle Technology” korxonasida tanlangan moliyaviy majburiyatlarning tarkibi

№	Majburiyat turi	Davr oxiridagi qoldiq, so‘m	Ulushi, %
1	Yetkazib beruvchilar va pudratchilar	13 195 561 952.91	45.6
2	Qisqa muddatli xorijiy valyutadagi qarzlar	14 633 525 200.00	50.6
3	Hisoblangan foizlar	548 714 120.50	1.9
4	Boshqa kreditorlik majburiyatlari	546 654 649.22	1.9

Manba: korxonaning 2026-yil yanvar-avgust oylari moliyaviy ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, tanlangan moliyaviy majburiyatlarning jami 28.92 mlrd so‘mni tashkil etadi. Uning eng katta qismini xorijiy valyutadagi qisqa muddatli qarzlar 14.63 mlrd so‘m (50.6 foiz) hamda yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlar 13.20 mlrd so‘m (45.6 foiz) bilan shakllantirgan. Hisoblangan foizlar va boshqa kreditorlik majburiyatlari tegishli ravishda 0.55 mlrd va 0.55 mlrd so‘mni tashkil etgan.

1-rasm.Korxonada tanlangan moliyaviy majburiyatlar tarkibi



Manba: korxonaning 2026-yil yanvar-avgust oylari moliyaviy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Mazkur tarkib korxonaning to‘lov majburiyatlari asosan ikki yirik manbada jamlanganini ko‘rsatadi. Shu bois yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarni shartnoma va valyuta kesimida nazorat qilish, xorijiy qarzlarning asosiy summasi hamda hisoblangan foizlarini yagona to‘lov jadvalida yuritish, shuningdek, hisobot sanasida majburiyatlarning joriy va uzoq muddatli qismlarini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Valyutadagi qarzlar bo‘yicha kurs o‘zgarishining to‘lov qobiliyatiga ta’sirini alohida monitoring qilish moliyaviy risklarni boshqarish sifatini oshiradi.

O‘rganilgan ilmiy va me’yoriy manbalar moliyaviy majburiyatlar hisobidagi asosiy muammo tegishli talablarning mavjud emasligida emas, balki ularning korxona hisob siyosati, analitik registrlari va moliyaviy hisobot izohlarida o‘zaro bog‘lanmagan holda qo‘llanishida ekanini ko‘rsatadi.

Amaliyotda majburiyatning turi va muddati buxgalteriya hisobining bir tizimida, shartnoma ma’lumotlari boshqa reyestrda, moliyaviy risklarga oid axborot esa hisobot tuzish jarayonida alohida shakllantirilishi mumkin. Ma’lumotlarning bunday tarqoq holda yuritilishi ko‘rsatkichlarning takrorlanishi, majburiyatlarning noto‘g‘ri tasniflanishi va moliyaviy hisobot izohlarida nomuvofiqliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha yagona analitik reyestr joriy etish taklif etiladi. Unda kontragent nomi, shartnoma raqami va sanasi, moliyaviy majburiyat turi, tan olish sanasi, hisob-kitob valyutasi, umumiy summasi, shartnomaviy to‘lov muddati, joriy va uzoq muddatli qismi, ta’minot mavjudligi, shartnomaning asosiy moliyaviy shartlari hamda moliyaviy hisobot izohlarida ochib berilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlar aks ettirilishi kerak.

Mazkur analitik reyestr bosh kitob, shartnomalar reyestri va moliyaviy hisobot izohlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlaydi. Shuningdek, ushbu hujjat moliyaviy majburiyatlarning to‘lov muddatlarini nazorat qilish, joriy va uzoq muddatli qismlarini ajratish hamda moliyaviy risklar bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtirish imkonini beradi.

Hisobot sanasida moliyaviy majburiyatlarni qayta tasniflash bo‘yicha ichki nazorat tartibini belgilash ham maqsadga muvofiq. Har bir muhim majburiyat bo‘yicha to‘lov muddati, hisob-kitobni kechiktirish huquqi, shartnoma shartlarining o‘zgarishi va majburiyatning joriy yoki uzoq muddatli guruhga mansubligi tegishli hujjatlar asosida qayta ko‘rib chiqilishi kerak.

Tasniflash natijalari analitik registrda qayd etilib, bosh kitobdagi qoldiqlar va moliyaviy hisobotning tegishli satrlari bilan solishtirilishi lozim. Ushbu nazorat jarayoni korxonaning likvidlik ko‘rsatkichlari haqqoniy shakllanishini ta’minlaydi hamda joriy majburiyatlarni uzoq muddatli majburiyatlar tarkibida noto‘g‘ri aks ettirish xavfini kamaytiradi.

Moliyaviy majburiyatlar monitoringini buxgalteriya axborot tizimiga integratsiya qilish hisobni takomillashtirishning yana bir muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Axborot tizimi to‘lov muddati yaqinlashganda avtomatik ogohlantirish berishi, majburiyatlarni muddat va valyuta kesimida guruhlashi, joriy

va uzoq muddatli qismlarni aniqlash uchun nazorat hisobotlarini shakllantirishi hamda moliyaviy hisobot izohlari uchun zarur ma’lumotlarni yig‘ishi lozim.

Avtomatlashtirish buxgalterning professional mulohazasini almashtirmaydi. Aksincha, axborot tizimi mutaxassisga tasniflash va axborotni ochib berish bo‘yicha asoslangan qaror qabul qilish uchun to‘liq, o‘z vaqtida va izchil ma’lumot tayyorlab beradi. Natijada moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha operatsiyalarni nazorat qilish tezlashadi va hisobot tayyorlash jarayonida qo‘lda bajariladigan takroriy amallar kamayadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari moliyaviy majburiyatlar hisobini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish majburiyatni to‘g‘ri aniqlashdan boshlanib, uni tasniflash, hujjatlashtirish, nazorat qilish va moliyaviy hisobotda ochib berishgacha bo‘lgan yagona jarayonni qamrab olishi kerakligini ko‘rsatdi. Moliyaviy majburiyatning shartnomaviy xususiyati, hisob-kitob shakli va iqtisodiy mazmuni korxonaning hisob siyosatida aniq mezonlar bilan mustahkamlanishi zarur.

“Electric Vehicle Technology” korxonasi misolida o‘tkazilgan tahlil nazariy takliflarning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Xususan, yetkazib beruvchilar oldidagi qarzlar, xorijiy valyutadagi qisqa muddatli qarzlar va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni yagona analitik reyestrda birlashtirish to‘lov muddatlarini nazorat qilish, valyuta va likvidlik risklarini baholash hamda moliyaviy hisobot izohlarini shakllantirish uchun zarur axborotni tizimlashtirish imkonini beradi.

Birinchidan, korxonaning hisob siyosatida moliyaviy majburiyatni xususiy kapital instrumenti, baholangan majburiyat, shartli majburiyat va boshqa nomoliyaviy majburiyatlardan ajratish mezonlarini belgilash taklif etiladi. Bunda shartnomaning mavjudligi, boshqa tomonga pul yoki moliyaviy aktivni berish majburiyati hamda instrumentning iqtisodiy mazmuni asosiy mezon sifatida qo‘llanishi lozim.

Ikkinchidan, moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha yagona analitik reyestr joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur reyestrda shartnoma, kontragent, majburiyat turi, valyuta, umumiy summa, to‘lov muddati, joriy va uzoq muddatli qism, ta’minot hamda moliyaviy hisobotda ochib berilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlar aks ettirilishi kerak.

Uchinchidan, hisobot sanasida moliyaviy majburiyatlarning joriy va uzoq muddatli tasnifini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha ichki nazorat amaliyotini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi. Tasniflash natijalari shartnoma hujjatlari bilan asoslanishi va bosh kitob hamda moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan solishtirilishi zarur.

To‘rtinchidan, IFRS 7 talablaridan kelib chiqib, moliyaviy majburiyatlarning shartnomaviy to‘lov muddatlari, valyutalar tarkibi, moliyalashtirish manbalari, likvidlik riski va risklarni boshqarish siyosati bo‘yicha axborotni moliyaviy hisobot izohlarida izchil ochib berish lozim.

Beshinchidan, moliyaviy majburiyatlar monitoringini buxgalteriya axborot tizimiga integratsiya qilish, to‘lov muddatlari va tasniflash mezonlari bo‘yicha avtomatik nazorat hisobotlarini shakllantirish taklif etiladi. Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi moliyaviy majburiyatlar hisobining shaffofligi,

taqqoslanuvchanligi va nazorat qilinishini oshiradi hamda moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun ishonchli axborot shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Coetsee D. The Underlying Concepts of the Definition of a Liability in Financial Reporting: A Doctrinal Research Perspective. *South African Journal of Accounting Research*. 2021. Vol. 35, No. 1. P. 20-41. DOI: 10.1080/10291954.2020.1742458.
2. International Accounting Standards Board. *Conceptual Framework for Financial Reporting*. London: IFRS Foundation, 2018.
3. International Accounting Standards Board. *IAS 32 Financial Instruments: Presentation*. London: IFRS Foundation, 2026 edition.
4. International Accounting Standards Board. *IFRS 7 Financial Instruments: Disclosures*. London: IFRS Foundation, 2026 edition.
5. International Accounting Standards Board. *IFRS 9 Financial Instruments*. London: IFRS Foundation, 2026 edition.
6. Tashnazarov S.N., Boronov B.F., Djumaeva G.A. va boshq. *Moliyaviy hisob 1,2. 2-qism: darslik*. Samarqand: “BUNYODKOR AVLOD MATBUOTI” MChJ, 2026. 538 b. ISBN 978-9910-5267-9-4.
7. Uzoqova F.B. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy majburiyatlar hisobini tashkil etish amaliyoti. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. 2025. Vol. 3, № 12. 29-33-b. DOI: 10.5281/zenodo.18230859.

KIChIK BIZNES SUB’EKTLARIGA TATBIQ ETILAYOTGAN SODDALAShTIRILGAN SOLIQ REJIMINING SAMARADORLIGI

Babaev Farrux Mansurovich
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda kichik biznes sub’ektlariga tatbiq etilayotgan soddalashtirilgan soliq rejimining samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinib, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, soliq, soddalashtirilgan soliq rejimi, aylanmadan olinadigan soliq, qo‘shilgan qiymat solig‘i, soliq yuki.

Kichik biznes sub’ektlari har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, ular bandlikni ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2020–2024-yillar davomida sezilarli darajada o‘zgarib turdi va ayrim hududlarda bu ko‘rsatkich barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etdi. Shu bois, davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, xususan, ularga nisbatan soddalashtirilgan soliq rejimini qo‘llash orqali soliq yukini kamaytirish va

ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

2026-yil 26-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-100-son Farmoni qabul qilinib, unda kichik biznes sub’ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, ularni soni ko‘paytirish uchun yanada qulay iqtisodiy va ma’muriy shart-sharoitlar yaratish, soliq rejimini yanada qulaylashtirish hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’muriyatchiligini soddalashtirish orqali aylanmalarni ochiqlash va biznesning o‘sishini rag‘batlantirish asosiy maqsad etib belgilangan. Mazkur Farmon kichik biznes sub’ektlariga tatbiq etilayotgan soddalashtirilgan soliq rejimining samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Soddalashtirilgan soliq rejimining samaradorligini baholashda avvalo uning asosiy parametrlari — aylanma chegarasi, soliq stavkalari va ma’muriy tartib-taomillarga e’tibor qaratish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-100-son Farmoniga muvofiq, 2026-yil 1-iyundan boshlab kichik biznes sub’ektlarining umumiy soliq rejimiga o‘tishidagi chegaraviy miqdor 1 milliard so‘mdan 12 ming bazaviy hisoblash miqdoriga (BHM)ga oshirildi. Mazkur o‘zgarish avvallari aylanmasi 1 milliard so‘mdan oshganda umumiy soliq rejimiga o‘tishga majbur bo‘lgan ko‘plab kichik biznes sub’ektlari uchun soddalashtirilgan rejimda uzoqroq faoliyat yuritish imkonini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, buxgalteriya xarajatlarini kamaytirish va soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq ma’muriy yuklarni yengillashtirishga xizmat qiladi.

Soddalashtirilgan rejimning yana bir muhim jihati — savdo, xizmat ko‘rsatish va umumiy ovqatlanish sohalarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun ixtiyoriy 6 foizli qo‘shilgan qiymat solig‘i rejimining joriy etilishidir. Ushbu rejimda tadbirkorlar 6 foiz stavkada QQS to‘lab, foyda solig‘idan ozod etiladilar va soliq hisobotini taqdim etish majburiyatidan xalos bo‘ladilar. Ixtiyoriy 6 foizli QQS rejimining joriy etilishi aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, u soddalashtirilgan soliq rejimi bilan umumiy soliq rejimi o‘rtasida «silliq» o‘tish bosqichini yaratadi.

Soddalashtirilgan soliq rejimining samaradorligini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun uning miqdoriy ko‘rsatkichlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Soliq qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda soliq yuki sezilarli darajada kamaytirildi: QQS stavkasi 20 foizdan 12 foizga, dividendlar bo‘yicha soliq 10 foizdan 5 foizga tushirildi, davlat maqsadli jamg‘armalariga ajratmalar bekor qilindi. Kichik biznes uchun soddalashtirilgan soliq rejimi joriy etilib, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foizgacha pasaytirildi. Bu chora tadbirkorlik faoliyatini qonunlashtirish va rivojlantirishni rag‘batlantirishda muhim omil bo‘ldi.

Ma’muriy yuklarning qisqartirilishi ham soddalashtirilgan rejim samaradorligining muhim tarkibiy qismidir. PF-100-son Farmoniga muvofiq, past xavf darajasiga ega tadbirkorlar uchun QQSning salbiy farqini avtomatik ravishda qaytarish, bank hisob raqamlarini ochish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda hisobot yuklamalarini qisqartirish choralari ko‘rildi. Bundan tashqari, soliq xavfi

past bo‘lgan holatlarda ortiqcha tekshiruvlarni cheklash, tadbirkorlarga xatolarni mustaqil tuzatish imkonini berish hamda soliq ma’muriyatchiligini yanada shaffof va raqamli tizimga o‘tkazish choralari belgilandi. Bu kabi chora-tadbirlar kichik biznes sub’ektlarining ma’muriy yuklarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Soddalashtirilgan soliq rejimining ijobiy samaralari qatoriga biznes faoliyatining legallashtirilishini ham kiritish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aylanmadan olinadigan soliq stavkasining 1 foizgacha pasaytirilishi va soddalashtirilgan tartib-taomillarning joriy etilishi natijasida ko‘plab tadbirkorlar faoliyatini rasmiylashtirishga intilmoqda. Bu esa soliq bazasining kengayishiga va davlat budjeti daromadlarining oshishiga olib keladi. Soliq qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, faqat 2025-yilda biznesga 21,6 trillion so‘m miqdorida QQS qaytarildi, bu esa korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirish imkonini berdi. Shuningdek, 700 dan ortiq soliq imtiyozlari mavjud bo‘lib, ulardan 156 mingdan ziyod soliq to‘lovchi 119,1 trillion so‘m miqdorida foydalangan.

Biroq soddalashtirilgan soliq rejimining samaradorligini baholashda ba’zi muammolarga ham e’tibor qaratish lozim. Xususan, hududlar o‘rtasida kichik biznesning rivojlanishida sezilarli nomutanosibliklar mavjudligi tadqiqotlarda qayd etilgan. Ayrim viloyatlarda kichik biznes ulushining barqaror o‘sishi kuzatilgan bo‘lsa, boshqa hududlarda pasayish tendensiyasi qayd etilgan. Bu esa soddalashtirilgan soliq rejimining hududiy jihatdan differensiallashtirilgan yondashuvni talab qilishini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tahlil natijasi kichik biznes sub’ektlariga tatbiq etilayotgan soddalashtirilgan soliq rejimining samaradorligini baholash bo‘yicha quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-100-son Farmoni bilan aylanma chegarasining 1 milliard so‘mdan 12 ming BHMga oshirilishi kichik biznes sub’ektlari uchun soddalashtirilgan rejimda uzoqroq faoliyat yuritish imkonini yaratdi. Bu esa soliq yukining keskin ortishidan saqlanish va biznesning barqaror o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, savdo, xizmat ko‘rsatish va umumiy ovqatlanish sohalari uchun ixtiyoriy 6 foizli QQS rejimining joriy etilishi soddalashtirilgan va umumiy soliq rejimlari o‘rtasidagi «chegara samarasi» muammosini hal qilishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. Ushbu rejim tadbirkorlarga soliq yukini rejalashtirish va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish imkonini beradi.

Uchinchidan, ma’muriy yuklarning qisqartirilishi, jumladan, QQSni avtomatik qaytarish mexanizmlarining joriy etilishi, bank hisob raqamlarini ochish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va soliq hisoboti yuklamalarining kamaytirilishi kichik biznes sub’ektlarining faoliyatini yengillashtirishga xizmat qilmoqda.

To‘rtinchidan, aylanmadan olinadigan soliq stavkasining yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun 1 foizgacha pasaytirilishi tadbirkorlik faoliyatini legallashtirish va soliq bazasini kengaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, soddalashtirilgan soliq rejimining samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. **Hududiy differensiatsiyani kuchaytirish.** Kichik biznes rivojlanishida hududiy nomutanosibliklarni inobatga olgan holda, ayrim viloyatlar uchun soddalashtirilgan soliq rejimining qo‘shimcha imtiyozlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

2. **Raqamli xizmatlarni kengaytirish.** Soliq ma’muriyatchiligini yanada raqamlashtirish, xususan, onlayn hisobot topshirish va avtomatik qaytarish tizimlarini takomillashtirish orqali ma’muriy yuklarni yanada kamaytirish mumkin.

3. **Monitoring tizimini takomillashtirish.** Soddalashtirilgan soliq rejimining samaradorligini muntazam baholab borish uchun maxsus monitoring tizimini joriy etish va uning natijalari asosida siyosatni korreksiyalash lozim.

4. **Tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshirish.** Soddalashtirilgan soliq rejimidan samarali foydalanish uchun tadbirkorlarga soliq qonunchiligi bo‘yicha maslahat va o‘quv xizmatlarini kengaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda kichik biznes sub’ektlariga tatbiq etilayotgan soddalashtirilgan soliq rejimi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, soliq yukini kamaytirish va ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish borasida ijobiy natijalar ko‘rsatmoqda.

SAVDO XIZMATLARI TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

O.A.Abdug‘aniev
SamISI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada savdoning tarixiy rivojlanishi, savdo tarmog‘i va savdo xizmatlari kabi tushunchalarning nazariy masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat, xizmat ko‘rsatish, savdo, savdo xizmatlari, infratuzilma.

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida xizmatlar sohasining YaIM tarkibidagi ulushiga katta ta’sir ko‘rsatuvchi tarmog‘idan biri sifatida savdo xizmatlarining dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti barqarorligini ta’minlashdagi roli ortib bormoqda. “Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda savdo xizmatlari hajmi o‘rtacha o‘sish sur’ati 21,7 foizni, rivojlanayotgan mamlakatlarda 13,5 foizni, rivojlanish indeksi quyi mamlakatlarda 2,8 foizni tashkil etmoqda”[170].

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini shakllantirishda uning yetakchi tarmoq va sohalarini modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari qatorida savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljalangan Yangi O‘zbekistoning taraqqiyot strategiyasida “**Respublika**

[170] https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=TIVA_2018_C1

hududlarida savdo va yo‘l bo‘yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo‘l bo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko‘rsatish ob’ektlarini tashkil etish”[171] vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlashda, savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarni belgilashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar O‘zbekiston iqtisodiyotining boshqa sohalari singari xizmatlar sohasini, shu jumladan savdo xizmatlarini ham ustuvor darajada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu sababli mamlakatimizni modernizatsiya qilish sharoitida **savdo xizmatlarini rivojlantirish** ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyot har qanday jamiyatning moddiy asosi bo‘lib, ma’lum bir tarixiy taraqqiyot davriga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va tovar-pul munosabatlarini o‘z ichiga oladi. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi savdoning ixtisoslashishiga va pul muomalasining vujudga kelishiga asos bo‘ldi.

Tovarlar xaridorlarga ishlab chiqarish korxonalari, vositachilik tashkilotlari omborlari(ulgurji savdo), firma va chakana savdo do‘konlari orqali sotiladi.

Savdo tarmog‘i iste’mol tovarlari assortimentining shakllanishida qatnashadi, xaridorlarga tovarlarning sifat ko‘rsatkichlari to‘g‘risida axborotlar beradi, shuningdek, tovarlarni saqlash va ularga qo‘shimcha ishlov berish, tovarlar narxini o‘rnatish, iste’molchilari bilan oldi-sotdi sharnomasini amalga oshirish va boshqa vazifalarni bajaradi.

Savdoning asosiy vazifasi – iste’molchilarga xizmat qilish hisoblanadi. Bugungi kunda xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari alohida ahamiyat kasb etib o‘z o‘rniga ega. Shunday ekan bizlar savdo xizmatlari bilan bog‘liq tushunchalarga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Eng qadimiy xizmat turlaridan biri savdo xizmati hisoblanadi[172]. O‘rta Osiyo savdogarlari Xitoydan ajoyib san’at asarlari, xalq amaliy san’atining durdonalari, bezak va taqinchoqlar bilan qaytganlar. Moddiy va ma’naviy boyliklar bilan ayirboshlash o‘sha davrda bu ikki mamlakat taraqqiyotiga ajoyib ta’sir ko‘rsatgan. Savdo xizmatini bexovotir bo‘lishini tashkil qilish ayniqsa, Temur va temuriyzodalar davrida o‘ziga xos mohiyat kasb etdi. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur davrida Mag‘ribdan savat to‘la tilloni boshiga qo‘ygan juvon, Mashriqqacha bexavotir borishi uchun xavf- xatar bo‘lmasligi haqida yozib qoldiradi.

Hofizu Abro‘ o‘zining “Geografiya” asrida bizning Turonzaminda ayniqsa, Movorounnahrda savdo va savdo xizmati uchun keng imkoniyatlar yaratib berilganligi haqida qiziqarli ma’lumotlar beradi. “(Movorounnahr yer yuzidagi barcha mamlakatlar ichida noz-ne’mat eng ko‘p joy sanaladi. Iqlimi sog‘lom. Ul

[171] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

[172] Каримов С. “Ижтимоий хизмат кўрсатиш соҳаси тарихидан” // – “Хизмат кўрсатиш соҳаси тармоқларини ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги республика анъанавий илмий-амалий анжумани материаллари Самарқанд 2015 йил, 18-21 декабр, 21-26 бетлар.

diyorda ocharchilik va vabo kamdan-kam holardagina bo‘ladi. Agar ahyon-ahyonda ekinlarga biror zarar tegib qolgan tag‘dirda ham, ularni o‘tkan yilda yig‘ib qo‘ygan zahiralari shunchalik ko‘p bo‘ladiki, yana bir yildan ortiq muddatga ham yetadi. Ul mamlakatda turli navdagi mevalar farovon erur. Movorounnahrning tog‘larida pista usadi. Movorounnahr aholisining ot-ulov va chorva mollari ko‘p. Umamlakatda tuya junidan juda chiroyli katmon tayyorlaydilarkim, undayini butun dunyoda hech bir joyda tayyorlay olmmaydilar; barcha iqlimlarga shu yerdan olib ketadi”, deb yozadi Hofizu Abro‘.

O‘rta asr tarixchilarining xabar berishicha, ayniqsa, savdo sotiq ishlarida So‘g‘diyona savdogarlari don chiqarganlar. Shu ma’noda Xitoylik mualliflarning qo‘yidagi guvohligi diqqatga sazovordir: “(So‘g‘dyonalik) erkaklar yigirma yoshga to‘lishlari bilan qo‘shni mamlakatlarga oshiqadilar va (savdo –sotiqda) qaerda(qulaylik) va manfaat bo‘lsa (albatta), u yerga qadam ranjida etadilar, deb yozib qoldirganlar.

O‘rta asrlarning yirik tarixiy asari bo‘lgan “Tarixnomai Tabari” asrida yozilishicha, So‘g‘diyona, Farg‘ona, Xorazm, Baqtriya (Tohariston) kabi viloyatlarda dehqonchilik, hunarmandchilik, quruvchilik, savdo-sotiq, konchilik kabi sohalar ilk o‘rta asrlar davridayoq taraqqiy etganligi haqida xabar beradi. Dehqonlar mavjud suv resurslari hamda lalimikor yerlar imkonlaridan foydalanib, bug‘doy, arpa, sholi, mosh, tariq, nuxot, qovun, tarvuz kabi usimliklardan yuqori hosil olganlar. Paxtachilik, pillachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik kabi sohalar ham o‘tgan asrlar kabi munosib darajada o‘sib borganligini qayd etadi. O‘rta asr tarixchilari bu yerda yetishtiriladigan paxtaning yuqori sifat darajasini ta’kidlasa, boshqa bir yerda uzumchilik, xususan, vinochilik borasidagi mirishkorlar tajribasiga tahsinlar o‘qiladi. Bog‘dorchilikka ham xuddi shu qabilda. Shaftoli, o‘rik, olchaning bir necha turlari, yong‘oq, pista, bodom va boshqa qator meva navlaridan ham sifatli ham yuqori hosil olingan. Yo manbaa tili bilan aytganda “mevali daraxtlar savlat to‘kib turgan”. Chunonchi, ajnabiylarni Samarqandning “Tillo shaftolisi” lol qoldirgaligini yuqorida ta’kidlangan asarda yozib qoldirgan.

Tarixchi mutafakkirlar ichida faqat Hofizu Abro‘gina Movorounnahrning savdo xizmatini ta’riflashda mujassam, puxta ta’rif bera olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi, chunki mazkur asarida Hofizu Abro‘. “Movorounnahr ulkasi Turkistonning bandargohidir, tulki, suvsar va olmaxon teri -mo‘ynalarini ko‘pincha shu yerga olib keladilar va u yerdan turli iqlimlarga olib ketadilar deb ta’kidlab yozadi.

Savdo sohasi va xizmatini to‘g‘ri tashkil qilish saltanatning iqtisodiy poydevorlaridan bir ekanligi va xalq farovonligini ta’minlashning asosiy sharti ekanligini sohibqiron Amir Temurning o‘z o‘limi oldidan farzandlariga va Boburmirzoning o‘z o‘g‘li Xumoyinga qoldirgan vasiyatnomalarida ham uchratish mumkin. Amur Temur o‘z farzandlariga vasiyat qila turib, “Men shundan taskin topamanki, podsholik davrimda kuchlilarning ojizlarga ozor berishlariga yo‘l qo‘ymadim. Xalqlar osoyishtaligi borasida qaram fuqarolardan xabardor bo‘lib turinglar, qat’iyatli va mardonovor bo‘linglar”, deb yozgan bo‘lsa, Bobur o‘z Vasiyatnomasida har xafta ikki marta bozorlarni taftish qilib savdodan va savdo xizmatchilari xolidan xabardor bo‘lib turishni ta’kidlagan.

Iqtisodiy adabiyotlarda savdo xizmatlari bilan bog‘liq bir qator tushunchalar keltirilib, turlicha talqin etilgan va unga nisbatan turlicha yondashuvlar borligini ko‘rish mumkin (1-jadval).

Lea Kardosh tomonidan keltirilgan ta’rifda savdo xizmati tushunchasiga faqatgina insondan-insonga (sotuvchidan-xaridorga) yo‘naltirilgan harakat sifatida tor ma’noda ta’rif berilgan.

Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida esa “savdo xizmati” tushunchasining mazmun mohiyati o‘zgardi. Professor B.Abdukarimov “savdo xizmati” tushunchasiga keng ma’noda qarab, “savdo – xizmatning alohida turi bo‘lib u **bir tomondan** ishlab chiqaruvchilarga xizmat qiladi, **ikkinchi tomondan** iste’molchilarga, **uchinchi tomondan** Davlatga xizmat qiladi va **to‘rtinchidan** u boshqa iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga ham xizmat ko‘rsatadi, ularni xizmatlaridan iste’molchi sifatida foydalanadi va ular bilan aloqada bo‘ladi”[173], deb aytib o‘tganlar.

1-jadval

Savdo xizmatlari bo‘yicha olimlarning fikrlari

Mualliflar	**Tushunchaning mazmuni**
Lea Kardosh[174]	“**Savdoda xizmat ko‘rsatish** - bu bir tomondan bevosita insondan-insonga yo‘naltirilgan, xaridorlarga xizmatlar taklif etish va xizmatlar ko‘rsatishdir”.
N.I.Ushakova[175], Yu.A.Avanesova[176]	“**Savdoda xizmat ko‘rsatish** – bu xaridorlarga chakana savdo orqali tovarlarni sotish va xizmatlar ko‘rsatishdan iborat savdoning yakuniy funksiyasidir”.
Yu.A.Yelagin., T.I.Nikolaeva[177]	“**Savdoda xizmat ko‘rsatish –** o‘zida “savdoda xizmat ko‘rsatish sifati”, “savdo madaniyati”, “xizmat ko‘rsatish madaniyati” va “xizmat ko‘rsatish darajasi” kabi tushunchalarni mujassam etib, bu tushunchalarning o‘zagini xaridorlarga g‘amxo‘rlik, ya’ni ko‘pgina qulayliklar bilan savdoda barcha zarur narsalarni kam vaqt sarflab olishdir”.
G‘.X.Maxmatqulov[178]	**Savdo xizmatlari** – bu sotuvchi va xaridor manfaatlari kesishish nuqtasida sodir bo‘luvchi jarayon, iste’molchi tomonidan ehtiyojni qondirish, xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan daromad topish maqsadlarining mushtarakligi asosida harakatga keluvchi faoliyat, mulkga huquqiy egalik maqomini o‘zgartiruvchi vosita, iqtisodiyot tarmoqlarini hamda o‘zini-o‘zi rivojlantirish xususiyatiga ega omil, jami insoniyatga tegishli innovatsion rivojlanuvchi ixtirosi,

[173] Абдукаримов Б.А. «Ички савдо иқтисодиёти». Дарслик.-Т.: “Иқтисод-молия”, 2010. 42 б.
[174] Кардош Л. Этика в торговле. Сокращенный перевод с венгерского на русский язык, предисловие и оформление, «Экономика», 1985. 62 с.
[175] Ушакова Н.И., Белфй А.Б. Социально-экономическая эффективность торговли: критерии и показателей. – М.: Высш. Школа, 2009. 125 с.
[176] Аванесова Ю.А. и др. Организация торговли. Учебник. – М.: Экономика, 2003. 437 с.
[177] Елагин Ю.А., Николаева Т.И. Технология и коммерческая деятельность. Учебное пособие – Екатеринбург. Издательство Урал.Гос. Экон. Ун-та, 2003. 134 с.
[178] Maxmatqulov G‘.X. Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati, Urganch. UrDU, 2023. 11 b.

	hamda ularning madaniy hayotini, ma’naviy ruhiyatini shakllantirishda ishtirok etuvchi millatlararo milliy qadriyatlardan biridir.
N.T.Sattarova[179]	**Savdo xizmati -** sotuvchi va iste’molchi o‘rtasidagi oldi-sotdi munosabatlari natijasida aholini tovarlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan xizmat ko‘rsatishdagi iqtisodiy munosabatlar majmuini o‘z ichiga olgan faoliyatdan iborat.
Z.S.Artikov[180]	**Savdo xizmati deganda**, malakali sotuvchilar tomonidan xaridorlarga ularning ehtiyojlarini qondiradigan tovarlarni sotib olguniga qadar, sotish jarayonida va sotib olganidan keyingi davrda ko‘rsatiladigan yuqori darajadagi iqtisodiy faoliyat natijasi tushuniladi.
U.N.Normurodov, Z.K.Raximov, E.Sh.Shavqiev[181]	**Savdo xizmati tushunchasi** “sifatli savdo xizmati”, “savdo madaniyati”, “madaniyatli savdo xizmati”, “xizmat darajasi” kabi tushunchalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bularning barchasi xaridorga g‘amxo‘rlik qilish degan ma’noni aks ettiradi.

O‘ylaymizki, ushbu ta’rif mazkur tushunchaning mazmunini to‘liq qamrab oladi. **Birinchidan**, savdo xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida asosiy sub’ekt bo‘lib inson hisoblanadi. **Ikkinchidan** savdo xizmatlari bir shaxsdan ikkinchi shaxsga ko‘rsatiladi. Shuningdek, **uchinchidan**, bu xizmatlar ham boshqa xizmatlar singari odamlar mehnati bilan amalga oshiriladi. Bularning hammasi pirovardida mehnat (jonli va jonsiz) majmuini tashkil qiladi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, mazkur ta’rif savdo xizmatlarining mazmunini o‘zida to‘liq ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2022.
3. Abdukarimov B.A. «Ichki savdo iqtisodiyoti». Darslik.-T.: “Iqtisod-moliya”, 2010.
4. Аванесова Ю.А. и др. Организация торговли. Учебник. – М.: Экономика, 2003.
5. Artikov Z.S. Savdo xizmatini takomillashtirish orqali aholi hayot darajasi va sifatini oshirish yo‘llari. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, Samarqand. SamISI, 2020.

[179] Sattarova N.T. O‘zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand. SamISI, 2023. 12-b.

[180] Артиков.З. С. Савдо хизматини такомиллаштириш орқали аҳоли ҳаёт даражаси ва сифатини ошириш йўллари. И.ф.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати, Самарқанд. СамИСИ, 2020. 12-б.

[181] Нормуродов У.Н., Рахимов З.К., Шавқиев Э.Ш. Ўзбекистонда савдо хизматларини инновацион ривжлантириш истиқболлари. Монография. - Т.: “Иқтисод-молия”, 2019. 79-б.

6. Елагин Ю.А., Николаева Т.И. Технология и коммерческая деятеность. Учебное пособие – Екатеринбург. Издателство Ural.Gos. Экон. Ун-та, 2003.
7. Karimov S. “Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasi tarixidan” // – “Xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Samarqand - 2015 yil, 18-21 dekabr.
8. Кардош Л. Этика в торговле. Сокращенный перевод с венгерского на русский язык, предисловие и оформление, «Экономика», 1985.
9. Maxmatqulov G‘.X. Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati, Urganch. UrDU, 2023.
10. Normurodov U.N., Raximov Z.K., Shavqiev E.Sh. O‘zbekistonda savdo xizmatlarini innovatsion rivjlantirish istiqbollari. Monografiya.T.: “Iqtisod-moliya”, 2019.
11. Sattarova N.T. O‘zbekistonda savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand. SamISI, 2023.
12. Ушакова Н.И., Бельфй А.Б. Социально-экономическая эффективность торговли: критерии и показателей. – М.: Высш. Школа, 2009. 125 с.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda auditni xalqaro standartlar asosida o‘tkazishning raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati

Ganiyev Firdavs Abduraufovich
SamISI mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: maqolada mamlakatimizda yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda auditni xalqaro standartlar asosida o‘tkazishning AQSh tajribasi o‘rganilib, ushbu tajribani O‘zbekiston sharoitida qo‘llash hamda sohaning raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati yoritilgan

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, ovqatlantirish xizmatlari, yashash xizmatlari, iqtisodiy sohalar, audit, xalqaro standartlar.

Jahonda mamlakatlar o‘rtasidagi globallashuv jarayonining chuqurlashishi natijasida, xizmat ko‘rsatish sohasining jadal rivojlanish tendensiyasi kuzatilib, “Xizmatlar sohasining jahon YaIMdagi ulushi so‘nggi 25-yil ichida 54,2 foizdan 65,0 foizga yetib, xizmatlar hajmi 3,1 barobarga oshgan”[182]. Jahon iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasi, xususan yashash va ovqatlanish xizmatlari bozorida transformatsion o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda mehmonxona bozori 2025 yilda 1,9 trillion AQSh dollariga baholanib, 2032 yilga kelib 2,9 trillion dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa 2025–

[182] Jahon banki ma’lumotlari, 2020.

2032 yillar davomida o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 6,2% ni tashkil etadi[183]. AQSh jahon mehmonxona bozorining eng yirik segmentlaridan biri hisoblanib, 2025 yilda mehmonxona bozorining tushumi taxminan 120 milliard AQSh dollariga yetgan[184].

Yashash va ovqatlanish xizmatlari (mehmonxonalar, restoranlar, keytering) sohasida audit o‘tkazish xalqaro amaliyotda o‘ziga xos yondashuvlarni talab qiladi. Jahonda eng rivojlangan AQSh davlati bu borada boy tajribaga ega bo‘lib, uning asosini davlat tomonidan belgilangan standartlar va xususiy sektor tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro darajada tan olingan tizimlar tashkil etadi. Ushbu tajribani O‘zbekiston sharoitida moslashtirish sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ovqatlanish xizmatlari sohasida eng keng tarqalgan xalqaro standartlardan biri **SQF (Safe Quality Food) Foodservice Program** hisoblanadi. “Bu — ovqatlanish muassasalari uchun mo‘ljallangan **uchinchi tomon auditi** bo‘lib, u orqali barcha joylarda faol oziq-ovqat xavfsizligi boshqaruv tizimini qurish mumkin. SQF standarti **GFSI (Global Food Safety Initiative)** talablariga javob beradi, bu esa uni xalqaro darajada tan olinishini ta’minlaydi. SQF auditi oziq-ovqat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, ta’minotchilarni nazorat qilish va xavflarni oldindan aniqlashga qaratilgan”[185]

Yashash va ovqatlanish xizmatlari auditida xalqaro standartlar muhim rol o‘ynaydi:

- **ISO 19011:2018** — audit dasturlarini boshqarish, auditni rejalashtirish, dalillar yig‘ish va hisobot tayyorlash jarayonlarini tartibga soluvchi asosiy standart[186]
- **COSO** — ichki nazorat muhitini tashkil etish, xavflarni baholash va monitoring tizimini yaratishga yordam beradi[187].
- **ISO 9001:2015** — mehmonxona xizmatlarida sifat menejmenti tizimini joriy etish uchun asos bo‘ladi. Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (ISO) tomonidan ishlab chiqilgan ISO 9001:2015 – sifat menejment tizimi mehmonxona xizmatlarida sifatni boshqarish, mijozlar ehtiyojini aniqlash va doimiy takomillashtirish uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

AQShning yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasidagi audit tajribasi davlat standartlari (HUD, GAAS) va xalqaro sertifikatsiya tizimlari (SQF, GFSI) uyg‘unligiga asoslangan. Mamlakatimiz uchun AQSh tajribasini qo‘llashning eng samarali yo‘li — **COSO va ISO 19011 standartlarini** amaliyotga joriy etish, **xizmat segmentlariga qarab audit yondashuvini** shakllantirish va **raqamli texnologiyalarni** audit jarayoniga integratsiyalashdir. Bu sohadagi malakali kadrlarni tayyorlash va xalqaro standartlarni milliy sharoitga moslashtirish orqali jahon xizmatlar bozorida milliy yashash va ovqatlanish xizmatlarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

---

[183] https://www.marketresearch.com/Market-Glass-Inc-v1039/Hotels
[184] Hotel industry in the U.S. - statistics & facts | Statista
[185] SQFI | Programa de Servicio de Alimentos
[186] https://scientific-jl.com
[187] https://scientific-jl.com

Globallashuv, raqamlashtirish va xalqaro turizm oqimlarining yanada rivojlanishi sharoitida mazkur tarmoq korxonalari faoliyatining moliyaviy shaffofligi, xizmat sifati, boshqaruv samaradorligi va faoliyat raqobatbardoshligini oshirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish, xususan turizm va ovqatlanish sohalarining infratuzilmasini yanada rivojlantirish, mehmonxona va restoran biznesini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha davlat siyosati izchil amalga oshirilayotganligi sababli, ushbu tarmoq korxonlarida auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish ob’ektiv zaruratga aylanmoqda.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari (mehmonxonalar, restoranlar, kafelar, turistik bazalar) — xizmat ko‘rsatish sohasining barqaror rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Bu sohada erkin raqobat kuchayishi natijasida, yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini xalqaro standartlar asosida auditdan o‘tkazish strategik ahamiyat kasb etadi. Bu esa yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar uchun quyidagi imkoniyatlar yaratadi.

Birinchidan, yashash va ovqatlanish xizmatlari korxonalarida auditni xalqaro standartlar asosida o‘tkazish moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta’minlaydi. Bu esa xalqaro investorlar, bank-moliya institutlari va strategik hamkorlar uchun korxona faoliyatining shaffofligini ko‘rsatuvchi asosiy omilga aylanadi. Natijada korxonaning investitsiya jalb qilish salohiyati oshadi, kreditlash va sug‘urta sharoitlari yaxshilanadi.

Ikkinchidan, audit jarayonida xarajatlar tarkibi, mehnat unumdorligi, energiya xarajatlari va boshqa ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Xalqaro standartlar asosidagi audit natijalari asosida xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va narx siyosatini takomillashtirish mumkin.

Uchinchidan, xalqaro standartlar asosida audit o‘tkazish xizmat sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. ISO 9001 talablariga moslik audit orqali tasdiqlanib, bu mijozlar ishonchini mustahkamlaydi, onlayn platformalarda reytingni oshiradi va korporativ mijozlar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish imkonini yaratadi.

To‘rtinchidan, xalqaro audit xulosasi korxonaning brend obro‘si va raqobatbardoshligini oshiradi. Xalqaro bozorda faoliyat yurituvchi hamkorlar, turoperatorlar va investorlar uchun xalqaro standartlarga mos moliyaviy hisobot va audit xulosasi muhim tanlov mezoni hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yashash va ovqatlanish xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalarda auditni xalqaro standartlar asosida o‘tkazish ushbu korxonalar uchun quyidagi afzalliklarni yaratadi:

1. Mahalliy va ayniqsa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi;
2. Yashash va ovqatlanish xizmatlari sifatini xalqaro darajaga ko‘taradi;
3. Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar obro‘sini mustahkamlaydi;
4. Ichki va xalqaro bozorda munosib raqobat qilish imkonini beradi.

Shu sababli, mazkur soha korxonalari uchun xalqaro audit standartlariga o‘tish — moliyaviy nazorat vositasi, zamonaviy talab, barqaror samaradorlik va strategik raqobat ustunligi yaratuvchi omildir bo‘lib hisoblanadi.

MOLIYAVIY MAJBURIYATLARNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Toshnazarov Shaxzodjon Samiddinovich
Ernst & Young xalqaro kompaniyasining soliq xizmatlari bo‘yicha katta konsultanti

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

E-mail: shakhzodjon17@gmail.com ORCID: https://orcid.org/0009-0001-1676-3032

Annotatsiya. Tezisda moliyaviy majburiyatlarning konseptual mazmuni, umumiy majburiyatlar tizimidagi o‘rni va xalqaro standartlar bilan bog‘liqligi yoritilgan. Mavjud majburiyat, o‘tgan hodisa, iqtisodiy resursni uzatish va shartnomaviy xususiyat o‘zaro bog‘liq mezonlar sifatida ko‘rib chiqilgan. Amaliy tahlilda “LIFE SILKROAD” xorijiy korxona MChJning 2026-yil birinchi yarim yilligi uchun buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotidan foydalanilgan. Tadqiqot yakunida moliyaviy majburiyatlarni aniqlash va tasniflashni izchil tashkil etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy majburiyat, konseptual asos, mavjud majburiyat, shartnomaviy majburiyat, iqtisodiy resurs, IAS 32, IFRS 9, IFRS 7, IAS 1, tan olish, tasniflash.

Kirish. Korxonaning moliyaviy holati faqat uning aktivlari va daromadlari bilan emas, zimmasidagi majburiyatlarning mazmuni bilan ham belgilanadi. Bir xil summadagi qarzdorlik turli iqtisodiy tabiatga ega bo‘lishi mumkin: biri yetkazib beruvchiga pul to‘lash majburiyatini, ikkinchisi xaridordan olingan avans evaziga tovar yetkazib berishni, uchinchisi esa davlat oldidagi soliq majburiyatini bildiradi. Shu sababli buxgalteriya hisobida “majburiyat” va “moliyaviy majburiyat” tushunchalarini bir xil ma’noda qo‘llash to‘g‘ri emas.

Moliyaviy hisobotning Konseptual asosi majburiyatni korxonaning o‘tgan hodisalar natijasida iqtisodiy resursni uzatish bo‘yicha mavjud majburiyati sifatida izohlaydi. Moliyaviy majburiyatni aniqlash uchun esa ushbu umumiy belgilardan tashqari shartnomaviy munosabat va pul yoki boshqa moliyaviy aktivni berish talabi ham mavjud bo‘lishi kerak.

Tadqiqotning maqsadi moliyaviy majburiyatlarning konseptual asoslarini sodda va izchil mezonlar orqali ochib berish, xalqaro standartlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish hamda xorijiy korxonaning anonimlashtirilgan ma’lumotlari asosida ushbu mezonlarning amaliy ahamiyatini baholashdan iborat.

Majburiyat tushunchasining markazida hisobot sanasida mavjud bo‘lgan javobgarlik turadi. Kelgusida shartnoma tuzish rejasining o‘zi majburiyat

yaratmaydi. Majburiyat paydo bo‘lishi uchun korxona iqtisodiy naf olgan yoki muayyan harakatni amalga oshirgan, natijada resursni uzatishdan amalda qochish imkoniyati qolmagan bo‘lishi kerak.

Moliyaviy majburiyat umumiy majburiyatning alohida qismidir. Uning asosiy belgisi shartnomaviy munosabatdan kelib chiqishi va hisob-kitobning pul mablag‘i yoki boshqa moliyaviy aktiv orqali bajarilishidir. Masalan, yetkazib beruvchi oldidagi pul qarzi moliyaviy majburiyat, xaridordan olingan avans esa ko‘pincha tovar yoki xizmat yetkazib berish orqali bajariladigan nomoliyaviy majburiyatdir.

IAS 32 moliyaviy majburiyatni kapital instrumentidan ajratishda instrumentning iqtisodiy mazmuniga e’tibor beradi. IFRS 9 moliyaviy majburiyatni tan olish, baholash va hisobdan chiqarish masalalarini tartibga soladi. IFRS 7 moliyaviy instrumentlarning korxona holatiga ta’siri va ular bilan bog‘liq risklar to‘g‘risidagi axborotni ochib berishni talab qiladi. IAS 1 majburiyatlarni joriy va uzoq muddatli guruhlarga ajratish uchun umumiy asos beradi. IAS 37 esa baholangan va shartli majburiyatlarni tartibga solib, moliyaviy majburiyatlar chegarasini belgilashga yordam beradi.

Konseptual asos bilan alohida standartlar o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagicha: Konseptual asos majburiyatning mavjudligini aniqlaydi; IAS 32 uning moliyaviy yoki kapital xususiyatini belgilaydi; IFRS 9 tan olish va baholash tartibini beradi; IAS 1 taqdim etish muddatini belgilaydi; IFRS 7 esa zarur izohlarni ochib berishni talab qiladi.

Moliyaviy majburiyatni aniqlashda umumiy majburiyat mezonlari, uning moliyaviy xususiyati va hisobga olish natijasi o‘zaro izchil bog‘lanadi. Ushbu bog‘liqlik 1-rasmda uch bosqichli tartibda umumlashtirilgan.



1-rasm. Moliyaviy majburiyatlarning konseptual asoslari[188]

1-rasmda moliyaviy majburiyatlarning konseptual asoslari tizimli ravishda aks ettirilgan. Rasmga ko‘ra, moliyaviy majburiyatni aniqlash jarayoni beshta o‘zaro bog‘liq mezonga asoslanadi. Birinchi mezon mavjud majburiyatning

[188]Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

mavjudligini aniqlash bo‘lib, bunda korxonaning hisobot sanasida uchinchi shaxslar oldida bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyati mavjudligi baholanadi. Ikkinchi mezon o‘tgan hodisa bilan bog‘liq bo‘lib, majburiyat avval sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyasi yoki iqtisodiy hodisa natijasida yuzaga kelgan bo‘lishi kerak. Uchinchi mezon shartnomaviy munosabatning mavjudligini nazarda tutadi, chunki moliyaviy majburiyatlar, odatda, shartnoma asosida shakllanadi. To‘rtinchi mezon majburiyatning pul mablag‘lari yoki boshqa moliyaviy aktivlar orqali bajarilishini ifodalaydi. Mazkur belgi moliyaviy majburiyatlarni boshqa turdagi majburiyatlardan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi. Beshinchi mezon esa majburiyatlarning MHXS talablari asosida tan olinishi va tasniflanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular IAS 32, IFRS 9, IAS 1 va IFRS 7 standartlari talablari asosida hisobga olinadi. Shunday qilib, rasmda keltirilgan mezonlar moliyaviy majburiyatlarni aniqlash, tasniflash va moliyaviy hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirishning konseptual asosini tashkil etadi.

Ilmiy adabiyotlarda ham majburiyatning amaliy chegarasini aniq belgilash muhimligi ko‘rsatiladi. A.A. Amirov majburiyatlar hisobini MHXS mezonlari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Richard Barker va Eirini McGeachin majburiyatlarni hisobga olishdagi yondashuvlarni konseptual mezonlar bilan bog‘lab tahlil qilgan. Yuri Biondi Konseptual asosni standartlar yaratish uchun umumiy nazariy tayanch sifatida baholaydi. Christopher Nobes va Stephen Penman ishlari esa tasniflash, baholash hamda majburiyatlar haqidagi axborotning moliyaviy holat tahliliga ta’sirini ochib beradi.

“LIFE SILKROAD” xorijiy korxona MChJ misolida moliyaviy majburiyatlarning tarkibi ko‘rib chiqish natijasida korxonaning 2026-yil birinchi yarim yilligi uchun buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumotlaridan foydalanildi. Buxgalteriya balansiga ko‘ra, 2026-yil 30-iyun holatida uzoq muddatli majburiyatlar mavjud emas, joriy majburiyatlar esa 19,83 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda 2026-yil yanvar-iyun oylarida sof tushum 33,76 mlrd so‘m, yalpi foyda 11,93 mlrd so‘m va sof foyda 2,38 mlrd so‘m miqdorida ko‘rsatilgan. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad 4,09 mlrd so‘m, moliyaviy faoliyat xarajatlari esa 0,37 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Korxona majburiyatlari va moliyaviy natijalarining tahlil uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

“LIFE SILKROAD” xorijiy korxona MChJning majburiyatlari va moliyaviy natijalariga oid asosiy ko‘rsatkichlar[189]

Ko‘rsatkich	Davr boshiga / oldingi davr, so‘m	30.06.2026 / hisobot davri, so‘m
Joriy majburiyatlar, jami	46 114 185 880,86	19 825 527 082,65
Yetkazib beruvchilar va pudratchilar	17 612 177 173,27	7 358 450 621,02

[189] Korxonaning 2026-yil birinchi yarim yillik ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Olingan avanslar	-	7 140 236 064,43
Budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz	1 712 659 550,46	3 558 850 668,05
Boshqa kreditorlik qarzlari	26 789 129 561,14	1 434 090 105,22
Sof tushum	213 905 779 238,63	33 761 922 027,72
Yalpi foyda	32 719 971 488,53	11 928 451 938,60
Sof foyda (zarar)	(4 309 481 276,27)	2 378 829 297,52

Jadval ma’lumotlari joriy majburiyatlar yil boshidagi 46,11 mlrd so‘mdan 2026-yil 30-iyunda 19,83 mlrd so‘mgacha kamayganini ko‘rsatadi. Hisobot davri oxirida yetkazib beruvchilarga qarz 7,36 mlrd so‘mni, olingan avanslar 7,14 mlrd so‘mni va budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz 3,56 mlrd so‘mni tashkil etgan. Uzoq muddatli majburiyatlarning mavjud emasligi majburiyatlar qisqa muddatli hisob-kitoblarda jamlanganini anglatadi.

Joriy majburiyatlarning hisobot davri oxiridagi tarkibi va asosiy moddalar o‘rtasidagi ulushi 2-rasmda ko‘rsatilgan.



2-rasm. “LIFE SILKROAD” xorijiy korxona MChJ joriy majburiyatlarining tarkibi[190]

2-rasm joriy majburiyatlarning umumiy tarkibida yetkazib beruvchilar oldidagi qarzlar va olingan avanslar asosiy ulushni egallashini ko‘rsatadi. Yetkazib beruvchilar oldidagi qarz shartnomaviy pul to‘lovini ifodalagani sababli moliyaviy majburiyat mezonlariga mos keladi. Olingan avans esa ko‘pincha tovar yoki xizmat yetkazib berish orqali bajariladi. Shu bois bir xil balans bo‘limida aks ettirilgan majburiyatlarni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra alohida baholash zarur.

[190] Korxonaning 2026-yil 30-iyun holatidagi buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki moliyaviy majburiyatni faqat balansdagi qarzdorlik summasi yoki hisobvaraq nomi orqali aniqlash yetarli emasligini koʻrsatdi. Uni toʻgʻri tasniflash uchun, avvalo, hisobot sanasida mavjud majburiyat va uni yuzaga keltirgan oʻtgan hodisa aniqlanadi. Shundan soʻng majburiyatning shartnomaviy asosi, hisob-kitob shakli hamda pul yoki boshqa moliyaviy aktivni berish talabi baholanadi. Demak, moliyaviy majburiyatning konseptual mazmuni Konseptual asosdagi umumiy mezonlar bilan IAS 32 dagi moliyaviy instrument belgilarining oʻzaro bogʻliqligida namoyon boʻladi.

“LIFE SILKROAD” xorijiy korxona MChJ ma’lumotlari asosidagi tahlil ham ushbu farqlashning amaliy ahamiyatini tasdiqladi. 2026-yil 30-iyun holatida joriy majburiyatlar 19,83 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa-da, ularning barchasi bir xil iqtisodiy mazmunga ega emas. Yetkazib beruvchilar oldidagi qarz shartnomaviy pul toʻlovini ifodalagani sababli moliyaviy majburiyat sifatida qaraladi. Olingan avanslar esa, odatda, tovar yoki xizmat yetkazib berish orqali bajariladi. Budjetga toʻlovlar boʻyicha qarz qonunchilik talabi asosida vujudga keladi. Shu sababli majburiyatlarning balansda bitta boʻlimda aks ettirilishi ularni bir xil hisob obyektiga aylantirmaydi.

Birinchidan, korxonalarda majburiyatlarni tan olishdan oldin besh bosqichli konseptual tekshiruv tartibini joriy etish taklif etiladi. Ushbu tartib mavjud majburiyatni, oʻtgan hodisani, shartnomaviy asosni, hisob-kitob shaklini va tegishli xalqaro standartni ketma-ket aniqlashga xizmat qiladi. Natijada olingan avans, soliq majburiyati, kreditorlik qarzi va boshqa majburiyatlarni notoʻgʻri guruhlash xavfi kamayadi.

Ikkinchidan, majburiyatlar boʻyicha analitik hisobni faqat hisobvaraq raqami va kontragent kesimida emas, balki majburiyatning huquqiy manbasi, bajarish shakli, toʻlov muddati, valyutasi va qoʻllaniladigan MHXS kesimida ham yuritish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv, ayniqsa, “boshqa kreditorlik qarzlari” tarkibidagi turli mazmundagi qoldiqlarni ajratish, ularni tegishli standartga bogʻlash va hisobot sanasida asosli tasniflash imkonini beradi.

Uchinchidan, moliyaviy hisobotni tuzish jarayonida buxgalteriya balansi, shartnomalar va analitik registrlar oʻrtasida oʻzaro tekshiruv oʻtkazilishi lozim. Tekshiruv davomida har bir yirik majburiyat boʻyicha toʻlovning pul mablagʻi, boshqa moliyaviy aktiv, tovar yoki xizmat bilan bajarilishi aniqlanadi. Mazkur tartib moliyaviy va nomoliyaviy majburiyatlar chegarasini aniq belgilashga, IFRS 9 boʻyicha baholashni toʻgʻri qoʻllashga hamda IFRS 7 talab qiladigan axborotni toʻliq shakllantirishga yordam beradi.

Toʻrtinchidan, moliyaviy hisobot izohlarida majburiyatlarni faqat joriy va uzoq muddatli guruhlarga ajratish bilan cheklanmasdan, ularning iqtisodiy mazmuni ham ochib berilishi kerak. Xususan, shartnomaviy pul majburiyatlari, tovar yoki xizmat yetkazib berish orqali bajariladigan majburiyatlar hamda qonunchilik asosida yuzaga kelgan majburiyatlar alohida izohlanishi maqsadga muvofiq. Bu foydalanuvchilarga korxonaning haqiqiy toʻlov yukini, majburiyatlar tarkibini va ular bilan bogʻliq risklarni aniqroq baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Amirov A.A. Improving the Conceptual Framework for Liability Accounting During the Transition to IFRS. International Journal of Trend in Scientific Research and Development. 2021. Vol. 5, Issue 6. P. 646-652.
2. Barker R., McGeachin E. Why is there inconsistency in accounting for liabilities in IFRS? Accounting and Business Research. 2013. Vol. 43, No. 6. P. 579-604.
3. Biondi Y. The FASB/IASB Conceptual Framework: an incomplete revolution. Accounting in Europe. 2016. Vol. 13, No. 1.
4. International Accounting Standards Board. Conceptual Framework for Financial Reporting. London: IFRS Foundation, 2018.
5. International Accounting Standards Board. IAS 32 Financial Instruments: Presentation. London: IFRS Foundation.
6. International Accounting Standards Board. IFRS 9 Financial Instruments. London: IFRS Foundation.
7. International Accounting Standards Board. IFRS 7 Financial Instruments: Disclosures. London: IFRS Foundation.
8. International Accounting Standards Board. IAS 1 Presentation of Financial Statements. London: IFRS Foundation.
9. International Accounting Standards Board. IAS 37 Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets. London: IFRS Foundation.
10. Nobes C., Parker R. Comparative International Accounting. 14th ed. Harlow: Pearson, 2020.
11. Penman S.H. Financial Statement Analysis and Security Valuation. 5th ed. New York: McGraw-Hill Education, 2013.

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев,
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори. Тел. телеграф: +998 977930048
Обид Мамаюнусович Пардаев
Иктисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Темур Баҳодир ўғли Юнусов
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ассистенти

ЛИЗИНГ ҲИСОБИ ВА УНИНГ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация. Мазкур мақолада лизинг операцияларини бухгалтерия ҳисобида акс эттиришнинг назарий ва методологик асослари ёритилган. Лизингнинг иқтисодий мазмуни, унинг асосий турлари, лизинг объектларини ҳисобга олиш, лизинг тўловларини шакллантириш ва молиявий натижаларга таъсирини аниқлаш масалалари тадқиқ этилган. Шунингдек, лизинг операцияларини бухгалтерия ҳисобида тўғри ва шаффоф акс эттириш, лизинг активлари ва мажбуриятларини баҳолаш ҳамда молиявий ҳисоботда уларни

ифодалаш методологиясига алоҳида эътибор қаратилган. Тадқиқот натижасида лизинг ҳисобини такомиллаштириш, ҳисоб маълумотларининг ишончлилиги ва ахборот самарадорлигини ошириш бўйича илмий-амалий тавсиялар ишлаб чиқиш имкониятлари асосланган.

Калит сўзлар. Лизинг, лизинг ҳисоби, бухгалтерия ҳисоби, лизинг операциялари, молиявий лизинг, оператив лизинг, лизинг активлари, лизинг мажбуриятлари, лизинг тўловлари, амортизация, баҳолаш, молиявий ҳисобот, ҳисоб методологияси, бухгалтерия ахбороти, лизинг самарадорлиги.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы отражения лизинговых операций в бухгалтерском учёте. Исследованы экономическая сущность лизинга, его основные виды, вопросы учёта объектов лизинга, формирования лизинговых платежей и определения их влияния на финансовые результаты. Особое внимание уделено методологии правильного и прозрачного отражения лизинговых операций в бухгалтерском учёте, оценке лизинговых активов и обязательств, а также их представлению в финансовой отчётности. По результатам исследования обоснованы возможности разработки научно-практических рекомендаций по совершенствованию учёта лизинговых операций, повышению достоверности учётной информации и эффективности её использования.

Ключевые слова. Лизинг, лизинговый учёт, бухгалтерский учёт, лизинговые операции, финансовый лизинг, операционный лизинг, лизинговые активы, лизинговые обязательства, лизинговые платежи, амортизация, оценка, финансовая отчётность, методология учёта, бухгалтерская информация, эффективность лизинга.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of accounting for leasing operations. It explores the economic essence of leasing, its main types, the accounting treatment of leased assets, the formation of lease payments, and their impact on financial results. Particular attention is paid to the methodology for the proper and transparent recognition of leasing transactions in accounting, the measurement of lease assets and liabilities, and their presentation in financial statements. Based on the research findings, the article substantiates opportunities for developing scientific and practical recommendations aimed at improving lease accounting, increasing the reliability of accounting information, and enhancing the efficiency of its use.

Keywords. Leasing, lease accounting, accounting, leasing operations, financial leasing, operating leasing, lease assets, lease liabilities, lease payments, depreciation, measurement, financial reporting, accounting methodology, accounting information, leasing efficiency.

Кириш. Мавзнинг долзарблиги. Бугунги кунда иқтисодиётни модернизация қилиш, тадбиркорлик субъектларининг инвестицион фаоллигини ошириш ва асосий воситаларни янгилаш жараёнида лизинг

муносабатларининг аҳамияти ортиб бормоқда. Лизинг корхона ва ташкилотларга катта миқдордаги бир марталик харажатларни амалга оширмасдан туриб, замонавий техника, технология, транспорт воситалари ва бошқа асосий воситалардан фойдаланиш имкониятини яратади. Шу жиҳатдан лизинг инвестицияларни молиялаштиришнинг муҳим воситаларидан бири ҳисобланади.

Лизинг операцияларининг кенгайиши уларни бухгалтерия ҳисобида тўғри, аниқ ва шаффоф акс эттириш масаласини янада долзарблаштирмоқда. Лизинг объектларини баҳолаш, лизинг активлари ва мажбуриятларини ҳисобга олиш, лизинг тўловларини тўғри тақсимлаш, амортизацияни ҳисоблаш ҳамда мазкур операцияларни молиявий ҳисоботда акс эттириш ҳисоб методологиясини такомиллаштиришни талаб этади.

Айниқса, халқаро молиявий ҳисобот стандартларига мослашиш жараёнида лизинг ҳисобининг методологик асосларини чуқур ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Лизинг операцияларининг бухгалтерия ҳисобида ишончли акс эттирилиши корхонанинг активлари, мажбуриятлари, молиявий ҳолати ва молиявий натижалари тўғрисидаги ахборотларнинг шаффофлигини таъминлашга хизмат қилади.

Шунингдек, рақамли иқтисодиёт шароитида бухгалтерия ҳисобини автоматлаштириш ва бошқарув қарорларини сифатли ахборот билан таъминлаш лизинг ҳисобини такомиллаштиришнинг янги ёндашувларини ишлаб чиқишни тақозо этмоқда. Шу сабабли лизинг операцияларини ҳисобга олишнинг замонавий методологиясини тадқиқ этиш, мавжуд муаммоларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш бўйича илмий-амалий таклифлар ишлаб чиқиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар. Ҳозирги пайтда муҳим масалалардан бири лизинг билан боғлиқ ҳоджиса ва жараёнлар ҳисобланади. Бунга эҳтиёж ҳам пайдо бўлмоқда. Бундан келиб чиқиб, лизингнинг мазмунига эътиборни қаратамиз. **Лизинг деганда, корхона ёки жисмоний шахсга зарур бўлган мол-мулкни (автомобиль, ускуна, техника, бино-иншоот ва бошқаларни) уни бир йўла сотиб олмасдан, узоқ муддатли ижара асосида, белгиланган тўловлар эвазига фойдаланиш имкониятини берадиган иқтисодий муносабатлар мажмуи тушунилади..**

Ушбу таърифдан келиб чиқадиган бўлсак, лизингнинг асосий мазмуни қуйидагиларда намоён бўлади:

Биринчи галда лизинг объекти нималигини билиб олиш лозим. Бунга автомобиль, ишлаб чиқариш ускунаси, қишлоқ хўжалиги техникаси, кўчмас мулк ва бошқа мол-мулклар киради. Мана шуларни берувчи **лизинг берувчи** деб аталади. Буларга мол-мулкни сотиб олиб, лизинг олувчига фойдаланиш учун берадиган субъект тушунилади. Лизинг берувчи бор жойда **лизинг олувчи** ҳам бўлади. Лизинг олувчилар мол-мулкдан шартнома асосида фойдаланади ва белгиланган муддатда лизинг тўловларини бўлиб-бўлиб амалга оширади.

Лизингда муддатлилик, деган тушунча бор, яъни мол-мулкни маълум бир муддатга берилиши тушунилади. Ушбу ҳолатда **тўловлилик** ҳам

мавжуд. Бунда лизинг олувчи даврий равишда белгиланган тўловларни бўлиб-бўлиб тўлайди. Ушбу ҳолатга албатта мол-мулкдан фойдаланиш жараёни ҳам киради. Бунда лизинг олувчи мулкдан шартномада кўрсатилган мақсадларда фойдаланади.

Лизинг жараёнида **мулк ҳуқуқининг тақдири** ҳам муҳим ҳисобланади. Бунда шартнома шартларига қараб, муддат охирида мол-мулк лизинг берувчида қолиши, лизинг олувчига ўтиши ёки бошқа тартибда ҳал қилиниши мумкин. Бунга оддий мисол келтирадиган бўлсак, корхонага 500 млн сўмлик трактор керак. Корхона уни тўлиқ сотиб олиш ўрнига лизинг компанияси орқали тракторни олади ва унинг қийматини белгиланган муддат давомида қисм-қисм қилиб тўлайди. Шунинг учун лизингни молиялаштириш ва ижара элементларини бирлаштирган иқтисодий муносабат сифатида ифодалаш мумкин.

Энди **лизинг ҳисобининг методологиясига** эътиборни қаратадиган бўлсак, бу лизинг операцияларини бухгалтерия ҳисобида тўғри акс эттириш, баҳолаш, ҳужжатлаштириш ва молиявий ҳисоботда ифодалаш усуллари мажмуасини ўз ичига олади. Унинг асосий таркибий қисмлари қуйидагилардан иборат:

Биринчи галда лизинг операцияларини ҳужжатлаштириш лозим бўлади. Бунда лизинг шартномаси, қабул қилиш-топшириш ҳужжатлари ва тўлов жадвалини расмийлаштирилиши лозим.

Иккинчидан, лизинг объектини тан олиш ва баҳолаш ҳам муҳим. Чунки, автомобиль, техника, ускуна ёки бошқа активнинг ҳисоб қийматини аниқлаш ва ушбу миқдорни шартномага асос қилиб киритиш лозим бўлади. Шу туфайли лизинг операциялари методолгиясида ушбу жараён муҳим ҳисобланади.

Учинчидан, ушбу жараёнда тизимли ҳолатни таъминлаш учун лизинг мажбуриятини ҳисобга олиш ҳам муҳим ҳисобланади. Бунинг учун келгусида амалга ошириладиган лизинг тўловларини ҳисобда акс эттириш тартибига ҳам алоҳида аҳамият берилиб борилади.

Тўртинчидан, лизинг тўловларини таркибий қисмларга ажратиш асосий қарз суммаси ва молиявий харажатлар (фоиз)ни алоҳида ҳисобга олиш лозим бўлади. Чунки лизинг жараёнида лизинг олуввчи ҳам лизигга берувчи ҳам зарар кўрмаслиги керак. Бунга эришиш учун ҳар бир ўтган вақтни тўғри ҳисоб-китоб қилиб, тўловларни ўз вақтида амалга ошириб бориш лозим бўлади.

Бешинчидан, лизингга бериладиган асосий воситаларга амортизация ҳисобланиши таббий ҳол. Бироқ лизинг объектидан фойдаланиш даври давомида унинг қийматини харажатларга босқичма-босқич ўтказишга тўғри келади. Шу туфайли амартизациянинг қанча фоизда ажратилиши билан бирга қанча муддатда тўлиқ қопланишини ҳам аниқ билишлари лозим.

Олтинчидан, лизинг билан боғлиқ молиявий харажатларни тегишли даврларда тан олиш лозимлигидан келиб чиқиб, уларга тўланадиган фоиз миқдори ва бошқа харажатларни ҳисобга олиб бориш ҳам тизимли равишда амалга ошириш билан бирга назоратга ҳам олиб туриш керак бўлади.

Еттинчидан, лизинг операцияларини аниқ белгилаш учун лизинг суммасини синтетик ва аналитик ҳисобда акс эттириш, яъни ҳар бир лизинг объекти ва шартномаси бўйича алоҳида ҳисоб юритиш лозим бўлади. Шу йўл билан лизингнинг умумий сўммаси билан унинг таркибидаги ўзгаришларга ҳам баҳо бериш мумкин.

Саккизинчидан, лизинг активлари, мажбуриятлари, харажатлари ва тўловлари ҳақида зарур маълумотларни ҳисоботда аниқ кўрсатиш учун буларни молиявий ҳисоботда очиб бериш ҳам мақсадга мувофиқ. Ушбу маълумотлар лизинг билан боғлиқ бўлган операцияларнинг ҳолати бўйича бошқарув қарорларини ҳам қабул қилиш учун асос бўлади.

Тўққизинчидан, лизинг тўловларининг ўз вақтида амалга оширилиши, мажбуриятлар ҳолати ва лизингдан фойдаланиш самарадорлигини таҳлил қилиш орқали ушбу жараёнларни назорат ва таҳлил қилиш имконияти яратилади. Ушбу таҳлил натижаси ҳам бошқарув қарорларини қабул қилиш ва стратегик масалаларни қараб чиқиш имкониятларини ҳам яратади.

Лизинг операциясининг методологик тасвири (схемаси) қуйидагича кўринишга эга бўлади. Бу қуйидаги расмда келтирилган (1-расм).



1-расм. Лизинг операциясининг методологик кетма-кетлиги

Расмдан кўриниб турибдики, ушбу занжирда лизинг шартномаси биринчи ўринда турибди. Сўнгра ушбу ҳолатни ҳужжатлаштириш ва лизингга қўйилган активларни баҳолаш лозим бўлади. Шунга асосан мажбуриятни тан олиш ҳам амортизация, лизинг тўловлари амалга оширилади. Яна бир босқич фоиз харажатлари бўлиб, буларнинг ҳаммаси молиявий ҳисоботда ўз аксини топади ва буларнинг ҳаммаси таҳлил ва назорат орқали амалга оширилади.

Хулоса ва таккккклифлар. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, лизинг муносабатлари корхоналарнинг асосий воситаларини янгилаш, инвестицион фаоллигини ошириш ва молиявий ресурслардан самарали фойдаланишда муҳим иқтисодий восита ҳисобланади. Шу билан бирга, лизинг операцияларининг кенгайиши уларни бухгалтерия ҳисобида тўғри ва

ишончли акс эттириш методологиясини такомиллаштириш заруратини келтириб чиқармоқда.

Лизинг ҳисоби жараёнида лизинг объектларини тан олиш ва баҳолаш, активлар ҳамда мажбуриятларни ҳисобга олиш, лизинг тўловларини тўғри тақсимлаш, амортизация ва фоиз харажатларини ҳисоблаш, шунингдек, уларни молиявий ҳисоботда акс эттириш муҳим аҳамиятга эга. Мазкур жараёнлардаги ҳисоб-китобларнинг аниқлиги корхонанинг молиявий ҳолати ва натижалари тўғрисидаги ахборотларнинг ишончлилигига бевосита таъсир кўрсатади.

Шу нуқтаи назардан, лизинг ҳисобини замонавий талаблар асосида ташкил этиш нафақат бухгалтерия ҳисобининг сифатини оширади, балки корхона раҳбарияти учун инвестицион ва молиявий қарорлар қабул қилишда зарур бўлган ишончли ахборот базасини шакллантиради.

Тадқиқот натижасида бир қанча **таклифлар** ҳам ишлаб чиқилди. Тадқиқот натижаларидан келиб чиқиб, лизинг ҳисобини такомиллаштириш бўйича қуйидаги таклифларни илгари суриш мумкин:

1. Лизинг операцияларини ҳисобга олиш методологиясини такомиллаштириш учун лизинг активлари ва мажбуриятларини тан олиш, баҳолаш ва ҳисоботда акс эттириш бўйича ягона ва аниқ ёндашувларни кучайтириш даркор.

2. Лизинг активлари ва мажбуриятларининг аналитик ҳисобини кенгайтириш, яъни ҳар бир лизинг шартномаси, объекти, муддати, тўловлари ва қолдиқ қиймати бўйича алоҳида аналитик маълумотлар базасини шакллантириш чораларини кўриш лозим..

3. Лизинг тўловларини автоматлаштириш учун лизинг тўловлари, фоиз харажатлари, асосий қарз суммаси ва амортизация ҳисоб-китобларини рақамли бухгалтерия тизимлари орқали автоматлаштириш лозим бўлади.

4. Молиявий ҳисоботда лизинг операциялари бўйича ахборотларнинг шаффофлигини ошириш учун эса, фойдаланувчилар учун лизинг активлари, мажбуриятлари ва келгуси тўловлар тўғрисида етарли маълумотларни шакллантиришга ҳам катта аҳамият бериш лозим бўлади.

5. Лизинг шартномаларини ҳисобга олишнинг ягона ички тартибини ишлаб чиқиш учун корхоналарда лизинг операцияларини расмийлаштириш, ҳужжатлаштириш ва бухгалтерия ҳисобида акс эттириш бўйича ички меъёрий ҳужжатларни такомиллаштириш керак.

6. Лизинг ҳисоби бўйича мутахассисларнинг малакасини оширишда бухгалтерлар ва молия мутахассисларининг замонавий лизинг ҳисоби ва халқаро молиявий ҳисобот стандартлари бўйича билимларини мунтазам равишда ошириб боришга эришиш йўлларини ҳам кўриш керак.

7. Лизинг ҳисобини бошқарув ҳисоби билан интеграция қилиш, яъни лизингнинг корхона харажатлари, пул оқимлари, рентабеллиги ва инвестицион фаолиятига таъсирини баҳолаш имконини берувчи бошқарув ахборот тизимини шакллантириш керак.

Умуман олганда, лизинг ҳисобининг методологиясини такомиллаштириш корхоналар молиявий ҳисоботининг ишончлилиги ва

шаффофлигини ошириш, лизинг ресурсларидан самарали фойдаланиш ҳамда инвестицион қарорларнинг асосланганлигини кучайтиришга хизмат қилади.

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев,
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори.
Мехрангиз Олимовна Мамаюнусова
Тошкент Технология, менежмент ва коммуникация институти доценти в.б. PhD
Ориф Мамаюнусович Пардаев
Самарқанд давлат универиситети магистри

ТАВАККАЛЧИЛИК ВА НОАНИҚЛИК ШАРОИТИДА ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИ БОШҚАРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ
(1-мақола)

Аннатация. Мақолада таваккалчилик ва ноаниқлик шароитида тадбиркорлик фаолиятининг турлари ва уларни бошқариш механизмлари қараб чиқилган. Бунда асосий эътибор тадбиркорлик фаолиятида таваккалчиликнинг асосий турлари ва уларнинг мазмуни ҳамда таваккалчиликни бошқариш механизмларининг кетма-кетлигини шакллантиришга асосий эътибор қаратилган. Тадбиркорнинг «энг катта фойда»га эришиш тамойили билан бир қаторда «энг мақбул хавф даражаси» тамойили билан боғлиииииқ масалаларга аҳамият берилган.

Калит сўзлар. Рақамли технология, электрон маълумотлар, талаб ва таклиф, таваккалчилик, ноаниқлик, тадбиркорлик, сунъий интеллект, маълумотлар базаси, аналитик платформалар, рақобат, хавф даражаси, рақобатбардошлик, риск.

ВИДЫ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕХАНИЗМЫ ИХ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ РИСКА И НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ
(Статья 1)

Аннотация. В статье рассматриваются виды предпринимательской деятельности и механизмы их управления в условиях риска и неопределённости. Основное внимание уделяется основным видам предпринимательского риска и их содержанию, а также формированию последовательности механизмов управления рисками. Наряду с принципом достижения предпринимателем «максимальной прибыли» особое внимание уделяется вопросам, связанным с принципом «оптимального уровня риска».

Ключевые слова: цифровые технологии, электронные данные, спрос и предложение, риск, неопределённость, предпринимательство, искусственный

интеллект, база данных, аналитические платформы, конкуренция, уровень риска, конкурентоспособность, риск.

TYPES OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY AND MECHANISMS FOR THEIR MANAGEMENT UNDER CONDITIONS OF RISK AND UNCERTAINTY
(Article 1)

Abstract. The article examines the types of entrepreneurial activity and mechanisms for their management under conditions of risk and uncertainty. Particular attention is paid to the main types of entrepreneurial risks and their content, as well as to the formation of a sequence of risk management mechanisms. Along with the principle of achieving “maximum profit,” attention is also given to issues related to the principle of maintaining an “optimal level of risk.”

Keywords: digital technologies, electronic data, supply and demand, risk, uncertainty, entrepreneurship, artificial intelligence, database, analytical platforms, competition, risk level, competitiveness, risk.

Кириш. Мавзунинг долзарблиги. Бугунги кунда иқтисодий жараёнларнинг жадал ўзгариши, бозор конъюнктурасининг беқарорлиги, рақобат муҳитининг кучайиши, молиявий ресурслар қийматининг ўзгариши ҳамда ташқи ва ички омилларнинг таъсири тадбиркорлик фаолиятини таваккалчилик ва ноаниқлик шароитида амалга оширишни тақозо этмоқда. Бундай шароитда тадбиркорлик субъектлари олдида мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланиш билан бир қаторда, эҳтимолий хавфларни олдиндан аниқлаш, баҳолаш ва уларни бошқариш муҳим вазифага айланмоқда.

Таваккалчилик тадбиркорлик фаолиятининг ажралмас қисми бўлиб, у ишлаб чиқариш, тижорат, молиявий, инвестицион, инновацион ва бошқа фаолият турларида турлича намоён бўлади. Ҳар бир таваккалчилик тури ўзининг келиб чиқиш сабаблари, таъсир даражаси ва бошқариш усулларига эга. Шу сабабли тадбиркорлик фаолиятида таваккалчиликларни турлари бўйича таснифлаш, уларни тизимли равишда баҳолаш ва тегишли бошқарув механизмларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Айниқса, рақамли иқтисодиёт шароитида маълумотлардан самарали фойдаланиш, рақамли технологиялар, сунъий интеллект, прогнозлаш ва аналитик воситалардан фойдаланиш тадбиркорлик таваккалчиликларини камайтириш имконини бермоқда. Бунда бозордаги ўзгаришларни тезкор таҳлил қилиш, талаб ва таклиф динамикасини баҳолаш, молиявий ҳолатни мониторинг қилиш ҳамда эҳтимолий хавфларни олдиндан аниқлаш имкониятлари кенгаймоқда. Шу нуқтаи назардан, таваккалчилик ва ноаниқлик шароитида тадбиркорлик фаолиятининг турларини чуқур ўрганиш, уларга таъсир этувчи омилларни аниқлаш ва самарали бошқариш механизмларини такомиллаштириш ҳозирги даврнинг муҳим илмий ва амалий масалаларидан бири ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар. Бозорли иқтисодиёт шароитида тадбиркорлик фаолияти доимо маълум даражада таваккалчилик ва ноаниқлик билан боғлиқ.

Тадбиркор бозорда қандай ўзгаришлар содир бўлишини, истеъмолчиларнинг келажакдаги талабини, рақобатчиларнинг хатти-ҳаракатларини ёки маҳсулот нархининг қай даражада ўзгаришини олдиндан тўлиқ аниқ била олмайди.

Тадбиркорликнинг муҳим хусусияти шундаки, тадбиркор мавжуд имкониятлардан фойдаланган ҳолда келажакдаги натижани олдиндан аниқ билмаган ҳолда қарор қабул қилади. Шу сабабли таваккалчилик тадбиркорликнинг ажралмас қисми ҳисобланади.

Таваккалчиликни бутунлай йўқотишнинг имкони йўқ. Бироқ уни олдиндан аниқлаш, баҳолаш, назорат қилиш ва салбий таъсирини камайтириш орқали тадбиркорлик фаолияти барқарорлигини таъминлаш мумкин. Шу жиҳатдан мазкур масала бугунги кунда ўта долзарб ҳисобланади. Чунки ушбу мақолада тадбиркорлик фаолиятида таваккалчиликнинг асосий турлари, таваккалчиликни бошқариш механизмлари каби масалалар қараб чиқилади.

Мазкур масалани бевосита таваккалчилик ва ноаниқлик тушунчаларининг мазмунини очиб беришдан бошлашни мақсад қилиб олдик. Чунки, таваккалчилик асосан муайян қарор ёки ҳаракат натижасида кутилган натижага эришилмаслиги ёки зарар кўриш эҳтимоли билан боғлиқ ҳолатда қўлланилади. Ноаниқлик эса келажакдаги воқеа-ҳодисаларнинг натижаси ёки уларнинг эҳтимолини аниқ белгилаш имконияти чекланган вазиятни англатади. Шу туфайли тадбиркор брорта фаолият билан шуғулланса албатта таваккалчилик руҳиятига бўйсиниши лозим.

Таваккалчилик ва ноаниқлик тушунчалари бир-бири билан ўзаро яқин бўлса-да, улар бир хил эмас. Таваккалчиликда эҳтимолий натижаларни маълум даражада баҳолаш мумкин. Ноаниқликда эса келажакдаги ҳолатлар ҳақидаги ахборот етарли бўлмаслиги сабабли натижаларни аниқ баҳолаш имкониятлари қийин. Шу нуқтаи назардан тадбиркор учун ахборот, таҳлил ва прогноз қанчалик сифатли бўлса, ноаниқлик даражаси шунчалик тез камаяди.

Тадбиркорлик фаолиятида таваккалчиликнинг асосий турлари бир қанча бўлиб, ҳар бирининг ўзига хос ўрни бор. Шу туфайли тадбиркорликда учрайдиган таваккалчиликларни бир нечта гуруҳга ажратиш мумкин. Бууларнинг турлари қуйидаги жадвалда келтирилган (1-жадвал).

1-жадвал

Тадбиркорлик фаолиятида таваккалчиликнинг асосий турлари ва уларнинг мазмуни

Т/р	Таваккалчилик тури	Мазмуни
1.	Бозор таваккалчилиги	Талаб, таклиф ва нархларнинг ўзгариши
2.	Молиявий таваккалчилик	Даромаднинг камайиши, қарзларни қоплашда қийинчилик
3.	Кредит таваккалчилиги	Олинган кредитни ўз вақтида қайтариш имконияти пасайиши
4.	Инвестицион таваккалчилик	Киритилган инвестициядан кутилган натижанинг олинмаслиги
5.	Ишлаб чиқариш таваккалчилиги	Ишлаб чиқаришда узилишлар, харажатлар ортиши

6.	Рақобат таваккалчилиги	Бозорда рақобатчилар мавқеининг кучайиши
7.	Технологик таваккалчилик	Янги технологияларнинг тез эскириши
8.	Ҳуқуқий таваккалчилик	Қонунчилик ва меъёрий талабларнинг ўзгариши
9.	Валюта таваккалчилиги	Валюта курсининг ўзгариши натижасида зарар кўриш
10.	Ташқи иқтисодий таваккалчилик	Экспорт-импорт, ташқи бозор ва геосиёсий ўзгаришлар билан боғлиқ хавфлар

Мазкур жадвалдан кўриниб турибдики, тадбиркорлар ушбу хавфларнинг ҳар бирига алоҳида аҳамият бериш билан бирга, уларни ўзаро боғлиқ ҳолда баҳолаши ҳам лозим бўлар экан. Чунки ушбу таваккалчиликнинг турлари бир-бири билан чамбарчас боғлиқликдаги ҳодиса ва жараёнлар қуршовида жойлашган.

Таваккалчилик шароитида ҳам қарор қабул қилиш маълум даражада ахборотга таянади. Шу туфайли тадбиркорликда ҳар қандай қарор ахборотга таянар экан, ахборотларнинг ҳаққонийлиги ҳам таъминланган бўлиши лозим. Ахборот қанчалик ишончли ва тўлиқ бўлса, қарорнинг самарадорлиги ҳам шунчалик юқори бўлади. Ушбу ҳолатдан келиб чиқиб, ҳар бир тадбиркор қарор қабул қилишдан олдин қуйидаги жараёнларга эътиборни қаратши лозим бўлади. Булар:

1. Тадбиркор иштирок этадиган бозор ҳолатини ўрганиши;
2. Тадбиркорлик фаолияти натижаларининг истеъмолчилари талабларини таҳлил қилиши;
3. Тадбиркорларнинг рақобатчилар фаолиятини ҳам одилона баҳолаши;
4. Тадбиркорларнинг вақтлар бўйича харажат ва даромадларни ҳисоблаши;
5. Тадбиркорлар учрайдиган эҳтимолий хавфларни аниқлаши;
6. Тадбиркорлар вазиятдан чиқиши учун бир нечта муқобил вариантларни ишлаб чиқиши;
7. Тадбиркорлар ишлаб чиқилган вариантлар ичидан энг мақбул вариантни танлаши керак.

Бунда тадбиркорлар амал қиши лозим бўлган **«энг катта фойда»** тамойили билан бир қаторда **«энг мақбул хавф даражаси»** тамойили ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Бунга эришиш учун ҳар бир тадбиркор таваккалчиликни бошқариш механизмларини ҳам билишлари лозим. Бунда таваккалчиликни самарали бошқариш бир марталик тадбир эмас, балки узлуксиз жараён эканлигига ҳам катта аҳамият бериши лозим бўлади. Ушбу жараён бир қанча босқичларни қамраб олади. Бу қуйидаги расмда ўз аксини топган (1-расм).



1-рам. Таваккалчиликни бошқариш механизмларининг кетма-кетлиги

Расмдан кўриниб турибдики, биринчи галда тадбиркорлар ўз фаолиятини таваккалчиликни аниқлашдан бошлашлари лозим экан. Бу унинг ҳолатини баҳолаш орқали, қайси йўналишга устуворликни бериш имкониятини ҳам яратади. Таваккалчиликни бошқаришнинг муҳим босқичларидан бири тегишли ва аниқ чора-тадбир ишлаб чиқиб, уни амалга оширишга ҳам катта аҳамият берилиши лозим. Бу албатта назорат қилиниб, зарурият бўлса яна қайта баҳоланиши лозим. Чунки бошқаришда ушбу механизмларсиз умумий хулоса қилиб, тегишли бошқарув қарорларини қабул қилиб бўлмайди.

Ушбу тадбирларинг ҳаммаси маълум даражада таваккалчиликни камайтиришга қаратилади. Бунда ҳам бир қанча усуллардан фойдаланилади. Ушбу усулларга қуйидагиларни киритишни лозим, деб топдик.

Биринчидан, диверсификация. Одатда тадбиркор ўз фаолиятни битта маҳсулот ёки битта бозорга боғлаб қўймаслиги керак. Маҳсулотлар, хизматлар ва бозорларни узлуксиз диверсификация қилиб бориш хавфларни пасайтиради.

Иккинчидан, суғурталаш. Ҳозирги имкониятлар ва яратилган шарт-шароитлардан келиб чиқиб, мулк, транспорт, ишлаб чиқариш ва бошқа хавфларни суғурталаш эҳтимолий зарарларни қисман қоплаш имконини беради. Бундай имкониятлардан албатта фойдаланиш лозим бўлади.

Учинчидан, молиявий захира яратиш. Тадбиркорлик фаолиятида кутилмаган харажатлар ёки даромаднинг вақтинча камайиши рўй бериши мумкин. Шу туфайли ҳар бир тадбиркор бунга тайёр туриши лозим. Бунинг учун корхонада етарли ликвид маблағлар бўлиши зарур.

Тўртинчидан, ахборот-таҳлил тизимини кучайтириш. Ҳозирги рақамлаштириш билан боғлиқ кенг имкониятлардан фойдаланган ҳолда бозорнинг ҳолати, нархларнинг, талаб ва таклифларнинг ўзгариши, рақобат ва истеъмолчилар хулқини мунтазам ўрганиш натидасида ноаниқликни камайтириб бориш ҳам муҳим тадбирлардан бири ҳисобланади.

Бешинчидан, инновацияларни жорий этиш. Ҳозирги кунда замонавий инновацион технологиялардан фойдаланиш орқали меҳнат унумдорлигини ошириш, харажатларни камайтириш ва рақобатбардошликни кучайтириш имконини берадиган шароитларни яратиб олиш ҳам ижобий натижаларнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади..

Хулоса ва таклифлар.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, таваккалчилик ва ноаниқлик тадбиркорлик фаолиятининг барча босқичларига таъсир кўрсатувчи муҳим иқтисодий омиллардан ҳисобланади. Тадбиркорлик фаолиятининг ишлаб чиқариш, тижорат, молиявий, инвестицион, инновацион ва бошқа турларида таваккалчиликларнинг намоён бўлиш шакллари ва таъсир даражаси бир-биридан фарқ қилади. Шунинг учун уларни ягона ёндашув асосида эмас, балки ҳар бир фаолият турининг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда бошқариш мақсадга мувофиқ.

Тадбиркорлик субъектларининг барқарорлиги кўп жиҳатдан таваккалчиликларни ўз вақтида аниқлаш, баҳолаш ва уларнинг салбий таъсирини камайтиришга қаратилган бошқарув қарорларининг самарадорлигига боғлиқ. Бунинг учун таваккалчиликларни мунтазам мониторинг қилиш, эҳтимолий сценарийларни ишлаб чиқиш, молиявий захираларни шакллантириш, суғурталаш, диверсификация ва рискларни тақсимлаш каби усуллардан комплекс фойдаланиш зарур.

Шу билан бирга, замонавий рақамли технологиялардан фойдаланиш тадбиркорлик таваккалчиликларини бошқаришнинг янги имкониятларини яратмоқда. Рақамли маълумотлар базаси, аналитик платформалар, прогнозлаш технологиялари ва сунъий интеллект воситалари орқали бозор ўзгаришларини тезкор баҳолаш ва бошқарув қарорларининг асосланганлигини ошириш мумкин.

Умуман олганда, таваккалчилик ва ноаниқлик шароитида тадбиркорлик фаолиятини самарали бошқаришнинг асосий шарти — хавфларни олдиндан аниқлаш, уларни миқдорий ва сифат жиҳатдан баҳолаш, эҳтимолий салбий оқибатларни камайтириш ҳамда мавжуд имкониятлардан оқилона фойдаланишдан иборат. Шу асосда тадбиркорлик субъектларининг молиявий барқарорлиги, рақобатбардошлиги ва узоқ муддатли ривожланишини таъминлаш имкониятлари кенгаяди.

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев,
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори
Мехрангиз Олимовна Мамаюнусова
Тошкент Технология, менежмент ва коммуникация институти доценти в.б. PhD
Ориф Мамаюнусович Пардаев
Самарқанд давлат универиситети магистри

ТАВАККАЛЧИЛИК ВА НОАНИҚЛИК ШАРОИТИДА ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ ЮРИТИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ВА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ АҲАМИЯТИ (2-мақола)

Аннатация. Мақолада таваккалчилик ва ноаниқлик шароитида тадбиркорлик фаолиятини юритишда рақамлаштириш ва сунъий интеллектнинг аҳамияти билан боғлиқ масалалар ёритилган. Бунда тадбиркорлик субъектларининг барқарорлигини таъминлашнинг рақамлаштириш билан боғлиқ омиллари ва уларнинг изоҳи ҳамда тадбиркорлик фаолиятида муваффақият қозониш учун лозим бўлган омиллар занжиридан фойдаланиш масалалари қараб чиқилан.

Калит сўзлар. Таваккалчилик, ноаниқлик, тадбиркорлик, сунъий интеллект, рақамлаштириш, рақамли технология, электрон маълумотлар, маълумотлар базаси, аналитик платформалар, рақобат, рақобатбардошлик.

ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ВЕДЕНИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ РИСКА И НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ (Статья 2)

Аннотация. В статье освещаются вопросы, связанные со значением цифровизации и искусственного интеллекта в ведении предпринимательской деятельности в условиях риска и неопределённости. Рассматриваются факторы обеспечения устойчивости субъектов предпринимательства, связанные с цифровизацией, даётся их характеристика, а также рассматриваются вопросы использования цепочки факторов, необходимых для достижения успеха в предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: риск, неопределённость, предпринимательство, искусственный интеллект, цифровизация, цифровые технологии, электронные данные, база данных, аналитические платформы, конкуренция, конкурентоспособность.

THE IMPORTANCE OF DIGITALIZATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN CONDUCTING ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES UNDER CONDITIONS OF RISK AND UNCERTAINTY (Article 2)

Abstract. The article examines issues related to the importance of digitalization and artificial intelligence in conducting entrepreneurial activities under conditions of risk and uncertainty. It considers the factors related to digitalization that contribute to ensuring the sustainability of business entities, provides an explanation of these factors, and examines the use of a chain of factors necessary for achieving success in entrepreneurial activity.

Keywords: risk, uncertainty, entrepreneurship, artificial intelligence, digitalization, digital technologies, electronic data, database, analytical platforms, competition, competitiveness.

Кириш. Мавзунинг долзарблиги. Таваккалчилик ва ноаниқлик шароитида тадбиркорлик фаолиятини юритиш жараёнида рақамлаштириш ва сунъий интеллектнинг аҳамияти ҳам жуда катта. Чунки ҳозирги пайтдаги замонавий тадбиркорликда рақамли технологиялар таваккалчиликни бошқаришнинг муҳим воситасига айланмоқда. Корхоналарда электрон маълумотлар базаси, аналитик платформалар, автоматлаштирилган бухгалтерия ва бошқарув тизимлари орқали молиявий ҳолатини тезкор назорат қилиши имкониялари ҳам яратилди.

Сунъий интеллект ва рақамлаштириш натижасида тўпланган маълумотларни таҳлил қилиш технологиялари бевосита талаб ва таклифнинг ўзгаришларини прогноз қилиш, мижозлар хулқини ўрганиш, харажатларни оптималлаштириш ва эҳтимолий хавфларни олдиндан аниқлаш имкониятларини кенгайтирмоқда. Бундай шароитда рақамли технологиялардан фойдаланишнинг ўзи ҳам шунчаки катта имконият эмас, ушбу ҳолат янги хавфларни, жумладан кибр хавфларни келтириб чиқаради. Буларнинг олдини олиш учун киберхавфсизлик ва маълумотларни ҳимоя қилиш масалаларига ҳам алохиди аҳамият бериш лозимлигини тақозо қилади. Шу сабабли рақамлаштириш билан бир вақтда ахборот хавфсизлигига алоҳида эътибор қаратиш заруратининг пайдо бўлганлигини ҳам инобатга олиш лозим.

Таҳлил ва натижалар Ҳозирги замонда тадбиркорлик субъектларининг барқарор фаолиятини таъминлаш масаласи ҳам долзарб чоралардан бири ҳисобланади. Бунинг учун **тадбиркорлик субъектларининг барқарорлигини таъминлашнинг** асосий шартларини белгилаш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Таваккалчилик ва ноаниқлик шароитида тадбиркорлик фаолияти барқарорлигини таъминлаш учун қуйидаги шартлар муҳим ҳисобланади. Буларга қуйидагиларни киритиш мумкин (1-жадвал).

1-жадвал

Тадбиркорлик субъектларининг барқарорлигини таъминлашнинг рақамлаштириш билан боғлиқ омиллари ва уларнинг изоҳи

Т/р	Тадбиркорлик субъектлари барқарорлигини таъминлашнинг асосий омиллари	Тадбиркорлик субъект-ларининг барқарорлигини таъминлайдиган омиллар изоҳи
1.	Пухта ва реал бизнес-режа ишлаб чиқиш лозим	Ноаниқлик хавфи бор пайтида бизнес-режани барча омиллари ва имкониятларини инобатга олган ҳолда тузиш лозим бўлади.
2.	Бозорни мунтазам мониторинг қилиб бориш ҳам зарур	Тадбиркорнинг барқарорлигини таъминлаш учун бозорнинг аҳамияти катта. Шу туфайли уни узлуксиз ўрганиб бориш лозимдир.
3.	Харажатларни самарали бошқаришга аҳамият бериш	Самарадорликни ошириш ҳам харажатларни талаб қилади. Шу туфайли буларни тежамкорлик билан мақсадга мувофиқ ҳолда сарфлаш лозим бўлади.
4.	Қарз юкини меъёрда сақлашга эришиш	Ҳозирги пайтда фаолиятнинг барқарорлигини таъминлаш учун кредитлар олишга тўғри келади,аммо уни меъёридан ошириб юбормаслик лозим.
5.	Молиявий захира шакллантиришни доимий вазифа қилиб олиш	Бозор шароитида турли хавф-хатарлар (рисклар) бўлиши табиий шу туфайли маълум миқдорда молиявий захирани ҳам ташкил қилиш лозимдир.
6.	Маҳсулот ва хизматлар сифатини узлуксиз ошириб бориш	Ҳар қандай корхона рақобат муҳити мавжуд замонда барча ишларнинг сифатига катта аҳамият бериши ва уни мунтазам равишда замонга мос ҳолда такомиллаштириб бориши лозим.
7.	Мижозлар базасини кенгайтириш ҳам доимий эътиборда бўлиши лозим	Мувоффақиятга эришишнинг муҳим омилларидан бири мижозлар сонини кўпайтириш билан боғлиқ. Шу туфайли ушбу масала ҳам кун тартибидаги доимий иш бўлиши лозим.
8.	Рақобатбардош инновацияларни амалиётга жорий этиш	Раққобат муҳити мавжуд шароитда корхонанинг рақобатбардошлигини таъминлаш учун инновацион омилларнинг жорий қилинишига ҳам эътиборни қаратиш лозим бўлади.
9.	Ходимларнинг малакасини замон	Ҳозирги тез ўзгаришлар даврида янги техника ва технологиялар ва усуллар

	талабидан келиб чиқиб ошириб бориш	кириб келмоқда. Шу туфайли мазкур ҳолатга мос кадрлар корпуси шаклланган бўлиши лозим.
10.	Рақамли технологиялардан барча босқичларда самарали фойдаланиш	Бугунги кунда рақамли технологиялар имкониятидан самарали фойдаланишни йўлга қўядиган кадрлар билан таъминлнган бўлиши лозим.
11.	Хавф-хатарларни доимий мониторинг қилиб бориш	Ноаниқлик бор жойда албатта хавф мавжуд бўлади. Шу туфайли бундай хавфларга бефарқ бўлмасдан, уларни ўрганиб бориш керак.

Булардан ҳам кўриниб турибдики, бугунги кунда тадбиркор таваккалчиликдан сесканиб, ундан қочиш эмас, балки уни онгли равишда бошқариш маданиятини шакллантириши лозим бўлмоқда. Энг муҳими, тадбиркорлик фаолияти ҳамиша шубҳалар қуршовида бўлади, бунда таваккалчиликка таянилмаса, ўзини ўзи хароб қилиши ҳам мумкин бўлади. Шу туфайли Аллоҳга таваккал, деб атрофга ҳушёрлик билан қараб, ҳалол-покиза иш юритилса, тадбиркорлар фойда топиши ва мувоффиқиятларга эришиши бардавом бўлади.

Бозорли иқтисодиёт шароитида юқори натижага эришиш учун тадбиркор фақат фойдани кўзлаши эмас, балки эҳтимолий хавфларни ҳам олдиндан баҳолай олиши керак бўлади. Тадбиркорлик фаолиятида ҳам кўп жиҳатдан муваффақият қозониш учун бир қанча йўналишлар мавжуд. Буларнинг айримлари қуйидаги расмда келтирилган (1-расм).



1-расм. Тадбиркорлик фаолиятида муваффақият қозониш учун лозим бўлган омиллар занжири

Тадбиркорлик фаолиятида муваффақият қозониш учун лозим бўлган омиллар занжири олтита ҳаалқадан иборат бўлмоқда. Энг аввало тўғри

ахборотнинг шаклланиши муҳим аҳамият касб этади. Агар ахборот тўғри бўлмаса, чуқур таҳлил қилиб, оқилона қарор қабул қилиш мумкин эмас. Агар қарор ҳаққоний бўлмаса таваккалчиликни бошқариш ҳам, уни самарали назорат қилиш ҳам мумкин бўлмайди. Қарорларнинг ижросини тизимли равишда ўз вақтида таъминлаш масаласи ҳам шу омиллар занжирига киритилган ҳар бир элементига боғлиқ. Шу туфайли тўғри қарор қабул қилиш учун тўғри маълумтлрнинг бўлиши ўта муҳим ҳисобланади.

Шу сабабли замонавий тадбиркор оддий ишбилармон эмас экан, балки унда иқтисодий билим, молиявий саводхонлик, рақамли технологиялардан фойдаланиш қобилияти, стратегик фикрлаш ва ўзгарувчан муҳитга мослаша олиш қобилиятининг мавжудлиги ҳам муҳим компетенциялар ҳисобланар экан.

Хулоса қалиб айтганда, таваккалчилик ва ноаниқлик тадбиркорлик фаолиятининг табиий ва ажралмас қисми бўлиб, ўзига хос хусусиятларидан биридир. Шу тариқа, таваккалчиликнинг мавжудлиги тадбиркорликни чекловчи омил эмас, аксинча, оқилона баҳоланган ва самарали бошқарилган таваккалчилик янги имкониятлар, инновациялар ва юқори иқтисодий натижаларга олиб келиши мумкин бўлган катта имкониятлардир.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, таваккалчилик ва ноаниқлик шароитида тадбиркорлик фаолиятини юритиш ҳамда тадбиркорлик фаолиятида муваффақият қозониш учун бир қанча тавсиялар ҳам ишлаб чиқилди. Булар:

Биринчидан, тадбиркорлик фаолиятида таваккалчиликнинг асосий 10 та турларини инобатга олиш масаласини амалиётга жорий қилиш мақсадга мувофиқ. Чунки, ушбу таваккалчиликни билган тадбиркор маълум даражада инқирозга учрайдиган бўлса, тегишли тайёргарликларини кўриш масалаларига ҳам эътибор қаратадиган бўлади.

Иккинчидан, таваккалчиликни бошқариш механизмларининг кетма-кетлигига амал қилган ҳолда улардан ҳам амалиётда фойдаланишни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқдир. Ушбу тадбирларинг ҳаммаси маълум даражада таваккалчиликни камайтиришга қаратилганлиги туфайли бир қанча усуллардан фойдаланилади. Ушбу усуллар таваккалчиликда хатарларнининг камайишига олиб келади.

Учинчидан, тадбиркорлик субъектларининг барқарор тараққиётини таъминлашнинг асосий шартларини белгилаш бўйича барча омиллардан имкон қаар фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Ушбу ҳолат бугунги кунда тадбиркор таваккалчиликдан сесканиб, ундан қочиш эмас, балки уни онгли равишда бошқариш маданиятини шакллантиришига даъват этади.

Тўртинчидан, ҳар бир тадбиркор тадбиркорлик фаолиятида муваффақият қозониш учун лозим бўлган омиллар занжирига амал қилишни йўлга қўйиш лозим, деб ҳисоблаймиз. Қарорларнинг ижросини тизимли равишда ўз вақтида таъминлаш масаласи ҳам шу олтита омиллар занжирига киритилган ҳар бир элементига боғлиқлиги туфайли тўғри қарор қабул қилиш учун тўғри маълумтлрнинг бўлишини таъминлашга хизмат қилади.

Умумий хулоса сифатида шуни таъкидлаш жоизки, мазкур илмий-амалий таклифларнинг амалиётг жорий қилиши мамлакатимизда амалга оширилаётган “Ўзбекистон - 2030” стратегиясида белгиланган вазифаларнинг тадбиркорликни такомиллаштириш орқали аҳолини иш билан банд қилиш, бандлик даражаси оширилади, шу йўл билан камбағалликни қисқартириб, фаровонликни оширишга хизмат қилади.

УЗОҚ МУДДАТЛИ АКТИВЛАР ҚАДРСИЗЛАНИШИНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ ВА УЛАРНИНГ ТАРМОҚ ХУСУСИЯТЛАРИ

Файзуллайев Бегзод Бахтиёр ўғли
мустақил изланувчи, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Аннотация. *Тезисда акциядорлик жамиятларида узоқ муддатли активлар қадрсизланишини келтириб чиқарувчи омиллар МҲХС 36 талаблари асосида ташқи ва ички ахборот манбалари кесимида таснифланган. Телекоммуникация, почта хизматлари, ахборот технологиялари ва суғурта соҳалари мисолида қадрсизланиш омилларининг тармоқ хусусиятлари очиб берилган ҳамда уларни ҳисоб амалиётида кузатиб боришнинг аҳамияти асосланган.*

Калит сўзлар: узоқ муддатли активлар, қадрсизланиш, МҲХС 36, ташқи ва ички омиллар, тармоқ хусусиятлари, қадрсизланиш индикаторлари, акциядорлик жамиятлари, ҳисоб сиёсати.

Жаҳон иқтисодиётида технологик янгиланишнинг жадаллашуви, бозор конъюнктурасининг ўзгарувчанлиги ва геосиёсий беқарорлик шароитида узоқ муддатли активларнинг баланс қиймати уларнинг реал иқтисодий салоҳиятидан сезиларли фарқ қилиши мумкин. Халқаро «Audit Analytics» компанияси маълумотларига кўра, 2018 йилда жаҳон миқёсида асосий воситаларнинг қадрсизланиши қарийб 49,0 млрд АҚШ долларини ташкил этган бўлса, 2020 йилга келиб ушбу кўрсаткич 200,0 млрд доллардан ошган. Бу рақамлар қадрсизланишни ўз вақтида аниқлаш молиявий ҳисобот ишончлилигининг муҳим шарти эканлигини кўрсатади.

МҲХС 36 «Активларнинг қадрсизланиши» талабларига мувофиқ, хўжалик юритувчи субъект ҳар бир ҳисобот санасида активнинг қадрсизланиш белгилари мавжудлигини баҳолаши шарт. Ушбу баҳолашнинг сифати, энг аввало, қадрсизланишни келтириб чиқарувчи омилларнинг тўғри таснифланишига боғлиқ. Стандарт омилларни икки гуруҳга ажратади: ташқи ахборот манбалари асосида аниқланадиган омиллар ва ички ахборот манбалари асосида аниқланадиган омиллар.

Ташқи омиллар гуруҳига қуйидагилар киради: актив бозор қийматининг одатдаги фойдаланишдан кутилганидан сезиларли кўпроқ пасайиши; субъект фаолият юритаётган технологик, бозор, иқтисодий ёки ҳуқуқий муҳитдаги салбий ўзгаришлар; бозор фоиз ставкалари ва капитал даромадлилик меъёрларининг ошиши (бу дисконт ставкасини оширади ва

фойдаланиш қийматини пасайтиради); субъект соф активлари баланс қийматининг унинг бозор капиталлашувидан юқори бўлиши. Ушбу омилларни кузатиш учун бозор котировкалари, тармоқ шарҳлари, Марказий банк ставкалари ва фонд биржаси маълумотлари асосий ахборот манбалари ҳисобланади.

Ички омиллар гуруҳини активнинг жисмоний эскириши ёки шикастланиши; активнинг маънавий (технологик) эскириши; активдан фойдаланиш кўлами ва усулидаги салбий ўзгаришлар (бекор туриш, фаолиятни қисқартириш ёки қайта ташкил этиш режалари); активнинг иқтисодий самарадорлиги кутилганидан паст эканлигини кўрсатувчи ички ҳисобот маълумотлари ташкил этади. Бу омиллар техник ҳолат далолатномалари, инвентаризация натижалари, ишлаб чиқариш ҳисоботлари ва бошқарув ҳисоботи орқали кузатилади.

Тадқиқотимиз кўрсатишича, қадрсизланиш омилларининг намоён бўлиш шакли ва жадаллиги тармоқ хусусиятларига бевосита боғлиқ. Тўртта стратегик соҳада фаолият юритувчи акциядорлик жамиятлари — «Ўзбектелеком» АК, «Ўзбекистон почтаси» АЖ, «UNICON.UZ» АЖ ва «ALSKOM СУҒУРТА КОМПАНИЯСИ» АЖ мисолида ўтказилган таҳлил ҳар бир тармоқ учун етакчи қадрсизланиш омиллари фарқланишини аниқлади (1-жадвал):

1-жадвал

Қадрсизланиш омилларининг тармоқ хусусиятлари

Тармоқ	**Етакчи қадрсизланиш омиллари**	**Кузатиладиган индикаторлар**
Телекоммуникация	Технологик авлодлар алмашинуви (2G/3G тармоқларининг 4G/5G билан сиқиб чиқарилиши), рақобатнинг кучайиши	Технология авлоди бўйича трафик улуши; ARPU динамикаси; эски авлод ускуналари юкланиши
Почта хизматлари	Хизматларнинг электронлашуви, анъанавий ёзишмалар ҳажмининг қисқариши	Ёзма жўнатмалар ҳажми; саралаш қувватларидан фойдаланиш даражаси; филиаллар рентабеллиги
Ахборот технологиялари	Дастурий маҳсулотлар ҳаётий циклининг қисқариши, платформаларнинг янгиланиши	Дастурий таъминотнинг қолдиқ фойдали хизмат муддати; буюртмалар портфели динамикаси
Суғурта	Инвестицион активлар даромадлилигининг ўзгарувчанлиги, рақамли каналларга ўтиш	Кўчмас мулк бозор қиймати ва ижара даромадлари; офис майдонларидан фойдаланиш даражаси

Манба: муаллиф ишланмаси.

Тармоқ хусусиятларини ҳисобга олиш қадрсизланиш белгиларини баҳолашда расмиятчиликдан амалий мазмунга ўтиш имконини беради. Универсал рўйхат бўйича текшириш кўп ҳолларда «белгилар аниқланмади»

деган юзаки хулосага олиб келса, тармоққа мослаштирилган индикаторлар тизими муаммоли активларни аниқ кўрсатиб беради. Масалан, телекоммуникация операторида эски авлод тармоғи трафигининг изчил пасайиши айни шу авлод ускуналари бўйича қадрсизланиш тестини ўтказиш учун бевосита асосдир, ҳолбуки жамият бўйича умумий даромадлар ўсиб бориши мумкин.

Омиллар таснифининг амалий аҳамияти яна шундаки, у мониторинг жараёнини ташкил этиш учун асос бўлади: ҳар бир омил гуруҳи учун ахборот манбаси, масъул бўлинма ва кузатув даврийлиги белгиланади. Ташқи омиллар бўйича маълумотларни молия-иқтисод хизмати, ички омиллар бўйича маълумотларни техник хизматлар ва бухгалтерия тўплаши, умумлаштириш эса молиявий ҳисобот гуруҳи зиммасига юклатилиши мақсадга мувофиқ. Шу тариқа таснифлаш қадрсизланишни бошқаришнинг бошланғич бўғинига айланади.

Хулоса қилиб айтганда, узоқ муддатли активлар қадрсизланишини келтириб чиқарувчи омилларни ташқи ва ички ахборот манбалари кесимида тизимлаштириш ҳамда уларни тармоқ хусусиятларига мослаштириш қадрсизланиш белгиларини ўз вақтида аниқлаш, молиявий ҳисоботда активларнинг реал қийматини акс эттириш ва ҳисобот фойдаланувчиларини ишончли ахборот билан таъминлашнинг зарурий шартидир.

Таклиф ва тавсиялар:

1. (Илмий-назарий) Узоқ муддатли активлар қадрсизланишини келтириб чиқарувчи омилларни МҲХС 36 асосида ташқи ва ички ахборот манбалари кесимида тизимлаштириш ҳамда уларни тармоққа мослаштирилган индикаторлар тизими орқали конкретлаштириш — бу қадрсизланиш белгиларини баҳолашда расмиятчиликдан амалий мазмунга ўтишни таъминлайди.

2. (Амалий) Акциядорлик жамиятларига қадрсизланиш омилларининг тармоққа мослаштирилган таснифини ҳисоб сиёсати таркибида мустаҳкамлаш тавсия этилади.

3. (Амалий) Ҳар бир омил гуруҳи учун ахборот манбаси, масъул бўлинма ва кузатув даврийлигини белгилаган ҳолда қадрсизланиш мониторинги тизимини жорий этиш; ташқи омилларни молия-иқтисод хизмати, ички омилларни техник хизматлар ва бухгалтерия кузатиб бориши, умумлаштиришни молиявий ҳисобот гуруҳи бажариши тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. International Accounting Standard 36 «Impairment of Assets». – London: IFRS Foundation, 2023.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. – www.lex.uz.

3. Audit Analytics (2021). Long-lived asset impairments: a ten-year review. – Sutton: Audit Analytics, 2021.

4. Amiraslani H., Iatridis G.E., Pope P.F. Accounting for asset impairment: a test for IFRS compliance across Europe. – London: Cass Business School, 2013.

5. Каримов А.А., Исломов С.И., Авлоқулов А.З. Молиявий ҳисоб. Дарслик. – Тошкент: «Иқтисодиёт», 2022.

УЗОҚ МУДДАТЛИ АКТИВЛАРНИНГ ҲАҚҚОНИЙ ҚИЙМАТИНИ АНИҚЛАШ ЁНДАШУВЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ҚАДРСИЗЛАНИШ ТЕСТИДАГИ ЎРНИ

Файзуллайев Бегзод Бахтиёр ўғли
мустақил изланувчи, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Аннотация. *Тезисда узоқ муддатли активларнинг ҳаққоний қиймати тушунчаси МҲХС 13 ва миллий баҳолаш стандартлари контекстида таҳлил қилинган. Ҳаққоний қийматни аниқлашнинг бозор, харажат ва даромад ёндашувлари ҳамда уларнинг қадрсизланиш тестида қопланадиган қийматни шакллантиришдаги ўрни очиб берилган. Миллий амалиётда баҳолаш ёндашувларини қўллашнинг муаммолари ва уларни ҳал этиш йўллари асосланган.*

Калит сўзлар: ҳаққоний қиймат, узоқ муддатли активлар, МҲХС 13, қопланадиган қиймат, бозор ёндашуви, харажат ёндашуви, даромад ёндашуви, қадрсизланиш тести, дисконтланган пул оқимлари (DCF).

Қадрсизланиш тестининг марказий тушунчаси — қопланадиган қиймат — икки катталикнинг каттаси сифатида аниқланади: сотиш харажатлари чегирилган ҳаққоний қиймат ва фойдаланиш қиймати. Демак, ҳаққоний қийматни тўғри аниқлаш қадрсизланиш суммасининг тўғрилигини белгиловчи таянч омиллардан биридир. МҲХС 13 «Ҳаққоний қийматни баҳолаш»га мувофиқ ҳаққоний қиймат — баҳолаш санасида бозор иштирокчилари ўртасидаги одатдаги битимда активни сотишда олинадиган нарх, яъни «чиқиш нархи»дир.

Миллий амалиётда баҳолаш фаолияти ягона миллий баҳолаш стандартлари асосида тартибга солинади ва уларда қийматнинг ўн икки хил базаси — бозор қиймати, адолатли (ҳаққоний) қиймат, инвестицион қиймат, синергик қиймат, ликвидацион қиймат ва бошқалар фарқланади. Қадрсизланиш тести мақсадида айнан ҳаққоний қиймат базаси қўлланилиши, бошқа базалар билан алмаштирилмаслиги муҳим: масалан, инвестицион қиймат муайян инвесторнинг индивидуал манфаатларини акс эттиргани учун у бозор иштирокчилари нуқтаи назарини ифодаловчи ҳаққоний қийматдан юқори чиқиши ва қадрсизланишни яшириши мумкин.

Ҳаққоний қийматни аниқлашда учта асосий ёндашув қўлланилади. Бозор ёндашуви айнан ўхшаш ёки таққосланадиган активлар бўйича бозор битимлари нархларига асосланади ва фаол бозор мавжуд бўлганда энг ишончли натижани беради. Унинг қўлланилишидаги асосий муаммо — узоқ муддатли ихтисослашган активлар (телекоммуникация ускуналари, саралаш мажмуалари ва ҳ.к.) учун фаол бозорнинг мавжуд эмаслиги. Харажат

ёндашуви активни қайта яратиш ёки алмаштириш харажатларидан жисмоний, функционал ва иқтисодий эскиришни чегириш орқали қийматни аниқлайди; у ихтисослашган активлар учун кенг қўлланилади, бироқ эскиришни баҳолашда субъективлик хатарини ўз ичига олади. Даромад ёндашуви актив келтирадиган кутилаётган даромадларни жорий қийматга келтиришга асосланади ва даромад келтирувчи активлар учун энг мос ҳисобланади.

2-жадвал

Баҳолаш ёндашувларининг қиёсий тавсифи ва қадрсизланиш тестидаги ўрни

Ёндашув	**Афзалликлари**	**Чекловлари**	**Қадрсизланиш тестида қўлланилиши**
Бозор	Бозор маълумотларига бевосита таяниши; объективлик	Ихтисослашган активлар учун фаол бозор йўқлиги	Ҳаққоний қийматни аниқлашда биринчи даражали манба (1-даража маълумотлари)
Харажат	Ихтисослашган активларга қўлланувчанлиги	Эскиришни баҳолашдаги субъективлик	Бозор маълумотлари мавжуд бўлмаганда ҳаққоний қийматни баҳолаш
Даромад	Активнинг иқтисодий салоҳиятини акс эттириши	Прогноз ва дисконт ставкасига сезгирлик	Фойдаланиш қийматини ҳисоблашнинг асосий усули (DCF)

Манба: муаллиф ишланмаси.

Қадрсизланиш тестида ёндашувларнинг ўзаро муносабати қуйидагича шаклланади. Сотиш харажатлари чегирилган ҳаққоний қиймат, имкон қадар, бозор ёндашуви асосида аниқланади; бозор маълумотлари мавжуд бўлмаганда харажат ёки даромад ёндашувига ўтилади, бунда МҲХС 13 даги уч даражали иерархияга риоя этилади. Фойдаланиш қиймати эса доимо даромад ёндашуви — дисконтланган пул оқимлари (DCF) модели — асосида ҳисобланади. Қопланадиган қиймат икки катталикнинг каттаси бўлгани учун амалиётда кўп ҳолларда иккала йўналиш ҳам ҳисобланиб, натижалар таққосланади.

Миллий амалиётда баҳолаш ёндашувларини қўллашда бир қатор муаммолар кузатилмоқда. Биринчидан, ихтисослашган активлар учун таққосланадиган бозор битимлари маълумотлар базаси шаклланмаган, бу бозор ёндашувининг қўлланилишини чеклайди. Иккинчидан, харажат ёндашувида иқтисодий эскириш кўп ҳолларда умуман баҳоланмайди, натижада қиймат ошириб кўрсатилади. Учинчидан, даромад ёндашувида дисконт ставкасини миллий капитал бозори шароитига мослаштириш услубияти бирхиллаштирилмаган.

Ҳаққоний қийматни аниқлашда мустақил баҳоловчиларни жалб этиш масаласи ҳам муҳим. Йирик ва мураккаб активлар бўйича профессионал баҳоловчининг хулосаси баҳолашнинг ишончлилигини оширади, бироқ бухгалтерия ва аудит нуқтаи назаридан баҳоловчи ҳисоботи танқидий баҳоланиши лозим: қўлланилган қиймат базаси, ёндашувлар, фаразлар ва

маълумотлар манбалари МҲХС талабларига мувофиқлиги текширилади. Акс ҳолда баҳоловчи ҳисоботига кўр-кўрона таяниш қадрсизланиш суммасининг бузилишига олиб келиши мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, ҳаққоний қиймат қадрсизланиш тестининг таянч катталиги бўлиб, уни аниқлашда бозор, харажат ва даромад ёндашувларининг тўғри танланиши ва изчил қўлланилиши ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

Таклиф ва тавсиялар:

1. (Илмий-назарий) Қадрсизланиш тестида қопланадиган қийматни аниқлашда МҲХС 13 нинг уч даражали иерархиясига риоя этган ҳолда бозор, харажат ва даромад ёндашувларини изчил қўллаш; қиймат базаси сифатида айнан ҳаққоний (адолатли) қийматдан фойдаланиб, уни бошқа базалар (инвестицион, синергик ва ҳ.к.) билан алмаштирмаслик тавсия этилади.

2. (Амалий) Акциядорлик жамиятларининг ҳисоб сиёсатида ҳаққоний қийматни аниқлаш ёндашувларини танлаш мезонлари, мустақил баҳоловчиларни жалб этиш ҳолатлари ва баҳолаш натижаларини танқидий текшириш тартибини белгилаш тавсия этилади — бу қадрсизланиш ҳисобининг ишончлилиги ва давридан-даврга изчиллигини таъминлайди.

3. (Амалий) Баҳолаш ташкилотлари ва аудиторлик ҳамжамияти иштирокида ихтисослашган активлар бўйича тармоқлараро бозор битимлари маълумотлар базаларини шакллантириш ҳамда баҳолаш ҳисоботларига қўйиладиган талабларни МҲХС 13 билан уйғунлаштириш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. International Financial Reporting Standard 13 «Fair Value Measurement». – London: IFRS Foundation, 2023.

2. International Accounting Standard 36 «Impairment of Assets». – London: IFRS Foundation, 2023.

3. Hitchner J.R. Financial valuation: applications and models. 4th edn. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2017.

4. Koller T., Goedhart M., Wessels D. Valuation: measuring and managing the value of companies. 7th edn. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2020.

5. Ибрагимов А.К. ва бошқалар. Бухгалтерия ҳисоби ва аудит: назария ва амалиёт. Монография. – Тошкент: «Иқтисод-молия», 2021.

Bo‘stonov Mansurjon Mardonaqulovich
Namangan davlat texnika universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
Tel.: +998 94 300-01-10
Inomov Sardor Abdusalomovich
Namangan davlat texnika universiteti assistenti
Tel.: +998 93 231-14-48
Xaydarova Nigora Baxromjonovna
Namangan viloyati Yashil texnikumi
Tel.: +998 94 053-08-80;
e-mail: haydarovanigora50@gmail.com
Inomov Hasanboy Abdusalom o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo’nalishi
2 kurs magistranti

SUN’IY INTELLEKT QO‘LLANILADIGAN AUDITDA MA’LUMOTLAR VA AUDITORLIK DALILLARI ISHONCHLILIGINI TA’MINLASH

Annotatsiya. Tezisda sun’iy intellekt vositalaridan foydalaniladigan auditda ma’lumot va dalillar ishonchliligini ta’minlash mexanizmi taklif etilgan. Ma’lumotlar kelib chiqishi, model riski, natijani inson tomonidan tekshirish, maxfiylik, tushuntirish imkoniyati va hujjatlashtirish talablari tizimlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, audit, auditorlik dalili, ma’lumot sifati, model riski, kasbiy skeptitsizm, inson nazorati.

Sun’iy intellekt katta hajmdagi operatsiyalarni tahlil qilish, g‘ayrioddiy yozuvlarni aniqlash va hujjatlar mazmunini tezkor taqqoslash imkonini beradi. Biroq algoritm chiqargan natija o‘z-o‘zidan auditorlik dalili hisoblanmaydi. Natijaning ishonchliligi kiruvchi ma’lumot sifati, model cheklovlari, qo‘llangan mezon va auditorning kasbiy mulohazasiga bog‘liq.

Xalqaro audit standartlari auditordan yetarli va mos dalil olishni, axborot manbasining ishonchliligini baholashni hamda kasbiy skeptitsizmni saqlashni talab qiladi [1]. IAASB texnologiya va innovatsiyadan foydalanishni qo‘llab-quvvatlar ekan, standartlarning texnologiyaga nisbatan moslashuvchan qo‘llanishi va audit sifati ustuvorligini ta’kidlaydi [2]. Shu sababli sun’iy intellekt tezlikni oshirishi mumkin, ammo auditor javobgarligini algoritmga o‘tkazmaydi.

Taklif etilayotgan mexanizmning birinchi bosqichi ma’lumotlar pasportini tuzishdan iborat. Unda manba tizimi, ma’lumot egasi, qamrab olingan davr, to‘liqlik nazorati, maydonlar ta’rifi, tozalash va transformatsiya qadamlari qayd etiladi. Bosh kitobdan olingan yozuvlar nazorat summasi orqali moliyaviy hisobot bilan muvofiqlashtirilmasa, keyingi tahlil natijasi ishonchli bo‘lmaydi.

Ikkinchi bosqichda model vazifasi va qo‘llanish chegarasi belgilanadi. Masalan, algoritm takroriy to‘lov, ish vaqtidan tashqari kiritilgan o‘tkazma yoki g‘ayrioddiy kontragentni belgilashi mumkin. Bunday signal qoidabuzarlik xulosasi emas, qo‘shimcha tekshiruv uchun tanlanma elementidir. Noto‘g‘ri ijobiy va noto‘g‘ri salbiy natijalar xavfi alohida baholanadi.

Uchinchi bosqich inson nazoratini nazarda tutadi. Auditor algoritm belgilagan operatsiyani dastlabki hujjat, shartnoma, bank ma’lumoti va vakolatlar

bilan tekshiradi. Model natijasi biznes mantig‘iga zid bo‘lsa, sababni izohlash va alternativ amal bajarish zarur. Muhim xulosa faqat avtomatik ball yoki generativ matnga asoslanmasligi kerak.

To‘rtinchi bosqichda model validatsiyasi o‘tkaziladi. Qoidalar va parametrlar oldindan belgilangan test ma’lumotida sinovdan o‘tkaziladi, natija oddiy tanlanma hamda auditor xulosasi bilan solishtiriladi. Model versiyasi, sozlamalar va o‘zgarish sanasi saqlansa, keyinchalik bir xil ma’lumotdan nega boshqacha natija chiqqanini tushuntirish mumkin bo‘ladi.

Generativ sun’iy intellektdan foydalanishda uydirma manba va ishonchsiz iqtibos xavfi yuqori. Auditor yaratilgan matndagi har bir standart talabi, raqam va tashqi faktni asl manba bilan tekshirishi lozim. Maxfiy mijoz ma’lumotini umumiy ochiq servisga yuklash taqiqlanishi, tasdiqlangan korporativ muhit va ma’lumotni minimallashtirish qoidalari qo‘llanishi kerak.

Tushuntirish imkoniyati audit hujjatlashtirishining muhim qismi hisoblanadi. Ishchi hujjatda nega aynan shu vosita tanlangani, qaysi ma’lumot ishlatilgani, qanday chegara qo‘llangani, qaysi signallar tekshirilgani va auditor qanday xulosaga kelgani ko‘rsatiladi. “Algoritm shunday ko‘rsatdi” degan izoh tajribali auditorga bajarilgan ishni tushunish uchun yetarli emas.

Maxfiylik va kiberxavfsizlik nazoratlari foydalanuvchi huquqlari, shifrlash, jurnallash, ma’lumotni saqlash muddati va provayder shartlarini qamrab oladi. Tashqi vositadan foydalanilganda ma’lumot qaerda saqlanishi, model o‘qitish uchun ishlatilishi yoki uchinchi tomonga berilishi mumkinligi shartnoma asosida baholanadi.

1-jadval

Sun’iy intellekt qo‘llaniladigan auditda risk va nazoratlar

Risk	Namoyon bo‘lishi	Nazorat chorasi	Tasdiqlovchi dalil
Ma’lumot to‘liq emas	Ayrim operatsiyalar tahlilga kirmay qoladi	Nazorat summasi va qamrov testini bajarish	Muvofiqlashtirish bayonnomasi
Model og‘ishi	Signallar muayyan guruhga nisbatan noto‘g‘ri shakllanadi	Test tanlanmasi va davriy validatsiya	Validatsiya hisoboti
Uydirma natija	Generativ vosita noto‘g‘ri fakt yoki manba beradi	Asl manba bilan majburiy tekshirish	Manbaga havolali ishchi hujjat
Maxfiylik buzilishi	Mijoz ma’lumoti tashqi muhitga chiqadi	Tasdiqlangan muhit va ma’lumotni minimallashtirish	Kirish va yuklash jurnali
Izohlanmas qaror	Auditor algoritm natijasini asoslay olmaydi	Inson ko‘rib chiquvi va qaror sababini yozish	Imzolangan auditor xulosasi

Jadval sun’iy intellekt natijasini mustaqil xulosa emas, tekshirilishi lozim bo‘lgan tahliliy signal sifatida talqin qiladi. Eng muhim nazoratlar ma’lumot qamrovini tasdiqlash, model validatsiyasi, asl manba bilan tekshirish va insonning yakuniy qaror uchun javobgarligini hujjatlashtirishdan iborat.

Amaliy tavsiya sifatida auditorlik tashkilotida «maqsad — ma’lumot pasporti — model versiyasi — signal — inson tekshiruvi — dalil — xulosa»

reestrini joriy etish taklif qilinadi. Yuqori ta’sirli vazifalar uchun majburiy ikkinchi ko‘rib chiqish, tasdiqlangan vositalar ro‘yxati va xodimlar uchun ma’lumotlar savodxonligi hamda AI etikasi bo‘yicha o‘quv dasturi tashkil etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. IAASB. Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. 2025 Edition. New York: IFAC, 2025. https://www.iaasb.org/publications/2025-handbook-international-quality-management-auditing-review-other-assurance-and-related-services
2. IAASB. Technology Position: Eight Actions to Embrace Technology and Innovation. New York: IFAC, 2024. https://www.iaasb.org/focus-areas/technology
3. IFAC. Digital Transformation & Innovation in Auditing: Insights from a Review of Academic Research. 2022. https://www.ifac.org/knowledge-gateway/discussion/digital-transformation-innovation-auditing-insights-review-academic-research
4. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 25 fevraldagi O‘RQ-677-son «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/5307886

Xaydarova Nigora Baxromjonovna
Namangan viloyati Yashil texnikumi
Tel.: +998 94 053-08-80;
e-mail: haydarovanigora50@gmail.com
Inomov Hasanboy Abdusalom o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo’nalishi 2 kurs magistranti

KORXONALAR FAOLIYATINI RISKKA ASOSLANGAN AUDITORLIK TAHLILIDAN O‘TKAZISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada korxona faoliyatini riskka asoslangan yondashuvda auditorlik tahlilidan o‘tkazishning bosqichli uslubiyati taklif etilgan. Unda biznesni tushunish, muhim noto‘g‘ri aks ettirish risklarini aniqlash, ko‘rsatkichlarni tahliliy baholash, auditorlik dalillarini yig‘ish va yakuniy reyting berish jarayonlari o‘zaro bog‘langan. Mualliflar risk, muhimlik va auditorlik javob choralarini yagona matritsada birlashtirishni asoslaydi.

Kalit so‘zlar: auditorlik tahlili, riskka asoslangan audit, muhimlik, auditorlik dalili, tahliliy amallar, moliyaviy hisobot, auditorlik bahosi.

Bozor munosabatlari chuqurlashib, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ko‘lami va murakkabligi ortib borayotgan sharoitda auditorning vazifasi moliyaviy hisobotlarda uchraydigan arifmetik xatolarni aniqlash bilangina cheklanmaydi. Zamonaviy audit jarayonida korxonaning biznes modeli, faoliyat yuritayotgan tashqi iqtisodiy muhiti, rahbariyat tomonidan qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari, moliyaviy strategiyasi hamda ichki nazorat tizimining samaradorligini kompleks o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu omillardagi mavjud kamchiliklar va zaif jihatlar buxgalteriya axborotining

to‘liqligi, haqqoniyligi hamda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining ishonchliligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli auditorlik tahlili faqat korxonaning moliyaviy holati va faoliyat natijalarini retrospektiv baholash bilan chegaralanmasdan, moliyaviy hisobotlarda muhim noto‘g‘ri aks ettirishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan risklarni oldindan aniqlash, ularning yuzaga kelish sabablari va ehtimoliy oqibatlarini baholashga yo‘naltirilishi lozim. Riskka asoslangan bunday yondashuv audit resurslarini yuqori xavf mavjud bo‘lgan yo‘nalishlarga jamlash, tegishli auditorlik dalillarini to‘plash hamda asoslangan auditorlik fikrini shakllantirish imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni mamlakatimizda auditorlik faoliyatini tartibga solish, audit tekshiruvlarini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etish va auditorlik xizmatlari sifatini oshirish uchun zarur huquqiy zamin yaratadi [1].

Xalqaro audit standartlarida riskka asoslangan yondashuv, avvalo, ISA 315 va ISA 330 talablari orqali o‘z ifodasini topadi. ISA 315 auditordan xo‘jalik yurituvchi subyekt va uning faoliyat muhitini, biznes jarayonlarini, qo‘llanilayotgan axborot tizimini, moliyaviy hisobotni shakllantirish tartibini hamda ichki nazorat tizimini yetarli darajada tushunishni talab qiladi. Bunday o‘rganish moliyaviy hisobotning umumiy darajasida va alohida tasdiqlar kesimida muhim noto‘g‘ri aks ettirish risklarini aniqlash hamda baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Auditor ushbu jarayonda nafaqat hisob ma’lumotlarini, balki korxonaning tashkiliy tuzilmasi, mulkchilik shakli, daromad olish modeli, tashqi iqtisodiy omillar va rahbariyat qarorlarining moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’sirini ham tahlil qilishi lozim. ISA 330 esa aniqlangan va baholangan risklarga javoban auditor tomonidan tegishli amallarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishni nazarda tutadi [2]. Mazkur amallar nazorat vositalarini testdan o‘tkazish, operatsiyalar va hisobvaraqlar qoldiqlarini mohiyati bo‘yicha tekshirish, tashqi tasdiqlar olish, qayta hisoblash hamda tahliliy amallarni bajarishni qamrab olishi mumkin. Demak, auditorlik tahlilining har bir natijasi shunchaki qayd etilib qolmasdan, keyingi auditorlik amallarining xususiyati, bajarilish muddati va hajmini belgilashga xizmat qilishi kerak. Risk darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, auditorlik dalillarining ishonchliligi va yetarliligiga qo‘yiladigan talab ham shunchalik kuchayadi. Shu tariqa, ISA 315 asosida risklarni aniqlash va baholash hamda ISA 330 asosida ularga munosib javob choralarini belgilash o‘zaro bog‘liq, uzluksiz auditorlik jarayonini shakllantiradi.

Taklif etilayotgan uslubiyat besh bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda tarmoq, bozor, raqobat, ta’minot zanjiri, mulkchilik va boshqaruv tuzilmasi o‘rganiladi. Ikkinchi bosqichda hisobot moddalari bo‘yicha ajralmas risk va nazorat riski baholanadi. Uchinchi bosqichda gorizontal, vertikal, trend va koeffitsient tahlili o‘tkaziladi. To‘rtinchi bosqichda aniqlangan og‘ishlarga nisbatan testlar va mohiyatan tekshirish amallari bajariladi. Beshinchi bosqichda topilmalar umumlashtirilib, auditorlik bahosi shakllantiriladi.

Auditorlik jarayonida aniqlangan risklarni miqdoriy baholash uchun $R = E \times N \times O$ ko‘rinishidagi integral yondashuvdan foydalanish mumkin. Mazkur formulada R — riskning umumiy darajasini, E — noto‘g‘ri aks ettirish yoki salbiy

hodisaning yuz berish ehtimoli koeffitsientini, N — ushbu hodisaning moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga ta’sir darajasini, O esa ichki nazorat vositalarining ojizligi koeffitsientini ifodalaydi. Ushbu omillarning o‘zaro ko‘paytirilishi auditor uchun riskning faqat yuzaga kelish ehtimolini emas, balki uning moliyaviy oqibatlari va amaldagi nazorat tizimi orqali oldini olish imkoniyatini ham kompleks baholashga yordam beradi.

Har bir ko‘rsatkichni 1 dan 5 gacha bo‘lgan ball asosida baholash maqsadga muvofiq. Bunda 1 ball eng past, 5 ball esa eng yuqori darajani anglatadi. Hisoblash natijasida riskning integral qiymati 1 balldan 125 ballgacha shakllanadi. Olingan natijalar 1–20 ball oralig‘ida bo‘lsa past, 21–50 ball oralig‘ida bo‘lsa o‘rta, 51–125 ball oralig‘ida bo‘lsa yuqori risk sifatida tasniflanadi. Masalan, hodisaning yuz berish ehtimoli 4 ball, moliyaviy ta’siri 5 ball va nazoratning ojizligi 3 ball deb baholansa, umumiy risk 60 ballni tashkil etadi. Bu holat yuqori risk toifasiga kiradi va auditorlik amallarini kengaytirishni talab qiladi.

Risk darajalarining bunday tasnifi auditorlik resurslarini oqilona taqsimlash, tekshiruvning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash hamda auditorlik amallarining xususiyati, muddati va hajmini belgilash imkonini beradi. Past riskli sohalarda standart tahliliy amallar yetarli bo‘lishi mumkin. O‘rta risk aniqlangan yo‘nalishlarda qo‘shimcha tekshiruvlar va tanlama hajmini oshirish talab etiladi. Yuqori riskli sohalarda esa batafsil auditorlik testlarini o‘tkazish, ishonchli tashqi dalillarni olish va ichki nazorat vositalarining amaliy samaradorligini chuqur tekshirish zarur bo‘ladi. Shu bilan birga, keltirilgan ballar va chegaralar qonunchilik yoki xalqaro audit standartlarida belgilangan majburiy norma hisoblanmaydi. Ular korxonaning faoliyat turi, hajmi, tashkiliy tuzilmasi, ichki nazorat muhiti va auditorning professional mulohazasiga muvofiq moslashtiriladigan ichki uslubiy mezon sifatida qo‘llaniladi.Tahliliy amallarda tushum o‘sishi bilan debitorlik qarzi, zaxiralar va operatsion pul oqimi dinamikasi o‘zaro solishtirilishi muhim. Masalan, tushum oshgan holda operatsion pul oqimining pasayishi yoki debitorlik qarzining keskin ko‘payishi daromadni muddatidan oldin tan olish ehtimolini ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, yalpi marja, aktivlar rentabelligi, joriy likvidlik va qarz yuki tarmoq o‘rtacha ko‘rsatkichlari hamda o‘tgan davr bilan taqqoslanadi. G‘ayrioddiy farqlar auditorlik tanlanmasini kengaytirish uchun signal vazifasini bajaradi.

Auditorlik dalilining yetarliligi va mosligi risk darajasiga mutanosib bo‘lishi lozim. Yuqori riskli sohalarda tashqi tasdiq, qayta hisoblash, hujjatlarni kesishuv usulida tekshirish va axborot tizimi jurnallarini tahlil qilish ustuvor bo‘ladi. Past riskli sohalarda esa tahliliy amallar va cheklangan tanlanma yetarli bo‘lishi mumkin. Bu yondashuv resurslarni xavfi yuqori uchastkalarga yo‘naltirib, audit samaradorligini oshiradi.

Yakuniy baholash uchun 100 ballik reyting taklif etiladi: moliyaviy barqarorlik — 25 ball, hisob va hisobot sifati — 25 ball, ichki nazorat samaradorligi — 25 ball, qonunchilik va shartnoma intizomi — 15 ball, axborot tizimlari ishonchliligi — 10 ball. Reyting auditorlik fikrining o‘rnini bosmaydi; u rahbariyatga korxonadagi ustuvor muammolarni tushunarli shaklda ko‘rsatuvchi boshqaruv vositasidir.

Xulosa qilib aytganda, auditorlik risklari, tahliliy ko‘rsatkichlar va auditorlik dalillarini yagona mantiqiy zanjir asosida o‘zaro bog‘lash korxona faoliyatiga beriladigan bahoning aniqligi, xolisligi va asoslanganligini kuchaytiradi. Bunday yondashuv auditorning aniqlangan risklardan yakuniy xulosagacha bo‘lgan barcha harakatlarini izchil hujjatlashtirishga xizmat qiladi. Natijada auditorlik tekshiruvining har bir bosqichi oldingi bosqichda olingan ma’lumotlarga asoslanadi, aniqlangan muammo esa tegishli auditorlik amali va yetarli dalillar bilan tasdiqlanadi. Bu auditorlik fikrini shakllantirish jarayonining shaffofligini ta’minlab, subyektiv qarorlar qabul qilish ehtimolini kamaytiradi.

Shu maqsadda amaliyotga «risk — moliyaviy hisobot moddasi — ichki nazorat vositasi — auditorlik amali — auditorlik dalili — yakuniy xulosa» elementlaridan iborat elektron matritsani joriy etish tavsiya etiladi. Matritsaning «risk» qismida aniqlangan xatolik yoki buzib ko‘rsatish ehtimoli, «moliyaviy hisobot moddasi» qismida ushbu risk ta’sir ko‘rsatadigan aktivlar, majburiyatlar, daromadlar yoki xarajatlar qayd etiladi. «Ichki nazorat vositasi» bo‘limida korxonada mazkur riskning oldini olish yoki uni aniqlash uchun mavjud nazorat tartiblari baholanadi. Keyingi bo‘limlarda auditor tomonidan bajarilgan amallar, olingan dalillar va ular asosida shakllantirilgan xulosalar aks ettiriladi.

Elektron matritsadan foydalanish har bir muhim auditorlik xulosasining qaysi risk, tahliliy natija va dalilga asoslanganini tezkor kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, u bir xil mazmundagi auditorlik amallarining takroriy bajarilishini qisqartiradi, vazifalarning auditorlar o‘rtasida aniq taqsimlanishini ta’minlaydi va tekshiruv vaqtini tejaydi. Matritsada dalilning manbasi, olingan sanasi, ishonchlilik darajasi va mas’ul auditor haqidagi ma’lumotlarning qayd etilishi auditorlik hujjatlari ustidan ichki sifat nazoratini kuchaytiradi. Natijada auditorlik fayllarining to‘liqligi oshadi, tekshiruv natijalarini qayta ko‘rib chiqish soddalashadi hamda auditorlik xulosasining yetarli va ishonchli dalillarga asoslanganligini tasdiqlash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 25 fevraldagi O‘RQ-677-son «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/5307886
2. IAASB. Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. 2025 Edition. New York: IFAC, 2025. https://www.iaasb.org/publications/2025-handbook-international-quality-management-auditing-review-other-assurance-and-related-services
3. IFAC. Digital Transformation & Innovation in Auditing: Insights from a Review of Academic Research. 2022. https://www.ifac.org/knowledge-gateway/discussion/digital-transformation-innovation-auditing-insights-review-academic-research

Inomov Sardor Abdusalomovich
Namangan davlat texnika universiteti assistenti
Tel.: +998 93 231-14-48
Inomov Hasanboy Abdusalom o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo’nalishi 2 kurs magistranti

MOLIYAVIY KOEFFITSIENTLAR VA TAHLILIY AMALLAR ASOSIDA KORXONAGA AUDITORLIK BAHOSINI BERISH MEXANIZMI

Annotatsiya. Tezisda korxona moliyaviy holatini auditorlik nuqtai nazaridan baholash uchun ko‘p mezonli mexanizm ishlab chiqilgan. Likvidlik, moliyaviy mustaqillik, ish faolligi, rentabellik va pul oqimi ko‘rsatkichlari muhimlik va risk bilan bog‘lanadi. Taklif etilgan mexanizm raqamli reytingni auditorning kasbiy mulohazasi bilan uyg‘unlashtiradi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy koeffitsient, tahliliy amal, likvidlik, rentabellik, pul oqimi, muhimlik, kasbiy mulohaza.

Korxona faoliyatiga auditorlik bahosini berishda faqat moliyaviy hisobotning alohida moddalari to‘g‘ri aks ettirilganini tekshirish yetarli hisoblanmaydi. Chunki moliyaviy hisobot yagona axborot tizimi bo‘lib, undagi aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar, xarajatlar va pul oqimlari o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikka ega. Bir ko‘rsatkichdagi o‘zgarish boshqa hisobot moddalari holatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sotish hajmining ortishi debitorlik qarzlari, ishlab chiqarish tannarxi, pul tushumlari va foyda ko‘rsatkichlaridagi mutanosib o‘zgarishlar bilan asoslanishi kerak. Agar tushum keskin oshgan bo‘lsa-yu, pul oqimlari va ishlab chiqarish hajmida tegishli o‘zgarish kuzatilmasa, mazkur holat auditor uchun qo‘shimcha tekshiruvni talab qiladigan risk belgisi hisoblanadi[1].

Shu sababli auditor hisobot ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi iqtisodiy va mantiqiy bog‘lanishlarni, ularning oldingi davrlarga nisbatan o‘zgarish sur’atlarini, budjet hamda prognoz ko‘rsatkichlaridan chetlanishini, shuningdek, korxonaning biznes modeli va faoliyat xususiyatlariga muvofiqligini kompleks baholashi lozim. Bunda g‘ayrioddiy o‘zgarishlar, kutilmagan nisbatlar, mavsumiy tendensiyalarga mos kelmaydigan natijalar va o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tafovutlarga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu tahlil auditorga ehtimoliy xatolar, firibgarlik alomatlari, samarasiz boshqaruv qarorlari va ichki nazorat tizimidagi kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi.

ISA 520 tahliliy amallarni moliyaviy va nomoliyaviy ma’lumotlar o‘rtasidagi ishonchli va mantiqiy munosabatlarni o‘rganish orqali amalga oshirishni nazarda tutadi [2]. Mazkur standartga muvofiq, auditor korxonaning joriy davr ko‘rsatkichlarini oldingi yillar natijalari, tasdiqlangan budjetlar, prognoz ma’lumotlari, tarmoq ko‘rsatkichlari va auditor tomonidan shakllantirilgan kutilmalar bilan taqqoslashi mumkin. Nomoliyaviy ma’lumotlar, jumladan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, xodimlar soni, ishlangan soatlar, foydalanilgan xomashyo miqdori va savdo nuqtalari soni ham moliyaviy ko‘rsatkichlarning haqqoniyligini baholashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Aniqlangan jiddiy

tafovutlar rahbariyat izohlari va tegishli auditorlik dalillari bilan asoslanmasa, auditor qo‘shimcha tekshiruv amallarini belgilashi zarur. Natijada tahliliy amallar moliyaviy hisobotdagi muhim noto‘g‘ri aks ettirish risklarini aniqlash, auditorlik tekshiruvi yo‘nalishlarini belgilash va korxona faoliyatiga asoslangan baho berishda muhim vosita vazifasini bajaradi.Baholash mexanizmining birinchi bloki moliyaviy barqarorlikni qamrab oladi. Joriy likvidlik, tezkor likvidlik, moliyaviy mustaqillik, qarz va kapital nisbati hamda foizlarni qoplash koeffitsienti hisoblanadi. Mezonlarni mexanik qo‘llash to‘g‘ri emas: mavsumiylik, tarmoq xususiyati, biznesning hayotiy sikli va kredit shartlari hisobga olinishi shart. Shuning uchun har bir koeffitsient korxonaning kamida uch yillik dinamikasi va taqqoslanadigan sub’ektlar bilan solishtiriladi.

Ikkinchi blok ish faolligi va daromad sifatini baholaydi. Debitorlik qarzining aylanish davri, zaxiralar aylanuvchanligi, aktivlar aylanuvchanligi, yalpi va operatsion marja tahlil qilinadi. Tushumning barqaror o‘sishi ijobiy ko‘rinish bersa-da, debitorlik qarzi undan tezroq o‘ssa, sotuvlar sifati bo‘yicha shubha paydo bo‘ladi. Foyda oshishi operatsion pul oqimi bilan tasdiqlanmasa, hisoblash usuli orqali natijani bezash xavfi mavjud bo‘lishi mumkin.

Uchinchi blokda auditor kutilmalar modelini tuzadi. Masalan, sotuv hajmi, o‘rtacha narx, ishlab chiqarish quvvati va mavsumiy indekslar asosida mustaqil tushum kutilmasi hisoblanadi. Aniq ko‘rsatkich bilan kutilma o‘rtasidagi farq auditor belgilagan yo‘l qo‘yiladigan chegaradan oshsa, sabablar hujjatlar va tashqi dalillar bilan tekshiriladi. Chegara umumiy muhimlikdan, hisobot moddasining riskidan va ma’lumotning ishonchlilik darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

Taklif etilayotgan reytingda moliyaviy barqarorlikka 30 foiz, faollik va daromad sifatiga 25 foiz, pul oqimiga 20 foiz, ichki nazoratga 15 foiz, qonunchilik va shartnoma intizomiga 10 foiz vazn beriladi. Har bir yo‘nalish 0–100 oralig‘ida baholanib, vaznlangan indeks hisoblanadi. 80–100 ball barqaror, 60–79 qoniqarli, 40–59 nazoratni kuchaytirish talab etiladigan, 40 dan past ko‘rsatkich esa yuqori xavfli holat sifatida talqin qilinadi.

Reyting natijasi avtomatik auditorlik fikri emas. Xalqaro standartlar bo‘yicha fikr moliyaviy hisobotda muhim noto‘g‘ri aks ettirish mavjud yoki mavjud emasligi haqida yetarli va mos dalil asosida shakllanadi [2]. Reyting esa rahbariyat va kuzatuv kengashi uchun diagnostik ma’lumot beradi. Shu sababli hisob-kitob natijasi kasbiy skeptitsizm, boshqaruv baholari va keyingi hodisalar tahlili bilan to‘ldirilishi lozim.

Koeffitsientlarning axborot qiymatini oshirish uchun ularni segmentlar kesimida hisoblash zarur. Umumiy korxona bo‘yicha qoniqarli rentabellik ayrim mahsulot, hudud yoki mijoz guruhidagi zararni yashirishi mumkin. Segment kesimidagi marja, qaytarishlar, chegirmalar va debitorlik qarzi tahlili yuqori riskli yo‘nalishlarni aniqlashga yordam beradi. Bunda boshqaruv hisobi ma’lumotlarining moliyaviy hisobot bilan muvofiqligi alohida tekshiriladi.

Nomoliyaviy ko‘rsatkichlar ham mustaqil kutilma tuzishda muhim manba hisoblanadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot birligi, energiya sarfi, xodimlar soni, savdo nuqtalari, yuk tashish hajmi yoki mijozlar soni tushum va xarajatlar dinamikasi bilan bog‘lanadi. Masalan, ishlab chiqarish hajmi o‘zgarmagan holda

xomashyo xarajatining keskin o‘sishi narx ta’siri, me’yordan ortiq sarf yoki hisob xatosini anglatishi mumkin. Auditor ushbu ehtimollarni qo‘shimcha dalillar orqali ajratadi.

Baholash natijalarini hujjatlashtirishda formula, ma’lumot manbasi, davr, taqqoslash bazasi va qo‘llangan chegara ko‘rsatilishi shart. Bu boshqa tajribali auditorga bajarilgan ish va chiqarilgan xulosani tushunish imkonini beradi. Koeffitsientni izohsiz keltirish yoki tarmoq me’yori manbasini ko‘rsatmaslik bahoning ishonchliligini pasaytiradi. Shu bois analitik pasportda har bir og‘ish bo‘yicha auditorning izohi va tasdiqlovchi hujjatga havola bo‘lishi lozim.

Mexanizmni axborot tizimida amalga oshirish uchun moliyaviy hisobot, bosh kitob, soliq hisoboti va bank aylanmalaridan ma’lumotlarni avtomatik yuklash tavsiya etiladi. Tizim chegaradan chiqqan ko‘rsatkichlarni belgilaydi, lekin xulosani auditor tasdiqlaydi. Har bir signal bo‘yicha manba, sabab, bajarilgan amal, olingan dalil va qaror elektron ishchi hujjatda saqlanadi.

Taklif va tavsiya sifatida korxonalar uchun tarmoq kesimida etalon koeffitsientlar bazasini shakllantirish, auditorlik tashkilotlarida yagona analitik pasport joriy etish va reyting o‘zgarishining sabablarini boshqaruv xatida ochib berish maqsadga muvofiq. Bu auditorlik bahosini shaffof, taqqoslanadigan va amaliy qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan vositaga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 25 fevraldagi O‘RQ-677-son «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/5307886
2. IAASB. Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. 2025 Edition. New York: IFAC, 2025. https://www.iaasb.org/publications/2025-handbook-international-quality-management-auditing-review-other-assurance-and-related-services
3. IFAC. Digital Transformation & Innovation in Auditing: Insights from a Review of Academic Research. 2022. https://www.ifac.org/knowledge-gateway/discussion/digital-transformation-innovation-auditing-insights-review-academic-research

Inomov Sardor Abdusalomovich
Namangan davlat texnika universiteti assistenti
Tel.: +998 93 231-14-48

OILAVIY TADBIRKORLIKDA RAQAMLI BUXGALTERIYA HISOBI VA SOLIQ INTIZOMINI TA’MINLASH YO‘LLARI

Annotatsiya. Tezisda oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarida raqamli buxgalteriya hisobini tashkil etish va soliq intizomini ta’minlashning bosqichli modeli taklif etilgan. Elektron dastlabki hujjat, bank va onlayn-kassa integratsiyasi, hisob ma’lumotlarini muvofiqlashtirish, kirish huquqlari va oylik yopish nazoratlari tizimlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy tadbirkorlik, raqamli buxgalteriya, soliq intizomi, elektron hujjat, onlayn-kassa, hisob siyosati, nazorat.

Oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarida hisob ko‘pincha soliq hisobotini topshirish vositasi sifatida qabul qilinadi. Natijada mahsulot tannarxi, mijozlar qarzi, zaxiralar aylanuvchanligi va pul oqimi haqida boshqaruv uchun zarur axborot shakllanmaydi. Raqamli buxgalteriya esa birlamchi hujjatdan moliyaviy va soliq hisobotigacha bo‘lgan ma’lumot oqimini tizimlashtirib, qaror qabul qilish tezligini oshiradi.

Oilaviy tadbirkorlikning huquqiy maqomi O‘RQ-327-son Qonun bilan, soliq majburiyatlari esa Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi [1; 2]. Raqamlashtirish sub’ektni qonunchilik talablaridan ozod etmaydi. Aksincha, elektron operatsiyalar iz qoldirgani sababli hujjatning mazmuni, sanasi, kontragenti va hisobda aks ettirish davri o‘zaro muvofiq bo‘lishi talab etiladi.

Taklif etilayotgan modelning birinchi bosqichida yagona hisob siyosati va hisob ob’ektlari ro‘yxati tasdiqlanadi. Tushum, xarid, zaxira, ish haqi, asosiy vosita, qarz va oila a’zolari bilan hisob-kitoblarni qay tartibda tan olish aniq belgilanadi. Korxona ehtiyojiga mos hisobvaraqlar rejasi ortiqcha detallashtirilmaydi, biroq shaxsiy va tadbirkorlik operatsiyalarini ajratish uchun yetarli analitika saqlanadi.

Ikkinchi bosqichda dastlabki hujjatlar elektronlashtiriladi. Shartnoma, hisob-faktura, qabul qilish dalolatnomasi, chek va to‘lov topshiriqnomasiga yagona operatsiya identifikatori beriladi. Hujjat skan-nusxasini saqlashning o‘zi yetarli emas: u buxgalteriya yozuvi va tegishli tovar yoki xizmat harakati bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

Uchinchi bosqich bank, onlayn-kassa, elektron hisob-faktura va buxgalteriya dasturi ma’lumotlarini muvofiqlashtirishdan iborat. Kunlik tushum kassa hamda bank tushumlari bilan, xarid hujjatlari kreditorlik yozuvlari bilan, tovar harakati esa ombor qoldig‘i bilan avtomatik solishtiriladi. Farqlar sababi aniqlanmasdan hisobot davri yopilmasligi lozim.

To‘rtinchi bosqichda ma’lumotlarga kirish huquqlari rollar bo‘yicha cheklanadi. Sotuvchi chek rasmiylashtiradi, omborchi tovar harakatini qayd etadi, buxgalter hisob yozuvini shakllantiradi, rahbar esa to‘lov va muhim tuzatishlarni tasdiqlaydi. Bir logindan barcha oila a’zolarining foydalanishi audit izini yo‘qotadi va javobgarlikni noaniqlashtiradi.

Soliq intizomini ta’minlashda kalendar nazorati muhim. Hisobot va to‘lov muddatlari, imtiyoz shartlari, elektron hisob-fakturadagi xatolar va kontragent ma’lumotlari tizimda kuzatiladi. Soliq hisoboti topshirilishidan oldin tushum, ish haqi, import, aktivlar va hisoblangan soliqlar bo‘yicha buxgalteriya registrlari bilan nazorat solishtiruvi o‘tkaziladi.

Oylik yopish chek-listi raqamli hisobning asosiy nazorat vositasidir. U bank va kassa, debitor va kreditor, ombor, ish haqi, soliq, amortizatsiya hamda oila a’zolari bilan operatsiyalarni qamrab oladi. Har band bo‘yicha bajaruvchi, sana va tasdiqlovchi elektron dalil saqlanadi. Keyingi davrda kiritilgan tuzatishlar alohida jurnalda aks ettiriladi.

Raqamli hisob ma’lumotlari asosida oddiy boshqaruv paneli shakllantirish mumkin. Unda tushum, yalpi foyda, pul qoldig‘i, debitorlik muddati, mahsulotlar rentabelligi va soliq yuki dinamikasi ko‘rsatiladi. Bu ma’lumotlar oilaviy biznes

ishtirokchilariga foydani shaxsiy iste’mol va qayta investitsiya o‘rtasida asosli taqsimlash imkonini beradi.

Axborot xavfsizligi ham hisob ishonchliligining ajralmas qismi hisoblanadi. Kuchli parol, ikki bosqichli tasdiqlash, rezerv nusxa, qurilmalarni himoyalash va xodim chiqib ketganda huquqni bekor qilish minimal talablardir. Bulutli xizmat tanlanganda ma’lumotlarni eksport qilish, tiklash va provayderni almashtirish imkoniyati oldindan tekshirilishi kerak.

1-jadval

Raqamli hisob ma’lumotlarini muvofiqlashtirish nazoratlari

4. International Auditing and Assurance Standards Board. “ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement.” In *Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements.* New York: International Federation of Accountants, 2023.

5. International Auditing and Assurance Standards Board. “ISA 330: The Auditor’s Responses to Assessed Risks.” In *Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements.* New York: International Federation of Accountants, 2023.

6. Association of Certified Fraud Examiners. *Occupational Fraud 2024: A Report to the Nations.* Austin, TX: Association of Certified Fraud Examiners, 2024.

Ханбаева Гулноза Рустамжоновна
Наманган давлат техника университети катта ўқитувчиси
Тел.: +998 90 674-22-22; e-mail: khangul220285@gmail.com

Султанов Саидазиз Жамол ўғли
Наманган давлат техника университети магистранти

КИЧИК БИЗНЕСДА БУХГАЛТЕРИЯ ВА СОЛИҚ ҲИСОБИНИ РАҚАМЛИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ МЕХАНИЗМИ

Аннотация. Тезисда кичик бизнес субъектларида бухгалтерия ва солиқ ҳисобини рақамли интеграциялаш механизми таклиф этилган. Ягона маълумотлар классификатори, электрон дастлабки ҳужжат, автоматик солиқ регистри, тафовутлар реестри, ойлик ёпиш ва рақамли аудит изи босқичлари асосланган.

Калит сўзлар: кичик бизнес, бухгалтерия ҳисоби, солиқ ҳисоби, рақамли интеграция, электрон ҳужжат, солиқ регистри, аудит изи.

Кичик бизнесда бухгалтерия ва солиқ ҳисоби кўпинча алоҳида электрон жадваллар ёки турли дастурларда юритилади. Бир операциянинг бир неча марта қўлда киритилиши вақт сарфини оширади, давр ва тасниф хатоларига олиб келади. Рақамли интеграциянинг мақсади солиқ ҳисобини

бухгалтерия ҳисобидан узиш эмас, балки ягона текширилган маълумотдан турли ҳисобот мақсадлари учун фойдаланишдир.

«Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонун бирламчи ҳужжатлар, ҳисоб регистрлари ва ҳисоботни ташкил этиш учун ҳуқуқий асос яратади [1]. Солиқ кодекси эса солиқ базаси, ҳисоблаш ва ҳисобот мажбуриятларини белгилайди [2]. Бухгалтерияда тан олинган сумма билан солиқ мақсадида қабул қилинадиган сумма ўртасида фарқ бўлиши мумкин; интеграция бу фарқни йўқотмайди, балки унинг сабаби ва ҳисоб-китобини шаффоф қилади.

Таклиф этилаётган механизмнинг биринчи босқичида ягона маълумотлар классификатори тузилади. Контрагент, шартнома, товар, хизмат, солиқ тури, ставка, ҳисобварақ ва харажат маркази учун ягона кодлар белгиланади. Бир контрагентнинг турлича ёзилиши ёки маҳсулот номи такрорланиши автоматик солиштириш натижасини бузмаслиги учун маълумотлар луғати марказлаштирилади.

Иккинчи босқичда электрон дастлабки ҳужжат операциянинг бошланғич манбасига айланади. Электрон ҳисоб-фактура, чек, шартнома, қабул қилиш далолатномаси ва банк тўлови ягона идентификатор орқали боғланади. Ҳужжат реквизитлари тасдиқлангандан кейин бухгалтерия ёзуви автоматик шакллантирилади, аммо муҳим ёки ғайриоддий операция масъул бухгалтер томонидан кўриб чиқилади.

Учинчи босқичда бухгалтерия маълумотидан автоматик солиқ регистри ҳосил қилинади. Ҳар бир операция бўйича бухгалтерия суммаси, солиқ мақсадида қабул қилинадиган сумма, доимий ёки вақтинчалик фарқ, солиқ тури ва ҳуқуқий асос қайд этилади. Формула ва ставкалар версияланган бўлиши керак, чунки қонунчилик ўзгариши аввалги давр ҳисоб-китобини ўзгартирмаслиги лозим.

Тўртинчи босқич тафовутлар реестрини юритишдан иборат. Ҳужжат етишмаслиги, давр фарқи, чегирилмайдиган харажат, имтиёз, курс фарқи ёки нотўғри тасниф алоҳида код билан белгиланади. Ҳар бир тафовут учун сумма, сабаб, масъул шахс, тузатиш ҳаракати ва ёпилганини тасдиқловчи далил сақланади.

Бешинчи босқич ойлик ёпиш назоратидир. Банк ва касса, дебитор ва кредитор, омбор, иш ҳақи, электрон ҳисоб-фактура ҳамда солиқ регистрлари бухгалтерия бош китоби билан солиштирилади. Назорат суммалари тенглашмасдан даврни ёпиш ёки солиқ ҳисоботини юборишга тизимли чеклов ўрнатиш хатоларни олдиндан бартараф этади.

Кириш ҳуқуқлари ролларга мувофиқ тақсимланиши лозим. Оператор дастлабки маълумотни киритади, бухгалтер ҳисоб ёзуви ва солиқ таснифини текширади, раҳбар муҳим тузатишни тасдиқлайди. Бир фойдаланувчининг операцияни яратиши, ўзгартириши ва якуний тасдиқлаши назорат заифлигини келтириб чиқаради. Барча ўзгаришлар сана, вақт ва фойдаланувчи кесимида журналланади.

Интеграция самарадорлигини фақат ҳисоботни тез топшириш билан баҳолаш тўғри эмас. Қўлда киритилган ёзувлар улуши, ойлик ёпиш вақти, тафовутлар сони, қайта топширилган ҳисоботлар, кечиккан ҳужжатлар ва

автоматик мувофиқлаштирилган операциялар улуши асосий кўрсаткичлар бўлиши мумкин. Уларнинг динамикаси тизимнинг реал натижасини кўрсатади.

Маълумотларни муҳофаза қилиш учун икки босқичли тасдиқлаш, резерв нусха, ҳуқуқларни даврий қайта кўриб чиқиш ва тизимдан маълумотни тўлиқ экспорт қилиш имконияти таъминланади. Дастур провайдери алмашганда ҳисоб регистрлари, дастлабки ҳужжатлар ва аудит изи йўқолмаслиги шарт.

1-жадвал

Бухгалтерия ва солиқ ҳисобини рақамли интеграциялаш босқичлари

Босқич	Асосий амал	Назорат нуқтаси	Кутиладиган натижа
Маълумотлар луғати	Ягона код ва реквизитларни белгилаш	Такрорий ёзувларни аниқлаш	Бир хил классификация
Ҳужжат импорти	Электрон ҳужжатни автоматик қабул қилиш	Мажбурий реквизит текшируви	Қўлда киритиш камаяди
Солиқ регистри	Ҳисоб ёзувидан солиқ кўрсаткичини олиш	Ставка ва ҳуқуқий асос версияси	Ҳисоб-китоб шаффофлиги
Тафовутлар реестри	Фарқ сабаби ва суммасини қайд этиш	Масъул ва ёпиш далили	Фарқлар бошқарилади
Ойлик ёпиш	Барча манбаларни бош китобга солиштириш	Назорат суммалари тенглиги	Ишончли ҳисобот

Жадвал интеграцияни дастур сотиб олиш эмас, маълумотлар сифати ва назоратлар кетма-кетлиги сифатида ифодалайди. Ягона классификатор ва электрон ҳужжатлар бошланғич асос бўлиб, солиқ регистри ҳамда тафовутлар реестри бухгалтерия маълумотидан назорат қилинадиган тарзда шаклланади.

Амалий тавсия сифатида интеграцияни босқичма-босқич жорий этиш таклиф қилинади: аввал контрагент ва ҳужжатлар классификатори, кейин банк ва электрон ҳисоб-фактура импорти, сўнг солиқ регистри ва тафовутлар панели ишга туширилади. «Ҳужжат - бухгалтерия ёзуви - солиқ регистри - тафовут - тасдиқ - ҳисобот» занжири ҳар бир кўрсаткични асл манбагача кузатиш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрелдаги ЎРҚ-404-сон «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси: https://lex.uz/docs/2931253
2. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси (амалдаги таҳрир). Қонунчилик маълумотлари миллий базаси: https://lex.uz/docs/4674902

3. IFAC. Digital Transformation & Innovation in Auditing: Insights from a Review of Academic Research. 2022. https://www.ifac.org/knowledge-gateway/discussion/digital-transformation-innovation-auditing-insights-review-academic-research
4. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 25 февралдаги ЎРҚ-677-сон «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси: https://lex.uz/docs/5307886

DAROMADLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Abdusaidov Sanjar Jaloliddin o‘g‘li SamISI PhD, dotsetn v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda daromadlar hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tashkil etish va takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Daromadlarni tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning amaldagi tartibi IFRS 15 “Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha tushum” standarti talablari bilan bog‘liq holda yoritilgan. Daromadlarni shartnoma va bajarish majburiyatlari asosida hisobga olish, tranzaksiya narxini aniqlash, uni bajarish majburiyatlariga taqsimlash hamda daromadni majburiyat bajarilgan davrda tan olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: daromad, tushum, IFRS 15, MHXS, shartnoma, bajarish majburiyati, tranzaksiya narxi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, raqamlashtirish.

Iqtisodiyotning globallashuvi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvi va investorlar uchun moliyaviy axborotning shaffofligini ta’minlash zarurati buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida takomillashtirishni talab etmoqda. Bunda korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantiruvchi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri daromad hisoblanadi. Daromadning qaysi davrda va qanday miqdorda tan olinishi korxonaning moliyaviy natijasi, rentabellik darajasi, soliq bazasi hamda moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Daromadlarni hisobga olishda asosiy masala faqatgina pul mablag‘larining kelib tushishini qayd etishdan iborat emas. Zamonaviy yondashuvda xaridor bilan tuzilgan shartnoma shartlari, korxonaning bajarish majburiyatlari, tovar yoki xizmat ustidan nazoratning xaridorga o‘tishi, chegirmalar, bonuslar, qaytarish shartlari va boshqa omillar hisobga olinishi lozim. Shu sababli daromadlar hisobini IFRS 15 talablari asosida tashkil etish moliyaviy axborotning ishonchliligi va taqqoslanuvchanligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Daromad korxona faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy kategoriyalardan biridir. Amaliyotda daromadlar

mahsulot sotish, ish bajarish, xizmat ko‘rsatish va korxonaning boshqa operatsiyalari natijasida shakllanishi mumkin.

IFRS 15ning asosiy tamoyiliga ko‘ra, korxona daromadni xaridorga va’da qilingan tovar yoki xizmatlarning berilishini aks ettiradigan miqdorda tan olishi kerak. Standart daromadni hisobga olish uchun **besh bosqichli modelni** belgilaydi: Ushbu modelning muhim jihati shundaki, daromadni tan olish faqat hisob-faktura rasmiylashtirilgan yoki pul mablag‘i olingan vaqtga bog‘lanib qolmaydi. Asosiy e’tibor korxonaning shartnomada belgilangan bajarish majburiyatini qachon bajarganiga qaratiladi.

Bosqich	Mazmuni	Hisobdagi ahamiyati
1	Xaridor bilan shartnomani aniqlash	Daromadga asos bo‘luvchi shartnoma belgilanadi
2	Bajarish majburiyatlarini aniqlash	Alohida tovar va xizmatlar ajratiladi
3	Tranzaksiya narxini aniqlash	Korxona olishni kutayotgan to‘lov miqdori belgilanadi
4	Narxni bajarish majburiyatlariga taqsimlash	Umumiy qiymat majburiyatlar o‘rtasida taqsimlanadi
5	Daromadni tan olish	Majburiyat bajarilganda yoki bajarilishi davomida daromad tan olinadi

Ushbu modelning muhim jihati shundaki, daromadni tan olish faqat hisob-faktura rasmiylashtirilgan yoki pul mablag‘i olingan vaqtga bog‘lanib qolmaydi. Asosiy e’tibor korxonaning shartnomada belgilangan bajarish majburiyatini qachon bajarganiga qaratiladi.

Masalan, korxona xaridorga mahsulot yetkazib berish bilan birga keyingi xizmat ko‘rsatishni ham o‘z zimmasiga olgan bo‘lsa, shartnomaning umumiy qiymatini darhol mahsulot sotishdan olingan daromad sifatida tan olish har doim ham iqtisodiy mazmunni to‘liq aks ettirmaydi. Bunday sharoitda shartnomadagi alohida bajarish majburiyatlarini aniqlash va tranzaksiya narxini ular o‘rtasida tegishli ravishda taqsimlash zarur.

Daromadlar hisobidagi mavjud muammolar

Daromadlar hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayonida bir qator uslubiy va amaliy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, ayrim korxonalarda daromadni tan olish sanasi hujjat rasmiylashtirilgan vaqt bilan bog‘lanishi, murakkab shartnomalardagi bir nechta bajarish majburiyatlarining alohida ajratilmasligi, o‘zgaruvchan to‘lovlar, bonus va chegirmalarning yetarlicha tahlil qilinmasligi moliyaviy natijalarning noto‘g‘ri davrga tegishli bo‘lib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ayniqsa, uzoq muddatli xizmatlar, abonent xizmatlari, kompleks xizmat paketlari va bir nechta elementni o‘z ichiga olgan shartnomalarda daromadlarni tan olish masalasi murakkablashadi. Shu sababli buxgalteriya hisobida shartnomalarni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra tahlil qilish mexanizmini kuchaytirish zarur.

Daromadlar hisobini takomillashtirish bo‘yicha takliflar

Daromadlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish uchun, birinchi navbatda, **“shartnoma → bajarish majburiyati → tranzaksiya narxi → daromad”** o‘rtasidagi axborot bog‘liqligini ta’minlash maqsadga muvofiq. Har bir shartnoma elektron tizimga kiritilganda undagi alohida bajarish majburiyatlari, ularning qiymati va bajarilish muddatlari identifikatsiya qilinishi kerak.

Ikkinchidan, daromadlar bo‘yicha **analitik hisobni kengaytirish** taklif etiladi. Korxona daromadlarni faqat umumiy tushum ko‘rsatkichi bo‘yicha emas, balki mahsulot yoki xizmat turi, shartnoma, xaridor, bajarish majburiyati, hudud va daromadni tan olish davri kesimida kuzatib borishi lozim. Bunday yondashuv buxgalteriya hisobining axborot imkoniyatlarini kengaytirib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur ma’lumotlarni shakllantiradi.

1-jadval.

Daromadlar hisobini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Mavjud muammo	Taklif etilayotgan yechim	Kutilayotgan natija
Daromadni hujjat sanasiga bog‘lab tan olish	Nazoratning xaridorga o‘tish vaqtini aniqlash	Daromadning tegishli davrda tan olinishi
Murakkab shartnomalarni umumiy hisobga olish	Bajarish majburiyatlarini alohida identifikatsiya qilish	Daromadlarning aniq taqsimlanishi
Chegirma va bonuslarni yetarli hisobga olmaslik	O‘zgaruvchan to‘lovlarni baholash mexanizmini joriy etish	Tranzaksiya narxining haqqoniy aniqlanishi
Qo‘lda hisob-kitoblarning ko‘pligi	ERP va elektron shartnoma tizimini integratsiyalash	Xatolar va mehnat sarfining kamayishi
Tahliliy ma’lumotlarning yetishmasligi	Shartnoma va majburiyatlar bo‘yicha analitik hisob yuritish	Nazorat va audit imkoniyatlarining oshishi

Uchinchidan, IFRS 15 talablarini korxonaning ERP yoki boshqa buxgalteriya axborot tizimlariga integratsiya qilish lozim. Elektron shartnoma tuzilgandan keyin dastur shartnomadagi bajarish majburiyatlarini identifikatsiya qilish, tranzaksiya narxini taqsimlash va tegishli majburiyat bajarilganda daromadni avtomatik ravishda tan olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Mazkur jarayonni quyidagicha ifodalash mumkin:

Elektron shartnoma → bajarish majburiyatlarini aniqlash → tranzaksiya narxini belgilash → narxni taqsimlash → majburiyat bajarilishini tasdiqlash → daromadni tan olish → moliyaviy hisobot.

To‘rtinchidan, korxonalarda **“Daromadlarni tan olish kartasi”**ni joriy etish taklif etiladi. Ushbu elektron hujjatda shartnoma raqami, xaridor, shartnoma qiymati, bajarish majburiyatlari, har bir majburiyatga taqsimlangan tranzaksiya narxi, bajarilgan sana va daromadni tan olish sanasi aks ettiriladi. Mazkur registr daromadlarni hisobga olish jarayonining shaffofligini ta’minlash bilan birga ichki va tashqi audit uchun ham muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

2-jadval.

Taklif etilayotgan “Daromadlarni tan olish kartasi” tarkibi

Ko‘rsatkich	Mazmuni
Shartnoma identifikatori	Shartnoma raqami va sanasi
Xaridor	Kontragent to‘g‘risidagi ma’lumot
Bajarish majburiyati	Yetkaziladigan tovar yoki ko‘rsatiladigan xizmat
Tranzaksiya narxi	Shartnoma bo‘yicha aniqlangan qiymat
Taqsimlangan qiymat	Har bir majburiyatga tegishli summa
Bajarilish holati	Bajarilgan/bajarilmagan
Daromadni tan olish sanasi	IFRS 15 asosida aniqlangan sana
Tasdiqlovchi hujjat	Elektron hujjat yoki boshqa dalil

Taklif etilayotgan mexanizm daromadlarning muddatidan oldin yoki kech tan olinishi xavfini kamaytirishga, shartnomalar bo‘yicha hisob-kitoblarni nazorat qilishga hamda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Daromadlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish korxonalarda moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchliligi va xalqaro darajada taqqoslanuvchanligini oshirishning muhim shartidir. IFRS 15ning besh bosqichli modelidan foydalanish daromadlarni shartnomalarning iqtisodiy mazmuni va bajarish majburiyatlari asosida tan olish imkonini beradi. Tadqiqot natijasida daromadlar hisobini takomillashtirish uchun shartnomalar va bajarish majburiyatlari bo‘yicha analitik hisobni rivojlantirish, “Daromadlarni tan olish kartasi”ni joriy etish hamda IFRS 15 algoritmlarini ERP tizimiga integratsiya qilish taklif etildi. Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi daromadlarning tegishli hisobot davrida to‘g‘ri tan olinishiga, hisob jarayonining avtomatlashtirilishiga va audit uchun ishonchli axborot bazasining shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IFRS Foundation. IFRS 15 — Revenue from Contracts with Customers.
2. IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-404, 2016-yil 13-aprel.
4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oid normativ-uslubiy manbalar.

DAROMADLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID ILMIY TADQIQOTLARNING BIBLIOGRAFIK TAHLILI

Abdusaidov S.J. – SamISI, dotsent v.b.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada daromadlar hisobini takomillashtirishga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar bibliografik jihatdan tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida daromadlarning iqtisodiy mohiyati, ularni tan olish va baholash, buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda moliyaviy hisobotlarda oshkor qilish masalalariga oid ilmiy yondashuvlar o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *daromadlar hisobi, daromadlarni tan olish, daromadlarni baholash, bibliografik tahlil, bibliometrik tahlil, MHXS 15, moliyaviy hisobot, shartnomaviy yondashuv, analitik hisob, raqamlashtirish.*

Аннотация. *В данной статье представлен систематический библиографический анализ отечественных и зарубежных научных исследований по совершенствованию учета выручки. В рамках исследования рассмотрены научные подходы к экономической природе выручки, ее признанию и измерению, бухгалтерскому отражению и раскрытию в финансовой отчетности.*

Ключевые слова: *учет выручки, признание выручки, измерение выручки, библиографический анализ, библиометрический анализ, МСФО 15, финансовая отчетность, договорной подход, аналитический учет, цифровизация.*

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining diversifikatsiyalashuvi hamda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi daromadlarni tan olish, baholash va hisobda aks ettirish masalalariga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Daromad xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, uning to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisobga olinishi moliyaviy hisobot axborotlarining ishonchliligi hamda foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlarning asoslanganligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, shartnomaviy munosabatlarning murakkablashuvi, xizmatlar ko‘rsatish shakllarining kengayishi va raqamli biznes modellarining rivojlanishi daromadlar hisobining nazariy-uslubiy asoslarini muntazam ravishda takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Daromadlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari mahalliy va xorijiy olimlarning ko‘plab ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan bo‘lib, ularda daromadning iqtisodiy mohiyati, uni tan olish mezonlari, baholash usullari, hisobvaraqlarda aks ettirish tartibi hamda moliyaviy hisobotlarda oshkor qilish masalalariga turlicha ilmiy yondashuvlar bildirilgan. Xususan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining joriy etilishi natijasida daromadlarni hisobga olishda operatsiyaga asoslangan an’anaviy yondashuvlardan shartnoma va bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlarga asoslangan konseptual yondashuvlarga o‘tish kuzatilmoqda. Shu jihatdan, mazkur yo‘nalishda shakllangan ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish, tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, olimlarning ilmiy qarashlarini qiyosiy baholash hamda yetarlicha tadqiq etilmagan masalalarni belgilash daromadlar hisobini yanada takomillashtirishning nazariy va metodologik asoslarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi daromadlar hisobini takomillashtirishga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlarni bibliografik jihatdan tizimli tahlil qilish, mavjud ilmiy yondashuvlarning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda ushbu sohadagi istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlarini belgilashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun daromadlar hisobiga oid ilmiy adabiyotlarni tasniflash, ularda ilgari surilgan nazariy va uslubiy yondashuvlarni qiyosiy

o‘rganish, tadqiqotlarda ustuvor bo‘lgan ilmiy muammolarni aniqlash, mavjud qarashlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni baholash hamda ilmiy adabiyotlarda mavjud tadqiqot bo‘shliqlarini aniqlash vazifalari belgilandi. Bibliografik tahlil natijalari daromadlar hisobining zamonaviy konsepsiyalarini tizimlashtirish va uni takomillashtirishga qaratilgan keyingi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlarini asoslash imkonini beradi.



1-rasm. Daromadlar hisobini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarning bibliografik tahlili.

1-rasmda daromadlar hisobini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni bibliografik tahlil qilishning asosiy yo‘nalishlari umumlashtirilgan. Tahlilda ilmiy manbalarni tanlash mezonlari, tadqiqotlarning yillar bo‘yicha dinamikasi, sohalar kesimidagi taqsimoti hamda ilmiy adabiyotlarda eng ko‘p uchraydigan mavzular va kalit tushunchalar tizimlashtirilgan. Natijalar daromadlarni tan olish, baholash, shartnomaviy yondashuv, MHXS talablari va moliyaviy hisobot masalalari mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarning muhim tarkibiy qismlarini tashkil etishini ko‘rsatadi. Shuningdek, bibliografik tahlil daromadlar hisobiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko‘lamining yillar davomida kengayib borayotganini hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida daromadlar hisobini takomillashtirish masalalarining ilmiy ahamiyati ortayotganini ifodalaydi. Bu esa kelgusida daromadlar hisobini alohida faoliyat tarmoqlari xususiyatlaridan kelib

chiqib tadqiq etish, MHXS talablarini amaliyotga integratsiyalash va raqamlashtirish sharoitida yangi hisob uslubiyatlarini ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

Daromadlar hisobi buxgalteriya hisobining muhim va murakkab obyektlaridan biri bo‘lib, uning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turli nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Tadqiqotlarni bibliografik jihatdan tahlil qilish natijalari daromadlar hisobiga oid ilmiy qarashlarning rivojlanishini shartli ravishda uchta asosiy yo‘nalishga ajratish mumkinligini ko‘rsatadi: birinchisi, daromadlarning iqtisodiy mohiyati, tasnifi va hisobda aks ettirilishi; ikkinchisi, daromadlarni tan olish va baholash metodologiyasini MHXS talablari asosida takomillashtirish; uchinchisi esa alohida tarmoqlar va zamonaviy biznes modellari xususiyatlaridan kelib chiqib daromadlar hisobining analitik va axborot imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq tadqiqotlardir.

Mahalliy olimlardan K.B. Urazovning tadqiqotlarida korxona daromadlarini buxgalteriya hisobining mustaqil obyekti sifatida e’tirof etish, ularni tasniflash, baholash va tegishli hisobvaraqlarda aks ettirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Olim daromadlar hisobining asosiy vazifalari sifatida daromadlarni hisoblash tamoyiliga muvofiq o‘z vaqtida tan olish va baholash, ularni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra guruhlash, tegishli hisobvaraqlarda aks ettirish hamda moliyaviy hisobotlarda ishonchli ko‘rsatishni belgilaydi [1]. Mazkur yondashuv daromadlar hisobining milliy hisob tizimidagi nazariy va uslubiy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi va MHXSga o‘tish jarayonlari daromadlarni faqat hisobvaraqlarda qayd etish emas, balki mijozlar bilan tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlar bilan bog‘liq holda tan olish zaruratini kuchaytirmoqda.

S.N. Tashnazarov tomonidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda daromadlar va moliyaviy natijalarni xalqaro standartlar asosida shakllantirish, tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning konseptual asoslari yoritilgan [2]. Ushbu yondashuvning muhim jihati shundaki, daromadlarni hisobga olish alohida xo‘jalik operatsiyasini qayd etish bilan cheklanmay, moliyaviy hisobotning sifat xususiyatlari, tan olish mezonlari va iqtisodiy mazmun ustuvorligi bilan o‘zaro bog‘liq holda qaraladi. Bu esa milliy hisob tizimini MHXS talablariga transformatsiya qilish jarayonida daromadlar hisobi metodologiyasini qayta ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

Z.B. Eshpulatova iqtisodiy subyektlarda daromadlar buxgalteriya hisobi metodologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalasini maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rgangan [3]. Muallif tomonidan daromadlarni tan olish, baholash va hisobda aks ettirish bilan bog‘liq metodologik masalalarning kompleks tadqiq etilishi mahalliy ilmiy adabiyotlarda daromadlar hisobini MHXS bilan uyg‘unlashtirish yo‘nalishining rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot daromadlar hisobining nazariy asoslarini amaliy hisob mexanizmlari bilan bog‘lash jihatidan alohida ahamiyatga ega.

J. Shirov tomonidan klasterlarda asosiy faoliyat daromadlari hisobini takomillashtirish masalalari tadqiq etilib, daromadlarni tan olish, tasniflash va analitik hisobini yuritish MHXS 15 talablari asosida ko‘rib chiqilgan [4]. Muallif paxta klasterlarining qiymat yaratish zanjiri xususiyatlarini hisobga olgan holda daromadlar hisobini takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Mazkur tadqiqot daromadlar hisobida tarmoq xususiyatlarini inobatga olish zarurligini ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir. Bu yondashuv umumiy daromadlarni tan olish metodologiyasidan tarmoqqa moslashtirilgan analitik hisob tizimlariga o‘tish tendensiyasini ifodalaydi.

D.A. Kuvatova O‘zbekistonda daromadlar va xarajatlar hisobining normativ-huquqiy asoslarini xalqaro tajriba bilan qiyosiy o‘rgangan. Muallif milliy qonunchilik, BHMS hamda IFRS 15, IFRS 9, IAS 37 va IFRS 18 talablarini qiyoslab, milliy hisob tizimini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini asoslagan [5]. Tadqiqotning ahamiyatli tomoni daromadlar hisobini takomillashtirish faqat buxgalteriya yozuvlari yoki hisobvaraqlar tizimini o‘zgartirish bilan emas, balki uni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani kompleks ravishda rivojlantirish bilan bog‘liqligini ko‘rsatishidir.

Xorijiy tadqiqotlarda daromadlar hisobining zamonaviy rivojlanishi, asosan, IFRS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalardan tushgan tushum” standartining amaliy ta’siri bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Kabir H. va Su L. Avstraliya va Yangi Zelandiya kompaniyalari misolida IFRS 15ning daromadlarni tan olish amaliyoti va moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga ta’sirini empirik baholagan [6]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘rganilgan kompaniyalarning 63,38 foizi IFRS 15ning moliyaviy hisobotga ta’siri mavjud emasligi yoki muhim emasligini bildirgan bo‘lsa, 36,62 foizi standartning muayyan ta’sirini moliyaviy hisobot izohlarida oshkor qilgan. Mualliflar standart ta’sir ko‘rsatgan korxonalarda eng katta o‘zgarish aynan daromad ko‘rsatkichida yuz berganini aniqlagan.

Napier C.J. va Stadler C. IFRS 15ning joriy etilishini nafaqat buxgalteriya hisobidagi o‘zgarish, balki korxona faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi institutsional jarayon sifatida tadqiq qilganlar [7]. Mualliflar standartning ta’sirini buxgalteriya, axborot, kapital bozori va real iqtisodiy ta’sir yo‘nalishlariga ajratgan. Ularning tadqiqot natijalari IFRS 15 ayrim tarmoqlarda daromadlarni tan olish va baholash tartibiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, boshqa tarmoqlarda uning miqdoriy ta’siri nisbatan cheklanganligini ko‘rsatgan. Bu esa daromadlar hisobini takomillashtirishda yagona universal yondashuvdan ko‘ra tarmoqlar xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Boujelben S. va Kobbi-Fakhfakh S. IFRS 15 bo‘yicha majburiy axborotlarni oshkor qilish darajasini telekommunikatsiya va qurilish tarmoqlari misolida tadqiq qilganlar [8]. Mualliflarning tadqiqoti daromadlarni hisobga olish metodologiyasi bilan bir qatorda, ular to‘g‘risidagi axborotni moliyaviy hisobotlarda yetarli darajada oshkor qilish ham muhim ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat daromadlar hisobining zamonaviy konsepsiyasida tan olish va baholash jarayonlari axborot shaffofligi bilan uzviy bog‘langanligini tasdiqlaydi.

Van Wyk M. va hammualliflar Janubiy Afrika kompaniyalari misolida IFRS 15 bo‘yicha daromadlar to‘g‘risidagi axborotlarning qaror qabul qilish uchun

foydaliligini tadqiq qilganlar [9]. Tadqiqot natijalari daromadlarni qismlarga ajratib ko‘rsatish, hisob siyosati va o‘tish qoidalari ko‘pchilik kompaniyalarda tegishli ravishda qo‘llanganligini, biroq ayrim subyektlarda operatsiya narxini aniqlash va daromadlarni tan olishga oid professional mulohazalar yetarli darajada oshkor etilmaganligini ko‘rsatadi. Bu jihat daromadlar hisobini takomillashtirishda nafaqat hisoblash algoritmlari, balki professional mulohaza va oshkor qilish mexanizmlarini ham rivojlantirish zarurligini anglatadi.

Lee W.J. va Choi S.U. Koreya kompaniyalari ma’lumotlari asosida IFRS 15ning moliyaviy hisobotlarning qiyoslanuvchanligiga ta’sirini difference-in-differences usuli orqali empirik baholagan [10]. Tadqiqotda 2015–2020-yillardagi davlat va xususiy kompaniyalar ma’lumotlari tahlil qilinib, IFRS 15 qo‘llanilganidan so‘ng ommaviy kompaniyalarning moliyaviy hisobotlari qiyoslanuvchanligi oshgani aniqlangan. Mazkur natija daromadlarni tan olishning yagona prinsipial modelidan foydalanish moliyaviy hisobot axborotlarining taqqoslanuvchanligini oshirish imkoniyatini berishini ko‘rsatadi.

Chen J. Xitoy kompaniyalari misolida IFRS 15ning daromad va foyda sifatiga ta’sirini difference-in-differences modeli asosida tadqiq qilgan [11]. Tadqiqot natijalarida IFRS 15 joriy etilgandan keyin daromad va foyda bo‘yicha hisoblangan ko‘rsatkichlar sifati yaxshilangani qayd etilgan. Shu bilan birga, ayrim kompaniyalarda real faoliyat orqali foydani boshqarish holatlari kuchaygani ham aniqlangan. Bu natijalar standartlashtirilgan daromadlarni tan olish modelining axborot sifatiga ijobiy ta’siri bilan bir qatorda, boshqaruv qarorlari va hisob siyosatining ta’sirini ham hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi.

Al-Muaini S.S.A. va Kazem H.N. IFRS 15 asosida daromadlarni tan olishning korxona faoliyati natijalariga ta’sirini amaliy misol asosida o‘rganganlar [12]. Tadqiqotda IFRS 15 bo‘yicha daromadlarni tan olish tartibi mahalliy hisob amaliyoti bilan taqqoslangan hamda standart asosida hisob yuritish moliyaviy natijalarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Mualliflar, ayniqsa, bajarish majburiyatlarini aniqlash va daromadlarni ushbu majburiyatlarning bajarilishiga muvofiq tan olishga alohida e’tibor qaratganlar.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarning bibliografik va mazmuniy tahlili shuni ko‘rsatadiki, daromadlar hisobiga oid ilmiy qarashlarda “operatsiyaga asoslangan hisob” modelidan “shartnomaga va bajarish majburiyatlariga asoslangan hisob” modeliga o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Mahalliy tadqiqotlarda asosan daromadlarning iqtisodiy mohiyati, tasnifi, hisobvaraqlarda aks ettirilishi, MHXS talablarini milliy amaliyotga joriy qilish va alohida tarmoqlarda analitik hisobni takomillashtirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan [1–5]. Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda esa IFRS 15ning moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari, axborotlarni oshkor qilish sifati, qiyoslanuvchanlik, foyda sifati va korxonalar iqtisodiy xatti-harakatlariga ta’sirini ekonometrik usullar yordamida baholash ustunlik qiladi [6–12].

Shu bilan birga, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlarda daromadlar hisobini takomillashtirish bo‘yicha ayrim tadqiqot bo‘shliqlari (research gaps) mavjudligi aniqlandi. Birinchidan, mavjud tadqiqotlarning katta qismi IFRS 15ni umumiy yoki ayrim yirik tarmoqlar doirasida o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, xizmat

ko‘rsatish subyektlarining o‘ziga xos xususiyatlari yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan. Ikkinchidan, raqamli platformalar, uzoq muddatli xizmat shartnomalari, kompleks xizmat paketlari va o‘zgaruvchan to‘lovlarga ega shartnomalar bo‘yicha daromadlarni tan olish mexanizmlari alohida metodologik tadqiqotlarni talab qiladi. Uchinchidan, milliy hisobvaraqlar tizimi bilan MHXS 15 asosidagi shartnomaviy model o‘rtasidagi analitik bog‘liqlikni ta’minlovchi hisobvaraqlar va raqamli kodlash tizimini ishlab chiqish masalalari yetarlicha yoritilmagan. Shu sababli daromadlar hisobini kelgusida takomillashtirish shartnoma identifikatsiyasi, bajarish majburiyatlari, operatsiya narxi, daromadlarni segmentlar bo‘yicha analitik hisobga olish va raqamli hisob tizimlarini o‘zaro integratsiyalash asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 306 b.
2. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 584 b.
3. Eshpulatova Z.B. Iqtisodiy subyektlarda daromadlar buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirish (xalqaro standartlar asosida): monografiya. – Samarqand: STAP-SEL, 2023. – 150 b.
4. Shirov J. Klasterlarda asosiy faoliyat daromadlari hisobini takomillashtirish // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2026. – T. 4. – № 7. – B. 209–214.
5. Kuvatova D.A. Daromadlar va xarajatlar hisobini tartibga solishning normativ-huquqiy asoslari va xalqaro tajribasi // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2026.
6. Kabir H., Su L. How did IFRS 15 affect the revenue recognition practices and financial statements of firms? Evidence from Australia and New Zealand // Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. – 2022. – Vol. 49. – Art. 100507. – DOI: 10.1016/j.intaccaudtax.2022.100507.
7. Napier C.J., Stadler C. The real effects of a new accounting standard: the case of IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers // Accounting and Business Research. – 2020. – DOI: 10.1080/00014788.2020.1770933.
8. Boujelben S., Kobbi-Fakhfakh S. Compliance with IFRS 15 mandatory disclosures: an exploratory study in telecom and construction sectors // Journal of Financial Reporting and Accounting. – 2020. – Vol. 18. – № 4. – P. 707–728.
9. Van Wyk M. et al. Revenue recognition practices in South Africa: an analysis of the decision usefulness of IFRS 15 disclosures // South African Journal of Accounting Research. – 2022. – Vol. 36. – № 1.
10. Lee W.J., Choi S.U. The effect of the new revenue recognition principle (IFRS 15) on financial statement comparability: Evidence from Korea // Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. – 2024. – Vol. 54. – Art. 100601. – DOI: 10.1016/j.intaccaudtax.2024.100601.

11. Chen J. The impact of IFRS 15 on revenue and earnings quality: evidence from China // Asian Review of Accounting. – 2025. – Vol. 33. – № 3. – P. 523–546.

12. Al-Muaini S.S.A., Kazem H.N. Revenue recognition in accordance with the International Financial Reporting Standard (IFRS 15) and its impact on the outcome of the activity (applied research) // Al-Ghary Journal of Economic and Administrative Sciences. – Vol. 18. – № 2. – DOI: 10.36325/ghjec.v18i2.13919.

KORXONALARDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYAT AUDITINING TASHKILIY MASALALARI

Marupov Farruxxon Farhod O‘g‘li
Toyloq tumani hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi 1-toifali mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarda innovatsion faoliyat auditini xalqaro audit standartlari asosida tashkil etishning tashkiliy va uslubiy masalalari tadqiq etilgan. Innovatsion loyihalar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, yangi texnologiyalar, dasturiy mahsulotlar hamda nomoddiy aktivlar bilan bog‘liq operatsiyalar auditining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Innovatsion faoliyat auditida mavjud muammolar aniqlanib, ularni ISA 300, ISA 315, ISA 330, ISA 500 va ISA 520 talablari asosida hal etish yo‘nalishlari asoslangan. Shuningdek, innovatsion faoliyat auditini riskka yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, innovatsion audit risklari matritsasini shakllantirish, maxsus auditorlik ishchi hujjatlarini joriy qilish hamda raqamli audit vositalaridan foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion faoliyat, innovatsion loyiha, xalqaro audit standartlari, audit, auditorlik riski, ichki nazorat, nomoddiy aktivlar, auditorlik dalillari, innovatsion xarajatlar, raqamli audit.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlash ko‘p jihatdan innovatsion faoliyatni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish imkoniyatlariga bog‘liq. Korxonalarda innovatsion jarayonlarning kengayishi ushbu faoliyatga yo‘naltirilayotgan mablag‘lardan samarali foydalanish, innovatsion xarajatlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish va ular ustidan ishonchli auditorlik nazoratini tashkil qilish zaruratini kuchaytirmoqda.

Innovatsion faoliyat an’anaviy xo‘jalik operatsiyalaridan yuqori darajadagi noaniqlik va risk bilan farqlanadi. Ilmiy-tadqiqot natijasining amaliyotga tatbiq etilishi, yangi texnologiyaning kutilgan iqtisodiy samarani berishi, yaratilgan intellektual mulk obyektining qiymati hamda kelgusida undan iqtisodiy naf olinishi har doim ham oldindan aniq belgilanmaydi. Bunday xususiyatlar innovatsion faoliyat bilan bog‘liq operatsiyalar auditida professional mulohaza va riskka asoslangan yondashuvning ahamiyatini oshiradi.

O‘zbekistonlik olimlar R.D. Do‘smuratov, Sh.N. Fayziyev, I.N. Qo‘ziyev, A.A. Karimov, A.Z. Avloqulov va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida auditorlik tekshiruvini tashkil etish, auditni rejalashtirish, auditorlik risklarini baholash, auditorlik dalillarini shakllantirish, nomoddiy aktivlar auditi va xalqaro audit standartlarini qo‘llash masalalari yoritilgan. Ushbu ilmiy yondashuvlarni innovatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish korxonalarda innovatsion faoliyat auditining tashkiliy mexanizmini takomillashtirish imkonini beradi.

Korxonalarda innovatsion faoliyat auditini tashkil etishdagi dastlabki masala audit obyektlarini to‘g‘ri aniqlash hisoblanadi. Innovatsion faoliyat tarkibiga ilmiy-tadqiqot ishlari, tajriba-konstruktorlik ishlari, yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish, dasturiy ta’minotni ishlab chiqish, patent va litsenziyalarni olish, nou-xau hamda boshqa intellektual mulk obyektlarini yaratish yoki sotib olish bilan bog‘liq operatsiyalar kirishi mumkin.

Mazkur operatsiyalarning iqtisodiy mazmuni turlicha bo‘lganligi sababli ularni buxgalteriya hisobida tan olish va baholashda ham turli yondashuvlar yuzaga keladi. Xususan, innovatsion faoliyat bilan bog‘liq ayrim sarflar davr xarajatlari sifatida tan olinishi, belgilangan mezonlarga javob beradigan boshqa sarflar esa aktivning qiymatini shakllantirishi mumkin. Shu sababli auditor faqat xarajatni tasdiqlovchi hujjat mavjudligini emas, balki uning iqtisodiy mazmuni va hisobda tan olinishining asoslanganligini ham tekshirishi lozim.

Ikkinchi muhim masala innovatsion faoliyatga xos auditorlik risklarini aniqlash va baholash bilan bog‘liq. Innovatsion loyiha bo‘yicha kelgusida olinishi kutilayotgan iqtisodiy naf, yangi mahsulotga bozor talabi yoki yangi texnologiyaning muvaffaqiyatli ishlashi yuzasidan noaniqlik mavjud bo‘lishi mumkin. Natijada rahbariyatning baholashlari va professional mulohazalariga bog‘liq hisob obyektlarida muhim noto‘g‘ri aks ettirish riski ortadi.

Uchinchi muammo innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish bilan bog‘liq. Loyiha smetasi, haqiqiy xarajatlar, bajarilgan ishlar va erishilgan natijalar o‘rtasida muntazam nazoratning mavjud emasligi ortiqcha yoki maqsadsiz xarajatlarning o‘z vaqtida aniqlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, innovatsion faoliyat auditi uchun maxsus ishchi hujjatlar va alohida audit dasturlarining yetarlicha shakllanmaganligi innovatsion operatsiyalarning umumiy audit obyektlari tarkibida tekshirilishiga sabab bo‘ladi. Bunday yondashuv innovatsion faoliyatga xos risklarning auditor tomonidan to‘liq aniqlanmasligi ehtimolini oshiradi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etishda innovatsion faoliyat auditini xalqaro audit standartlarining riskka asoslangan yondashuvi bilan uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi.

ISA 300 talablaridan kelib chiqib, auditning rejalashtirish bosqichida korxonaning innovatsion faoliyat yo‘nalishlari, amalga oshirilayotgan loyihalar, ularga yo‘naltirilgan mablag‘lar va muhim hisob obyektlari o‘rganilishi zarur. Bu auditorning e’tiborini yuqori riskli innovatsion operatsiyalarga qaratish imkonini beradi.

ISA 315 bo‘yicha auditor korxona va uning muhitini, shu jumladan ichki nazorat tizimini tushunishi hamda moliyaviy hisobot darajasida va tasdiqlar darajasida muhim noto‘g‘ri aks ettirish risklarini aniqlashi va baholashi lozim. Innovatsion faoliyatda ilmiy-tadqiqot xarajatlarining noto‘g‘ri tasniflanishi, nomoddiy aktivlarning asossiz tan olinishi yoki baholanishi, loyiha xarajatlarining noto‘g‘ri davrga kiritilishi kabi holatlar alohida e’tibor talab qiladi.

ISA 330 aniqlangan va baholangan risklarga javoban auditorlik amallarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shu bois yuqori riskli innovatsion loyihalarda hujjatlarni batafsil tekshirish, qayta hisoblash, tashqi tasdiqlar, analitik amallar va zarur hollarda ekspert bilimlaridan foydalanish kabi audit amallarining kombinatsiyasini qo‘llash maqsadga muvofiq.

ISA 500 talablariga ko‘ra, auditor o‘z fikrini asoslash uchun yetarli va tegishli auditorlik dalillarini olishi kerak. Innovatsion faoliyatda buxgalteriya hujjatlaridan tashqari loyiha smetasi, texnik topshiriqlar, bajarilgan ishlar dalolatnomalari, shartnomalar, patent va litsenziyalar hamda boshqa tegishli hujjatlar dalil manbalari sifatida ahamiyat kasb etadi. ISA 520 bo‘yicha analitik amallar esa innovatsion xarajatlar, ularning davrlar bo‘yicha o‘zgarishi va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlardagi noodatiy munosabatlarni aniqlashda qo‘llanilishi mumkin.

1-jadval.

Korxonalarda innovatsion faoliyat auditini xalqaro audit standartlari asosida tashkil etish yo‘nalishlari

Audit yo‘nalishlari	Xalqaro audit standarti	Innovatsion faoliyat auditidagi vazifalar
Auditni rejalashtirish	ISA 300	Innovatsion loyihalar, muhim audit obyektlari va audit strategiyasini belgilash
Risklarni aniqlash va baholash	ISA 315	Innovatsion operatsiyalardagi muhim noto‘g‘ri aks ettirish risklarini baholash
Risklarga javob amallari	ISA 330	Risk darajasiga muvofiq auditorlik amallarini shakllantirish
Auditorlik dalillarini olish	ISA 500	Innovatsion xarajatlar va aktivlar bo‘yicha yetarli va tegishli dalillarni shakllantirish
Analitik amallar	ISA 520	Innovatsion faoliyatga tegishli moliyaviy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarish va noodatiy munosabatlarni tahlil qilish

Jadvaldan ko‘rinadiki, innovatsion faoliyat auditi faqat alohida bir standart doirasida amalga oshirilmaydi. Aksincha, auditni rejalashtirish, risklarni aniqlash va baholash, risklarga javob choralarini belgilash, auditorlik dalillarini olish va analitik amallarni bajarish yagona audit jarayonining o‘zaro bog‘langan bosqichlarini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari asosida korxonalarda innovatsion faoliyat auditini tashkil etishni takomillashtirish uchun riskka yo‘naltirilgan integratsiyalashgan tashkiliy modelni qo‘llash taklif etiladi. Ushbu model innovatsion faoliyatning o‘ziga xos audit obyektlarini xalqaro audit standartlarining tegishli talablari bilan yagona tizimda bog‘lashga asoslanadi.

Modelning birinchi bosqichida innovatsion faoliyat yo‘nalishlari aniqlanib, audit strategiyasi ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda innovatsion faoliyatga xos risklar identifikatsiya qilinib, ularning moliyaviy hisobotga ta’siri baholanadi. Uchinchi bosqichda baholangan risklarga mos auditorlik amallari belgilanadi. To‘rtinchi bosqichda moliyaviy, texnik va boshqa tegishli manbalardan yetarli va tegishli auditorlik dalillari olinadi. Yakuniy bosqichda audit davomida olingan dalillar va bajarilgan analitik amallar natijalari umumlashtirilib, tegishli auditorlik xulosalari shakllantiriladi.



1-rasm. Korxonalarda xalqaro standartlar asosida innovatsion faoliyat auditining tashkiliy modeli

Taklif etilayotgan modelning muhim jihati shundaki, unda innovatsion faoliyatning asosiy audit obyektlari - ilmiy-tadqiqot ishlari, tajriba-konstruktorlik ishlari, yangi texnologiyalar, dasturiy mahsulotlar, patent va litsenziyalar, nomoddiy aktivlar hamda innovatsion loyihalar audit jarayonining alohida elementlari sifatida ajratiladi. Bu esa har bir obyektga xos riskni aniqlash va unga mos auditorlik amallarini tanlash imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan birga, muallif tomonidan “Innovatsion faoliyat auditi kartasi”ni ishlab chiqish va auditorning ishchi hujjatlari tarkibiga kiritish taklif etiladi. Unda innovatsion loyiha nomi, loyiha qiymati, moliyalashtirish manbasi, amalga oshirilgan xarajatlar, buxgalteriya hisobida tan olish tartibi, aniqlangan risk, risk darajasi, bajarilgan auditorlik amallari, olingan dalillar va aniqlangan holatlar aks ettirilishi lozim.

Ikkinchi muhim taklif sifatida “Innovatsion audit risklari matritsasi”ni joriy etish maqsadga muvofiq. Unda risklarni yuzaga kelish ehtimoli va moliyaviy hisobotga mumkin bo‘lgan ta’siriga ko‘ra baholash hamda shunga muvofiq

auditorlik amallarining xususiyati, muddati va hajmini belgilash taklif etiladi. Natijada auditor resurslarini yuqori riskli innovatsion operatsiyalarga ko‘proq yo‘naltirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Uchinchi taklif innovatsion faoliyat auditini raqamlashtirish bilan bog‘liq. Korxonaning ERP va boshqa axborot tizimlaridagi ma’lumotlarni auditorlik ma’lumotlar tahlili vositalari yordamida tekshirish loyiha smetasidan sezilarli chetlanishlar, takroriy to‘lovlar, noodatiy operatsiyalar va noto‘g‘ri tasniflangan xarajatlarni aniqlashni tezlashtirishi mumkin.

Shunday qilib, taklif etilayotgan tashkiliy modelni “auditni rejalashtirish → risklarni aniqlash va baholash → risklarga javob auditorlik amallari → auditorlik dalillarini olish → analitik baholash va natijalarni umumlashtirish” ketma-ketligida amalga oshirish innovatsion faoliyat auditining tizimliligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Korxonalarda innovatsion faoliyat ko‘lamining kengayishi ushbu yo‘nalishdagi operatsiyalarni audit qilishning tashkiliy va uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Innovatsion faoliyatning yuqori darajadagi noaniqligi, nomoddiy aktivlarni tan olish va baholashning murakkabligi hamda innovatsion xarajatlarning iqtisodiy mazmunini aniqlashda professional mulohazaning ahamiyati auditni riskka asoslangan yondashuvda tashkil etishni talab qiladi.

Innovatsion faoliyat auditida ISA 300, ISA 315, ISA 330, ISA 500 va ISA 520 talablarini o‘zaro bog‘liq holda qo‘llash auditni rejalashtirishdan boshlab risklarni baholash, tegishli auditorlik amallarini bajarish va yetarli dalillarni shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonni tizimlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida innovatsion faoliyatning asosiy obyektlarini xalqaro audit standartlari bilan o‘zaro bog‘lovchi riskka yo‘naltirilgan integratsiyalashgan tashkiliy model, shuningdek, “Innovatsion faoliyat auditi kartasi” va “Innovatsion audit risklari matritsasi”ni joriy etish taklif qilindi. Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi auditorlik risklarini pasaytirish, innovatsion xarajatlarning asoslanganligini tekshirish, audit jarayonini tizimlashtirish va korxonalarning innovatsion faoliyatiga tegishli moliyaviy axborotlarning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-677-son, 2021-yil 25-fevral.

2. Do‘smuratov R.D. *Audit asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

3. Fayziyev Sh.N., Do‘smuratov R.D., Karimov A.A., Qo‘ziyev I.N., Avloqulov A.Z. *Audit*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2015.

4. To‘ychiyev A., Qo‘ziyev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. *Audit*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.

5. Qo‘ziyev I.N., Avloqulov A.Z., Ochilov F.Sh., Sherimbetov I.X. *Audit-2*. – Toshkent: NIHOL-PRINT, 2023.

6. Avloqulov A.Z., Avazov I.R., Ismailova M.M., Ochilov F.Sh. *Xalqaro audit*. – Toshkent, 2024.
7. International Standard on Auditing 300. *Planning an Audit of Financial Statements*.
8. International Standard on Auditing 315 (Revised 2019). *Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement*.
9. International Standard on Auditing 330. *The Auditor's Responses to Assessed Risks*.
10. International Standard on Auditing 500. *Audit Evidence*.
11. International Standard on Auditing 520. *Analytical Procedures*.
12. IFRS Foundation. *IAS 38 – Intangible Assets*.
13. OECD/Eurostat. *Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting,*

KORXONALARDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYAT HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Marupov Farruxxon Farhod O‘g‘li
Toyloq tumani hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi 1-toifali mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarda innovatsion faoliyat bilan bog‘liq operatsiyalar hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tashkil etish va takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Innovatsion loyihalar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, yangi texnologiyalar, dasturiy mahsulotlar, patent, litsenziya va boshqa nomoddiy aktivlar bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olishdagi mavjud muammolar tahlil qilingan. IAS 38 “Nomoddiy aktivlar”, IAS 36 “Aktivlarning qadrsizlanishi”, IAS 20 “Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordamini ochib berish” hamda boshqa xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqib innovatsion faoliyat xarajatlarini tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish yo‘nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida innovatsion faoliyat xarajatlarini alohida analitik hisobda yuritish, innovatsion loyihalar bo‘yicha xarajatlarni bosqichma-bosqich hisobga olish va innovatsion faoliyat hisobining axborot modelini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion faoliyat, buxgalteriya hisobi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, innovatsion xarajatlar, ilmiy-tadqiqot ishlari, tajriba-konstruktorlik ishlari, nomoddiy aktivlar, IAS 38, innovatsion loyiha, analitik hisob.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlashda innovatsion faoliyat muhim iqtisodiy omillardan biriga aylanmoqda. Yangi mahsulot yaratish, ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish hamda intellektual mulk obyektlarini yaratish korxona faoliyatining strategik yo‘nalishlari hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat ko‘lamining kengayishi buxgalteriya hisobi oldiga ham yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, innovatsion faoliyatga sarflangan mablag‘larni qaysi davrda xarajat sifatida tan olish, qaysi xarajatlarni nomoddiy aktiv sifatida kapitallashtirish, innovatsion loyiha qiymatini shakllantirish va yaratilgan aktivlarning kelgusidagi iqtisodiy nafini baholash muhim hisob masalalaridan hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat bilan bog‘liq xarajatlarning iqtisodiy mazmuni bir xil emas. Ilmiy-tadqiqot bosqichida amalga oshirilgan sarflar bilan yangi mahsulot yoki texnologiyani ishlab chiqish bosqichidagi xarajatlar o‘rtasida iqtisodiy jihatdan muhim farq mavjud. Shu sababli barcha innovatsion xarajatlarni bitta hisob obyektida umumlashtirish korxonaning innovatsion faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarning tahliliy imkoniyatini cheklaydi.

O‘zbekistonlik olimlar K.B. Urazov, S.N. Tashnazarov, A.A. Karimov va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarida buxgalteriya hisobi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, aktivlarni tan olish va baholash hamda moliyaviy hisobotlarni shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Mazkur nazariy-uslubiy yondashuvlardan innovatsion faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish ushbu sohada buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Korxonalarda innovatsion faoliyat hisobini tashkil etishda asosiy masalalardan biri innovatsion xarajatlarni aniq identifikatsiya qilish va iqtisodiy mazmuniga ko‘ra guruhlash hisoblanadi. Innovatsion faoliyat doirasida ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, yangi mahsulotni loyihalashtirish, tajriba namunasini ishlab chiqarish, dasturiy mahsulot yaratish, patentlashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq turli xarajatlar amalga oshiriladi.

Birinchi muammo - innovatsion xarajatlarni joriy xarajatlar va kapitallashtiriladigan xarajatlarga ajratish bilan bog‘liq. Barcha innovatsion xarajatlarni kelgusida iqtisodiy naf keltiradi degan asosda aktiv sifatida tan olish mumkin emas. Aksincha, tegishli mezonlarga javob bermaydigan xarajatlarni kapitallashtirish korxona aktivlari va moliyaviy natijalarining noto‘g‘ri aks ettirilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi muammo - ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqish bosqichlarining buxgalteriya hisobida yetarli darajada ajratilmasligidir. Innovatsion loyiha yagona jarayon sifatida ko‘rilganda, tadqiqot bosqichidagi xarajatlar bilan aktiv yaratishga olib kelishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqish bosqichi xarajatlari aralashib ketishi ehtimoli mavjud.

Uchinchi muammo innovatsion loyihalar bo‘yicha analitik hisob axborotlarining yetarli emasligi bilan bog‘liq. Innovatsion faoliyat xarajatlari boshqa umumxo‘jalik yoki ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida aks ettirilganda rahbariyat muayyan loyiha uchun qancha mablag‘ sarflangani, xarajatlarning tarkibi va loyiha natijalarini aniq baholashda qiyinchilikka duch keladi.

To‘rtinchi muammo innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan nomoddiy aktivlarning qiymatini keyingi davrlarda baholash bilan bog‘liq. Texnologiyaning tez eskirishi, yangi raqobatchi mahsulotlarning paydo bo‘lishi yoki bozor

talabining o‘zgarishi yaratilgan aktivning iqtisodiy qiymatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli innovatsion faoliyat hisobini faqat amalga oshirilgan xarajatlarni qayd etuvchi tizim sifatida emas, balki innovatsion loyiha bo‘yicha xarajatlarning shakllanishi va yaratilgan aktivlar haqida boshqaruv qarorlari uchun zarur axborotlarni shakllantiruvchi tizim sifatida tashkil etish lozim.

Innovatsion faoliyat hisobini takomillashtirishda IAS 38 “Nomoddiy aktivlar” talablarining ahamiyati katta. Mazkur standart ilmiy-tadqiqot bosqichidagi xarajatlar va ishlab chiqish bosqichidagi xarajatlarni farqlashga asoslangan yondashuvni belgilaydi.

Tadqiqot bosqichida korxona kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan nomoddiy aktiv mavjudligini namoyish eta olmaganligi sababli tegishli sarflar, qoida tariqasida, yuzaga kelgan davrda xarajat sifatida tan olinadi. Ishlab chiqish bosqichida esa IAS 38da belgilangan mezonlarning barchasi bajarilganidan keyin tegishli xarajatlar nomoddiy aktivning tannarxiga kiritilishi mumkin.

Shu jihatdan korxonalarda innovatsion loyihalarning hisobini “tadqiqot bosqichi → ishlab chiqish bosqichi → aktivni foydalanishga tayyorlash → foydalanish va amortizatsiya → qadrsizlanishni baholash” ketma-ketligida tashkil etish maqsadga muvofiq.

1-jadval.

Korxonalarda innovatsion faoliyat obyektlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida hisobga olish yo‘nalishlari

Innovatsion faoliyat obyektlari	**Tegishli xalqaro standart**	**Hisobda aks ettirishning asosiy yo‘nalishi**
Ilmiy-tadqiqot ishlari	IAS 38	Tadqiqot bosqichi sarflarini tegishli davr xarajati sifatida tan olish
Tajriba va ishlab chiqish ishlari	IAS 38	Belgilangan mezonlar bajarilgandan keyingi tegishli xarajatlarni kapitallashtirish
Dasturiy mahsulotlar	IAS 38	Tan olish mezonlari bajarilganda nomoddiy aktiv sifatida hisobga olish
Patent va litsenziyalar	IAS 38	Dastlab tannarx bo‘yicha tan olish va keyingi hisobni yuritish
Innovatsion texnologiyalar bilan bog‘liq aktivlar	IAS 16 / IAS 38	Aktivning moddiy yoki nomoddiy xususiyatiga qarab tegishli standartni qo‘llash
Innovatsion faoliyatga davlat grantlari	IAS 20	Grantlarni standart talablariga muvofiq tan olish va taqdim etish
Innovatsion faoliyat natijasidagi aktivlar qadrsizlanishi	IAS 36	Qadrsizlanish alomatlari va tegishli hollarda qoplanadigan qiymatni baholash

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, innovatsion faoliyat hisobini tashkil qilishda barcha operatsiyalarni faqat IAS 38 doirasida ko‘rib chiqish yetarli emas. Innovatsion loyiha doirasida moddiy aktivlar yaratilishi, davlat tomonidan moliyaviy yordam olinishi yoki yaratilgan aktivning qadrsizlanishi mumkin. Shu

sababli innovatsion faoliyat hisobi tegishli xalqaro standartlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida tashkil etilishi kerak.

Muallif tomonidan innovatsion faoliyat xarajatlarini quyidagi analitik guruhlarga ajratish taklif qilinadi:

IF-01 - ilmiy-tadqiqot xarajatlari;

IF-02 - tajriba-konstruktorlik va ishlab chiqish xarajatlari;

IF-03 - yangi texnologiyalarni joriy etish xarajatlari;

IF-04 - dasturiy mahsulotlarni yaratish xarajatlari;

IF-05 - patent va litsenziyalar bilan bog‘liq xarajatlar;

IF-06 - innovatsion loyihalarni sinovdan o‘tkazish xarajatlari.

Bunday analitik kodlardan foydalanish korxonaning amaldagi schyotlar tizimini almashtirishni emas, balki tegishli sintetik schyotlar doirasida boshqaruv va analitik hisobni batafsillashtirishni nazarda tutadi. Natijada korxona rahbariyati har bir innovatsion loyiha bo‘yicha sarflangan mablag‘lar va ularning tarkibi haqida tezkor ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchi taklif “Innovatsion loyiha xarajatlari kartasi”ni joriy etishdir. Mazkur registrda loyiha nomi, boshlanish muddati, moliyalashtirish manbasi, tadqiqot bosqichi xarajatlari, ishlab chiqish bosqichi xarajatlari, kapitallashtirish boshlangan sana, kapitallashtirilgan summa, xarajat sifatida tan olingan summa va yaratilgan aktiv to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilishi taklif etiladi.

Uchinchi taklif sifatida innovatsion faoliyat hisobida “kapitallashtirish nazorat nuqtasi”ni belgilash taklif qilinadi. Ya’ni korxona ishlab chiqish bosqichidagi xarajatlarni avtomatik ravishda aktivga kiritmasdan, IAS 38 bo‘yicha kapitallashtirish mezonlarining bajarilganligini hujjatlar bilan asoslagan sanadan boshlab tegishli xarajatlarni nomoddiy aktiv tannarxiga kiritishi lozim. Bu tadqiqot xarajatlarining asossiz kapitallashtirilishining oldini olishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, innovatsion faoliyat hisobini korxonaning ERP yoki boshqa buxgalteriya axborot tizimi bilan integratsiya qilish taklif etiladi. Bunda innovatsion loyiha kodi birlamchi hujjat kiritilgan vaqtdan boshlab tegishli xarajatga biriktiriladi. Natijada xarajatlarni loyiha, davr, xarajat turi va moliyalashtirish manbalari kesimida avtomatik guruhlash imkoniyati yaratiladi.

Taklif etilayotgan hisob mexanizmini quyidagicha ifodalash mumkin:

Innovatsion loyiha → tadqiqot bosqichi → xarajat sifatida tan olish → ishlab chiqish bosqichi → IAS 38 mezonlarini tekshirish → kapitallashtirish yoki xarajat sifatida tan olish → aktivni foydalanishga tayyorlash → amortizatsiya va qadrsizlanishni nazorat qilish → moliyaviy hisobotda aks ettirish.

Mazkur yondashuv innovatsion faoliyat xarajatlarini oddiy xarajatlar tarkibida umumlashtirishdan voz kechib, ularni loyiha va bosqichlar kesimida kuzatish, IAS 38 mezonlariga javob beradigan xarajatlarni o‘z vaqtida ajratish va innovatsion faoliyat bo‘yicha buxgalteriya axborotlarining tahliliy imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Korxonalarda innovatsion faoliyatning rivojlanishi buxgalteriya hisobining mavjud yondashuvlarini innovatsion jarayonlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib takomillashtirishni talab qiladi. Innovatsion faoliyat bilan bog‘liq xarajatlarning turli iqtisodiy xususiyatga egaligi, tadqiqot va ishlab chiqish

bosqichlarini farqlash zarurati, nomoddiy aktivlarni tan olish hamda ularning keyingi qiymatini baholash masalalari ushbu yo‘nalishda xalqaro standartlardan kompleks foydalanishni taqozo etadi.

IAS 38 talablaridan kelib chiqib tadqiqot va ishlab chiqish bosqichlarini alohida hisobga olish, IAS 36 asosida tegishli aktivlarning qadrsizlanishini baholash, IAS 20 asosida innovatsion faoliyatga olingan davlat grantlarini hisobga olish innovatsion faoliyat haqidagi moliyaviy axborotlarning ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida innovatsion xarajatlar uchun IF-01–IF-06 analitik kodlari, “Innovatsion loyiha xarajatlari kartasi”, “kapitallashtirish nazorat nuqtasi” hamda innovatsion faoliyat hisobini ERP tizimi bilan integratsiyalash mexanizmi taklif etildi. Ushbu takliflarning amaliyotga joriy qilinishi innovatsion xarajatlarni loyiha va bosqichlar kesimida nazorat qilish, xarajatlar va kapitallashtiriladigan summalarni aniq ajratish hamda innovatsion faoliyat to‘g‘risidagi hisob axborotlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-404-son, 2016-yil 13-aprel.
2. Tashnazarov S.N. *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari*. – Samarqand, 2019.
3. Urazov K.B. *Buxgalteriya hisobi va audit*. – Samarqand, 2019.
4. Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. *Buxgalteriya hisobi*. – Toshkent.
5. IFRS Foundation. *IAS 38 – Intangible Assets*.
6. IFRS Foundation. *IAS 36 – Impairment of Assets*.
7. IFRS Foundation. *IAS 20 – Accounting for Government Grants and Disclosure of Government Assistance*.
8. IFRS Foundation. *IAS 16 – Property, Plant and Equipment*.
9. OECD/Eurostat. *Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation*. – OECD Publishing, 2018.

LOGISTIKA TIZIMLARIDA MOLIYAVIY OQIMLARNI BOSHQARISH VA MOLIYAVIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN METODOLOGIYASI

Rashidov Uchqun Roʻzimurod oʻgʻli – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada logistika tizimlarida moliyaviy oqimlarni boshqarish va moliyaviy samaradorlikni baholashning integrallashgan yondashuvi tadqiq etilgan. Unda moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarning oʻzaro bogʻliqligi, aylanma kapitalning ahamiyati hamda Cash Conversion Cycle (CCC) koʻrsatkichining moliyaviy natijalarga ta'siri tahlil qilingan. Supply Chain Finance (SCF) mexanizmlari orqali debitorlik, kreditorlik qarzlari va zaxiralarni samarali boshqarish asosida pul oqimlarini optimallashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida logistika samaradorligini faqat xarajatlarni qisqartirish orqali emas, balki likvidlik, kapital aylanishi, xizmat sifati va moliyaviy risklarni kompleks hisobga olish zarurligi asoslangan. Shu asosda moliyaviy, operatsion va risk koʻrsatkichlarini uygʻunlashtiruvchi integrallashgan moliyaviy-logistika samaradorligi modeli taklif etilgan.

Kalit soʻzlar: logistika, moliyaviy oqim, aylanma kapital, Cash Conversion Cycle, Supply Chain Finance, logistika xarajatlari, moliyaviy samaradorlik, risk, likvidlik.

Аннотация. В статье исследуется интегрированный подход к управлению финансовыми потоками в логистических системах и оценке их финансовой эффективности. Проанализированы взаимосвязь материальных, информационных и финансовых потоков, значение оборотного капитала, а также влияние показателя Cash Conversion Cycle (CCC) на финансовые результаты. Освещены возможности оптимизации денежных потоков посредством эффективного управления дебиторской и кредиторской задолженностью, а также запасами на основе механизмов Supply Chain Finance (SCF). По результатам исследования обоснована необходимость оценки эффективности логистики не только посредством сокращения затрат, но и с комплексным учетом ликвидности, оборачиваемости капитала, уровня обслуживания и финансовых рисков. На этой основе предложена интегрированная модель финансово-логистической эффективности, объединяющая финансовые, операционные и риск-ориентированные показатели.

Ключевые слова: логистика, финансовые потоки, оборотный капитал, Cash Conversion Cycle, Supply Chain Finance, логистические затраты, финансовая эффективность, риск, ликвидность.

Abstract. This article examines an integrated approach to managing financial flows in logistics systems and assessing their financial efficiency. It analyzes the interrelationship between material, information, and financial flows, the role of working capital, and the impact of the Cash Conversion Cycle (CCC) indicator on financial performance. The study highlights opportunities to optimize

cash flows through effective management of accounts receivable, accounts payable, and inventories based on Supply Chain Finance (SCF) mechanisms. The findings substantiate that logistics efficiency should be assessed not only through cost reduction but also by comprehensively considering liquidity, capital turnover, service quality, and financial risks. Based on this approach, an integrated financial-logistics efficiency model combining financial, operational, and risk-oriented indicators is proposed.

Keywords: logistics, financial flows, working capital, Cash Conversion Cycle, Supply Chain Finance, logistics costs, financial efficiency, risk, liquidity.

Kirish. Zamonaviy ta’minot zanjirlarida logistika jarayonlarining samaradorligi moddiy resurslarni zarur vaqtda hamda kerakli manzilga yetkazish bilan cheklanmaydi. Har bir logistika operatsiyasi muayyan moliyaviy resurslarning shakllanishi, harakatlanishi va vaqtincha band bo‘lishini keltirib chiqaradi. Shu sababli logistika tizimini boshqarishda moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda *Supply Chain Finance (SCF)* ta’minot zanjiridagi moliyaviy oqimlarni optimallashtirishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Xorijlik iqtisodchi olimlar Gelsomino va hammualliflar “SCF bo‘yicha tadqiqotlarni tahlil qilib, ushbu konsepsiyaning moliyaga yo‘naltirilgan va ta’minot zanjiriga yo‘naltirilgan ikki asosiy yondashuvini ajratib ko‘rsatadi. Ikkinchi yondashuvda asosiy e’tibor alohida korxonaning emas, balki butun ta’minot zanjirining aylanma kapitalini optimallashtirishga qaratiladi” [1].

Logistika tizimida mahsulotning fizik harakati bilan unga mos pul oqimi ko‘pincha bir vaqtda yuz bermaydi. Masalan, mahsulot xaridorga yetkazib berilgan bo‘lsa-da, to‘lov 30 yoki 60 kundan keyin amalga oshirilishi mumkin. Natijada korxonaning mablag‘lari debitorlik qarzida vaqtincha band bo‘ladi. Aksincha, yetkazib beruvchidan olingan mahsulot uchun to‘lovning kechiktirilishi kreditorlik qarzi orqali aylanma kapitalning vaqtincha moliyalashtirilishiga olib keladi.

Shu nuqtayi nazardan logistika tizimidagi moliyaviy oqimni faqat pul mablag‘larining kirimi va chiqimi sifatida emas, balki moddiy oqimni moliyalashtirish, logistika operatsiyalarini ta’minlash, kapitalning vaqtincha band bo‘lishi va tegishli risklarning iqtisodiy qiymatini ifodalovchi munosabatlar majmui sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning asosiy maqsadi logistika tizimlarida moliyaviy oqimlarni boshqarishning nazariy asoslarini tizimlashtirish va logistika moliyaviy samaradorligini kompleks baholash imkonini beruvchi integrallashgan metodologik modelni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish va ko‘rsatkichlarni standartlashtirish usullari tashkil etadi.

Logistika tizimidagi moliyaviy oqimning umumiy shakli quyidagicha ifodalanadi:

$$FO = f(MO, AO, TO, ZO, RO), \quad (1)$$

bu yerda: *FO* - moliyaviy oqim; *MO* - moddiy oqim; *AO* - axborot oqimi; *TO* - to‘lov shartlari; *ZO* - zaxiralar; *RO* - logistika risklari.

Moliyaviy oqimning davriy saldosini esa quyidagicha aniqlash mumkin:

$$FO_t = CF_t^{in} - CF_t^{out}, \quad (2)$$

bu yerda: FO_t - t-davrdagi moliyaviy oqimning davriy saldosi; CF_t^{in} - t-davrdagi pul mablag‘larining kirimi (cash flow in); CF_t^{out} - t-davrdagi pul mablag‘larining chiqimi (cash flow out). Ya’ni, davriy saldo = pul kirimi − pul chiqimi.

Bu ko‘rsatkich logistika faoliyati natijasida muayyan davrda korxonaga kelib tushgan va undan chiqib ketgan pul mablag‘lari o‘rtasidagi farqni ifodalaydi.

“Logistika tizimining moliyaviy samaradorligini baholashda aylanma kapital alohida ahamiyatga ega. Uning logistika bilan bog‘liq soddalashtirilgan ko‘rinishi:

$$NWC = Inventory + AR - AP, \quad (3)$$

orqali ifodalanadi. Bunda: *Inventory* - zaxiralar, *AR* - debitorlik qarzlari, *AP* - kreditorlik qarzlarini bildiradi” [2].

“Aylanma kapitalning samaradorligini baholashda Cash Conversion Cycle quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$CCC = DIO + DSO - DPO, \quad (4)$$

Bu yerda: *DIO* - zaxiralarning saqlanish muddati, *DSO* - debitorlik qarzlarining undirilish muddati, *DPO* - kreditorlik qarzlarining to‘lanish muddati” [3].

Tadqiqotda logistika samaradorligini beshta asosiy yo‘nalishda baholash taklif qilinadi:

1. xarajat samaradorligi;
2. pul oqimi samaradorligi;
3. aylanma kapital samaradorligi;
4. operatsion-logistika samaradorligi;
5. riskka moslashtirilgan moliyaviy samaradorlik.

Mavjud ilmiy yondashuvlarda ta’minot zanjiri samaradorligini ko‘p mezonli baholash zarurati asosida [5; 6], tadqiqotda logistika tizimining moliyaviy, operatsion va risk komponentlarini birlashtiruvchi quyidagi integrallashgan indeks taklif etiladi:

$$IFLE = w_1CE + w_2CFE + w_3WCE + w_4OE + w_5RFE, \quad (5)$$

bu yerda: *IFLE* - integrallashgan moliyaviy-logistika samaradorligi; *CE* - xarajat samaradorligi; *CFE* - pul oqimi samaradorligi; *WCE* - aylanma kapital samaradorligi; *OE* - operatsion samaradorlik; *RFE* - riskka moslashtirilgan moliyaviy samaradorlik; $w_1....w_5$ - *w* komponentlarning vazn koeffitsiyentlari.

Muhim shartlar: $w_1+w_2+w_3+w_4+w_5 = 1$ (agar vaznlar ulush sifatida berilgan bo‘lsa); *CE+CFE+WCE+OE+RFE* ko‘rsatkichlari *bir xil yoki taqqoslanadigan shkala*ga keltirilgan bo‘lishi ma’qul; har bir w_i tegishli ko‘rsatkichning IFLEga ta’sir darajasini bildiradi.

Ko‘rsatkichlarning turli o‘lchov birliklariga ega bo‘lishi ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri birlashtirish imkonini bermaydi. Shu sababli ular 0–1 oralig‘ida standartlashtiriladi. Ha, bu *min-max normalizatsiya* formulasi.

Ijobiy yo‘nalishli ko‘rsatkich uchun:

$Z_i = x_i - x_{min} / x_{max} - x_{min}$, (6)

bu yerda: *Zi* - normallashtirilgan qiymat; x_i - i-ko‘rsatkichning haqiqiy qiymati; x_{min} - ko‘rsatkichning minimal qiymati; x_{max} - ko‘rsatkichning maksimal qiymati.

Natijada: $0 \le Z_i \le 1$, agar ko‘rsatkich *“kam bo‘lsa yaxshi”* tamoyiliga ega bo‘lsa, teskari normalizatsiya ishlatiladi:

salbiy yo‘nalishli ko‘rsatkich uchun esa:

$Z_i = x_{max} - x_i / x_{max} - x_{min}$, (7)

formulalaridan foydalanish mumkin.

Mazkur metodika logistika tizimining moliyaviy va operatsion natijalarini yagona indeks orqali baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari logistika tizimining moliyaviy samaradorligi uchta o‘zaro bog‘liq jarayon - logistika xarajatlari, aylanma kapital va pul oqimi - orqali shakllanishini ko‘rsatadi.

Birinchi muhim natija shundan iboratki, logistika xarajatlarini kamaytirish avtomatik ravishda moliyaviy samaradorlikning oshishini anglatmaydi. Masalan, zaxiralarni keskin qisqartirish saqlash xarajatlarini kamaytirishi mumkin, biroq yetarli zaxiraning mavjud emasligi buyurtmalarni bajarish darajasini pasaytirib, sotuvlarning yo‘qotilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun logistika qarorlarini baholashda xarajat va xizmat darajasi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarur.

Ikkinchi natija - *CCC* logistika va moliyaviy boshqaruvni bog‘lovchi asosiy indikatorlardan biri ekanligidir. *CCC*ning qisqarishi korxonaning mablag‘larini mahsulot xarididan boshlab sotuvdan tushgan mablag‘ni olishgacha bo‘lgan davrda kamroq vaqt band qilishini anglatadi. Shu sababli logistika jarayonlarini takomillashtirish orqali *DIO* va *DSO*ni kamaytirish hamda iqtisodiy jihatdan maqbul darajada *DPO*ni boshqarish aylanma kapitalga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkin.

Uchinchi natija *Supply Chain Finance* instrumentlarining moliyaviy oqimlarni sinxronlashtirishdagi rolini ko‘rsatadi. “Faktoring debitorlik qarzlarini muddatidan oldin pulga aylantirish imkonini bersa, reverse factoring yetkazib beruvchiga tezroq to‘lov olish imkonini yaratadi. Bunda yirik xaridorning moliyaviy ishonchliligi ta’minot zanjiridagi kichikroq yetkazib beruvchilar uchun moliyalashtirish shartlarini yaxshilashi mumkin. SCFning bunday mexanizmlari ta’minot zanjirining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bilan birga logistika uzilishlari xavfini kamaytirishga xizmat qiladi” [1, 4].

To‘rtinchi natija logistika samaradorligini baholashda risk omillarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Yetkazib berish kechikishi, transport tariflarining oshishi, valyuta kurslarining o‘zgarishi, bojxona xarajatlari va kontragentlarning to‘lov qobiliyati logistika tizimining rejalashtirilgan pul oqimlariga bevosita ta’sir qiladi.

Riskning kutilayotgan qiymatini:

$$ER = \sum_{j=1}^{m} P_j L_j, \quad (8)$$

ko‘rinishida aniqlash mumkin.

Bu yerda: *ER* - kutilayotgan risk (*Expected Risk*); P_j - risk hodisasining *yuz berish ehtimoli;* L_j - risk hodisasi yuz bergandagi *yo‘qotish (zarar) miqdori*; m - risk hodisalari soni. Masalan, 3 ta risk mavjud bo‘lsa: $ER = P_1 L_1 + P_2 L_2 + P_3 L_3$ Agar P_j ehtimollik sifatida berilsa, odatda: $0 \leq P_j \leq 1$.

Shu asosda riskka moslashtirilgan moliyaviy samarani:

$$RFE = E\,(CF) - ER, \qquad (9)$$

orqali ifodalash mumkin. Bu yerda: *RFE* - riskni hisobga olgan *kutilayotgan moliyaviy samaradorlik*; *E (CF)* - pul oqimining *kutilayotgan qiymati; ER* - *kutilayotgan risk/zarar*.

Biroq bitta muhim jihat bor: *E (CF)* va *ER bir xil o‘lchov birligida* bo‘lishi kerak. Masalan, ikkalasi ham pul birligida (so‘m) ifodalansa, ularni ayirish mumkin.

Unda yakuniy ko‘rinish:

$$RFE = E\,(CF) - ER = E\,(CF) - \sum_{j=1}^{m} P_j L_j, \qquad (10)$$

bo‘ladi. Bu ko‘rinish ilmiy jihatdan ancha aniq.

Beshinchi natija logistika tizimining moliyaviy samaradorligini bitta indikator bilan emas, o‘zaro bog‘langan ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi (jadval).

1-Jadval

Logistika tizimining moliyaviy samaradorligining o‘zaro bog‘langan ko‘rsatkichlar tizimi (indikatorlar) orqali baholanishi

Baholash yo‘nalishi	Asosiy indikatorlar	Samarali yo‘nalish
Xarajat	Logistics Cost Ratio	↓
Pul oqimi	CFO, FCF	↑
Aylanma kapital	CCC	↓
Zaxiralar	Inventory Turnover	↑
Debitorlik	DSO	↓
Kreditorlik	DPO	Optimal daraja
Rentabellik	ROIC, ROA	↑
Operatsion	Order Fulfillment	↑
Risk	Expected Loss	↓

Natijada logistika tizimining samaradorligi “xarajatni imkon qadar kamaytirish” emas, balki ***minimal resurs sarfi sharoitida maksimal moliyaviy qiymat yaratish*** mezoni asosida baholanishi kerak.

Muhokama. Olingan natijalar logistika va moliyaviy boshqaruvni alohida funksiyalar sifatida ko‘rish zamonaviy ta’minot zanjirlarining murakkabligini to‘liq aks ettirmasligini ko‘rsatadi. Logistika qarori ko‘pincha bevosita yoki bilvosita moliyaviy natijani shakllantiradi. Masalan, tashish partiyasining hajmi transport xarajatlariga ta’sir qilishi bilan birga zaxira miqdori va kapitalning band bo‘lish muddatini ham o‘zgartiradi.

Shuningdek, to‘lov shartlari logistika tizimining moliyaviy samaradorligiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Xaridorlarga uzoq muddatli kredit berish savdo hajmini oshirishi mumkin, ammo *DSO*ning ko‘payishi pul mablag‘larining aylanishini sekinlashtiradi. Yetkazib beruvchilarga to‘lovni kechiktirish esa qisqa muddatda korxonaning pul oqimini yaxshilaydi, biroq haddan tashqari kechiktirish ta’minotning uzilishi yoki tijorat chegirmalarining yo‘qotilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu sababli logistika moliyaviy samaradorligini baholashda “optimal” holat tushunchasi muhim. Har bir indikatorni maksimal yoki minimal qilish emas, balki ularning o‘zaro muvozanatini ta’minlash asosiy vazifa hisoblanadi.

Taklif qilinayotgan *IFLE* modeli ana shu muvozanatni ifodalashga xizmat qiladi. Uning amaliy qo‘llanishida vazn koeffitsiyentlarini ekspert baholash, entropiya usuli, *AHP* yoki empirik statistik usullar yordamida aniqlash mumkin. Kelgusida ushbu indeksni O‘zbekiston logistika korxonalari ma’lumotlari asosida ekonometrik sinovdan o‘tkazish uning ilmiy va amaliy qiymatini oshiradi.

O‘zbekiston sharoitida mazkur yondashuv ayniqsa muhim, chunki transport masofalarining uzoqligi, tashqi savdo operatsiyalaridagi vaqt omili, valyuta va bojxona risklari logistika xarajatlari bilan bir qatorda aylanma kapitalga bo‘lgan ehtiyojni ham oshirishi mumkin. Shuning uchun korxonalar logistika xarajatlarini boshqarish bilan bir vaqtda pul oqimlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda zaxiralar aylanishini integratsiyalashgan holda nazorat qilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. Tadqiqot natijasida logistika tizimlarida moliyaviy oqimlarni boshqarish moddiy oqimlarni moliyalashtirish bilan chegaralanmasligi, balki zaxiralar, debitorlik va kreditorlik qarzlari, pul oqimlari, moliyalashtirish xarajatlari va logistika risklarini yagona tizimda boshqarishni qamrab olishi asoslandi.

Logistika moliyaviy samaradorligini baholashda *CCC, ROIC, ROA,* logistika xarajatlari ulushi, zaxiralar aylanishi, *DSO, DPO,* operatsion pul oqimi va xizmat darajasidan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda logistika xarajatlarini kamaytirishning o‘zi yakuniy mezon bo‘la olmaydi. Asosiy maqsad kapital aylanishini tezlashtirish, likvidlikni ta’minlash, xizmat sifatini saqlash va risklarni hisobga olgan holda iqtisodiy qiymat yaratishdan iborat.

Maqolada taklif etilgan integrallashgan moliyaviy-logistika samaradorligi *(IFLE)* modeli logistika tizimining xarajat, pul oqimi, aylanma kapital, operatsion faoliyat va risk komponentlarini yagona baholash tizimiga birlashtiradi. Mazkur metodologiya kelgusida O‘zbekiston korxonalari bo‘yicha panel ma’lumotlar asosida empirik tekshirilishi va logistika moliyaviy samaradorligining determinantlarini ekonometrik baholash uchun asos bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Gelsomino, L. M., Mangiaracina, R., Perego, A., & Tumino, A. (2016). Supply chain finance: a literature review. *International Journal of Physical Distribution & Logistics Management*, 46(4), 348–366. https://doi.org/10.1108/IJPDLM-08-2014-0173.

2. Hofmann, E., & Kotzab, H. (2010). A supply chain-oriented approach of working capital management. *Journal of Business Logistics*, 31(2), 305–330. https://doi.org/10.1002/j.2158-1592.2010.tb00154.x.
3. Deloof, M. (2003). Does working capital management affect profitability of Belgian firms? *Journal of Business Finance & Accounting*, 30(3–4), 573–588. https://doi.org/10.1111/1468-5957.00008.
4. Global Supply Chain Finance Forum / International Chamber of Commerce. (2016). *Standard Definitions for Techniques of Supply Chain Finance*. ICC.
5. Shepherd, C., & Günter, H. (2006). Measuring supply chain performance: current research and future directions. *International Journal of Productivity and Performance Management*, 55(3–4), 242–258. https://doi.org/10.1108/17410400610653219.
6. Nguyen, T. T. H. (2024). Measuring supply chain performance using the SCOR model. *Operations Research Forum*, 5, Article 37. https://doi.org/10.1007/S43069-024-00314-Y.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШДА АУДИТНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ЎТКАЗИШНИНГ НАЗАРИЙ, ТАШКИЛИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

Джалалова Дурдона Дилшадбековна,
Тошкент давлат аграр университети,
Агробизнесни бошқариш ва логистика
кафедраси, PhD катта ўқитувчиси
e-mail: durdona_djalolova@gmail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада аграр соҳада инновацион технологияларни жорий этиш жараёнларини аудитдан ўтказишнинг назарий, ташкилий ва методологик асослари тадқиқ этилган. Халқаро аудит стандартларининг рискка асосланган ёндашуви асосида инновацион технологиялар билан боғлиқ рискларни аниқлаш, ички назорат тизимини баҳолаш, аудит далилларини шакллантириш ва инновацион инвестициялар самарадорлигини таҳлил қилиш йўналишлари ёритилган. Қишлоқ хўжалиги хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда «мақсад – риск – назорат – аудит далили – натижа – самарадорлик» методологик занжири таклиф этилган.

Калит сўзлар: қишлоқ хўжалиги, аудит, халқаро аудит стандартлари, инновацион технологиялар, рақамлаштириш, аудит риски, ички назорат, аудит далиллари, инвестиция, иқтисодий самарадорлик.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические, организационные и методологические основы аудита процессов внедрения инновационных технологий в сельскохозяйственном секторе. Исходя из риск-ориентированного подхода, заложенного в Международных стандартах аудита, в статье рассматриваются следующие направления: выявление

рисков, связанных с инновационными технологиями, оценка системы внутреннего контроля, сбор аудиторских доказательств и анализ эффективности инвестиций в инновации. С учетом особенностей сельского хозяйства предлагается методологическая цепочка «цель – риск – контроль – аудиторские доказательства – результат – эффективность».

Ключевые слова: сельское хозяйство, аудит, международные стандарты аудита, инновационные технологии, цифровизация, аудиторский риск, внутренний контроль, аудиторские доказательства, инвестиции, экономическая эффективность.

Abstract. This article examines the theoretical, organisational and methodological foundations for auditing the processes of introducing innovative technologies in the agricultural sector. Based on the risk-based approach of International Auditing Standards, the following areas are addressed: identifying risks associated with innovative technologies, assessing the internal control system, gathering audit evidence and analysing the effectiveness of innovative investments. Taking into account the characteristics of agriculture, a methodological chain of 'objective – risk – control – audit evidence – result – effectiveness' is proposed.

Keywords: agriculture, audit, International Standards on Auditing, innovative technologies, digitalization, audit risk, internal control, audit evidence, investment, economic efficiency.

Кириш. Қишлоқ хўжалигида рақамли ва инновацион технологияларни қўллаш ишлаб чиқариш жараёнларини бошқариш, ресурслардан фойдаланиш ва қарор қабул қилиш механизмларини ўзгартирмоқда. Аниқ деҳқончилик, GPS ва GIS тизимлари, дронлар, IoT сенсорлари, автоматлаштирилган суғориш, сунъий интеллект ҳамда фермер хўжалигини рақамли бошқариш платформалари аграр ишлаб чиқаришда маълумотлар ҳажмини ва уларнинг бошқарув аҳамиятини оширмоқда. FAO рақамли қишлоқ хўжалиги ва сунъий интеллектни самарадор, барқарор ва чидамли агроозиқ-овқат тизимларини шакллантириш воситаларидан бири сифатида кўрсатади.

Инновацион технологияни харид қилиш ёки жорий этишнинг ўзи унинг иқтисодий самара берганлигини англатмайди. Инвестициянинг асосланганлиги, технологиянинг белгиланган вазифаларни бажариши, рақамли маълумотларнинг ишончлилиги, ички назоратларнинг етарлилиги ва молиявий ҳисоботга таъсир этувчи рискларни баҳолаш зарур. Шу жиҳатдан инновацион жараёнларни аудит қилиш методологиясини халқаро аудит стандартларининг рискка асосланган тамойиллари билан уйғунлаштириш долзарб аҳамият касб этади.

Тадқиқотнинг мақсади қишлоқ хўжалигида инновацион технологияларни жорий этиш билан боғлиқ жараёнларни халқаро аудит стандартлари талаблари нуқтаи назаридан тизимлаштириш ва уларни баҳолаш учун назарий, ташкилий ҳамда методологик ёндашувни таклиф этишдан иборат.

Адабиётлар таҳлили. Қишлоқ хўжалигида инновацион технологияларни жорий этиш, рақамлаштириш ва уларнинг иқтисодий

самарадорлигини баҳолаш масалалари хорижий олимлар томонидан турли йўналишларда тадқиқ этилган. Мавжуд тадқиқотларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, олимларнинг бир қисми аграр соҳада рақамли технологияларнинг иқтисодий самарадорлигига, бошқа қисми аниқ деҳқончилик ва маълумотларга асосланган бошқарувга, аудит соҳаси тадқиқотчилари эса рақамли муҳитда рисклар, ички назорат ва аудит далилларининг трансформациясига эътибор қаратган. S. Wolfert, L. Ge, C. Verdouw ва M.-J. Bogaardt қишлоқ хўжалигида Big Data технологияларининг ривожланишини таҳлил қилиб, рақамли маълумотлар фермер хўжаликларида қарор қабул қилиш, ишлаб чиқариш жараёнларини назорат қилиш ва ресурслардан самарали фойдаланиш имкониятларини кенгайтиришини таъкидлайдилар. Ушбу ёндашув аудит нуқтаи назаридан рақамли маълумотларнинг ишончлилиги ва улар устидан назорат механизмларини баҳолаш заруратини асослайди. S. Fountas ва ҳаммуаллифлар фермер хўжаликларини бошқариш ахборот тизимларининг ривожланишини ўрганиб, замонавий қишлоқ хўжалигида ахборот тизимлари режалаштириш, мониторинг, ҳужжатлаштириш ва бошқарув қарорларини қабул қилишнинг муҳим воситасига айланганини кўрсатадилар. Уларнинг тадқиқотлари аграр корхоналарда рақамли маълумотлар оқими кўпайиши натижасида ахборот тизимларининг сифати ва интеграцияси алоҳида аҳамият касб этишини кўрсатади. Бу эса аудитда ахборот тизимлари орқали шакллантирилган маълумотларнинг тўлиқлиги ва ишончлилигини текшириш заруратини келтириб чиқаради.

Ўрганилган илмий адабиётларни умумлаштириш натижасида тадқиқотларни шартли равишда уч йўналишга ажратиш мумкин: **биринчи йўналиш** қишлоқ хўжалигини рақамлаштириш ва инновацион технологияларни жорий этишга; **иккинчи йўналиш** ушбу технологияларнинг иқтисодий ва ресурс самарадорлигига; **учинчи йўналиш** эса рақамли технологияларнинг аудит, аудит далиллари ва назорат механизмларига таъсирига бағишланган. Бироқ мазкур йўналишлар кўп ҳолларда алоҳида тадқиқ этилган. Қишлоқ хўжалигида инновацион технологияларни жорий этиш жараёнини **халқаро аудит стандартлари талаблари, технологик рисклар, рақамли аудит далиллари ва иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини ягона методологик тизимда бирлаштирган ҳолда баҳолаш** масаласи қўшимча тадқиқотни талаб этади.

Шундан келиб чиқиб, мазкур тадқиқотда қишлоқ хўжалигида инновацион технологияларни аудит қилишнинг **«мақсад → риск → назорат → аудит далили → натижа → самарадорлик»** модели таклиф этилади. Мазкур ёндашув аграр инновациялар бўйича тадқиқотларда шаклланган технологик ва иқтисодий ёндашувларни замонавий аудитнинг рискка асосланган методологияси билан уйғунлаштиришга қаратилган.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотда тизимли ёндашув, қиёсий таҳлил, иқтисодий таҳлил, гуруҳлаш, рискларни баҳолаш, аналитик процедуралар ҳамда инновация жорий этилишидан олдинги ва кейинги кўрсаткичларни таққослаш усулларидан фойдаланилди. Методологик асос

сифатида IAASB томонидан ишлаб чиқилган Халқаро аудит стандартлари, хусусан ISA 315, ISA 330, ISA 500 ва ISA 520 талаблари қабул қилинди [1–4]. ISA 315 доирасида ташкилот ва унинг муҳитини тушуниш, ички назорат тизимини ўрганиш ва муҳим нотўғри акс эттириш рискларини аниқлаш асосий босқич ҳисобланади. ISA 330 баҳоланган рискларга жавобан тегишли аудит процедураларини белгилашни, ISA 500 етарли ва тегишли аудит далилларини олишни, ISA 520 эса аналитик процедуралардан фойдаланишни назарда тутади [1–4]. Ушбу талаблар аграр инновацияларнинг молиявий ҳисоботга таъсирини аудит қилишда бевосита аҳамиятга эга.

Натижалар ва муҳокама. Қишлоқ хўжалигида инновацион технологияларни аудит қилишда объектни фақат ускуна ёки дастурий маҳсулот сифатида эмас, балки инвестициядан бошлаб иқтисодий натижагача бўлган ўзаро боғлиқ жараён сифатида кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ. Мазкур боғлиқликни «инновацион эҳтиёж → инвестиция → технология → ишлаб чиқариш жараёни → натижа → иқтисодий самара» кўринишида ифодалаш мумкин.

Ҳар бир босқич ўзига хос рискларни шакллантиради. Инвестиция босқичида харид нархининг асосланганлиги, етказиб берувчини танлаш ва маблағларнинг мақсадли сарфланиши; жорий этиш босқичида техник мослик, интеграция ва ходимлар малакаси; эксплуатация босқичида эса маълумотларнинг тўлиқлиги, сенсорлар аниқлиги, ахборот хавфсизлиги, техник узилишлар ва натижаларнинг барқарорлиги муҳим риск омиллари ҳисобланади.

Шундан келиб чиқиб, аудитни ташкилий жиҳатдан саккиз босқичда амалга ошириш таклиф этилади: 1) аудит объекти, мақсади ва мезонларини белгилаш; 2) инновацион технология ва тегишли бизнес-жараёнларни ўрганиш; 3) молиявий, технологик, операцион ва ахборот рискларини аниқлаш; 4) ички назоратларни баҳолаш; 5) рискларга мос аудит процедураларини ишлаб чиқиш; 6) етарли ва тегишли далилларни йиғиш; 7) натижа ва самарадорлик кўрсаткичларини таҳлил қилиш; 8) хулоса ва тавсияларни шакллантириш.

Рақамлаштириш аудит далилларининг таркибини кенгайтиради. Шартнома, ҳисоб-фактура, тўлов ҳужжатлари ва бухгалтерия регистрлари билан бир қаторда GPS маълумотлари, дрон тасвирлари, IoT сенсорлари кўрсаткичлари, электрон сув ва электр ҳисоблагичлари, ERP ва фермер хўжалигини бошқариш тизимларидаги маълумотлар ҳам текширув учун манба бўлиши мумкин. Бироқ рақамли маълумотнинг мавжудлиги уни автоматик равишда ишончли аудит далилига айлантирмайди. Маълумот манбаси, тўлиқлиги, аниқлиги, ўзгартирилиш имконияти ва тегишли IT-назоратлар баҳоланиши лозим.

FAOнинг рақамли қишлоқ хўжалиги бўйича ёндашувида ҳам технологияни жорий этиш билан бирга маълумотларни бошқариш, хавфсизлик, ҳисобдорлик ва таъсирни ўлчаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилади. Бу ҳолат аграр инновацияларни баҳолашда молиявий аудит,

ички назорат ва самарадорлик таҳлилининг ўзаро боғлиқлигини кучайтиради (1-жадвал**)**.

1-жадвал.

Аграр инновацияларни баҳолашдаги аудит йўналишлари

Аудит йўналиши	Асосий риск	Аудит далили	Баҳолаш мезони
Молиявий	Харажатларни нотўғри акс эттириш	Шартнома, ҳисоб-фактура, тўлов	Ҳаққонийлик ва ҳисобда тўғри акс эттириш
Технологик	Ускуна/тизим ишламаслиги	Техник журнал, сенсор маълумоти	Техник талабларга мувофиқлик
Операцион	Кутилаётган натижага эришмаслик	Ҳосилдорлик, ресурс сарфи	Режа ва амалдаги натижа
Ахборот	Маълумот нотўғри ёки тўлиқ эмас	GPS, IoT, ERP маълумотлари	Аниқлик, тўлиқлик, ишончлилик

Иқтисодий самарадорликни баҳолаш. Инновацион технологиянинг натижадорлигини баҳолашда ҳосилдорлик, сув ва энергия сарфи, меҳнат унумдорлиги, маҳсулот таннархи, операцион харажатлар, инвестиция рентабеллиги ва қопланиш муддати каби кўрсаткичлардан фойдаланиш мумкин. Масалан, инвестиция рентабеллиги қуйидаги тарзда аниқланади:

ROI = (инвестициядан олинган соф иқтисодий самара / инвестиция қиймати) × 100%.

Сув тежамкорлиги = $((S_0 – S_1) / S_0) \times 100\%$,

бу ерда S_0 – технология жорий этилишидан олдинги сув сарфи, S_1 – технология жорий этилгандан кейинги сув сарфи.

Бироқ «олдин–кейин» таққослашнинг ўзи сабабий таъсирни тўлиқ исботламайди. Қишлоқ хўжалигида ҳосилдорлик ва молиявий натижага иқлим, сув таъминоти, уруғ сифати, ўғит, агротехник тадбирлар, меҳнат ресурслари ва бозор нархлари таъсир қилади. Шу сабабли аудитор ёки таҳлилчи технология таъсирини бошқа муҳим омиллардан ажратишга ҳаракат қилиши, зарур ҳолларда бир неча давр маълумотлари, назорат майдонлари ёки бошқа тақкосланувчи маълумотлардан фойдаланиши лозим.

Илмий янгилик ва амалий таклифлар. Тадқиқот натижасида қишлоқ хўжалигида инновацион технологияларни баҳолаш учун

«МАҚСАД → РИСК → НАЗОРАТ → АУДИТ ДАЛИЛИ → НАТИЖА → САМАРАДОРЛИК»

методологик занжири таклиф этилди. Ушбу ёндашувда биринчи навбатда инновациядан кўзланган мақсад аниқ ўлчанадиган кўрсаткичларда белгиланади; кейин мақсадга эришишга тўсқинлик қилувчи рисклар ва уларни камайтирувчи назоратлар баҳоланади; сўнг далиллар асосида амалдаги натижа ва иқтисодий самарадорлик таҳлил қилинади.

Амалиётда мазкур ёндашувни қўллаш учун ҳар бир йирик инновацион лойиҳа бўйича технология паспорти, рисклар реестри, назорат матрицаси ва натижадорлик KPIларини олдиндан шакллантириш мақсадга мувофиқ. Бу аудит жараёнида мезонларни аниқлашни осонлаштиради ва инвестиция бўйича режалаштирилган ҳамда амалдаги натижаларни таққослаш имконини беради.

Шунингдек, GPS, IoT, ERP ва бошқа рақамли манбалардан олинадиган маълумотларни аудитда қўллашдан олдин уларнинг шаклланиш механизми ва IT-назоратларини баҳолаш лозим. Акс ҳолда нотўғри ёки тўлиқ бўлмаган рақамли маълумот асосида нотўғри хулоса чиқариш хавфи мавжуд.

Хулоса. Қишлоқ хўжалигида инновацион технологияларни жорий этишнинг кенгайиши аудитнинг анъанавий молиявий текширув доирасидан ташқаридаги маълумотлар билан ишлаш эҳтиёжини оширмоқда. Халқаро аудит стандартларининг рискка асосланган ёндашуви молиявий ҳисобот аудити доирасида рискларни аниқлаш, ички назоратларни ўрганиш ва ишончли далилларни шакллантириш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Таклиф этилган «мақсад – риск – назорат – аудит далили – натижа – самарадорлик» модели аграр инновацияларни тизимли баҳолаш учун амалий методологик асос сифатида қўлланилиши мумкин. Бунда молиявий ҳисобот аудити талаблари билан операцион ёки самарадорлик аудити мақсадларини аралаштирмасдан, ҳар бир йўналиш учун тегишли мезон ва далилларни белгилаш муҳим. Мазкур ёндашув инновацион инвестициялардан фойдаланиш шаффофлигини ошириш, рискларни эрта аниқлаш ва аграр корхоналарда асосланган бошқарув қарорларини қабул қилишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Илм-фан ва инновацион фаолият тўғрисида”ги Қонуни.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга оид фармон ва қарорлари.

3. Қишлоқ хўжалиги соҳасига оид илмий журналлар ва статистик тўпламлар.

4. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 315 (Revised 2019) — Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement.

5. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 330 — The Auditor’s Responses to Assessed Risks.

6. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 500 — Audit Evidence.

7. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 520 — Analytical Procedures.

8. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Digital Agriculture and AI Innovation. Rome: FAO.

O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

Saidahmedova Sarvinoz Tulqin qizi
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada turizm sohasining jahondagi va mamlaktimizdagi rivojlanish ko‘rsatkichlari holati tahlil qilinib, sohaning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivovojlanishidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, turist, xorijiy turist, raqobat, xizmatlar, brend, raqamli platforma.

Аннотатsiя. В статье проанализированы показатели развития сферы туризма в мире и в нашей стране, а также раскрыто значение отрасли в социально-экономическом развитии страны.

Ключевые слова: туризм, турист, иностранный турист, конкуренция, услуги, бренд, цифровая платформа.

Abstract. The article analyzes the current indicators of tourism development worldwide and in our country and highlights the importance of the tourism sector in the socio-economic development of the country.

Keywords: tourism, tourist, foreign tourist, competition, services, brand, digital platform.

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi, xususan, turizm hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari mintaqalarning iqtisodiy faolligini oshirish, ichki bozor barqarorligini ta’minlash, aholi bandligini kengaytirish va hududlar raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim omiliga aylanmoqda. Global bozorlarda raqobatning kuchayishi, iste’molchilar talabining tez o‘zgarishi va raqamli platformalarning jadal rivojlanishi turizm hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasida yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jahon Sayohat va Turizm Kengashi hamda Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yakunlari bo‘yicha yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar sohasi ulushining o‘sishi asosan sayohatlar va ular bilan bog‘liq tarmoqlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Xususan, turizm jahon iqtisodiyotining 10,3 %ni tashkil etgan bo‘lib[191], global turizm bozori hajmi 10 trillion yevroga yetgan, bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 6,7 %ga hamda 2019-yilda[192] qayd etilgan eng yuqori natijaga nisbatan 8,6 %ga yuqori bo‘lgan. Shu bois xizmatlar va turizm sohalari raqobatbardoshligini oshirish tendensiyasi nafaqat turistlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda, balki mamlakat yalpi ichki mahsulotida xizmatlar sohasi ulushini kengaytirish, hududlar va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish nuqtayi nazaridan ham alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda milliy turizm raqobatbardoshligini oshirish, raqamli servislarni samarali joriy etish, turistlar oqimini jalb etishda mahalliy

[191] https://www.worldbank.org/en/topic/competitiveness/brief/tourism-and-competitiveness
[192] https://wttc.org/research/economic-impact/tourism-data-statistics-regions-countries

hamjamiyatlar ishtirokini kengaytirish, global bozorda mamlakat turizm brendini mustahkamlash va ichki turizmni rivojlantirish sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan strategik hamda maqsadli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda turizm sohasini barqaror taraqqiy ettirish, uning ustuvor yo‘nalishlarini aniq belgilash hamda aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Jahonda alohida mamlakatlar bo‘yicha turizmning rivojlanish darajasini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkich – mamlakatga tashrif buyurgan chet ellik turistlar soni hisoblanadi. Shu bois, dastlab mamlakatimizga tashrif buyurgan chet ellik turistlar soni bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlil qilindi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari dinamikasi, ming kishi[193].

Rasmda keltirilgan statistik ma’lumotlardan mamlakatimizga tashrif buyuruvchi chet ellik turistlar sonining tahlil olib borilgan yillar mobaynida o‘sish tendensiyaga ega bo‘lganligi ma’lum bo‘ldi. Jumladan, 2020-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan chet ellik turistlar soni 1,5 million kishini, 2022-yilda 5,2 million kishini va 2023-yilda esa 6,6 million kishini tashkil etgan. Respublikamizga 2024-yilda tashrif buyurgan chet ellik turistlar soni 7957,2 kishiga yetib, ushbu ko‘rsatkich so‘nggi besh yil ichida ilk bor pandemiyadan oldingi, ya’ni 2019-yildagi 6748,5 ming kishidan 1208,7 nafarga oshdi. “So‘nggi yillarda mamlakatimizda turistik xizmatlar eksporti 1,6 baravarga oshib, 3,5 mlrd. dollarga yetdi. Ushbu sohada ikki mingdan ortiq yangi tadbirkor faoliyat boshladi. O‘tgan yili xorijiy turistlar soni ilk bor 10 mln. kishidan oshdi”[194]. Ushbu ijobiy holat pandemiya va undan keyingi davrda mamlakatimiz rahbari boshchiligida turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan izchil sa’y-harakatlar natijasidir. Respublikamizga chet el mamlakatlaridan tashrif buyurgan turistlar sonining yillar mobaynida o‘zgarish holati 1-jadvalda tahlil qilindi.

[193] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr

[194] Hududlarning turizm salohiyatini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025 yil 9-aprel kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari dinamikasi, ming kishi[195]

Yil lar	Turistlar soni, ming kishi	Farqi (+;-)		O‘zgarish sur’ati, %	
		2020 yilga nisbatan	Oldingi yilga nisbatan	2020 yilga nisbatan	Oldingi yilga nisbatan
2020	1504,1	-	-	100,0	100,0
2021	1881,4	377,3	377,3	125,1	125,1
2022	5232,8	3728,7	3351,4	347,9	278,1
2023	6626,3	5122,2	1393,5	440,5	126,6
2024	7957,2	6453,1	1330,9	529,0	120,1

Keltirilgan 1-jadval ma’lumotlari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Xorijiy turistlar tashrifi bo‘yicha O‘zbekiston pandemiyadan oldingi darajaning 118,0 foizini tashkil etdi. Jumladan, 2019-yilda O‘zbekistonga 6748,0 ming nafar xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 7957,2 ming nafarga yetdi. Bu esa mamlakatimizda turizm sohasining tez sur’atlar bilan rivojlanayotganligini ko‘rsatadi.

- Mamlakatimizga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni tahlil olib borilgan 2020-2024 yillar oralig‘ida barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Jumladan, 2020-yilga nisbatan 2021-yilda xorijiy turistlar soni 1,2 martaga, 2022-yilda 3,5 martaga, 2023-yilda 4,4 martaga va 2024-yilda esa 5,3 martaga ko‘paygan. Bunga esa quyidagi omillar ijobiy ta’sir ko‘rsatgan:

Birinchidan, mamlakatimizda viza rejimini soddalashtirish, sohaning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqish, soha bilan bog‘liq loyihalarga investitsiyalar kiritish.

Ikkinchidan, milliy turizm brendimizni keng targ‘ib va reklama qilinishi kabi amaliy ishlar olib borilganligi. Birgina 2024 yilda “O‘zbekiston turizm salohiyatini Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo-Tinch okeani, Yaqin Sharq, Xitoy va Markaziy Osiyo mintaqalarida keng targ‘ib qilish maqsadida “World Media Group” va “Blue Sky”, “Sky one”, “Wanderlust”, “Euronews”, “BBC”, “National Geographic”, “CNN” “Travel Tomorrow”, “Warner Bros. Discovery”, “Saga travel Group” xalqaro mediakorporatsiyalari, shuningdek, “Ctrip.com”, “Holiday factory”, “Voyage Prive” onlayn sayohat platformasi kabi bir qator xorijiy tashkilotlar va televideniyelar bilan shartnomalar asosida xalqaro miqyosda mamlakatimiz imiji ilgari surildi”[196].

Uchinchidan, turizm soxasi moddiy-texnika bazasining rivojlanganligi. “Hududlarda 124 ta yangi mehmonxona (yangi o‘rinlar soni 6,4 mingta) va 239 ta xostel (yangi o‘rinlar soni 7,6 mingta)lar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, jami joylashtirish ob’ektlari soni 6,1 mingtadan, ulardagi o‘rinlar soni 161 mingdan oshdi. 352 ta oilaviy mehmon uylari (yangi o‘rinlar soni 3,2 mingta) tashkil qilinib, ularning umumiy soni 3 752 taga o‘rinlar soni 33,5 mingtaga yetdi”[197].

[195] https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr
[196] https://xabar.uz/iqtisodiyot/otgan-yilda-turizm-xizmatlari-eksporti-35
[197] https://xabar.uz/iqtisodiyot/otgan-yilda-turizm-xizmatlari-eksporti-35

To‘rtinchidan, turistik infratuzilmaning rivojlanganligi. “Turistlar uchun xizmat ko‘rsatuvchi 866 ta yangi turistik tashkilot va turagentlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida ularning soni 3 686 taga yetdi. Respublika bo‘ylab 3 200 ta gid-ekskursovodlar faoliyat olib bormoqda, joriy yilning o‘zida 700 nafar gid-ekskursovodlar tayyorlandi”[198].

Beshinchidan, jaxon darajasidagi yirik tadbir va uchrashuvlarning o‘tkazilganligi. “2024-yilning 21-23 noyabr kunlari O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasi turizm sanoatining eng yorqin va yirik tadbiri – «Ipak yo‘lida turizm» Toshkent xalqaro turizm yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Yarmarkaga 20 mingdan ortiq kishi tashrif buyurdi va ular O‘zbekiston Respublikasining 14 hududidagi yangi manzillarning turizm salohiyatiga baho berish imkoniga ega bo‘ldilar. Bundan tashqari, Yarmarka doirasida “B2B” uchrashuvlar tashkil etilib, ularda 20 mingdan ortiq muzokaralar olib borildi va 8 mingdan ortiq bitimlar imzolandi. 2024-yilning 25-26 aprel kunlari “Shahrisabz – Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining turizm poytaxti” xalqaro forumi va “Xiva – 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti” shiori ostida 2024-yil 31-may – 2 iyun kunlari Xiva shahrida Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar turizm vazirlari XII yig‘ilishi tadbirlari yuqori saviyada o‘tkazildi. 2024-yil davomida 20 dan ortiq davlatlardan 100 dan ziyod xorijiy OAV vakillari, blogerlar va inflyuyenserlar uchun O‘zbekiston bo‘ylab 26 ta info va press-turlar tashkil qilindi”[199].

Oltinchidan, O‘zbekiston milliy turizm brendining jaxon tan olgan nufuzli nashrlarida e’lon qilinishi va turli tanlovlarda sovrinli mukofotlarni qo‘lga kiritishi. Jumladan, ““World of Statistics” O‘zbekistonni 2024-yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi davlatlar ro‘yxatiga kiritilganini e’lon qildi. Bu xorijiy turistlar soni ortishi, turizm eksporti hajmining oshishi hamda O‘zbekistonning yanada dunyoga tanilishiga xizmat qiladi” [200]. Shu bilan birga, “Butunjahon turizm tashkiloti O‘zbekistonni turizm xizmatlaridan tushgan tushumlar (eksport) bo‘yicha dunyo bo‘ylab “ikkinchi eng yaxshi yo‘nalish” sifatida ko‘rsatdi.

2024-yilda Respublika doirasida umumiy tarzda tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 7957,2 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, shundan 31,7 foizi Samarqand viloyatiga to‘g‘ri kelmoqda (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston va Samarqandga tashrif buyurgan xorijiy turistlar sonining taqqoslama taxlili

Yil-lar	O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni, ming kishi	Samarqandga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni, ming kishi	Xorijiy turistlarning ulushi, %da
2020	1504,1	52,0	3,5
2021	1881,4	119,0	6,3
2022	5232,8	1204,0	23,0
2023	6626,3	2150,0	32,4
2024	7957,2	2523,0	31,7

[198] https://xabar.uz/iqtisodiyot/otgan-yilda-turizm-xizmatlari-eksporti-35
[199] https://xabar.uz/iqtisodiyot/otgan-yilda-turizm-xizmatlari-eksporti-35
[200] 2030 yilgacha turizmni rivojlantirish uchun munosib sharoitlar yaratiladi

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020 yilda respublikamizga tashrif buyurgan jami xorijiy turistlardan – 3,5 foizi Samarqand viloyatiga tashrif buyurgan. Ushbu ko‘rsatkich 2020-yilda pandemiya tufayli keskin kamaygan bo‘lib 2021-yildan boshlab yana o‘sish tendensiyasini hosil qilgan. Jumladan, 2021-yilda viloyatga xorijdan kelgan turistlar sonining jami respublikamizga tashrif buyurganlardagi ulushi – 6,3 foizni, 2022-yilda – 23,0 foizni, 2023-yilda – 32,4 foizni va 2024-yilga kelib esa – 31,7 foizni tashkil qilgan. Ushbu ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, Samarqand viloyatiga 2024-yilda jami O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlarning salkam 1/3 qismi turli turistik maqsadlarda tashrif buyurgan.

Xulosa o‘rnida Samarqand 2020-yildan keyin turizm sohasida **yuqori o‘sish qilgan markazga** aylandi. O‘zbekistonga kelgan xorijiy turistlarning salkam 1/3 qismining aynan Samarqandni tanlashi viloyat va shaharning global darajadagi mashhurligini tasdiqlaydi.

Adbaiyotlar ro‘yxati

1. Hududlarning turizm salohiyatini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025 yil 9-aprel kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi.
2. https://www.worldbank.org/en/topic/competitiveness/brief/tourism-and-competitiveness
3. https://wttc.org/research/economic-impact/tourism-data-statistics-regions-countries
4. https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr
5. https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr
6. https://xabar.uz/iqtisodiyot/otgan-yilda-turizm-xizmatlari-eksporti-35

TURISTIK MAHSULOTLARNING JOZIBADORLIGINI TA’MINLASH VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

Saidahmedova Sarvinoz Tulqin qizi
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada jozibador turistik mahsulotlarni shakllantirish va turistik xizmatlar sifatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Turistik mahsulot jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinib, xizmat sifatini baholashning uslubiy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Turistik resurslar, xizmat sifati, turist qoniqishi va hududiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi metodologik model taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, turistik mahsulot, jozibadorlik, turistik xizmat, xizmat sifati, turistik resurs, turist qoniqishi, hududiy rivojlanish.

Аннотация. В статье рассмотрены основные направления формирования привлекательных туристских продуктов и повышения качества туристских услуг. Проанализированы факторы, влияющие на

привлекательность туристского продукта, а также методические аспекты оценки качества услуг. Предложена методологическая модель, отражающая взаимосвязь туристских ресурсов, качества услуг, удовлетворенности туристов и регионального развития.

Ключевые слова: туризм, туристский продукт, привлекательность, туристские услуги, качество услуг, туристские ресурсы, удовлетворенность туристов, региональное развитие.

Abstract. The article examines the main directions for developing attractive tourism products and improving the quality of tourism services. The factors influencing the attractiveness of tourism products and methodological aspects of service quality assessment are analyzed. A methodological model reflecting the relationship between tourism resources, service quality, tourist satisfaction, and regional development is proposed.

Keywords: tourism, tourism product, attractiveness, tourism services, service quality, tourism resources, tourist satisfaction, regional development.

Turizmning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan hudud imkoniyatlariga mos, turistlarda qiziqish uyg‘ota oladigan turistik mahsulotlarni shakllantirish hamda ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini muntazam yaxshilab borishga bog‘liq. Bunda turistik mahsulotning raqobatbardoshligini faqat hududning tabiiy va geografik imkoniyatlari bilan baholash yetarli emas. Turistning tanloviga xizmat ko‘rsatish madaniyati, infratuzilmaning holati, yangi xizmat turlarining joriy etilishi, shuningdek, turizm subyektlarining bozor talabidagi o‘zgarishlarga moslasha olish imkoniyati ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan turistik mahsulotni shakllantirishda hududning mavjud salohiyatidan kompleks foydalanish va xizmat ko‘rsatishning zamonaviy talablarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jozibador turistik mahsulot deganda turistning ehtiyoji, qiziqishi va sayohatdan kutayotgan natijalariga mos keladigan, muayyan hududning tabiiy, tarixiy-madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari asosida shakllantirilgan turistik takliflar majmuasini tushunish mumkin. Bunday mahsulot bozordagi boshqa takliflardan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanishi, turist uchun manfaat va taassurot yaratishi, ayni paytda hudud iqtisodiyotida qo‘shimcha qiymat shakllanishiga xizmat qilishi bilan tavsiflanadi.

Turistik mahsulotlarning jozibadorligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash masalalari xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida turli jihatlardan o‘rganilgan. P.Kotler, J.Bowen va S.Baloglu “turizm va mehmondo‘stlik marketingida iste’molchi uchun qiymat yaratish, turistik mahsulotni shakllantirish, xizmatlar marketingi va destinatsiyani bozorda ilgari surish masalalarini o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida tadqiq etadilar” [201] . Mazkur yondashuv turistik mahsulotning jozibadorligini faqat uning moddiy tarkibi bilan emas, balki turist oladigan xizmat va umumiy taassurot bilan birgalikda baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Turistik mahsulot mazmunini aniqlashda S.Smith tomonidan taklif etilgan yondashuv alohida ahamiyatga ega. Muallif “turistik mahsulot tarkibini beshta

[201] Kotler, P., Bowen, J.T., Baloglu, S. *Marketing for Hospitality and Tourism*. 8th ed. Pearson, 2022.

o‘zaro bog‘liq unsur - moddiy baza (physical plant), xizmat, mehmondo‘stlik, tanlash erkinligi va turistning jarayondagi ishtiroki orqali izohlaydi”[202]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, turistik mahsulot jozibadorligini baholashda faqat turistik resurs yoki obyektning mavjudligini emas, balki undan foydalanish sharoiti, xizmat ko‘rsatish darajasi, turistga yaratilgan tanlov imkoniyati va sayohat davomida shakllanadigan taassurotni ham hisobga olish lozim.

Xizmatlar sifatini o‘rganishda A.Parasuraman, V.A.Zeithaml va L.L.Berry tomonidan ishlab chiqilgan “SERVQUAL metodikasi muhim uslubiy asoslardan biri hisoblanadi”[203]. Mazkur usul iste’molchining xizmatdan kutgan natijasi bilan amalda qabul qilgan xizmat haqidagi bahosi o‘rtasidagi tafovutni aniqlashga asoslanadi. “SERVQUAL dastlab 22 ta ko‘rsatkich asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, xizmat sifatini moddiy jihatlar (tangibles), ishonchlilik (reliability), tezkorlik (responsiveness), ishonch uyg‘otish (assurance) va individual e’tibor (empathy) yo‘nalishlari bo‘yicha baholash imkonini beradi”[204].

Mazkur metodologik yondashuvlarni turistik mahsulotlarga tatbiq etish ularning jozibadorligi va xizmat sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqroq ochib berishga imkon beradi. Bunda turistik mahsulotning resurs salohiyati va tarkibiy elementlarini Smith yondashuvi asosida, turistga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifat darajasini esa SERVQUAL mezonlari orqali o‘rganish mumkin. Natijada turistik mahsulotni baholashda “resurs - turistik mahsulot - xizmat sifati - turist taassuroti” ketma-ketligidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv mahsulotning qaysi tarkibiy qismi turist talabiga yetarlicha javob bermayotganini aniqlash va xizmat sifatini oshirish bo‘yicha aniq choralarni belgilash imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotchilarning turizm sohasiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida ham turistik resurslardan oqilona foydalanish, moddiy-texnik bazani rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish darajasi va kadrlar malakasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu jihatdan turistik mahsulot jozibadorligini ta’minlash hududdagi mavjud resurslarning ko‘pligi bilangina emas, balki ularni turist ehtiyojiga mos xizmatlar majmuasiga aylantirish darajasi bilan ham bog‘liq.

Shundan kelib chiqib, jozibador turistik mahsulotni shakllantirishda uchta o‘zaro bog‘liq jihatni hisobga olish maqsadga muvofiq: hududning turistik salohiyatidan mahsulot yaratishda samarali foydalanish; shakllantirilgan mahsulotning maqsadli turistlar ehtiyojiga mosligini ta’minlash; xizmat ko‘rsatish jarayonida turist kutgan va amalda olgan sifat o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish. Ushbu jihatlarning uyg‘unligi turistik mahsulotning bozordagi jozibadorligini oshirish bilan bir qatorda, turistlarning qoniqish darajasi va takroriy tashriflar uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Turistik mahsulotning jozibadorligi hududning mavjud resurslari, ularni turistik taklifga aylantirish imkoniyati hamda xizmat ko‘rsatish sifati bilan uzviy

---

[202] Smith, S.L.J. The Tourism Product. *Annals of Tourism Research*. 1994. Vol. 21, No. 3. P. 582–595. DOI: 10.1016/0160-7383(94)90121-X.

[203] Parasuraman, A., Zeithaml, V.A., Berry, L.L. SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality. *Journal of Retailing*. 1988. Vol. 64, No. 1. P. 12–40.

[204] Parasuraman, A., Zeithaml, V.A., Berry, L.L. SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality. *Journal of Retailing*. 1988. Vol. 64, No. 1. P. 12–40.

bog‘liq. Shu sababli mazkur jarayonni alohida omillar doirasida emas, balki turist taassuroti va hududiy natijalarni ham qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu o‘zaro bog‘liqliklar 1-rasmda tizimlashtirilgan.



1-rasm. Jozibador turistik mahsulotlarni shakllantirish va turistik xizmatlar sifatini oshirishning metodologik modeli[205]

1-rasmda jozibador turistik mahsulotni shakllantirish jarayoni turistik resurslardan boshlab hududiy iqtisodiy natijalargacha bo‘lgan o‘zaro bog‘liq bosqichlar asosida ifodalangan. Modelga ko‘ra, dastlab hududning tabiiy, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari, mahalliy madaniyat va an’analar hamda mavjud raqobat ustunliklari turistik mahsulot yaratish uchun resurs bazasini shakllantiradi. Mazkur imkoniyatlarning turistik mahsulotga aylanishi esa maqsadli turist guruhlarini aniqlash, tur va marshrutlarni ishlab chiqish, xizmatlar tarkibini shakllantirish, yangicha yondashuvlardan foydalanish hamda taklifni bozor talabiga moslashtirish orqali amalga oshiriladi.

Modelda turistik mahsulotni shakllantirish bilan xizmat sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratilgan. Chunki mazmunan jozibador turistik taklif xizmat ko‘rsatish madaniyati, moddiy-texnik baza, xodimlarning malakasi, xavfsizlik va qulaylik darajasi bilan ta’minlanmasa, uning bozordagi ustunligini uzoq muddat saqlab qolish qiyin. Shu nuqtayi nazardan, turistik mahsulot tarkibini S. Smit yondashuvi, xizmat ko‘rsatish sifatini esa iste’molchi bahosiga asoslangan mezonlar orqali o‘rganish mahsulotning kuchli va takomillashtirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

[205] Ilmiy-tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Taklif etilgan modelning muhim jihati turistik mahsulot va xizmat sifatini yakuniy natijadan ajratib baholamasligidadir. Turistning sayohat davomida olgan taassuroti va qoniqish darajasi hudud haqidagi ijobiy tasavvur, takroriy tashrif hamda boshqalarga tavsiya qilish istagini shakllantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, turistik oqimning ko‘payishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, mahalliy daromadlarning oshishi, infratuzilmaning rivojlanishi va hudud turistik brendining mustahkamlanishiga olib keladi.

Shu tariqa, modelda turistik resurslarni shunchaki mavjud salohiyat sifatida emas, balki sifatli xizmatlar vositasida iqtisodiy va ijtimoiy qiymatga aylantiriladigan manba sifatida qarash taklif etiladi. Takroriy tashriflar va ijobiy tavsiyalar natijasida yuzaga keladigan teskari aloqa esa tizimning uzluksizligini ta’minlaydi. Natijada turistlarning ehtiyoj va baholaridagi o‘zgarishlarni turistik mahsulot tarkibi hamda xizmat ko‘rsatish jarayoniga muntazam kiritib borish uchun asos yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda olib borilgan tahlillar turistik mahsulotning jozibadorligi hududdagi turistik resurslarning mavjudligi bilangina belgilanmasligini ko‘rsatadi. Tabiiy va tarixiy-madaniy resurslarni turist ehtiyojiga mos xizmatlar majmuasiga aylantirish, xizmat ko‘rsatish darajasini yaxshilash, qulay va xavfsiz muhit yaratish hamda turistik taklifni bozor talabidagi o‘zgarishlarga moslashtirib borish jozibador mahsulot shakllanishining muhim shartlari hisoblanadi. Shu sababli turistik mahsulotni yaratish va xizmat sifatini oshirish bir-biridan alohida emas, o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida boshqarilishi lozim.

Tadqiqot doirasida shakllantirilgan metodologik model turistik resurslar salohiyati, turistik mahsulot tarkibi, xizmat ko‘rsatish sifati, turist taassuroti va hududiy rivojlanish natijalarini yagona tizimda birlashtirish imkonini beradi. Mazkur yondashuvning asosiy jihati turistik mahsulot samaradorligini faqat turistlar soni yoki ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bilan emas, balki turistning olgan taassuroti, qoniqish darajasi, takroriy tashrifga moyilligi va boshqalarga tavsiya qilish istagi bilan ham baholash zarurligidadir.

Turistik mahsulot tarkibini baholashda S. Smit yondashuvidagi moddiy baza, xizmat, mehmondo‘stlik, tanlash erkinligi va turistning jarayondagi ishtiroki kabi tarkibiy qismlardan foydalanish mahsulotning mazmuniy jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Xizmat sifatini iste’molchi nuqtayi nazaridan baholashda esa moddiy jihatlar, ishonchlilik, tezkorlik, ishonch uyg‘otish va individual e’tibor mezonlarini hisobga olish xizmat ko‘rsatish jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu ikki yondashuvning birgalikda qo‘llanilishi turistik mahsulotning mazmuni va uni turistga yetkazib berish sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, turistik mahsulotlarni rivojlantirishda hududlarning o‘ziga xos xususiyatlariga tayangan holda mahsulot portfelini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda an’anaviy ekskursiya va ziyorat yo‘nalishlari bilan cheklanmasdan, gastronomik, ekologik, qishloq, hunarmandchilik, madaniy-tadbir va boshqa turistik mahsulotlarni o‘zaro

uyg‘unlashtirish turistning hududda qolish muddatini uzaytirish hamda iste’mol qiladigan xizmatlari tarkibini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish uchun turizm korxonalarida turistlarning fikr-mulohazalarini muntazam o‘rganish amaliyotini kuchaytirish zarur. Bunda turist kutgan xizmat bilan amalda olgan xizmat o‘rtasidagi farqni aniqlash, aniqlangan kamchiliklarni xizmat ko‘rsatish jarayoniga tezkor ravishda kiritish va natijalarni qayta baholashga asoslangan uzluksiz mexanizmni yo‘lga qo‘yish lozim. Ayniqsa, joylashtirish, ovqatlanish, transport, ekskursiya va axborot xizmatlarida sifat ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq holda baholash turistning umumiy sayohat taassurotini yaxshilash imkonini beradi.

Shuningdek, turistik mahsulot jozibadorligini oshirishda mahalliy aholi va tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini kengaytirish muhim. Mahalliy gastronomiya, hunarmandchilik, urf-odat va an’analarni turistik mahsulot tarkibiga kiritish hududning o‘ziga xosligini saqlab qolish bilan birga, turizmdan olinadigan daromadning mahalliy iqtisodiyotda qolish ulushini oshiradi. Natijada turistik mahsulotning rivojlanishi nafaqat turistlar talabini qondirish, balki bandlikni ta’minlash, aholi daromadlarini ko‘paytirish va hudud infratuzilmasini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Umuman, jozibador turistik mahsulotni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishi mavjud resurslarni ko‘paytirishdan ko‘ra, ulardan turist uchun aniq qiymat va ijobiy taassurot yaratadigan tarzda foydalanishdan iborat. Turistik resurs, mahsulot, xizmat sifati va turist qoniqishi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash esa hududning turizm bozoridagi mavqeini mustahkamlash hamda turizmning barqaror rivojlanishiga erishish uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kotler P., Bowen J.T., Baloglu S. Marketing for Hospitality and Tourism. 8th ed. – Pearson, 2022.

2. Smith S.L.J. The Tourism Product // Annals of Tourism Research. – 1994. – Vol. 21, No. 3. – P. 582–595. DOI: 10.1016/0160-7383(94)90121-X.

3. Parasuraman A., Zeithaml V.A., Berry L.L. SERVQUAL: A Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality // Journal of Retailing. – 1988. – Vol. 64, No. 1. – P. 12–40.

4. Buhalis D. Marketing the Competitive Destination of the Future // Tourism Management. – 2000. – Vol. 21, No. 1. – P. 97–116. DOI: 10.1016/S0261-5177(99)00095-3.

5. Yoon Y., Uysal M. An Examination of the Effects of Motivation and Satisfaction on Destination Loyalty: A Structural Model // Tourism Management. – 2005. – Vol. 26, No. 1. – P. 45–56. DOI: 10.1016/j.tourman.2003.08.016.

6. Chen C.F., Tsai D.C. How Destination Image and Evaluative Factors Affect Behavioral Intentions? // Tourism Management. – 2007. – Vol. 28, No. 4. – P. 1115–1122. DOI: 10.1016/j.tourman.2006.07.007.

7. Ritchie J.R.B., Crouch G.I. The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective. – Wallingford: CABI Publishing, 2003.

8. UNWTO. A Practical Guide to Tourism Destination Management. – Madrid: World Tourism Organization, 2007.

9. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
10. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari. Monografiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2015.

BANKLARDA XARAJATLAR HISOBI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

“Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi asistenti Norqulov F.T.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli transformatsiya va bank tizimi transformatsiyasi sharoitida tijorat banklarida xarajatlar hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari, xarajatlar tarkibi va ularni tasniflash masalalari tadqiq etilgan. Mamlakatimiz bank tizimining umumiy statistik ma’lumotlari asosida foizli va operatsion xarajatlarning dinamikasi o‘rganilib, xarajatlar samaradorligi indekslari formula va jadvallar yordamida tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida bank xarajatlarini optimallashtirish va boshqaruv hisobini takomillashtirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Abstract: This article investigates the specific characteristics of cost accounting, cost structure, and classification issues in commercial banks under the conditions of digital and banking system transformation. Based on general statistical data of the national banking system, the dynamics of interest and operational expenses are studied, and financial efficiency indices such as are analyzed through mathematical formulas and structured tables. Concluding the research, strategic directions and practical recommendations for optimizing banking expenses and improving management accounting are developed.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, xarajatlar hisobi, boshqaruv hisobi, operatsion xarajatlar, optimallashtirish, raqamli bank.

Keywords: commercial bank, cost accounting, management accounting, operational expenses, cost optimization, digital banking.

Bugungi kunda global moliya bozoridagi integratsiya, yuqori raqobat, moliyaviy texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi va makroiqtisodiy noaniqliklar tijorat banklari zimmasiga o‘z xarajatlarini samarali boshqarish vazifasini yuklamoqda. O‘zbekiston bank tizimida olib borilayotgan transformatsiya jarayonlari, davlat ulushiga ega banklarni xususiylashtirish hamda xususiy kapitallarning faollashuvi moliya bozorida raqobat muhitini tubdan o‘zgartirdi.

Bank faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasi (sof foyda) bevosita xarajatlarning qay darajada to‘g‘ri hisobga olinishi, taqsimlanishi va nazorat qilinishiga bog‘liq. Moliya bozoridagi bunday dinamik o‘sish sharoitida an’anaviy hisob usullaridan matematik modellar va funksional ko‘rsatkichlarga asoslangan boshqaruv hisobiga o‘tish hamda xarajatlarni optimallashtirishning strategik yo‘nalishlarini belgilash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, moliya-statistika hisob-kitoblari, guruhlash hamda tarkibiy va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar bazasi va empirik asos sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulletenlari, bank tizimi faoliyatining yakuniy hisobotlari va reyting ko‘rsatkichlari olindi.

Tijorat banklarining xarajatlari — bu bankning o‘z faoliyatini amalga oshirishi jarayonida yuzaga keladigan va uning kapitali kamayishiga olib keladigan iqtisodiy resurslarning sarflanishidir. So‘nggi yillarda bank tizimining moliya-iqtisodiy ko‘rsatkichlarida keskin o‘sish va tarkibiy o‘zgarishlar kuzatildi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, bank tizimining jami sof foydasi va xarajatlar dinamikasi ijobiy o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ldi.

1-jadval:

Bank tizimining umumiy moliya-statistika ko‘rsatkichlari dinamikasi

Ko‘rsatkichlar nomi	2024-yil	2025-yil	O‘zgarish (%)
Jami bank aktivlari (trln. so‘m)	652,3	743,6	+14.0%
Jami sof foyda (trln. so‘m)	6,74	15,01	+122.5%
Foizli xarajatlar (trln. so‘m)	32,4	38,2	+17.9%
Operatsion xarajatlar (trln. so‘m)	14,8	18,5	+25.0%
Muammoli kreditlar (NPL) (trln. so‘m)	21,3	18,1	-15.0%

Bank faoliyatida xarajatlar tarkibi asosan uchta yirik guruhga bo‘linadi: foizli xarajatlar (50-55%), operatsion va ma'muriy xarajatlar (30-35%) hamda ehtimoliy yo‘qotishlar uchun zaxira ajratmalari (10-15%). Yuqoridagi statistik ma'lumotlar asosida bank tizimining samaradorlik koeffitsiyentlari hisoblab chiqildi.

2-jadval:

Hisoblangan moliya-samaradorlik koeffitsiyentlari (CIR, ROA, ROE) tahlili

Koeffitsiyent	2024-yil	2025-yil	Tendensiya va amaliy tahlil
CIR (%)	46,2%	41,5%	Ijobiy. Operatsion xarajatlar nazorati

			yaxshilangan, raqamlashtirish hisobiga o‘sish sur'ati jilovlangan.
ROA (%)	1,03%	2,02%	Ijobiy. Bank aktivlaridan foydalanish samaradorligi va daromadliligi deyarli 2 barobar ko‘paygan.
ROE (%)	6,8%	13,4%	Ijobiy. Banklar kapitalining rentabellik va jozibadorlik darajasi sezilarli darajada o‘sgan.

Statistik tahlillar va hisoblangan formulalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank tizimida operatsion xarajatlarning o‘sish sur’ati (25.0%) aktivlar o‘sish sur’atidan (14.0%) yuqori bo‘lgan. Bu raqamli infratuzilmani joriy etish, dasturiy ta’minot, kiberxavfsizlik va marketing xarajatlarining yuqoriligini anglatadi.

Biroq, CIR koeffitsiyentining 46,2% dan 41,5% gacha pasayishi juda ijobiy holatdir. Xalqaro banking me’yorlarida CIR koeffitsiyentining 50% dan past bo‘lishi bankning operatsion jihatdan samarali va optimal boshqarilayotganidan dalolat beradi.

Shunga qaramay, xarajatlar hisobini yuritishda qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda:

1. Ustama xarajatlarni taqsimlash muammosi: Bank ekotizimlari va mobil ilovalari orqali ko‘rsatilayotgan ko‘p sonli raqamli xizmatlarning har biriga to‘g‘ri keladigan ma’muriy xarajat ulushini an’anaviy buxgalteriya usulida aniqlash imkonsiz. Bu esa ayrim mahsulotlar tannarxini noto‘g‘ri baholashga olib keladi.

2. Dasturiy ta'minot tannarxi: IT-infratuzilmaga yo‘naltirilayotgan xarajatlarning kapitallashuv va amortizatsiya hisobi mexanizmlari mukammal emas.

O‘tkazilgan tadqiqot va moliya-statistika hisob-kitoblariga tayanib, tijorat banklarida xarajatlar hisobini takomillashtirish va ularni optimallashtirishning quyidagi strategik yo‘nalishlari taklif etiladi:

1. Ma'muriy va operatsion xarajatlarni an'anaviy guruhlar bo‘yicha emas, balki aniq funksional jarayonlar (operatsiyalar) va bank mahsulotlari kesimida hisobga olish mexanizmini avtomatlashtirish lozim.

2. Banklar nafaqat umumiy bank, balki har bir filial, mobil ilova va biznes-yo‘nalish (korporativ, chakana) kesimida alohida CIR koeffitsiyentini joriy etishi va xarajatlar budjetini shu ko‘rsatkich asosida rejalashtirishi zarur.

3. Raqamlashtirish va 'Paperless' texnologiyalar: Inson omili bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish uchun robotlashtirilgan jarayonlarni joriy etish hamda qog‘ozsiz hujjat aylanishiga to‘liq o‘tish orqali ma’muriy xarajatlarni qisqartirish.

4. Risk-menejment va zaxiralar hisobi: Kredit portfelidagi muammoli aktivlar (NPL) ulushini tizimli ravishda past darajada saqlash orqali ehtimoliy yo‘qotishlar zaxiralariga ajratiladigan xarajatlar yukini minimallashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi Qonuni

2. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi.

3. Tijorat banklarining daromadlari va xarajatlari tarkibi to‘g‘risidagi nizom.

4. Tursunov, U. S. Banklarda buxgalteriya hisobi va auditi. Darslik. – Toshkent: TDIU, 2021.

5. Abdukarimov, B. "Tijorat banklarida operatsion xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari". Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2024.

6. Xasanov, Sh. "Tijorat banklarida daromad va xarajatlar hisobining o‘ziga xos xususiyatlari". Zenodo open-access repository, 2023. **Шуъба:** «Бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудит».

YASHASH VA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINING NAZARIY MASALALARI

Ganiyev Firdavs Abduraufovich
SamISI mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Maqolada olib borilgan tadqiqotlar jarayonida xorijiy va mahalliy olimlarning «raqobat» tushunchasiga bergan ta’riflari, yondashuvlari qiyosiy o‘rganilib tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Raqobat, narx, sifat, reklama, servis, foyda, samaradorlik.

“Raqobat” nazariyasi qadimdan olimlar diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan va hozirgacha o‘rganilmoqda. Chunki har qanday jamiyatning rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyotining o‘sishi va yuksalishini ta’minlovchi, bozor sub’ektlarini harakatga keltiruvchi asosiy omil – “ko‘rinmas qo‘l[206]” raqobat hisoblanadi.

Raqobat masalasini tahlil qilish uchun fikrimizcha, avvalo uning mazmunini to‘liq ochib berish zarurdir. Shu sababli birinchi o‘rinda raqobat so‘zining lug‘aviy ma’nosiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

[206] Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Лондон, 1776 г.

Aslida “raqobat” so‘zi lotincha – “concurentia” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, to‘qnashmoq degan ma’noni anglatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “raqobat” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “kuzatish, nazorat” degan ma’noni anglatishi keltirilib, quyidagi 3 ta izoh berilgan:

1. basma-baslikka bellashuv; kim o‘zdi;
2. talabgorlar, raqiblar kurashi;
3. mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (korxona)lar o‘rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman, iqtisodiyotda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun kurash”[207], deyilgan.

Raqobat tushunchasiga iqtisodiy adabiyotlarda turlicha yondashuvlar borligini ko‘rish mumkin.

Klassik maktab namoyondasi A.Smit raqobatni xususiy va ijtimoiy ehtiyojlarni muvofiqlashtirish hamda mehnat va kapitalni samarali taqsimlanishi maqsadida, foyda normalarini tenglashtirish omili sifatida qaralishini o‘z tadqiqotlarida asoslagan. Adam Smitning ta’rifi bo‘yicha “foyda ketidan quvish va raqobat butun jamiyatga naf keltiruvchi faoliyat”[208]dir.

Raqobat va uning nazariyasi MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari tomonidan ham tadqiq etilib, uning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari takomillashtirilib kelinmoqda [209] . Jumladan, Yu.B.Rubin fikricha, «raqobat – biznesni boshqarishning asosiy kuchi sifatida maydonga chiqadi» hamda «tabiiy biologik jarayon kabi – doimiy rivojlanish harakatida bo‘ladi»[210] deb izohlaydi. Uning nazariy qarashlarida bozor munosabatlarining rivojlanib borishini ta’minlovchi vosita raqobat ekanligi o‘z tasdig‘ini topgan.

Raqobat tushunchasining mazmun mohiyatini yoritishda respublika iqtisodchi olimlari tomonidan berilgan bir qator ta’riflarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Professor M.M.Muhammedov rahbarligidagi mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan “Iqtisodiyot nazariyasi” darsligida, “**Raqobat** – bozor sub’ektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi”[211], deb ta’rif beradi.

A.O‘lmasov va A.Vahobovlar fikricha “**Raqobat** – bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining o‘z manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun bir-biri bilan kurashi,

---

[207] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.Ш. ЎзРФА Тил ва адабиёт институти. - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. -360-361 бетлар.

[208] Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Пер.с англ. – М.: Наука, 1993, 572 –с.

[209] Азоев Г.Л. Конкуренция: анализ, стратегия, практика // Г.Л.Азоев. – М.: Центр экономики и маркетинга, 2006. – 276 с.; Азоев Г.Л., Челенков А.П. Конкурентные преимущества фирмы. – М.: Типография, 2000. – 16 с.; Юданов А.Ю. Конкуренция: теория и практика. – М.: “Гром-Пресс”, 2002. – 112 с.; Фатхутдинов Р.А. Управление конкурентоспособностью организации. М.: Эксмо, 2004. – 544 с.; Кеворков В.В. Повышения конкурентоспособности компании: формирование рыночной стратегии и ее практическое осуществление // Библиотека «Российской газеты» – М.: 2005. № 12. – 215 с.; Гурков И. Инновационное развития и конкурентоспособность: Очерки развития 333 российских предприятий. // М.: ТЕИС, 2003.–177 с.; Тавсултанова А.Т. Управления конкурентоспособностью предприятий оптовой торговли // Дис. ... канд. экон. наук. – Махачкала.: 2006.; Балакшин В.В. Стратегия повышения конкурентоспособности торгового предприятия // Дис. ... канд. экон. наук. – М.: 2002.; Неустроева Н.Н. Повышение конкурентоспособности торгового предприятия // Дис. ... канд. экон. наук. – М.: 2010.; Ялунина Е.Н. Конкурентоспособность розничного торгового предприятия // Дис. ... канд. экон. наук. – Екатеринбург.: 2007.

[210] РубинЮ.Б. Теория и практика предпринимательской конкуренции. Учебник. 4 е изд. –М.:, О.О.Маркет ДС. 2004. – 782 с.

[211] Мухаммедов М.М., Пардаев М.Қ., Зайналов Ж.Р., Асланова Д.Ҳ. ва бошқ. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. - Т.: “Фан ва технологиялия”, 2018, 125-бет.

ularning o‘zaro bellashuvidir” [212] . Shunga yaqin ta’rifni M.A.Yusupov va Sh.D.Ergashxodjaevalar keltirib, “**Raqobat** iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z manfatlarini to‘laroq yuzaga chiqarish, ya’ni yaxshi daromad topish, o‘z mavqeini mustaxkamlash, o‘z qobiliyatini namoyon etish va imidj (obro‘-e’tibor)ga ega bo‘lish uchun boshqalar bilan kurashi”[213] - deb e’tirof etishganlar. Keltirilgan ta’riflarda raqobat tushunchasiga o‘z manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun kurash sifatida qaralgan.

Boshqa bir guruh olimlar esa “Raqobat deganda, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mahsulot (ish, xizmat)larini ko‘proq sotish, yuqori foyda olish va naflilikka erishish uchun iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashishida bir xil iqtisodiy erkinlikning ta’minlanganligi tushuniladi”[214], deb aytib o‘tadilar.

O‘zbekiston Respublikasining 2012 yildan kuchga kirgan “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni [215] ning 4-moddasida: “raqobat – xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo‘lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi”[216] deb ta’rif berilgan. Mazkur ta’rif, bir qarashda raqobat atamasining mazmunini to‘liq ifoda etadi. Ammo bizning fikrimizcha, uni yanada takomillashtirish bo‘yicha imkoniyatlar mavjud[217].

Birinchidan, unda faqat “tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasi” nazarda tutilmoqda. Vaholanki xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar nafaqat bular bilan cheklanib qoladi, balki o‘z faoliyati davomida ish bajaradi va turli xizmatlar ham ko‘rsatadi. Ular mazkur ta’rifda o‘z ifodasini topmagan.

Ikkinchidan, raqobatning asosiy maqsadi ko‘proq sotish va foyda olish uchun kurashdan iborat, ammo mazkur ta’rifda ushbu muhim jihat ham o‘z aksini topmagan.

Uchinchidan, mazkur ta’rifda keltirilgan “umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi” degan iboralar ortiqcha, deb o‘ylaymiz. Ko‘rinib turibdiki, qonunda ko‘rsatilgan raqobatning ta’rifi ham takomillashtirishni talab qiladi.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, “raqobat” tushunchasiga nazariy va amaliy jihatdan turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, bir-birlarini to‘ldirib borgan. Shu bilan birga yuqoridagi ta’riflar “raqobat” tushunchasining mazmun mohiyatini to‘liq ochib bergan deb ham ayta olmaymiz.

Yuqorida keltirilgan nazariy mulohazalar asosida raqobat tushunchasining nazariy jihatlarini tizimli ravishda umumlashtirish mumkin. Raqobatda ishtirok etuvchi bozor subyektlari, ular tomonidan qo‘llaniladigan qonuniy usullar, ko‘zlangan iqtisodiy maqsadlar hamda ushbu jarayon natijasida yuzaga keladigan

---

[212] Ўлмасов А., Ваҳобов А.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик.- Т.: “Шарқ” нашриёт –матбаа акциядорлик компанияси, 2006. 209-бет.
[213] Юсупов М.А., Эргашходжаева Ш.Д. Товарлар ва хизматлар маркетинги. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, Иқтисодиѐт, 2013, 22-бет.
[214] Савдо иқтисодиёти муаммолари: Ўқув қўлланма. Муаллифлар жамоаси. Ўқув қўлланма. – Т.: “Иқтисод-Молия”, 2016, 460-бет.
[215] Ўзбекистон Республикасининг “Рақобат тўғрисида”ги Қонуни. 2012 йил 6 январь, 319-сонли ЎРҚ.
[216] “Халқ сўзи”, 2012 йил 7 январь. 1–бет.
[217] Савдо иқтисодиёти муаммолари: Ўқув қўлланма. Муаллифлар жамоаси. Ўқув қўлланма. – Т.: “Иқтисод-Молия”, 2016, 459-460-бетлар.

ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Mazkur bog‘liqliklarning mantiqiy ketma-ketligi 1-rasmda ifodalangan.



1-rasm. Raqobatning nazariy jihatlari va uning iqtisodiyotdagi o‘rni

1-rasmda ko‘rsatilganidek, raqobat iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida faoliyat yurituvchi bozor subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu jarayonda ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar, sotuvchilar va xaridorlar o‘z iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda o‘zaro munosabatga kirishadi. Bunda narx siyosati, sifat, reklama, servis va xizmat ko‘rsatish darajasi kabi qonuniy vositalar raqobat ustunligini shakllantirishning asosiy omillari sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqobat xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun avvalo, bozordagi mavqeyini mustahkamlash, faoliyat samaradorligini oshirish va yuqori foyda olish bilan bog‘liq bo‘lsa, xaridorlar uchun maqbul narx va sifat nisbatiga ega tovar hamda xizmatlardan foydalanish orqali yuqori naflilikka erishishda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan raqobat bozor ishtirokchilarining turli iqtisodiy manfaatlarini o‘zaro muvofiqlashtiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Shuningdek, raqobatning kuchayishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish hamda innovatsion yechimlarni amaliyotga joriy etishga undaydi. Natijada korxonalarning bozor sharoitlariga moslashuvchanligi va faoliyat samaradorligi oshib, ularning uzoq muddatli rivojlanishi uchun zarur iqtisodiy imkoniyatlar shakllanadi.

Raqobatning ta’siri alohida korxona yoki iste’molchi manfaatlari doirasidagina cheklanib qolmaydi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligining oshishi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmining kengayishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, aholi daromadlari hamda turmush farovonligining yaxshilanishiga xizmat qiladi. O‘z navbatida, tadbirkorlik faolligining kengayishi natijasida davlat budjetiga soliq tushumlarining ko‘payishi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, raqobatni faqat bozor subyektlari o‘rtasidagi ustunlik uchun kurash sifatida emas, balki bozor subyektlari qonuniy raqobat usullari, iqtisodiy manfaatlar, innovatsion faollik, xo‘jalik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligida namoyon bo‘luvchi yaxlit iqtisodiy jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv raqobatning mikroiqtisodiy manfaatlardan makroiqtisodiy natijalargacha bo‘lgan ta’sir mexanizmini tizimli ravishda ochib berish imkonini beradi.

Хожимурадов Зухриддин Шукурулло
таянч докторант, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯСИ ЙЎҚОТИШЛАРИНИ ТЎРТ БОСҚИЧЛИ ТАСНИФЛАШ ВА УЛАРНИ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ МУСТАҚИЛ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА АКС ЭТТИРИШ

Аннотация. *Тезисда электр тармоқлари корхоналарида электр энергияси йўқотишларини бухгалтерия ҳисобининг мустақил объекти сифатида тан олиш масаласи тадқиқ этилган. Йўқотишларни тўрт босқичли (технологик-меъёрий, технологик-меъёрдан ортиқча, тижорат ва ташкилий-бошқарув) таснифлаш, уларни ҳисобга олиш учун 5914–5917 ва 2991 ишчи счётлар тизими ҳамда адолатли қиймат бўйича гуруҳланган баҳолаш усули (Grouped Fair Value Method) таклиф этилган.*

Калит сўзлар: электр энергияси йўқотишлари, тўрт босқичли тасниф, мустақил ҳисоб объекти, ишчи счётлар, адолатли қиймат, МҲХС 13, «Ҳудудий электр тармоқлари» АЖ.

